

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I Y A

A.X. RAHMONQULOV, D.M.MIRAZOV

DASTLABKI TERGOV

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan
IIV oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida ruxsat etilgan*

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig‘i
Sh.T.Ikramovning umumiy tahriri ostida

Toshkent – 2012

Mualliflar jamoasi:

- A. X. Rahmonqulov** – yuridik fanlar nomzodi, dotsent –I, II, III,IV, VII, VIII, XXII, XXIII, XXV, XXVI, XXVII, XXVIII, XXIX, XXX, XXXIV boblar;
D. M. Mirazov – yuridik fanlar nomzodi, dotsent – V, VI, IX, X, XI, XII, XIII, XIV, XV, XVI, XVII, XVIII, XIX, XX, XXI, XXIV, XXXI, XXXII, XXXIII boblar

Taqrizchilar:

O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov Bosh boshqarmasi;
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori **B.X.Pulatov**.

R-27 Raxmankulov A.X. Mirazov D.M.

Dastlabki tergov: Darslik (to'ldirilgan va o'zgartirilgan ikkinchi nashri)
– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 479-b.

Darslikda ichki ishlar organlaridagi tergov apparatlari va ularning huquqni muhofaza qilish faoliyatida tutgan o'rni, IIV tergov boshqarmalarida boshqaruvni tashkil qilish, tergov apparatida hisob va hisobot, tergovchining ishini tashkil qilish, dastlabki tergovning protsessual hujjatlarini tuzish kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi protsessual hujjatlar, tergovchi tergovning dastlabki bosqichida dalillarni to'plash jarayonida tuzadigan hujjatlari, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish va uni so'roq qilish bosqichida tuziladigan protsessual hujjatlar, ish bo'yicha tergov vaqtida protsessual majburlov va ehtiyot choralarini protsessual jihatdan mustahkamlash masalalari, ish bo'yicha dastlabki tergovni to'xtatish va qayta tiklash chog'ida tergovchi tuzadigan protsessual hujjatlar, tergovchining jinoyatlarning oldini olish bo'yicha faoliyati, tergovning tamomlanishi turlari, jinoyat ishini tugatish, ishni sudga yuborish bilan bog'liq ravishda tuziladigan ayblov xulosasi va protsessual hujjatlar, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasini hal qilish, yarashuv va amnistiya aktini qo'llash uchun ishni sudga yuborish haqidagi qaror, dastlabki tergov organlarining xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorligi, jinoyat ishining barcha materiallarini rasmiylashtirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining 2012-yil 7-yanvardagi holati bo'yicha tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lim muassasalarining tinglovchi va kursantlari, o'qituvchi, tadqiqotchi-izlanuvchilari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining amaliyotchi xodimlariga mo'ljallangan.

BBK 67.99 (5U)93ya73

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi 1997-yil 27-avgust qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralarida mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralari to‘g‘risida»gi 2004-yil 23-sentabrdagi qarori mamlakatimiz ichki ishlar idoralari uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlashni takomillashtirilishni taqozo etadi.

Ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish zamonaviy talablarga mos keladigan darsliklarni tayyorlashni talab etmoqda. Chunki shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon shart-sharoitlari huquqni muhofaza etish organlari xodimlarining zimmasiga katta mas’uliyat yuklamoqda va ularning kasbiy mahoratlariga jiddiy talablar qo‘yilmoqda.

Bu xususda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir”¹, deb ta’kidlagani bejiz emas.

Dastlabki tergov fani IIV Akademiyasida “tergov faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda o‘qitiladigan asosiy fandır. Uni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad – tinglovchilarda jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirish bo‘yicha bilimlarni egallashlariga erishish va dastlabki tergovning protsessual hujjatlarini tuzish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Darslikda asosan jinoyat-protsessual qonun hujjatlaridan va mamlakatimiz huquqiy fani mustaqillik davrida erishgan yutuqlardan foydalanilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlaridagi tergov apparatlari va ularning huquqni muhofaza qilish faoliyatida tutgan o‘rni, IIV tergov boshqarmalarida boshqaruvni tashkil qilish, tergov apparatida hisob va hisobot, tergovchining ishini tashkil qilish, dastlabki tergovning

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Т., 2010. – Б.7-9.

protsessual hujjatlarini tuzish kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi protsessual hujjatlar, tergovchi tergovning dastlabki bosqichida dalillarni to'plash jarayonida tuzadigan hujjatlari, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish va uni so'roq qilish bosqichida tuziladigan protsessual hujjatlar, ish bo'yicha tergov vaqtida protsessual majburlov va ehtiyot choralarini protsessual jihatdan mustahkamlash masalalari, ish bo'yicha dastlabki tergovni to'xtatish va qayta tiklash chog'ida tergovchi tuzadigan protsessual hujjatlar, tergovchining jinoyatlarni oldini olish bo'yicha faoliyati, tergovning tamomlanishi turlari, jinoyat ishini tugatish, ishni sudga yuborish bilan bog'liq ravishda tuziladigan ayblov xulosasi va protsessual hujjatlar, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasini hal qilish, yarashuv va amnistiya aktini qo'llash uchun ishni sudga yuborish haqidagi qaror, dastlabki tergov organlarining xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorligi, jinoyat ishining barcha materiallarini rasmiylashtirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

«Dastlabki tergov» darsligi mamlakatimizning ichki ishlar organlari uchun yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash hamda ularning turli jinoyatlarni tergov qilishga qaratilgan faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

1-BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TERGOV APPARATI VA UNING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI TIZIMIDAGI O‘RNI

1.1. Ichki ishlar organlari tergov apparatining asosiy vazifalari, funksiyalari va ahamiyati

Jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi organlar tizimida tergov apparati alohida o‘rin tutadi, tergovchilar esa ushbu kurashning oldingi qatorida turadilar. Ularning butun faoliyati jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishga qaratilgan. Tergov ishining yuksak darajada bo‘lishi jinoyatlarning oldini olishda eng samarali vositadir.

Tergov apparati, qaysi idoraga bo‘ysunishidan qat’i nazar, o‘z vazifalari, faoliyatining huquqiy tartibga solinishi va protsessual shakli (rejimi) bo‘yicha yagonadir. Tergov apparatining faoliyati jinoyat protsessining aniq doirasida amalga oshiriladi. Tergov organlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jinoyatlarni tez va to‘la ochish;
- aybdorlarni javobgarlikka tortish va jinoyat ishini sudda ko‘rib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash yoki hukm chiqarilgandan keyin haqiqatda qoplash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- jinoyatlar sodir etilishining sabablarini aniqlash va bunga yordam beruvchi sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko‘rish;
- fuqarolarni qonun-qoidalarga qat’iy rioya etish hamda huquqiy jihatdan madaniyatli va fuqarolik jamiyatiga sadoqatli qilib tarbiyalash.

Tergov apparatining ushbu vazifalari jinoyat protsessining maqsadlaridan kelib chiqadi. Jinoyat protsessi esa ketma-ket keluvchi quyidagi bosqichlardan tashkil topgan: jinoyat ishini qo‘zg‘atish; jinoyatni tergov qilish; jinoyat ishini sudda ko‘rib chiqish; hukmni ijro etish.

Jinoyat protsessi sodir etilgan jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni ko‘rib chiqishdan boshlanadi. Qonun surishtiruv organi, tergovchi, prokuror va sudyaga jinoyat ishini qo‘zg‘atish huquqini berish bilan cheklanib qolmasdan, ularga jinoyat alomatlari aniqlangan har bir hollarda o‘z vakolati doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atish, jinoyat hodisasini hamda uni sodir etishda aybdor shaxslarni aniqlash va ularni jazolashga qaratilgan barcha qonuniy choralarni ko‘rish vazifasini yuklagan.

Tergov ishining natijalari sodir etilgan jinoyatlarga oid arizalar va xabarlarni o'z vaqtida va to'la ko'rib chiqishga bog'liq. Afsuski, ushbu bosqichda xatolarga yo'l qo'yish, qonun talablarini buzish hollari tez-tez uchrab turadi. Ana shu bois ham Respublika Prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligining ko'rsatuvlarida jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz ravishda rad etish, jinoyatni hisobdan yashirish hollarini batamom tugatish zarurligi aytiladi. Sodir etilgan jinoyatlarni ro'yxatga olishda qat'iy tartib o'rnatish, jinoyat sodir etilganligi haqidagi har bir xabarga tegishli javob berish tergov apparatining asosiy vazifasidir. Agar jinoyatni tergov qilish davomida bunday xabarlarni ko'rib chiqish tartibi buzilganligi aniqlansa, tergovchi, ushbu holatga e'tibor berishi va tegishli chora ko'rish zarur.

Jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo'lgan dastlabki tergov jinoyat-protsessual qonun hujjatlaridan kelib chiquvchi bir qator xususiyatlarga ega. Dastlabki tergov sudgacha amalga oshiriladigan protsessual faoliyat ekanligi va uning davomida sudning jinoyat ishini to'la-to'kis hal qilishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilishi yuqorida qayd etilgan xususiyatlarni va vazifalarni belgilab beradi.

Dastlabki tergov mobaynida sud jinoyat ishini puxta o'rganib chiqishi hamda qonuniy va asoslangan qaror qabul qilishi uchun zamin yaratiladi. Sud ayblanuvchiga qo'yilgan ayblov doirasidan tashqari chiqishga haqli emas. Tergov amaliyotida uchraydigan xatolar tahlil etilganda ularning aksariyati o'tkazilgan tergovning sifatsizligi, ba'zan esa tergovchilarning noxolisligi va xatolari tufayli kelib chiqqanligi ma'lum bo'ladi. Tergov va sud faoliyatining aloqasi chambarchas bo'lib, ular yagona jarayonning turli vaqtda yuz beradigan ikki bosqichidir. Bu jinoyat-protsessual qonun hujjatlaridan kelib chiqadi.

Prokuror va tergovchi doimo sud amaliyotidan boxabar bo'lishi, jinoyat ishi sudda ko'rib chiqilganidan so'ng, tergov davomida yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etishi, o'tkazilgan tergovning sifatiga doir sudning fikriga e'tibor berishi zarur.

Sud muhokamasi o'zining xususiyatlari va oshkoraligi bilan o'tkazilgan tergovning kuchli va ojiz tomonlarini aniqlab beradi. Chunki tergovchi tomonidan bajarilgan jinoyat ishida, uning yutuqlari bilan birga, ba'zida xato va kamchiliklari ham ochiq ko'rinib turadi.

Qonunni bilish, jinoyat ishining barcha holatlarini har tomonlama va xolisona ko'rib chiqish, dalil-isbotlarni jamlagan holda ichki ishonch bo'yicha baholash va tergov tajribasi, tergovchiga jinoyat hodisasining isbotlanganligi, shuningdek, ayblanuvchining aybdorligi to'g'risida qaror chiqarishga yordam beradi. O'z qarorining to'g'riligi, ichki e'tiqodining

asoslanganligiga ishonch hosil qilmay turib, prokurorga ayblov xulosasini tasdiqlash uchun taqdim etib bo'lmaydi. Buning ustiga, agar dastlabki tergov yakunida ayblanuvchi va uning himoyachisi, jabrlanuvchi, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari iltimosnomalaridan kelib chiqqan holda ishda noaniqliklar, shubhalar, bahsli tomonlar qolganligini ko'rib turgan bo'lsa, tergovchi tergov yakunlanmasidan avval ushbu kamchiliklarni tugatishi, ular sudda tuzatilishiga umid qilmasligi kerak.

Tergov va sud amaliyotining o'zaro ta'siri, jinoyat ishlarini sudda ko'rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda dastlabki tergov sifatini yaxshilashga imkon beruvchi usullarni ishlab chiqish tergov apparati faoliyatini takomillashtirishning muhim shartidir.

Bayon etilganlarni inobatga olgan holda dastlabki tergovning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilash mumkin:

– jinoiy hodisa haqida kelib tushgan ariza yoki xabarni tergovga qadar tekshirish;

– jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal etish;

– jinoyat ishlari bo'yicha jinoyatlarni tergov qilish;

– jinoyatlarning oldini olish;

– fuqarolarni tarbiyalash va ma'rifatli qilish;

– tergov amaliyotini umumlashtirish va uni takomillashtirish choralarini ko'rish.

Tergovchilar jinoyat hodisasi bo'lganligi haqida berilgan ariza va xabarlarini tekshirishda ishtirok etadilar. Agar bunday axborot tasdiqlanmasa, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etiladi. Ammo agar jinoyat emas, boshqa bir delikt yoki qoidabuzarlik yuz bergan bo'lsa, ular ushbu qilmish bo'yicha chora ko'rish va uni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish maqsadida surishtiruv organlari va boshqa davlat muassasalari hamda jamoat birlashmalari bilan hamkorlikda harakat qiladilar.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masala tergovgacha o'tkazilgan tekshiruv natijalaridan kelib chiqib hal etiladi. Agar jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror chiqarilsa, bu ishni ushbu qarorni chiqargan tergovchining o'zi o'z yurituviga qabul qiladi yoki jinoyat ishi tergov o'tkazish uchun boshqa tergovchiga topshiriladi.

Jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq barcha protsessual harakatlar tergov idoralarida amalga oshiriladi. Bunda jinoyatlarni «issig'ida» tergov qilishga alohida e'tibor beriladi.

Har bir jinoyat ishi bo'yicha umumiy va yakka tartibdagi profilaktika amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda tergovchilar, sodir etilgan jinoyatni ochish va kelgusida oldini olish uchun jamoalar, jamoat birlashmalari

hamda ommaviy axborot vositalarining yordamidan foydalanadilar, shuningdek, jinoyatlarning umumiy profilaktikasini amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy tadbirlarni o'tkazadilar.

Tergovchi jinoyat ishini yuritishni yakunlab jinoyatlarning sabablarini va ularni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritadi va bir oylik muddat ichida taqdimnoma bo'yicha javob olishga erishishi lozim.

Tergov bo'linmalarida jinoyat ishlari bo'yicha tergov qilinayotgan jinoyatlarni o'rganish, tergovchiga yordam berish, ularning tajribasini umumlashtirish va tergov ishining sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish bilan shug'ullanadigan tergov faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat etish va axborot tahlil ta'minoti xizmati mavjud. Tajribaning ko'rsatishicha, ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarish hollarining soni ushbu bo'lim xodimlarining o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga bog'liqdir.

Tergov amaliyotini umumlashtirish natijasida amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritilishi mumkin.

Tergov apparatining faoliyati siyosiy, mafkuraviy va huquqiy ahamiyatga ega. Tergovchilarning ishi jinoyatchilikka va uni keltirib chiqaruvchi sabablarga qarshi kurashda eng kuchli quroldir, o'z usullari bilan mamlakatimizda mustaqillikni va suverenitetni mustahkamlash siyosatining o'tkazilishini ta'minlaydi.

Tergov apparatining mafkuraviy ahamiyati shundaki, u qonun normalariga, axloq qoidalariga hurmatni tarbiyalashning, fuqarolarda yuksak huquqiy ongni shakllantirishning qudratli vositasidir.

Tergov apparati faoliyatining huquqiy ahamiyati qonuniylikni va huquqiy tartibni mustahkamlash, huquqiy demokratik davlatni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

1.2. Tergov apparati faoliyatini normativ-huquqiy ta'minlash

Tergov apparatining faoliyati mamlakatimizning amaldagi Konstitutsiyasiga asoslanadi. Aynan Konstitutsiyada tergovchilarning ishi uchun nihoyatda zarur bo'lgan eng muhim prinsiplar, chunonchi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmaslik (20-m.), barchaning qonun oldida tengligi (21-m.), shaxslarning huquq va erkinliklarini xalqaro huquq normalariga mos ravishda ta'minlash (23-m.), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik (25-m.), aybsizlik prezumpsiyasi (26-m.), shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilishdan, uning shaxsiy hayotiga aralashishdan

himoyalaniş hamda uy-joyning daxlsizligi kabi huquqlari belgilangan.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalarining ustunligini Konstitutsiya darajasida tan olgan ekan, tergov apparati uchun bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Ularga quyidagilar kiradi: Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro hujjat, Qiynoqqa qarshi hamda shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini poymol etuvchi turdagi boshqa muomala va jazo turlariga qarshi konvensiya, G'ayri-qonuniy, o'zboshimcha va yig'indi qatlarning samarali oldini olish va tergov qilishning prinsiplari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining voyaga yetmaganlarni tergov qilishga doir minimal standart qoidalari («Pekin qoidalari»), Ushlangan yoki har qanday shaklda qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplarining majmuasi va boshqalar. Tergovchilar protsessual hujjatlarni tuzishda xalqaro-huquqiy hujjatlarga murojaat etmasalar-da, shunga qaramay, ularning faoliyati bunday hujjatlarga zid bo'lishi mumkin emas.

Tergov apparatining ishini ta'minlovchi asosiy huquqiy hujjat amaldagi JPKdir. Unda nafaqat tergov ishini tashkil etishning asosiy prinsiplari bayon etilgan, balki har bir protsessual va tergov harakati qat'iy tartibga solingan.

JPKga, har qanday soha qonunchiligi singari, doimiy ravishda o'zgartish va qo'shimchalar qo'shib boriladi. Tergov faoliyatiga taalluqli novellalar tergovchilarga tanish bo'lishi kerak va JPKga kiritiladi.

Har qanday huquqiy norma to'g'ri izohlanishi zarur. Ana shunday izohlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida beriladi. Ushbu qarorlarda yangi jinoyat-protsessual normalar bo'lmaydi, ammo jinoyatlarni tergov qilish vaqtida ularga amal qilish shart. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 17-sonli qarorida gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqi bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir kishiga shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik ta'minlanishini kafolatlovchi normalaridan kelib chiqadi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqi – yuzaga kelgan gumon, qo'yilgan aybni rad etish yoki javobgarlik va jazoni yumshatish uchun unga qonun bilan berilgan protsessual imkoniyatlar (vosita va usullar) yig'indisidir¹.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991-2006. Икки томлик. Т.2. – Т., 2006.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori, ichki ishlar vaziri, adliya vaziri ba‘zan tergov faoliyatiga taalluqli idoraviy normativ hujjatlarni chiqaradilar. Bunday hujjatlar ham dastlabki tergovni normativ jihatdan ta‘minlaydi. Ba‘zan ular ushbu hujjatlarni birgalikda qabul qiladilar, ammo tergov apparati qaysi idoraga mansub bo‘lmasin, har qanday holda ham ular tergovchilar uchun majburiydir.

Umuman jinoyat protsessi uchun ham, dastlabki tergov uchun ham xos bo‘lgan jihat uning jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan batafsil tartibga solinganligidir. Aynan mana shu hol dastlabki tergov vazifalari-ning bajarilishiga, jinoyat ishi bo‘yicha obyektiv haqiqatning aniqlanishiga yordam beradi.

Dastlabki tergov faoliyatida IIV idoraviy-normativ hujjatlari katta ahamiyatga ega. Ichki ishlar vazirining buyruqlari, yo‘riqnomalari va ko‘rsatuvlarida dastlabki tergovning qonuniyligiga, barcha protsessual normalarga qat‘iyan rioya etish zarurligiga e‘tibor qaratiladi, uning faoliyatidagi ko‘p takrorlanuvchi xatolar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ko‘rsatib o‘tiladi, tergovchilarning mehnatini ilmiy jihatdan mukammal tashkil etishga, shuningdek, tergov harakatlarini bajarish taktikasiga doir tavsiyalar beriladi.

Odatda, ichki ishlar vazirining buyruqlarida ichki ishlar organlari tergov apparatining faoliyatini yanada takomillashtirish va ishdagi kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida bir qator choralar ifodalab beriladi, ularni amalga oshirish Qoraqalpog‘iston Respublikasining ichki ishlar vaziri, viloyatlar IIB va Toshkent shahri IIBB boshliqlariga, ichki ishlar bo‘limlaridagi dastlabki tergovni yaxshilashga mas‘ul bo‘lgan barcha mansabdor shaxslarga yuklatiladi.

1.3. Tergov apparatini shakllanishi va uning rivojlanishi davrlarining qisqacha ta‘rifi

1917-yil oktabr voqealaridan keyingi yillarda hozirgi O‘zbekiston hududida tergov apparati hay‘at bo‘lib ishlovchi ko‘plab tergov komissiyalari shaklida tuzilgan. Tergov komissiyalari Sovetlar va turli inqilobiy tribunallar qoshida ishlagan. Ushbu davrda tergovni amalga oshirish masalalari ko‘p jihatdan sudlarning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan. Lekin tergov komissiyalariga taalluqli sohalarning kengayishi tamoyili ham kuzatilgan. Masalan, 1-sonli sud haqidagi dekret bo‘yicha ular faqat inqilobiy tribunallar sud qiladigan ishlarnigina tergov qilganlar, sud haqidagi 2-dekretga ko‘ra esa, yuqori turuvchi sudlarga taalluqli jinoyat ishlarini, sud haqidagi 3-dekretga

binoan esa – bundan tashqari, xalq sudiga taalluqli bo‘lgan, ammo muayyan murakkab jihatlarga ega bo‘lgan jinoyat ishlari ham ko‘rib chiqilgan.

Inqilobiy tribunallarning harbiy tergovchilari maxsus jinoyat ishlarini, ya’ni armiyada komandirlar va oddiy askarlar, shuningdek, xizmatchilar sodir etgan jinoyatlar haqidagi jinoiy ishlarni tergov qilganlar.

Dastlabki tergovni yuritish huquqiga, shuningdek, sud muassasasi amal qiladigan doirada sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlarni tergov qiluvchi sudya ham ega bo‘lgan. 1918-yil sentabrda Turkiston markaziy ijroiya qo‘mitasi o‘lka MIQ qoshida aksil inqilobchilik, olibsotarlik jinoyatlariga doir ishlarni tergov qiluvchi ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha Favqulodda Tergov Komissiyasi (CHK) ni ta’sis etdi. CHK faoliyatiga taalluqli ishlar doirasi mamlakat ichki va xalqaro mavqeiga qarab kengayib yoki torayib borgan. CHK ishlariga aksil inqilobiy jinoyat ishlaridan tashqari banditizm, pul belgilarini qalbakilashtirish kabi umumiy jinoyatlarga doir ishlar ham kirgan. 1919-yilda sobiq Turkiston ASSRda tergov organlari to‘la markazlashtirilgan. Tergovning yakkaboshchiligi prinsipi, S.A.Belousovning fikricha, dastlabki tergovni yuritishning eng yaxshi usuli bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda1.

TurkChK 1922-yilda qayta tashkil etilganidan va Turkiston respublikasi GPU tashkil etilganidan so‘ng davlat xavfsizligi organlari ish doirasiga yangi tuzum asoslariga tajovuz qiluvchi jinoyatlarga doir ishlar ham kiritildi.

Bunda davlat xavfsizligi organlarining tergovga tegishlilik sohasidagi to‘beligi namoyon bo‘libgina qolmay, balki muayyan tamoyil ham ko‘rina boshladi – dastlabki tergov organlari o‘zlari tarkibiga kirgan idoraga qarab tergovga taalluqlilik sohaslariga ega bo‘la boshladilar.

O‘rta Osiyoda milliy davlatchilik bo‘linishi o‘tkazilguniga qadar Buxoro Xalq Respublikasida xalq sudlarining sudloviga tegishli jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni sudyalarning o‘zlari va uchastka xalq tergovchilari o‘tkazganlar. Okrug sudining jinoyat bo‘linmalarida ro‘yxatda turgan katta tergovchilar okrug sudiga tegishli jinoyat ishlarini tergov qilganlar, Adliya nazorati prokuratura bo‘limi qoshidagi muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar esa Buxoro Respublikasining Oliy sudi sudloviga tegishli jinoyat ishlari bo‘yicha tergov olib borganlar. Inqilobga qarshi jinoyatlar bo‘yicha ishlarni Oliy inqilobiy tribunal tergovchilari, harbiy jinoyat, qurol-yarog‘ sotib olish va sotish, harbiy mulkni o‘g‘irlash kabi jinoyat ishlarini esa respublika Harbiy nazorati qoshidagi Harbiy tribunal tergovchilari tergov qilganlar.

Buxoro Xalq Respublikasida bundan tashqari, qozilar sudlari ham bo‘lgan va xalq qozilarining zimmasiga sud tergovchilari qonun bo‘yicha yuritmaydigan ishlarni dastlabki tergov qilish vazifasi yuklatilgan edi.

Xorazm Xalq Respublikasida umumiy jinoiy xususiyatga ega bo'lgan ishlar bilan qozilar shug'ullanganlar. Inqilobga qarshi chiqishlar, qalbaki pul yasash, mansab jinoyatlari kabi jinoyatlarni Oliy inqilobiy tribunal tergovchilari tergov qilganlar. Dezertirlik va harbiy xizmatchilarning boshqa jinoyatlari harbiy tribunal tergovchilariga yuklatilgan. Xorazm respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi qoshidagi CHK respublika uchun alohida xavf tug'diruvchi jinoyatlar chunonchi, banditizmga doir jinoyat ishlari bilan shug'ullanganlar.

Barcha organlar o'zlarining vakolatlariga tegishli bo'lgan muayyan hudud doirasida sodir etilgan jinoyatlarga doir jinoyat ishlarini tergov qilganlar. Bu esa hududiy tergovga tegishlilikni belgilab bergan.

Harbiy xizmatchilar sodir etgan jinoyatlarga doir ishlarining maxsus tergovga tegishliliigi mavjud bo'lgan. Bunday jinoyatlarni harbiy tribunallarning harbiy tergovchilari tergov qilganlar.

Turkiston ASSRning 1923-yilgi Sudlov haqidagi nizomi bo'yicha ma'muriy jihatdan sud tizimiga bo'ysunadigan, prokuratura tomonidan operativ boshqariladigan va nazorat qilinadigan tergov apparati hamda prokuratura tomonidan nazorat qilinadigan Davlat siyosiy boshqaruvining tergov apparati mavjud bo'lgan. Tergovchilar tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi militsiya organlarini nazorat qilgan. Bu bilan tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini albatta qo'shib olib borishga harakat qilingan.

O'zbekistonning 1926-yilgi JPK bo'yicha, tergovchilarning vakolatlari ular bo'ysunuvchi sudlarga tegishli bo'lgan jinoyat ishlarining doirasi bilan belgilangan. Ushbu vakolatlar sodir etilgan jinoyatning xususiyatiga, uning jamiyatga bo'lgan ta'siriga qarab ajratilgan, chunki yuqori turuvchi sudlarga eng murakkab jinoyatlarga doir jinoyat ishlari tegishli bo'lgan.

Hududiy tergovga tegishlilik qoidasiga binoan jinoyat ishi qaysi hududda sodir etilgan bo'lsa, o'sha uchastkaning tergovchisi tomonidan tergov qilingan, ya'ni dastlabki tergovning umumiy sharti, hududiy tergovga tegishlilikning yetakchi belgisi bo'lmish uchastka prinsipi mustahkamlab qo'yilgan.

Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura to'g'risidagi 1926-yilgi nizomga asosan harbiy xizmatchilar sodir etgan jinoyatlarga doir barcha ishlarni harbiy tergovchilar tergov qilganlar. Ularning maxsus tergovga tegishliliigi harbiy tribunallar vakolatiga kiruvchi ishlar doirasi bilan belgilangan.

1928-yilda O'zbekistonda Respublika davlat prokuraturasi tashkil etilgan paytdan boshlab tergov apparati operativ jihatdan ham, tashkiliy

jihatdan ham prokuratura ixtiyoriga berila boshlandi va prokuror tergovning rahbari bo'lib qoldi.

Respublikada 1929-yilda qabul qilingan ikkinchi JPKda tergov organlari tergovga tegishlilik hajmi bo'yichagina farqlangan. Jinoyatlarni NKVD organlari tergov qiladigan hollar maxsus qonunlar bilan belgilangan.

30-yillarda O'zbekistonda tergov organlarini tashkiliy jihatdan mustahkamlash, tumanlar va shaharlarda tergov apparatiga moddiy xizmat ko'rsatishni va uning mustaqilligini yaxshilashga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirildi. 1935-yilda tergov apparati respublika budjetiga o'tkazildi.

Tergovchilarga dastlabki tergov qilinishi shart bo'lgan har qanday jinoyat ishini surishtiruv organlariga oshirish huquqi berildi. Bu hol amalda dastlabki tergov va surishtiruv o'rtasidagi chegaraning yo'q qilinishiga olib keldi. Sobiq SSSR Prokurori va Adliya xalq komissarining 1938-yil 8-yanvar sirkulari bilan militsiya organlari, tergovchilar va idoraviy inspeksiyalar o'rtasida tergov qilish bo'yicha vazifalar ajratib qo'yildi. Masalan, davlatga qarshi jinoyatlar, o'ta xavfli boshqaruv tartibiga qarshi, talon-taroj qilish va boshqa murakkab jinoyat ishlari bo'yicha tergov ishlarini, albatta, tergovchilar, boshqa ishlarni tergov qilishni – militsiya organlari amalga oshirishi kerak bo'ldi. Idoraviy inspeksiyalar o'z vakolatlari doirasida surishtiruv ishlarini amalga oshirar va surishtiruv yakunlangach hujjatlarni prokurorga yo'llardilar. Voyaga yetmagan shaxslar sodir etgan jinoyatlarga doir ishlar maxsus tergovga tegishli bo'lgan bo'lib, ularni tergov qilish eng malakali tergovchilarga topshirilardi. Militsiya va surishtiruv organlari bunday jinoyatlarni tergov qilishlari mumkin bo'lmagan.

1940-yilda NKVDning idoraviy hujjati bilan militsiya organlarida tergov apparatlari tashkil etildi, ular 1958–1960-yillar qonun hujjatlari ikkinchi bor kodifikatsiya qilingan davrgacha ishlab turdi.

XX asrning 50-yillarning oxiri, 60-yillarning boshlarida qabul qilingan jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga binoan, dastlabki tergov organlariga prokuratura, davlat xavfsizligi organlari va ichki ishlar organlarining tergovchilari kiritildi. Bir qator boshqa davlat organlariga ham surishtiruvni amalga oshirish huquqi berildi. Tergovning ikki turi – dastlabki tergov va surishtiruv nazarda tutildi. Hozir amalda bo'lgan JPKda ham tergovning ana shunday tuzilishi nazarda tutilgan.

1.4. Dastlabki tergov organlari faoliyatining muammolari

Dastlabki tergov organlari zarur normativ-huquqiy bazaga ega bo'lishiga qaramay, tergov idoralarining ba'zi xodimlari uni hali yetarli emas deb hisoblaydilar. Ularning fikriga ko'ra tergovchilarning huquqlarini kengaytiruvchi va kafolatlovchi dastlabki tergov yoki jinoyatlarni tergov qilish to'g'risidagi qonun zarur. Ushbu fikr bo'yicha bahslashib o'tirmaymiz, chunki amaldagi JPK jinoyat protsessini tartibga solib turadi va, tabiiyki, u qanchalik mufassal bo'lmasin, tergov ishining barcha ikir-chikirlarini to'la aks ettira olmaydi. Shu bois dastlabki tergovning huquqiy asosini yana mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Davlat tergov qo'mitasini tuzish masalasi bo'yicha ham bahslar davom etmoqda. Yagona tergov apparati muammosini nazariy jihatdan S.A.Belousov tomonidan o'rganilgan. Biroq Qozog'iston Respublikasida Davlat tergov qo'mitasini tuzish muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ushbu muammo muayyan vaqt davomida kun tartibidan olib tashlandi, ammo hozirgi vaqtda u yuridik adabiyotda hanuzgacha muhokama qilinmoqda.

Sud-huquq islohotlarini amalga oshirish munosabati bilan surishtiruv organlarini to'laligicha tiklash va hatto ularning vakolatini kengaytirish muammosi turibdi. Chunonchi, JK moddalarining sanksiyalari bo'yicha besh yilgacha bo'lgan muddatga ozodlik mahrum etish nazarda tutilgan jinoyat ishlarini surishtiruv organlari to'liq tergov qilishlari taklif etilmoqda. Lekin ushbu tergov ilgari bo'lganidek, bayonnoma shaklida emas, balki ayblov xulosasini tuzib, jinoyat ishini sudga oshirish shaklida amalga oshirilishi kerak. Tergovchilar JK maxsus qismi moddalarining sanksiyalari bo'yicha besh yildan ortiq muddatga ozodlik mahrum etish nazarda tutilgan jinoyat ishlarini tergov qilishlari kerak. Muammoni bu tariqa hal etish juda istiqbolli ko'rinadi, ammo soliq va bojxona qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarning hammasini davlat soliq va bojxona qo'mitalarining surishtiruv organlari tergov qilishga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, bu idoralar o'z tergov apparatlariga ega bo'ladilar.

Tergov apparatini prokuraturadan chiqarib olib prokurorlarga faqat prokurorlik nazoratini amalga oshirish vazifasini qoldirish haqidagi masala bo'yicha bahslar bormoqda. Bu hol tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishda tergovchilar huquq va vakolatlarining kengayishiga hamda prokurorlar vakolatlarining torayishiga olib kelishi kerak.

Tergov apparatining sudga yaqinlashishi va uning prokuraturadan bir qadar mustaqil bo'lishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Lekin, ushbu tamoyilga tuzatish

kiritish uchun uzoq vaqt eksperimentlar o'tkazish zarur, bu esa qo'shimcha vaqt va mablag' talab etadi.

Tergov apparatini texnika bilan, xususan, avtotransport, kompyuter va kriminalistika texnikasi bilan ta'minlashni yaxshilash muammosi ham hal etishni talab etadi. Uning texnik jihozlanishi hozirgi vaqtda zamon talablaridan va bir qator xorijiy davlatlarda jinoyatlarni tergov qilishning tashkil etilish darajasidan ancha ortda qolmoqda.

Nazorat uchun savollar:

Ichki ishlar organlari tergov apparati qanday vazifa va funksiyalarni bajaradi?

Ichki ishlar organlari tergov apparati qanday tuzilgan?

Tergov apparatining jinoyatlarni tergov qilish faoliyati qanday idoraviy hujjatlar bilan tartibga solingan?

Ichki ishlar organlarida tergov apparati qachon tuzilgan?

Tergov apparatining tashkiliy rivojlanishidagi qaysi bosqichlarni bilasiz?

Ichki ishlar organlari tergov apparati faoliyatini takomillashtirish oldida qanday muammolar turibdi?

2-BOB. IIV TERGOV BO‘LINMALARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH

2.1. Ichki ishlar organlari tergov bo‘linmalarining tuzilishi

Hozirgi paytda respublikamiz Prezidentining 2001-yil 27-martdagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilinishidan so‘ng ichki ishlar idoralarining tergov bo‘linmalarida tub islohotlar amalga oshirildi, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 7-maydagi 206-35-sonli «Jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar Vazirligi tergov bo‘linmalari rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda tergov faoliyatini tashkil etishda zamonaviy kriminalistik texnika, kompyuter texnologiyalari, kriminalistik va tezkor ma‘lumot-axborot tizimlaridan samarali foydalanish, tergov qilishning shakl va usullarini takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish vazifasi qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 7-may kunidagi 206-35-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi IIV Tergov Bosh boshqarmasi haqidagi Nizomda quyidagilar qayd etilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tergov Bosh boshqarmasi (TBB) vazirlik markaziy apparati tarkibidagi Bosh boshqarma bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat — protsessual qonunlari asosida jinoyatlarning ochilishini, ularni o‘z vaqtida tergov qilinishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi dastlabki tergov idoralari faoliyatini tashkil etishni va muvofiqlashtirishni ta‘minlaydi.

Tergov Bosh boshqarmasi faoliyatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining dastlabki tergov va jinoyat ishlari bo‘yicha buyruq va ko‘rsatuvlari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan davlatlararo huquqiy shartnomalari, Ichki ishlar vazirligining boshqa me‘yoriy hujjatlari hamda TBB haqidagi Nizom tashkil etadi.

Tergov Bosh boshqarmasi o‘z faoliyatini shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, qonunchilik, adolat, fuqarolarning qonun oldida tengligi, aybsizlik prezumpsiyasi prinsiplariga asoslangan holda Respub-

lika davlat boshqaruv organlari, joylardagi davlat hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, jamoat birlashmalari va Ichki ishlar vazirligining boshqa xizmatlari bilan o‘zaro hamkorlikda olib boradi.

Ichki ishlar organlarining tergov idoralari tarkibiga:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tergov Bosh boshqarmasi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB Tergov boshqarmalari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIBlarga qarashli shahar, tuman, tarmoq IIBlarining tergov bo‘limlari, bo‘linmalari va guruhlar kiradi.

IIVning Tergov Bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomga asosan uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki ishlar idoralari tergovchilarining tergoviga tegishli jinoyatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tergov qilish, tergov faoliyatini tashkil etishda va tergov harakatlarini amalga oshirishda qonunchilikka katiy rioya qilinishini ta‘minlash;

jinoyat ishlarini tergov qilish, jinoyatchilarni aniqlash va ularni ushlab jarayonida jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash tuzilmalari, post-patrul va yo‘l-patrul xizmatlari, jinoyatchilikning oldini olish inspektorlari va ichki ishlar idoralari xizmatlari hamda huquqni muhofaza etuvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikni ta‘minlash;

tergov faoliyatini tashkil etishda zamonaviy kriminalistik uskunalaridan, kompyuter texnologiyalaridan, kriminalistik va tezkor ma‘lumotlar axborot tizimidan keng foydalanishlikni ta‘minlash, tergov faoliyatini amalga oshirishning usul va uslublarini takomillashtirish choralarini ko‘rish;

huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan profilaktik ishlarni kuchaytirishdan, jamoalarda, fuqarolarning yashash joylarida, ayniqsa yoshlar o‘rtasida amaldagi qonunlar haqida tushuntirishlar va targ‘ibot ishlarini olib borish;

jinoyatlarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni atroflicha tahlil qilishdan, ularni bartaraf etish to‘g‘risida takliflar tayyorlab, bu xaqda davlat, jamoat va boshqa tashkilot rahbarlariga tegishli choralar ko‘rish uchun taqdimnomalar kiritishdan, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish;

tergov apparatlarida ishlash uchun puxta kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan, ma‘naviy, irodali, axloqan pok kadrlarni tanlab, joy-joyiga qo‘yish;

tergovchilarning malakasini oshirish uchun ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va kasb mahoratini oshirish tizimini takomillashtirish, jinoyatchilikning muayyan turlariga qarshi kurashda tergovchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligini yuqori darajaga yetkazilishini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy surunkali o'qitish uslubi, shuningdek, texnologiyalaridan keng hamda samarali foydalanish;

tergov faoliyatida jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish jarayonida tergovchilarning jamoatchi yordamchilari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalaridan, shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Tergov Bosh boshqarmasi o'ziga yuklatilgan vazifalar bilan birga quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

tergov amaliyotini, dastlabki tergov idoralari ishini tashkil etilishini va ish natijalarini tahlil qiladi;

murakkab va ko'p voqeali o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha tergov ishlarini tashkil etadi va ularning tergovini olib boradi;

jinoyatlarni ochish, ularni tergov qilish, aybdorlarni fosh etish va jinoyat, jinoyat protsessual qonunchiligining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash borasida ichki ishlar idoralari xizmatlari faoliyatlarini muvofiqlashtirib boradi;

joylardagi ichki ishlar idoralari tergovchilari tomonidan olib borilayotgan mintaqalararo xarakterga ega bo'lgan jinoyat ishlarining tergovini muvofiqlashtirib boradi va zarurat tug'ilgan vaqtda mintaqalararo tergov guruhlarini tuzadi;

o'ta murakkab jinoyat ishlarining tergovi ustidan idoraviy nazorat o'rnatadi, ularni tergov qilishda zaruriy yordam ko'rsatadi, ushbu jinoyat ishlari yuzasidan nazorat kuzatuv ishlarini yuritadi;

dastlabki tergov idoralari amaliy va uslubiy yordam ko'rsatadi, ularning ishini tekshiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilishini nazorat qiladi;

dastlabki tergovning sifatini oshirish, muddatlarini qisqartirish, tergov faoliyatini amalga oshirishda qonunchilikka qat'iy rioya qilinishini ta'minlash, tergov ishlarining tashkil etilishini takomillashtirish yuzasidan choratadbirlar ishlab chiqadi va amaliyotga tadbiriq etadi;

o'rnatilgan tartibda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan, jinoyat ishlari yuzasidan xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga huquqiy hamkorlik masalalari bo'yicha murojaat qiladi va chet mamlakatlardan kelib tushgan shu kabi murojaatlarning ijrosini tashkil etadi;

dastlabki tergov harakatlarini olib borish, shu jumladan, chet davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rganadi, umumlashtiradi va ularni tergov faoliyatida tadbiq qilinishini tavsiya etadi, amaliyotda qo'llash uchun jinoyatlarning alohida turlarini tergov qilishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqadi;

huquqiy hujjatlarning loyihalari yuzasidan o'tkaziladigan ekspertizalarda ishtirok etadi;

dastlabki tergov idoralari faoliyatiga taaluqli qonunlar, idoraviy va idoralararo qonunosti huquqiy-me'yoriy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

dastlabki tergov idoralarining faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlarning hisobini yuritadi, ularga kiritilgan qo'shimcha va o'zgarishlar haqida quyi tergov idoralarini habardor qilib boradi;

dastlabki tergov muammolari yuzasidan kengashlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlarning o'tkazilishini, axborot hujjatlarini va Tergov Bosh boshqarmasining axborotnomasini chop etilishini tashkil etadi;

rahbar hodimlarni tanlash va joy —joyiga qo'yishni amalga oshiradi, tergov hodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirishni tashkil etadi, dastlabki tergov idoralarini zamonaviy kriminalistik uskunalar bilan ta'minlashda ishtirok etadi;

jinoyat ishlari bo'yicha olib borilayotgan dastlabki tergovlar yuzasidan fuqarolardan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalardan kelib tushgan xatlar, ariza va shikoyatlarni qonun asosida ko'rib chiqish va hal qilinishini tashkil etadi.

IIV Tergov Bosh boshqarmasining tuzilishi quyidagicha:

1) tergov faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat etish va axborot tahlil ta'minoti boshqarmasi;

2) og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni tergov qilish boshqarmasi;

3) korrupsiya, tovlamachilik va juda katta miqdordagi mulkni talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish bo'limi;

4) shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'limidan iborat.

Tergov Bosh boshqarmasiga uning boshlig'i rahbarlik qiladi, uning o'zi ichki ishlar vazirining o'rinbosari hisoblanadi¹. U O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan ichki ishlar vaziri tomonidan tayinlanadi va bevosita vazirga bo'ysunadi, hamda ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi.

¹ Ushbu maqom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-yanvardagi qaroriga asosan belgilangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB Tergov boshqarmalariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB boshliqlarining o‘rinbosarlari, Tergov boshqarmalari boshliqlari rahbarlik qiladilar va ular Tergov Bosh boshqarmasi boshlig‘i va IIVning hududiy boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomalariga ko‘ra Ichki ishlar Vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadilar.

Shahar, tuman, tarmoq IIB tergov bo‘limlari (bo‘linma, guruhleri) Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIBlarning tarkibidagi tuzilmalar bo‘lib hisoblanadi. Tergov faoliyatini tashkil etish va tergov harakatlarini olib borish masalalari yuzasidan ular bevosita IIVning hududiy boshqarmalari tergov idoralari boshliqlariga, ichki xizmat masalalari bo‘yicha esa ichki ishlar idoralari boshliqlariga bo‘ysunadi.

Shahar, tuman, tarmoq IIBlarining tergov bo‘limi (bo‘linma) boshliqlari, IIVning hududiy idoralari boshliq o‘rinbosarlari, Tergov boshqarmalar boshliqlari va shahar, tuman, tarmoq IIB boshliqlarining taqdimnomalariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB boshliqlari tomonidan tayinlanadilar.

Shahar, tuman, tarmoq IIBlarning tergov tuzilmalari tergovchilari, shahar, tuman va tarmoq IIB boshliqlarining taqdimnomalariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB boshliqlarining o‘rinbosarlari, Tergov boshqarmalari boshliqlari tomonidan tayinlanadilar.

Tergov Bosh boshqarmasining faoliyati ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

Tergov Bosh boshqarmasi faoliyatining qonuniyligi yuzasidan nazorat, qonun bo‘yicha o‘ziga berilgan huquq doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tomonidan olib boriladi.

Tergov Bosh boshqarmasi boshlig‘ining huquq va majburiyatlari:

Tergov Bosh boshqarmasi boshlig‘i:

amaldagi jinoyat protsessual qonunchiligi asosida o‘ziga berilgan protsessual vakolatlardan foydalanadi;

Tergov Bosh boshqarmasi ishini tashkil etish va Bosh boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda shaxsan javobgar hisoblanadi;

o‘rinbosarlarining va Bosh boshqarma tuzilmalari rahbarlarining xizmat majburiyatlarini belgilaydi;

o'z xizmat vakolati doirasida IIVning dastlabki tergov idoralariga tegishli masalalar bo'yicha ko'rsatuvlar, farmoyishlar beradi, belgilangan tartibda zaruriy ma'lumotlar va hujjatlarni talab qilib oladi, mazkur tergov idoralari rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

jinoyatlarni ochish va tergov qilishda vazirlik xizmati tizimlarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtiradi;

zarur hollarda, jinoyat protsessual qonunchiligi asosida jinoyat ishlarini bir tergovchidan ikkinchisiga olib beradi, tergov olib borishni tergovchilar guruhiga yoki Bosh boshqarma tergovchilariga yuklatadi;

o'rnatilgan tartibda ichki ishlar idoralari tergovchilarining ish yurituvdagi jinoyat ishlarini o'rganib chiqadi va asosli deb topilgan holatlarda, tergovchilarning dastlabki tergov va ayblanuvchilarni qamoqda ushlab turish muddatlarini uzaytirish haqidagi rasmiy iltimosnomalarini quvvatlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vaziriga Tergov Bosh boshqarmasi hodimlariga maxsus unvonlar berish haqida taqdimnomalar, ularni rag'batlantirish yoki intizomiy jazoga tortish masalalari yuzasidan takliflar kiritadi;

qonunda ko'rsatilgan tartibda, ichki ishlar idoralari tergovchilari ustidan fuqarolardan kelib tushgan ariza va murojaatlar bo'yicha hamda aniqlangan har bir qonunchilikni buzilishi holatlari yuzasidan tekshiruvlar o'tkazishni ta'minlaydi va tergovchilar harakatlarining qonuniyligini baholaydi;

o'rnatilgan tartibda maxsus unvonga ega bo'lgan Tergov Bosh boshqarmasi hodimlarini attestatsiyadan o'tkazadi;

belgilangan tartibda dastlabki tergov idoralarining tergov apparati hodimlariga maxsus unvonlar berish haqida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vaziri nomiga taqdimnomalar kiritadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB boshliqlarining o'rinbosarlari, Tergov boshqarmalari boshliqlarini lavozimga tayinlash hamda ularni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi.

Tergov Bosh boshqarmasining shtat jadvali, lavozimlar ro'yxati va hodimlarning maxsus unvonlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Tergov Bosh boshqarmasi tomonidan ish yurituv va maxfiylik tizimi bo'yicha tadbirlar qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tergov Bosh boshqarmasining moddiy texnika va boshqa ta'minotlari qonunda ko'rsatilgan tartibda boshqarma oldida turgan vazifalarni hal

qilish yuzasidan kelib chiqadigan zarurlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

IIV Tergov Bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan tashkil etiladi va tugatiladi.

2.2. Tergovchining huquqiy maqomi va vakolatlari

Tergovchi jinoyat protsessida o‘ziga xos mavqega ega. Uning faoliyati dastlabki tergovning uch bosqichida amalga oshiriladi: jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv va dastlabki tergov.

JPK 36-moddasiga binoan tergovchi jinoyat ishini qo‘zg‘atishga va tugatishga, ishni qo‘zg‘atishni rad etishga, jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab va so‘roq qilishga, JPKda nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to‘g‘risida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risida qaror chiqarishga, o‘zi yuritishga qabul qilgan ish bo‘yicha surishtiruv organlariga qidiruv va tergov harakatlarini bajarish to‘g‘risida yozma topshiriqlar berishga; surishtiruv organlaridan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko‘maklashishni talab qilishga haqlidir.

Qonunda prokurorning ruxsati olinishi kerak bo‘lgan hollardan tashqari tergov yo‘nalishi va tergov harakatlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi barcha qarorlarni tergovchi mustaqil qabul qiladi.

Tergovchi prokurorning shaxsni jinoyat ishiga ayblanuvchi tariqasida jalb etish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish va aybning hajmi, ehtiyot chorasi sifatida qamoq jazosini tanlash, jinoyat ishini sudga jo‘natish yoki jinoyat ishini to‘xtatish haqidagi topshiriqlari bilan kelishmagan taqdirda, u o‘z mulohazalarini yozma ravishda bayon etgan holda jinoyat ishini yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday holda yuqori turuvchi prokuror o‘zining qarori bilan quyi turuvchi prokurorning topshiriqlarini bekor qiladi yoxud ish bo‘yicha tergov qilishni boshqa tergovchiga topshiradi.

Tergovchining o‘z yurituvidagi ishlar bo‘yicha qonunga muvofiq ravishda bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlarini barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar bajarishlari shart.

Binobarin, tergovchi jinoyat-protsessual faoliyatning mustaqil subyektidir. Prokurordan (shuningdek, ichki ishlar organlari tergov bo‘linmasining boshlig‘idan) boshqa hech kim tergovchiga tergovni qay tariqa va qanday yo‘nalishda olib borish kerakligi, qanday tergov harakatlarini amalga oshirishi haqida topshiriqlar berishga haqli emas.

Qonuniylik manfaatlari tergovchilarning qonun ularning zimmasiga yuklagan huquq va majburiyatlarini aniq bajarishlarini talab qiladi. Protsessual huquq va majburiyatlarning uzviy aloqadorligi – tergovchi maqomining o‘ziga xos jihatidir. Masalan, qonunga binoan tergovchi asoslar bo‘lgan taqdirda jinoyat ishini qo‘zg‘atish huquqiga ega. Shu bilan birga, bu uning bevosita majburiyati hamdir. Ushbu majburiyatni bajarmaslik qonuniylikni va xizmat burchini buzish deb qaralmog‘i kerak.

Tergovchi dastlabki tergovni amalga oshirish chog‘ida jinoyat protsessining ishtirokchilari bilan huquqiy munosabatga kirishadi. Tergov davomida tergovchining o‘z boshlig‘i bilan munosabatlari ma‘muriy emas, balki protsessual xususiyatga ega bo‘ladi.

Tergovchi jinoyat ishining holatlarini har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirish uchun zarur deb hisoblagan qonunda nazarda tutilgan har qanday tergov harakatini amalga oshirishga haqlidir.

Tergovchi jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad etish, gumon qilinuvchini ushlab, ehtiyot chorasini tanlash (hibsga olishdan tashqari), jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish, ekspertiza tayinlash haqidagi va boshqa qarorlarni mustaqil qabul qiladi. Tergovchi tergovni rejalashtirish, tergov harakatlari va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish, to‘plangan dalillarni baholash, jinoyat ishi bo‘yicha qarorlar chiqarish ishlarini mustaqil amalga oshiradi.

Prokurorning dastlabki tergovni nazorat qilishi tergovchini mustaqillikdan mahrum qilmaydi va obro‘cini tushirmaydi, balki, aksincha, tergovchining barcha harakatlari qonun hujjatlari bilan qat‘iy tartibga solinishini, ayni payda, tergovni amalga oshirish chog‘ida qonuniylikka rioya etilishini ta‘minlaydi.

Tergovchi o‘z qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligi uchun to‘la javobgar bo‘ladi. Prokuror, o‘z navbatida, tergovchining jinoyatlarni tergov qilishning qonunda belgilangan tartibiga og‘ishmay amal qilishini kuzatib turishi va bu bilan har bir ish holatlarining har tomonlama to‘la, va xolisona tekshirilishini ta‘minlashi shart.

Tergovchi va uning rahbari (prokuror yoki tergov boshqarmasining boshlig‘i) o‘rtasidagi protsessual munosabatlar JPKda aniq tartibga solingan. Bunda tergovchining jinoyatchini fosh etishdagi tashabbuskorligi, mahorati qo‘llab-quvvatlanishi, uning mustaqilligining va shu bilan birga dastlabki tergovni o‘z vaqtida va qonunga muvofiq amalga oshirish uchun mas‘uliyati oshib borishi muhim.

Tergovchining protsessual mustaqilligini nafaqat protsessual, balki tashkiliy kafolatlar ham ta‘minlaydi. Ichki ishlar organlarida tuman va

shahar IIB tergovchilarini tayinlash va boshqa lavozimga o'tkazish, shuningdek, ishdan bo'shatish masalalarini faqat yuqori IIV–IIB rahbariyati hal qiladi. Faqat shu rahbariyatgina tergovchilarni ishdagi muvaffaqiyati uchun rag'batlantirish, xizmatdagi xatolari uchun intizomiy jazoga tortish, ularni shahodatlash, ularga maxsus unvonlar berishga haqlidir. Biroq tergovchining protsessual jihatdan mustaqilligini prokurorning dastlabki tergovdagi o'rniga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Tergovchi prokurorning ehtiyot choralarini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, ayrim tergov harakatlarini amalga oshirish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topish haqidagi yozma topshiriqlarini bajarishi shart.

Ayni paytda o'z prinsipial fikriga, asoslangan nuqtai nazariga va uni himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan tergovchining obro'si bo'lmaydi.

2.3. Tergovchining ishiga rahbarlik qilish

JPKning 37-moddasiga binoan, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari o'z vakolati doirasida tergovchilarning jinoyatlarini ochish va ularning oldini olish bo'yicha harakatlarining o'z vaqtida bo'lishini nazorat qiladilar, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovni to'la, har tomonlama va xolisona bo'lishi choralarini ko'radilar.

Tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari ishlarni tekshirib ko'rishga, shuningdek dastlabki tergov o'tkazish, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo'nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o'tkazish haqida tergovchiga ko'rsatuvlar berishga, ishni bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir necha tergovchiga topshirishga, shuningdek tergovchi vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergov olib borishda qatnashishga va dastlabki tergovni shaxsan o'zi olib borishga haqlidir.

Tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari jinoyat ishi yuzasidan topshiriqlarni yozma shaklda beradi va bu topshiriqlarning bajarilishi shart.

Olingan topshiriqlar yuzasidan prokurorga arz qilinishi ularni bajarishni to'xtatib qo'ymaydi. JPK 36-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan hollargina bundan mustasno.

Yuqorida bayon etilgan vakolatlardan ko'rinib turibdiki, tergov bo'linmalarining rahbarlari ma'muriy-tashkiliy funksiyalardan tashqari,

amalda protsessual funksiyalarni ham bajaradilar, chunki xizmat bo'yicha unga bo'ysunuvchi tergovchilarning ishi protsessual faoliyatdan iboratdir.

Tergov bo'linmasining boshlig'ini protsess ishtirokchilari doirasiga kiritish zaruriyati jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalaridan kelib chiquvchi qoidalarga asoslangan:

1. Tergov bo'linmasining boshlig'i qonun unga bergan keng protsessual huquq va tegishli majburiyatlarning subyekti bo'lib, ularni amalga oshirish jarayonida u o'zining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi aniq protsessual vazifalarni bajaradi. Uning protsessual faoliyatdagi ishtiroki avvalo, ushbu huquq va majburiyatlarni amalga oshirishda ifodalanadi.

2. Tergov bo'linmasi boshlig'ining protsessual huquq va majburiyatlarning hajmi va mazmuni shundayki, u ushbu huquq va majburiyatlarni amalga oshirish natijasida jinoyat-protsessual faoliyatning borishiga faol ta'sir etish imkoniga, ya'ni tergovchiga jinoyat ishining yo'nalishi (jumladan, uni to'xtatish), shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish va ayblov hajmi yuzasidan topshiriqlar berish va boshqa imkoniyatlarga ega.

3. Tergov bo'linmasining boshlig'i jinoyat protsessida nafaqat unga berilgan jinoyat-protsessual vakolatlar sababli, balki davlat uning zimmasiga yuklagan kasbiy burchi, jinoyatchilikka qarshi kurash majburiyatlari tufayli harakat qiladi. U JPK normalari talablarini amalga oshiradigan sud-tergov organlarining protsessual faoliyatida ishtirok etadi. Bundan tashqari, u dastlabki tergov organining mansabdor shaxsi bo'lib, o'z vakolati doirasida tergovchilarning faoliyatiga protsessual rahbarlik qiladi.

4. Tergov bo'linmasining boshlig'i o'z vakolatlarini amalga oshirar ekan, nafaqat tergov ishini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, balki ishni yuritishda ham bevosita ishtirok etadi: ishlarni tekshiradi, ular yuzasidan topshiriqlar beradi, tergovchilar o'tkazadigan protsessual harakatlarda ishtirok etadi va tergovchining vakolatlaridan foydalangan holda jinoyatlarni bevosita tergov qiladi.

5. Tergov bo'linmasining boshlig'i o'zining protsessual faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'zi rahbarlik qilishi kerak bo'lgan tergovchilar bilan, prokuror, surishtiruv organi, shuningdek, jinoyat ishida u yoki bu darajada ishtirok etayotgan shaxslar va tashkilotlar bilan jinoyat-protsessual munosabatga kirishadi.

6. Tergov bo'linmasining boshlig'i o'zi dastlabki tergovga rahbarlik qilish chog'ida ham, jinoyat ishlarini bevosita tergov qilish chog'ida ham bajaradigan jinoyat-protsessual faoliyati chog'ida yuzaga keladigan ko'plab masalalarni hal etishda protsessual mustaqillikka egadir. Bu esa uni jinoyat-

protsessual faoliyatining mustaqil va faol subyekti deb hisoblashga imkon beradi.

7. Tergov bo‘linmasi boshlig‘i butun protsessual faoliyatining asosiy mazmunini dastlabki tergovga, u o‘zining nazorat qilish va boshqa rahbarlik funksiyalarini amalga oshirish chog‘ida foydalanadigan protsessual-huquqiy vositalarga rahbarlik qilish tashkil etadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan qoidalar tergov bo‘linmasi boshlig‘ining faoliyat doirasini, uning dastlabki tergovda tutgan o‘rni va vazifasini ko‘rsatib beradi. Bu uning asosiy jinoyat-protsessual funksiyasini ichki ishlar hududiy yoki transport organi doirasida dastlabki tergovga protsessual rahbarlik qilish funksiyasi sifatida belgilash uchun asos beradi. Biroq tergov bo‘linmasi boshlig‘ining ushbu funksiyalariga birinchi darajali funksiyalar deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki u tergov funksiyasini ham amalga oshirishga, ya‘ni tergovchi vakolatidan foydalanib shaxsan dastlabki tergovni amalga oshirishga haqlidir. Shunday qilib, tergov bo‘linmasining boshlig‘i dastlabki tergovga protsessual rahbarlik qilish va tergov o‘tkazish funksiyasini bajarish davomida jinoyat protsessining ishtirokchisi bo‘ladi. Uning faoliyati butun jinoyat protsessining vazifalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dastlabki tergov vazifalarini bajarishga qaratilgan.

Ayni paytda, tergovchining oldida turgan vazifalarni bajarishda tergov bo‘linmasining boshlig‘i bevosita va faol ishtirok etadi. Qonun uni, bir tomondan, tergovchilarning jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish bo‘yicha harakatlarining o‘z vaqtida bo‘lishini nazorat qilishga, boshqa tomondan – jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni iloji boricha to‘la, har tomonlama va xolisona amalga oshirishning samarali choralarini ko‘rishga majbur etadi.

Tergov harakatlarini o‘z vaqtida amalga oshirishning o‘zi yagona maqsad emas, balki jinoyatni tez va to‘la ochishning zaruriy shartidir. Tergovchilar harakatlarining o‘z vaqtida bo‘lishini ta‘minlash – ularning qonunda belgilangan jinoyat holatlariga darhol javob berish, ya‘ni jinoyat ishini qo‘zg‘atish, jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish, aybdorlarni fosh etishga qaratilgan zarur tergov harakatlarini darhol amalga oshirish kabi talablarini bajarishlariga erishishdir. O‘z navbatida, dastlabki tergovning tezkorlik bilan amalga oshirilishi, jinoyatlarning oldi olinishini, fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning poymol etilgan qonuniy manfaatlarining tiklanishini ta‘minlaydi, jinoyatlarning to‘la ochilishiga, dalillarning to‘planishi va saqlanishiga, jinoyat ishi barcha holatlarining har tomonlama va xolisona tekshirilishiga, jinoyat protsessining tarbiyaviy va profilaktik ahamiyatini kuchaytirishga yordam beradi.

Tabiiyki, dastlabki tergovning o'z vaqtida va tezda o'tkazilishi uning sifatiga putur yetkazmasligi va qonuniylikka zarar keltirmasligi kerak. Bu qonunlarga qat'iy amal qilish esa tergov harakati va qarorlarining qonunda belgilangan tartibga aniq mos kelishini taqozo etadi. Aks holda tergov harakatlarini o'z vaqtida, ammo qonunda belgilangan qoidalarga zid ravishda amalga oshirish qonuniylikning buzilishi, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari poymol etilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, tergov bo'linmasi boshlig'ining majburiyatlariga tergovchilar harakatlarining qonuniyligini, shuningdek ular chiqaradigan qarorlarning asoslangan bo'lishini ta'minlash ham kiradi.

Tergov bo'linmasi boshlig'ining zimmasiga tergovchilarning jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyatidagi holatlarni to'la va xolisona tekshirishning to'laligi va har tomonlamaligini ta'minlash bo'yicha qonunda belgilangan choralarni ko'rish, ya'ni protsessual rahbarlik qilish vazifasi yuklanadi. Ushbu rahbarlikning mohiyati tergov bo'linmasi boshlig'ining o'z usullari va huquqiy vositalari bilan tergovchilarning faoliyatini jinoyat protsessining barcha vazifalari va maqsadlarini bajarishga yo'naltirishdan iborat. Rahbarning yo'naltiruvchi faoliyati sifatida tushuniladigan bunday rahbarlikni, tergov bo'linmasi boshlig'i jinoyat-protsessual qonun hujjatlari doirasida, unda belgilangan shakl va usullar asosida hamda tartibida amalga oshirishni dastlabki tergovda protsessual munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Ushbu rahbarlikning xususiyati shundaki, uni amalga oshirish davomida tergov bo'linmasining boshlig'i tergovchiga buyruq berish, uni tergovchining ichki ishonchiga qarshi bo'lgan masalalar bo'yicha qonunda qat'iy sanab o'tilgan protsessual xususiyatga ega bo'lgan u yoki bu qarorni chiqarishga majbur qilish huquqidan mahrum etilgandir.

Idoraviy xususiyatga ega bo'lgan protsessual rahbarlik nafaqat tergovchining protsessual mustaqilligini cheklamaydi, balki, aksincha, unga muvofiqdir, chunki tergovchi JPKda sanab o'tilgan hollarda tergov bo'linmasi boshlig'ining topshiriqlari bilan kelishmasligi mumkin.

Dastlabki tergovga protsessual rahbarlikni prokuror ham amalga oshirishi mumkin. Ammo prokurorning ushbu funksiyasi tergov bo'linmasi boshlig'ining xuddi shunday funksiyasidan mutlaqo farq qiladi. Prokuror uchun tergovga rahbarlik qilish o'zining nazorat qilish funksiyasini bajarish, jinoyatlarni tergov qilishning qonuniyligini ta'minlash usulidir. Jinoyatlarni tergov qilishning prokuror tomonidan nazorat qilinishi o'z ichiga uzviy tarkibiy qism sifatida tergovga rahbarlik qilishni oladi, to'laqonli va amaliy nazoratni amalga oshirish uchun muhim bo'lgan bunday rahbarlikning zarurligi va muqarrarligini taqozo etadi. Shunday qilib, agar prokuror uchun

tergovga protsessual rahbarlik qilish funksiyasi uning qonuniylikni nazorat qilish bo'yicha asosiy vazifasidan kelib chiqsa, tergov bo'linmasining boshlig'i uchun uning tergov bo'linmasiga rahbarlik qilishdan iborat idoraviy vazifasidan hosiladir. Tergov bo'linmasining boshlig'i uchun dastlabki tergovga rahbarlik qilish – uning faoliyatining mohiyati, prokuror uchun esa – uning asosiy konstitutsiyaviy funksiyasini – qonuniylikni oliy darajada nazorat qilish vazifasini bajarish usulidir. Prokuror ham, tergov bo'linmasining boshlig'i ham amalga oshiradigan dastlabki tergovga rahbarlik qilishning o'ziga xos jihatini ularning tergovchining oldiga muayyan protsessual masalalarni qo'yish va ularni qanday hal etishni topshirishga haqli ekanligi tashkil etadi. Prokuror bundan tashqari ushbu masalalarni bevosita hal etishga haqlidir.

Ikkovi ham o'zlarining hokimiyatni-taqsimlanishi xususiyatiga ega bo'lgan vakolatlarini amalga oshira borib, tergovchilarning dastlabki tergovni amalga oshirish faoliyatini yo'naltirib turadilar. Ular tergovchilarning jinoyat ishlarini tekshirishga, ular yuzasidan bajarilishi shart bo'lgan topshiriqlar berishga, tergovda ishtirok etishga, tergovni amalga oshirishni bir necha tergovchiga topshirishga va boshqa vakolatlarga ega. Ammo agar prokuror har qanday idora (prokuratura, MXX, IIV) tergovchilarining faoliyatini nazorat qilsa, tergov bo'linmasining boshlig'i faqat o'zi xizmat qilayotgan idoraning tergov bo'linmasiga rahbarlik qiladi. Prokuror barcha tergov organlari ustidan hal qiluvchi protsessual hokimiyatga ega va tergovchining har qanday noqonuniy va asoslanmagan qarorini bekor qilishga haqlidir, tergov bo'linmasining boshlig'i esa bunday huquqlarga ega emas.

Tergov bo'linmasi boshlig'ining faoliyati ham prokurorning protsessual rahbarligi ostidadir. Prokurorning jinoyat ishlari yuzasidan bergan topshiriqlari tergov bo'linmasi boshlig'i uchun majburiy bo'lib, ushbu topshiriqlar yuzasidan shikoyat qilish uning topshiriqlarini bajarish majburiyatidan ozod qilmaydi. Buning ustiga, tergovchi tergov bo'linmasi boshlig'ining topshiriqlari yuzasidan shikoyat bergan taqdirda prokuror ularni bekor qilishga haqlidir, tergov bo'linmasining boshlig'i esa bunday huquqqa ega emas.

Tergov bo'linmasi boshlig'ining tergovchilar faoliyatini nazorat qilishi uning dastlabki tergovga protsessual rahbarlik qilish vakolatining uzviy tarkibiy qismidir. Uning faoliyatida ushbu nazorat rahbarning funksional vazifasi, rahbarlikning elementi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazorat o'z mazmuniga ko'ra protsessualdir, chunki uni belgilangan tartibda tayinlangan va qonun tomonidan muayyan protsessual vakolatlar berilgan mansabdor shaxs tergov qilinayotgan jinoyat ishi munosabati bilan amalga oshiradi.

Ayni paytda ushbu nazorat idoraviy xususiyatga ega, chunki uni tergovchi bilan bir idorada ishlayotgan yuqori turuvchi mansabdor shaxs amalga oshiradi va ular tergov qilayotgan jinoyat ishlariga va hujjatlargagina taalluqlidir. Ushbu nazorat xizmat yuzasidan mazkur tergov apparatining boshlig'iga bevosita bo'ysunuvchi tergovchilarning ham, ayni bir idoraning yuqori turuvchi bo'linmalari tergovchilarining ham faoliyatini qamrab oladi.

O'zining hajmi va mazmuni bo'yicha tergov bo'linmasi boshlig'ining vakolatlari ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, unga jinoyat ishlarini tergov qilish bo'yicha tergovchilarga rahbarlik qilish uchun berilgan bevosita vakolatlari, boshqa tomondan – u dastlabki tergovni shaxsan amalga oshirganda foydalanadigan vakolatlari.

Tergov bo'linmasining rahbarlik vakolatlarida uning tergovchilar faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirishiga yordam beradigan huquqiy vositalarining xilma-xilligi mavjud bo'lib, u tergovning borishi va tartibini nazorat qilishni ham qamrab oladi. Ularga jinoyat ishlarini tekshirish, tergovchiga topshiriqlar berish, jinoyat ishini bir tergovchidan olib boshqasiga berish, jinoyat ishini tergov qilishni bir necha tergovchiga topshirish, tergovda ishtirok etish va tergovni shaxsan amalga oshirish kiradi.

2.4. Dastlabki tergovda qonuniylikni mustahkamlash choralari

Qonuniylikni mustahkamlash obyektiv qonuniyat bo'lib, o'z holicha ravishda amalga oshirilmaydi, balki ishontirish va majburlash usullari orqali ta'minlanadi. Davlatning majburlash kuchi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda davlat va huquqning birligi va aloqadorligi namoyon bo'ladi.

Qonuniylikning buzilish sabablarini tahlil qilish dastlabki tergovda qonuniylik mustahkamlanishi uchun avvalo qonunlarning lozim darajadagi sifatga ega bo'lishi va ularning demokratik yo'l bilan qabul qilinishi zarurligini ko'rsatmoqda. Bunga mamlakatimiz mustaqilligi davrida insonparvar demokratik davlatni shakllantirish uchun huquqiy baza yaratilganligi bilan erishilmoqda.

Qonuniylikning, jumladan dastlabki tergovda qonuniylikning kafolati jamiyatning iqtisodiy tuzumi, shuningdek, boshqa umumiy (siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy) kafolatlar bilan belgilanadi. Eng muhim yuridik kafolatlarga quyidagilar kiradi:

1) bozor munosabatlarini huquqiy tartibga solishning takomillashganligi (biz ko'rayotgan muammo bo'yicha – jinoyat va jinoyat-protsessual tartibga solish), uning ishlanganligi, to'laligi, aniq-ravshanligi, ziddiyatsizligi;

2) huquqiy madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligi va obro'ga ega ekanligi;

3) qonuniylikka rioya etilishini tekshirish va nazorat qilishning, avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan samarali tizimi mavjudligi;

4) barcha tergov bo‘linmalarining sifatli va samarali ishlashi;

5) samarali majburlov choralari (jinoiyat tufayli buzilgan ijtimoiy munosabatlarning holatini tiklashga, aybdorga huquqiy ko‘rsatuvlar orqali ta’sir etishga qaratilgan javobgarlik choralari va himoya choralari)ning mavjudligi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, insonlar taqdirini hal etuvchi dastlabki tergov organlarining faoliyatida qonuniylikka qat’iy va og‘ishmay rioya etish alohida ahamiyatga ega. Bunda hech qanday qonundan chekinish, qonunni aylanib o‘tish, qonunga bo‘ysunmaslikka toqat qilib bo‘lmaydi. Hatto jinoyatni ochishga, uni sodir etishda aybdor shaxsni aniqlashga bo‘lgan harakat ham qonunni buzishni oqlay olmaydi, chunki har qanday g‘ayriqonuniy harakat, u nima bilan asoslanmasin, jamiyatga, uning fuqarolariga katta ziyon, axloqiy zarar keltiradi. Dastlabki tergovda, xuddi ko‘zgudagi kabi, ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat ko‘p qirrali faoliyatining natijalari aks etadi: tergov hujjatlari bo‘yicha sud va xalq qonuniylik va adolat haqida, jinoyatchilikka qarshi kurashning operativligi va mahorati haqida xulosa qilishi mumkin.

Jinoyatlarni ochish va tergov qilish faoliyatining xususiyati (bu esa tafakkurning mahsuldor ijodiy tarkibiy qismi katta bo‘lgan turlaridan biridir) tergovchining dunyoqarashiga, kasbiy madaniyati va mahoratiga qo‘yiladigan katta talabni belgilab beradi.

Boshqa bir qator faoliyat turlaridan farqli o‘laroq jinoyat-protsessual faoliyat huquq normalari bilan mukammal darajada tartibga solingan. Isbotlash nazariyasiga oid ishlarda ta’kidlanishicha, protsessual qonun faoliyatning isbotlovchi axborotga yo‘l qo‘yilish shartlarini belgilovchi batafsil (sinchkov va mufassal) tartibiga egadir. Ushbu tartib jinoyat ishi materiallariga axborotning faqat qat’iy cheklangan manbalaridan va uni to‘plashning barcha qoidalariga rioya etgan holda kelishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu shartlarga javob bermaydigan qolgan barcha (hatto qiziqarli va muhim) ma’lumotlar, aslida, yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan hol sifatida chiqarib tashlanadi. Shu tariqa protsessual tartib ilgariroq harakat qiladi, ya’ni axborotning mazmunini baholashdan avval va ish bo‘yicha dalillarni to‘plovchi va tekshiruvchi shaxslarning fikriga bog‘liq bo‘lmagan ravishda amal qiladi.

Protsessual shakllarning mazmuniy tomonini qonun chiqaruvchi organ jinoyat qonunining fuqarolar huquqi va erkinliklarini eng kam darajada zaruriy cheklash va ijtimoiy, individual ongga ijobiy ijtimoiy-siyosiy ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshirishini ta’minlaydigan shaklda ifodalanadigan protsessual kafolatlar belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi IIVda doimiy ravishda tergovchilar, shuningdek, surishtiruv xodimlari tomonidan, sodir etilgan jinoyatning barcha holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirish talablarini bajarish, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining qoidalariga, jinoyat protsessi ishtirokchilari va fuqarolarning boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya etish uchun mas'uliyatini oshirishga qaratilgan choralar ko'riladi. Biroq ba'zan ayrim xodimlarning xizmat burchini bajarishga shaxsiy mas'uliyat hissini yo'qotishi oqibatida dastlabki tergovda hali ham dalillarni to'plash, qayd etish va tekshirishga, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar va jabrlanuvchilarning fikrlariga nisbatan mensimay munosabatda bo'lish, ayblovni inkor etuvchi yoki shubha ostiga qo'yuvchi holatlarni chetlab o'tish hollari uchrab turibdi. Natijada shaxsning daxlsizligini ta'minlovchi konstitutsiyaviy kafolatlarning buzilishiga, fuqarolarning g'ayriqonuniy va asossiz ravishda tintuv qilinishiga, ushlab turilishiga va qamoqqa olinishiga, ularning jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yilmoqda. Hatto tergov qilishning ruxsat etilmagan usullarining qo'llanishi hollari uchrab turibdi. Bularning hech biri qonundan biron-bir tarzda chetga chiqish imkoniyatini yo'q qiluvchi sharoitni yaratishga, yuksak darajadagi huquqiy madaniyatni tarbiyalashga, ishda haqiqiy professionalizmni qaror toptirishga yordam bermaydi, dastlabki tergovning samaradorligini pasaytiradi.

Respublika IIV doimo tergov va surishtiruv organlarining xodimlaridan fuqarolarning shaxsi va uy-joyi daxlsizligidek konstitutsiyaviy kafolatlarga, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining har tomonlama, to'liq va xolisona tergov qilish haqidagi qoidalariga, ayblanuvchilarning himoyalash huquqiga og'ishmay rioya etish uchun mas'uliyatni oshirishni talab qiladi. Qonundan har qanday chekinish, noxolislik, noqonuniy tintuvlar, ushlab turishlar, qamoqqa olishlar, fuqarolarni asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortishlar favqulodda hodisalar deb qaralishi va har bir holda aybdor mansabdor shaxslarning javobgarligi masalasi hal etilishi kerak.

Tergov bo'linmalarining rahbarlari ushlab turish protsessual majburlov chorasi faqat JPKda nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi uchun fuqarolarni jinoyat sodir etganlikda gumon qilib ushlab turishning qonuniyligini nazorat qilishni kuchaytirishlari zarur.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni xavfli jinoyatchilarga nisbatan qo'llab, jamiyat uchun uncha katta xavf tug'dirmaydigan jinoyatlarni birinchi marta sodir etganlarga nisbatan hibsga olishning zarurligi masalasini juda puxta o'ylab chiqish kerak. Bunda shaxsning yoshi, salomatlik darajasi,

oilaviy ahvoli, ijtimoiy foydali mehnatga munosabati haqidagi ma'lumotlarni inobatga olish zarur.

Tergov bo'linmalarining boshliqlari qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnomani qo'zg'atish, dastlabki tergovning va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish chog'ida tegishli materiallarni prokurorga rozilik olish uchun yuborishdan oldin tergovchi tayyorlagan hujjatlar bilan shaxsan tanishib chiqadilar, to'plangan dalillarni chuqur o'rganadilar va tanqidiy baholaydilar. Zarur hollarda ular ayblanuvchilarni yoki gumon qilinuvchilarni shaxsan so'roq qiladilar.

Tergov bo'linmalarining boshliqlari prokurorlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda tergov hibsonalarida ushlangan va qamoqqa olinganlarni saqlashning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirib turishlari va qonunda belgilangan ushlab turish va qamoqda saqlash muddati tugagan va belgilangan tartibda uzaytirilmagan bo'lsa, shaxslarni darhol ozodlikka chiqarish choralari ko'rishlari kerak.

Barcha prokurorlar ayblov xulosasini tasdiqlayotganda va dastlabki tergov davomida qo'yilgan aybning asoslanganligini hamda tergovning to'liq, har tomonlama va xolisligini yaxshilab tekshirishi, aniqlangan qonun buzish hollariga qarshi choralarni ko'rishlari kerak.

IIV-IIB tergov boshqarmalari tergov yoki sud jinoiy ta'qibni reabilitatsiya uchun asoslar bo'yicha tugatgan yoxud oqlov hukmi chiqarilgan har bir shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va hibsga olishning qonuniyligi va asosliliigi tekshirilishini ta'minlashi kerak.

Tergov bo'linmalarining boshliqlari fuqarolarning asossiz hibsga olinishi va jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yilgan har bir holni shaxsan tekshirib chiqishi, bunda aybdor qonuniylikni qat'iy talab qilishi, hamda bundan buyon qonunbuzarlikka yo'l qo'yimaslik, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, ularga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararning qoplanishi uchun barcha choralarni ko'rishlari kerak. Tergov qilishning g'ayriqonuniy usullarini qo'llash va qonuniylikni qo'pol ravishda buzishning boshqa hollari bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atish va tergov o'tkazish kerak.

Tergov bo'linmalarining boshliqlari dastlabki tergovda qonuniylikning buzilishi haqida fuqarolardan tushgan shikoyat va arizalarni, ommaviy axborot vositalaridagi xabarlarini har tomonlama tekshirishlari, ularning harakatlari yuzasidan shikoyat tushgan tergovchilarga jo'natilishiga yo'l qo'yimasligi kerak. Tergovchilarning harakati yuzasidan tushgan shikoyatlarni jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda ko'rib chiqish kerak.

Nazorat uchun savollar:

IIV yoki IIB tergov boshqarmasi yoki bo‘limi qanday funksiyalarni bajaradi?

O‘zbekiston Respublikasi IIV tergov boshqarmasi qanday tuzilishga ega?

Tergovchilar qanday vakolatlarga ega?

Tergovchining ishiga rahbarlik qanday amalga oshiriladi?

Tergov bo‘linmasining boshlig‘i qanday vakolatlarga ega va u tergovchining faoliyatini qanday shakllarda nazorat qiladi?

Ichki ishlar tuman organlarining boshliqlari tergov ishini tashkil qilishda qanday o‘rin tutadi?

Dastlabki tergovda qonuniylikni mustahkamlash uchun qanday choralar ko‘riladi?

3-BOB. TERGOV APPARATLARIDA HISOB VA HISOBOTNI OLIB BORISH

3.1. Hisobot va ro'yxat to'g'risida tushuncha va uning ichki ishlar organlarining tergov bo'limlarining faoliyatidagi o'rni

Ichki ishlar idoralari faoliyatini boshqarish jarayonini, ya'ni muayyan qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish, muntazam o'zgarib turuvchi jinoyatchilikning xolati, strukturasi, dinamikasi, jinoyatlarni sodir etilishiga olib keluvchi sabab va sharoitlar, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etishga tayyorlanayotgan shaxslar hamda jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda axborot-tahliliy ishlarni takomillashtirish ichki ishlar idoralarining qonunchilikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashdagi tashkilotchilik va boshqaruv faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Axborot-tahliliy ishlar ichki ishlar idoralarining barcha tizimlaridagi boshqaruv faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Joylardagi haqiqiy xolatni bilmay turib, noxush holatlarni oldini olish, qo'l ostidagi kuch va vositalarni tezkor boshqarish, vakolat doirasida o'ziga bo'ysunuvchi quyi organlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish hamda ularning ishlarini tashkil etish va natijalarga ta'sir ko'rsatish mumkin emas.

Boshqaruv faoliyati qanchalik keng bo'lsa, axborot va tahlil ishlariga talab va talabchanlik ham shunchalik keng bo'ladi. Ishonchli va to'liq axborotsiz, chuqur va har tomonlama tahlilsiz birorta ham boshqaruv apparati to'g'ri faoliyat ko'rsata olmaydi. Qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining asosligi hamda foydaligi to'g'ridan-to'g'ri axborot-tahliliy ishlarning xolatiga bog'liq.

Bu masalarga alohida e'tibor qaratilib, O'zbekiston Respublikasi IIVning tegishli idoraviy-normativ hujjatlarida asosiy tushunchalar va uslubiy ko'rsatuvlar barcha ichki ishlar idoralari, prokuratura hamda boshqa surishtiruv va dastlabki tergov organlari uchun hisob-qayd etish va statistik ishlarini yurgizishda, jinoyatchilikning xolatini hamda tergov, tezkor-qidiruv, nazorat-profilaktika va ma'muriy faoliyatlarining samaradorligini baholashda birday majburiylikini belgilab, IIVning buyrug'i bilan ichki ishlar organlari tomonidan hisobot davri yakunlari bo'yicha tuziladigan me'yoriy hujjatlarning davlat boshqaruv organlariga

yuborilishi to'g'risida aniq ko'rsatilgan. Unda davlat xokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi IIVda (jumladan, joylardagi ichki ishlar idoralaridan) yuborilayotgan ma'lumotlarning ruyxati, shu ma'lumotlarning taqdim etish muddati, kimga yuborilishi va axborot tayyorlanishi uchun mas'ul xizmat sohalari ko'rsatilgan.

Boshqaruv qarorlarini tayyorlashda va tahlil qilishda zarur bo'lgan axborotlar ro'yxati IIV, IIB va shahar-tuman ichki ishlar bo'limlariga xizmat vazifalarining hamda vakolatlarining o'ziga hosligi va sharoitlarini hisobga olgan xolda tavsiya etilgan. Bu hammaga ayon: chunki, turli bosqichdagi ichki ishlar idoralari, ularning tizimlaridagi axborotlar majmuasi bir-biridan farq qiladi, hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham bir hil emas. Lekin shunday bo'lsa ham, ichki ishlar idoralarining barcha tizimlari uchun axborotlarni tahlil qilish va guruhlariga ajratishning asosiy prinsiplari yagona bo'lib qolmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

1) huquqni himoya qilish faoliyatining eng muhim yo'nalishlari bo'yicha;

2) xizmatlar yo'nalishi bo'yicha;

3) hududiy belgilari bo'yicha.

Ko'p yillik tajribalar, faqat shunday yo'l bilan haqiqiy kompleks tahlil qilish, tezkor vaziyatga ta'sir etuvchi turli hil faktorlarni o'zaro bog'liqligini har tomonlama o'rganish, jinoyatchilik xolati yomon bo'lgan hudud va obyektlarni, ish yomon tashkil etilgan xizmatlarni aniqlash mumkinligini tasdiqlaydi. Ana shunday negizda boshqaruv qarorlari va axborot-tahliliy hujjatlar aniqlik, izchillik va maqsadga yo'naltirilganlik hususiyatiga ega bo'ladi.

Ichki ishlar idoralarining barcha tizimlarida xizmat ko'rsatayotgan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondagi o'zgarishlarni hisobga olgan xolda jamoat tartibini va jinoyatchilik xolatini belgilovchi, ichki ishlar organlarining huquqni himoya qilish faoliyatini aniq natijalarini ko'rsatuvchi mumkin qadar yig'ilgan barcha axborotlarni chuqur va har tomonlama o'rganilishi lozim. Shuning uchun faqatgina ichki ishlar vazirligining hisob va statistik ko'rsatkichlari bilan chegaralanish maqsadga muvofiq emas. Prokuratura va sud organlarida, davlat soliq inspeksiyasida, ta'lim va sog'liqni saqlash, qishloq xo'jalik sohasidagi, davlat statistika qo'mitalarida mavjud bo'lgan axborotlardan tezkor vaziyatni kompleks ravishda tahlil qilishda, tahlil natijalaridan to'g'ri yo'nalishlar belgilashda, jinoyatchilikka qarshi kurashda, profilaktika ishlarini to'g'ri tashkil etishda keng ravishda foydalanish kerak. Shuningdek, huquqni himoya qilish faoliyatini takomillashtirishning eng

muhim muammolarini hamda asosiy yo‘nalishlarini belgilashda, kunlik va maxsus ish rejalarini ishlab chiqishda, tezkor vaziyatni kundalik tahlil ishlarida va shunga asosan zarur chora-tadbirlar belgilashda har bir bo‘lim va xizmat boshliqlari shaxsan ishtirok etib, tahliliy ishlarni talab darajasida yurgizilishini nazorat qilib borishi kerak.

Bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, ichki ishlar vazirligi tizimidagi har qanday xizmat o‘z oldiga ko‘yilgan vazifa va vakolatlarini to‘liq va muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tahlil ishlarini eng asosiy vosita, qurol qilib olishlari kerak bo‘ladi. Shu jumladan, tergov apparatlarida ham, ish faoliyatini takomillashtirishda, ishni tashkil etishdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishda, protsessual nazoratni to‘liq amalga oshirishda va quyi tergov boshqarma, bo‘lim, bo‘linmalari ish faoliyati bo‘yicha tashkiliy metodik boshqaruvni ta‘minlashda tahlil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil ishlari – tergov apparatlari faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu yo‘nalishda ichki ishlar idoralari tergov apparatlarining butun bir boshqarma, bo‘lim, bo‘linma va guruhlarini faoliyat ko‘rsatmoqda (Tergov faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat etish, axborot-tahlil ta‘minoti tizimlari). Qolaversa, har bir tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshliqlari o‘zlarining ish faoliyatlarini tahlil ishlari bilan chambarchas bog‘liq xolda yurgizadilar.

«Yaqin o‘tmishimizga tanqidiy ko‘z bilan qarab, ijodiy ishlarni saralab olib, bugungi kunda mos kelmaydigan va yo‘limizga to‘siq bo‘ladigan ishlardan va siyosatdan voz kechishimiz lozim»¹.

Tahlillar natijalari bilangina, tergov ishlari davomida yo‘l qo‘yilgan hato va kamchiliklarga qarshi tergov apparatlarining boshliqlari qo‘lida jiddiy qurol bo‘ladi, butun tergov apparatlari faoliyatini, shuningdek har bir tergovchining ish faoliyatini to‘g‘ri va obyektiv baholashga imkon beradi, tergov sifatini yaxshilashga, protsessual nazoratni amalga oshirishga, tergovchilar tomonidan jinoyat ishlari hamda materiallar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va asoslanganligini ta‘minlash mumkin bo‘ladi. Tahlil ishlari tergov apparati boshliqlariga O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2001-yil 10-iyuldagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi IIV Tergov Bosh boshqarmasi haqidagi Nizom»ida belgilangan Bosh boshqarmaning asosiy vazifa va vakolatlarini, huquq va majburiyatlarini, hamda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 37-moddasida belgilangan tergov boshqarmasi, bo‘lim, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarlarining vakolatlarini to‘g‘ri

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2 – Т., 1996. – Б.253.

va samarali qo'llashga sharoit yaratadi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 37-moddasiga asosan tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhning boshlig'i va uning o'rinbosari o'z vakolati doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan tergovchilarning o'z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovni to'la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko'radilar. Tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari ishlarni tekshirib ko'rishga, shuningdek dastlabki tergovni o'tkazish, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish, jinoyatni tavsif berishga, ishni bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir nechta tergovchiga topshirishga, shuningdek tergovchi vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergov olib borishga qatnashishga va dastlabki tergovni shaxsan o'zi olib borishga haqlidir.

Tergov Bosh boshqarmasi, boshqarmalari, bo'limlari, guruhlari boshliqlari ishining natijalari, tekshiruv hujjatlarini, prokurorlarning taqdimnomalarini, sudlarning xususiy ajrimlarini va boshqa ma'lumotlarni tahlil etish asosida tergovning sifatini va protsessual nazorat darajasini ko'tarishga, qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining ma'yoriy hujjatlari talablarini to'liq bajarishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni belgilaydilar va amalga oshiradilar, tergovchilarning faoliyatidagi salbiy tendensiya va kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'z vaqtida chora ko'radilar.

Tergov apparatlarida tahlil ishlarining samarali bo'lishi hamda ijobiy natijalar berishi uchun avvalambor quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Tahlil ishlari chuqur, har tomonlama obyektiv va o'z vaqtida bo'lishi kerak;
2. Tahlil ishlari doimiy suratda, tizimli ravishda har kuni olib borilishi kerak;
3. Tahlil ishlari kompleks hususiyatga ega bo'lishi kerak;
4. Tahlil ishlari takomillashtirilib borilishi kerak;
5. Tahlil ishlarida elektron hisoblash mashinalari (EHM) imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak.

Tergov apparatlari faoliyatidagi tahliliy ishlarning tarkibi, ularning yo'nalishi tergov xizmati oldida turgan vazifalar va tergov apparati erishgan ish natijalarining baholash mezoniga qarab belgilanadi. Vazifalar kengayib borishi, ish natijalarining baholash mezoni o'zgarishi bilan tahlil ishlarining ham tarkibi ham, mazmuni o'zgarib boradi.

Dastlabki tergov va surishtiruv organlari boshqaruv faoliyatidagi tahliliy ishlarning asosiy mazmunini tezkor vaziyatni o'rganish va baholash tashkil etadi.

3.2. Hisobga olish faoliyatiga oid idoraviy hujjatlar

Tergovchining hisobot faoliyatida 1998-yil 5-yanvardagi «Jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni dastlabki hisobga olish hujjatlarini to'ldirish va taqdim etish tartibi, jinoyat ishlari, jinoyat haqidagi materiallarning harakati» va «Jinoyatlarni hisobga olish qoidalari haqidagi» Yo'riqnoma-larni tasdiqlash haqidagi idoraviy hujjatlar nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan manba sifatida tan olinadi.

Jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni dastlabki hisobga olish hujjatlarini to'ldirish va taqdim etish tartibi, jinoyat ishlari, jinoyatlar haqidagi materiallarning harakati haqidagi 1998-yil 5-yanvardagi buyruq bilan tasdiqlangan Yo'riqnomada quyidagilar ko'rsatilgan:

Dastlabki hisobga olish hujjatlarini (hisob kartochkalari, talonlar, jurnal va ma'lumotnomalar) to'ldirishda "Jinoyatlarni hisobga olishning yagona qoidalari haqidagi" Yo'riqnomada bayon qilingan jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni hisobga olish va qayd etish qoidalari va holatlariga amal qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi tomonidan tasdiqlagan va amalga kiritilgan, respublika barcha prokuratura va ichki ishlar organlari uchun yagona dastlabki hisobga olish hujjatlari:

- aniqlangan jinoyatlarni hisobga olish kartochkasi (shakl № 1);
- jinoyatning ochilganligini yoki tergov harakatlarining boshqa natijalarini hisobga olish kartochkasi (shakl № 1.1);
- jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish kartochkasi (shakl № 2);
- jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlari va jinoyatlar haqidagi materiallarni hisobga olish jurnalining yagona shakli;
- uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatning ochilganligini yoki tergov harakatlarining boshqa natijalarini hisobga olish uchun qo'shimcha hisobot taloni (shakl № 1, 2);
- uyushgan jinoiy guruh tarkibida jinoyat sodir etgaya shaxsni hisobga olish uchun qo'shimcha hisobot taloni (shakl № 2,1)
- jinoyat ishini sudga ko'rib chiqish natijalarini hisobga olish ma'lumotnomasi (shakl № 6);

Yuqorida ko'rsatilgan hisob-qayd etish hujjatlarining ko'rsatkichlari majmui jinoyat huquqi asosida tuzilgan bo'lib, jinoyatlarni hisobga olish va ularning ochilishida qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan.

Ushbu hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish man qilinadi. Ular Respublika barcha prokuratura va ichki ishlar organlari uchun yagona

bo‘lib, lozim hollarda ularga O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi tomonidan hamkorlikda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Har bir hisobga olinishi kerak bo‘lgan jinoyat, uni sodir etgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi yoki jinoyat haqidagi material tergov yurituvida bo‘lgach prokuror, prokuratura yoki ichki ishlar bo‘limi tergovchisi (keyinchalik tergovchi deb beriladi) jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqida qaror chiqaradi yoki ishning holatiga ko‘ra boshqa biror qarorga kelib protsessual hujjat tuzsa, №1, 1.1, 2 va zarur hollarda № 1-2, 2-1 shakllardagi dastlabki hisobga olish hujjatlarini to‘ldiradi va ularga shaxsan imzo chekadi.

Jinoyat ishi sud tomonidan qo‘zg‘atilgan hamda dastlabki tergovni amalga oshirish uchun yuborilgan hollarda hamda jinoyat ishi MXX va harbiy prokuratura organlaridan dastlabki tergovni olib borish uchun yuborilgan hollarda aniqlangan jinoyatni hisobga olish kartochkasini (shakl № 1) jinoyat ishini o‘z yurituviga olgan tergovchi to‘ldiradi va taqdim etadi (xususiy ayblov ishlaridan boshqa).

Kartochkalar jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun asosida qaror qabul qilingandan so‘ng darhol to‘ldiriladi.

Tergovchi yoki surishtiruvchi shaxs tomonidan to‘ldirilib, imzolangan kartochkalar (№1, 1.1, 2, 1-2, 2-1 shakllar) prokuror yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanganidan keyingina ichki ishlar organlarining hisob-qayd etish bo‘linmalariga yuboriladi. Ichki ishlar organlari hisob-qayd etish bo‘linmalari bunday hujjatlarni tegishli prokurorlarning imzolari bo‘lgandagina hisobga oladi.

Prokurorlar kartochkalarga imzo chekishdan avval jinoyat alomatlari bo‘lmagan hollarni hisobga olinishiga, yoki jinoyatlarni hisobga qo‘ymasdan yashirish hamda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda va ularni ochish holatlarini buzib ko‘rsatish hollariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ulardagi ma‘lumotlarni jinoyat ishi yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish qarori chiqarilgan materiallar bilan puxta tekshirib, solishtirib chiqishlari lozim.

Kartochkalarni imzolangan prokuror, surishtiruvchi yoki tergovchi dastlabki hisobot hujjatlarida noaniqliklarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun shaxsan javobgardirlar.

Tergovchi yoki surishtiruvchi kartochkalarni to‘ldirib, imzo qo‘yganidan so‘ng ularni tegishli organ boshlig‘iga uning kartochkalardagi o‘z bo‘limini to‘ldirish va imzo qo‘yishi uchun, kartochkalardagi ma‘lumotlarni to‘liqligi va aniqligini tekshirish uchun topshiradi. Kartochkalar ichki

ishlar organi boshlig'i tomonidaya imzolanganidan so'ng jinoyat ishi yoki material bilan birgalikda prokurorga taqdim etadi.

Prokuror tomonidan to'ldirilgan kartochkalarga faqat prokurorning o'zi imzo chekadi.

Prokuror imzo chekkanidan keyin kartochkalar darhol ichki ishlar organlarining hisob-qayd etish ishlari inspektoriga topshiriladi, u esa o'z navbatida kartochkalardagi ma'lumotlarni kartochkalarning o'ng tomonidagi jadval-kataklarda raqamlar bilan to'g'ri belgilanganligini tekshiradi, jyanoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlari va jinoyatlar haqidagi materiallarni hisobga olish jurnalida (keyinda jinoyatlarni hisobga olish yagona jurnali deb yuritiladi) tegishli belgilashlarni amalga oshirib va kartochkalarning birinchi bo'limlarini to'ldirib, ularni bevosita IIV-IIBB-IIB-TIIB axborot markazlariga 24 soat ichida jo'natadi.

Axborot markazlari ularga kelib tushgan imzolangan kartochkalardagi ma'lumotlarni darhol hisobga olishlari lozim, ularni hisobga olishni kechiktirishga yoki kartochkalardagi ma'lumotlarni hisobdan chiqarishga haqlari yo'q. Faqat kartochkalardagi ma'lumotlar to'g'ri, belgilangan tartibda to'ldirilmagan hollarda, kartochkalar tegishli prokuror orqali kartochkalarni belgilangan tartibda to'ldirish ustidan nazorat ta'minlanib, qayta to'ldirish uchun qaytariladi.

Kartochkalarni hisobga olishni ularga imzo chekkan prokuror yoki undan yuqori turuvchi prokuror bekor qilishi mumkin.

Hisobot hujjatlaridagi, ichki ishlar organlarining jinoyatchilik haqidagi hisobotlar tayyorlash, jinoyatchilikka qarshi kurash choralarini belgilash uchun xizmat qiladigan, jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni hisobga olish uchun aarur axborot ko'rsatkichlari va ularni aniqlashtiruvchi qo'shimchalar nomerlangan.

Kartochkalarning nomerlangan bandlarida zarur ma'lumotlar tegish-licha yozib qo'yiladi yoki tagiga chizib belgilanadi va o'ng tomondagi jadval-kataklarga raqamlar aks ettirib takrorlanadi.

№1 shaklidagi kartochka ikki bo'limdan, №1-1 va №2 shaklidagi kartochkalar uch bo'limdan, №1-2, №2-1 shakllidagi kartochkalar ikki bo'limlardan iborat.

Kartochkalarning birinchi bo'limi tegishlicha shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limlari hisob-qayd etish inspektori va axborot markazlari xodimi tomonidan to'ldiriladi.

1 va 2-bandlar va 2-bo'limning barcha bandlari prokurorlar, tergovchilar va surishtiruvchi shaxslar tomonidan jinoyat ishi yoki materialidagi faktlarga asosan to'ldiriladi.

Kartochkalarning 3-bo'limi (prokuratura yurituvida bo'lgan jinoyat ishi va materiallar bo'yicha ham) shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limi boshlig'i tomonidan konkret jinoyatlar bo'yicha u ega bo'lgan tezkor ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

Kartochkalarning har bir bo'limi tegishli to'ldirgan xodim tomonidan imzolanadi.

Kartochkalardagi zarur shifrlar va raqamli indeksni yozish tartibi ularni matematik ishlov berishni ta'minlovchi dasturga ham asos bo'ladi.

Kartochkalarni to'ldirishda savollarga yozilayotgan javoblar jinoyat ishi yoki materiallardagi haqiqiy holatlarni aniq aks ettirishi kerak. Kartochkalardagi qo'shimcha yozuv va to'g'rilashlar ularga imzo chekkan shaxslar tomonidan izohlanadi.

Kartochkalardagi yozuvlar siyoh bilan qisqartiruvlarsiz, harflar aniq qilib yozilishi kerak. Bunda jinoyat sodir etgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi bosma harflar bilan yoziladi.

Kartochkalarni imzolagan shaxslarning familiyalari aniq va to'liq yoziladi.

Jinoyat ishi yoki material bo'yicha dastlabki hisobot kartochkalari to'ldirilgan va ularni shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limi hisob-qayd etish ishlari bo'yicha inspektoriga yuborgan prokuror, tergovchi, surishtiruvchi bu haqda jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi yoki qabul qilingan boshqa qarorga tegishli belgi qo'yadi.

Shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limi hisob-qayd etish inspektoriga dastlabki hisobga olish hujjatlari surishtiruv, tergov bo'limlari kotibiyatlari orqali beriladigan bo'lsa, maxsus kitob orqali quyidagi ma'lumotlar aks ettirilib amalga oshiriladi:

– jinoyat ishining qo'zg'atilish vaqti yoki qabul qilingan qarorning sanasi, jinoyat ishi yoki materialning nomeri, surishtiruv yoki tergov bo'limlaridan kartochkalarning kelib tushgan vaqti va kartochkalarni hisob-qayd etish inspektoriga berilgan sanasi, oluvchining imzosi;

– hisob-qayd etish inspektori kartochkalarni olganidan so'ng kartochkalardagi ma'lumotlarni jinoyatlarni hisobga olish yagona jurnaliga yozib, kartochkalarning 1-bo'limini to'ldiradi va Yo'riqnomaning 2-bandida ko'rsatilgan muddatda axborot markazlariga jo'natadi. Bunda iloji boricha kartochkalar hisob-qayd etish inspektori tomonidan axborot markazlari xodimlariga shaxsan maxsus reyestrlarga qo'l qo'ydirib topshiriladi;

– reyestrlarda kartochkaning shakli, jinoyat ishining nomeri, qisqa qilib asosiy ma'lumotlar hamda kartochkalarni axborot markazi xodimlariga topshirilgan sana ko'rsatilishi kerak;

– agar shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limi va axborot markazlari bir-biridan ancha olis aholi bandlarida joylashgan bo'lib, kartochkalarni shaxsan axborot markaziga topshirish imkoniyati bo'lmasa, unda dastlabki hisobga olish hujjatlari hisob-qayd etish inspektori tomonidan pochta orqali reyestrdaidek rekvizitlar ko'rsatilgan kuzatuvchi xat bilan axborot markazi boshlig'i nomiga jo'natiladi. Reyestr va kuzatuv xatlarning nusxalari hisob-qayd etish inspektorining ish yurituvida saqlanadi.

№1, 1.1, 2, 2-1, 1-2 shakllardagi dastlabki hisobga olish hujjatlari, ayblov xulosasi bilan sudga jo'natilgan ishlar bo'yicha sudlardan axborot markazlariga, №6 shakldagi ma'lumotnoma kelib tushganda, ular asosida jinoyatlar va jinoyat sodir etgan shaxslar haqida statistik hisobotlar tuzilgandan keyin axborot markazlarida bir yil saqlanadi.

JPKning 364-moddasi 1, 2, 3 bandlariga asosan tergov ishlari to'xtatilgan ishlar bo'yicha dastlabki hisob hujjatlari yo'q qilinmaydi. Ular axborot markazlari kartotekasida jinoyat ishi bo'yicha tergov tamomlangunga yoki sodir bo'lgan fakti jinoyat ekanligini rad etuvchi asoslarga ko'ra ish harakatdan tugatilishiga qadar saqlanadi.

Aniqlangan jinoyatni hisobga olish kartochkasini (№1 shakl) to'ldirish va taqdim etish tartibi.

№1 shakldagi aniqlangan jinoyatni hisobga olish kartochkasi surishtiruv yoki dastlabki tergov bo'limiga ma'lum bo'lgan jinoyatni qachon sodir etgani va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlangani yoki aniqlanmaganligidan qat'i nazar qayd etib, hisobga qo'yishga asos bo'ladi.

Jinoyat axborot markaziga hisobga qo'yilib, statistik hisobotga qo'shilgandagina ro'yxatga olingan deb sanaladi. №1 shaklidagi kartochka asosiy yoki qo'shimcha bo'lishi mumkin, aniqlangan jinoyatga birinchi marta to'ldirilgan kartochka asosiy sanaladi.

Ro'yxatga olish va hisobotga muqaddam ro'yxatga olingan jinoyatlar va ularning natijalari (oqibatlar) haqida zarur bo'lgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni kiritish maqsadida to'ldiriladigan kartochkalar qo'shimcha hisoblanadi. Tergov davrida ro'yxatga olingan jinoyatdan, muqaddam boshqa ro'yxatga qo'yilmagan jinoyat aniqlansa va tergov ularni bitta jinoyat ishiga birlashtirgan bo'lsa, №1 shaklidagi keyingi kartochkalarni qo'shimcha kartochkalar deb hisoblanadi.

Asosiy kartochka quyidagi hollarda to'ldiriladi:

1) jinoyat ishi qo'zg'atilganda;

2) amnistiya akti asosida jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, jinoyat ishi qo'zg'atilishi rad etilgan hollarda;

3) sudlar, MXX, harbiy prokuratura va Davlat soliq qo'mitasi idoralari tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlarini yurituvga qabul qilinganda;

4) jinoyat ishini qonunda belgilangan asoslarda hudud bo'yicha tegishlilik asosida surishtiruv yoki dastlabki tergov organlaridan bir viloyatdan, respublikadan viloyat, respublikaga hamda transport prokuraturalari yoxud transportdagi ichki ishlar bo'limlaridan yurituvga qabul qilinganda va ushbu ish bo'yicha tergov qilinayotgan jinoyat hisobot davrida hisobotga qo'yilmagan hollarda.

Agar jinoyat ishining bir qismi jinoyat fakti bo'yicha alohida jinoyat ishi qilib yurituvga ajratilsa, unda yangi jinoyat ishi tartib bo'yicha keyingi tartib raqamini oladi va jinoyat ro'yxatga olinib, hisobot davrida aniqlangan jinoyat bo'lib hisobdan o'tadi.

Agar jinoyat ishining bir qismi jinoyat sodir ettan shaxsga nisbatan ajratilsa, bunday holda ham yangi jinoyat ishi tartib bo'yicha keyingi tartib raqamini oladi, lekin jinoyat sifatida ro'yxatga olinmaydi va hisobotga jinoyat sifatida qo'shilmaydi, faqat bu to'g'risida jinoyatlarni hisobga olish jurnalida hamda kartochkalarda ham "Shaxsga nisbatan ajratilgan" degan belgi qo'yilishi lozim.

Qo'shimcha kartochka quyidagi hollarda to'ldiriladi:

1) tergov qilinayotgan jinoyat ishiga, boshqa jinoyat ishi yoki muqaddam ro'yxatga olinmagan jinoyat haqidagi materiallar qo'shilganda;

2) ro'yxatga olingan jinoyat bo'yicha qo'zg'atiltan jinoyat ishini yurituv davomida avval ro'yxatga olinmagan jinoyat aniqlansa va asosiy jinoyat ishi tarkibida tergov qilinsa;

3) muqaddam jinoyatni hisobdan chiqarish bilan harakatdan yotqizilgan jinoyat ishi bo'yicha tergov qaytadan yangilansa;

4) jinoyat ishini tergov qilish jarayonida jinoyat yengil turdan og'irroq turga yoki aksincha qayta kvalifikatsiya qilinganda;

5) Sodir etilgan jinoyat oqibatida halok bo'lgan shaxslar sonini aniqlashtirish maqsadida (agar jabrlanuvchilardan ba'zilar jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng tergov jarayoni olib borilayotgan davrda vafot etgan bo'lsa).

Asosiy kartochkada jinoyatlarning real jamini tashkil etuvchi jinoyatlarning barcha kvalifikatsiyasi ko'rsatiladi, lekin bunda nisbatan og'ir asosiy jinoyat hisobga olinadi.

Jinoyatlarning real jamini tashkil etuvchi boshqa jinoyatlarning kvalifikatsiyasiga qo‘shimcha kartochkalar to‘ldirilib, bu jinoyatlar qo‘shimcha jinoyat sifatida hisobga olinadi.

Agar jinoyatlar bitta shaxs yoki shaxslar tomonidan sodir etilganligi sababli bir jinoyat ishi boshqa jinoyat ishi (ishlari)ga birlashtirilgan hollarda №1.1. shaklidagi kartochkalarga jinoyat ishlarining birlashtirilganligi haqidagi belgi qo‘yiladi, lekin hisobotga jinoyatlar soniga o‘zgartirish kiritilmaydi.

Agar jinoyat ishlari bir tumanda (shaharda) joylashgan nchki ishlar bo‘limlaridan yoki surishtiruv organlaridan boshqa ichki ishlar bo‘limlari yoki surishtiruv organlariga yurituv uchun yuborilsa, jinoyatlar ikkinchi marta ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi, jinoyat ishlari dastlabki tartib raqamlari bilan yakunlanadi. JPKning 346-moddasi 3-bandi asosida quyi ichki ishlar bo‘limlari yoki surishtiruv organlaridan ulardan yuqori turuvchi organlarga jinoyat ishlari taalluqlik bo‘yicha berilgan hollarda ham yuqorida ko‘rsatilgai tartibga amal qilinadi.

Agar jinoiy ish boshqa viloyat yoki respublikaga jinoyat sodir etilgan joyda tergov olib borish uchun yuborilsa JPKning 346-moddasi 1-bandi asosida, bu ishni qabul qilib olgan organ jinoiy ishni yangi ish sifatida qayd qiladi, shu ish bo‘yicha dastlabki hisobga olish hujjatlarini to‘ldiradi va bu hujjatlar mazkur organ hisobot bo‘limida yangi aniqlangan jinoyat sifatida hisobdan o‘tadi. Hisobga qo‘yishdan oldin ushbu ish ilgari hisobda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini aniqlanishi loeim. Jinoyat ishini yuborgan organ esa ushbu jinoyatni o‘z hisobidan chiqaradi.

Davom etayotgan hisobot davrida boshqa tuman, shahar, viloyat, respublikadan hisobdan chiqarilib, yuborilgan o‘tgan yili qo‘zg‘atilgan jinoiy ishdagi jinoyatlar ham markazlashtirilgan hisobga qo‘yilishi kerak. Agar ish uni yuborgan organga qaytarilgan bo‘lsa, jinoyat ishi qaytib kelgan davrning o‘zida hisobotga qaytadan tiklanadi.

Jinoyat ishi, ishga mas‘ul prokuror tomonidan jinoiy ishni tergovni davom ettirish uchun, jinoyat sodir etilgan joyga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan keyin, jinoyat yuborayotgan organ hisobidan chiqariladi.

Jinoyat ishi quyidagi hollarda yuborilganda jinoyatni hisobdan chiqarish mumkin:

1) jinoyat ishini bir respublika yoki davlatdan ikkinchisiga yuborish uchun prokuror roziligi olingandan so‘ng;

2) bir viloyatdan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan yoki transport organi tomonidan xizmat ko‘rsatiluvchi biror bo‘limidan ikkinchisiga,

shuningdek, hududiy organga yoki aksincha yoʻnalishda yuborilishi uchun tuman, shahar yoki tuman miqyosidagi transport prokuroridan rozilik olinganda.

Shuni hisobga olish kerakki, agar bir viloyatda jinoyat ishi hududiy tegishlilik boʻyicha boshqa yoqqa yuborilganligi munosabati bilan yillik hisobotdan hududiy tegishlilik boʻyicha yuborilgan deb chiqarilgan boʻlsa, yuborilgan jinoyat ishi qabul qilib oluvchi organga yangi hisobot yili boshlanishida kelib tushsa oʻtgan yillar jinoyati sifatida emas, balki endi boshlangan hisobot davrining statistik hisobida aks etishi kerak.

Agar jinoyat ishi boʻyicha tergov qilinayotgan jinoyatlar har xil tuman, shahar va viloyatlarda sodir etilgan boʻlsa, ishni yuritayotgan tergovchi jinoyat sodir etilgan joyda hisobga olinishi uchun mos ravishda oʻsha tuman, shahar va viloyatlarning ichki ishlar boʻlimlariga kartochkalar yuboradi va jinoyat mazkur organ jinoyatlarni hisobga olish tartib raqamlaridan qatʼi nazar bogʻliq boʻlmagan holda hisobga olinadi.

Kartochkaning 12 va 14-bandlarida jinoyat qanday sodir etilganligi qisqacha yoritiladi. Bunda: jinoyat sodir etilgan sana, vaqti, joyi va sodir etish uslubi, oʻziga xos belgilari va muhim holatlar, jabrlanuvchilarning ism-shariflari, jinoyat oqibatlarini, halok boʻlganlar soni, agar moddiy zarar yetkazilgan boʻlsa, uning miqdori koʻrsatilishi lozim.

Kartochkaning 9-bandida jinoyatning oldi olinganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yoziladi. Shuni nazarda tutish kerakki, ohiriga yetmagan jinoyat fakti mavjudligidagina yuqorida aytilgan bandeda maʼlumot boʻlishi mumkin.

Ichki ishlar organlari tomonidan bevosita oldi olingan jinoyatlar deb, ayblanuvchilarning, ushlanganlarning, guvohlarning koʻrsatuvlaridan, fuqarolarning arizalaridan, korxonalar, tashkilot, muassasa mansabdor shaxslarining xabarlaridan yoki shu organlar xodimlarining shaxsiy kuzatishlari natijalaridan jinoyat sodir etishga tayyorlanayotganligi haqida oldindan maʼlumot boʻlsa va shu maʼlumotlar asosida oʻtkazilgan tezkor va boshqa tadbirlar natijasida jinoyatchilar shu jinoyatga tayyorlanayotganlarida, jinoyatga suiqasd etganlarida ushlansa yoki ular jinoyatni oxiriga yetkazishga imkon bermaydigan sharoitga keltirib qoʻyilgan jinoyatlarga aytiladi.

Ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan oldi olingan jinoyatlar deb, jamoatchilik tomonidan ichki ishlar organi xodimlarining taklifi (iltimosi, koʻrsatuvsi) amalga oshirilib, jinoyatning sodir etilishi oldi olingan jinoyatlarga aytiladi.

O'zida O'zbekiston Respublikasi JKning 25-moddasida ko'rsatilgan jinoyat sodir etishga urinish alomatlari bo'lmagan harakatlar oldi olingan jinoyatlar hisobiga kirmaydi.

Kartochkaning 11-bandida noaniqlik sharoitida yeki pinhona sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Pinhona sodir etilgan jinoyat deb, jinoyat aniqlangan davrda uni sodir etganlar noma'lum bo'lib, ularni aniqlash va ushlab uchun tezkor qidiruv tadbirlari va tergov harakatlari o'tkazilishi lozim bo'lgan jinoyatlarga aytiladi.

Kartochkaning 20-bandida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar haqida ma'lumotlar aks ettiriladi. Bunda jamoat joylari doimiy, davriy va bir martalik bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish kerak. Masalan, restoran, kafe, kinoteatrlar va boshqalar davriy jamoat joyi hisoblanadi, ya'ni faqat ishlash davridagina jamoat joyi, boshqa vaqtda esa jamoat joyi emas. Bir martalik jamoat joyiga shahar tashqarisida sayilga chiqib dam olish joyi misol bo'la oladi.

Jamoat joyida sodir etilgan deb hisoblanmaydigan jinoyatlar:

- jamoat joylarida sodir etilgan, lekin sodir etilish vaqtida ishlamay turgan, ya'ni jamoat joyi vazifasini bajarmayotgan joylarda sodir etilgan jinoyatlar. Masalan, remont tufayli yopib qo'yilgan yotoqxonalar, mehmonxonalar, sanatoriylar va dam olish uylari va boshqalar;

- ma'lum davrlarda faoliyat ko'rsatuvyidigan dam olish mavsumiy joylari: klublar, teatrlar; ko'rgazmalar; muzeylar; kutubxonalar va boshqalar, qachonki ular tashrif etuvchilar uchun yopiq holda bo'lganlarida: restoranlar, kafe, oshxonalar, magazin va do'konlar kech-qurunlari yopiq holda bo'lganlarida (bunda agar o'g'irlik jinoyati sodir etilgan bo'lsa va jinoyat bevosita ko'cha orqali kirib sodir etilsa, ular jamoat joyida va shu jumladan ko'chada sodir etilgan deb hisobga olinadi);

- davom etadigan jinoyatlar (qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish va boshqalar); firibgarlik bilan o'zgalar mulkini talon-taroj qilish;

- fuqarolarning uylaridan sodir etilgan o'g'irlik (xonaga kirish usulidan qat'i nazar);

- umumiy foydalanish joylarda sodir etilgan jinoyatlar; kommunal kvartiralar, qavatlararo o'tish yo'laklari, tomlar va yerto'lalarda, liftlarda (bunda yopilmaydigan podyezdlar qoidadan istisno bo'lib, hisobga olinadi).

Jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlardan, ko'chalarda sodir etilganlari alohida ko'rsatiladi, ya'ni sutkaning har qanday vaqtida har kim uchun ochiq joylar: ko'chalar, maydonlar; prospektlar, xiyobonlar, sohillar, ko'priklar estakadalar yo'l usti transportlarining marshrutlari

(bekatlar va transport vositalarining o'zlari ham), plajlar (ma'lum vaqtgacha yopiluvchilardan boshqa), bozorlar, stadionlar, raqs maydonchalar (ustlari to'silgan va ma'lum vaqti yopiluvchilaridan tashqari), parklar, tor ko'chalar, boshi berk ko'chalar, hovlilar (xususiy hovlilar bundan muqstasno), o'rmon-park zonalari, karyerlar, yalangliklar, ochiq suv havzalarining bevosita o'zlari, ularga tutash dam olish maskanlari, shahar va aholi yashash bandlarining ko'kalamzorlashgan zonalari.

Aniqlangan jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar shakl №1.1 va shakl №2 kartochkalaridagi ma'lumotlar asosida ham to'ldirilib jamlanadi.

Jinoyatning ochilganligini yoki tergov harakatlarining boshqa natijalarini hisobga olish kartochkasini (№1.1. shakl) to'ldirish va taqdim etish tartibi.

№1.1. shaklidagi statistik kartochkasi konkret jinoyatlarni tergov natijalari va jinoyat ishlarining harakatini hisobotda aks ettirishga asos bo'ladi. № 1.1. shakl kartochkada quyidagi hollarda to'ldirib taqdim etiladi;

– jinoyat ishi tugatilib, jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish uchun №2 shaklidagi kartochka bilan birga;

– ochilmagan jinoyatni aks ettirish uchun (jinoyat ishini tergov harakatlarini to'xtatish uchun JPKning 364-moddasi 1 va 2-bandlari, 399, 400 moddalari asosida, bunda kartochkalar tezkor qidiruv ishi va qidiruv ishlarining nomerlari bo'lgandagina axborot markazlari kartochkalarni qabul qiladi);

– jinoyatni hisobdan chiqarish uchun (jinoyat ishini shaxsning harakati jinoyat sostavini tashkil etmasa yoki boshqa asosda, jinoyatni inkor etilsa, bunda jinoyat ishi harakatdan yotqizilib, axborot markazlariga jinoyat ishi topshirilgandan keyingina jinoyat hisobdan chiqariladi);

– jinoyat ishi O'zR JPKning 346-moddasi asosida tegishlilik bo'yicha yuborilsa;

– JPKniig 332-moddasi 1-bandi asosida jinoyat ishi birlashtirilsa;

– JPKnnng 332 moddasi 2-bandi asosida jinoyat ishi (yoki material) mustaqil yurituvga ajratilsa;

– JPKning 364-moddasining to'rtta bandidan bittasi asosida jinoyat ishi bo'yicha yurituv to'xtatilsa;

– JPKning 351-moddasi asosida jinoyat ishining tergov muddati uzaytirilsa;

– prokuror yoki sudlar tomonidan qo'shimcha tergov qilish uchun qaytarilgan jinoyat ishlari ish yurituvga qabul qilinganda;

– avval harakatdan tugatilgan jinoyat ishi bo‘yicha tergov harakatlari qaytadan yangilansa;

– avval to‘xtatib qo‘yilgan jinoyat ishini dastlabki tergov harakatlari tiklansa (tergov harakatlarining tiklanganligi haqida topshirilgan kartochka hisobda jinoyat ochildi deb hisoblashga asos bo‘lmaydi);

– jinoiy ish qo‘zgatishni rad etish haqidagi qaror prokuror tomonidan bekor qilinib, jinoyat ishi yurituvga qabul qilinganda;

№1.1.shaklidagi kartochka faqat asosiy bo‘lishi mumkin. Quyidagi hollarda dastlabki tergov tamomlangan deb hisoblanib, №1.1.shaklidagi kartochka to‘ldirilib, taqdim etiladi:

1. Jinoyat ishi bo‘yicha tergovchi dastlabki tergovni tamomlab tuzgan ayblov xulosasi prokuror tomonidan tasdiqlanib, JPKning 388-moddasi asosida jinoyat ishini sudga yuborilganda;

2. Jinoyat ishi prokurorning roziligi bilan JPKning 84-moddasi 4-qismi 1-bandi, 2-bandi, 3-bandi, 4-bandlari asosida tugatilib, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganda;

3. JPKning 84-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan jinoyat sodir etgan shaxs (qilmishida jinoyat alomatlari mavjud) prokurorning iltimosnomasiga ko‘ra sud tomonidan amnistiya hujjati qo‘llanib, jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasdan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganda;

4. Jinoyat sodir etgan shaxs ma‘lum, uning aybdorligi to‘g‘risida yetarli ma‘lumot ham bor, lekin JPKning 84 moddasi 1-qismi 1, 2, 3, 8-bandlariga asosan (javobgarlikka tortish muddati o‘tgan, e‘lon qilingan amnistiya hujjati jinoyat sodir etgan shaxsga daxldor, ayblanuvchi vafot etgan, aybdorning amalda pushaymon bo‘lganligi) shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinib, jinoyat ishi tugatilganida;

Jinoyatlarning ochilishi mezonini ochilmay qolgan jinoyatlar soni belgilaydi.

Ochilmay qolgan jinoyat deb, jinoiy ish jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanmaganligi, qidirilayotganligi yoki ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketganligi sababli harakatdan to‘xtatilgan (JPKning 364-moddasi 1-qismi 1-2-3-bandlari asosida) jinoyatga aytiladi.

Ochilmagan jinoyatlar soniga (jinoyatni qayd etilishi va jinoyat ishini qo‘zg‘atish vaqtidan qat‘i nazar) hisobot davrida birinchi marta to‘xtatilgan barcha jinoyatlar kiritilishi kerak

Ochilmagan jinoyatlar foizi, ochilmagan jinoyatlar (JPKning 364-moddasi 1-qismi 1-2-3-bandlari asosida to‘xtatilgan)ning pinhoniylilik sharoitida sodir etilib, tergov qilingan barcha jinoyatlar nisbatiga asosan aniqlanadi. Masalan, ochilmagan jinoyatlar soni 50, yashirin sharoitda sodir etilib, tergov qilingan jinoyatlar soni 150. Ochilmagan jinoyatlar foizini

aniqlash uchun 50ni 100ga ko'paytiramiz va natijani 200ga bo'lamiz, bunda 200 ochilmagan jinoyatlar va tergov qilingan jinoyatlar yigindisi.

Jinoyatni tergov qilinganligini qayd etish va statistik hisobot uchun №1.1. shaklidagi kartochkaning 12.01, 12.06, 12.07, 12.13, 12.14, 12.15 bandlari tegishlicha belgilanib, jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish kartochkasi №2 shakl bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

Ochilmagan jinoyatni qayd etish va hisobot uchun №1.1. shaklidagi kartochkaning tegishlicha 12.16, 12.17, 12.18 bandlari belgilanib taqdim etiladi.

Agar JPKning 364-moddasi 1,2,3-bandlari asosida harakatdan to'xtatilgan jinoyat ishi keyinchalik qo'shimcha tergov davomida ochilsa, u holda jinoyat ochilmagan jinoyatlar hisobidan tergov harakatlari tiklanganda emas, balki jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov tamomlanib sudga yuborilganda yoki ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslardan biri bo'yicha jinoyat ishi tugatilgandagina chiqariladi.

Jinoyatni, jinoiy voqeani inkor etilishi, jinoyat tarkibini tashkil etmasligi yoki qonunda belgilangan boshqa asoslarga ko'ra hisobotdan chiqarilishi uchun №1.1. shaklidagi kartochkaning 12.02, 12.03, 12.05, 12.08 dan 12.12gacha bo'lgan bandlari tegishlicha belgilanishi lozim.

JPKning 364-moddasi biror bandi bilan jinoyat ishi harakatdan to'xtatilgan bo'lsa №1.1. kartochkaning hamma bandlari tegishlicha to'ldirilishi kerak.

№1.1. kartochkaning 32-bandini to'ldirishda patrul-post xizmatiga quyidagilar kirishi e'tiborga olinishi lozim:

1. Militsiya patrul-post xizmati;
2. YXXX yo'l-patrul xizmati;
3. Qo'riqlash birlashmasi bo'linmasi;
4. Ijtimoiy rehabilitatsiya muassasi va boshqalar.

Jinoyat ishlari birlashtirilib, bu hol jinoyatni kvalifikatsiyasiga ta'sir etmasa, faqat №1.1. kartochkaning o'zi to'ldiriladi, lekin jinoyat ishlarining birlashtirilishi jinoyatni kvalifikatsiyasini o'zgarishiga olib kelsa, №1.1. kartochka bilan birgalikda №1.1. shaklidagi kartochka ham (jinoyatlarni qayta kvalifikatsiyasi sababli) to'ldirib, taqdim etiladi. Masalan, o'zgaralar mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li talon-taroj qilish jinoyatlari bo'yicha jinoyat ishlar birlashtirilgach, talon-taroj qilish miqdori qo'p miqdorni yoki juda ko'p miqdorga aylanadi.

Agar jinoyat ishidan jinoyat ishining bir qismi (yoki material) boshqa jinoyat bo'yicha ajratilsa (JPKning 332-moddasi 2-bandiga ko'ra) 1.1.

kartochka bilan bir vaqtda №1 shaklidagi kartochka ham to'ldirib taqdim etiladi, ushbu Yo'riqnomaning 8-bandida ko'rsatilgan qoidalar asosida (jinoyatni hisobga qo'yish uchun: jinoyat avval hisobdan chiqarilgan bo'lsa yoki avval umuman hisobda bo'lmagan bo'lsa).

Agar sudlar tomonidan qayta tergovga qaytarilgan jinoyat ishi yurituvga qabul qilinganda, agar bu ish hisobot yilida sudga yuborilgan bo'lsa, №1.1. shaklidagi kartochkani to'ldirish va taqdim etishda ushbu ishda bo'lgan barcha jinoyatlar tergov qilingan jinoyatlar hisobidan qayta tergov yakunlanishigacha chiqarib tashlanishi lozim.

Joriy yildagi hamda o'tgan yillar jinoyatlari bo'yicha jinoyat ishlari qayta tergov qilinishi natijasida quyidagi o'zgarishlar yuz bersa:

- qilmishlar yengilrog'idan og'irroq'iga yoki aksincha qayta kvalifikatsiya qilinsa;

- avval ro'yxatga olinmagan jinoyatlar aniqlansa;
- jinoyati sodir etgan shaxslarning tarkibi o'zgarsa;
- jinoyatni tergov qilinishi o'zgarsa va boshqalar;

Yo'riqnoma talablariga ko'ra qo'shimcha tergov natijalariga ko'ra №1 shaklidagi kartochkalar to'ldirilib, axborot markazlariga taqdim etiladi (asosiy va qo'shimcha kvalifikatsiyaning o'zgarishi yoki tergov davomida aniqlangan qo'shimcha jinoyatlarni hisobga olish uchun), shu bilan birga №1.1. va №2 shakllar ham tergov qilingan jinoyatlar va jinoyat sodir etgan shaxslarni hisobga olish uchun.

№1.1. ochilmagan jinoyatni hisobga olish uchun yoki jinoyat ishi jinoyatni inkor etuvchi asoslarga ko'ra harakatdan tugatilganligini hisobga olish uchun va asoslarga ko'ra.

Barcha tergov organlari tomonidan jinoyat natijasida keltirilgan zarar miqdori va uning qoplanishi №1.1. shaklda ko'rsatilganda, jinoyat ishidagi har bir jinoyat oqibatida keltirilgan zarar va uning qoplanishini aks ettirishi lozim:

1. Prokuror tomonidan ayblov xulosasi tasdiqlanib, sudga yuborilgan jinoyat ishlari hamda prokurorning roziligi jinoyat sodir etgan shaxs rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bilan jinoiy javobgarlikka tortilmay harakatdan tugatilgan jinoyat ishlari bo'yicha;

2. Rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslarga ko'ra jinoyat ishi ko'zg'atish rad etish qarori chiqarilgan materiallar bo'yicha;

3. №1.1. shaklidagi kartochka jinoyat oqibatidagi zararga uning qoplanishi haqidagi quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- 17-bandda keltirilgan zarar miqdori;

– 18-bandda keltirilgan zararni ixtiyoriy ravishda jinoyat ishi qo‘zg‘atilganiga qador yoki tergov davomida qoplanganligi;

– 19-20-bandlarda hibsga olinib, xatlangan mol-mulk, shu jumladan pul va qimmatliklar miqdori;

– 21-26-bandlarda 20-bandda ko‘rsatilgan hibsga olinib, xatlangan mol-mulk, pul va qimmatliklar miqdori izohlanadi;

– 27-29-bandlarda musodara etilgan giyovand moddalar, qalbaki pullar shu jumladan qalbaki chet el valutalari haqidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi.

Jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish kartochkasini (№ 2 shakl) to‘ldirish va taqdim etish tartibi.

Jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish kartochkasi (shakl № 2) bunday shaxslarni ro‘yxatga olib, bu shaxslarni tavsiflovchi ma‘lumotlarni hisobot ko‘rsatkichlarida aks ettirishga asos bo‘ladi.

№ 2 shaklda kartochka faqat asosiy bo‘ladi.

Bu kartochka jinoyat sodir etgan shaxs (shaxslarga) nisbatan quyidagi protsessual qarorlardan biri qo‘llanilganda to‘ldiriladi:

1. Dastlabki tergov tamomlangan jinoyat ishi bo‘yicha ayblov xulosasi prokuror tomonidan tasdiqlanganda;

2. JPKning 84-moddasi 2-bandiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atish sud tomonidan rad etilganda;

3. Jinoyat ishlari harakatdan tugatilganda: - javobgarlikka tortish muddati o‘tib (JPKning 84-moddasi 1-bandi); - amnistiya va avf hujjatlari qo‘llanilib (JPKning 84-moddasi 2-bandi); - ayblanuvchiga nisbatan ish voyaga yetmaganlar komissiyasiga yuborilishi sababli (JPKning 84-moddasi 7-bandi);

Agar ayblanuvchi bir necha jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham unga faqat bitta №2 shaklidagi kartochka to‘ldiriladi va kartochkaning 20-23 bandlarida unga e‘lon qilingan ayblovlarning JK moddalari ko‘rsatiladi. Bunday hollarda jinoyat sodir etgan shaxs hisobotda sodir etgan jinoyatlariing og‘irrog‘i bilan ko‘rsatiladi.

Kartochkalarni to‘ldirish chog‘ida quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

– ayblanuvchining yoshi to‘liq yil hisobida ko‘rsatiladi. Masalan, ayblanuvchi jinoyatni sodir etish vaqtida yoshi – 29 yil 11 oy 28 kunlik bo‘lsa, u kartochkaning 12-bandida "25-29 yoshda" degan ko‘rsatkichda aks ettirilishi lozim.

Ayblanuvchining yashash joyini ko‘rsatishda, yashash joyi deb fuqaro doimiy yoki nisbatan ko‘proq yashaydigan joy e‘tiborga olinishini, 15 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning hamda vasiylikda bo‘lgan

fuqarolarning yashash joylari deganda ularning tegishli ota-onalari, vasiylarining yashash joylari nazarda tutiladi.

Ishlamaydigan va o'qimaydigan shaxslar haqidagi ma'lumotlar belgilanishida, shaxs jinoyat sodir etgan vaqtda ishlamagan yoki o'qimayotgan bo'lsa, oxirgi ish va o'qish joyidan qachon bo'shaganligidan qat'i nazar ishlamagan yoki o'qimagan deb hisobga olinishi shart.

Nafaqaxo'rlar, nafaqa yoshiga yetganlar, uy bekalari, xomilador ayollar, I va II guruh nogironlari ishlamaydiganlar hisobiga kiritilmaydi.

Avval jinoyat sodir etganlar hisobiga, sudlangan yoki JPKning 84-moddasi 2-bandi asosida jamoatchilikka berilganligidan, sudlangan deb hisoblash muddati o'tmaganligidan, sudlanganlik olib tashlangan-tashlanmaganligidan qilmishlariga nisbatan JPKning 84-moddasi 1-2-bandlari (javobgarlikka tortish muddatlari o'tganligi va amnistiya hujjati qo'llanmaganligi) asosida jinoyat ishlari harakatdan tugatilganligidan qat'i nazar avval jinoyat sodir etgan shaxslar kiradi.

Uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatning ochilganligini yoki tergov harakatlarining boshqa natijalarini hisobga olish uchun qo'shimcha hisobot taloni (№ 1-2 shakl)ni va uyushgan jinoiy guruh tarkibida jinoyat sodir etgan shaxsni hisobga olish uchun qo'shimcha hisobot taloni (№ 2-1 shakl)ni to'ldirish va taqdim etish tartibi.

Jinoyat uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilganligini aiiqlash uchun, uyushgan jinoiy guruhning quyidagi belgilari bo'lishini e'tiborga olish kerak:

– jinoiy faoliyatning davomiyligi ta'magirlikni ko'zlab qasd qilish, guruh ichida vazifalarning taqsimlanganligi (iyerarxiya), jinoyatni rejalashtirilishi va guruhda obro'dorning bo'lishi.

Korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy guruh deb hisoblash uchun, majburiy belgi-uyushgan jinoiy guruh tarkibida boshqaruv, huquqiy muhofaza etish, xo'jalik organlarining xodimlari ishtirok etgan bo'lishi kerak. Iqtisodiyot sohasida jinoyat sodir etuvchi uyushgan jinoiy guruhlar uchun korrupsiyalashganlik majburiy belgidir.

Xo'jalik organlarining xodimlari deyilganda, tashkiliy-boshqaruvchilik vakolatiga ega yuqori turuvchi tashkilotlarning mansabdor shaxslariga aytiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilar uyushgan jinoiy guruhlarining asosiy belgilaridir. Jinoiy faoliyatning xarakteriga qarab, uyushgan jinoiy guruhning mintaqalararo jinoiy aloqaning mavjudligi, umumiy pul va qimmatliklarni bo'lishi, qurollanganlik va boshqalar kabi qo'shimcha belgilari bo'lishi mumkin.

Jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlari va jinoyatlar haqidagi materiallarni hisobga olish yagona jurnalini yuritish tartibi.

Barcha tuman, shahar va transport ichki ishlar bo'limlarida jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlari va jinoyatlar haqidagi materiallarni hisobga olish yagona jurnallari yuritiladi.

Bu jurnalda prokuror, tergovchilar va surishtiruvchilardan olingan dastlabki hisobga olish hujjatlari asosida qayd etilgan jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslar, jinoyat ishlari va rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslarda jinoyat ishi qo'zgatish rad etish qarori chiqarilgan materiallar va jinoyat ishlarining sudlarda ko'rilishi natijalari qayd etiladi.

Jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni hisobga olish jurnali, sharoit taqozo etgan mintaqalarda uch bo'limdan yoki uch tomndan iborat bo'lishi mumkin. Bunda birinchi bo'lim (yoki tomnda) ichki ishlar bo'limi, ikkinchi bo'lim (yoki tomnda) prokuratura va uchinchi bo'lim (yoki tomnda) davlat soliq qo'mitasi tomonidan aniqlanib, tergov – tergov yuritilayotgan jinoyat ishlari ro'yxatga olinadi.

Axborot markazlari har yili shahar-tuman transport ichki ishlar bo'limlari, DSQ, prokuraturalarga va jazoni ijro etish muassasalari tezkor bo'limlariga jinoyat ishlarini ruyxatga olish uchun yetarli miqdorda tartib raqamlari ajratadi.

Tuman (shahar)da esa axborot markazlaridan berilgan tartib miqdori prokuratura, DSQ va ichki ishlar bo'limlarning ish xajmiga qarab taqsimlanadi. Taqsimlanish tartibi axborot markaziga ma'lum qilinadi.

1-sonli shaklidagi kartochkani to'ldirgan tergovchi uni ichki ishlar bo'limiga taqdim etib, jinoyat ishiga tartib raqami (nomer) oladi. Bunda ichki ishlar bo'limi tergovchilari alohida, prokuratura tergovchilari alohida (DSQ surishtiruvchilari alohida sharoit taqozo etsa) o'zlari uchun ajratilgan tartib raqamlaridan foydalanadilar.

Jinoyatlarni jurnalda qayd etishda (sharoit taqozo, etsa) nomer yoniga quyidagi harfiy belgilar qo'yiladi:

1. "PR" – prokuratura yurituvidagi jinoyat ishi;
2. "NK" – davlat soliq qo'mitasi yurituvidagi jinoyat ishi;
- 3) "BV" — oqlanmaydigan asoslarda jinoyat ishi qo'zgatish rad etilganda, bunda agar qaror prokuratura yoki DSQ organi tomonidan chiqarilgan bo'lsa, "BV" — belgisi yoniga yana tegishlicha "PR" yoki "NK" — belgilari qo'yiladi.

Jinoyat ishini tergov qilish jarayonida aniqlangan qo'shimcha jinoyatlar jurnalda, jurnalda yozuvlarning tartibi keyingi raqam va qaysi raqamli jinoyat ishini tergov qilish jarayonida aniqlangan bo'lsa o'sha jinoyat ishining tartib raqami (nomeri) bilan yoniga "DP" belgisi bilan qayd etiladi.

Jurnalning tegishli bandleari to'ldiriladi:

1. 2-8 bandlear — № 1 kartochkasidagi ma'lumotlarga muvofiq;
2. 11, 12, 14 bandlear № 1.1. kartochkasiga muvofiq;
3. 13 band — № 2 kartochkasiga muvofiq;
4. 14-16 bandlear — № 1, 1.1, 2 kartochkalarga muvofiq;
5. 17 band — № 6 shaklidagi ma'lumotnomaga muvofiq;

9-10 bandlearda har dastlabki hisobga olish hujjatining ichki ishlar bo'limiga tushgan va hamda axborot markazlariga yuborilayotgan sana ko'rsatiladi.

Jurnalga ma'lumotlarini kiritishda, jurnalning bandleari mazmuni aniq va to'liq yoritilib, barcha savollarga javob berilishi kerak. Jurnalda ma'lumotlar qo'shimcha kartochkalar olingandan so'ng, yana ham aniqlashtirilib to'ldirilib boriladi.

Jurnalda ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligi shahar-tuman transport ichki ishlar bo'limi boshlig'i tomonidan sistemali ravishda, axborot markazlari tomonidan ichki ishlar bo'limi hisob qayd etish ishlarini tekshirishda hamda har hisobot davrida solishtirish bilan tekshirib turiladi.

Jurnal prokurorning birinchi so'roviga ko'ra darhol taqdim etiladi.

Jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlari va jinoyat haqidagi materiallarni hisobga olish jurnal shahar tuman-transport ichki ishlar bo'limlariga har oyda (o'sib boruvchi tartibda) ro'yxatga olingan va ochilgan jinoyatlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, shundan kelib chiqib jinoyatchilikka qarshi kurash va profilaktika choralarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilgan va ochilmagan jinoyatlar (to'xtatilgan ishlar bo'yicha) haqidagi har oylik ma'lumotlar nazorat etuvchi tegishli prokurorga ham taqdim etiladi.

Qoraqalpogiston Respublikasi IIV Axborot Markazi, IIBB, IIB va NIIBlari axborot markazlari har bir shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limi bo'yicha nazorat jurnallari yuritiladi. Bundan tashqari yana alohida jurnal yuritilib, unda shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limida ro'yxatga olishda qonunchilik va ro'yxatga olish ishlari tartibi buzilgan jinoyatlar qayd etiladi.

Bu jurnallar va Yo'riqnomada ko'rsatilgan barcha kartochkalar ham prokurorlarning so'roviga ko'ra ularga taqdim etiladi.

Jinoyat ishini sudga ko'rib chiqish natijalarini hisobga olish majmuasini to'ldirish va taqdim etish tartibi (№ 6 shakl)

Jinoyat ishini sudga ko'rib chiqilishi natijalarini hisobga olish ma'lumotnomasi, jinoyatni sudga ko'rib chiqish natijalarini hisobotda aks ettirishga asos buladi.

Tergovchi ayblov xulosasini tasdiqlash uchun prokurorga jinoyat ishini yuborish vaqtida, u har bir ayblanuvchi uchun №6 shakldagi ma'lumotnomani birinchi tomonini to'ldirib, jinoyat ishiga qo'shadi.

Sudlarga yuborilgan jinoyat ishlari buyicha hamma ish №6 shaklidagi ma'lumotlar (jinoyat ishi prokuror yoki prokuratura tergovchisi tomonidan tergov qilinganidan qat'i nazar), sudlar tomonidan hukm kuchga kirgandan so'ng besh kunlik muddat ichida shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limiga — jinoyat va jinoyat ishi ruyxatga olingan joyga yuboriladi. Suddan №6 shaklidagi ma'lumotnomalar olingandan sung shahar-tuman-transport ichki ishlar bo'limi hisob qayd etish ishlari inspektori jinoyat ishini sudda ko'rib chiqilishi natijalarini jurnalga qayd etadi va ma'lumotnoma olingandan keyingi uch kunlik muddat ichida ularni axborot markazlariga statistik hisobotda va jinoyat sodir etgan shaxslar haqidagi tezkor axborot hisoblarida foydalanishlik uchun yuboradi.

Jinoyatlarni hisobga olishning yagona qoidalari haqidagi Yo'riqnomada ichki ishlar idoralari faoliyatini boshqarish jarayonini, ya'ni aniq qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish, muntazam ravishda yangilanib boradigan jinoyatchilikning holati, strukturasi, dinamikasi, jinoyatlarni sodir etilishiga olib keluvchi sabab va sharoitlar, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etishga tayerlanayotgan shaxslar hamda jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunday ma'lumotlarning asosiy manbalaridan biri jinoyatlar hisobidir.

Ushbu yuriqnomada berilgan asosiy tushunchalar va uslubiy ko'rsatuvlar barcha ichki ishlar idoralari, prokuraturalar, Davlat soliq qo'mitasining surishtiruv va dastlabki tergov organlari uchun hisob-qayd etish va statistik ishlarni yurgizishda, jinoyatchilikning holatini hamda tergov, tezkor-qidiruv, nazorat-profilaktika va ma'muriy faoliyatlarining samaradorligini baholashda birday majburiydir.

Jinoyatchilikning holati uning miqdori, dinamikasi va strukturasi bilan tavsiflanadi.

Jinoyatchilikning miqyosi, ruyxatga olingan jinoyatlar sonini 13 va undan katta yoshdagi aholi soniga (10 ming kishi boshiga) nisbati bilan aniqlanadi.

Jinoyatchilikning dinamikasi-bu nisbiy miqdor bo'lib, jinoyatlarning umumiy sonini va ularning ayrim turlarini ma'lum davr mobaynida o'zgarishini tavsiflaydi.

Jinoyatchilikning strukturasi, alohida toifadagi jinoyatlarni, jinoyatlarning umumiy soniga protsent hisobidagi nisbati bilan aniqlanadi.

1. Jinoyatlarni hisobga olish aniqlangan jinoyatlar ularni sodir etgan shaxslarni dastlabki hisobga olish bilan amalga oshiriladi.

Dastlabki hisobga olish ishlari qay darajada bajarilganligi, jinoyatchilikni holatini xarakterlovchi statistik hisobot ko'rsatkichlarining to'g'ri va to'liq bo'lganiga ta'sir etadi, chunki bu hisobotlar dastlabki hisobga olib hujjatlardan kelib chiqadi.

Jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni hisobga olish majmui annqlangan jinoyat bo'yicha jinoyat ishi qo'zgatilganda, jinoyat ishini qayd etishga va jinoyat ishi yuzasidan prokuror tomonidan ayblov fikri tasdiqlanganida, jinoyat sodir etgan shaxslarni qayd etishga, bu ma'lumotlarni keyinchalik tergov hamda sudga ko'rilishi natijalariga qo'ra aniqlashtirilishiga asoslanadi. Ammo aniqlashtirish (o'zgartirish, to'ldirishga) faqat tugallangan hisobot davr hisobga olingan hisobot yili davomidagina yo'l qo'yiladi.

Jinoyat axborot markaziga ro'yxatga qo'yilib. statistik hisobotga qo'shilgandagina hisobga olingan deb sanaladi. Bu yerda jinoyatlarni hisobdan yashirish tushunchasini qonunchilikni buzilishi ya'ni jinoyatlarni qasddan yashirish, jinoyatlarni hisobdan yashirish, hisob-qayd etish tartibini buzilganligi ya'ni holatni noto'g'ri baholash, beparvolik va boshqalar kabi tomonlarini ajrata bilish lozim.

Quyidagilar jinoyatni yashirish va qonunchilikni buzilishiga olib keluvchi holatlar sanaladi:

1. Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarga to'g'ridan-to'g'ri chora ko'rmaslik, ya'ni sodir bo'lgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilmaslik yoki ro'yxatga kiritmaslik;

2. Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar yuzasidan tekshirish materiallarini soxtalashtirish va birdirgilar asosida tasdiqlanmagan fakt sifatida nazoratdan chiqarish;

3. Tekshirish materiallaridagi hujjatlar soxtalashtirib, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarorini chiqarish;

4. Jinoyat ishini bir qismini alohida yurituvga ajratib keyinchalik bu ajratilgan qism yuzasidan axborot markazlariga dastlabki hisobot kartochkalarini taqdim etmaslik va ajratilgan qism bo'yicha biror protsessual qaror chiqarmaslik;

5. Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni asossiz boshqa organga hudud bo'yicha tegishli deb yuborish yoki jinoyat haqidagi ariza va xabarlar bo'yicha materiallarni hududiy tegishlilik bo'yicha yuborilgan deb soxta belgi bilan nazoratdan chiqarish.

Bunday holatlar aniqlanganda materiallar prokurorlarga qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan qonuniy chora ko'rishlik uchun yuboriladi.

2. Jinoyatlarni hisobga olish qoidalari barcha prokuraturalar, Davlat soliq qo‘mitasi organlari hamda ichki ishlar idoralari (shu jumladan jazoni ijro etish muassasalari uchun ham) uchun birday majburiydir.

3. Dastlabki hisobga olish, aniqlangan jinoyatga №1 shaklidagi kartochka, jinoyat sodir etgan shaxsga №2 shaklidagi yoki uyushgan jinoiy guruh tarkibida jinoyat sodir etgan bo‘lsa №2-1 shaklidagi qo‘shimcha hisobot taloni, jiyaoyatning ochilganligini yoki tergov harakatlarining boshqa natijalarini ko‘rsatuvchi №1.1 shaklidagi kartochka, yoki uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatning ochilganligini yoki tergov harakatlarining boshqa natijalarini hisobga olish qo‘shimcha taloni shakl №1-2 va jinoyat ishini sudga ko‘rib chiqilishi natijalarini hisobga olish ma‘lumotnomasi shakl №6 to‘ldirib, axborot markazlariga taqdim etish bilan amalga oshiriladi.

Jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlarini ro‘yxatga olish va jinoyatchilik haqidagi statistik hisobotlarni yuritish ichki ishlar idoralari uchun yuklatilgan.

Jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlarini ro‘yxatga olish ichki ishlar idoralari tuman, shahar, transport bo‘limlarida va jazoni ijro etish muassasalarida yuqorida ko‘rsatilgan dastlabki hisob hujjatlarini to‘ldirish, jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni hisobga olish jurnalini yuritish bilan bajariladi. Bu jurnalning yagona shakli O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi va Ichki ishlar Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va amalga kiritiladi.

Dastlabki hisob hujjatlari tuman, shahar, transportdagi ichki ishlar bo‘limlarida va jazoni ijro etish muassasalarida qayd etilganidan so‘ng darhol Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIBlari va TIIB axborot markazlariga yuboriladi.

Axborot markazlarida shu kartochkalar asosida har bir tuman, shahar va transport ichki ishlar bo‘limlari uchun alohida jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlarini hisobga olish nazorat jurnallarini yuritadilar. Bu jurnallar va kartochkalar dastlabki hisob hujjatlarini o‘z vaqtida taqdim etilishini, jinoyat ishlaridagi tergov harakatlari natijalarini nazorat qilish, jinoyatchilik haqida ma‘lumotlar tayyorlash va boshqa axborot masalalari uchun xizmat qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIBlari va TIIB axborot markazlarida dastlabki hisobga olish kartochkalaridagi ma‘lumotlar umumlashtirilib, qayta ishlanib jinoyatchilik haqida statistik ma‘lumotlar ishlab chiqiladi.

4. Jinoyatlar hisobi №1 shaklidagi aniqlangan jinoyatni hisobga olish kartochkasini prokuror, prokuratura va ichki ishlar bo‘limi tergovchisi,

surishtiruvchi xodim tomonidan, ularga ma'lum bo'lgan jinoyatni qachon, qayerda sodir etilgani va ularni sodir etgan shaxslar aniqlangan yoki aniqlanmaganligidan qat'i nazar to'ldirib taqdim etishlari bilan amalga oshiriladi.

Milliy xavfsizlik xizmati tergovchilarni yurituvda bo'lgan jinoyat ishlaridagi jinoyatlar Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan hisobga olinadi.

Harbiy jinoyatlar va harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar hamda harbiy qismlar hududida sodir etilgan jinoyatlar harbiy prokuratura tomonidan Yo'riqnomada belgilangan qoidalar asosida hisobga olinadi. Ichki ishlar bo'limlari tomonidan hisobga olinib, jinoyat ishlari tegishlilik bo'yicha harbiy prokuratura organlariga berilgan jinoyatlar to'g'risidagi materiallar ichki ishlar bo'limlari hisobidan chiqariladi va harbiy prokuraturalar hisobiga o'tadi.

Xususiy ayblov tartibida qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan hisobga olinadi. Bunday jinoyatlar, sud yoki prokuror tomonidan jinoiy ish qo'zgatilib dastlabki tergovga yuborilgan hollarda ham sudlar tomonidan hisobga olinadi. Masalan, JKning 109-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat.

5. Kartochkalarni to'ldirishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Bitta jinoyat sifatida hisobga olinadi (bitta kartochka to'ldiriladi);

a) guruh bo'lib jinoyat sodir etish (JKning 27 va 28-moddalarida nazarda tutilgan ishtirokchilikning barcha ko'rinishlari). Masalan, oldindan til biriktirib, guruh bo'lib ozodlikdan mahrum etish joylaridan qochish. Lekin, bir vaqtning o'zida bir necha shaxs jazoni o'tash joyidan oldindan til biriktirmasdan, har biri mustaqil harakat qilgani holda qochsa, har bir shaxsning harakati alohida jinoyat hisoblanadi hamda har bir jinoyat alohida hisobga olinadi;

b) bir jinoiy harakat oqibatida bir necha shaxs jabrlanuvchi bo'lib chiqsa. Masalan, yukxonadan bir necha shaxslarga tegishli yuklarni o'g'irlanishi; bir necha shaxslar yashayotgan xonadan (mehmonxona, yotoqxona va boshqalar) o'g'irlik; bir qavatdagi maydonchadan elektr schotchiklarini o'g'irlash;

v) bir turdagi jinoiy harakat ketma-ket sodir etilib, har biri alohida holda kam ahamiyatli, doimo jinoyatlar jami jamiyatga ijtimoiy xavf solsa bitta jinoyat sifatida hisobga olinadi. Masalan, jinoyatchi gaz idorasi xodimi sifatida bir necha xonadonga kirib, har bir xonadondan oz miqdorda pul yig'ib oladi.

Ammo har biri ancha miqdorda bo'lgan ketma-ket sodir qilgan beshta firibgarlik fakti, beshta jinoyat sifatida hisobga olinadi.

g) bir harakat bilan ikki turdagi jinoyat sodir etilsa (jinoyatlarning ideal jami), sodir etilgan jinoyatlarning og'irrogi hisobga olinadi. Masalan, jinoyatchi nomusga tegish jinoyatini sodir etish bilan o'zidagi tanosil kasallikni yuqtirsa, nomusga tegish jinoyati hisobga olinadi.

d) davomli jinoyatlar (qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish).

ye) takroriy jinoyatlar (qiynash).

j) o'zgarar mulkinn o'zlashtirish yoki rastrata qilish yuli bilan talon-taroj qilish (shu jumladan ko'p va juda ko'p miqdorda talon-taroj qilish, talon-taroj qilishning usulidan qat'i nazar; pora olish va boshqa mansabdorlik jinoyatlari valuta qimmatliklarini noqonuniy olish va sotish xaridorlarni aldash, epizodlar sonidan qatyi nazar).

Lekin, tergov jarayonida bunday jinoyatlarning real jami aniqlansa, har bir jinoyat alohida hisobga olinadi. Masalan talon-taroj bilan poraxo'rlik bilan real jamni tashkil etsa ikkovi ham ikkita jinoyat sifatida hisobga olinadi.

z) bir necha jinoiy harakatlarni qonunda bitta jinoyat deb kvalifikatsiya qilinishi. Masalan, xokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatib, bezorilik qilish;

i) har xil obyektlarga qaratilgan bo'lishiga qaramay qonunda bitta jinoyat deb kvalifikatsiya qilinadigan jinoiy harakatlar. Masalan, bosqinchilik jinoyatida tajovuz kishilar sog'ligi, hayoti, mulkiga qaratilgan bo'lsa ham bitta jinoyat deb hisoblanadi.

Lekin, bir jinoyatchi (guruh) tomonidan sodir etilgan har bir bosqinchilik, alohida-alohida jinoyatlar sifatida hisobga olinadi.

k) o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish, besoqolbozlik epizodlar sonidan qat'i nazar. Lekin, besoqolbozlikda har bir yangi sherik, agar guruh bo'lib jinoyat sodir etish niyati aniqlanmasa, alohida-alohida jinoyat sifatida hisobga olinadi.

2. Ikki va undan ortiq jinoyat sifatida hisobga olinadi: (Jinoyatning boshlanishi va tugashiga ko'ra; jinoyatning sostaviga ko'ra: obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon; qasdning yo'nalnshiga ko'ra; jinoyatning fakultativ belgilariga ko'ra: vaqti, joyi, sodir etilish usuli va boshqalar;)

a) shaxs (guruh) bir nechta jinoyat sodir etsa (jinoyatnish real jami). Masalan, bosqinchilik sodir qilaturib, qasddan odam o'ldirdi — bosqinchilik va odam o'ldirish deb hisobga olinadi; nomusga tegish jinoyatini sodir etdi va qasddan odam o'ldirdi – qasddan odam o'ldirish va nomusga tegish jinoyatlari deb hisobga olinadi; bezorilik qilib odam o'ldirish va boshqa bezorilik harakatlari qilish – qasddan odam o'ldirish va bezorlik deb hisobga olinadi; o'zgarar mulkini o'g'irlab, javobgarlikdan qutulish maqsadida o't qo'yish-o'g'rilik va o't qo'yish deb hisobga olinadi.

6) shaxs (guruh) har xil vaqtda ikki va undan ortiq jinoyatlarni sodir etsa. Masalan, odam o'ldirish jinoyatini tergov qilish jarayonida avval ro'yxatga olinmagan, shu shaxs (guruh) tomonidan sodir etilgan talonchilik jinoyati aniqlandi.

v) shaxs (guruh) har xil vaqtda yoki qisqa vaqt oralig'ida ikki yoki undan ko'p bir turdagi jinoiy harakatni takroran sodir etsa. Masalan, bir qavat maydonchasidagi ikkita xonadondan o'g'irlik qilish, ikkita jinoyat deb hisobga olinadi; shaxs (guruh) xonadonga kirib, ma'lum bir mol-mulkni o'g'irlab olib chiqib ketdi va yana oradan qisqa vaqt o'tmay shu xonadonga kirib, qolgan mol-mulkni o'g'irlasa – ikkita jinoyat deb hisobga olinadi, ya'ni o'g'irliklar soni xonadonga kirish soni bilan o'lchanadi; bezorilik jinoyati ham aynan shu tartibda hisobga olinadi.

g) ikki yoki undan ortiq shaxs bir turdagi jinoyatni bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holda sodir etsa va jabrlanuvchilar boshqa-boshqa shaxslar bo'lsa. Masalan, ikki yigit ikki qizni mehmonga chaqirib, til biriktirmasdan har biri o'z dugonasini nomusiga tegsa – ikkita nomusga tegish deb hisobga olinadi; ikki jinoyatchi yo'lda ketaturib, oldindan til biriktirmay, har bir ikkita yo'lovchiga nisbatan talonchilik sodir etsa – ikkita talonchilik deb hisobga olinadi.

d) ikki shaxs o'zaro janjal oqibatida bir-birlariga O'zR JKning 109 moddasi 2-qismida ko'rsatilgan darajada tan jarohati yetkazsa va ularning harakatlari bezorilik jinoyatining sostavini tashkil etmasa – ikkita tan jarohati deb hisobga olinadi.

ye) jinoiy harakatdagi qasdning qaratilishiga ko'ra jinoyatlar ikki yoki undan ortiq deb yoki bitta deb hisobga olinishi mumkin. Masalan, jinoyatchi oldindan bir vaqtda besh kishini o'ldirishga qasd qildi va qasdni amalga oshirdi – JKning 97-moddasi 2 qismida ko'zda tutilgan ikki va undan ortiq kishini o'ldirish deb, bitta jinoyat hisobga olinadi. Agar oldindan besh kishini o'ldirish uchun qasd qilmay, besh kishini o'ldirsa yoki boshqa-boshqa vaqtda o'ldirsa, beshta jinoyat deb hisobga olinadi.

6. Jinoyat sifatida hisobga olinmaydi:

a) Qonunga ko'ra jinoiy javobgarlik qilmish takroran sodir etilsagina yuzaga keladigan, birinchi marta sodir etilganda faqat ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik ko'zda tutilgan harakatlar.

b) Qonunda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsada, o'zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik (JKning 36-moddasi).

Shunday qilib, mazkur hujjatlar tergovchining jinoyat ishlarini tergov qilish borasida ishini hisobga olish va hisobotlar yuritish vazifasini to'la bajarilishi uchun xizmat qiladi va har qanday tergov bo'limining boshlig'i o'z boshqaruv faoliyatida bu hujjatlardan bevosita foydalanadi.

Nazorat uchun savollar:

Birlamchi xisobotga olish hujjatlarini taqdim etilishini tartibga soluvchi idoraviy normativ hujjatni bilasizmi?

Jinoyatlarning yagona hisoboti nima bilan tartibga solinadi?

Aniqlangan jinoyat bo'yicha qanday hujjat to'ldiriladi?

Ochilgan jinoyatga qanday hujjat to'ldiriladi?

Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan qanday hujjat to'ldiriladi?

Jinoyatlar, jinoyat ishlari va jinoyat sodir qilgan shaxslarni hisobga olish yagona jurnalining shakli qanday?

Agarda uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir qilingan jinoyat fosh etilgan bo'lsa qandaydir qo'shimcha hujjat kerakmi?

Uyushgan jinoiy guruh tarkibida jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan qanday hujjat to'ldiriladi?

Jinoyat ishini suda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qanday hujjat to'ldiriladi?

Qanday jinoyat ro'yxatga olingan bo'lib hisoblanadi?

Jinoyatni hisobdan yashirish qonuniylikning buzilishi sifatida nimalarda ifodalanadi?

Jinoyatlarni hisobga olish ishlari qanday amalga oshiriladi?

Nima jinoyat sifatida hisobga olinmaydi?

4-BOB. TERGOVCHINING ISHINI TASHKIL QILISH

4.1. Dastlabki tergovda ishni rejalashtirish

Rejalashtirish, mo'ljallangan ijobiy natijani olishni qiyinlashtiruvchi sharoitlarga barham berish uchun zarur. Bunday sharoitlarga quyidagilar kiradi: o'tmishda bo'lgan hodisa haqida yetarli ma'lumotlar bo'lmaganda; muayyan harakatlarni va umuman tergovni qonunda belgilangan muddatda bajarish zarur bo'lgani holda vaqt taqchil bo'lganda; manfaatdor shaxslar haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishga (ba'zan muvaffaqiyatli) urinishlar bo'lganda; tergovda uzluksiz diqqat markazida bo'lishni talab etuvchi bir emas, bir necha jinoyat ishi bo'lganda va h.k.

Ayni paytda har qanday ishni, hatto bir qaraganda oddiy ko'ringan ishni ham rejalashtirish kerak. Aynan rejaning yo'qligi jinoyat ishining shoshilinchda, uni tergov qilish istiqbolini aniq tasavvur qilmaslik oqibatida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar tufayli murakkab bo'lishiga olib keladi. Reja ishning hajmi, mazmuni va muddatlarini belgilab, istiqbolni tasavvur qilish imkonini beradi, ish esa buning oqibatida ancha maqsadga yo'nalgan bo'ladi, lekin bunda reja bajarilishi kerak bo'lgan harakatlarning shoshilinch tuzilgan ro'yxati emas, balki tergovchining ijodiy izlanishi natijasi, harakatlarning dasturi bo'lishi kerak.

Tergovchining o'z ixtiyoridagi protsessual va noprotsessual manbalardan olgan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida shakllangan umuman jinoyat haqidagi va uning alohida holatlari (tasmollari) haqidagi dastlabki tasavvurlari tergov qilishning har qanday rejasini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu axborotni tahlil qilish avvalo jinoyat ishini qo'zg'atish bilan bog'liq quyidagi savollarga javob berish imkonini beradi: buning uchun asos bormi yoki jinoyat alomatlari yo'qligidan yoxud jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishga olib keluvchi va ishni yuritishni inkor etuvchi holatlar borligidan dalolat beruvchi yetarli ma'lumotlar bormi, agar qaror chiqarib bo'lmasa va tekshirish talab qilinsa, ushbu tekshirish qanday xususiyatga ega bo'ladi va kim uni amalga oshiradi.

Tergovchi ilgarigi tajribasidan va ayrim turdagi jinoyatlarni amalga oshirishning tez-tez uchrab turadigan usullari haqidagi bilimlaridan foydalanib, dastlabki ma'lumotlar asosida tergov qilinayotgan qilmish bo'yicha taxminlarni ilgari suradi, so'ngra ularni tekshiradi. Amalda murakkab hollarda belgilangan taxminlar ikki usulda tekshirilishi mumkin:

taxminlarning hammasini izchil ko'rib chiqish (chunki to'g'ri taxmin oxirgisi bo'lishi ham mumkin) yoki birinchi navbatda eng istiqbollilarini, ya'ni maqsadga erishishning eng qisqa yo'llarini aniqlashga yordam beruvchi taxminlarni tekshirish orqali. Eng qisqa yo'lga taxminlar doirasini eng ehtimolli darajagacha toraytirish imkonini beruvchi ajratib olish usuli yordamida erishiladi.

Taxminlarni tekshirishning qaysi usulidan (ularning hammasini ko'rib chiqish yoki eng ehtimollilarini ajratib olish) foydalanishni tergovchi hal qiladi.

Reja tuzish uchun yetarlicha dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lish zarurligi bois rejani bosqichlar bo'yicha tuzish maqsadga muvofiq. Ushbu bosqichlarda bajariladigan ishlarning hajmi tergovning keyingi yo'nalishini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilgan materiallarning miqdori bilan belgilanadi. Shu bois, kamdan-kam hollarni inobatga olmaganda, odatda bir vaqtli harakat emas, balki faqat tergov qilinayotgan jinoyatning barcha holatlari batamom aniqlangandagina tugallanadigan uzluksiz jarayondir. Tergovchi ish davomida rejaning manbalariga bir necha bor murojaat qiladi, ularni yangi olingan ma'lumotlarga muvofiq o'zgartiradi va to'ldiradi.

Rejani tuzishdan avval unga tayyorgarlik ko'riladi. Ushbu tayyorgarlikning xususiyati quyidagilarga bog'liq: dastlabki materialning xususiyati hamda tergovchiga sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat haqidagi ariza yoki xabar davlat muassasasidan kelib tushdimi yoki fuqarolardanmi, jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval idoraviy tekshiruv bo'lganmi yoki taftish bo'lganmi, qo'zg'atilgan ish bo'yicha surishtiruv o'tkazilganmi yoki uni boshqa tergovchi tergov qilganmi va h.k.

Ish bo'yicha dastlabki tergov kechiktirib bo'lmas tergov harakatlaridan boshlangan hollarda reja ularning natijalarini inobatga olgan holda tuziladi, chunki ushbu natijalar tergov rejasiga kiritiladigan qidiruv faoliyatining yo'nalishini belgilaydi.

Agar jinoyat ishi idoraviy taftish asosida yoki tergovchiga (surishtiruv organidan, boshqa tergovchidan) yuritish boshlangan, yuritish qayta boshlangan yoki sud tergov qilishni davom ettirish uchun yo'llagan ish kelib tushganda, tergov rejasini tuzishdan avval jinoyat ishining materiallari puxta tekshirilishi kerak. Buning uchun konspekt tuzish tavsiya etiladi. Konspekt rejaning asosi bo'ladi, bu esa katta va murakkab materiallar kelib tushganda ayniqsa muhimdir.

Materialni tartibga solishning usuli bo'lmish konspekt ko'chirmalar tarzida tuzilishi mumkin. Ko'chirmalar isbotlash predmetining nima,

qachon, qayerda, qanday sharoitda yuz berdi, kim jinoyatni sodir etdi, degan asosiy masalalari bo'yicha guruhlashtiriladi. Konspektning bunday shakli, masalan, ochilmagan jinoyatlar ishlari bo'yicha, jinoyat ishining holatlari yetarlicha aniqlanmagan, to'plangan ma'lumotlar esa ziddiyatli xususiyatga ega bo'lgan hollarda maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan ma'lumotlarni jamlangan holda tahlil qilish qulayroq, masalan, bir varaqda aniqlanmagan jinoyatchining tashqi ko'rinishiga oid barcha ma'lumotlarni, boshqasida – u jinoyat sodir etilgan joyda paydo bo'lgan vaqt haqidagi ma'lumotlarni to'plash qulay va h.k.

Jinoyatning epizodlari va ularning bir qanchasida qatnashgan ishtirokchilari ko'p bo'lgan ishlar bo'yicha varaqda kataklarga bo'lingan «shaxmat»larni tuzish tavsiya etiladi. Bunda uning vertikal bo'yicha ayblanuvchilarning familiyalari, gorizontali bo'yicha esa jinoiy faoliyat epizodlari yozib qo'yiladi.

Har qanday shakldagi konspektda ham yozuvlarni varaqning yoki kartochkaning bir tomoniga joylashtirish kerak. Bu ularni kelgusida to'ldirishni ancha osonlashtiradi. Varaqda keyinchalik qo'shimchalar va tergov rejasining belgilarini qo'yish uchun keng hoshiya qoldirgan ma'qul.

Reja tuzilganidan so'ng konspekt zarur bo'lmay qolmaydi, ayniqsa katta va murakkab ishlar bo'yicha, chunki tergovchi hamma narsani xotirasida ushlab turishi qiyin. Barcha holatlar aniqlanib yetarlicha to'la-to'kis tekshirilmaguncha, konspekt qilishda davom etgan foydali. Konspekt tergov rejasini tuzish, jinoyatning har bir ishtirokchisiga nisbatan ayblovni ifodalanishni aniqlashtirish uchun foydalanilishi mumkin. U so'roq o'tkazishni va boshqa tergov harakatlarini o'tkazishni rejalashtirishda foydali bo'ladi.

Ko'p ishlar bo'yicha rejaning asosini taxminlar emas, balki jinoiy faoliyatning epizodlari tashkil etadi. Ko'pincha jinoyatda ishtirok etgan shaxslarni ko'rsatuvchi xo'jalik jinoyatlari haqidagi ishlarda shunday bo'ladi.

Agar tergovda bir emas, balki bir necha tergovchilar ishtirok etsalar yoki ayrim masalalarni aniqlash tezkor xodimga topshiriladigan bo'lsa, rejaga ijrochilarni va ijro etilganligi to'g'risida belgini o'z ichiga olgan bob kiritiladi.

Tergov predmeti va uning doirasi haqidagi masalani hal etish bilan bir qatorda rejalashtirish zarur tergov harakatlari va ularni amalga oshirish ketma-ketligini aniqlashni taqozo etadi. Rejada tergovning batafsil rejasini ishlab chiqish uchun yetarli bo'lgan faktik materialni to'plash maqsadini ko'zlovchi tergov harakatlari alohida o'rin tutishi kerak.

Tergov harakatlarining xususiyatini va ularni o'tkazish muddatlarini belgilash chog'ida ularni amalga oshirish ketma-ketligini o'ylab qo'yish zarur. Birinchi navbatda, muddati qonunda belgilab qo'yilgan kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini (masalan, ushlangan shaxsni so'roq qilishni) hamda bajarilishini cho'zib yuborish dalillarning yo'qolishiga yoki yo'q qilinishiga yoxud jinoyatchilar o'rtasida til biriktirishga olib keladigan harakatlarni (masalan, tintuvni) bajarish belgilanadi.

Rejaning yana bir shaklini – kartochkali rejani tavsiya etish mumkin. Bunday reja oddiylik va tejamkorlik talablariga javob berishdan tashqari ish bo'yicha keyingi harakatlarni osonlashtiradi. Bundan tashqari, bunday reja muayyan darajada materialni avvaldan konspekt qilmaslik, eng oddiy hollarda esa uni almashtirish imkonini beradi.

Bunday shakldagi reja kartochkalar tizimidan iborat bo'lib, tergovchi ularni to'ldirish davomida eng kam vaqt sarflab jinoyat ishi materiallarini tartibga soladi va jinoyat ishi bo'yicha ishlashni rejalashtiradi.

Rejaning mazkur shakllarini ta'riflashni tugatar ekanmiz, rejalashtirishning samaradorligi uning mazmuni bilan belgilanishini ta'kidlashimiz joiz. Har bir aniq holda tergovchi o'ziga to'g'ri keladigan har qanday rejalashtirish shaklini tanlab olishi mumkin. Muhimi, bu reja izlangan natijalarning olinishini ta'minlab, jinoyat ishi bo'yicha tergovni tashkil etishga yordam berishi zarur.

Muvofiqlashtirilgan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv choralarining yagona rejasi tuziladi. Bu ikkita emas, balki bajarilishi tergovchi uchun ham, tezkor xodim uchun ham bir xilda majburiy bo'lgan bitta reja tuzilishini bildiradi. Uning muvofiqlashtirilganligi shundaki, tezkor xodim tergovchining har bir muhim harakatlarini ta'minlashi va ko'zlangan natijaga erishilishi kerak. Masalan, tezkor xodimning jinoiy yo'l bilan orttirilgan boyliklar yashirilgan joyni aniqlashga qaratilgan choralari vaqtda tintuvdan avval kelishi kerak.

Tergovchi va tezkor xodim birgalikda yoki ularning har biri alohida-alohida to'plagan materiallar yagona rejani tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu materiallar birgalikda muhokama qilinadi, shundan keyin savollar va shart-sharoitlar aniqlanadi. Tergovchi surishtiruv organlariga qidiruv va tergov harakatlarini o'tkazish haqida topshiriqlar va ko'rsatuvlar beradi. Ushbu harakatlar qo'shma rejaga bevosita kiritiladi. Biroq qonun tergovchiga operativ choralarni ko'rish xususida shunday huquqlarni bermaydi. Shuning uchun qo'shma rejada tezkor xodimgagina tegishli bo'lgan ushbu choralar emas, balki u aniqlashi kerak bo'lgan holatlar ko'rsatiladi. Rejalashtirishning bunday turi ko'zlangan asosiy

maqsad – harakatlar takrorlanishining oldini olish, tergovchining ham, tezkor xodimning ham imkoniyatlaridan iloji boricha to‘liq foydalanish. Shu bois, ular rejani bajarish uchun muhim bo‘lgan axborotni bir-birlariga darhol xabar qilishlari shart.

Murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan ishlar bo‘yicha har doim ham guruh ishtirokchilaridan biriga topshirilgan u yoki bu holatni aniqlashga qaratilgan tadbirni yagona rejada yetarlicha batafsil yoritishning iloji bo‘lmaydi. Shu bois, guruh a‘zolari muhokama qilgandan so‘ng uning rahbari tuzgan umumiy reja bilan bir qatorda ishning alohida qismlari (taxminlar, epizodlar, obyektlar, shaxslar va sh.k.) bo‘yicha mufassal rejalar tayyorlanadi. Mufassal rejalar va ularni bajarish chog‘ida olingan natijalar guruh rahbariga uning barcha a‘zolarining harakatlarini muvofiqlashtirishda foydalanish uchun xabar qilinadi.

Ichki ishlar organlari tergovchi, agar u ixtisoslashish sharoitida ishlamayotgan bo‘lsa, odatda, bir vaqtning o‘zida bir emas, balki bir necha turli xil ishlarni tergov qiladi. Tergov muddatlari va jinoyatchini aniqlash va ushlab, izlarni to‘plash va saqlashga qaratilgan choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish zarurati ishni bosqichma-bosqich tergov qilishga imkon bermaydi. Vaqtning doimiy ravishda yetishmasligi, qisqa muddat ichida ko‘plab turli-tuman harakatlarni amalga oshirish zarurati, eng qiyin ish bo‘yicha biron-bir vazifani hal etishga butunlay diqqatni qaratish imkoniyatining yo‘qligi boshqa ishlar bo‘yicha rejalashtirilgan tadbirlarni yo‘qqa chiqarishi mumkin. Tergovni rejalashtirish, har bir ish bo‘yicha belgilangan tadbirlarni muvofiqlashtirishni to‘g‘ri tashkil etish barcha ishlar bo‘yicha ishlarning bir tekis amalga oshishiga yordam beradi. Hech bir ish uzoq vaqt harakatsiz qolishi mumkin emas, ularning har biri o‘z vaqtida tergov qilinishi zarur.

Yangi kelib tushgan ish bo‘yicha rejani bajarishga kirishgan tergovchi u bo‘yicha ishni o‘z yurituvida bo‘lgan boshqa ishlar bo‘yicha tergov harakatlarining hajmini hisobga olgan holda muvofiqlashtirishi kerak. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, gumon qilinuvchi shaxslar hibsga olingan sanalarni, joriy oydagi ishlarni tugallash muddatlari va istiqbolini yana bir bor tekshirib chiqish kerak. Yangi ishlar kelib tushganda ularning tamomlanishini yurituvda bo‘lgan ishlarning muddatlari bilan muvofiqlashtirish kerak.

Alohida ishlar bo‘yicha tergov rejasini tuzish bilan bir qatorda tergovchi bir qator ishlari bo‘lganda kalendar ish rejasini (jadvalini) yuritishi zarur. Bunday ish rejasi tergovchi o‘z yurituvida bo‘lgan har bir ish bo‘yicha ilgaridan belgilangan muddat davomida bajarishni mo‘ljallagan hamda sanalar va soatlar bo‘yicha taqsimlangan harakatlar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi.

Gorizontali bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlar, vertikal bo'yicha tergovchining yurituvida bo'lgan barcha ishlar barcha ishlar, shuningdek, ular qo'zg'atilgan va tergovchi o'z yurituviga olgan sanalar belgilab qo'yiladigan yagona yig'ma jadvalni yuritish maqsadga muvofiq. Tergovchi ushbu ro'yxat asosida o'zining barcha ishlar bo'yicha, shuningdek, ishning boshqa uchastkalari bo'yicha harakatlarini rejalashtirishi mumkin. Bunday shakl foydalanish uchun qulay va ko'rgazmalidir: grafikka qarab qaysi ish bo'yicha va qaysi tergov harakatlari hali rejalashtirilmaganligini darhol aniqlash mumkin.

Tergovchining yurituvida bo'lgan har bir jinoyat ishi bo'yicha tergov rejalari va umumiy profilaktik tadbirlar rejasi yig'ma kalendar rejani tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kalendar jadvalda tegishli rejalardan ko'chirib olingan tadbirlardan tashqari katta vaqt sarflash bilan bog'liq bo'lgan, ammo odatda ish bo'yicha tergov rejalarda ko'rsatilmaydigan ishlarni ham nazarda tutish zarur. Masalan, kelib tushgan materiallar va protsessual hujjatlarni o'rganish, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish, ishni rasmiylashtirish; militsiya xodimlariga topshiriqlarni, tergov qilish va hibsdan saqlab turish muddatlarini uzaytirish haqidagi iltimoslarni tayyorlash, majlisda ishtirok etish va sh.k.

Kalendar rejalashtirish tergovchini tartibga soladi va intizomli qiladi, chunki belgilangan vazifaning bajarilishini nazorat qilish natijasida uning ish kuni zichlashadi, harakatlari esa iloji boricha maqsadga yo'nalgan xususiyatga ega bo'ladi. Jadval – o'zini o'zi nazorat qilish vositasi, boshliqning nazorat qilish vositasi emas. Aks holda grafik rasmiyat-chilikka aylanib qoladi.

Kalendar rejaning har qanday shakli tergovchi ishining samaradorligini oshiradi va uning katta hajmdagi ishlarni bajarishiga imkon beradi.

4.2. Dastlabki tergov muddatlarini uzaytirish

Dastlabki tergov muddatlari JPKga asosan uch oy etib belgilangan. Agarda jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda tamomlashning imkoniyati bo'lmasa, ushbu muddat Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar yoki Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan besh oygacha uzaytirilishi mumkin.

Keyinchalik ushbu muddat faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari tomonidan yetti oygacha uzaytirilishi mumkin. Alohida holatlarda sodir etilgan jinoyatning og'irligi va tergov qilinayotgan ishning murakkabligini hisobga olgan holda dastlabki tergov muddati Bosh prokuror tomonidan bir yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Tergovchi tegishli tuman, shahar, viloyat prokurori yoki unga tenglashtirilgan prokurordan dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqidagi iltimosni tergovchi muddat o'tishidan besh kun avval tegishli prokuraturaga taqdim etishi kerak. Tajribaning ko'rsatishicha, tergovchi ushbu prokurorlardan dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqida iltimos qilish to'g'risidagi qarorni ushbu muddat tugashiga 7–9 kun qolganda tayyorlab qo'yish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz Bosh prokuroridan dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqida iltimos qilingan hollarda jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Prokuroriga, qoida tariqasida, ushbu muddat tugashidan kamida 20 kun avval taqdim etilishi kerak. Ushbu iltimosni tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat yoki Toshkent shahar prokurori qo'llab quvvatlashi kerakligini inobatga oladigan bo'lsak, tergovchining bu holni ish bo'yicha tergovni rejalashtirayotganda inobatga olishi kerakligi ma'lum bo'ladi. Tergovchiga qarorni tegishli muddat tugashiga 15–20 kun qolganda tuzish tavsiya etiladi.

Tergovchi dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqida iltimos qilish haqidagi qarorni shaxsan tegishli prokuraturaga jinoyat ishining barcha materiallari bilan birga taqdim etadi.

Jinoyat ishlarini tergov qilishning muddatiga rioya etilishining idoraviy nazorati amaliy bo'lishini kuchaytirish hamda tergov qilayotgan tergovchiga o'z vaqtida metodik yordam berish uchun ichki ishlar organlarida tergov qilish yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish haqida iltimos qilish to'g'risidagi qaror ichki ishlar tuman va shahar organi tergov bo'linmasining boshlig'i va Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, viloyat IIB va Toshkent shahar IIBB tergov organining boshlig'i bilan kelishish kerak bo'ladigan tartib o'rnatilgan.

Mazkur iltimosnoma viloyat prokurori yoki unga tenglashtirilgan prokurorga berilgan hollarda dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqidagi materiallar O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga tegishli prokurorning roziligi bilan IIV tergov boshqarmasi orqali taqdim etiladi.

Tergovchi tergov muddatini uzaytirish zarur bo'lganda bu to'g'rida o'z vaqtida asoslangan qaror tuzishi shart. Dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqida iltimosni o'z vaqtida qilmaslik qonuniylikni jiddiy ravishda buzish deb qaraladi.

Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov muddatini uzaytirish haqida iltimos qilishning qat'iy belgilangan tartibi jinoyat protsessining ishtirokchilar bo'lgan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etishga ko'maklashishga, jinoyat ishlari bo'yicha tergov qilishda cho'zib

yuborish va sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qilishi kerak. Muddatni uzaytirish zarurati odatda murakkab va ko‘p epizodli ishlar bo‘yicha yuzaga keladi. Bu esa tergovchidan ancha puxtalik va sinchkovlikni, tergovni aniq tashkil etish va rejalashtirishni, ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalaridagi kuch va vositalardan mohirlik bilan foydalanishni talab etadi.

Sud jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytargan hollarda tergovni nazorat qilayotgan prokuror bu muddatni ish unga kelib tushgan paytdan boshlab bir oy doirasida uzaytirish mumkin. Muddatni bundan keyingi uzaytirish umumiy tartibda amalga oshiriladi.

4.3. Jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratish

Tergovchining faoliyatida ko‘pincha jinoyat ishlarini birlashtirish yoki ajratish masalasini hal etish zarurati yuzaga keladi. Bular – yagona protsessual institutni tashkil etadigan o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularning mazmuni tergov ishining hajmini to‘g‘ri belgilash, ya‘ni muayyan jinoyat ishi doirasida tergov qilinishi kerak bo‘lgan, shuningdek u bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak bo‘lgan shaxslar doirasini aniqlashdan iborat.

Jinoyat ishlarini birlashtirish yoki ajratish masalasini hal etishda qonunni to‘g‘ri qo‘llash tergovning har tomonlamaligi, to‘laligi va xolisligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlash va uni hal etishning zaruriy shartidir. Shu bois JPKda jinoyat ishini qo‘shimcha tergov uchun yuborish asoslari ichida jinoyat ishlarini noto‘g‘ri birlashtirish va ajratish ko‘rsatiladi (JPK 419-m. 1-q. 7-b.).

Shu bilan birga ba‘zan ichki ishlar organlari tergovchilari jinoyat ishlarini birlashtirish haqidagi masalani hal etishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ulardan eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilar:

a) turli xil va o‘zaro aloqasi bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha ishlarni birlashtirish. Sud amaliyotini tahlil etish mazkur xatoga tergovchilar jinoyat hodisalari ular sodir etilgan vaqt va joy bo‘yicha o‘zaro mos kelganda yo‘l qo‘yilishini ko‘rsatdi. Jinoyatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan shaxslar tomonidan bir xil usulda sodir etilganda jinoyat ishlarini birlashtirish mazkur xatoning boshqa shaklidir. Turli jinoyatlar haqidagi ishlar bitta jabrlanuvchi bo‘lganligi bois birlashtirilgan hollar ham uchraydi;

b) ayni bir shaxs bir ishda ayblanuvchi, boshqasida esa jabrlanuvchi bo‘lgan ikki ishni birlashtirish. Masalan, bir ishda Toshpo‘latov va Rustamovni JKning 169-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etishda ayblash bo‘yicha ishlar birlashtirilgan edi. Toshpo‘latov vokzalda

Rustamovning jomadonini o'g'irlagan, ammo militsiya xodimlari tomonidan ushlangan, jomadonni ko'zdan kechirish vaqtida unda fuqaro Kenjayevning xonadonidan o'g'irlangan buyumlar topilgan edi. Tergovning aniqlashicha Kenjayevning xonadonidan narsalarni jabrlanuvchi Rustamov o'g'irlagan ekan. Sud o'z ajrimida ikki mustaqil jinoyat haqidagi ishlar noto'g'ri birlashtirilganligini ko'rsatishi va ularni ajratish uchun ishni qo'shimcha tergovga yuborishi mumkin;

v) bir necha ayblanuvchilar ishini bir ishga birlashtirish.

Tergovchiga jinoyat ishlarini birlashtirish yoki ajratish haqidagi masalani mustaqil hal etish huquqi berilgan. Bitta tergov yoki sud ish yurituviga faqat bir necha shaxsning bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar yoxud bir shaxsning bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar birlashtirilishi mumkin.

Bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi (JPK 332-m. 1-2-q.). Hajmi va ayblanuvchilar soni bo'yicha haddan tashqari katta jinoyat ishlarini tergov qilish tergovchining ishini qiyinlashtiradi, tergovning to'laligi, har tomonlamaligi va xolisligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatlar odatda talon-tarojlikka oid murakkab va ko'p epizodli ishlarni tergov qilishda uchraydi.

Ayni paytda faqat zarur bo'lgan hollarda va bu tergovning har tomonlamaligi, to'laligi va xolisligiga ta'sir etmaydigan bo'lsagina bunday toifadagi ishlar bo'yicha jinoyat ishlarini ajratishga yo'l qo'yiladi. Aks holda ishlar bir ishga birlashtirilishi kerak. Tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishining mazkur holatga doir qismi jinoyat ishi qo'zg'atilgan holda alohida ish yurituvga ajratiladi (JPK 332-m. 3-q.).

JPK 332-modasining 4-qismiga muvofiq, ishlarni birlashtirish va ajratish tergovchining qarori bilan amalga oshiriladi. Qaror uch qismdan, ya'ni kirish, tavsiflash va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Kirish qismi qaror chiqarilgan joy va sana; uni chiqargan shaxs (lavozimi, unvoni, familiyasi); birlashtirilishi lozim bo'lgan har bir ishning nomeri va varaqlarining soni haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Tavsiflovchi qismi har bir birlashtirilgan ishning qisqacha mazmuni va ularni birlashtirish uchun asoslarni (JPK 332-moddasiga havola qilgan holda) aks ettiradi.

Qarorning xulosa qismi birlashtirish natijasida yuzaga keladigan ishning nomeri, ish bo'yicha tergov muddatini hisoblash kerak bo'lgan kun haqidagi ma'lumotlarni; tergovchining ishni o'z yurituviga olish yoki tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish haqidagi qarorini aks ettirishi kerak.

JPKning 351-moddasi 2-qismiga muvofiq "Jinoyat ishlari birlashtirilayotganda ular bo'yicha ish yuritish muddati uzoqroq muddat davomida tergov qilingan jinoyat ishi bo'yicha belgilanadi. Bunda qolgan jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish muddati uzoqroq tergov qilingan ishning muddati bilan qamrab olinadi va qo'shimcha ravishda hisobga olinmaydi"¹.

To'xtatilgan va tugatilgan ishlarni birlashtirish masalasi qiyinroq hal etiladi, chunki bunda ishni to'xtatish haqidagi qarorni bekor qilish yoki u bo'yicha ishni boshlash zarur bo'ladi. Bunda agar to'xtatilgan ish bo'yicha dastlabki tergovni qayta boshlash tergovchining asoslangan qarori bilan amalga oshirilsa, jinoyat ishini tugatish haqidagi qarorni bekor qilish prokurorning vakolatiga kiradi.

Jinoyat ishlarini birlashtirishda birlashtirilgan ishda materiallarni tartibga solish masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Tergov materiallarini to'g'ri tartibga solish va tasniflash nafaqat ish mazmuni bilan tezda tanishishga yordam beradi, balki tergov jarayonida bu materiallardan foydalanishni ancha osonlashtiradi.

Jinoyat ishlarini birlashtirish birlashtirilgan jinoyat ishlari bo'yicha bajarilgan ishlarni inobatga olib, asosiy ish rejasiga zarur tuzatishlar kiritish zaruratini yuzaga keltiradi. Muayyan ishning xususiyatidan kelib chiqib birlashtirilgan jinoyat ishi bo'yicha yagona ish rejasi ham, epizodlar, tasmollar bo'yicha rejalar ham tuzilishi mumkin.

Birlashtirilgan, ko'p epizodli va katta hajmli jinoyat ishlarini tergov qilish uchun tergov va tergov-tezkor guruhlar tuzish maqsadga muvofiq.

Ayni paytda JPKning boshqa normalarini tahlil qilish jinoyat ishlarini ajratishga asos bo'lib quyidagilar xizmat qilishi mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradi:

– materiallari bir ishga jamlangan ayrim jinoyatlar yoki ularni sodir etgan shaxslar o'rtasida aloqaning yo'qligi;

– ayrim ayblanuvchilarga nisbatan tergovning to'xtatilganligi;

¹ JPKning 351-moddasi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 13-dekabrda qonuni asosida ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to'ldirilgan // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – 50-51-сон. – 502-м.

– voyaga yetmagan shaxsning kattalar bilan birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok etganligi;

– katta hajmdagi ish va ko‘p sonli ayblanuvchilar bilan bog‘liq jinoyat ishini tergov qilishning murakkabligi.

Jinoyat ishlarini asossiz ajratish jinoyatlarni tergov qilishni qiyinlashtiradi, fuqarolar huquqlarining poymol etilishiga olib keladi, sudning jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning jamiyat uchun xavflilik darajasini to‘g‘ri aniqlashiga xalaqit berishi mumkin.

Tergovchi jinoyat ishini ajratish to‘g‘risida asoslangan qaror chiqaradi. Ushbu qaror uch qismdan, ya‘ni kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Kirish qismida qaror chiqarilgan joy va sana; uni chiqargan shaxs (lavozimi, unvoni, familiyasi) haqidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi.

Tavsif-asoslantirish qismida asosiy ishning qisqacha mazmuni, jinoyat ishini alohida ishga ajratish asoslari (JPKning aniq normasiga havola qilgan holda) bayon etiladi.

Qarorning xulosa qismida quyidagi ma‘lumotlar aks ettirilishi kerak: tergovchining jinoyat ishini ajratish haqidagi qarori; ishi alohida ishlarga ajratilayotgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlar; ajratilishi lozim bo‘lgan asosiy ish materiallari (bunda tergovchi ushbu materiallar asl nusxalari yoki kopyalari bo‘yicha ajratilishi kerakligini hal qiladi), ishni yurituvga olish yoki tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborish haqidagi qaror, ajratilgan ish bo‘yicha muddatlarni hisoblash uchun zarur ma‘lumotlar.

JPKning 351-moddasi 3-qismiga muvofiq “Alohida ish yurituvga ajratilgan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov muddati, agar jinoyat ishi yangi jinoyat bo‘yicha yoki yangi shaxsga nisbatan ajratilayotgan bo‘lsa, tegishli qaror chiqarilgan kundan e‘tiboran hisoblanadi. Qolgan hollarda muddat bu jinoyat ishi qaysi jinoyat ishidan alohida ish yurituvga ajratilgan bo‘lsa, o‘sha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan e‘tiboran hisoblanadi”¹.

Ajratilgan asosiy ishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun qaysi materiallar asl nusxalarida, qaysilari ko‘chirmalar bo‘yicha ajratilishi kerakligini to‘g‘ri belgilash zarur. Ushbu masalani hal etish uchun materialning asosiy va ajratilgan ish uchun ahamiyati belgilash maqsadga muvofiqdir.

¹ JPKning 351-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 13-dekabrdagi qonuni asosida ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – 50-51-сон. – 502-м.

Asosiy ish boshqa ish ajratilganidan so'ng ajratilgan materiallarni hisobga olgan holda qayta raqamlab chiqilishi kerak.

4.4. Tergovchining ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari bilan hamkorligi

Tergovchi o'zi tergov qilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv organlariga qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish to'g'risida topshiriqlar berish va surishtiruv organidan ayrim jinoyat ishlarini yuritishda yordamlashishni talab qilishga haqlidir. Biroq samarali hamkorlik o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun tergovchining ham, ichki ishlar organlari boshqa xizmatlarining ham g'ayrat ko'rsatishi zarur.

Hamkorlikni tashkil etish uchun mas'uliyat IIV idoraviy hujjatlari bilan tegishli ichki ishlar organlari boshliqlariga yuklatiladi. Ammo bu tergovchining o'rni kamsitmaydi.

Tergovchi hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun quyidagi ishlarni tashkil etadi:

- hamkorlik boshlanadigan paytni belgilash. Hamkorlik qancha erta boshlansa, tezkor xodimlarning yordamidan shunchalik faol foydalanish mumkin bo'ladi;

- hamkorlik shaklini belgilash: ayrim topshiriqlar va ko'rsatuvlarni berish yoki bir guruh tergovchilar va tezkor xodimlari tomonidan jinoyatni tergov qilish. Tergovni guruh tomonidan amalga oshirish haqidagi qarorni chiqarish ichki ishlar organi boshlig'ining vakolatiga kiradi, lekin ushbu guruhni o'z vaqtida tuzish tergovchining ham, tergov bo'linmasi rahbarining ham tashabbusiga bog'liq;

- agar guruh bo'lib tergov qilish usulidan foydalaniladigan bo'lsa, guruh rahbari qilib tayinlangan tergovchiga ushbu guruhga kiruvchi barcha xodimlarga, jumladan, tezkor xodimlarga tashkiliy rahbarlik qilish vazifasi yuklatiladi;

- tergov harakatlarini yoki protsessual qidiruv choralarini ko'rish (ularning maqsadi, xususiyati, taktikasi va b.) haqidagi topshiriq mazmunini belgilash;

- agar tergovchining harakatlarida tezkor xodimning ishtirok etishi zarur bo'lsa, u ushbu ishtirok nimadan iborat bo'lishi kerakligini belgilashi kerak: tergov harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlarini yaratishdami, unda bevosita ishtirok etishdami, yoki tergov harakatining samaradorligini oshirishga qaratilgan operativ choralarni qo'llashdami (ushbu choralarning mazmuni tezkor xodimga bog'liq);

– tergov harakatlarini va tezkor-qidiruv choralari birgalikda va muvofiqlashtirilgan holda rejalashtirish va rejaning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha tashabbus ko'rsatish tergovchining ishi.

Samarali hamkorlikni ta'minlovchi aniq tashkiliy choralarning xususiyati va mazmuni ushbu hamkorlik yuzaga kelgan vaziyatga bog'liq. Eng ko'p tarqalgan vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

a) tergovchi va tezkor xodimning hodisa joyiga birgalikda chiqishi va jinoyatni «issig'ida» ochishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishi hamda jinoyat ishini qo'zg'atish masalani hal qilishi;

b) tezkor xodimning jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi masalani hal etish uchun o'zi to'plagan materiallarini tergovchiga taqdim etishi;

v) jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak bo'lgan shaxs, jumladan ayblanuvchi qayerda ekanligi noma'lum bo'lganligi sababli yuritishdan to'xtatilgan ish bo'yicha javobgarlikka tortilishi kerak bo'lgan shaxs aniqlanganidan keyin tergovchining tezkor xodimga topshiriq yo'llashi va undan olingan tergovchining o'zi rasmiy materiallar bo'yicha qo'zg'atgan yoki surishtiruv organidan (tezkor xodimdan yoki ixtisoslashgan surishtiruv xizmatining xodimidan) olgan ishga doir axborotdan foydalanishi;

g) tergovchining o'zi qo'zg'atgan jinoyat ishini bergan tezkor xodimdan olingan axborotdan ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishiga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxsni aniqlaguncha foydalanishi;

d) bitta murakkab yoki ko'p epizotli jinoyat ishini tergovchi (tergovchilar) tezkor xodim (xodimlar) bilan hamkorlikda tergov qilish.

Eng murakkab vaziyatlar tergovchiga surishtiruv organidan berilgan ochilmagan jinoyatlar haqidagi ishlar bo'yicha hamkorlikni tashkil etishda yuzaga keladi. Tergovchi ishni o'z yurituviga olar ekan, jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etish uchun surishtiruv organi bilan bir qatorda javobgar bo'ladi. Ochilmagan jinoyatlar bo'yicha hamkorlik qilishning xususiyati shundaki, tergovchiga jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlab bo'lmagan ish berilganda surishtiruv organi tergovchini natijalardan xabardor qilgan holda jinoyatchini aniqlash uchun tezkor-qidiruv choralari ko'radi. Agar tezkor-qidiruv choralari natijasida olingan ma'lumotlarni mustahkamlash uchun tergov harakatlarini amalga oshirish talab etilsa, tezkor xodim bu to'g'rida tergovchini xabardor qiladi. Tergovchi tergovni o'zi o'tkazishi yoki bu ishni tezkor xodimga topshirishi mumkin. Shu bois bunday hamkorlikning muhim elementini takrorlashga yo'l qo'ymaslik, ish bo'yicha bajarilayotgan tadbirlar tergovchi va tezkor xodimlarning vazifalari aniq ajratib qo'yilgan holda

doimiy ravishda muvofiqlashtirib turilishi uchun o'z vaqtida axborot almashuvini tashkil qilishdan iborat.

4.5. Dastlabki tergovda fan-texnika vositalaridan foydalanishni tashkil qilish

Dastlabki tergovda fan-texnika vositalaridan (FTV) o'z vaqtida va to'g'ri foydalanish tergovchining faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning muhim vositasidir. IIVning idoraviy normativ hujjatlarida doimo tergov amaliyotida ilmiy usullar va kriminalistik vositalarning, shuningdek ilg'or tajriba yutuqlarining keng qo'llanilishiga erishish zarurligi ta'kidlanadi.

Tergov harakatlarini amalga oshirish chog'ida fotosuratga olish, kinoga olish va ovoz yozish, rejalar, chizmalar, izlarning nusxalarini olish usullaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi. FTVni dastlabki tergovda qo'llash isbotlash jarayonida qayd etuvchi, izlovchi, ekspert va namoyish etuvchi texnikadan, shuningdek, mehnatni ilmiy tashkil etish vositalaridan foydalanish orqali jinoyat ishlari bo'yicha jinoyatlarni tergov qilish uchun qulay sharoit yaratish vazifasini bajarish kerak. Ulardan foydalanish uchun asos bo'lib tergovchining qarori xizmat qiladi. Ushbu qarorni tergovchi JPK asosida chiqaradi. FTVdan foydalanish haqidagi ko'rsatuvni prokuror va tergov bo'linmasining boshlig'i ham berishi mumkin. FTVni qo'llash haqida, bundan tashqari, tergov harakatlarini o'tkazishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi ularning qonuniy vakillari va boshqalar ham iltimos qilishlari mumkin.

FTVni tergovchining bevosita o'zi ham, shu maqsadda taklif etilgan mutaxassis ham ishlatishi mumkin. Biroq istiqbolda tergovchi FTVni qo'llash bilan bog'liq texnikaviy ishdan ozod qilinishi kerak, chunki bu uni tergov harakatlarini bajarishdan chalg'itadi.

Tergov harakatlarini amalga oshirish chog'ida FTVdan foydalanish tergov harakatlarini tayyorlashga muayyan talablar qo'yadi. Masalan, tergovchi ovoz yozish qurilmalarini qo'llamasdan so'roq qilishga tayyorgarlik ko'rayotganda, odatda, aniqlanishi lozim bo'lgan masalalarning va ular ketma-ketligining umumiy jihatlarinigina belgilab oladi. Ovoz yozish qurilmasidan foydalan-ganda esa buning o'zi yetarli emas. Bunda savollarning ifodalanishini, ularning ketma-ketligini o'ylab ko'rish va yozib olish, so'roqni nimadan boshlash va qaysi tartibda o'tkazish, qanday dalillardan foydalanish va ularni qaysi paytda taqdim etish (ko'rsatish) kabi masalalarni o'ylab ko'rish zarur.

Shu bilan birga, tergov harakatlarining kodi va natijalarini qayd etishning qo'shimcha vositasi sifatida FTVdan muvaffaqiyatli foydalanishni ta'minlovchi sof tashkiliy tadbirlar ham bor. Ularga quyidagilar kiradi:

– yetarlicha tekshirib ko‘rilgan va tergov harakatining vazifalariga javob beradigan zarur asbob-uskunalarini qidirib topish va tayyorlab qo‘yish;

– xona iloji boricha begona tovushlarning (eshiklarning taqillashi, o‘tib ketayotgan transport shovqini, telefon qo‘ng‘iroqlari, xonada begona shaxslarning paydo bo‘lishi va b.) bo‘lishiga qarshi, shuningdek, akkustikali (ovoz o‘tkazuvchi) va yoritiladigan joyda amalga oshirgan ma‘qul;

– tergov harakatlarining ishtirokchilari uchun joy hozirlash, kinoapparat, magnitofon yoki videomagnitofon va mikrofon o‘rnatish. Ular videoyozuv aniq, tovush esa tekis chiqadigan qilib o‘rnatilishi kerak;

– foydalaniladigan FTVning sozligini tekshirish, ulardan foydalanish rejimini belgilash va asbob-uskunalarini hamda FTV foydalaniladigan sharoitning mosligini tekshirish uchun sinov yozuvi yoki syomkasini amalga oshirish.

Dastlabki tergovda FTVdan, birinchi navbatda video va ovoz yozish, foto va kinosuratga olish usullaridan tergov harakatlarining borishi va natijalarini qo‘shimcha tarzda qayd etish uchun foydalanish amaliyoti ko‘proq tarqalgan. Tergovchi dastlabki tergov chog‘ida axborotni qayd etishning qo‘shimcha usullarini belgilash paytida bir qator omillarni inobatga olishi kerak. Xususan, ularning eng muhimlaridan biri ushbu axborotni kelgusida adekvat aks ettirish imkoniyatini qidirib topishdir.

FTV hodisa joyini ko‘zdan kechirish, eksperiment o‘tkazish, tanib olish uchun ko‘rsatish, ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish singari tergov harakatlarini amalga oshirishda ko‘p qo‘llaniladi. Odatda, ushbu tergov harakatlarida foto va kino suratga olish, video yoki ovozli yozuvlaridan foydalaniladi. Shu bois tergovchi ushbu texnikani bilishi va mutaxassis bo‘lmaganda ulardan foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak.

Nazorat uchun savollar

Ichki ishlar organlari tergov apparatida ishni tashkil etish tizimining mazmuni nimadan iborat?

Tergovchilarning ixtisosligi nimadan iborat?

Bir guruh tergovchilar jinoyatlarini qanday tergov qiladilar?

Guruh bo‘lib tergov qilish usulining qanday turlari bor?

Tergov bo‘linmasi tergov guruhidan nimasi bilan farq qiladi?

Tergov bo‘linmasi va tergov guruhi rahbarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Tergovchi surishtiruv organlari bilan qanday hamkorlik qiladi?

Tergovchining ekspert-kriminalistik bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorligi qanday xususiyatlarga ega?

5-BOB. DASTLABKI TERGOVDA HIMOYALANISH HUQUQINI TA'MINLASH

5.1. Dastlabki tergovda himoyachi ishtirokining huquqiy asoslari

Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari advokaturaning jamiyatdagi o'rnini va oddiy insonlar hayotidagi rolini mustahkamlash zarurligini yaqqol namoyon qildi. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida alohida to'xtalib, jumladan shunday degan: «hozirgi vaqtda mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro tortishuv bo'lishini ta'minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2008-yilda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bu borada g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda amaldagi qonunchiligimizga sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta'minlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan advokatura mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu qonunga muvofiq, himoyachiga jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslardan mutlaqo mustaqil ravishda jinoyat ishi protsessining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam ko'rsatish huquqi berilgani e'tiborga sazovordir. Shu bilan birga, himoyachining ko'rilayotgan ishda ishtirok etish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o'ziga ijozat berilgani to'g'risida yozma ravishdagi tasdiqlovchi hujjat va shuningdek, o'z himoyasidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsat olish majburiyatini belgilaydigan normalar jinoyat-protsessual qonunchiligidan chiqarildi. Endilikda bularning barchasi uchun — shunga e'tibor beringlar – advokatlik guvohnomasi va advokatlik muassasasi tomonidan beriladigan orderning o'zi kifoyadir¹».

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Т., 2010. – Б.55.

Advokatura fuqarolik jamiyatning instituti sifatida shu jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xorij fuqarolarining huquq va erkinliklarini muhofaza qilish va himoyalashga xizmat qiladi. Bu asosan shaxsning himoyalaniş huquqini ro'yobga chiqarilishiga bevosita bog'liq. Bu huquqning ta'minlanishi mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish masalalari orasida doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yildagi «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni, 1993-yildagi «Sudlar to'g'risida»gi qonuni, 1994-yildagi Jinoyat – protsessual kodeks, 1996-yildagi «Advokatura to'g'risida»gi qonun, 1998-yildagi «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi qonunda, amaldagi qonun hujjatlariga oxirgi yillarda kiritilib borilgan o'zgartish va qo'shimchalarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yildagi «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida aks ettirilganligi bilan isbotlanadi.

Shaxsning himoyalaniş huquqi insonning asosiy va ajralmas huquqlari silsilasiga kirib, uning ta'minlanganligi darajasi davlat qonunchiligi tizimining halqaro standartlarga mos kelishini hamda mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanganligi va rivojlanganligini baholashning mezoni bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "...ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi" deb tartibga solinganligi O'zbekiston Respublikasida shaxsning himoyalaniş huquqini ta'minlashning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konstitutsiyaviy qoida, o'z navbatida, amaldagi Jinoyat–protsessual kodeksining 24-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash prinsipi sifatida, "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida advokatning vazifasi sifatida mustahkamlangan.

Amaldagi JPKga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalaniş huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalaniş uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish majburiyati bilan ta'minlanadi, ya'ni mas'ul mansabdor shaxslarning zimmasiga shaxsga himoyalaniş uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish majburiyati yuklatiladi. Aynan shunday

qoida JPKning 64-moddasida protsess ishtirokchilarining huquqlarini tushuntirib berish va bu huquqlarni amalga oshirishni ta'minlash majburiyati sifatida mustahkamlangan bo'lib, unga asosan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, shuningdek, jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga berilgan huquqlarini tushuntirib berishi va bu huquqlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashi shart.

Ushbu masala mamlakatimiz Oliy sudining Plenumida bir necha marotaba muhokama qilinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori bilan sudlar va sudga qadar ish yurituvni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun rahbariy qoida sifatida mustahkamlangan. Unga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va oqlangan shaxsning himoya huquqi jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda asos qilib olinuvchi prinsiplardan biri bo'lib, ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilinishini kafolatlashga qaratilgan.

Yuqorida keltirigan qonun normalari va rahbariy qoidalarning ijrosini ta'minlash va mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati institutlarini samarali ishlashini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov Bosh Boshqarmasi 2003-yilda Respublika Advokatlar assotsiatsiyasi (hozirgi Advokatlar palatasi) bilan "Qo'lga olinganlar, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlashni tashkil etish bo'yicha bayonnoma"ni imzolagan. Ushbu bayonnomaning eng yutuqli jihati shundan iboratki, unga asosan respublika ichki ishlar idoralarining barcha bo'g'in tergov bo'limi, bo'linmasi va guruhlariga muayyan hududdagi huquqiy maslahatxonalar birlashtirilgan. Birlashtirilgan har bir huquqiy maslahatxonada advokatlarning navbatchiligi tashkil etilgan bo'lib, bu narsa qo'lga olinganlar, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning himoyalash huquqlarini ta'minlashni samarali tashkil etish maqsadini ko'zlagan. Advokatlarning navbatchiligi nafaqat ish paytida, balki ishdan bo'sh paytda, shu jumladan, dam olish, bayram kunlari ham tashkil etilishi belgilangan.

Ushbu bayonnoma bilan advokatlarning navbatchiligini tashkil etish, advokatlarni jinoiy ishda ishtirok etish uchun taklif qilish va ularning ishtiroki tartibi, davlat hisobidan himoyaning ta'minlanishi va himoyadan voz kechish tartibining rasmiylashtirilishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining himoyaga bo'lgan huquqning buzilishi faktlari yuzasidan norozi bo'lib shikoyat qilish tartibi kabi masalalar batafsil tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuniga asosan shaxsning himoyalani sh huquqini ta‘minlash masalasi jiddiy ravishda isloh qilindi, ayblanuvchi qamoqqa olinganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish huquqlari bilan, gumon qilinuvchi esa ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e‘tirof etilganligi to‘g‘risidagi qaror unga ma‘lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan holi uchrashish; ushlanganidan keyin yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay so‘roq qilinishini talab qilish; o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to‘g‘risida ko‘rsatuvlar berish yoxud ko‘rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish kabi huquqlar bilan ta‘minlandi. JPKning 49-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, himoyachining ishda ishtirok etishga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etilishi belgilandi. Bu halqaro huquqdagi «Miranda qoidasi»ning milliy qonunchilikda aks ettirilganligining yaqqol misolidir.

Yuqorida qayd etilgan huquqlarning amalga oshirish mexanizmi samarali ishlashini tashkillashtirish maqsadida 2009-yil 28-fevralda Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, IIV, MXX va Davlat bojxona qo‘mitalarining qo‘shma ko‘rsatmasi ishlab chiqilib respublika hududida sudga qadar ish yurituvi jarayonida shaxsning himoyalani sh huquqini ta‘minlashda qo‘llash uchun yuborilgan. Ushbu hujjatda surishtiruv va dastlabki tergov idoralari tomonidan jinoyat sodir etishda gumon qilingan, ushlangan yoki ayblanayotgan shaxslarning himoyalani sh huquqini ta‘minlash bo‘yicha mamlakatimiz qonun hujjatlarini qo‘llash tartibi, tuziladigan protsessual hujjatlarining namunalari keltirilgan.

Yuqoridagi keltirilganlar mamlakatimizda shaxsning himoyalani sh huquqini ta‘minlashning jahon andozalariga mos keladigan samarali mexanizmi yaratilganligini va huquqiy tartibga solinganligini e‘tirof etilishiga asos bo‘ladi.

5.2. Dastlabki tergovda himoyachining protsessual maqomi

Himoyachi (advokat) – gumon qilinuvchi, ayblanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ushbu shaxslarning aybsizligi yoki aybini yumshatuvchi hollarni aniqlash, gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga zaruriy huquqiy yordam berish funksiyasini amalga oshiruvchi shaxs¹. JPK 49-moddasiga binoan, himoyachi gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko‘rsatgandan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo‘yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi. Qonunda qayd etilgan himoyachini taklif etish vaqti inson huquqlarini mustahkamlaydi.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta‘minlaydi.

Tanlangan himoyachining yigirma to‘rt soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo‘lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif etishni yoki himoyachi tayinlashni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshkarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmalariga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi,

ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi istalgan vaqtda ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir.

Ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to'lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haklidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga hak to'lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo'ladi.

Bir kator hollarda, ularni JPK himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollar deb e'tirof etadi. Bu hollarda ayblanuvchi o'zini himoya qilishda yoki qiynaladi yoki bu masalada yuridik jihatdan layoqatsizdir, yoxud agarda taraflarning tengligini va protsessning tortishuvligini, ishni har tomonlama, xolisona va obyektiv ravishda tekshirilishi talab qilinsa, u holda himoyachining ishtirok etishi shartdir.

Himoyachi jinoyat protsessida keng huquqlar bilan ta'minlangan. «Advokatura to'g'risida»gi qonunning 6-moddasiga binoan, quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;

- sudlarda, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda dalil sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash;

- yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan davlat organlaridan, korxonalar, muassasalar, tashkilotlardan hamda jamoat birlashmalaridan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

- yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspert xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumotnoma-maslahatlarini mijozning roziligi bilan so'rash va yozma tarzda olish;

- unga vakolat bergan yoki uning himoyachida bo'lgan shaxsga nisbatan ish yuritayotgan sudga va boshqa davlat organlariga to'plangan materiallarni taqdim etish;

- mansabdor shaxslarga iltimosnoma va shikoyat berish hamda ulardan yozma tarzda dalil-isbotli javob olish;

- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish. Advokat yordamchiga ega bo'lishi mumkin.

Advokatning majburiyatlariga o'z kasbiy faoliyatida amaldagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi, unga yuridik yordam so'rab murojaat

etgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun qonunda ko'zda tutilgan vositalar va usullardan foydalanishi shartligi, muayyan ish bo'yicha yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki avval yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so'rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o'tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirok etgan, shuningdek, ishni dastlabki tergov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo'lmish mansabdor shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo'lsa, xuddi shuningdek, advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdor bo'lgan va bu hol unga o'z ishini topshirgan shaxsning manfaatlariga zid keladigan hollarda yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emasligi, advokat kimning manfaatlarini himoya qilish topshirig'ini olgan bo'lsa, o'z vakolatlaridan shu shaxsning zarariga foydalanishga hamda gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini himoya qilishdan bosh tortishga, agar mijozning o'zi bundan ozod etmasa, haqli emasligi, jinoiy ishni ko'rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emasligi kabi qoidalarni kiritish mumkin.

JPKning 53-moddasiga ko'ra, himoyachi: manfaatlarini himoya kilayotgan shaxsning nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish; advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan so'ng ishda ishtirok etish; gumon qilinuvchi so'roq qilinayotganda ishtirok etish, shaxsga ayblov e'lon qilinayotganda hozir bo'lish hamda ayblanuvchi so'roq qilinayotganda, shuningdek ularning ishtirokida o'tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga savollar berish; boshqa tergov harakatlari yurgizilayotganda surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan ishtirok etish; o'zi ishtirok etgan tergov harakatining yuritilishi xususida yozma mulohazalar berish; iltimosnoma berish va rad etish; JPKning 87-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish; gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o'tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan, dastlabki tergov tamom bo'lganidan keyin esa jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish,

materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; agar himoyani amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish; sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va bu haqda o'z mulohazalarini bildirish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlar to'g'risida bilish hamda ularga nisbatan e'tirozlar bildirish; apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda bo'lsa, himoyachi u bilan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli. Himoyachi o'z vazifasini amalga oshirishi munosabati bilan bilgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Agarda ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda bo'lsa, himoyachi u bilan xoli uchrashishga haqlidir. Bunda uchrashuvlar soni va davom etish vaqti chegaralanmaydi.

5.3. Himoyachini dastlabki tergovda ishtirok etishga jalb etilishi xususiyatlari

Himoyachi gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko'rsatgani-dan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, iltimosnomasi bo'yicha tergovchining qaroriga binoan yo'l qo'yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPK 49-m.).

Jinoyat ishlari bo'yicha himoyachi ishtiroki huquqiy asoslarining tubdan o'zgartirilishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2008-yil 1-may farmoni va O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi-ning 49-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi 2008-yil 15-sentabr va «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2008-yil 31-dekabr qonunlari xizmat qildi. Ularga muvofiq, himoyachi jinoyat protsessining har qanday bosqichida ishda ishtirok etishga kirishishi mumkinligi belgilandi va dastlabki tergov bosqichida taraflarning tengligini amalda ta'minlandi. Chunonchi, JPKning 87-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari dastlabki tergovda himoyachining vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi, ya'ni "Himoyachi dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni: ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to'plashga haqli. Himoyachining ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq to'plangan materiallarni ishga qo'shib qo'yish to'g'risidagi iltimosnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan albatta qanoatlantirilishi kerak"¹.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tanlangan himoyachining yigirma to'rt soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo'lmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda "Advokatura institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2008. – 52-son. –514-m.

etishni yoki himoyachi tayinlashni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmalariga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi istalgan vaqtda ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir.

Ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to‘lov-dan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to‘lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo‘ladi (JPK 50-m.).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to‘lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2008-yil 20-iyun qaroriga binoan, «fuqaroni yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun haq to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning ajrimi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish uchun asos hisoblanadi; oilasida har bir oila a‘zosiga to‘g‘ri keladigan yalpi oylik daromad yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun haq to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risida qaror (ajrim) qabul qilingan kundagi eng kam oylik ish haqining 1,5 baravaridan ortiq bo‘lmagan shaxslar advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun haq to‘lashdan ozod qilinadi va xarajatlar davlat hisobiga o‘tkaziladi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyachidan voz kechishi bilan bog‘liq protsessual harakatda advokat ishtirok etish hollarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 52-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq jinoyat ishida himoyachining qatnashishi majburiy deb hisoblangan hollarda ham yuridik yordam uchun haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar davlat hisobiga o‘tkaziladi»¹.

JPKga muvofiq, quyidagi toifadagi ishlar bo‘yicha himoyachining ishtirok etishi shart hisoblanadi:

- 1) voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha;
- 2) soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo‘yicha;
- 3) sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo‘yicha;
- 4) jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. – 6-сон. – 31-м.

tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha;

5) shaxslarning manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo'lgan ishlar bo'yicha;

6) davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo'yicha;

7) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;

8) tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda himoyachining ishtirok etishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo'yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.

Agar JPK 51-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yoxud ajrim O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e'tiboran, to'rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtirokini ta'minlashi shart (JPK 51-m.).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ish yuritilayotgan davrda istalgan vaqtda himoyachidan voz kechishga haqlidir. Bunday voz kechishga faqat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining tashabbusi bilan va himoyachining ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan advokat taklif etish orqali ta'minlanadigan real imkoniyatlar mavjud bo'lgandagina yo'l qo'yiladi, bunda advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan holi uchrashganidan keyin himoyadan voz kechilganligini tasdiqlaydi. Bu haqda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek advokat, surishtiruvchi yoki tergovchi imzolaydigan bayonnoma tuziladi yoxud sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

JPK 51-moddasi birinchi qismining 1, 4 va 8-bandlarida nazarda tutilgan hollarda himoyachidan voz kechish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud uchun majburiy emas.

Himoyachidan voz kechish gumon qilinuvchini, ayblanuvchini yoki sudlanuvchini keyinchalik ishda himoyachi ishtirok etishiga ruxsat berish haqida iltimos qilish huquqidan mahrum qilmaydi. Bunday iltimos barcha hollarda qanoatlantirilishi kerak. Sud tergovi davomida himoyachining ishtirok etishi haqida berilgan iltimosnoma ishning holatlarini hisobga olib va sudlanuvchiga himoya huquqini ta'minlash manfaatlarini ko'zlab sud tomonidan hal etiladi. Himoyachining sud majlisi davomida ishga kirishishi sud tergovini qayta boshlash uchun asos bo'lmaydi (JPK 52-m.).

Himoyachi: manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish; advokatlik guvohnomasi-ni ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan so'ng ishda ishtirok etish; gumon qilinuvchi so'roq qilinayotganda ishtirok etish, shaxsga ayblov e'lon qilinayotganda hozir bo'lish hamda ayblanuvchi so'roq qilinayotganda, shuningdek ularning ishtirokida o'tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga savollar berish; boshqa tergov harakatlari yurgizilayotganda surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan ishtirok etish; o'zi ishtirok etgan tergov harakatining yuritilishi xususida yozma mulohazalar berish; iltimosnoma berish va rad etish; JPK 87-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va taqdim etish; gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o'tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan, dastlabki tergov tamom bo'lganidan keyin esa jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki agar himoyani amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish; sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchi-ning, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va bu haqda o'z mulohazalarini bildirish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlar to'g'risida bilish hamda ularga nisbatan e'tirozlar bildirish; apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda bo'lsa, himoyachi u bilan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli.

Himoyachining majburiyatlari qatoriga gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarni qo‘llashi hamda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko‘rsatishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalash-tirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shartligi kiritilgan.

Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas (JPK 53-m.).

Shunday qilib, JPKda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining manfaatlarini himoya qilishi uchun himoyachiga katta huquq va vakolatlar berilgan. Tergovchi, prokurorning ayblanuvchiga himoyalani sh huquqini ta‘minlashdan iborat o‘z zimmalaridagi majburiyatlarini bajarmasliklari hukmning bekor qilinishiga yoki ishning qo‘shimcha tergovga qaytarilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

Mustaqillik yillarida advokatura institutini shakllantirish va takomillashtirish borasida qanday islohotlar amalga oshirildi?

Advokatning huquqiy maqomi nima?

Himoyalani sh huquqini ta‘minlashning huquqiy kafolatlari qanday hujjatlarda tartibga solingan?

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalani sh huquqi qanday tartibda ta‘minlanadi?

Himoyachi jinoyat ishida qaysi paytdan boshlab ishtirok etishi mumkin?

Himoyachining ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar?

Himoyachidan voz kechishning protsessual tartibi qanday?

Himoyachiga haq to‘lashni davlat hisobidan amalga oshirish shartlari qanday?

6-BOB. DASTLABKI TERGOV ORGANLARINING QONUNLARNI IJRO ETISHI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

6.1. Dastlabki tergov tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratning mohiyati va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, prokuratura organlari tergov va surishtiruv hamda tezkor-qidiruv faoliyati ustidan nazoratni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashni, davlat va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishni, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish faoliyatini amalga oshiradilar.

Dastlabki tergovni to‘g‘ri tashkil qilish hamda ularni amalga oshirishda qonunlarga rioya qilinishi ustidan prokuror nazoratini yo‘lga qo‘yish jinoyatlarni tezkorlik bilan to‘liq ochish, uni har tomonlama, xolisona tergov qilish va sud tomonidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarilishining kafolati hisoblanadi.

Dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat¹.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda «Jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish hamda surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazishda qonunlarning aniq bajarilishi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 31-sonli buyrug‘ida fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq tergov harakatlarini o‘tkazishda qonunni har qanday tarzda chetlab o‘tish, adolatsizlik va shaxsning qadr-qimmatini, sha‘nini kamsitishga yo‘l qo‘yish kabi holatlarga favqulodda hodisa deb qaralgan. Buyruqda bunga yo‘l qo‘ygan shaxslarning javobgarlik masalasi qonun doirasida hal etilsin, deb ta‘kidlangan.

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2001. – № 9-10. – 168-m; 2003. – №5. – 67-m; 2005. – №1. – 18-m; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2007. – № 6. – 249-m; 2008. – №9. – 487-m.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi ayrim salbiy holatlarga mamlakat Prezidenti I.A.Karimov ham o'z e'tiborini qaratib, shunday degan edi: «...tergov organlari jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelgan haqiqiy sabab va shart-sharoitlarni, huquqbuzarning shaxsi va uni jinoyatga undagan omillarni har doim ham puxta o'rganmaydi.

Tergovni zo'ravonlik bilan olib borish, ya'ni oldin hibsga olib, jamiyatdan ajratib, keyin uning aybini isbotlashga kirishishdek o'tgan zamondan qolgan yaramas tajribaga hali-hanuz barham berilmagan¹».

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotida fuqarolarni asossiz ushlab, qamoqqa olish va qonunsiz jinoiy javobgarlikka tortish holatlariga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir shunday holat favqulodda hodisa deb baholanib, u yuzasidan chuqur tekshirish o'tkazilib, qat'iy va jiddiy xulosalar qilinishi lozim.

Har bir tergovchi jinoyat ishini asosli qo'zg'atishi, tergovning har tomonlama, to'la va xolisona ta'minlanishiga oid faoliyatni amalga oshirishi, qonun talablariga rioya qilishi, shaxsning konstitutsiyaviy daxlsizligini ta'minlashi lozim. Qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari ham qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta'minlanishi hisoblanadi .

Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar, tergovchilar, surishtiruv organlari va tezkor-qidiruv xizmati xodimlari jinoyat sudlov ish yurituvida, o'zlarining nazorat funksiyalari bilan bogliq vakolatlarni amalga oshirgan holda yuqorida qayd qilingan qonun va normativ hujjatlarda jamlangan talablarga rioya etilishini nazorat qiladilar.

Jinoyat sudlov ish yurituvi o'z oldiga bir tomondan jinoyatlarni tez va to'la ochish, har bir jinoyatni tergov qilib, aybdorni fosh etib, qonunni to'g'ri tatbiq etish orqali jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishini, aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligini va hukm qilinmasligini vazifa qilib qo'yishi muhimdir. Ikkinchi tomondan esa u qonuniylikni, huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatlarning oldini olish va profilaktika qilish, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etish, fuqarolarni qonunlarni hurmat qilish, ularga qat'iy rioya etish, umume'tirof etilgan yashash qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratishi lozim.

¹ *Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т., Т.10. 2001. – Б.35.*

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar protsessning bu bosqichida nazoratni amalga oshirishning quyidagi maqsad va vazifalariga amal qilishlari lozim:

– hech bir jinoyat fosh etilmasdan qolmasligi va jinoyat sodir etgan har bir shaxs qonunda belgilangan javobgarlikdan qutulib qolmasligi;

– jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan fuqaroni ushlash qonunda belgilangan tartib va asoslarga binoan amalga oshirilishi, hech kim sud qaroriga asoslanmay hibsga olinmasligi yoki qamoqda saqlanmasligi;

– hech kim qonunsiz va asossiz jinoiy javobgarlikka tortilmasligi yoki boshqa huquqparni qonunsiz cheklashlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

– qonun bilan belgilangan jinoyat ishi qo‘zg‘atish, uni tergov qilish tartibi, tergov muddatlariga, jinoyat sudlov ish yurituvi ishtirokchilari va boshqa fuqarolarning huquqlariga rioya etilishi;

– jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ishdagi barcha holatlar har tomonlama, to‘la va xolisona ko‘rib chiqilishi, ayblanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek, uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og‘irlashtiradigan holatlar aniqlanishini talab qiluvchi qonunlarga qat‘iy rioya qilinishi;

– jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar aniqlanishidan iborat.

Jinoyatlarni fosh etish, shuningdek, aybdor shaxslarni aniqlashning huquqiy vositalari faqat qonunga asoslanishi, qonundan kelib chiqishi va qonunga tayanishi lozim. Jinoyat protsessual qonun talabiga ko‘ra, hech kim asossiz javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Qonunlarga rioya qilmaslik jinoyat protsessida qonuniylikni buzish deb hisoblanadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2005-yil 7-fevraldagi «Jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini ta‘minlash yuzasidan prokuror nazoratini tubdan yaxshilash to‘g‘risida»gi 40-sonli buyrug‘ida prokurorlarga «surishtiruv va dastlabki tergovning barcha bosqichlarida jinoyat protsessual qonun normalarining og‘ishmay bajarilishi ustidan qat‘iy nazorat ta‘minlansin, jinoyat protsessida shaxsning O‘zbekiston Respublikasi Konstitudiyasi, protsessual qonunchiligi hamda xalqaro huquq hujjatlarida kafolatlangan huquq va erkinliklarining ta‘minlanishiga bosh mezon sifatida qaralsin», deb ko‘rsatma bergan.

Qonun va protsess normalariga rioya qilish sodir qilingan jinoyat holatlarini tez va har tomonlama o‘rganish, shu bilan birga, aybdorni

qonuniy javobgarlikka tortish uchun sharoit yaratadi. Bosh prokurorning 31-sonli buyrug'ida Bosh prokuraturaning boshqarma va bo'lim boshliqlariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Respublika Harbiy va Transport prokurorlari, shahar va tuman prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarga «jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarning oldini olish hamda ularni sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilishda, qonunlarga qat'iy rioya etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish katta ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tgan.

Sodir bo'lgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilishda, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etishda, shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atishda, gumon qilinayotgan shaxsni ushlab va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlashda, ayniqsa qamoqda saqlashda qonuniy ish tutish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayblanuvchini tanib olish uchun uni ko'rsatish, buyumlarini olib qo'yish va tintuv qilish, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilayotgan so'zlashuvlarni eshitib turish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish, uni lavozimidan chetlatish va jinoyat ishi materiallari bilan tanishtirish, ayblov xulosasini tuzish, shuningdek, tasdiqlash kabi protsessual harakatlar bajarilishida protsessual normalarga rioya etilishiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

Tergovchi tomonidan ish bo'yicha har bir holatni aniqlashga qaratilgan vazifalarning bajarilishi jiddiy ahamiyatga ega. Biroq yuqorida qayd qilingan shaxsning huquqlarini cheklash bilan bog'liq protsessual harakatlar bajarilishida, ularni bajaruvchilarga yuqori mas'uliyat va talablar qo'yilishi lozim. Chunki qonunda belgilangan tartibdan oz bo'lsa-da chetlashish, yuzakichilikka yo'l qo'yish, jinoyat sudlov ish yurituvida qo'pol qonun buzilishini keltirib chiqarishi mumkin.

Qonun talablariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Prokuror, qonun buzilishi kim tomonidan sodir etilganligidan qat'i nazar, uni bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'rishi shart, u o'z vakolatlarini har qanday organ va mansabdor shaxsdan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysunib va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ko'rsatmalariga tayangan holda amalga oshiradi.

6.2. Dastlabki tergov organlari faoliyati ustidan prokuror nazoratining xususiyatlari

Dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat predmeti «Prokuratura to'g'risida»gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruq hamda ko'rsatmalarida belgilab qo'yilgan. Jumladan, qonunning 27-moddasiga muvofiq, jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va xabarlarni ko'rib chiqish hamda hal etish, tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan protsessual tartibi, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat predmeti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 31-sonli buyrug'ida Bosh prokuraturaning boshqarma, bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Respublika Harbiy va Transport prokurorlari, shahar va tuman prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarga jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan jinoyatlar to'g'risida ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal qilishning qonuniyligini qo'shimcha manbalardan ma'lumotlar olib, solishtirish yo'li bilan kamida har oyda bir marta tekshirish o'tkazish ta'kidlangan. Shu bilan birga, jinoyat izlarini aniqlashda ashyoviy dalillarning qonunda belgilangan tartibda qayd etilishi va rasmiylashtirilishiga alohida e'tibor qaratish, tergov jarayonida fuqarolar, yuridik shaxslar, shuningdek jinoyat protsessi ishtirokchilarining amaldagi qonunlar bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarning poymol qilinishiga yo'l qo'yimaslik talablari alohida qayd etilgan.

Mazkur buyruqda qonunning buzilishiga yo'l qo'yilmasligiga, jinoyat ishining ayblov xulosasini tasdiqlashda tergovning har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilganligi, shuningdek, protsessual qonun talablariga qat'iy rioya qilinganligiga jiddiy e'tibor qaratish, jinoyat ishini tugatish yoki to'xtatish haqida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi har oyda o'rganib borilishi lozimligi haqida ham qator ko'rsatmalar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan barcha organlar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari prokuror nazorati predmeti doirasiga kiruvchi jinoyatchilikka qarshi

kurashni amalga oshiradigan organlardir. IIV va uning organlarining muhim funksiyasi – huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan.

Jinoyat sudlov ish yurituvi sohasida qonun va jinoyat protsessi normalari buzilishini bartaraf etish va asosan oldini olish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokurorlarga katta vakolatlar berilgan. Dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat sohasida prokuror vakolatlari hokimiyat-boshqaruv xarakteriga ega, bunday vakolat esa prokurorga har qanday qonun buzilishini tezlik bilan sansalorliksiz bartaraf etish imkonini beradi.

JPKda prokurorning tekshiruv o‘tkazishga, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash va ularni olib qo‘yishga, telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turishga, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishga va qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruv organi hamda tergovchining boshqa harakatlariga ruxsat berish vakolati mustahkamlab qo‘yilgan.

Dastlabki tergov bosqichidagi prokuror nazorati tergov bo‘linmalari va ularning boshliqlari hamda o‘rinbosarlari, ayblanuvchilar va ularning himoyachilari, jabrlanuvchilar va ularning vakillari, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, shuningdek, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga tegishlidir. Jinoyat protsessining ishtirokchilari o‘zaro jinoyat-protsessual munosabatlarda bo‘lsalar-da, bu munosabatlar bevosita prokuror tomonidan nazorat qilinadi.

Prokuror:

- a) tergov to‘g‘ri belgilanishi ustidan nazorat olib borishi;
- b) dastlabki tergov harakatlari o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishi ustidan nazorat qilishi;
- v) qonunda qayd etilgan muddatlarga rioya qilinishi, ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishi ustidan nazorat qilishi;
- g) shaxsning asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi ustidan nazorat qilishi;
- d) ushlab turishda, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritishda ushbu harakatlar qonunga mos bo‘lishi ustidan nazorat qilishi;
- ye) shaxsni ish bo‘yicha qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani sudga o‘z vaqtida berilishini nazorat qilishi;
- j) tintuv va boshqa protsessual majburlov choralarining qonunga mos qo‘llanilganligi ustidan nazorat qilishi;

z) ayblanuvchining himoyalaniş huquqi va jinoyat protsessida boshqa ishtirokchilarning huquqlari ta'minlashi ustidan nazorat qilishi;

i) jinoyat ishlarini bir-biriga qo'shish yoki jinoyat ishidan yangi jinoyat ishini ajratish harakatlari asosli va qonunga mos bo'lishi ustidan nazorat qilishi;

k) jinoyat sodir etilishiga sababchi bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar yuborilishi ustidan nazorat qilishi;

l) jinoyat ishlarini to'xtatish yoki bekor qilish ustidan nazorat qilishi;

m) dastlabki tergov yakunlanishi bosqichida JPK talablarining amalga oshirilishi ustidan nazorat qilishi;

n) dastlabki tergov jarayonida qabul qilingan barcha protsessual hujjatlarning qonunga mos va asoslangan bo'lishi ustidan nazorat qilishi;

o) ayblov xulosasi qonunga mos va asoslangan bo'lishi ustidan nazorat qilishi kerak.

Prokurorning dastlabki tergov organlari faoliyati ustidan nazorati natijali bo'lishi maqsadida Respublika Bosh prokuroriga mamlakat hududida sodir etilgan quyidagi jinoyatlar to'g'risida axborotlar yuboriladi:

o'temir yo'l, havo va suv transportlarida, sanoat, qurilish hamda qishloq xo'jaligida ro'y bergan, kishilarning nobud bo'lishiga yoki katta talafot yetkazilishiga sabab bo'lgan holatlar, yemirilishlar haqida;

o'jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan portlash, yong'in va yoppasiga tarqalgan kasalliklar va zaharlanishlar haqida;

o'qotar qurollar, o'q-dorilar, jangovar aslahalar, portlatish qurilmalari, portlovchi moddalar va radioaktiv metallar, harbiy texnikalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning talon-taroj qilinishi, shuningdek, ularni qo'llash bilan sodir etilgan jinoyatlar haqida;

o'giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning talon-taroji, shuningdek, ko'p miqdordagi giyohvandlik vositalari muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar haqida;

o'jinoiy uyushma tomonidan sodir etilgan jinoyatlar haqida; ommaviy tartibsizliklar haqida; terrorchilik va diniy ekstremistik harakatlar haqida; havo kemasi va boshqa obyektlarni egallash yoki unga suiqasd qilish, shaxsni garov sifatida tutqinlikka olish holatlari haqida;

o'prokuratura, shuningdek, soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, sud, adliya, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati, axloq tuzatish muassasalari, Davlat soliq va bojxona organlari xodimlari hamda

hokimiyat va boshqaruv idoralarining mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlar haqida;

∞hibsxonalar va jazoni ijro etish joylarida sodir bo'lgan jinoyatlar, ommaviy tartibsizlik, itoatsizlik, qamoq yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish, mazkur muassasalar faoliyatini izdan chiqarishga qaratilgan va og'ir oqibatlarga olib kelgan harakatlar haqida;

∞xorijiy mamlakatlar diplomatik vakolatliklari bilan bog'liq jinoyatlar, shuningdek, chet el fuqarolari tomonidan yoki ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar haqida;

∞dastlabki tergov o'tkazishda qonunsiz usullar qo'llash, asossiz ushlab, qamoqqa olish va jinoiy javobgarlikka tortish hamda boshqa yo'llar bilan qonunni qo'pol ravishda buzish hollari haqida;

∞qasddan odam o'ldirish yoki unga suiqasd qilish, kishi a'zolarini kesib olish, boshqa kishiga ko'chirish jinoyatlari haqida;

∞voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirishi yoki unga suiqasd qilish hollari haqida;

∞ikki yoki undan ortiq odamlar o'limiga olib kelgan yo'l transport hodisalari haqida;

∞qalbaki pullar tayyorlash va sotish, ko'p miqdordagi valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish jinoyatlari haqida;

∞milliy, irqiy, diniy nizolar asosida sodir etilgan jinoyatlar haqida.

Favqulodda hodisa va voqealar to'g'risida viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar tomonidan zudlik bilan telefon orqali navbatchi prokurorga xabar qilinishi, keyin 24 soat ichida yozma ravishda voqeaning asl holati, kelib chiqish sabablari, gumon qilinuvchi va jabrlangan shaxslar haqida aniqlangan ma'lumotlar ko'rsatilgan maxsus axborot Bosh prokuraturaga taqdim etilishi shart. Ushbu jinoyatlarning ochilishi va tergov qilinishi ustidan kuchaytirilgan nazorat olib boriladi.

Protsessual qonunlarning buzilishini aniqlash maqsadida tergovchilar prokurorga ular tomonidan qabul qilinadigan barcha protsessual hujjatlar nusxasini yuborishlari shart. Prokuror unga yuborilgan protsessual hujjatlarni o'rganib chiqish jarayonida protsessual qonun buzilishlarini aniqlab, ayniqsa, bu protsessual hujjatlar uchun uning ruxsati kerak bo'ladigan bo'lsa, ularni bartaraf etish huquqiga ega.

Prokuror yuqoridagi vakolatlarini qonunlarni ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ sifatida amalga oshiradi. U hokimiyat-boshqaruv vakolatlarini amalga oshira turib, tergov organining har qanday qarori yoki aktini bekor qilish yoki o'zgartirish, tergovni yuritayotgan

shaxsni dastlabki tergovni davom ettirishdan chetlatish va jinoyat ishini boshqa tergovchiga berish yoki o'zining ish yurituviga qabul qilish, ayblanuvchiga nisbatan tergovchi tomonidan tayinlangan ehtiyot chorasini bekor qilish, o'zgartirish yoki o'zi tanlash huquqiga ega.

Jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchisi sifatida esa, prokuror jinoyat ishi qo'zg'atish, tintuv o'tkazish, ashyoviy dalillarni olib qo'yish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlashga sanksiya berish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish va boshqa harakatlarga ruxsat berish huquqiga ega. Prokuror tergovchi tomonidan har qanday protsessual harakatning o'tkazilishida ishtirok etish yoki jinoyatni mustaqil tergov qilish huquqiga ham ega.

Jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq, tergovchi bajaradigan protsessual harakatlar va aktlar doirasi juda keng, lekin ularning ayrimlarining bajarilishi faqatgina prokurorning bergan sanksiyasidan keyingina qonuniy kuchga ega bo'ladi, ya'ni bu tergov harakatlarini bajarishga prokuror ruxsat bergandan keyingina, ular amalga oshirilishi mumkin. Bunday tergov harakatlari toifasiga: tintuv o'tkazish (JPK 161-modda), pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab quyish va olib qo'yish (JPK 166-167-moddalar), telefon va boshqa qurilmalar orqali so'zlashuvlarni eshitib turish (JPK 170-modda)lar kiradi.

Ko'zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizalarga namunalari olish uchun murdani eksperimentatsiya qilish zarur bo'lgan taqdirda tergovchi bu haqda qaror chiqaradi va prokurorning sanksiyasini oladi (JPK 148-modda). Davlat sirlari bo'lgan hujjatlar yoki narsalarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish va unga doir boshqa harakatlar faqat tergovchining prokuror sanksiya bergan qaroriga binoan amalga oshirilishi mumkin (JPK 89-modda). Jinoyat ishi bo'yicha tuzilgan ayblov xulosasi prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanganidan so'nggina jinoyat ishi tegishli sudga mazmunan ko'rib chiqish uchun yuboriladi (JPK 388-modda).

Qonunda nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lganda va dastlabki tergov davomida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanganda, prokuror, prokuror roziligi bilan tergovchi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi (JPK 243-modda).

Prokuror sanksiyasi yoki roziligi bilan o'tkaziladigan har qanday protsessual harakat chuqur o'rganilib, har tomonlama muhokama qilingandan so'ng amalga oshiriladi. Bu esa, bir tomondan, sodir etilgan jinoyat holatlarini to'la, har tomonlama va xolisona tekshirish uchun sharoit yaratsa, boshqa tomondan, protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini cheklanishi yoki buzilishining oldini oladi.

Prokuror dastlabki tergovni yuritayotgan shaxs tomonidan yo‘l qo‘yilgan qonun va jinoyat protsessi normalarining jiddiy buzilishini aniqlaganda, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxsga nisbatan intizomiy ta‘sir choralarini qo‘llash haqida qaror chiqaradi. Shu bilan birga, qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo‘lgan surishtiruv yoki tergov organi mansabdor shaxs nomiga taqdimnoma kiritib, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan choralar ko‘rishni so‘raydi. Taqdimnoma darhol ko‘rib chiqilishi va ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma‘lum qilinishi lozim.

Agar prokuror qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish lozim deb topsa, jinoyat ishi qo‘zg‘atadi yoki intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqida qaror chiqaradi.

Prokuror intizomiy javobgarlik masalasini taqdimnomada ham ko‘rsatishi mumkin, bunday holatda u maxsus qaror chiqarmaydi. Intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqidagi qaror tuman prokurori tomonidan chiqarilgan taqlirda, u qaror va tegishli materiallarni yuqori turuvchi prokurorga yuboradi. Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokuror qarori bilan kelishgan taqdirda, o‘z navbatida, intizomiy jazo choralarini qo‘llash vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsga, ya‘ni ichki ishlar organlari xodimiga nisbatan qo‘zg‘atilgan qarorni, viloyat va unga tenglashtirilgan ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘iga yuboradi. Chunki ichki ishlar organlarining quyi mansabdor shaxslariga bunday vakolat berilmagan. Intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqidagi qaror kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko‘rib chiqilishi shart. Uni ko‘rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma‘lum qilinadi.

Dastlabki tergovni yuritish jarayonida aybsiz kishini javobgarlikka tortish (JK 230-modda) yoki qonunga xilof ravishda ushlab turish yoxud hibsga olish (JK 234-modla), qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz g‘ayriqonuniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala hamda jazo turini qo‘llash (JK 235-modda) yoxud guvoh yoki jabrlanuvchini yolg‘on ko‘rsatma berishga majbur qilish, shuningdek, ekspertni yolg‘on xulosa berishga majbur qilish (JK 238-modda) kabi ma‘lumotlar aniqlangan taqdirda prokuror o‘z qarori bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atadi va ish bo‘yicha dastlabki tergov yurituvini prokuratura organlari tergovchisiga topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma‘lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ko‘rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxslarning jinoyatlarni hisobga olishni qasddan yashirganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 241¹-moddasi bilan javobgarlik belgilangan.

Ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlar, ekspert va jinoyat-protsessi boshqa ishtirokchilarining tergovchining harakatlariga nisbatan shikoyatini prokuror tomonidan tekshirish qonun buzilishini bartaraf etishning ta’sirchan vositasi hisoblanadi. Jinoyat sudlov ish yurituvchi ishtirokchilaridan kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, Jinoyat-protsessual qonun normalari bilan belgilanadi.

Qonun talabiga ko‘ra, protsess ishtirokchilari protsessning istalgan bosqichida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va sudning protsessual harakati yoki qarori ustidan shikoyat berishga haqlidir (JPK 27-modda).

Shikoyat tergovchining ustidan berilayotgan bo‘lsa, u tergov bo‘linmasining boshlig‘iga yoxud nazorat olib boruvchi prokurorga taqdim etiladi. Agar shikoyat prokuror ustidan berilayotgan bo‘lsa, u holda shikoyat yuqori turuvchi prokurorga yuborilishi talab qilinadi. Shikoyat beruvchi shaxsga shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari yozma ravishda xabar qilinishi lozim.

Ayblov xulosasi tasdiqlangunga qadar kelib tushgan shikoyatlar tergovchi tomonidan chuqur va har tomonlama tekshirilib, mazmunan hal qilinmagunga qadar jinoyat ishini sudga yuborish mumkin emas. Tergov yuritish jarayonida kelib tushgan shikoyatlar, ular bo‘yicha qabul qilingan qarorlar jinoyat ishi hujjatlariga yoki jinoyat ishi bo‘yicha nazorat ish yurituviga ilova qilinadi. Sudga yuborilgan jinoyat ishi bo‘yicha kelib tushgan barcha iltimosnomalar va shikoyatlar sudga yuboriladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda prokuror vakolatlari jinoyat sudlov ish yurituvida qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishga yo‘naltirilgan.

6.3. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida qonuniylik ustidan nazoratning xususiyatlari

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining asosini tashkil qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi normalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va ichki ishlar vazirining sohaviy buyruq, yo'riqnoma va ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi.

Jinoyatlar haqida arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibini belgilovchi qonun talablarining o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi jinoyatlarning tezda, to'liq fosh etilishini ta'minlaydi. Bu esa jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsni asosli jinoiy javobgarlikka tortish hamda sodir qilingan jinoyat uchun jazoning muqarrarligi tamoyilining hayotga tatbiq qilinishi kafolatidir. Shu jumladan, bu jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan shaxsning aybdorligini isbotlash jarayoni uchun ham juda muhim vosita hisoblanadi. Chunki vaqt o'tishi bilan ish bo'yicha dalillar o'zgarishi va hattoki yo'qolishi, jinoyat hodisasining dolzarbligi esa o'zining mohiyatini yo'qotishi mumkin.

Ayniqsa, jinoyatchilikning uyushgan guruhlar, jinoiy uyushmalar kabi turlarining tarqalishi, ularning korrupsiyalashuvi, xufiyona iqtisodiyot shakllanayotgan hozirgi sharoitda tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etishning qonunda belgilangan tartiblariga rioya qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatlar haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilishni rad qilish, jinoyatlarni hisobdan yashirish yoki o'z vaqtida ro'yxatga olmasdan, ta'sir choralari ko'rmaslik, jinoyat ishini qo'zg'atishni asossiz rad qilish yoki jinoyat ishini asossiz tugatish jinoyatchilikka qarshi kurash ishiga jiddiy ziyon yetkazadi.

Qayd qilinganidek, jinoyatlarni hisobdan yashirishning ijtimoiy xavfi juda katta, ya'ni bunday qonun buzilishi jinoyat qilgan shaxslarni jazolanmasdan qolishiga olib keladi, natijada esa, bu shaxslar yangi, yana ham xavfli jinoyatni sodir qiladilar.

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda «Jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini ish hamda surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazishda qonunlarining aniq bajarilishi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 31-

sonli buyrug'ida prokurorlarga, jinoyat haqida ariza va xabarlar ko'rib chiqilishining qonuniyligi, o'z vaqtida qonuniy qarorlar qabul qilinishi ustidan prokuror nazoratining samaradorligi oshirilishi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan jinoyatlar to'g'risidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal qilishning qonuniyligi, qo'shimcha manbalardan ma'lumot olib, solishtirish yo'li bilan har oyda kamida bir marta tekshirilishi xususida ko'rsatmalar berilgan. Shu bilan birga, jinoyatlarni hisobdan yashirganlik yuzasidan idoraviy tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazilishi ta'minlanishi, qonun buzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarning, jinoyatlarni qasddan yashirgan xodimlarning jinoiy javobgarlik masalasining qat'iyatlik bilan hal qilinishi borasida ham to'xtalib o'tilgan.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan hamkorlikda tasdiqlangan «Jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni dastlabki hisobga olish hujjatlarini to'ldirish va taqdim etish tartibi, jinoyat ishlari, jinoyatlar haqidagi ma'lumotlarning harakati haqida»gi va «Jinoyatlarni hisobga olishning birday qoidalari haqida»gi Yo'riqnomalar bilan tartibga solinadi. Bu Yo'riqnomalar, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 1998-yil 5-yanvardagi 2-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan.

Jinoyatlarni hisobga olish aniqlangan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni dastlabki hisobga olish bilan amalga oshiriladi. Dastlabki hisobga olish ishlari qay darajada bajarilganligi, jinoyatchilikning holatini xarakterlovchi statistik hisobot ko'rsatkichlarining to'g'ri va to'liq bo'lishiga ta'sir etadi. Chunki bu hisobotlar dastlabki hisobga olish hujjatlaridan kelib chiqadi.

Jinoyat axborot markazida ro'yxatga qo'yilib, statistik hisobotga qo'shilgandagina hisobga olingan deb sanaladi. Quyidagi holatlarda jinoyatni yashirish qonunchilik buzilishiga olib keluvchi sabab sanaladi:

jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarga to'g'ridan-to'g'ri chora ko'rmaslik, ya'ni sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilmaslik yoki ro'yxatdan o'tkazmaslik;

jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar yuzasidan tekshirish materiallarini soxtalashtirish va bildirgilar asosida tasdiqlanmagan fakt sifatida nazoratdan chiqarish;

tekshirish materiallaridagi hujjatlarni soxtalashtirib, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarorini chiqarish;

jinoyat ishining bir qismini alohida yurituvga ajratib, keyinchalik bu ajratilgan qism yuzasidan axborot markazlariga dastlabki hisobot kartochkalarini taqdim etmaslik va ajratilgan qism bo'yicha protsessual qaror chiqarmaslik;

jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini asossiz boshqa organga hudud bo'yicha tegishli deb yuborish yoki jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar bo'yicha materiallarni hududiy tegishlilik bo'yicha yuborilgan deb soxta belgi bilan nazoratdan chiqarish.

Bunday holatlar aniqlanganda materiallar qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan qonuniy chora ko'rish uchun prokurorlarga yuboriladi.

Jinoyatlarni hisobga olish qoidalari barcha prokuraturalar, Davlat soliq qo'mitalari organlari hamda ichki ishlar idoralari (shu jumladan, jazoni ijro etish muassasalari) uchun ham birday majburiydir. Jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslarning jinoiy ishlarini ro'yxatga olish va jinoyatchilik haqidagi statistik hisobotlar to'plash ichki ishlar idoralari zimmasiga yuklatilgan.

Jinoyatlar hisobi 1-son shaklidagi jinoyatni hisobga olish kartochkasini prokuror, prokuratura va ichki ishlar bo'limi tergovchisi, surishtiruvchi xodim tomonidan ularga ma'lum bo'lgan jinoyatni qachon, qayerda sodir etilgani va ularni sodir etgan shaxslar aniqlangan yoki aniqlanmaganligidan qatyi nazar, to'ldirib taqdim etishlari bilan amalga oshiriladi.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal qilish jarayonida qonun buzilishiga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, prokuror bu qonun buzilishlarning oldini olish choralari ko'rilgan yoki ko'rilmaganligini, bundan keyin bunday qonun buzilishlariga yo'l qo'yilmasligi uchun ko'rilgan choralar yetarli bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlashi lozim. Tekshirish jarayonida prokuror, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xuquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid qonun talablariga rioya qilinganligini ham aniqlashi kerak.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal qilishdagi qonun buzilishlarini aniqlash, birinchi navbatda, ichki ishlar organlarida tegishli hujjatlar bilan tanishish, qolaversa, yuqorida qayd qilinganidek, qo'shimcha manbalardan ma'lumot olib solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish qarori chiqarilgan materiallar ham tekshirish predmetini tashkil qiladi. Prokuror rehabilitatsiya asosida jinoiy javobgarlikni hal qilmay turib tugatilgan hamma jinoyat ishlarini o'rganishi, qabul qilingan qarorning qonuniyligini tekshirishi lozim.

Jinoyatlarni hisobdan yashirish fakti aniqlangan taqdirda prokuror zudlik bilan jinoyatni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga qo'yish choralari ko'radi. Qonun buzilishiga yo'l qo'ygan aybdor shaxsdan har bir holatda tushuntirish olinadi. Prokuror jinoyatni ro'yxatdan o'tkazishni taklif qiladi; sabab va asoslar mavjud bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atadi; jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqidagi qarorni bekor qiladi va u bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yuritishni topshiradi; qonun buzilishiga yo'l qo'ygan aybdorni jazolash va kelajakda bunday qonun buzilishining oldini olish masalasini o'rta qo'yadi. Zaruriyat bo'lgan hollarda prokuror ichki ishlar organlari rahbarlari nomiga taqdimnoma kiritib, unda qonun buzilishiga chek qo'yishga qaratilgan sharoitni yaratishni so'raydi. Prokuror qonun buzilishida jinoyat alomatlari borligini aniqlasa, aybdorlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish, aybdorga nisbatan intizomiy ish yurituvini ham qo'zg'atish huquqiga ega.

Jinoyat ishi qo'zg'atish jinoyat protsessining eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Jinoyat ishining qonuniy, asosli va o'z vaqtida qo'zg'atilishi jinoyatning tezlik bilan to'la fosh etilishi hamda har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilinishining zarur shartidir. Jinoyat ishining qonunga zid, asossiz va kechiktirib qo'zg'atilishi sodir qilingan ijtimoiy xavfli harakatni tasdiqlovchi dalillarning yo'qolishiga, jinoiy hodisaning dolzarbligi susayishiga va oqibatda esa jinoyat sodir qilgan shaxslar, shu jumladan og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir qilganlarning jazolanmasdan qolishiga olib keladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishning, shuningdek, uni qo'zg'atishni rad etishning qonuniyligi va asosliligi ma'lum darajada jinoyat sudlov ish yurituvida qonunlar ijrosi ustidan prokurorlik nazoratining to'g'ri tashkil qilinishi bilan bog'liqdir. Jinoyat ishini qo'zg'atish jarayonida prokurorlik nazoratini ikki yo'nalishda ko'rish lozim: prokuror tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish qarorining qonuniyligi va asosliligi tekshirilishi; prokuror tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarorining qonuniyligi va asosliligi tekshirilishi.

Qonun talabiga ko'ra, tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxasini ishning tergov qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishi lozim bo'lgan prokurorga yuboradi (JPK 331-moddasi 3-qismi). Bu esa, prokurorga sodir qilingan jinoyatdan voqif bo'lishga va zudlik bilan uni fosh etilishi va tergov qilinishi jarayoniga qo'shilishga imkoniyat beradi.

Agar prokuror ish asossiz qo'zg'atilgan degan xulosaga kelsa (jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa, qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmasa, shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa), u o'zining qarori bilan tergovchining yoki surishtiruv organining jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qarorini bekor

qiladi. Bunday qarorga kelishdan oldin, qoidaga ko‘ra, prokuror jinoyat ishi qo‘zg‘atish qarorini chiqarishga asos bo‘lgan hamma hujjatlar bilan tanishib chiqishi lozim. Qonun buzilishi yaqqol ko‘zga tashlanarli bo‘lgan hollarda (qilmishda jinoyat tarkibi bo‘lmasa, shaxs javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan bo‘lsa), prokuror jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqidagi qarorini bekor qilish haqidagi qarorni hujjatlarni chaqirtirmasdan ham qabul qilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish qarori chiqarilgandan so‘ng tergovchi yoki surishtiruv yuritayotgan shaxs tomonidan hech bo‘lmasa bitta tergov harakati o‘tkazilgan (hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bundan mustasno) bo‘lsa, prokuror esa bu qarorni qonunsiz yoki asossiz deb topgan taqdirda, u o‘zining qarori bilan JPKning 373-moddasi talabi asosida ishni tugatadi va bu haqda tergov organini xabardor qiladi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish qarorining qonuniyligi va asoslilikini tekshirishni tashkil qilishda prokuror, qonunlar ijrosi bilan birga, bu qarorning qabul qilinishiga asos bo‘lgan protsessual harakatlarning ham qonuniyligini tekshirishi lozim. O‘rnatilgan tartibga muvofiq, prokuror bunday materiallarni oyda bir marotaba tekshiradi. Bunday tekshirishlar muntazam ravishda istisnosiz har bir jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish bilan bog‘liq materiallarni tekshirish yo‘li bilan amalga oshirilishi lozim.

Prokuror jinoyatlarni hisobdan yashirish holatlarini aniqlash maqsadida prokuror, tergovchi yoki surishtiruv organining jinoyat ishini tugatish haqidagi (qanday sabablarga ko‘ra bo‘lishidan qat’i nazar) hamma qarorining qonuniyligi va asoslilikini tekshirishi lozim.

Xuddi shunday, prokuror qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yurituvini harakatdan to‘xtatish haqidagi qarorning qonuniyligi va asoslilikini o‘z vaqtida tekshirishi lozim. Tergovchi ishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror nusxasini prokurorga yuboradi. Prokuror ushbu qaror JPKning 364-moddasiga rioya qilingan holda chiqarilganligini tekshiradi. Agar u qarordan norozi bo‘lsa, dastlabki tergovni qayta tiklash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda 31-sonli buyrug‘ida prokurorlarga jinoyat ishini tugatish va harakatdan to‘xtatish haqida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi har oyda o‘rganib borilishi ta’kidlangan. Shuningdek, jinoyat ishlarini asossiz tugatish va to‘xtatish holatlariga yo‘l qo‘yilmasligi, bunday salbiy holatlar muhokama etilib, qat’iy choralar ko‘rilishi ta’minlanishi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Shu jumladan, jinoyat ishini tugatish yoki harakatdan to‘xtatish haqidagi asossiz qarorlar birinchi marta bekor qilinganidan so‘ng, prokurorlar tomonidan bir oy ichida qo‘shimcha tergov muddati belgilanib, tergovning

sifatli, to'liq va xolisona o'tkazilishi hamda qonuniy qaror qabul qilinishi ustidan nazorat olib borilishi hamda jinoyat ishini tugatish haqida qabul qilingan qarorlar asosli deb topilgan taqdirda, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning sohaviy o'rinbosarlari tomonidan asoslantirilgan xulosalar tuzilib, ularni Bosh prokuraturaga zudlik bilan yuborilishi ta'minlanishi xususida ham ta'kidlab o'tilgan.

Jinoyat ishini tugatish haqidagi noqonuniy qaror bekor qilinib, qo'shimcha tergov natijalariga ko'ra, ayblov xulosasi bilan sudga yuborilgan har bir jinoyat ishi bo'yicha sudning ayblov hukmi chiqarilgan taqdirda xizmat tekshiruvini o'tkazilib, asossiz qaror qabul qilishda aybdor xodimlarning intizomiy javobgarlik masalasi hal etilishi va bu toifadagi ishlarning ro'yxati har chorakda Bosh prokuraturaga taqdim etilishi haqida ko'rsatma berilgan.

Jinoyatni fosh etish va tergovni amalga oshirishda vaqt mezoni ustuvor ahamiyatga ega. Sababi vaqt o'tishi bilan dalillar o'zgaradi, ayrim hollarda yo'qoladi, aybdor tomonidan sodir etilgan harakatga baho berishda huquqbuzarga nisbatan jabrlanuvchi va guvohlarning munosabati ham o'zgarishi mumkin. Shuning uchun prokurorlar jinoyat ishini qo'zg'atish, uni qo'zg'atishni rad qilish, jinoyat ishini tugatish va to'xtatish haqidagi qarorlarni o'z vaqtida tekshirib, ularning qonuniy va asoslilikiga munosabat bildirib boradilar.

6.4. Dastlabki tergov bosqichida qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat

Dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati tergovchining protsessual mustaqilligiga xalal bermaydi. Aksincha, prokuror tergovchining mustaqilligini va jinoyatlarni fosh etish, tergov harakatlarini o'z vaqtida va qonun talablari asosida yuritishda mas'uliyatini oshirishi shart. Prokuror va tergovchi munosabati qonun bilan belgilangan va u ularning sohaviy taalluqligigi bilan bog'liq emas. Prokurorning ayrim tergov harakatlarini o'tkazishda ishtirok etishi prokuror nazoratini amalga oshirishning usuli hisoblanadi. Prokurorning bu harakatini tergovchining ishiga aralashish, uning mustaqilligini buzish, deb baholash mumkin emas.

Prokuror hodisa joyini ko'zdan kechirish, tanib olish, eksperiment o'tkazishda ishtirok eta turib yoki tergovchi tomonidan ayblanuvchini, jabrlanuvchini yoki guvohni so'roq qilishda qatnashib, tergovchining funksiyalarini bajarishni o'z zimmasiga olishi mumkin emas. Agarda proku-

rorda so‘roq qilinuvchiga tergovchi tomonidan berilgan savoldan tashqari savol berish ehtiyoji paydo bo‘lsa, u o‘z savolini beradi. Bu harakat esa so‘roq bayonnomasida o‘z ifodasini topishi kerak. Prokurorning tergovdagi ishtiroki har bir tergov harakatini yuritish haqidagi protsessual hujjatda aks ettirilishi kerak. Buni prokuror tegishli protsessual hujjatda o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Tergovchi tomonidan qonun buzilishiga va jinoyat protsessi normalari buzilishiga, protsessual xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotgan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy holatlar aniqlanmay qolayotgan hollarda prokuror tergovchining faoliyatiga aralashishga haqli va nazorat funksiyasidan kelib chiqib, yo‘l qo‘yilgan qonun buzilish va xato-kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ko‘rishi lozim. Prokuror tergovchining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi, zarur hollarda har qanday ish bo‘yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to‘la hajmda amalga oshiradi. Agar prokuror jinoyat ishi bo‘yicha tergovni to‘liq hajmda o‘z ish yurituviga qabul qilib olsa, u dastlabki tergovning har tomonlama, to‘la va xolisona o‘tkazilishi uchun javobgar hisoblanadi. Xuddi shunday, gumon qilinuvchini, ayblanuvchini yoki protsessning boshqa ishtirokchisini so‘roq qilishning sifati uchun ham javob beradi.

Amaldagi qonunchilik tergovning qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirishda prokurorga keng imkoniyatlar bergan, avvalambor, prokuror dastlabki tergov bosqichida qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat’i nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rishi shart va u surishtiruv, dastlabki tergov bosqichlarida O‘zbekiston Respublikasi JPKning 243, 382, 388, 558-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda «Jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish hamda surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazishda qonunlarning aniq bajarilishi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 31-sonli buyrug‘ida prokurorlarga dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarni ijro etishlari ustidan nazoratni ta’minlashda qonunda belgilangan vakolatlardan to‘liq va samarali foydalanilsin, bu jarayonlarda fuqarolar va yuridik shaxslar, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining amaldagi qonunlar bilan kafolatlangan huquq va erkinliklari poymol qilinishiga, qonunning har qanday tarzda buzilishiga yo‘l qo‘yilmasin, deb ko‘rsatma berilgan.

Prokuror jinoyat ishini tekshirar ekan, asosiy e’tiborni tergovning sifatiga, har tomonlama, to‘la va xolisona tergov olib borilganiga qaratadi.

Bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi, biroq bu harakat tergovchining protsessual mustaqilligini cheklab qo'yimasligi kerak.

Tergovchining ishni hal qilish masalalari bilan bog'liq prokuror ko'rsatmalari ustidan shikoyat berish huquqi, qonuniy va o'z vaqtida dastlabki tergov o'tkazish, jinoyatning ochilishi yuzasidan javobgarlikni ko'rsatadigan tergovchining protsessual mustaqilligini aks ettiruvchi hollardan biri hisoblanadi. Qonun talabiga ko'ra, tergovchini, uning huquqiy ongiga amal qilib, ichki ishonch bo'yicha qabul qilgan qaroriga qarshi protsessual harakatlarni bajarishga majbur qilish mumkin emas.

Jinoyat sodir etib tergovdan yashiringan shaxslarni qidirish ustidan nazorat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yashiringan har bir ayblanuvchini o'z vaqtida kechiktirmasdan topish yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishning hamda sodir qilingan jinoyat uchun javobgarlikning (jazoning) muqarrarligi prinsipini amalga oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Nazoratni amalga oshiruvchi prokuror, yashiringan ayblanuvchini qidirib topishga oid tergovchi tomonidan ko'rilgan choralarning o'z vaqtidaligi va qonuniyligini, tergovchining JPKning 36 va 343-moddalari talablari asosida berilgan topshiriq va ko'rsatmalarining surishtiruv organlari tomonidan aniq bajarilishini, ish bo'yicha yurituv to'xtatilgandan so'ng ayblanuvchini qidirishga oid qonun talablarining tergovchi tomonidan bajarilishini, qidiruv e'lon qilingan ayblanuvchi topilgandan so'ng surishtiruv organlari harakatlarining qonuniyligini tekshiradi.

Prokuror ayblanuvchiga nisbatan qidiruv e'lon qilinishi munosabati bilan harakatdan to'xtatilgan ishni tekshirishda quyidagi masalalarni aniqlaydi: jinoyat ishi asosli qo'zg'atilganligini; haqiqatdan ham jinoyat qidirilayotgan shaxs tomonidan sodir qilinganligini va shaxsning javobgarligini inkor qiluvchi holatlar bor-yo'qligini; bu shaxsning aybini tasdiqlovchi dalillarning mavjudligi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorning asoslilikini; ishda ayblanuvchini qayerda ekanligi noma'lum bo'lib, haqiqatda ham yashiringanligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjudligini; qidiruv qanchalik o'z vaqtida e'lon qilinganligini; tergovchi surishtiruv organlariga qidiruv e'lon qilishda ayblanuvchining shaxsiga oid to'liq ma'lumotlarni va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish qarorini chiqarganligini; ehtiyot chorasi qanchalik to'g'ri qo'llanilganligini, ayniqsa, qidiruv e'lon qilingan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan hollarda.

Qidiruv bo'yicha ko'rilgan choralarning qonuniyligi va o'z vaqtida o'tkazilganligi qidiruv ishi materiallari bo'yicha ham tekshiriladi. Tekshirish natijasi bo'yicha prokuror qidiruvni jadallashtirish bilan birga yo'nalishlari

bo'yicha ko'rsatmalar beradi, qonun buzilishi aniqlangan taqdirda ichki ishlar organlari boshlig'iga taqdimnoma kiritadi. Zaruriyat bo'lganda esa, «Prokuratura to'g'risida»gi qonunning (yangi tahriri) 28 va 39-moddalarida belgilangan vakolatlardan foydalanib, qonunda belgilangan tartibda jinoyat ishi, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ishni qo'zg'atadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda 31-sonli buyrug'ida prokurorlarga ayblanuvchilarning tergov va suddan qochib yashirinishiga imkon bergan sabab va sharoitlarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rib borilishi, tezkor-qidiruvni amalga oshirishda qonunbuzish hollariga yo'l qo'ygan xodimlarning javobgarlik masalasini qat'iyatlik bilan hal etilishi borasidagi fikrlar bayon etilgan.

Tergovchi jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni tamomlaganidan so'ng, prokuror sudga qadar ish yurituv bosqichlarida jinoyat ishi bo'yicha ish yurituvni belgilovchi protsessual harakatlarni o'rganib chiqib, ularning qonuniyligini hal qiladi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 385-moddasiga muvofiq, prokuror ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan, qonunda belgilangan asoslarga ko'ra ish yurituvni tugatishga, o'z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarini chiqarib tashlash, yengilroq jazoni nazarda tutuvchi qonunni qo'llash va o'zgartirishlar bilan ayblov xulosasini tasdiqlash hamda jinoyat ishi bo'yicha boshqa qarorlar qabul qilishga haqli. Ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan qabul qilinadigan qarorlarni prokuror tergovchining pozitsiyasi bilan bog'lamaydi, chunki bu davrga kelib, tergovchining jinoyat ishi bo'yicha faoliyati tamomlangan hisoblanadi.

Qonun talabiga ko'ra, tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat tergov bo'linmasi boshlig'iga va ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan prokurorga beriladi. Prokuror tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan protsess ishtirokchilarining shikoyatini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash bilan birga tergov yurituvini to'g'ri yo'lga yo'naltirishi shart. U tergovchining qonunga xilof hamda asossiz qarorini bekor qilishi yoki o'zgargirishi mumkin, qonun buzilishida aybdor bo'lganlarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga haqli, va nihoyat, surishtiruvchi yoki tergovchini, basharti ular ishning tergovchi chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsalar, surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatishi va jinoyat ishi bo'yicha ish yurituvini o'zi qabul qilib olishi mumkin.

Shunday qilib, prokuror nazorati tergovchini protsessual mustaqillikdan mahrum qilmaydi; u o'z ishini qonun doirasida va qonunda belgilangan protsessual shartda amalga oshiradi. Prokuror tergovchining ijodiy tashabbuskorligini va topqirligini har tomonlama rag'batlantirishi, uning qat'iyligini baholashi va hurmat qilishi, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlashda qat'iylik va tirishqoqlik bilan unga yordam berishi kerak. Prokuror va tergovchining munosabatlari faqat qonun bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar:

Dastlabki tergov organlarining qonunlarga rioya etishlari ustidan prokuror nazoratining predmetiga nimalardan iborat?

Prokuror nazorati qanday vazifa va shakllarga ega?

Prokuror dastlabki tergov organlarining qonunlarga rioya etishlarini nazorat qilishda qanday vakolatlarga ega?

Prokuror jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hal etilishi yuzasidan nazoratni qanday shaklda amalga oshiradi?

Prokuror ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan qanday masalalarni hal qiladi?

Prokuror ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan qanday qaror qabul qilishga haqli?

Prokuror nazorati bilan idoraviy-protsessual kontrol qanday mutanosiblikka ega?

7-BOB. DASTLABKI TERGOVNING PROTSESSUAL HUJJATLARI

7.1. Tergovchi protsessual hujjatlari, ularning ahamiyati va turlari

Jinoyat-protsessual faoliyat ishtirokchilarining protsessual harakatlari protsessual hujjat shakliga kiritilgan bo‘lib, jinoyat protsessi fani nazariyasida protsessual hujjatlar nomini olgan.

Tergovchining protsessual hujjati yakka huquqiy hujjat bo‘lib, jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual normalarining amalga oshirilishini ta‘minlashi, jinoyat-protsessual faoliyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini hayotga joriy etishga yordamlashishi kerak. Bu borada dastlabki tergov organlarining jinoyat-protsessual hujjatlari, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar jinoyatni tez va to‘la ochish, aybdorlarni fosh etish va jinoiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipining amalga oshirilishini ta‘minlash vositasigina bo‘lib qolmay, balki fuqarolarni qonunlarga rioya etish, Konstitutsiya va boshqa qonunlar ularning zimmasiga yuklagan burchlarni bajarish ruhida tarbiyalash, birgalikda yashash qoidalariga rioya qilish vositasi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning vositasi ham bo‘lib xizmat qiladi.

Tergovchining protsessual hujjatlar jinoyatlarning oldini olishga ko‘maklashadi hamda sudlovning samaradorligiga va umuman odil sudlovning sifatiga ta‘sir etadi.

Protsessual hujjat – huquqiy (yuridik) hujjatning turlaridan biri. Bu – yakka huquqiy hujjatdir.

«Hujjat» so‘zi ikkita asosiy ma‘noga ega: 1) inson faoliyatining yakka ko‘rinishi; harakat; hodisa; 2) vakolatli muassasada muayyan shaklda tuziladigan va qandaydir huquqlar, majburiyatlar mavjudligini belgilovchi hujjat.

Shunday qilib, yuridik fanda «hujjat» deganda inson faoliyati (harakati)ning ko‘rinishi ham, hujjat, ya‘ni ushbu faoliyatning so‘z-hujjat sifatidagi ifodasi ham tushuniladi.

Dastlabki tergovning protsessual hujjatlari yakka huquqiy (yuridik) hujjatlarning turi sifatida ushbu hujjatlar uchun umumiy bo‘lgan quyidagi belgilarga ega bo‘ladi: 1) davlat organlari faoliyatining huquqiy shakli; 2) majburlov choralari tizimi bilan muhofaza qilinadi; 3) huquqiy munosabatlar yuzaga kelishining shart-sharoitlaridan biri bo‘lib xizmat

qiladi; 4) muayyan yuridik oqibatlarini keltirib chiqaradi; 5) o'zaro aloqada bo'ladi; 6) qonuniy prinsipiga mos kelishi kerak.

Dastlabki tergov organlarining protsessual hujjatlari, mohiyatiga ko'ra, jinoyat protsessual faoliyat ishtirokchilarining real xatti-harakatlari uchun huquqiy ko'rsatuv vositasidir. Boshqacha aytganda, protsessual hujjatlar – jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual normalarni, shuningdek, ayrim hollarda boshqa huquqiy tarmoqlar normalarini amalga oshirish vositasidir.

Huquqning umumiy nazariyasida huquqiy normalarni amalga oshirishning uch shakli farqlanadi: qo'llash, bajarish, rioya etish. «Qo'llash» «bajarish» va «rioya etish» so'zlarining filologik ma'nolari bir xil – ular «amalga oshirish» tushunchasi bilan aynan mos keladi, ya'ni biron narsaning haqiqatda ro'yobga chiqishini, ijro etilishini bildiradi. Ana shu ma'noda huquqiy normalarning qo'llanilishi ularning odamlar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatida amalga oshirilishini, ro'yobga chiqarilishini bildiradi.

Huquqiy normalarning qo'llanilishi – subyektiv huquq va yuridik burchlar maxsus vakolat berilgan davlat organlarining aralashuvisiz amalga osha olmaydigan hollarda huquqiy boshqaruv mexanizmiga kirib boradigan huquqiy ta'sir etish jarayonidir. Huquq normalarini hayotga joriy etish nuqtai nazaridan, dastlabki tergov protsessual hujjatlari huquqni qo'llovchi, shuningdek, huquq normalarini bajarish, qo'llash va ularga rioya etish hujjatlari bo'lishi mumkin.

Dastlabki tergov protsessual hujjatlari quyidagi hollarda jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatlari bo'ladi. Birinchidan, jinoyat ishi bo'yicha jinoyatni tergov qilish davomida jinoyat-protsessual huquq normalari bilan belgilanadigan.

Ikkinchidan, jinoyat ishini tergov qilish jarayonida subyektiv huquqni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi g'ovlar paydo bo'lishi mumkin bo'lganda. Bu o'rinda jinoyat-protsessual normalarni qo'llash hujjatlari dastlabki tergovning tegishli ishtirokchilari yoki jinoyat protsessiga jalb etilgan boshqa shaxslar huquq va majburiyatlarining hayotga joriy etilishini ta'minlashi kerak. Uchinchidan, protsessual asoslar bo'yicha jinoyat ishlarining to'xtatilishi yo jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatida yoxud faqat jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatida o'z ifodasini topganda.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatini ichki ishlar organlari tomonidan qo'llash hujjati jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtatilishiga olib

keladi, ya'ni tegishli yuridik oqibatlarini keltirib chiqaruvchi yuridik faktdir.

Shunday qilib, dastlabki tergovning huquqni qo'llovchi jinoyat-protsessual hujjati ushbu organning dastlabki tergov ishtirokchilariga, ko'p hollarda esa boshqa shaxslar va muassasalarga ham qaratilgan hokimiyat irodasini aks ettiradi.

Tergov protsessual hujjatlarining ahamiyati shundaki, ushbu hujjatlar asosida yuzaga kelgan jinoyat-protsessual munosabatlar sababli ko'p hollarda mazkur organlar va jinoyat-protsessual faoliyatning boshqa ishtirokchilari huquq normalasini bajaradilar, qo'llaydilar hamda ularga rioya etadilar.

Jinoyat-protsessual huquq normalarini boshqa jinoyat-protsessual me'yorlarga rioya etmagan holda qo'llash mumkin emas, chunki huquq normalarini amalga oshirish ularning tizimida yuz beradi. Tergovchining dalillarni to'plash, mustahkamlash, tekshirish va baholashga qaratilgan protsessual hujjatlari, avvalo, jinoyat-protsessual normalarni bajarish bilan ifodalanadi.

Jinoyat-protsessual normalarni bajarish va ularga rioya etish hujjatlari jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarning to'xtatilishiga olib kela olmaydi. Ular huquqni qo'llovchi jinoyat-protsessual hujjatlar bilan aloqadagina (tufayligina) to'xtatilishi mumkin. Jinoyat-protsessual huquq va jinoyat huquqi normalarini qo'llashning jinoyat-protsessual hujjatlari ish bo'yicha dastlabki tergov davomida yuzaga keladigan asosiy huquqiy masalalar bilan bog'liq eng muhim jinoyat-protsessual munosabatlarning yuzaga kelishi, to'xtatilishi yoki o'zgartirilishiga olib keladi. Ushbu eng muhim jinoyat-protsessual munosabatlar doirasida qaror topadigan muayyan jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar esa jinoyat-protsessual huquq normalarini bajarish, qo'llash va ularga rioya etish shaklida amalga osha oladi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquq alohida normalarining qo'llanilish jarayoni jinoyat-protsessual va jinoyat huquqining boshqa normalarini ularga rioya etmasdan bajarish mumkin emas, chunki huquq normalari faqat tizimidagina amal qiladi. Shu bois, dastlabki tergov jinoyat-protsessual hujjatlarini ularni hayotga joriy etish nuqtai nazaridan huquqni qo'llash va bajarish, rioya etish, qo'llash hujjatlariga bo'lishni shartli deb hisoblash lozim.

Jinoyat-protsessual va moddiy normalarni qo'llashning jinoyat-protsessual hujjatlari doimo mustaqil protsessual hujjat sifatida rasmiylashtiriladi. Huquq normalarini bajarish jinoyat-protsessual hujjatlari, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, bir vaqtning o'zida u yoki bu

jinoyat-protsessual hujjatning jinoyat-protsessual shaklining ajralmas tarkibiy qismi hamda mustaqil hujjat bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, tergovchining protsessual hujjati – dastlabki tergov vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan va qonunda belgilangan protsessual shaklga rioya etgan holda dastlabki tergov davomida tuziladigan yoki tergovchi (tergov bo'linmasi boshlig'i)ning, shuningdek, surishtiruv olib borayotgan shaxsning yozma protsessual hujjat shakliga kirgan harakatidir.

Dastlabki tergov davomida jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq, yigirmadan ortiq turdagi protsessual hujjatlar tuziladi, ularni shartli ravishda majburiy (asosiy) va fakultativ (yordamchi) hujjatlarga bo'lish mumkin.

Majburiy protsessual hujjatlarga tergovchi har bir jinoyat ishi bo'yicha tuzadigan hujjatlar kiradi. Ularda tergov davomida yuzaga keladigan asosiy xulosalar, ishning bundan keyingi harakati, tergov harakatlarini yuritishga doir qarorlar bo'ladi, dalil-isbotlar qayd etiladi va mustahkamlanadi. Bular – qarorlar, bayonnomalar va ayblov xulosalaridir.

Fakultativ protsessual hujjatlar sodir etilgan jinoyatning muayyan holati, ayblanuvchining shaxsi, to'plangan materiallardan kelib chiqib har bir jinoyat ishi bo'yicha tuziladigan protsessual hujjatlardir. Fakultativ hujjatlar tergovchining to'g'ri qaror chiqarishiga, dastlabki tergov ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlashga, ularning protsessual majburiyatlarini bajarishlariga, tergov harakatlarining o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishiga, ashyoviy dalillarning saqlanishiga yordam beradi. Ularga ikkinchi darajali protsessual hujjatlar sifatida qaramaslik kerak. Fakultativ protsessual hujjatlar, xuddi majburiylari kabi, JPKga binoan, muayyan holatlarni inobatga olgan holda tuzilishi kerak bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha juda muhimdir. Fakultativ xususiyatga ega bo'lgan protsessual hujjatlar qatorida taqdimnomalar, tilxatlar, majburiyat xatlari, yozma topshiriqlar, yozma xabarnomalar, yozma e'tirozlar, arizalar, xabarlar, tushuntirishlar, chaqiruv xatlari, qayd etilgan ro'yxatlar va boshqalarni sanab o'tish mumkin.

7.2. Dastlabki tergovda tuzilishi majburiy bo'lgan jinoyat-protsessual hujjatlar

Majburiy jinoyat-protsessual hujjatlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ancha to'liq tartibga solingan. Ushbu qonunlarda nafaqat mazkur hujjatlarning nomlari keltirilgan va ularning vazifalari tushuntirib berilgan, balki qarorlar, bayonnomalar va ayblov xulosasining rekvizitlari ham keltirilgan.

Qaror – surishtiruv organi yoki tergovchi tergov jarayonida chiqargan qarorini taklif etadigan va asoslab beradigan protsessual hujjat. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini o‘rganish jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov va surishtiruv davomida yuzaga keladigan masalalar yuzasidan (jinoyat ishini qo‘zg‘atish, ishni o‘z yurituviga olish, ishni tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborish, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ehtiyot chorasini tanlash, ekspertiza tayinlash, tintuv o‘tkazish, olib qo‘yish va boshqalar to‘g‘risida) oltmishdan ortiq turli qarorlar chiqarilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Qaror uch qismdan iborat bo‘ladi: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa.

Kirish qismida hujjat nomi, u tuzilgan joy va sana, uni kim (egallab turgan lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi va ismi-sharifi) va qaysi ish bo‘yicha tuzganligi ko‘rsatiladi.

Tavsif-asoslantirish qismi qarorda markaziy o‘rin tutadi. Aynan unda nima aniqlanganligiga doir aniq holatlar keltiriladi; ushbu holatlardan qanday xulosa kelib chiqayotganligi ko‘rsatiladi; birga olinganda chiqarilgan qarorning asoslanganligi haqida fikr yuritish imkonini beradigan motivlar keltiriladi; shaxs ushbu qarorni chiqarayotganda asoslangan qonunga havola qilinadi.

Xulosa qismida chiqarilgan qaror bayon etiladi. Ushbu qaror uning kirish va tavsiflovchi qismidan mantiqan kelib chiqishi kerak. Xulosa qismida boshqa ko‘rsatuvlar ham berilishi mumkin, masalan, ishning bundan keyingi yo‘nalishi (jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqida qaror chiqarilganda), qarorning nusxasini ijro etish uchun yuborish haqida (ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qarorda – qamoqqa olish uchun), qarorning nusxasini prokurorga yuborish haqida va boshqalar.

Qarorni uni chiqargan shaxs imzolaydi. U tergov yuritilayotgan tilda tuziladi va u taalluqli bo‘lgan barcha fuqarolar hamda mansabdor shaxslar uchun majburiydir. Ba’zi qarorlar prokuror ruxsati (sanksiya)dan so‘ng yoki tasdiqlaganidan keyin yoxud roziligi olingandan so‘nggina yuridik kuchga ega bo‘ladi. Masalan, tintuv o‘tkazish, davlat sirlariga ega hujjatlarni yoki pochta-telegraf jo‘natmalarini olib qo‘yish; murdani eksqumatsiya qilish haqidagi qarorlar.

Bayonnoma – tergovchi yoki surishtiruvchi tergov harakatlarining tartibi va natijalarini qayd etadigan protsessual hujjat. Bayonnomani, shuningdek, tergovchi yoki surishtiruvchi bajaradigan har bir protsessual harakatni amalga oshirish jarayoni va natijalarini tavsiflaydigan protsessual hujjat deb ta’riflash ham mumkin. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida tergov harakatlarini o‘tkazish bilan aloqador qirqdan ortiq

bayonnomalarni tuzish haqida gapiriladi. Tergov harakatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, bayonnomalarning uchta asosiy turi farqlanadi:

1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohni so‘roq qilish va yuzlashtirish bayonnomalari;

2) ko‘zdan kechirish, guvohlantirish, tintuv, olib qo‘yish, ushlab turish, eksperiment o‘tkazish vaqtida hamda tanib olish uchun ko‘rsatish chog‘ida aniqlangan dalillar tasdiqlanadigan bayonnomalar – dalillarning mustaqil manbai bo‘ladi;

3) ba’zi bayonnomalar jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining bajarilganligini qayd etish uchun tuziladi. Ularga ayblanuvchining ekspertiza tayinlash haqidagi qaror bilan tanishtirilganligi haqidagi; korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mansabdor shaxslariga jinoyat tufayli ularga moddiy zarar yetkazilgan bo‘lsa, ular fuqarolik da’vosi qo‘zg‘atish huquqiga ega ekanliklari tushuntirilganligi haqidagi; dastlabki tergov tamomlanganligi haqidagi; ayblanuvchiga yoki uning himoyachisiga ish materiallari tanishtirilganligi haqidagi bayonnomalar kiradi.

Bayonnomalarda tergov harakati bajarilgan joy va sana; ushbu harakat boshlangan va tamomlangan vaqt; bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi va ismi-sharifi; tergov harakatida ishtirok etgan har bir shaxsning familiyasi va ismi-sharifi, zarur hollarda esa – ularning manzili; tergov harakatining mazmuni va uni amalga oshirish chog‘ida aniqlangan ish uchun muhim bo‘lgan holatlar ko‘rsatiladi.

Agar tergov davomida fotosuratga, kinoga olish, ovoz yoki videoyozuv usullaridan foydalanilgan yoki izlardan ko‘chirmalar olingan bo‘lsa, bayonnomada tegishli tergov harakatini amalga oshirish davomida qo‘llanilgan texnika vositalari, ulardan foydalanish sharoitlari, ushbu vositalar qaysi obyektlarga nisbatan qo‘llanilganligi ko‘rsatiladi. Bayonnomada, shuningdek, tergov harakatini amalga oshirishda ishtirok etgan shaxslar texnika vositalarini qo‘llashdan avval bu to‘g‘rida xabardor qilinganliklari ta’kidlanishi kerak.

Bayonnomada u tergov harakatida ishtirok etgan barcha shaxslarga o‘qib eshittirilganligi yoki har bir ishtirokchiga uning mazmuni bilan shaxsan tanishish imkoni berilganligi; ularga bayonnomaga kiritilishi lozim bo‘lgan fikr-mulohazalar bildirish huquqi tushuntirib berilganligi ko‘rsatiladi. Ushbu hujjatni uning xususiyatidan kelib chiqib, tergovchi va tergov harakatida ishtirok etgan boshqa shaxslar (so‘roq qilingan shaxs, tarjimon, xolis va h.k.) imzolaydilar. Unga tergov davomida bajarilgan fotonegativlar va suratlar, diapozitivlar, fonogrammalar, videoyozuv

kasseta yoki diskleri, plan, chizma, qaydnoma, iz nusxalari va qoliplari ilova qilinadi.

Bayonnoma tergov harakati (masalan, so‘roq qilish) vaqtida yoki bevosita u tugaganidan keyin (masalan, tergov tamomlanganligi to‘g‘risidagi va ayblanuvchi va uning himoyachisiga ish materiallari taqdim etilganligi haqidagi bayonnoma) tuziladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh yoki boshqa shaxs tergov harakati bayonnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda bayonnomada bu qayd etiladi va buni tergov harakatini bajargan shaxs o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi. Shaxsning imzolashdan voz kechishining sabablari haqidagi tushuntirishlari ham bayonnomaga yozib qo‘yiladi. Agar mazkur shaxslar jismoniy kamchiliklari tufayli bayonnomani imzolay olmasalar (so‘roq qilish bayonnomasi bundan mustasno), bu to‘g‘rida yozib qo‘yiladi hamda tergovchi va xolislarning imzolari bilan tasdiqlanadi. So‘roq qilish bayonnomasini imzolash uchun bunday hollarda xolis (manfaatdor bo‘lmagan) shaxs taklif etiladi va u o‘z imzosi bilan so‘roq qilingan shaxsning roziligi bilan uning ko‘rsatuvlari to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Ushbu bayonnomani so‘roq qilgan tergovchi ham imzolaydi.

Bayonnoma qo‘lda yoziladi yoki kompyuterda teriladi. Tergov harakatlari to‘la qayd etilishini ta‘minlash uchun stenografiya qo‘llanilishi mumkin.

Ayblov xulosasi – dastlabki tergov natijalari chiqariladigan, ishning mohiyati, ayblanuvchining shaxsiga oid ma‘lumotlar va ayblov ta‘rifi (formulirovkasi) bayon etiladigan protsessual hujjat. Uni tergovchi tuzadi va albatta prokuror tasdiqlashi kerak.

Ayblov xulosasi ikki qismdan iborat bo‘ladi: tavsiflovchi va xulosa qismlari.

Tavsiflovchi qismidan avval ushbu hujjatning nomi, shuningdek, u qaysi ish bo‘yicha tuzilganligi (ayblanuvchining familiyasi, ismi-sharifi; u sodir etganlikda ayblanayotgan jinoyatlar kvalifikatsiyasi) ko‘rsatiladi. Ba‘zan ayblov xulosasining ushbu qismi kirish qismi deb ataladi va tegishli ravishda unda ayblov xulosasi uch qismdan, ya‘ni kirish, tavsiflash va xulosa qismlaridan iboratligi ko‘rsatiladi. Unda ishning mohiyati – jinoyat sodir etilgan joy va vaqt, uning qaysi usulda sodir etilganligi, motivlari, oqibatlar va boshqa muhim holatlari; jabrlanuvchi haqidagi ma‘lumotlar, jinoyatning mavjudligi va ayblanuvchining aybdorligini isbotlovchi dalillar; ayblanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar; ayblanuvchi o‘zini himoya qilish uchun

keltirgan dalillar va ularni tekshirish natijalari bayon etiladi. Ayblov xulosasida jinoyat ishining varaqlariga havola etilishi shart.

Asosiy e'tiborni sodir etilgan jinoyat va ayblanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlarga qaratish kerak. Ayblov xulosasida aniq dalillar keltirilishi kerak, ushbu dalillarning manbalari bilangina cheklanib qolmaslik kerak. Shuningdek, u yoki bu holatlarni qaysi dalillar tasdiqlashini ham ko'rsatish; ayblanuvchining qo'yilgan ayb bo'yicha bergan ko'rsatuvlarining mohiyatini bayon etish va agar ayblanuvchi qo'yilgan ayb yoki boshqa holatlarni to'la yoki qisman rad etayotgan bo'lsa, uning so'zlarini inkor etuvchi dalillarni keltirish zarur.

Jinoiy faoliyati ko'p epizodli bo'lgan bir necha shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda ayblov xulosasini tuzish muayyan qiyinchilik tug'diradi. Bunday hollarda har bir ayblanuvchining jinoiy faoliyatini, uning guruh bo'lib jinoyat sodir etishda tutgan o'rnini ko'rsatish, ayblovning har bir epizodini ochib berish va ayni paytda jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligini va ayblanuvchilar shaxsini birgalikda ta'riflab berishdan iborat yana bir vazifa yuzaga keladi. Shunday qilib, ayblov xulosasini tuzish vaqtidagi asosiy vazifa – ishning barcha holatlari va ularni tasdiqlovchi dalillarni izchil bayon etish.

Ayblov xulosasining xulosa qismida ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar keltiriladi va JKning ushbu jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi yoki moddalarini ko'rsatgan holda ayblovning ta'rifi taklif etiladi.

Ayblanuvchi haqida quyidagi ma'lumotlar berilishi kerak: familiyasi, ismi-sharifi, tug'ilgan yili va joyi, millati, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, ish joyi yoki nima bilan mashg'ulligi, sudlangan-sudlanmaganligi, mukofotlari va turar joyi. Bundan tashqari ayblov xulosasida mazkur shaxsga ayb sifatida qo'yilayotgan jinoyat, jinoyatning sodir etilgan vaqti, joyi va boshqa holatlari, shuningdek, jinoyatni kvalifikatsiyalashga asos bo'ladigan JK moddalari va ularning bandlari (qismlari) ko'rsatilishi lozim.

Agar ayblanuvchilar bir nechta bo'lsa, ayblov ta'rifi ularning har biri uchun alohida-alohida keltiriladi.

Ayblov xulosasini tergovchi u tuzilgan joy va vaqtni ko'rsatgan holda imzolaydi. Unga tergov muddatlari, tanlangan ehtiyot choralari, qamoqda saqlangan vaqt, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'vo, uni ta'minlash va bo'yicha ko'rilgan choralar va mulkni musodara qilish imkoniyati, sudlov xarajatlari haqidagi ma'lumotlar ilova qilinadi. Bu yerda ma'lumot xususiyatiga ega bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin (masalan, jinoyat sodir etilgan vaqt, jinoyat ishi qachon qo'zg'atilganligi, tergovchi ishni qachon yuritishga qabul qilganligi, ayb qo'yilgan, tergov

tugallangan va ayblov xulosasi tuzilgan sana). Ayblov xulosasiga tergovchining fikricha sud majlisiga chaqirilishi kerak bo'lgan shaxslar (ayblanuvchilar, jabrlanganlar, guvohlar va h.k.) ro'yxati ilova qilinadi.

7.3. Dastlabki tergovning yordamchi (ko'maklashuvchi) hujjatlari

Yordamchi (fakultativ) protsessual hujjatlar asosiylaridan farqli ravishda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida unchalik to'la tartibga solinmagan.

Taqdimnoma – bu protsessual hujjat tergov qilish davomida aniqlangan sodir etilgan jinoyat sabablarini va uni keltirib chiqargan shart-sharoitlarni bartaraf etish zarur bo'lganda tuziladi. Taqdimnomada u qayerga kiritilayotganligi (korxonada, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasining nomi), qaysi jinoyat ishi bo'yicha ekanligi ko'rsatiladi, ishning mohiyati, shuningdek, jinoyatning sodir etilishiga yordam bergan va bartaraf etilishi lozim bo'lgan holatlar bayon etiladi. Ushbu hujjat tegishli korxonada, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmasining ko'pi bilan bir oy ichida taqdimnomani ko'rib chiqish, zarur choralarni ko'rish va tergovchiga bu to'g'rida xabar berish majburiyatini belgilaydi. Tergovchi taqdimnomada korxonada, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarining faoliyatidagi kamchiliklarning sabablari haqidagi fikrini bayon etadi va ularni bartaraf etishni talab qiladi.

Tilxat – ushbu protsessual hujjat munosib xulq-atvorda bo'lish yoki shaxsiy kafillik yoxud jamoat birlashmasi yoki jamoa kafilligi ehtiyot chorasi tanlanganida, dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilmaslik haqida ogohlantirilganida; xatlangan mulk saqlashga topshirilganida; ekspert muassasasi rahbari tergovchining topshirig'i bo'yicha zimmasiga ekspertiza o'tkazish vazifasi yuklatilgan xodimlarga ekspertlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirganida va ularni xulosa berishdan bosh tortish va bo'yin tovlash yoxud bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirganida; ota-onalar yoki vasiy, homiylar voyaga yetmagan shaxsning munosib xulq-atvorini, shuningdek, uning tergovchi huzuriga kelishini ta'minlash haqida yozma majburiyat olganda tuziladi. Tilxatda kim majburiyat olayotganligi, u kimga berilayotganligi, uning mohiyati nimadan iboratligi, majburiyatlarni buzganlik uchun qanday javobgarlik nazarda tutilganligi, qachon va qayerda tuzilganligi ko'rsatiladi. Hujjatni tilxat beruvchi va uni qabul qilib olgan shaxs imzolaydilar.

Majburiyat – ehtiyot chorasini qo‘llash uchun asos bo‘lmaganda ayblanuvchi ushbu hujjat orqali tergovchining huzuriga kelish majburiyatini oladi. Majburiyatni, shuningdek, ehtiyot chorasi sifatida «jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi» qo‘llanilganda jamoat birlashmasi ham beradi. Majburiyat xuddi tilxat kabi tuziladi, faqat unga rioya qilinmaganda qanday oqibatlar yuz berishi ko‘rsatilmaydi, chunki qonunda bunday hollarda huquqbuzarga nisbatan biron-bir huquqiy oqibat yuzaga kelishi nazarda tutilmagan.

Topshiriq – tergovchi o‘z yurituvida bo‘lgan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv organiga zarur tergov va qidiruv harakatlarini bajarish majburiyatini yuklatadigan, shuningdek, undan ba’zi tergov harakatlarini bajarishda yordam ko‘rsatishni talab qiladigan protsessual hujjat. Bundan tashqari, tergov va qidiruv harakatlarini bajarish haqidagi topshiriq boshqa tuman, viloyat yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasining tergovchisi yoki surishtiruv organiga berilishi mumkin. Ushbu hujjatda uning kimga qaratilganligi ko‘rsatiladi, bajarilish kerak bo‘lgan tergov va qidiruv ishlarining mohiyati bayon etiladi. Zarur, bo‘lganda unda (mo‘ljal uchun) ishning tafsilotlari bayon etilishi mumkin. Topshiriqni tergovchi imzolaydi.

Bildirish – jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilganda, jinoyat tufayli ziyon yetkazilgan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot yoki jamoat birlashmasiga ularning fuqaroviy da’vo qilish huquqini tushuntirish zarur bo‘lganda; jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vog‘ar, fuqaroviy javobgar yoki ularning vakillariga dastlabki tergov tugaganligini xabar qilish va ularga jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqish huquqini tushuntirish kerak bo‘lganda; jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinayotgan shaxsga va boshqa manfaatdor shaxslarga ishning to‘xtatilganligini xabar qilish lozim bo‘lganda tergovchi tuzadigan hujjat. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilganda va ish to‘xtatilganda bildirishnomada chiqarilgan qaror yuzasidan shikoyat qilish huquqi tushuntirilgan bo‘lishi kerak. Bildirishnomani tergovchi imzolaydi.

E’tiroznoma – tergovchi prokurorning muayyan shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish va ayblov hajmi, ishni sudga muhokama qilishga tayinlash uchun yuborish yoki ishni to‘xtatish haqidagi topshiriqiga rozi bo‘lmaganda tuziladigan hujjat. Tergovchi imzolagan e’tiroznoma jinoyat ishi bilan birga masalaning mohiyati va tergovchining dalillari bayon etilgan holda yuqori turuvchi prokurorga taqdim etiladi.

Ariza – ishda ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar bo‘lganda tergovchi ushbu jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirishdan voz kechishi haqida ariza bilan murojaat etishi shart. Prokuror nomiga yozilgan arizada tergovchining ishni yuritishdan voz kechishi uchun asos bo‘lgan sabablar bayon etiladi. Arizani tergovchi hujjat tuzilgan sana va joyni ko‘rsatgan holda imzolaydi.

Xabar – tergovchi kechiktirib bo‘lmas tintuvni prokurorning ruxsatisiz o‘tkazganidan keyin prokurorga yuboradigan hujjat. Xabarda tintuvning kechiktirib bo‘lmasligi sabablari, qachon o‘tkazilganligi (tintuv qilingan soat va sana, qayerda va kimning uyida amalga oshirilganligi) ko‘rsatiladi. Xabarni tergovchi imzolashi va prokurorga 24 soat ichida jo‘natishi kerak.

Tushuntirish xati – jinoyat sodir etilganligi haqida kelib tushgan ariza yoki xabarni tergovga qadar tekshirish chog‘ida tushuntirish xati olishga yo‘l qo‘yiladi. Tushuntirish xatida kim va kimga tushuntirish berilayotganligi hamda masalaning mohiyati bayon etiladi. Ushbu hujjatni tushuntirish bergan shaxs va tergovchi imzolaydi. Tushuntirish xatining boshqa turini tergovchi uning harakatlari yuzasidan shikoyat tushishi munosabati bilan beradi. Tergovchi imzolagan bunday tushuntirish xati jinoyat ishining tergov qilinishini nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi; unda shikoyat bo‘yicha mulohazalar va shikoyat berilishiga sabab bo‘lgan harakatlar keltiriladi.

Chaqiruv qog‘ozi – dastlabki tergovda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh yoki jabrlanuvchini chaqirish uchun yuboriladigan hujjat. Chaqiriq qog‘ozida tergovchi kimni va kim (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi) tariqasida chaqirayotganligi, qayerga va kimning oldiga chaqirilayotganligi, kelish kuni va soati hamda kelmaslikning oqibatlari ko‘rsatiladi. Chaqiruv qog‘ozi olinganligi haqidagi tilxatda uning kimga va qachon berilganligi ko‘rsatilishi kerak.

Mol-mulkni xatlash – tintuv, olib qo‘yish amalga oshirilganda va mol-mulk xatlanganda narsalar yoki hujjatlar olib qo‘yilgan taqdirda tuziladigan hujjat. Ro‘yxatga tintuv, olib qo‘yish chog‘ida olib qo‘yiladigan, xatlanishi kerak bo‘lgan narsalar va hujjatlar kiritiladi. Unda narsalar va hujjatlar soni, ularning o‘ziga xos belgilari, zarur bo‘lganda esa mol-mulkning puldagi qiymati ko‘rsatiladi. Ro‘yxat uch nusxada tuziladi (birinchisi – jinoyat ishiga qo‘shib qo‘yiladi, ikkinchisi – narsalari va hujjatlari olib qo‘yilgan yoki mulki xatlangan shaxsga beriladi, uchinchisi – narsalar, hujjatlar yoki mol-mulklar saqlash uchun berilgan taqdirda shaxsga yoki muassasaga beriladi). Ro‘yxatni xolislar, uyida tintuv, olib qo‘yish amalga oshirilgan yoki mol-mulki xatlangan shaxs yoxud boshqa

hozir bo'lgan shaxs hamda tergovchi imzolaydi. Mol-mulkni xatlash bayonnomaga qo'shiladigan mustaqil hujjat bo'lishi ham, tintuv, olib qo'yishni bajarish va mol-mulkni xatlash haqidagi bayonnomaning qismi bo'lishi ham mumkin.

7.4. Dastlabki tergov protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablar

Dastlabki tergov protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablar nafaqat bunday hujjatlarning tasdiqlovchi, rasmiy tomoniga, balki ularning mazmuniga (protsessual harakatning o'zini haqiqatda bajarish shart-sharoitlari va tartibiga) ham bir xilda taalluqlidir. Bunday talablarga protsessual hujjatning qonuniyligi, asoslanganligi, o'z vaqtidaligi, motivliligi, adolatliligi, har tomonlamaligi, to'laligi va aniqligi hamda ularni tuzishning yuqori sa-viyadaligi va hujjat sifatida rasmiylashtirishning savodliligi kiradi. Ushbu talablarga protsessual harakatlar ham, protsessual hujjatlar ham javob be-rishi kerak. Biroq ayrim talablar o'z yo'nalishiga qarab jinoyat-protsessual hujjatning mazmuni yoki shakli uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar dastlabki tergovning majburiy, jinoyat-protsessual qonunchilik qoidalariga yoxud jinoyat protsessi prinsiplariga, shuningdek, tergov-sud amaliyoti va jinoyat protsessi nazariyasi tavsiya-lariga asoslangan hamda jinoyat protsessi vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal etish maqsadida protsessual harakatlarning o'zlari ham, protsessual hujjatlar ham javob berishi kerak bo'lgan shart-sharoitlari (qoidalari) bo'l-mish jinoyat-protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash imkonini beradi.

Dastlabki tergov jinoyat-protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablar ichida birinchi navbatda qonunchilikda bevosita ko'rsatilgan talablar guruhini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bunday talablarga ularning qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligi kiradi. Ushbu talablar umumiy talablar bo'lib, jinoyat-protsessual faoliyatning barcha protsessual hujjat-lari ularga muvofiq bo'lishi kerak.

Dastlabki tergovning jinoyat-protsessual hujjatlari jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida maxsus talablar sifatida bevosita ifodalanmagan, ammo jinoyat protsessi prinsiplaridan kelib chiqadigan talablarga ham mos bo'lishi kerak.

Dastlabki tergovda jinoyat protsessi prinsiplarini amalga oshirish dastlabki tergov oldiga qo'yiladigan vazifalar bilan chambarchas bog'liq-dir. Dastlabki tergov faoliyatining prinsiplari quyidagi umumhuquqiy demokratizm, insonparvarlik, qonuniylik, fuqarolarning tengligi, mansab-

dor shaxslar harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish erkinligi prinsiplariga tayanishi shubhasizdir. Ayni paytda tergovchi o'z faoliyatini jinoyat protsessining prinsiplariga mos ravishda amalga oshiradi.

Ammo dastlabki tergov jinoyat-protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablar yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Mazkur hujjatlarga qo'yiladigan ba'zi bir talablarni tergov-sud amaliyoti ilg'or tajribani inobatga olgan holda va protsessual fan ifodalaydi. Bunday talablar, asosan, protsessual hujjatning tashqi (rasmiy) tomoniga taalluqlidir. Jinoyat-protsessual hujjatlarga qo'yiladigan talablarning ushbu guruhiga ularning aniqligi, savodliligi, yuqori darajadagi madaniyatli tarzda rasmiylashtirilganligini kiritish zarur.

Nazorat uchun savollar

Tergovchi tuzadigan protsessual hujjatlarning qanday turlari bor?

Dastlabki tergov hujjatlariga qanday talablar qo'yiladi?

Dastlabki tergovning majburiy va yordamchi hujjatlari o'rtasidagi farq nimadan iborat?

Tergov harakatlari bayonnomalarining qanday turlari bor?

Dastlabki tergov yordamchi hujjatlarining shakli va mazmuni qanday xususiyatlarga ega?

Dastlabki tergov protsessual hujjatlarini tuzish metodikasi qanday?

Dastlabki tergov protsessual hujjatlarini rasmiylashtirish madaniyati nimadan iborat?

8-BOB. JINOYAT ISHINI QO‘ZFATISH BOSQICHINING PROTSESSUAL HUJJATLARI

8.1. Tergovning jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichidagi protsessual shakllari

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablarini bajarish jinoyat-protsessual shakl qoidalariga uni qo‘zg‘atish bosqichidayoq rioya etishni ta‘minlaydi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal etishdan avval, ma‘lumki, tergovga qadar tekshiruv amalga oshiriladi. Ushbu tekshiruv fuqarolar so‘rovini amalga oshirish, ariza va tushuntirish xatlari olish orqali amalga oshirilsa-da, ammo tergov faoliyatining ushbu bosqichida bu borada qat‘iy protsessual shakl hali mavjud emas.

Biroq jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan boshlab tergovchining butun faoliyati muayyan protsessual shaklda amalga oshadi. Bu shakl protsessual harakatlarni zarur tartibda, belgilangan shartlarga amal qilib va izchil bajarish majburiyatini yuklaydi. Masalan, jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘ri-sida tegishli qaror chiqarish sifatida protsessual shakl yuzaga keladi. Ish xususida bundan keyingi ma‘lumotlar tegishli ravishda rasmiy-lashtiriladigan bayonnomada qayd etiladigan so‘roq shaklida olinadi.

Protsessual shakl, JPKda belgilanganligi bois, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichining barcha ishtirokchilari – davlat organlari, jamoat birlashmalari va alohida fuqarolar uchun majburiydir.

Protsessual shakl jinoyatga aloqador bo‘lmagan fuqarolarning jinoiy javobgarlikka jalb etilmasligi kafolatiga rioya etgan holda jinoyat sodir etgan shaxslarning fosh etilishi uchun dalillarni to‘plashning eng samarali yo‘llari va vositalarini qisqa muddatlarda ta‘minlashga qaratilgan.

Protsessual shaklga jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichidayoq rioya etmaslik jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini buzish sifatida baholanadi va bir qator hollarda jinoyat ishining qo‘shimcha tergovga qaytarilishiga olib keladi.

Protsessual shakl jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida tergovchi va unga birlashtirilgan surishtiruv organlari xodimlarining faoliyati yozma xususiyatga ega bo‘lishini belgilab beradi. JPKda nazarda tutilgan protsessual hujjatlarning ushbu bosqichda tuzilishi – dastlabki tergov muvaffaqiyatining zaruriy sharti. Protsessual hujjatlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablarining bajarilishidan dalolat beradi, protsessual shaklga rioya etilayotganligini qayd etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida protsessual shaklga yetarli baho bermaslik, protsessual hujjatlarni tuzishga soxta rasmiyatchilik va talab etiladigan formal jihatlariga ortiqcha rioya etish kabi ba'zi tergovchilarda uchrab turadigan qarash, ish mohiyatini protsessual shakldan ajratib qo'yishdek noto'g'ri holdan darak beradi. Bu protsessual shakl va uni mustahkamlash vositalari haqidagi mutlaqo xato tasavvurdir. Protsessual shakl ish mohiyati va mazmunini iloji boricha to'la ochishga xizmat qiladi. Jinoyat protsessida qayd etish vositasi va jinoyat ishining mohiyati o'zaro chambarchas bog'liqdir. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining protsessual hujjatlarisiz jinoyat protsessi ham, jinoyat ishi ham, binobarin, uning mohiyati ham yo'q.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida protsessual hujjatlarni tuzishning shart ekanligi tergovchi hamda surishtiruv organi keladigan xulosalarni (masalan, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki bunday qo'zg'atishni rad etish uchun ma'lumotlarning yetarliligi haqidagi xulosalarni) qayd etish uchun zarur. Yetarli sabab va asoslarga tayanib tuzilgan protsessual hujjatlarsiz jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi biron-bir muhim xulosa qilinmasligi kerak.

Nihoyat, jinoyat ishini qo'zg'atishda shaxsan ishtirok etgan tergovchi va surishtiruv organi protsessual hujjatlarsiz o'zlari aniqlagan faktik ma'lumotlarni va yuridik faktlarni dastlabki tergovga ma'lum qilish imkoniyatidan umuman mahrum bo'lardi. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi tergovning protsessual shakli ahamiyati ana shu bilan belgilanadi.

8.2. Tergovga qadar tekshiruv o'tkazish tartibi va xususiyatlari

Jinoyat sodir etilganligi haqidagi dastlabki ma'lumotlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida to'liq ko'rsatilgan manbalardan olinishi mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atishning bunday manbalari yoki sabablariga quyidagilar kiradi: shaxslarning arizalari; korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar; ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar; jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, Tergovchi, prokuror yoki sudning bevosita o'zi aniqlashi; aybini bo'yniga olish haqidagi arz. Jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi (JPK 322-m.).

Shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Yozma ariza arz qiluvchi shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi lozim.

Og‘zaki ariza bayonnomada qayd etiladi. Bayonnomada arz qiluvchi, uning yashash va ishlash joyi, shuningdek, shaxsiy hujjatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettirilishi lozim. Basharti, arz qiluvchi birorta hujjatni ko‘rsata olmasa, uning shaxsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni boshqa yo‘llar bilan tekshirish chorasi ko‘rilishi kerak.

Arz qiluvchi jinoyat to‘g‘risida bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun JKning 237-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi va bu xususda bayonnomada qayd qilinib, uning imzosi bilan tasdiqlanadi. So‘ngra bayonnomada jinoyat sodir etish holatlari xususidagi ma‘lumotlar arz qiluvchi nomidan iloji boricha so‘zma-so‘z aks ettiriladi. Bayonnomani arz qiluvchi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs imzolaydilar. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishga Jinoyat-protsessual kodeksning 113-moddasida nazarda tutilgan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz sabab bo‘lsa, bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilmasligini mustasno etganda, unga shaxslarning arizalarini qabul qilish va rasmiylashtirish to‘g‘risidagi barcha qoidalar taalluqlidir (JPK 324-m.).

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi konuniga asosan Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118-moddasining birinchi qismida, 119-moddasining birinchi qismida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi. Jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi, ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart¹ (JPK 325-m.).

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar jinoyat to‘g‘risida bergan xabarlar xizmat xati yoki tasdiqlangan telefonogramma, telegramma yoxud radiogramma shaklida bo‘lishi mumkin. Xabar yuboruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o‘z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilib yuborishi mumkin (JPK 326-m.).

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni // Xalq so‘zi. – 2012. – 6 yanv. – №4 (5394).

Muayyan jinoyat to'g'risida ommaviy axborot vositalariga yo'llangan, lekin e'lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladi. Jinoyat to'g'risidagi xabarni e'lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek, bu xabar mualliflari Tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga asosan hujjatlarni va xabarni tasdiqlovchi o'z ixtiyorlarida bo'lgan boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart (JPK 327-m.).

Jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarning bevosita aniqlanishi quyidagi hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'lishi mumkin: a) surishtiruvchi ma'muriy vazifani amalga oshirayotganida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha surishtiruv o'tkazish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida; b) tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida; v) prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov olib borish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida; g) sudya ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishni yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida; d) sud fuqaroviy ishni yoki boshqa jinoyatga doir ishni yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida. (JPK 328-m.).

Odatda, jinoyat sodir etilganligi haqidagi ariza va habarlar ichki ishlar organlarning navbatchilik qismiga kelib tushadi.

Tuman (shahar) IIB navbatchilik qismiga kelib tushgan jinoyat haqidagi xabarni tezkor-navbatchi, O'zbekiston Respublikasi IIVning 1993-yil 5-yanvardagi 6-sonli buyrug'iga asosan, navbatchilik qismidagi mavjud jurnallarga ro'yxatga oladi. Jumladan, kelib tushgan xabar agarda telefon orqali ma'lum qilingan bo'lsa, u holda «Ichki ishlar bo'limiga telefon, telegraf, signal beradigan qo'riqlash moslamalarini ishlab ketishi natijasida va boshqa signallar orqali hodisalar bo'yicha ma'lumotlarni hisobga olish» jurnali («shakl-2» kitobi)ga qayd etadi. Agarda yozma ariza bilan murojaat qilingan bo'lsa, unda «Jinoyatlar to'g'risida ichki ishlar bo'limiga kelgan ariza va xabarlarni hisobga olish» kitobi («shakl-1» kitobi)ga qayd etadi va arizachiga navbatchi tomonidan xabar qog'ozi berilishi kerak. Shundan so'ng navbatchi jinoyat haqidagi ariza (xabar) haqida tergov-tezkor guruhi rahbari (tergovchi) axborot beradi.

Tergov-tezkor guruhi rahbari (tergovchi) xabarni olgach tergov-tezkor guruhi a'zolarining darhol to'planishini ta'minlaydi va hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishga shayligini yana bir bor tekshirib ko'radi. Xususan, tergov-tezkor guruhi a'zolarining to'planganligiga, tergov chemodanidagi

jihozlarning to'liqliligiga, shuningdek o'tkazilishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan vositalarning mavjudligiga, texnik va transport vositalarining hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishga hozirligiga e'tiborini qaratadi. Kamchiliklar aniqlangan hollarda shaxsan o'zi yoki tezkor-navbatchi yordamida barataraf etish choralarini ko'radi, tezkor-navbatchidan xabarni 2-sonli jurnaldan ro'yxatdan o'tkazilganligi bo'yicha tartib raqamini oladi va tergov-tezkor guruhini hodisa sodir bo'lgan joyga tezkorlik bilan yetib borilishini ta'minlaydi. Hodisa sodir bo'lgan joyga yetib borgach tergov-tezkor guruhi a'zolari, ya'ni tezkor vakil, profilaktika inspektori, EKB mutaxassisi va inspektor-kinologga sodir etilgan jinoiy hodisaning mazmunidan kelib chiqib vazifalar qo'yadi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida navbatchi tergov-tezkor guruhining hodisa sodir bo'lgan joyda amalga oshiriladigan ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhning hodisa sodir bo'lgan joydagi xarakatlari, birinchi navbatda ish bo'yicha jinoyat belgilari va izlarini, jinoyatchi shaxslarning o'ziga xos belgilarini, guvohlarni va daliliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashga yo'naltirilgan dastlabki tergov-tezkor choralar majmuni o'zida aks ettirishi kerak. Tergov-tezkor guruhining har bir a'zosi hodisa sodir bo'lgan joyda, u tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarakatlarni aniq bilishi muhim ahamiyatga ega.

Tergovga qadar tekshiruv davomida quyidagi holatlar aniqlanishi lozim:

- jinoyat hodisasining mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- agarda jinoyat holati mavjud bo'lsa aynan qanday turdagi jinoyat sodir etilganligi;
- jinoyatning qachon, qayerda, qanday usul bilan sodir etilganligi;
- kimga, qanday shakldagi va qancha miqdordagi zarar yetkazilganligi;
- jinoyat sodir etilishi qaysi usuli, uni sodir etishda qanday vositalar qo'llanilganligi;
- jinoyatning kim tomonidan sodir etilganligi, jinoyatning maqsadi va sabablari va hokazo.

Yuqorida keltirilgan holatlarning aniqlanishi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga imkon beradi.

Navbatchi tergov-tezkor guruhi hodisa sodir bo'lgan joyga kelganidan so'ng guruh rahbari bo'lgan tergovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- hodisa joyi qo'riqlanayotganligini tekshirishi, agar qo'riqlanmayotgan bo'lsa profilaktika inspektoriga qo'riqlashni topshirishi;

– agar jabrlanuvchilar tibbiy yordamga muhtoj bo‘lsa, yordam ko‘rsatishi va agarda ular tibbiyot muassasasiga yuborilgan bo‘lsa, ularni qayerga jo‘natilganligini yozib olishi;

– hodisa joyiga birinchi bo‘lib inspektor-kinologni xizmat iti bilan kiritishi va jinoyatni fosh etish hamda jinoyatchini “issiq izi”da qo‘lga olishni tashkillashtirishi;

– tezkor-qidiruv xodimlariga guvohlarni, jinoyat sodir qilgan shaxslarni aniqlashga qaratilgan topshiriqlar berishi;

– mutaxassis-kriminalistga jinoyatning izlari, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyatchining hodisa joyida bo‘lganligini, qo‘l va oyoq izlarini, boshqa izlarni (tartibsizlik, har tomonga otilgan buyumlar, yuklar, uzilgan tugmalar, soch tolalari, qon va boshqalar) jinoyatchilarga taalluqli buyum va narsalar, mikro obyektlarni topishni topshiradi;

– hodisa joyidagi holat bilan tanishadi, ko‘zdan kechirishni taktik usullarini belgilaydi;

– hodisa joyini ko‘zdan kechirishga kirishadi.

Jinoyat sodir etilgan joy tergov qilinayotgan jinoyat haqidagi ma’lumotlarning manbai hisoblanadi, shu sababli uni zudlik bilan tekshirish lozim, chunki hodisa sodir bo‘lgan joyni o‘z vaqtida ko‘zdan kechirmaslik izlarni va boshqa dalillarni yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘zdan kechirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– jinoyat sodir etilgan joyning holatini aniqlash;

– tergov uchun ahamiyat kasb etadigan narsalar va izlarni aniqlash, qayd qilish va olish;

– tergov va qidiruv tasmollarini tuzish;

– isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlash;

– jinoyatni sodir etgan shaxslarni fosh etuvchi ma’lumotlarni to‘plash.

Hodisa joyida aniqlangan va olingan izlar va predmetlarni ko‘zdan kechirish jinoyat sodir etish usulini aniqlash imkonini beradi. Bu esa jinoyat sodir etish usuli bo‘yicha hamda ochilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha kartotekalardan foydalanishi imkonini yaratadi.

Ko‘zdan kechirishni talab darajasida va samarali o‘tkazish kriminalistik-texnika vositalardan unumli foydalanishga bog‘liq, ayniqsa videoyozuv usullaridan foydalanish unumlidir. Bu esa dalillarni aniqlash jarayoni, ko‘zdan kechirish harakatlari natijasida olingan ashyoviy dalillarni obyektiv qaydetilishiga, shuningdek qo‘llanilgan taktik usullarni to‘g‘rili-gini yaqqol namoyish etilishiga xizmat qiladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha tergovchi JPKning 90-92, 135-141 moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq bayonnoma tuzadi. Bayonnomada ko'zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda ko'zdan kechirilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda, ko'zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo'lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi. Ko'zdan kechirish chog'ida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab o'tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma'lumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi. Bundan tashqari, bayonnomada: ko'zdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorug'likda o'tkazilganligi; qanday ilmiy-texnika vositalari qo'llanilganligi va qanday natijalar olinganligi; ko'zdan kechirishda ko'maklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va ko'maklashish nimada o'z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qay tartibda va qanday muhr bilan muhrlanganligi; ko'zdan kechirilganidan keyin ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarning qayerga yuborilganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari JPKning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

JPKning 329-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va ekspertiza o'tkazish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 21-dekabrda Qonuniga asosan alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga ko'ra prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin:

1) o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, hujjatli taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa;

- 2) olis joylarda bo‘lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo‘lishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo‘lsa;
- 3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo‘shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkoni bo‘lmasa¹. (JPK 329-m.).

8.3. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish tartibi

Jinoyat protsessining ushbu bosqichida «jinoyat alomatlari bor-yo‘qligini ko‘rsatuvchi va tergov yuritish zarurligini asoslovchi ma‘lumotlar yetarlimi», degan masala hal qilinadi. Ushbu bosqich quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– jinoyat sodir etilganligi haqida shaxslardan ariza yoki xabarni olish, ariza yoki xabar uni imzolagan shaxsdan tushganligini tekshirish, chunki anonim arizalar yoki xabarlar, shuningdek, boshqa shaxsning familiyasi bilan imzolangan ariza yoki boshqa xabarlar ko‘rib chiqilmaydi (JPK 323-m.);

– zarur hollarda jinoyatlarning oldini olish va to‘xtatish, shuningdek, sodir etilgan jinoyatlarning (tayyorgarlik harakatlari, tajovuz) izlarini saqlab qolish choralarini ko‘rish;

– ariza yoki xabarnomani boshqa organ yoxud mansabdor shaxsga berish uchun asos bor-yo‘qligi haqidagi masalani ko‘rib chiqish;

– qo‘shimcha materiallar zarur bo‘lganda ariza va xabarnomalarni mohiyati bo‘yicha va tushuntirish xatlari olish;

– jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqida yoki qo‘zg‘atishni rad etish haqida qaror chiqarish va bu to‘g‘rida arizachiga xabar qilish;

– jinoyat ishini (yoki tergovga qadar tekshiruv materiallarini) tegishlilik bo‘yicha yuborish;

– zarur bo‘lganda profilaktika choralarini ko‘rish.

Aslida, tergovchi quyidagi hollarda jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal qiladi: a) kelib tushgan xabar uning yurituvida bo‘lgan ish yoki ishdan mustaqil tekshirish uchun ajratilgan material bilan bog‘liq bo‘lsa; b) xabar (ariza) bevosita tergovchiga kelib tushgan yoki vazifalar taqsimoti bo‘yicha bunday materiallarni ko‘rib chiquvchi mansabdor shaxsning (kasalligi, ta‘tilga chiqqanligi va boshqa sabablarga ko‘ra) uzoq vaqt yo‘qligi tufayli unga berilgan taqdirda; v) tergovchi jinoyat alomatlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 21-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish to‘g‘risidagi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2009. – 52-son. – 552-m.

bevosita aniqlaganda; g) tekshirish tergovchiga xabar (ariza) xususiyatini inobatga olgan holda topshirilganda, masalan, hodisa joyini ko'zdan kechirish yoki jinoyat ustida ushlashni tashkil qilish yoxud bir qator tergov harakatlarini jinoyat ishi qo'zg'atilgan zahoti amalga oshirish zarurligi munosabati bilan hamda jinoyat ishini qo'zg'atilganidan keyin boshqa tergovchiga berish uchun vaqt sarflash maqsadga muvofiq bo'lmaganligi bois topshirilganda.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror qabul qilish uchun jinoyatni to'raligicha tergov qilish ham, jinoyatning haqiqatdan isbotlanganligini aniqlash ham talab etilmaydi. Jinoyat belgilarini, ya'ni uning sodir etilish ehtimolligini aniqlashning o'zi yetarli bo'ladi. Boshqacha aytganda, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida dastlabki tergovni boshlash uchun asoslarning mavjudligi tekshiriladi, uning natijasi oldindan hal etilmaydi.

To'plangan materiallar jinoyat alomatlari borligidan guvohlik bersa va ish yuritishga to'sqinlik qiluvchi holatlar borligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar bo'lmasa, jinoyat ishi darhol qo'zg'atilishi kerak.

Sabab va asoslar (jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar) mavjud bo'lgan taqdirda jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida Tergovchi, prokuror qaror chiqaradi. Unda albatta ushbu qaror tuzilgan vaqt, joy, uni kim tuzganligi, kimdan va nima to'g'risida xabar olinganligi, tekshirish orqali aniqlangan jinoyat belgilari, JKning ushbu jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi, ishning bundan keyingi yo'nalishi ko'rsatiladi.

Odatda jinoyat ishi muayyan bir xabarga havola qilinib qo'zg'atiladi. Lekin ayrim hollarda (masalan, agar ish shaxsning aybini bo'yniga olib kelishi munosabati bilan qo'zg'atilganda yoki gap ma'lum shaxsning qilmishlari haqida borayotgan bo'lsa) qarorda tegishli qilmishni sodir etganligi tahmin qilinayotgan shaxs ham ko'rsatilishi mumkin.

Surishtiruvchi yoki tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorning nusxasini ishning tergov qilinishini nazorat qiladigan prokurorga yuboradi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida to'plangan materiallar (ko'zdan kechirish bayonnomasi, muassasalarning hujjatlari, arizalar, tushuntirish xatlari) ishga qo'shib qo'yiladi. Ariza, tushuntirish bergan, ma'lumotlar, hujjatlar va boshqa hujjatlarni imzolagan shaxslar keyinchalik so'roq qilingan bo'lsalar ham, ushbu materiallar butun ish yuritish davomida faktik ahamiyatini saqlab qoladi. Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirish vaqtda olib qo'yilgan obyektlarni, shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida topilgan va ashyoviy dalil yoki hujjatlar ahamiyatiga ega

bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa obyektlarni ishga qo'shib qo'yish haqidagi masalani umumiy tartibda hal etadi.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng darhol davom etayotgan jinoyatlarni to'xtatish va takroran jinoyat sodir etilishining oldini olishga, shuningdek, jinoyatning ish uchun ahamiyati bo'lishi mumkin bo'lgan izlari, narsalar va hujjatlarni qayd etish va saqlab qolishga qaratilgan choralar ko'rilishi kerak.

8.4. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish protsessual faoliyatni inkor etilganligi va oraliq emas, yakuniy xususiyatga ega bo'lganligi bois, jinoyat belgilari yo'qligi haqidagi ishonchli ma'lumotlar yoki jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni inkor etuvchi boshqa holatlarning yoxud uni qo'zg'atish bosqichidayoq jamoat ta'sirini qo'llashning o'zi yetarli ekanligi haqida yetarli xulosa asosida amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno etuvchi holatlar aniqlanishi mumkin. Ularning ro'yxati JPKning 333-moddasida berilgan.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari mavjud bo'lmagan taqdirda, shuningdek ish yuritishni istisno etuvchi holatlar (JPK 83-m. 1 va 2-b. va 84-m. 1, 3-7-b.) aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida tergovchi yoki prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror yoki ajrim ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim.

JPKning 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida (e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa) nazarda tutilgan holat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

JPKning 83-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari esa tugatilishi lozim:

1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa.

JPKning 84-moddasiga muvofiq:

1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;

2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;

3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

4) ayni bir jinoyatni sodir etganlikda ilgari gumon qilingan yoki ayblangan shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatish haqidagi sudning ajrimi yoxud tergovchi, prokurorning qarori qonuniy kuchga kirgan bo'lsa;

5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;

6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPKning 335-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa.

JPKning 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilishda shaxs harakatlarida ma'muriy yoki intizomiy nojo'ya harakat yoki jamoat tartibini boshqacha tarzda buzish alomatlari aniqlansa, tegishli mas'ul organlar va mansabdor shaxslar kelib tushgan arizani ko'rib chiqish va hal etish uchun jamoat birlashmasi, mehnat jamoasi, aholi istiqomat joylaridagi fuqarolar yig'iniga ma'muriy yoki intizomiy tartibda hal qilish uchun yuborishga haqlidirlar.

Jinoyat ishini qo'zg'atishning rad qilinganligi haqida ariza yoki xabar bergan shaxs, muassasa, korxonalar yoki jamoat tashkiloti xabardor qilinadi va ularga ushbu qaror yuzasidan shikoyat qilish huquqlari tushuntirib beriladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish asossiz ravishda rad qilingan taqdirda prokuror o'z qarori bilan tergovchi yoki surishtiruv organining noto'g'ri qarorini bekor qiladi va jinoyat ishi qo'zg'atadi.

Jinoyat ishi qo'zg'atish va tergov o'tkazilishi lozim bo'lgan jinoiy hodisa yuz bermaganligi, jinoyat tarkibi bo'lmaganligi, shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganligi aniqlangan taqdirda tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi. Bu haqda jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim (JPK 333-m.). Qaror qonuniy va asoslangan bo'lishi kerak.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishda ham xuddi jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qarordagi singari kirish va tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Unda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishni asoslovchi aniq ma'lumotlar keltiriladi.

Ish yuritishni inkor etuvchi holatlar mavjudligi tufayli jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorga tergovchi tegishli shaxsning harakatlarida huquq buzilishi yoki axloqqa zid harakat belgilari borligi hamda ish materialini jamoat birlashmasi, jamoada ko'rib chiqish yoki intizomiy yoxud ma'muriy tartibda hal etish uchun yuborish haqidagi ko'rsatuvlarni kiritishga haqlidir.

Agar jinoyat ishini qo'zg'atish shaxsning jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmaganligi tufayli rad etilgan bo'lsa, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanadigan komissiyaga yuborilishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan taqdirda manfaatdor shaxslar va muassasalarga zararni undirish tartibi ham tushuntiriladi, olib qo'yilgan jinoyat qurollari, muomalaga kiritish ta'qiqlangan buyumlarga nisbatan choralar haqida qaror qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi qonuniga asosan «tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning yoxud ajrimning ko'chirma nusxasini prokurorga yuboradi»¹ (JPK 333-m.).

8.5. Jinoyatga oid materiallarni tegishliligiga qarab yuborishning protsessual tartibi

Ba'zi holatlarda ichki ishlar organlariga JPKning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik qoidalariga asosan dastlabki tergovni o'tkazish ichki ishlar organlari tergov apparatining vakolatiga kirmaydigan ariza, xabar yoki hatto materiallar kelib tushadi. Bunday hollarda arizani yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborishga ushbu tuman yoki shahar hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyat haqida xabar berilgan va jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekshirish harakatlarini jinoyat sodir etilgan tuman yoki shaharda o'tkazish zarur bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi (JPK 335-m.). Boshqa hollarda ariza yoki xabarni, jumladan materialni tergovga tegishliligiga qarab bir tergov apparatidan boshqasiga berish taqiqlanadi.

Ayni paytda jinoyat ishini u qo'zg'atilganidan keyin, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqarilganidan keyin ishni: a) sud –

¹ O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni // Xalq so'zi. – 2012. – 6-yanv.– №4.

ishni dastlabki tergov yuritish uchun prokurorga yuboradi; b) prokuror – ish bo‘yicha JPKning 345-moddasiga muvofiq dastlabki tergov olib borish uchun tergovchiga yoki surishtiruv olib borish uchun surishtiruv organi boshlig‘iga yuboradi yoxud o‘zi dastlabki tergovni yuritishga kirishadi; v) tergovchi – dastlabki tergov yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi; g) surishtiruv organining boshlig‘i – ishni surishtiruv o‘tkazish uchun surishtiruvchiga yuboradi yoki o‘zi surishtiruv yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi; d) surishtiruvchi – surishtiruv yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi (JPK 336-m.).

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning yoki qo‘zg‘atini rad etishning qonuniyligini prokuror nazorat qiladi. U 1) surishtiruvchining, surishtiruv organi boshlig‘ining, tergovchining, jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorini bekor qilishga va ish qo‘zg‘atishni rad qilishga; 2) surishtiruvchining, surishtiruv organi boshlig‘ining, tergovchining, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qarorini bekor qilishga va ayni vaqtda ish qo‘zg‘atishga; 3) ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi yoki ish qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi sudning ajrimi ustidan yuqori sudga protest berishga haqlidir (JPK 337-m.).

Shunday qilib, prokuror jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida katta vakolatlarga ega bo‘ladi. Bunday vakolatlarga unga jinoyat ishini qo‘zg‘atishning yoki qo‘zg‘atini rad etishning qonuniyligini nazorat qilish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar:

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida tergovchi protsessual hujjatlarining shakli qanday?

Tergovchining jinoyat haqidagi ariza yoki xabarlarini olishining protsessual tartibiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

Og‘zaki arizani qabul qilish bayonnomasi qanday rasmiylashtiriladi?

Aybini bo‘yniga olib kelish bayonnomasining tuzilishi va zaruriy rekvizitlari qanday?

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini ko‘rib chiqish qanday rasmiylashtiriladi?

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasining protsessual shakli va mazmuni nimadan iborat?

Hodisa joyiga chiqqanda zarur materiallarni talab qilib olish va tushuntirish olish qay tariqa yuz beradi?

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish tartibi qanday?

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish qanday rasmiylashtiriladi?

**Og‘zaki arizani qabul qilish
BAYONNOMASI**

20 ___ yil « ___ » _____ shahri

(arizani qabul qilgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 324-moddasi talabiga rioya qilgan holda, fuqaro:

1. Familiyasi, ismi va otasining ismi _____
2. Tug‘ilgan yili, oyi va kuni _____
3. Ish joyi, lavozimi _____
4. Yashash joyi _____
5. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat _____

(nomi, seriyasi, raqami, qachon va kim tomonidan berilgan)

og‘zaki arizasini qabul qildim.

Arizani qabul qilish soat _____ da boshlandi.

_____ bilan turib yolg‘on xabar bergan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi
(F.I.SH.)

JKning 237-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

Fuqaro _____ quyidagilarni ma’lum qildi: _____
(F.I.SH.) (arizaning mazmuni)

Arizani qabul qilish soat _____ da tamomlandi.

Bayonnomani o‘qib chiqdim. Arizani qabul qilish bayonnomasi mening so‘zlarim bilan to‘g‘ri yozilgan, unga qo‘shimcha va e’tirozlarim yo‘q.

Ariza beruvchi

(imzo)

(F.I.SH.)

Arizani qabul qildim va bayonnomani tuzdim:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

**Aybini bo‘yniga olish haqidagi arzni qabul qilish
BAYONNOMASI**

20__ yil «__» _____ shahri

(arizani qabul qilgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 113-moddasi talabiga rioya qilgan holda, o‘z aybini bo‘yniga olib kelgan _____ ning og‘zaki arizasini _____
(F.I.SH.) (qayerda)

qabul qildim.

1. Familiyasi, ismi va otasining ismi _____
2. Tug‘ilgan yili, oyi va kuni _____
3. Ish joyi, lavozimi _____
4. Yashash joyi _____
5. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat _____

(nomi, seriyasi, raqami, qachon va kim tomonidan berilgan)

_____ quyidagilarni ma’lum qildi:
(F.I.SH.)

(arizaning mazmuni)

Arizani qabul qilish soat _____ da boshlanib, soat _____ da tamomlandi.

Bayonnoma o‘qib eshittirildi, mening so‘zlarim bilan to‘g‘ri yozilgan, bayonnoma mazmuniga qo‘shimcha va e’tirozlarim yo‘q.

Ariza beruvchi

(imzo)

(F.I.SH.)

Arizani qabul qildim va bayonnomani tuzdim:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(ariza berilayotgan IIO rahbari,

unvoni va F.I.SH.)

(ariza beruvchining anketa ma'lumotlari)

A R I Z A

Men, _____, ushbu arizani yozishdan oldin
(ariza beruvchining F.I.SH.)

O'zbekiston Respublikasi JKning 237-moddasiga ko'ra yolg'on xabar berganlik uchun javobgarlikka tortilishim mumkinligi haqida ogohlantirildim.

(imzo) _____
(ariza beruvchining F.I.SH.)

(arizaning qisqacha mazmuni)

Arizani o'z qo'lim bilan to'g'ri yozdim.

Ariza beruvchi _____
(imzo) _____
(ariza beruvchining F.I.SH.)

20__ yil «__» _____

Arizani qabul qildim:

(arizani qabul qilgan shaxsning

lavozimi, unvoni) _____
(imzo) _____
(F.I.SH.)

_____ (tushuntirish xati berilayotgan IIO rahbari,

_____ unvoni va F.I.SH.)

_____ (tushuntirish xatini beruvchining anketa

_____ ma'lumotlari)

Men, _____, ushbu tushuntirish xatini
(tushuntirish xati beruvchining F.I.SH.)

yo'zishdan oldin O'zbekiston Respublikasi JKning 241-moddasiga ko'ra jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirganlik uchun javobgarlikka tortilishim mumkinligi haqida ogohlantirildim.

_____ (imzo)

_____ (tushuntirish xati beruvchining F.I.SH.)¹

TUSHUNTIRISH XATI

Men, _____, ushbu orqali quyidagilarni
(tushuntirish xati beruvchining F.I.SH.)

ma'lum qilaman _____
(tushuntirish xatining mazmuni)

_____ Tushuntirish xati o'z qo'lim bilan to'g'ri yozdim.

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

20__ yil «__» _____

_____ ¹ O'zbekiston Respublikasi JKning 241-moddasi bilan ogohlantirish faqat og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar bo'yichagina amalga oshiriladi.

Tushuntirish xatini qabul qildim:

**Jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqida
Q A R O R**

20__ yil «__» _____ shahri

bo‘yicha to‘plangan materiallar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Bu hodisada jinoyat belgilari mavjudligini va bunday holatda dastlabki tergov o‘tkazish majburiyligini nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 37, 321, 322-modda ___ bandi, 330-modda 1-bandi, 331, 345-modda ___ bandlariga asoslanib,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____

(qanday holat yoki hodisa bo‘yicha)

bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi JKning _____ bilan jinoyat ishi

(qaysi modda, qismi, bandi)

qo‘zg‘atilsin.

2. Dastlabki tergovni olib borishga kirishilsin.

3. Qaror nusxasi ma‘lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.

(hudud, tuman yoki viloyat)

**Jinoyat ishini ish yurituviga qabul qilish haqida
Q A R O R**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qanday hodisa, holat yoki xabar)

bo'yicha to'plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(jinoyat ishi qachon, kim tomonidan qo'zg'atilgan)

_____ nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning ___-moddasi ___-qismi ___ bandi bilan _____-sonli jinoyat ishi qo'zg'atilgan va dastlabki tergov harakatlarini olib borish menga yuklatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 350-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur _____ -sonli jinoyat ishini ish yurituviga qabul qilib, dastlabki tergov harakatlariga kirishilsin.
2. Bu haqda manfaatdor taraflarga ma'lum qilinsin.
3. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.
(hudud, tuman yoki viloyat)

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish haqida

Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qanday hodisa, holat yoki xabar)

bo'yicha to'plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(aniqlangan hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni, aniqlangan holat yoki hodisani)

tasdiqlovchi ma'lumotlar, olingan narsa va hujjatlar, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish asoslari)

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasining «__» bandida nazarda tutilgan holatlarning aniqlanganligini nazarda tutib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 330-moddasi 2-bandi va 333-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____
(qanday holat yoki hodisa bo'yicha, qanday asoslarga ko'ra)

uchun jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinsin.

2. _____ olingan va _____
(qayerdan, kimdan) (qayerda saqlanayotgan qanday turdagi narsa yoki hujjatlarga)

nisbatan ko'riladigan choralar)

3. Jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinganligi va rad qilish asoslari to'g'risida _____ ma'lum qilinib, unga O'zbekiston

(kimga yoki kimlarga)

Respublikasi JPKning 333-moddasiga asosan, ushbu qaror ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqli ekanligi tushuntirilsin.

4. Mazkur qarorning nusxasi ma'lumot uchun _____
(hudud, tuman yoki viloyat)

prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil «__» _____ da e'lon qilindi. Qaror ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqli ekanligim tushuntirildi.

(imzo)

(qayerga kimga)

**Jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinganligi, rad qilish asoslari, shikoyat qilish
huquqi va tartibi to'g'risidagi
X A B A R N O M A**

_____ tekshirish tamomlandi.
(qanday hodisa yoki holat, xabar bo'yicha)

Mazkur _____ bo'yicha 20__ yil «__» _____ da
(holat yoki hodisa, xabar)

_____ O'zbekiston Respublikasi JPK _____-moddasining ____-bandida
(rad qilish asosi)

nazarda tutilgan holatlar aniqlanganligi uchun jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilindi.

(agar ish hujjatlari boshqa choralar ko'rish uchun yuborilgan bo'lsa ko'rsatiladi)

Sizga O'zbekiston Respublikasi JPKning 333-moddasiga asosan, norozi bo'lsangiz, jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinganligi to'g'risidagi qaror ustidan, ushbu xabarnomani olgan vaqtdan boshlab, prokurorga shikoyat qilishga haqli ekanligingizni ma'lum qilaman.

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ariza (xabar)ni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida¹
Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qanday hodisa, holat yoki xabar)

bo'yicha to'plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(aniqlangan hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni, aniqlangan holat yoki hodisani)

tasdiqlovchi ma'lumotlar, olingan narsa va hujjatlar)

Ushbu holat yuzasidan kelib tushgan ariza (xabar)da tuman hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyat haqidagi xabar berilganligi, jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekirshirish harakatlarini jinoyat sodir etilgan hududda o'tkazish zaruriyatini inobatga olgan holda ariza (xabar) va u asosida to'plangan hujjatlarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish lozim.

Yuqoridagilarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36 (37), 321, 322, 330, 335, 346-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Kelib tushgan ariza (xabar) bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekirshirish harakatlarini o'tkazish maqsadida to'plangan hujjatlar _____ ga hududiy tergovga tegishliligiga qarab yuborilsin.

(jinoyat sodir etilgan hudud)

2. Qarorning nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.

(hudud, tuman yoki viloyat)

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

¹ Hududiy jihatdan tergovga tegishlilik bo'yicha yuborish yuzasidan chiqariladigan qarorning namunasi.

Ariza (xabar)ni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida¹
Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qanday hodisa, holat yoki xabar)

bo'yicha to'plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(aniqlangan hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni, aniqlangan holat yoki hodisani

tasdiqlovchi ma'lumotlar, olingan narsa va hujjatlar)

Ushbu holat yuzasidan kelib tushgan ariza (xabar)da yoki prokuratura (milliy xavfsizlik xizmati) tergovga tegishli bo'lgan jinoyat haqidagi xabar berilganligi, jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekirshirish harakatlari tegishli organ tomonidan o'tkazish zaruriyatini inobatga olgan holda ariza (xabar) va u asosida to'plangan hujjatlarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish lozim.

Yuqoridagilarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36 (37), 321, 322, 330, 345-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Kelib tushgan ariza (xabar) bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekirshirish harakatlarini o'tkazish maqsadida to'plangan hujjatlar _____ ga tergovga tegishliligiga qarab yuborilsin.

(ariza (xabar) yuborilayotgan organ)

2. Qarorning nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.

(hudud, tuman yoki viloyat)

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

¹ Boshqa organ tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish yuzasidan chiqariladigan qarorning namunasi.

9-BOB. SO‘ROQ QILISHNING PROTSESSUAL TARTIBI VA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLARI

9.1. «So‘roq qilish» tushunchasi va ahamiyati. So‘roq qilishning umumiy qoidalari

So‘roq qilish jinoyat sudlov ishlarini yuritishda eng keng tarqalgan tergov harakati bo‘lib, bir shaxsdan (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchidan) og‘zaki ko‘rsatuvlar olish va mustahkamlash maqsadida protsessual so‘rov tarzida amalga oshiriladi. So‘roq qilinuvchi tomonidan bildirilgan ma‘lumot hamda ba‘zi hollarda topshiriladigan jadval, ashyo va xabarlarining boshqacha tasvirlari ko‘rsatuv berishning shakli hisoblanadi.

So‘roq qilish tergov harakati jinoyatni ochishda ham asosiy usul bo‘lib xizmat qiladi. Tergov amaliyotida biror bir jinoyat ishi so‘roq qilish tergov harakati o‘tkazilmasdan ochilmaydi. So‘roq qilish tergov harakatining ahamiyati shundaki, jinoyat izlari sifatida qolgan va moddiy dunyoning inson ongidagi in‘ikosidan isbot qilishda foydalaniladi.

So‘roq qilish tergov harakati orqali tergov harakatini o‘tkazuvchi shaxs so‘roq qilinuvchidan muayyan holat yuzasidan ma‘lumotni olishi va fikrini bilishi mumkin bo‘ladi. Qolaversa, ushbu tergov harakati so‘roq qilinuvchiga jinoyat ishi yoki uning muayyan holati yuzasidan bilganlarini boshqalarga ma‘lum qilish va munosabatini bayon qilish imkonini beradi.

So‘roq qilish tergov harakati o‘zining tashqi ko‘rinishidan o‘xshash bo‘lgan harakatlar: tushuntirish talab qilish yoki olish, og‘zaki arizani qabul qilish (ya‘ni tergov harakati hisoblanmagan protsessual harakatlar) va fuqarolarni surishtirish (protsessual harakatlar bo‘lmagan tezkor-qidiruv choralari) mazmuni va ahamiyatiga ko‘ra ulardan farq qiladi. Ko‘rsatuvlar esa ba‘zida ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tanib olish uchun ko‘rsatish kabi tergov harakatlarida ham ularning tarkibiy qismi sifatida mavjud bo‘lishi mumkin.

So‘roq qilish tergov harakatida faqat so‘roq qilishning ishtirokchisi, ya‘ni guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi maqomiga ega bo‘lgan bir shaxsdan dalil to‘plash maqsadida ko‘rsatuv olinadi. Dalillarning maqbullik talabiga ko‘ra tushuntirish xatida va og‘zaki ariza qabul qilish bayonnomasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar dalil hisoblanmaydi. Demak, ushbu harakatlar garchand protsessual hisoblansa-da, uni so‘roq qilish tergov harakatiga tenglashtira olmaymiz.

So‘roq qilishda ko‘rsatuvlar qanday shaklda (og‘zaki yoki yozma) bo‘lishi va qanday harakatlar bilan (misol uchun soqov odamning imo-ishoralari) ifodalanishidan qat’i nazar, tergovda ish uchun ahamiyatli faktlar va ularning tavsifi borligi yoki yo‘qligi haqidagi axborotlar olinishi kerak. Aks holda, so‘roq qilish davomida olingan ko‘rsatuvlar isbotlovchi ahamiyatini yo‘qotadi.

So‘roq qilishning umumiy qoidalari Jinoyat-protsessual kodeksining 96-108-moddalarida belgilangan. So‘roq qilishning umumiy qoidalari orasida birinchi navbatda so‘roq qilishning joyi turadi. Jinoyat-protsessual qonun surishtiruvchiga yoki tergovchiga guvohni, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchini va ayblanuvchini dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyda yoki so‘roq qilinuvchi qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda, sudga esa sud muhokamasi yuritilayotgan joyda so‘roq qilishga ruxsat beradi (JPK 96-modda).

So‘roq qilishdan oldin guvoh, jabrlanuvchi, ozodlikda bo‘lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchilar chaqiruv qog‘ozi bilan chaqiriladilar. Chaqiruv qog‘ozi pochta orqali jo‘natiladi yoki chopar orqali topshiriladi. Chaqiruv telefonogramma, telegramma, radiogramma bilan yoki telefaks orqali ham bo‘lishi mumkin.

Chaqiruv qog‘ozida shaxs kim sifatida, qaysi manzilga va kimning huzuriga chaqirilayotganligi, qaysi kunda va qaysi soatga yetib kelishi kerakligi, shuningdek, uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmay qolgan taqdirda qanday oqibatlar ro‘y berishi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Chaqiruv qog‘ozi chaqiriluvchiga topshirilib, tilxat olinadi. Chaqiruv qog‘ozi olib borilganda chaqiriluvchi vaqtincha yo‘q bo‘lsa, unga berib qo‘yish uchun chaqiruv qog‘ozi u bilan birga yashovchi voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga, yotoqxonaga ma‘muriyatiga, uy egasiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi (JPK 97-modda).

Tergov hibsxonasida, rehabilitatsiya markazlari, jazoni ijro etish yoki tarbiya koloniyalarida saqlanayotgan shaxslar shu muassasalarning ma‘muriyati orqali chaqirtiriladi.

So‘roq qilishdan oldin so‘roq qilinuvchidan uning tug‘ilgan joyi, familiyasi, ismi, otasining ismi, aniq tug‘ilgan vaqti (yili, oyi, kuni), ish joyi, mansabi, mashg‘ulot turi, ma‘lumoti, oilaviy ahvoli, sudlanganligi yoki sudlanmaganligi aniqlanadi. Ushbu ma‘lumotlarning hammasi jinoyat ishidagi yoki so‘roq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi ma‘lumotlar bilan solishtiriladi. Har qanday holda ham tergovchi so‘roq qilinuvchi o‘zini kim deb tanishtirgan bo‘lsa, aynan o‘sha shaxs ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim (JPK 98-modda).

So‘roq qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni biladimi, u qaysi tilda ko‘rsatuv bera olishi mumkin, degan masalalar ham aniqlanishi lozim.

Zarur hollarda tarjimon chaqiriladi va u kelguncha so‘roq qilish to‘xtatib turiladi (JPK 99-modda). So‘roq qilinuvchining qaysi tilda ko‘rsatuv bera olishi bayonnomada ko‘rsatilishi shart.

So‘roq qilinuvchining shaxsi aniqlanganidan keyin unga huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Bu huquq va majburiyatlar tushun-tirilganligi ham so‘roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi (JPK 100-modda).

So‘roq qilinuvchiga ishning unga ma‘lum bo‘lgan holatlari to‘g‘risida so‘zlab berish taklif qilinmog‘i lozim. So‘roq qilinuvchi erkin so‘zlab berganidan keyin uning ko‘rsatuvlarini to‘ldirish va aniqlashga qaratilgan savollar berilishi mumkin (JPK 101-modda).

Kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo‘naltirish mazmunidagi ishora qiluvchi savollar berish taqiqlanadi (JPK 102-modda). Ishora qiluvchi savollar deganda so‘roq qilinuvchidan ma‘lum bir javobni olish maqsadida unga savol berish tushuniladi. Ishora qiluvchi savollarga misol keltiradigan bo‘lsak quyidagini ko‘rsatish mumkin: “o‘sha kuni egningizda qora kiyim edimi?” deb so‘rashning o‘zi shaxsning qora kiyimiga ishora qilyapti. Bu savolni to‘g‘ri shakllantirib “o‘sha kuni qanday kiyim kiygan edingiz?” deb so‘ralsa to‘g‘ri bo‘ladi.

So‘roq qilinuvchining ko‘rsatuvlari raqamlar yoki xotirada saqlanishi qiyin boshqa ma‘lumotlarga taalluqli bo‘lsa, u so‘roq jarayonida o‘zidagi yoki ishga qo‘shib qo‘yilgan hujjatlardan yoxud boshqa yozuvlardan foydalanishi mumkin. So‘roq qilinuvchiga so‘roq qilish jarayonida o‘zidagi hujjatlar va boshqa yozuvlarni o‘qib eshittirishga ruxsat etilishi mumkin. Tergovchi va sud so‘roq qilinuvchidan so‘roq qilish jarayonida u foydalanayotgan hujjatlar va boshqa yozuvlarni talab qilishi, ularni keyin qaytarib berishi yoki ishga qo‘shib qo‘yishi mumkin (JPK 103-modda).

So‘roq qilinuvchining ilgarigi so‘roqda bergan ko‘rsatuvlari faqat uning hozirgi so‘roqda bergan ko‘rsatuvlari tinglanib, qayd qilinib, u imzo chekkanidan keyin hamda hozirgi va ilgarigi so‘roqlarda berilgan ko‘rsatuvlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda; so‘roq qilinuvchi sudda ko‘rsatuv berishdan bosh tortganda; ish so‘roq qilinuvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqilayotganda o‘qib eshittirilishi mumkin (JPK 104-modda).

So‘roq jarayonida tergovchi va sud, shuningdek sud muhokamasida taraflar ishga qo‘shib qo‘yilgan yoki taraflar ixtiyorida bo‘lgan narsalar va hujjatlarni so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatishlari, shuningdek bu hujjatlarni o‘qib eshittirishlari mumkin. So‘roq bayonnomasida qaysi narsa yoki hujjat ko‘rsatilganligi, hujjat matnining qaysi qismi va uning kim

tomonidan o'qib eshittirilganligi, narsa yoki hujjatni ko'rsatish vaqtida qanday savollar berilganligi va bunga javoban so'roq qilinuvchi qanday ko'rsatuvlar berganligi aniq aks ettirilishi kerak (JPK 105-modda).

So'roqning umumiy davom etish vaqti bir kunda sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus bu hisobga kirmaydi (JPK 107-modda).

Dastlabki tergovda va sudda qo'shimcha so'roq qilish zarurati tug'ilishi mumkin. Bunday so'roq quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- so'roq qilinuvchi ishning o'ziga ma'lum bo'lgan barcha holatlari to'g'risida ko'rsatuv bera olishi uchun qonunda nazarda tutilgan so'roqning umumiy davom etish vaqti yetarli bo'lmasa;

- so'roq qilingan shaxs ilgari bergan ko'rsatuvlarini to'ldirish yoki o'zgartirish istagini bildirsa;

- ayblanuvchiga yangi yoki o'zgartirilgan yoxud qo'shimcha ayblov e'lon qilinsa;

- surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ilgari so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligini prokuror qo'shimcha so'roq qilish yo'li bilan tekshirib ko'rishni lozim topsa;

- surishtiruvchi yoki boshqa tergovchi tomonidan ilgari so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligini ishni yuritish uchun qabul qilgan tergovchi qo'shimcha so'roq qilish yo'li bilan tekshirib ko'rishni lozim topsa;

- ilgari so'roq qilingan shaxsga berilishi kerak bo'lgan va ish uchun muhim yangi savollar tug'ilsa;

- shaxs so'roq qilinganidan keyin ishga kirishgan zaxiradagi xalq maslahatchisi ushbu shaxsni yangitdan so'roq qilishni talab qilsa (JPK 108-modda).

9.2. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish

Ayblanuvchini so'roq qilish ayblanuvchidan jinoyat ishi bo'yicha isbotlashning vositalaridan biri bo'lmish ko'rsatuvlar olish usulidir. Ayni vaqtda ayblanuvchi tomonidan ko'rsatuvlar berish qo'yilayotgan aybdan himoyalashning eng ta'sirchan va aniq vositasi hisoblanadi. Ayblanuvchi jinoyat-protsessual faoliyatning subyekti bo'lib, o'zini himoya qilish huquqidan foydalangan holda so'roqda unga qo'yilayotgan aybni rad etadigan yoki javobgarlikni yengillashtiradigan asoslarni keltirish, qo'shimcha dalillarni talab qilib olish haqida iltimos qilishga haqli. Ayblanuvchini so'roq qilish jarayonida tergovchi nafaqat uning sodir etilgan jinoyatlardagi ishtiroki haqida, balki ish bo'yicha ayblanuvchiga

ma'lum bo'lgan holatlar va mavjud dalillar haqida ham ma'lumot oladi. Ayblanuvchi ko'rsatuvlarining tahlili tergovchiga dalillarning yangi manbalarini aniqlashda, ish bo'yicha ilgari surilgan taxminlarni tekshirishda va ushbu jinoyat ishi bo'yicha xulosalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlashda yordam beradi.

Ayblanuvchining ko'rsatuvlari dalillar manbalaridan biri hisoblanadi. Ayblanuvchining ko'rsatuvlari ijtimoiy xavfli qilmishning yuz ber gan-bermaganligi, ushbu harakatlarni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlar va ish to'g'ri hal qilinishi uchun muhim bo'lgan boshqa holatlar aniqlashda dalil manbalari orasida muhim o'rin egallaydi.

Protsessual qonunga muvofiq ayblanuvchining ko'rsatuvlari isbotlash vositasi hisoblanib, uning ko'rsatuvlardagi haqiqiy ma'lumotlar dalillar bo'lib xizmat qiladi. Ular bo'yicha qonunda belgilangan tartibda jinoyat ishi bo'yicha isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar aniqlanadi.

Ayblanuvchining (gumon qilinuvchining) ko'rsatuvlari guvohlar va boshqa shaxslarning ko'rsatuvlaridan tubdan farq qiladi. Bu hol uning jinoyat protsessidagi alohida protsessual holati bilan izohlanadi.

Ayblanuvchi o'ziga nisbatan qo'yilgan ayblov bo'yicha ko'rsatuvlar berar ekan, uning ko'rsatuvlaridan bayon qilingan fikrlar ishning yakunidan manfaatdor ruhida bo'lishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Ayblanuvchi va gumon qilinuvchi tomonidan ko'rsatuvlar berish uning majburiyati emas, balki huquqlari hisoblanadi (JPK 46, 48-moddalar). Bu ularning himoyaga bo'lgan huquqlaridan kelib chiqadi. Ayblanuvchi va gumon qilinuvchi ko'rsatuv berish huquqidan foydalanishi yoki undan voz kechishi mumkin. Ko'rsatuvlar berishdan bosh tortganligi va yolg'on ko'rsatuvlar berganligi uchun javobgarlik haqida ogohlantirilmaydi.

O'zining alohida protsessual holatiga ko'ra ayblanuvchi o'z ko'rsatuvlarida haqiqiy ma'lumotlarni bayon qilish bilan cheklanmaydi. Ayblanuvchi ularni mustahkamlash uchun dalillar keltiradi, boshqa shaxslar tomonidan bildirilgan ma'lumotlar bo'yicha o'z mulohazalarini bildiradi, o'ziga qo'yilgan ayblov bilan bog'liq bo'lgan fakt, holat va hodisalarga baho beradi.

Gumon qilinuvchining ko'rsatuvlari ayblanuvchining ko'rsatuvlariga yaqin bo'lib, bu ularning protsessual holatlardagi o'xshashligi bilan izohlanadi.

Gumon qilinuvchining ko'rsatuvlari ham dalillar manbalaridan biridir. Gumon qilinuvchini jinoyat protsessining muhim ishtirokchisi sifatida

rasmiylashtirish uning ko'rsatuvlari jinoyat ishini tergov qilish uchun ahamiyatli ekanligi, ushbu ko'rsatuvlarning dalillarning maxsus manbalaridan biri sifatida ajratilishini taqozo etadi (JPK 81-modda).

Gumon qilinuvchining keyinchalik ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilishi uning ayblanuvchi sifatida ko'rsatuvlar berishini istisno etmaydi; aksincha, buni taqozo etadi. Agar gumon tasdiqlanmasa, gumon qilinuvchi guvohga aylansa, keyinchalik u guvohlik ko'rsatuvlari beradi. Bu hollarda Tergovchi, prokuror, sud endi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va guvohning ko'rsatuvlaridan farq qiladigan boshqa dalillar manbalariga ega bo'ladilar. Gumon qilinuvchining avval berilgan ko'rsatuvlari bunda o'zining protsessual ahamiyatini yo'qotmaydi. Ular jinoyat ishi bo'yicha to'plangan boshqa barcha dalillar bilan birgalikda tekshiriladi va baholanadi.

Gumon qilinuvchini ushlab turish va qamoqda saqlashga asos bo'lgan har qanday holat gumon qilinuvchi ko'rsatuvlarining predmeti hisoblanishi mumkin. Biroq gumon qilinuvchining ko'rsatuvlari faqatgina ushbu holatlarga daxldor bo'lishi mumkin emas. U ish bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan barcha holatlar yuzasidan ko'rsatuvlar berishi mumkin. Bu bilan gumon qilinuvchining ko'rsatuvlari nafaqat dalillar manbai, balki o'ziga nisbatan bo'lgan gumondan himoya qilish vositasi ekanligiga urg'u berilmoqda. Qonun hujjatlari gumon qilinuvchining ko'rsatuvlarini qayd etish va rasmiylashtirishning yagona protsessual tartibini—uni so'roq qilish bayonnomalarini belgilaydi. Albatta, gumon qilinuvchi surishtiruv va tergov organlariga o'z tushuntirishlarini taqdim etishi mumkin. Biroq ular qonunda belgilangan, qayd etilgan va rasmiylashtirilgan taqdirdagina dalillar manbai sifatida ko'rsatuvlarning protsessual ahamiyatiga ega bo'ladi. Demak, ko'rsatilgan holatlar bo'yicha gumon qilinuvchi so'roq qilinishi, uning ko'rsatuvlari esa so'roq qilish bayonnomasida aks ettirilishi lozim.

Gumon qilinuvchini chaqirish va so'roq qilish protsessual qonunda ayblanuvchini chaqirish va so'roq qilish bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish JPKning 96-108-moddalarida nazarda tutilgan so'roq qilishning umumiy qoidalariga rioya etgan holda o'tkaziladi.

Gumon qilinuvchi ayblanuvchi singari surishtiruv va tergov organlarining chaqiruviga binoan kelishi kerak. Uzrli sabablarsiz kelmagan taqdirda u majburiy ravishda keltirilishi mumkin. Lekin kelish majburiyati ko'rsatuvlar berish majburiyatini anglatmaydi. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatuvlar berish gumon qilinuvchi va ayblanuvchining majburiyatini emas, balki ularning huquqini tashkil qiladi.

Qonunda gumon qilinuvchi va ayblanuvchidan zo'rlik, po'pisa qilish va qonunga xilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatuvlar olishga erishish taqiqlanadi (JPK 88-modda).

Gumon qilinuvchi ko'rsatuvlarining ahamiyati shundan iboratki, ularning yordamida unga nisbatan paydo bo'lgan gumonning asosliligi yoki asossizligi, shuningdek jinoyat ishi bo'yicha boshqa jiddiy holatlar ham aniqlanadi. Gumon qilinuvchining ko'rsatuvlari o'z mazmuniga ko'ra qanday bo'lishidan qat'i nazar ishdagi boshqa barcha dalillar bilan birgalikda har tomonlama va sinchkovlik bilan tekshirilishi hamda baholanishi lozim. Gumon qilinuvchining ko'rsatuvlarini baholashda shuni nazarda tutish kerakki, gumon qilinuvchi ayblanuvchi singari ko'rsatuvlar berishdan bosh tortgani va yolg'on ko'rsatuvlar bergani uchun javobgarlikka tortilmaydi.

Gumon qilinuvchi tergov qilish borasida o'z ko'rsatuvlarini o'zgartirishi hamda tadqiq etilayotgan jinoyat holatlari xususida o'zga tushuntirish berishi mumkin. Har bir shunday tushuntirish surishtiruvchi yoki prokurorning unga nisbatan bo'lgan subyektiv munosabatidan qat'i nazar, albatta tekshirilishi lozim (JPK 112-modda).

Surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazish jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ushlangan, so'roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltirilgandan keyin darhol yoki yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishi kerak (JPK 110-modda).

Gumon qilinuvchini, shuningdek ayblanuvchini birinchi marta so'roq qilishdan oldin tergovchi so'roq qilishning umumiy qoidalari tomonidan nazarda tutilgan barcha harakatlarni: so'roq qilinuvchining shaxsini, uning qaysi tilda ko'rsatuv berishi mumkinligini aniqlashi va hokazolarni amalga oshirishi shart (JPK 96-108-moddalar).

Ba'zi davlatlarda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi so'roq qilinganda himoyachi ishtirok etmasa, (himoyadan voz kechish bundan mustasno.) ular tomonidan berilgan ko'rsatuvlar dalil hisoblanmaydi. Bunday norma-ning borligi ayblanuvchi va gumon qilinuvchini huquqlarining yuqori darajada himoyalanganligini anglatadi.

Shundan keyin tergovchi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga JPKning 46 va 48-moddalarida nazarda tutilgan protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiradi; so'roq qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzgan himoyachining yoxud agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzishga ulgurmagan yoki tuza olmagan bo'lsa, boshqa himoyachining so'roqda ishtirok etishini ta'minlaydi; gumon qilinuvchiga uning qanday jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayot-

ganligini e'lon qiladi; gumon qilinuvchiga ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilinganligi to'g'risidagi qarorni taqdim qiladi va ayblovning mohiyatini tushuntiradi.

Tergovchi birinchi marta so'roq qilishdan oldin u o'zini aybli hisoblashi-hisoblamasligini yoki o'z aybini to'la yoxud qisman rad etishi yoki etmasligini aniqlashi shart.

Barcha harakatlarning bajarilishini surishtiruvchi yoki tergovchi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining so'roq bayonnomasida, sud esa sud majlisi bayonnomasida qayd qiladi (JPK 111-modda).

Tergovchi gumon yoki ayblov mohiyati bo'yicha erkin hikoya qilish shaklida ko'rsatuv berishni tavsiya etadi. Bunday tartib ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) o'z ko'rsatuvlarini to'liq bayon qilishini ta'minlaydi va unga qo'yilgan ayblov (gumon) bo'yicha tushuntirishlarni bayon qilish imkoniyatini va himoyalaniq maqsadida dalillar keltirishini kafolatlaydi.

Gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko'rsatuvlari va ayblanuvchining o'z aybiga iqror bo'lishi, bu iqror bo'lish mavjud dalillar yig'indisi bilan tasdiqlangan taqdirdagina ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ko'rsatuvlari bilan aniqlangan holatlar ayblanuvchi o'z aybiga iqror bo'lgan taqdirda ham, o'zining aybdor ekanligini inkor qilgan taqdirda ham ishning hamma holatlari bilan bog'langan holda boshqa dalillar kabi tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim (JPK 112-modda).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1997-yil 2-maydagi «Sud hukmi haqida»gi qarorida ta'kidlanganki, «sudlanuvchi tomonidan tergovda yoki sudda aybini bo'yniga olish holati u ish bo'yicha to'plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona tasdiqlangan-dagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo'la oladi».

Shaxs u jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinmasdan va unga ayblov e'lon qilinmasdan oldin huquqni muhofaza qilish organlariga o'zi sodir etgan jinoyat to'g'risida xabar bilan, ya'ni aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan murojaat etishi mumkin.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin. Og'zaki xabarni tergovchi, prokuror yoki sud bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma'lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va arz qilingan tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz tergovchi, prokuror va sud tomonidan aniqlangan boshqa barcha dalillar bilan birgalikda baholanadi

hamda aybni bo‘yniga olish mavjud dalillar yig‘indisi bilan tasdiqlangan taqdirdagina u ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish sud, prokuror, surishtiruvchi va tergovchini dalillarni hamda ishning barcha holatlarni aniqlash majburiyatidan ozod etmaydi.

Aybini bo‘yniga olishda tergovchi barcha ahamiyatli holatlarni e’tiborga olishi lozim. Ba’zan ma’lum bir shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab o‘zlari sodir etmagan jinoyatlari yuzasidan aybni bo‘yniga olish hollari uchrab turadi (masalan, ota o‘z farzandining aybini bo‘yniga olishi).

9.3. Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish

Guvoh va jabrlanuvchining ko‘rsatuvlari umumiy xususiyatga ega. Shuning uchun ular so‘roq qilishni yuritishning protsessual qoidalari birligiga asoslangandir. Bu qoidalar JPKning bir bobida joylashtirilgan.

Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish JPKning 96-108-moddalarida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga rioya qilgan holda olib boriladi.

Guvoh va jabrlanuvchi sifatida:

1) hukm va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to‘g‘risida – sudya va xalq maslahatchisini;

2) jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida – himoyachini, shuningdek jabrlanuvchining, fuqaroviy da’vogarning, fuqaroviy javobgarining vakilini;

3) ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni so‘roq qilish mumkin emas.

Qaror chiqarish chog‘ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi, sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashganlik, sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik va boshqa qoidalar sudyalar mustaqilligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bu qoida 2000-yil 14-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Sudlar to‘g‘risida» gi qonunning 67-moddasida mustahkamlangan.

Ikkinchi cheklash himoyachi o‘z protsessual vazifalarini bajarish jarayonida olgan ma’lumotlarga, ya’ni unga ayblanuvchi, uning qarindoshlari va shu kabilar ayblanuvchini himoya ostiga olgani sababli yetkazgan ma’lumotlarga taalluqlidir. Bunday cheklashning zarurati ayblanuvchiga himoyalani huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy prinsipidan kelib chiqadi. Agar himoyachiga murojaat qilish xavf-xatar tug‘dirib,

himoyachi guvohga aylanishi va unga yordam so‘rab murojaat qilgan ayblanuvchiga qarshi ko‘rsatuv berishi mumkin bo‘lsa, ayblanuvchi himoyachi xizmatidan amalda foydalana olmagan bo‘lardi.

U yoki bu shaxsni guvoh sifatida jalb qilishga uning ruhiy yoki jismoniy nuqsonlari to‘sqinlik qilishi mumkin. Qonun bu nuqsonlar ro‘yxatini oldindan belgilamaydi, lekin qonunda ish bo‘yicha ahamiyati bo‘lgan holatlarni shaxs to‘g‘ri qabul qilishiga monelik qiladigan nuqsonlar haqida aytiladi. Ushbu shaxsning ish bo‘yicha guvoh bo‘lishga qodirligi masalasi har bir alohida holda va bu shaxsning kasallik shakli hamda darajasiga, shuningdek u ko‘rsatuvlar beradigan holatlarga qarab hal qilinadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli bo‘lgan holatlar haqida guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida faqat o‘zlarining roziliklari bilan so‘roq qilinishlari mumkin (JPK 116-modda). Bu qoida guvohlik immuniteti deb ataladi. Guvoh yoki jabrlanuvchi uchun ko‘rsatuvlar berish ularning majburiyati hisoblanganligi sababli ular chaqiruv bilan belgilangan joyga ko‘rsatilgan vaqtda kelishlari va haqqoniy ko‘rsatuvlar berishlari kerak. So‘roq boshlanishidan oldin bu shaxslar ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik yoki bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilib, bu haqda so‘roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasiga yozib qo‘yiladi (JPK 117-modda). Biroq gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilmaydilar (JPK 117- modda, 2-qism).

Guvoh va jabrlanuvchi alohida holatlarni bahona qilib, ko‘rsatuv berishdan bosh tortishga haqli emas (JPK 118-modda). Aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar o‘zida davlat sirini yoki kasb sirini aks ettirsa yoxud shaxslar hayotining sir tutiladigan tomonlariga tegishli deb hisoblash uchun asos bo‘lganda, tergovchi va sud guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish chog‘ida bu holatlarning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘rishi shart.

Guvoh va jabrlanuvchi ish uchun ahamiyatli bo‘lgan har qanday holatlar haqida, shu jumladan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jarayonning boshqa qatnashchilari haqida ko‘rsatuvlar berishi mumkin.

Jinoyat protsessi nazariyasida «guvohlik immuniteti» tushunchasi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Umumiy nazariyada quyidagi shaxslar guvohlik immunitetiga ega:

- yaqin qarindoshlar (ota-ona, aka-uka, opa-singil, bolalari, farzandlikka olinganlar, er-xotin, er-xotinning aka-uka, opa-singillari);
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis senatorlari va deputatlari;
- diplomatik daxlsizlik huquqiga ega shaxslar.

So‘roq guvoh va jabrlanuvchiga ish bo‘yicha o‘zlari bilgan holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aytib berishni taklif etishdan boshlanib, undan so‘ng ularga savollar berilishi mumkin (JPK 119-modda).

Tergov olib borilayotgan joyda yoki sudda bo‘lgan guvoh yoki jabrlanuvchi ko‘rsatuv berishga xohish bildirsa, ular o‘sha kunning o‘zida yoki keyingi kundan kechiktirmay so‘roq qilinishi kerak.

Guvoh yoki jabrlanuvchining ko‘rsatuv berishga xohishi to‘g‘risidagi xabar tergovchi yoki sudga pochta orqali kelsa, unga so‘roq o‘tkaziladigan joy va vaqt darhol xabar qilinadi va u kelishi bilanoq so‘roq o‘tkaziladi (JPK 120-modda).

JPK tomonidan guvohlar uchun hech qanday yoshga doir cheklashlar belgilanmagan. Amaliyotda kichik yoshdagi guvohlar ko‘rsatuvlaridan ham foydalaniladi. O‘n olti yoshgacha bo‘lgan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish uning qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o‘tkaziladi. Ko‘rsatilgan shaxslar so‘roq qiluvchining ruxsati bilan guvoh yoki jabrlanuvchiga savollar berishlari mumkin.

O‘n olti yoshgacha bo‘lgan guvohlar va jabrlanuvchilar ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilmaydilar (JPK 121-modda). Biroq shu guvoh va jabrlanuvchilarga ularning protsessual huquqi va majburiyatlarini tushuntirish chog‘ida haqqoniy ko‘rsatuv berish va bu bilan jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga ko‘maklashish ma‘naviy burch ekanligini eslatib o‘tish lozim.

9.4. So‘roq qilish natijalarini protsessual rasmiylashtirish

So‘roq jarayoni va natijalari dastlabki tergov bosqichida so‘roq bayonnomasida qayd qilinadi. So‘roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ovozni yozib olish, videoyozuv va kintotasvirga olish ham qo‘llanilishi mumkin (JPK 106-modda).

Ko‘rsatuvlar bayonnomaga birinchi shaxs nomidan, imkoni boricha so‘zma-so‘z yozib boriladi. Savol-javob so‘roq jarayonida qanday olib borilgan bo‘lsa, shunday izchillikda qayd qilinadi. Tergovchi majlisiga raislik qiluvchi tomonidan chetlatilgan, shuningdek, so‘roq qiluvchi

javob berishdan bosh tortgan savollar ham bayonnomaga kiritilishi kerak.

Bayonnomada, bundan tashqari, so‘roq qilinuvchi tomonidan avvalgi so‘roqlarda berilgan ko‘rsatuvlarning o‘qib eshittirilgani, ko‘rsatuv berish jarayonida so‘roq qilinuvchining hujjat yoki boshqa yozuvlardan foydalangani, so‘roq qilinuvchiga so‘roq davomida narsa va hujjatlar ko‘rsatilgani, so‘roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish o‘tkazilgani qayd qilinadi, fonogramma, video-yozuv, kinotasma bayonnomaga ilova qilinadi.

Agar so‘roq qilishda texnik vositalaridan foydalanilgan bo‘lsa, bayonnomada quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- fotosurat, videoyozuvlar va ovozli yozuvlardan foydalanganligi haqidagi ma’lumotlar qayd etilishi lozim;
- texnik vositalar to‘g‘risida ma’lumotlar;
- agar uzilishlar bo‘lsa, ularning sabablari va muddatlari;
- so‘roq qilinuvchi tomonidan texnik vositalardan foydalanish borasida berilgan ariza va shikoyatlar;
- so‘roq qilinuvchining imzosi.

So‘roq tugaganidan keyin bayonnoma o‘qib chiqish uchun so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatiladi yoxud uning iltimosiga ko‘ra tergovchi tomonidan unga o‘qib beriladi.

So‘roq qilinuvchi ko‘rsatuvni o‘z qo‘li bilan yozma ravishda bayon qilishga haqli, o‘z qo‘li bilan yozilgan ko‘rsatuv bayonnomaga ilova qilinib, bu haqida bayonnomaga yozib qo‘yiladi.

So‘roq qilinuvchi bayonnomaga imzo qo‘yilguniga qadar yozilgan ovoz, videoyozuv va kinotasvir namoyish qilinishi mumkin. Ular bilan bayonnoma o‘rtasida tafovut bo‘lgan hollarda, tafovut sababini aniqlash uchun qayta so‘roq qilinishi mumkin.

So‘roq qilinuvchi bayonnomani o‘qib bo‘lgach, ko‘rsatuvlari to‘g‘ri yozilganligi va u bilan tanishganligini imzo chekib tasdiqlaydi. Imzo bayonnomaning oxiriga qo‘yiladi, basharti ko‘rsatuvlar bir necha sahifaga yozilgan bo‘lsa, har qaysi sahifaga alohida imzo chekiladi.

So‘roq qilishda tarjimon qatnashayotgan bo‘lsa, u so‘roq qilinayotgan shaxsning bayonnomadagi ko‘rsatuvlarini unga og‘zaki tarjima qiladi, so‘roq qilinuvchining o‘z qo‘li bilan yozib bergan ko‘rsatuvlarini esa, yozma ravishda tarjima qiladi. Tarjimon ko‘rsatuvlar yozilgan bayonnomaning oxiriga va har bir sahifasiga alohida, shuningdek so‘roq qilinuvchining o‘z qo‘li bilan yozib bergan ko‘rsatuvlarining tarjimasiga imzo chekadi.

Nazorat uchun savollar:

Tergov harakati nima, uning vazifasi, turlari hamda tergovchining boshqa protsessual harakatlaridan farqi nimada?

So‘roq qilishning umumiy qoidalari qanday?

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilish qanday xususiyatlarga ega?

Kim guvoh va jabrlanuvchi sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas?

Jabrlanuvchini so‘roq qilish BAYONNOMASI¹

20__ yil «__» _____

_____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qayerda, kim ishtirokida)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96–108, 114–117 va 119-moddalariga rioya qilib, jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qildim.

So‘roq boshlandi: soat ____ da So‘roq tugallandi: soat ____ da

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Tug‘ilgan sanasi	
3. Tug‘ilgan joyi	
4. Millati	
5. Fuqaroligi	
6. Ma’lumoti va mutaxassisligi	
7. Ish joyi, kasbi, lavozimi	
8. Turar joyi	
9. Oilaviy ahvoli	
10. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat	
11. Sudlanganligi	
12. Ayblanuvchiga aloqasi	
13. Jabrlanuvchiga aloqasi	

Yolg‘on guvohlik berganligi hamda ko‘rsatuv berishdan bo‘yin tovlaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 238, 240-moddalariga asosan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

(imzo)

(F.I.SH.)

¹ Eslatma: So‘roq qilish jarayonida jabrlanuvchi o‘z ko‘rsatuvlarini erkin so‘zlab berish usulida bayon qilishi lozim. Shundan so‘ng so‘roq qiluvchi ish uchun ahamiyatli bo‘lgan, lekin so‘roq qilinuvchi aytib o‘tmagan holatlar bo‘yicha unga savollar beradi. Savol va javoblar bayonnomada aks ettiriladi. Bunda savollarning ketma-ketligi katta ahamiyat kasb etadi. So‘roq tamomlanganidan so‘ng so‘roq qilinuvchi so‘roq bayonnomasi bilan tanishib chiqadi. So‘roq bayonnomasini so‘roq qilinuvchining o‘zi to‘ldirgan bo‘lsa, u so‘roq bayonnomasining har sahifasi pastiga va bayonnoma oxiriga imzo qo‘yadi. Agarda so‘roq bayonnomasini tergovchi to‘ldirsa, so‘roq qilinuvchi bayonnomaning har sahifasi pastiga, so‘roq qiluvchi bergan savollarga o‘zi bergan javoblarning pastiga va bayonnoma oxiriga imzo qo‘yadi.

Jabrlanuvchiga O‘zbekiston Respublikasi JPKning *55-moddasida* ko‘rsatilgan quyidagi huquq va majburiyatlari tushuntirildi:

Jabrlanuvchi: ko‘rsatuv berish; dalillar taqdim qilish; iltimosnoma berish va rad qilish; o‘z ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma‘lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma‘lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish; qonunda nazarda tutilgan hollarda yarashuv to‘g‘risida arizalar berish hamda yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha, birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudning majlislarida ishtirok etish; Tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; shaxsan o‘zi yoki vakili orqali sudda ayblovni quvvatlash; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va u haqda o‘z mulohazalarini bildirish; ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e‘tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Jabrlanuvchi: Tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi; haqqoniy ko‘rsatuvlar berishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; Tergovchi, prokuror va sudning talabi bo‘yicha dalillar taqdim qilishi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Jabrlanuvchi uzrsiz sababga ko‘ra kelmagan taqdirda ushbu Kodeksning 261 — 264-моддаларида назарда тутилган тартибда мажбурий олиб келиниши мумкин.

Жабрланувчи кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатувлар берганлик учун қонунда белгиланган тарзда жавобгар бўлади.

Жабрланувчининг ўлимига олиб келган жиноятлар тўғрисидаги ишлар бўйича ушбу моддада кўрсатилган ҳуқуқ ва мажбуриятларни дастлабки тергов органлари ёки суд томонидан марҳумнинг қонуний вакили деб эътироф этилган яқин қариндошлари ёки бошқа шахслар амалга оширадilar.

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

Qaysi tilda ko‘rsatuv berishni xohlaysiz? _____ tilida _____ (imzo)

Berilgan savollarga quyidagicha javob qaytardi: _____

(so‘roq bayonnomasi o‘qib chiqilganligi yoki o‘qib eshittirilganligi, to‘g‘ri yozilgan

yoki yozilmaganligi hamda qo‘shimcha va e‘tirozlar bor yoki yo‘qligi haqidagi ma‘lumotlar)

(imzo)

(F.I.SH.)

Advokat:

(imzo)

(F.I.SH.)

So‘roq qildim:

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

**Guvohni so‘roq qilish
BAYONNOMASI**

20___ yil «___»_____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qayerda, kim ishtirokida)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96–108, 114–117 va 119-moddalariga rioya qilib, guvoh tariqasida so‘roq qildim.

So‘roq boshlandi: soat _____ da So‘roq tugallandi: soat _____ da

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Tug‘ilgan sanasi	
3. Tug‘ilgan joyi	
4. Millati	
5. Fuqaroligi	
6. Ma‘lumoti va mutaxassisligi	
7. Ish joyi, kasbi, lavozimi	
8. Turar joyi	
9. Oilaviy ahvoli	
10. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat	
11. Sudlanganligi	
12. Ayblanuvchiga aloqasi	
13. Jabrlanuvchiga aloqasi	

Yolg‘on guvohlik berganligi hamda ko‘rsatuv berishdan bo‘yin tovlaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 238, 240-moddalariga asosan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 66¹-moddasiga asosan guvoh advokatning yuridik yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi tushuntirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

Guvohga O‘zbekiston Respublikasi JPKning **66-moddasida** ko‘rsatilgan quyidagi huquq va majburiyatlari tushuntirildi:

Guvoh: advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish; so‘roq yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o‘z ona tilida ko‘rsatuvlar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish; uning so‘roq qilinishida ishtirok etuvchi tarjimonni rad qilish; ko‘rsatuvlarini o‘z qo‘li bilan yozib berish; o‘ziga qarshi ko‘rsatuv bermaslik; so‘roq bayonnomasi bilan tanishish, unga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish; ko‘rsatuvlar berishda yozma belgilar va hujjatlardan foydalanish; o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun, surishtiruvchining,

tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga ega.

Guvoh: Tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; ish bo'yicha o'ziga ma'lum hamma narsa haqida haqqoniy so'zlab berishi; berilgan savollarga javob qaytarishi; ish bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan holatlarni so'roq qiluvchining ruxsatisiz oshkor etmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Guvoh uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda JPKning 261-264-moddalarida nazarda tutilgan tartibda majburiy ravishda olib kelinishi mumkin. Guvoh ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik, shuningdek bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi.

_____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

Qaysi tilda ko'rsatuv berishni xohlaysiz? _____ tilida _____ (imzo)

Berilgan savollarga quyidagicha javob qaytardi: _____

(so'roq bayonnomasi o'qib chiqilganligi yoki o'qib eshittirilganligi, to'g'ri yozilgan yoki

yoki

yo'qligi haqidagi ma'lumotlar)

_____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

Advokat:

_____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

So'roq qildim:

_____ (lavozimi)

_____ (unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

**Gumon qilinuvchini so‘roq qilish
BAYONNOMASI**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qayerda, kim ishtirokida)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96–111-moddalariga rioya qilib, gumon qilinuvchi tariqasida so‘roq qildim.

So‘roq boshlandi: soat ____ da So‘roq tugallandi: soat ____ da

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Tug‘ilgan sanasi	
3. Tug‘ilgan joyi	
4. Millati	
5. Fuqaroligi	
6. Oilaviy ahvoli	
7. Ma‘lumoti va mutaxassisligi	
8. Ish joyi, kasbi, lavozimi	
9. Qanday mukofotlar olgan	
10. Deputatmi	
11. Harbiy xizmatga aloqasi	
12. Sudlanganligi	
13. Turar joyi	
14. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat	

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 47-moddasiga rioya qilib, _____ ga O‘zbekiston Respublikasi JKning _____-modda _____-qismi, «__» bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilishda gumon qilinayotganligi ma‘lum qilindi va unga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi:

Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e‘tirof etilganligi to‘g‘risidagi qaror unga ma‘lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeksning 230-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; ushlanganidan keyin yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay so‘roq qilinishini talab qilish; o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to‘g‘risida ko‘rsatuvlar berish yoxud ko‘rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish; o‘z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘zining himoyalanih huquqini shaxsan o‘zi amalga oshirish; iltimosnoma berish

(so'roq bayonnomasi o'qib chiqilganligi yoki o'qib eshittirilganligi, to'g'ri yozilgan yoki yozilmaganligi

hamda qo'shimcha va e'tirozlar bor yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotlar)

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi

(imzo)

(F.I.SH.)

So'roq qildim:

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

**Ayblanuvchini so‘roq qilish
BAYONNOMASI**

20__ yil «__»_____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qayerda, kim ishtirokida)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96–111-moddalariga rioya qilib, ayblanuvchi tariqasida so‘roq qildim.

So‘roq boshlandi: soat ____ da So‘roq tugallandi: soat ____ da.

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Tug‘ilgan sanasi	
3. Tug‘ilgan joyi	
4. Millati	
5. Fuqaroligi	
6. Oilaviy ahvoli	
7. Ma’lumoti va mutaxassisligi	
8. Ish joyi, kasbi, lavozimi	
9. Qanday mukofotlar olgan	
10. Deputatmi	
11. Harbiy xizmatga aloqasi	
12. Sudlanganligi	
13. Turar joyi	
14. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat	

Ayblanuvchining O‘zbekiston Respublikasi JPKning 46-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi:

Ayblanuvchi: o‘zining nimada ayblanayotganligini bilish; qamoqqa olinganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeks 230-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; o‘ziga qo‘yilgan ayblov yuzasidan hamda ishning boshqa har qanday holatlari bo‘yicha ko‘rsatuvlar berish yoxud ko‘rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish; o‘z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘zining himoyalani huquqini shaxsan o‘zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ishning barcha materiallari bilan tanishib chiqish hamda undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va

hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; jinoyat ishining tergovchi yoki prokuror tomonidan tugatilganligiga qarshi e'tiroz bildirish hamda sud muhokamasi o'tkazilishini talab qilish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha, birinchi instansiya va apellatsiya instansiyasi sudining majlislarida, sudning ruxsati bilan esa, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudining majlislarida иштирок этиш; Tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish; суд majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u haqda o'z mulohazalarini билдириш; ish bo'yicha keltirilgan протестлар, apellatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar билдириш ҳуқуқига ega.

Sudlanuvchi oxirgi so'z bilan chiqish huquqiga ega.

Ayblanuvchi: Tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; dastlabki tergov va sud muhokamasida ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; o'ziga tanlangan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi; guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi Tergovchi, prokurorning qarorlari va sudning ajrimlari hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Tergovchining 20__ yil «__» _____ kunidagi qarorida bayon etilgan O'zbekiston Respublikasi JKning _____-modda _____-qismi «__» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligim to'g'risidagi aybga _____ iqror_____.

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Himoyachi bilan holi uchrashish huquqingiz ta'minlandimi? _____

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Qaysi tilda ko'rsatuv berishni xohlaysiz? _____ tilida _____ (imzo)

Berilgan savollarga quyidagicha javob qaytardi: _____

10-BOB. YUZLASHTIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

10.1. «Yuzlashtirish» tushunchasi, vazifalari va uni o‘tkazish tartibi

Yuzlashtirish – ilgari so‘roq qilingan ikki shaxs ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda ularning sababini aniqlash uchun o‘tkaziladigan tergov harakatidir.

Yuzlashtirish tergov harakatining huquqiy asoslari va o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 13-bobining 122-124–moddalarida aks ettirilgan.

Yuzlashtirish tergov harakatida avval so‘roq qilingan ikki shaxs yuzlashtirilib, basharti ularning aynan bir xil fakt va holatlarga nisbatan bergan ko‘rsatuvlarida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida har ikkalasining ishtirokida ko‘rsatuvlar olinadi. Bu qarama-qarshiliklarning sabablarini aniqlash uchun yuzlashtirishda gumon qilinuvchi, sudlanuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so‘roq qilinishi mumkin. Yuzlashtirish tergov harakati ko‘rsatuvlarni, jumladan dalillarni tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir.

Jinoyat-protsessual qonun faqat ikki shaxsni yuzlashtirib so‘roq qilishga ruxsat beradi. Yuzlashtirib so‘roq qilishning muhim xususiyati bunda yuzlashtirilayotgan shaxslar ilgari so‘roq qilingan bo‘lishi lozim. Bu esa yuzlashtirib so‘roq qilishning muvaffaqiyatli o‘tkazilishini ta‘minlashda qulaydir. Jinoyat protsessi nazariyasida mavjud bo‘lgan yuzlashtirish tergov harakatining bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq shaxslar o‘rtasida o‘tkazishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Tergov amaliyoti jinoyat protsessida uch va undan ortiq shaxs o‘rtasida yuzlashtirish tergov harakatini amalga oshirishning imkoni ham yo‘qligini tasdiqlaydi.

Agarda bir necha (uch va undan ortiq) shaxslarning so‘roqda bergan ko‘rsatuvlarida haqiqiy qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lsa, ular o‘rtasida yuzlashtirish faqat ikki shaxsdan ajratgan holda o‘tkazish mumkin.

Mazkur tergov harakati navbati bilan ikki shaxs (har biri ikkinchisining ishtirokida) so‘roq qilishda namoyon bo‘lib, so‘roqdan so‘ng yuzlashtirish tergov harakatini amalga oshiruvchi shaxs ruxsati bilan ularga o‘zaro savol berish imkoni beriladi.

Aksariyat hollarda yuzlashtirish tergov harakati so‘roq qilingan shaxslar ko‘rsatuvlarida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjudligini aniqlagan tergovchi tashabbusi bilan o‘tkaziladi. Qonun nafaqat tergovchi, shuningdek, jinoyat

protsessining boshqa ishtirokchilari (jabrlanuvchi, ayblanuvchi, himoyachi va b.) tashabbusi bilan o'tkazilishini taqiqlamaydi.

Bizga ma'lumki, shaxs bo'lib o'tgan voqea xususida o'zining subyektiv taassurotlarini aytib beradi. Obyektiv holat va voqealar inson ongida bir xilda aks etmasligi tabiiydir. Muayyan haqiqiy holatni aniqlash uchun tergovchi aniq faktlar yoki ma'lumotlarga tayanadi. Albatta, bu mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishni talab qiladi. Ko'rsatuvlardagi qarama-qarshiliklar ishning mazmunan hal etilishiga ta'sir etishiga ko'ra jiddiy yoki ahamiyatsiz qarama-qarshiliklar bo'lishi mumkin.

Jiddiy qarama-qarshiliklar bu–isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlar mazmuni yuzasidan ko'rsatuvlarda mavjud bo'ladigan nomutanosiblik, ma'lumotlarning bir-birini rad etishi hisoblanadi. Ular jinoyat ishi bo'yicha aniqlanayotgan hodisalarning tavsif xususiyati, muayyan obyektning qabul qilinish shart-sharoitlari, shakllangan va aytib berilgan ma'lumotning hajmi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qarama-qarshiliklar ba'zida obyektga to'la ravishda, boshqa hollarda esa uning muayyan tarkibiy qism va bo'laklariga, ichki va tashqi tuzilishiga tegishli bo'lishi mumkin. Qarama-qarshiliklarning sababi faktlarni qasddan buzib ko'rsatish, shuningdek, voqelikni noto'g'ri qabul qilish, yomon xotira yoxud real holatni noaniq bayon qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazishda jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarni so'roq qilishning umumiy qoidalari tatbiq etiladi. Yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazuvchi tergovchi yuzlashtirish harakatida ishtirok etishi lozim bo'lgan shaxslarga yuzlashtirish tergov harakati o'tkaziladigan joy, vaqti to'g'risida chaqiruv qog'ozi yuboradi.

Yuzlashtirish tergov harakatida ilgari ko'rsatuvlar yangi yuzlashtirilayotgan shaxslarni so'roq qilish orqali tekshirilishi bois uni o'tkazish chog'ida Jinoyat-protsessual kodeksning 96–108-moddalarida nazarda tutilgan so'roq qilishning umumiy qoidalariga ham rioya qilinadi.

Yuzlashtirib so'roq qilish oldidan tergovchi majlisida raislik qiluvchi har bir so'roq qilinuvchidan navbat bilan ularning o'zaro tanishligi yoki tanish emasligini, o'zaro munosabatlari qanday ekanligini so'raydi va javoblarini tinglaydi. Shundan so'ng har bir so'roq qilinuvchiga navbat bilan qarama-qarshilik kelib chiqqan holatlar to'g'risidagi savollarga javob berish taklif qilinadi. Basharti, qarama-qarshilik bir nechta masalaga yoki bir nechta holatga taalluqli bo'lsa, yuzlashtirishda har ikki so'roq qilinuvchi bir masala yoki bir holat bo'yicha ko'rsatuv bergach, ularga keyingi masala yoki keyingi holat to'g'risidagi savollar berilishi mumkin.

Yuzlashtirish chog'ida so'roq qilinayotgan shaxs tergovchi majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan boshqa so'roq qilinuvchiga savol berishi

mumkin. Sud majlisida so‘roq qilinuvchilarning har ikkalasiga xalq maslahatchilari, shuningdek, taraflar savol berishlari mumkin. Tergovchi va sud majlisida raislik qiluvchi ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmagan yoki yuzlashtirishda aniqlashtirilayotgan qarama-qarshilikka taalluqli bo‘lmagan savollarni chetlatishga haqlidir.

Yuzlashtirish chog‘ida so‘roq bayonnomasi yoki so‘roq qilinayotgan shaxslar avvalgi so‘roqlarda bergan ko‘rsatuvlarning fonogrammalari shu shaxslar yuzlashtirilib, ularning ko‘rsatuvlari bayonnomaga kiritilganidan keyingina o‘qib berilishi yoki eshittirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Yuzlashtirish tergov harakatining asosiy vazifasi ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlari taqdim etgan dalillaridagi jiddiy qarama qarshiliklarni va nomutanosib jihatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilishdan iborat.

Yuzlashtirish tergov harakatining afzalligi shundan iboratki, yuzlashtirishda ishtirok etayotgan shaxslar ilgari bergan ko‘rsatuvlarini o‘zlari aniqlashtiradilar. Bu ularga tergovchi, prokuror, sud tomonidan savollar berish va yuzlashtirilayotgan shaxslarning javoblari bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yuzlashtirilayotgan shaxslar ilgarigi bergan ko‘rsatuvlarini o‘zgartirishlari, ayrim faktlarni eshlashlari, ba’zi holatlarga oid yangi ma’lumotlarni berishlari mumkin. Ko‘pincha so‘roq qilinuvchilardan biri oldin bergan ko‘rsatuvlarini rad qilib, ularni o‘zgartiradi, ishga oid yangi faktlarni va ma’lumotlarni beradi. Bunday holda ushbu shaxsni yuzlashtirish tergov harakatidan so‘ng qayta so‘roq qilish ijobiy natija beradi.

Yuzlashtirish tergov harakatini aynan bir fakt yuzasidan bir necha shaxslar o‘rtasida o‘tkaziladigan hollarda, tergovchi tegishli jinoyat protsessi ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari hamda xarakterining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda yuzlashtirish tergov harakatining o‘tkazilish taktikasini belgilashi lozim. Ushbu jihatlar yuzlashtirishda kimni birinchi bo‘lib so‘roq qilishni aniqlashga yordam beradi. Yuzlashtirib so‘roq qilish orqali tekshiriladigan faktlar ko‘p bo‘lsa, u holda har biri bo‘yicha xronologik yoki mantiqiy ketma-ketlikda so‘roq qilinadi.

Yuzlashtirish savol-javob tarzida o‘tkaziladi. Har bir savolga ikkala ishtirokchi ham javob beradi. Keyin ishtirokchilar aniqlashtirish tartibida savol-javob qilishlari mumkin. Faqat bu tergovchi nazorati ostida o‘tkazilishi shart.

Yuzlashtirish jarayonining ikkinchi ishtirokchisining haqqoniy va ishonchli ko‘rsatuvlari ta’sirida ko‘pincha boshqa ishtirokchi, ya’ni noto‘g‘ri ko‘rsatuv berayotgan shaxs isbotlangan faktlarni tan olmaslik mumkin emasligini anglab yetadi. Noto‘g‘ri ko‘rsatuv berayotgan shaxs ikkinchi ishtirokchining ko‘rsatuvlarini eshitib, ko‘rgan yoki eshitgan narsalarini ketma-ket eslaydi hamda o‘z ko‘rsatuvidagi xatolarini tuzatadi. Ba’zan

yuzlashtirilayotgan ishtirokchilarning ikkalasi ham so‘roq qilish davomida kelib chiqqan qarama-qarshiliklarni tushunib yetib, ularni bartaraf qilishga harakat qiladi. Shunda ham qarama-qarshiliklar bartaraf etilmasa, ularni aniqlash so‘roq qilish hamda boshqa tergov harakatlari bilan davom ettiriladi.

Yuzlashtirilayotgan shaxslardan biri voyaga yetmagan shaxs bo‘lsa, ushbu tergov harakatini o‘tkazishda uning o‘qituvchisi, ota-onasi, yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakili, agar voyaga yetmagan shaxs ayblanuvchi tariqasida yuzlashtirilayotgan bo‘lsa, himoyachi ham ishtirok etishi shart. Yuzlashtirishda, zarur bo‘lsa, ekspert, shuningdek tarjimon ham tergovchi ruxsati bilan ishtirok etishi mumkin.

Yuzlashtirishdagi so‘roqni uch qismga bo‘lish mumkin.

Birinchi qismda so‘roq qilinayotganlarning o‘zaro tanishligi yoki tanish emasligi va o‘zaro munosabatlari qanday ekanligi aniqlanadi (adovat, do‘stlik, qarindoshlik munosabatlari va hokazo).

Ikkinchi qismda so‘roq qilinuvchi har bir shaxsga navbatma-navbat erkin hikoya qilish shaklida o‘tkazilayotgan yuzlashtirish aniqlaydigan holatlar bo‘yicha ko‘rsatuvlar berish taklif etiladi. So‘roq qilinuvchilarning qaysi biri avval bergan ko‘rsatuvlari so‘roq qiluvchida ko‘proq ishonch tug‘dirgan bo‘lsa, shunga birinchi bo‘lib so‘z beriladi.

Uchinchi qism so‘roq qiluvchining savollariga so‘roq qilinuvchilar navbat bilan bergan javoblariga bag‘ishlanadi.

So‘roq qilish ketma-ketligini jinoyat ishi materiallarini hisobga olib tergovchi tomonidan belgilanadi.

Yuzlashtirish jarayonida so‘roq qilinadigan shaxslarning tergovchining ruxsatisiz bir-birlari bilan hech qanday muloqot imo-ishora qilish o‘zaro qandaydir kelishuvga kelish, birining ikkinchisiga tazyiq o‘tkazishi taqiqlanadi.

Agar yuzlashtirish ishtirokchilari guvoh va jabrlanuvchi bo‘lsalar, u holda ular ko‘rsatuv berishni rad etganlik yoki undan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantiriladilar va bu haqda bayonnomaga yozib qo‘yiladi.

Ko‘rsatuv berish tugagandan keyin oldingi so‘roqlardagi tergovchi yuzlashtirish ishtirokchilarining har biriga savollar berishi mumkin. Yuzlashtirish ishtirokchilari bir-biriga faqat tergovchining ruxsati bilan savollar berishlari mumkin. Ularning savollari va ularga berilgan javoblar bayonnomaga kiritiladi (JPK 123-modda). Yuzlashtirish ishtirokchilarining ko‘rsatuvlarini oshkor qilishga faqatgina ular yuzlashtirishda bergan va bayonnomaga yozilgan ko‘rsatuvlardan keyin yo‘l qo‘yiladi. Ko‘rsatuvlar berilib, bayonnomada qayd etilgach, tergovchi o‘z ixtiyoriga muvofiq ilgari berilgan ko‘rsatuvlarni e‘lon qilishi ham mumkin, chunki ko‘p hollarda ushbu harakat natijasida ko‘rsatuvlar solishtirilib, ular o‘rtasidagi ziddiyatlar bartaraf etilishi mumkin.

Tergovchi tomonidan yuzlashtirishda ishtirok etuvchi shaxslarga ta'sir qilish darajasini pasaytirish maqsadida, agar ushbu shaxslar o'zlarining avvalgi ko'rsatuvlaridan bosh tortgan bo'lsalar, ularning ilgari bergan ko'rsatuvlari tergovchi tomonidan o'qib eshittirilishi mumkin. Tergovchi yuzlashtirishda ham bayonnomada qayd etilgan ilgari ko'rsatuvlarini o'qib eshittirishi yoki ularning ovozli yozuvlarini (fonogrammasini) to'liq yoki qisman o'qib eshittirishi mumkin.

Yuzlashtirishda ayblanuvchi va gumon qilinuvchi yolg'on ko'rsatuv bergani uchun javobgarlikka tortilmaydi. Guvoh va jabrlanuvchi yolg'on ko'rsatuv bergani uchun javobgarlikka tortiladi.

Agar yuzlashtirishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ko'rsatuv berishni rad etsalar, avvalgi so'roqlardagi ko'rsatuvlarni oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuzlashtirish natijalari har xil bo'lishi mumkin:

- 1) har bir ishtirokchi o'z ko'rsatuvlarini tasdiqlashi;
- 2) oldin yolg'on ko'rsatuvlar bergan shaxs ularni o'zgartirishi va to'liq yoki qisman to'g'ri ko'rsatuvlar berishi;
- 3) oldin to'g'ri ko'rsatuvlar bergan shaxs endi yolg'on ko'rsatuv berishi;
- 4) yuzlashtirish ishtirokchilaridan biri ko'rsatuv berishdan bosh tortishi;
- 5) ikkala ishtirokchi ham ko'rsatuv berishdan bosh tortishi.

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, yuzlashtirishning har qanday natijasi ham ko'rsatuvlardagi qarama-qarshiliklarning bartaraf etilishiga olib keladi, bu esa yangi dalillar to'plash bo'yicha protsessual faoliyatda samara beradi.

10.2. Yuzlashtirish tergov harakatining turlari

Ushbu tergov harakati ishtirokchilarning tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- ikki guvohni yuzlashtirish;
- ikki ayblanuvchini yuzlashtirish;
- ikki gumon qilinuvchini yuzlashtirish;
- ikki jabrlanuvchini yuzlashtirish;
- guvoh va jabrlanuvchini yuzlashtirish;
- jabrlanuvchi va ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ni yuzlashtirish;
- guvoh va ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ni yuzlashtirish;
- ayblanuvchi va gumon qilinuvchini yuzlashtirish.

Ikki guvohni yuzlashtirish. Bir holat yuzasidan ikki guvohni yuzlashtirish ularning ko'rsatuvlaridagi qarama-qarshiliklar, tafovutlarni aniqlash va ishning haqiqiy holatlarini ochishga xizmat qiladi.

Ikki ayblanuvchini yuzlashtirish. Ayblanuvchilarni yuzlashtirib so‘roq qilish ixtiyoriylik asosida o‘tkazilib, asosiy e‘tibor ayblanuvchilarning o‘zlariga qo‘yilayotgan ayblovga nisbatan bildirgan e‘tirozlariga va ularning bergan ko‘rsatuvlaridagi nomutanosib faktlarga qaratiladi.

Ikki gumon qilinuvchini yuzlashtirish. Ikki gumon qilinuvchini yuzlashtirishda avval ular qanday jinoyatda gumon qilinayotganligi bildiriladi. Yuzlashtirilayotgan shaxslarning bunga munosabati, shu holat yuzasidan bergan ko‘rsatuvlari taqqoslanadi, ularga o‘zaro savol-javob qilish imkoniyati yaratiladi. Yuqoridagi shaxslarning oldindan tanish yoxud notanishligi, o‘rtalarida munosabat mavjud yoki yo‘qligi aniqlanadi.

Ikki jabrlanuvchini yuzlashtirish. Ikki jabrlanuvchini yuzlashtirishda ularning ishning haqiqiy holatlaridan xabardorligi, ish bo‘yicha ayblanayotgan shaxsga munosabati solishtirilib, ahamiyatga ega ma‘lumotlar qayd etiladi.

Guvoh va jabrlanuvchini yuzlashtirish. Guvoh va jabrlanuvchini yuzlashtirishda ularning ishning muayyan holatlardan xabardorligi borasida va qarama-qarshiliklar mavjud holatlar to‘g‘risida ko‘rsatuvlar berish taklif etiladi. Ular yuzlashtirish tergov harakatini olib borayotgan shaxsning ruxsati bilan bir-birlariga savol berishlari mumkin.

Jabrlanuvchi va ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ni yuzlashtirish. Jabrlanuvchi va gumon qilinuvchini yuzlashtirib so‘roq qilishda ham jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining ilgari bergan ko‘rsatuvlari va taqdim etgan dalillarining o‘zaro mosligi aniqlanadi. Jabrlanuvchi va gumon qilinuvchini yuzlashtirishni tanib olish tergov harakatidan farqlash lozim. Tanib olishda tanib olinishi lozim bo‘lgan obyekt va uning belgilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar olinadi. Yuzlashtirishning bu turi shunisi bilan ahamiyatliki, bunda jinoyat protsessi ayblov va himoya taraflarining ishtirok etadigan ishtirokchilari qatnashib, ishga doir muhim masalalarga oydinlik kiritiladi.

Guvoh va ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ni yuzlashtirish. Bunday yuzlashtirishda aksariyat hollarda ayblanuvining shaxsiga, uni ayblash uchun xizmat qilgan asoslar va dalillarga oid ko‘rsatuv va ma‘lumotlar tekshiriladi. Yuzlashtirish tugagandan keyin ham ularni alohida so‘roq qilish maqsadga muvofiqdir.

Ayblanuvchi va gumon qilinuvchini yuzlashtirish. Ayblanuvchi va gumon qilinuvchini yuzlashtirish kamdan-kam qo‘llanilib, ushbu jarayon haqiqatni aniqlash va yuzlashtirilayotgan shaxslarning qay biri haqiqatda ayblanuvchi ekanligini aniqlashga xizmat qiladi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, bunda ayblanuvchining aybga asossiz iqror bo‘lishi mumkinligi singari holatlarning oldi olinadi hamda ularning aybi darajasini aniqlash imkoni bo‘ladi.

Ayblanuvchi va gumon qilinuvchiga ularning ko'rsatuv berish yoki bermaslik huquqlari, jumladan yuzlashtirish tergov harakatida ishtirok etish huquqi tushuntiriladi.

10.3. Yuzlashtirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Yuzlashtirishning butun jarayoni bayonnomaga kiritiladi. Bayonnomadagi yozuvlar ko'rsatuvlar berilgan tartibni aks ettirishi kerak (JPK 124-modda). Bayonnomada quyidagilar, ya'ni: yuzlashtirish qayerda, qachon, qanday muddat ichida, kim tomonidan olib borilganligi kim yuzlashtirishda so'roq qilinuvchi sifatida ishtirok etganligi, agar yuzlashtirish qatnashchilari guvohlar yoki jabrlanuvchilar bo'lsa, ularni yolg'on ko'rsatuv berishlari yoki ko'rsatuv berishdan bosh tortish masalalari bo'yicha ogohlantirilganligi qayd etiladi. Yuzlashtirish o'tkazishda ovoz yozish vositalaridan foydalanish yoki yuzlashtirish jarayonini videoyozuvga olish maqsadga muvofiqdir.

Yuzlashtirish protsessida himoyachi ham ishtirok etishi mumkin. Yuzlashtirish bayonnomasi yuzlashtirib so'roq qilishning har bir ishtirokchisi va tergovchi tomonidan imzolanadi. Yuzlashtirib so'roq qilingan shaxslar o'z ko'rsatuvlari ostiga hamda bayonnomaning oxiriga imzo qo'yadilar.

Voyaga yetmagan shaxs ishtirokida yuzlashtirish o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilayotganda tergovchi ushbu harakatning o'ziga xosligini e'tiborga olishi, shuningdek, uni voyaga yetmagan guvoh (jabrlanuvchi)ni so'roq qilishni belgilaydigan tartibga muvofiq o'tkazishini nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Bu tartib so'roqda pedagoglarning, voyaga yetmaganning yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillarining ishtirokini, shuningdek, voyaga yetmagan ayblanuvchi himoyachisining tergov harakatlarida ishtirokini yuzlashtirishga nisbatan ham tatbiq etilishini nazarda tutadi.

Nazorat uchun savollar:

Yuzlashtirish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Yuzlashtirishning so'roq tergov harakatidan farqi qanday?

Yuzlashtirishda so'roq qilishning umumiy qoidalariga rioya etiladimi?

Voyaga yetmagan shaxslarni yuzlashtirish qanday xususiyatlarga ega?

Qaysi protsess ishtirokchilari orasida yuzlashtirish o'tkazish mumkin emas?

Yuzlashtirishni o'tkazishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Yuzlashtirish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

YUZLASHTIRISH BAYONNOMASI

20___ yil «___» _____ shahri

(yuzlashtirish o'tkazayotgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, sharifi)

O'zbekiston Respublikasi JPKning 96-108, 122-124-moddalariga rioya qilib,

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ bilan
Guvoh (jabrlanuvchi)

Guvoh (jabrlanuvchi) _____
Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)
yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazdim.

Guvoh (jabrlanuvchi) _____ yolg'on guvohlik
berganligi hamda ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi uchun O'zbekiston
Respublikasi JKning 238, 240-moddalariga asosan javobgarlikka tortilishi haqida
ogohlantirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

(imzo)

(F.I.SH.)

Yuzlashtirish soat «_____» da boshlanib, soat «_____» da tugallandi.

Umumiy savol: Qarshingizda o'tirgan shaxsni taniysizmi, unga nisbatan shaxsiy
adovatingiz bormi?

Umumiy savol: Bir-birlaringga savollaringiz hamda yuzlashtirish bayonnomasiga qo'shimchalaringiz bormi? _____

(yuzlashtirish bayonnomasi o'qib chiqilganligi yoki o'qib eshittirilganligi, to'g'ri yozilgan yoki yozilmaganligi hamda

qo'shimcha va e'tirozlar bor yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotlar)

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

(yuzlashtirish bayonnomasi o'qib chiqilganligi yoki o'qib eshittirilganligi, to'g'ri yozilgan yoki yozilmaganligi hamda

qo'shimcha va e'tirozlar bor yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotlar)

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

Yuzlashtirish o'tkazdi:

_____ (lavozimi, unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

11-BOB. KO‘ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

11.1. «Ko‘zdan kechirish» tergov harakati tushunchasi, turlari va uni o‘tkazish tartibi

Jinoyat belgilari mavjud bo‘lganda, jinoyat va jinoyatchi haqidagi xabarlarni, ma’lumotlarni olish uchun doimo dastlabki tergov izlarni, ashyolarni, hodisa joyini o‘rganish va qayd etishdan boshlanadi. Ko‘zdan kechirish aksariyat jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki va kechiktirib bo‘lmaydigan muhim protsessual harakatdir. Shu sababli hodisa joyini ko‘zdan kechirish tergov harakati jinoyat ishi ko‘zg‘atilishidan oldin o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Ko‘zdan kechirishning to‘liq va har tomonlama o‘tkazilishi hodisa joyi xolatini to‘liq tekshirish, birorta ham ashyoviy dalillarning nazardan chetda qolmasligi va bayonnomada qayd etilishini taqozo qiladi.

O‘z navbatida hodisa joyini ko‘zdan kechirishning to‘la va har tomonlama o‘tkazilishi quyidagilar bilan ta’minlanadi:

- ko‘zdan kechirishning to‘g‘ri tashkil etilishi, ko‘zdan kechirish ishtirokchilari o‘rtasida ish faoliyatining to‘g‘ri taqsimlanishi hamda barcha harakatlarning tuzilgan rejaga asosan o‘tkazilishi;
- ko‘zdan kechirish harakatiga faqat tergovchi boshchilik qilishi;
- kriminalistik vositalar va uslublarning to‘g‘ri qo‘llanilishi;
- tergovchi va boshqa jalb qilingan mutaxassis ishtirokchilarda kasbiy tajriba va bilimlarning yetarliligi.

Ko‘pchilik jinoyat ishlari bo‘yicha hodisa joyini ko‘zdan kechirish dastlabki tergov yo‘nalishini belgilab beruvchi birinchi navbatdagi kechiktirib bo‘lmas tergov harakati hisoblanadi.

Hodisa joyi xolatini ko‘zdan kechirish uchun tergovchiga murakkab vaziyatlarda maslahatlar beruvchi mutaxassis shaxslar jalb etiladi. Nihoyat, ko‘zdan kechirish jarayoni tergovchidan juda katta aqliy mehnat, vaziyatni tahlil qila olish va to‘g‘ri xulosa chiqara olishni talab etadi.

Ma’lum bir, bevosita hodisa sodir etilgan va ko‘zdan kechirilish lozim bo‘lgan joy-hodisa sodir bo‘lgan joy deb topiladi. Odatda, bunday hodisa deganda, ma’lum bir jinoyat (qotillik, bosqinchilik, nomusga tegish va hokazo) tushuniladi, Lekin ”hodisa” tushunchasini ”jinoyat” tushunchasidan kengroq deb qarash lozim, chunki hodisa o‘z ichiga o‘z-o‘zini o‘ldirish va baxtsiz hodisani ham qamrab oladi.

Ma'lumki, tergov amaliyotida odam murdasi topilganligi fakti hodisa sifatida qaraladi. Shuning uchun ham murda topilgan joy (o'sha odam qayerda o'lganligidan qat'i nazar) har doim hodisa sodir etilgan joy deb xisoblanadi.

Ko'zdan kechirish – jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovchining hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko'zdan kechirishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir (JPK 135-modda).

Ko'zdan kechirishning maqsadi ish bo'yicha ahamiyatli haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash va mustahkamlashdir. Ko'zdan kechirishda haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash ko'zdan kechirilayotgan obyektlarda aks etgan sodir etilgan jinoyat holatlarini ko'zdan kechirish ishtirokchilarining (tergovchi va xolislarning) bevosita idrok qilishi orqali amalga oshiriladi.

Odam badanini ko'zdan kechirish guvohlantirish yoki ekspertiza o'tkazish qoidalariga asoslangan holda (JPK 142-147 va 172-187-moddalar) amalga oshiriladi. Pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish JPKning 167-moddasida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

Narsalarni olib qo'yish va tintuv o'tkazish chog'ida topilgan narsa va hujjatlar shu tergov harakatlarini o'tkazish uchun belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda ko'zdan kechirilishi lozim (JPK 135-modda).

Ko'zdan kechirishda qatnashishga ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvoh jalb qilinishi mumkin. Ko'rsatilgan shaxslarning ko'zdan kechirishda qatnashishi ko'p hollarda ish uchun ahamiyati bo'lgan yangi holatlarni aniqlashda yordam beradi (masalan, xonadondagi o'g'rilik yuzasidan ko'zdan kechirishda jabrlanuvchi hodisa sodir bo'lgan joydan topgan muayyan narsa xonadonda yashovchilarning hech biriga tegishli emasligini ko'rsatadi). Ko'rsatilgan shaxslarning ko'zdan kechirishda qatnashishi ular oldin bergan ko'rsatuvlarini ko'zdan kechirish borasida aniqlangan ma'lumotlar bilan solishtirib tekshirish va aniqlash imkonini beradi.

Jinoyat-protsessual qonunga muvofiq, ko'zdan kechirishning quyidagi turlari farqlanadi: hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrof va binolarni, narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirish (JPK 135, 137, 138, 139,140-moddalar).

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish eng muhim va mas'uliyatli harakat hisoblanadi, shuningdek, u yuqorida ko'rsatilgan ko'zdan kechirishning deyarli hamma turlarini o'z ichiga oladi. Pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish bundan mustasnodir.

Ko'zdan kechirishda tergovchi quyidagi umumiy taktik qoidalarga rioya qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. *Ko'zdan kechirish kechiktirilmay, o'z vaqtida amalga oshirilishi.*

Tergovchi jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar olganidan so'ng darhol hodisa joyiga yetib borishi lozim. Hodisa joyini ko'zdan kechirishdan olingan ma'lumotlarga qarab tergovchi tezkor ravishda hodisa to'g'risida, jinoyat sodir etgan shaxslar to'g'risida versiyalarini ilgari suradi, jinoyat sodir etgan shaxs(lar)ni qidirib, ushlab bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tezkor tadbirlarni tashkil qiladi, guvohlantirish va tergov olib borish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtiradi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishni kechiktirish obyektiv (manfaatdor shaxs(lar) tomonidan) va obyektiv (ob-havo, muhit ta'siri) omillar ta'sirida joyning holati o'zgarishga, izlarni va boshqa ashyoviy dalillarning tiklanmaydigan darajada yo'q bo'lib ketishga olib kelishi mumkin. Bu esa muayyan darajada tergovni qiyinlashtiradi. Ko'zdan kechirishni tashkil qilish va amalga oshirishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatoliklarni (boshqa tezkor-qidiruv harakatlari kabi), odatda, keyingi qilinadigan ishlarda to'ldirish yoki tuzatish juda qiyin bo'ladi. Ammo hodisa sodir bo'lgan vaqtdan ko'zdan kechirishgacha ko'p vaqt o'tib, hodisa joyining asl holati o'zgargan bo'lsa ham, tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirishi xato hisoblanadi. Chunki hatto bunday kechiktirib o'tkazilgan ko'zdan kechirishdan ham tergov uchun ahamiyatli ashyoviy dalillar topilishi mumkin.

2. *Ko'zdan kechirishning obyektivligi.* Tergovchi ko'zdan kechirishda jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan holatlarini har taraflama o'rganib, jinoyat ishi bo'yicha to'plangan materiallarga bir xilda baho berishi lozim. Tergovchi ayrim faktlarni dalil sifatida alohida qabul qilib, ish bilan bog'liq bo'lgan ashyoviy dalillarni ikkinchi darajali deb hisoblashi mumkin emas.

Ko'zdan kechirishning obyektivligi bu tergov harakatining boshlanishida, obyekt(lar)ni qanday holatda aniqlangan bo'lsa, shundayligicha qayd etish va dastlabki tadqiq etishdan iboratdir (JPKning 141-moddasi). Obyektivlik – voqelikka mos kelish demakdir. Voqelikka to'g'ri munosabat ishga tanqidiy ko'z bilan qarab baho berishni talab qiladi va bir qolipdagi qarorlarni istisno etib, ishga shoshma-shosharlik va sovuqqonlik bilan yondashishning oldini oladi.

3. *Ko'zdan kechirishning to'la va har tomonlama o'tkazilishi.* Har qanday noaniq, to'liq bo'lmagan faktik ma'lumotlardan ish bo'yicha

dalil sifatida foydalanilmaydi. Faqat hodisa joyini ko‘zdan kechirish natijasida topilgan va aniqlangan faktlarga ish bo‘yicha dalil sifatida foydalaniladi.

11.2. Ko‘zdan kechirish tergov harakatining turlari

Hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘zdan kechirish. Hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘zdan kechirishdan asosiy maqsad hodisaning kelib chiqish holatini bevosita ko‘rish bilan mavjud iz, ashyoviy dalillarni topishdan iborat.

Hodisa sodir etilgan joyini ko‘zdan kechirish, hodisaning mexanizmini o‘rganishga, jinoyatchilik faoliyatining izlarini aniqlash, saqlash va keyinchalik o‘rganish uchun qayd etishga hamda sodir etilgan hodisa holatlarini aniqlash maqsadida turli obyektlar, predmetlar, hujjatlar va boshqa ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarning qayd etilishiga qaratilgan tergov harakati hisoblanadi. «Hodisa joyini ko‘zdan kechirish» tushunchasi o‘z ichiga jinoyatning izlari, ashyoviy dalillarni topish va to‘g‘riligini isbotlash, jinoyat motivi va mexanizmini aniqlash, ko‘zdan kechirish ma’lumotlarini “issiq izlar” bo‘yicha qidiruv o‘tkazish uchun foydalanishga qaratilgan kompleks tergov va qidiruv tadbirlarini qamrab oladi.

Hodisa sodir etilgan joyini ko‘zdan kechirish – ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan va kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakati. U o‘z ichiga sodir etilgan hodisaning xarakteri, jinoyatchilar shaxsi, jinoyat motivlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan hodisa joyining holatini o‘rganishi, har xil izlar va boshqa ashyoviy dalillarni topish, qayd etish va qo‘lga kiritish kabi harakatlarni qamrab oladi.

Tadqiq etilayotgan hodisada jinoyat tarkibi bor yoki yo‘qligini mumkin qadar aniqlashga imkon beradigan haqiqiy ma’lumotlarni topish va mustahkamlash, shuningdek tadqiq etilayotgan hodisa holatlari va uning ishtirokchilari haqida taxminlar qilish va ularni tekshirish uchun hodisaning holatini to‘laligicha hamda uning ayrim obyektlarini bevosita tadqiq etishdan iboratdir. Hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma’lumotlar bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi (JPK 137-m.).

Ko‘zdan kechirish natijalarining isbotlovchi ahamiyati ko‘p jihatdan uning o‘z vaqtida o‘tkazilganligi darajasiga bog‘liqdir.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirishning asosiy prinsiplaridan uning o‘z vaqtida va atroflicha, batafsil o‘tkazilishini alohida ajratib ko‘rsatish

lozimki, ular mumkin qadar maksimal axborot to'plashni ta'min etadi. O'z vaqtida, to'la va to'g'ri ko'zdan kechirish yordamida quyidagilarni aniqlash mumkin:

- sodir etilgan hodisaning mazmuni;
- sodir etilish joyi va vaqti;
- hodisada qatnashgan shaxslar soni;
- jinoyatning motivi va maqsadi;
- jinoyatning sodir etish turi;
- jinoyat sodir etilishiga ta'sir etgan shart-sharoitlar;
- hodisa joyida jinoyatchilarning xatti-harakatlari, kelish va ketish

yo'llari;

- jinoiy harakat nimaga qaratilganligi;
- o'lgan shaxsning jismoniy va ruhiy holati;
- jabrlanuvchining o'limidan oldingi harakatlari.

Yuqorida ko'rsatilgan masalalar faqat tergovchi tomonidan ko'zdan kechirish yakunida ko'zdan kechirish oldiga qo'yilgan tub savollarga javob olingandan keyingina yechilishi mumkin. Ushbu savollar sonini kriminalistlar turlicha belgilaydilar.

Sodir etilgan jinoyat haqida xabar olgach, basharti, uning ochilishi hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni talab qilsa, tergovchi (surishtiruvchi) zudlik bilan hodisa sodir bo'lgan joyga borishi va uni ko'zdan kechirishni amalga oshirishi kerak. Bu hol tergov harakatining aynan kechiktirib bo'lmasligi sababli, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni keyinga qoldirish mumkin bo'lmagan hollarda jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Bunday vaziyatlarda ko'zdan kechirishdan keyin ko'pi bilan o'n sutka ichida, alohida hollarda esa, prokurorning ruxsati bilan bir oy davomida jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uning qo'zg'atilishini rad etish haqida qaror chiqarilishi kerak.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish ishdan manfaatdor bo'lmagan fuqarolarni jalb qilgan holda, albatta xolislarning ishtirokida amalga oshiriladi. Agar ko'zdan kechirish hududida davlat sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlar aniqlanishi mumkin bo'lsa, bunday xolislar sifatida o'z mashg'ulot turi yoki xizmat faoliyati bo'yicha bunday ma'lumotlardan foydalanishga ruxsati bo'lgan shaxslar taklif qilinadi.

Ko'zdan kechirish boshlanishidan oldin tergovchi xolislariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi kerak. Ko'zdan kechirish o'tkazilganda tergovchi xolislarning e'tiborini ishni tergov qilishda ahamiyatli bo'lgan barcha holatlarga qaratadi. O'z navbatida, xolislar ham tergovchining e'tiborini o'zlarining fikriga ko'ra ish uchun ahamiyatli

bo'lishi mumkin bo'lgan u yoki bu faktlarga qaratishga haqlidir. Zarurat tug'ilganda kelgusi tergov qilish yoki sud muhokamasi borasida xolislar ko'zdan kechirish natijasida ularga ma'lum bo'lgan holatlar yuzasidan guvohlar sifatida so'roq qilinishlari mumkin.

Agar jinoyat ishi ko'rilayotgan vaqtda ko'zdan kechirishga zarurat tug'ilsa, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ko'zdan kechirishni taraflar ishtirokida o'tkazadi (JPK 136-m.).

Zarur hollarda tergovchi ko'zdan kechirish chog'ida o'lchov o'tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, video-yozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi. Bu ishlarni bajarishda yordam berish uchun ko'zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish chog'ida mutaxassis ko'zdan kechirishda paydo bo'ladigan u yoki bu masalalarda tergovchiga maslahat beradi, shuningdek izlarni topish va qayd etishda, ulardan qoliplar va nusxalar olishda, hodisa sodir bo'lgan joyni fotosuratga tushirishda, reja va chizmalar tuzishda texnik yordam ko'rsatadi. Ko'zdan kechirishning quyidagi turlarini amalga oshirishda malakali mutaxassislarni taklif etishga alohida e'tibor berish lozim: maxfiy joylarni aniqlash maqsadida narsalarni ko'zdan kechirish, maxfiy yozuvlarni aniqlash maqsadida hujjatlarni ko'zdan kechirish va hokazo. Ayrim hollarda ko'zdan kechirishda qatnashayotgan mutaxassislar jinoiy maqsadlarni amalga oshirishga mo'ljallangan maxfiy moslamalarni aniqlashga yordam beradilar.

Katta hudud va binolarni ko'zdan kechirish bir nechta surishtiruvchi yoki tergovchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ular har birining harakati kamida ikki nafar xolis ishtirokida o'tkazilishi kerak.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan narsalar, hujjatlar va izlar o'raladi va muhrlanadi. Katta hajmdagi narsalar olinmaydi va muhrlanmaydi, lekin surishtiruvchi yoki tergovchi ularni saqlash choralarni ko'rishi lozim (JPKning 137-m.).

Ko'p hollarda hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari asosida jinoyatning yasamaligi yoki jinoyat tarkibining mavjud emasligi yoxud jinoyat izlari bo'yicha muvafaqiyatli qidiruv ishlari olib borish borasida xulosalar chiqariladi. Biz hodisa joyini ko'zdan kechirishda foydalanadigan bilish yoki tekshirish o'tkazishning uslublari, ushbu tergov harakatining tashkiliy, nazariy va amaliy muammolariga to'xtalmaymiz. Biz bu yerda ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha tasmollarni shakllantirish va bo'lib o'tgan voqea holatini tiklash, ko'zdan kechirish bilan bir vaqtda amalga oshirish lozim bo'lgan boshqa tergov va tezkor-

qidiruv chora-tadbirlari, ularning o'tkazish natijasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, shuningdek hodisa joyini ko'zdan kechirishning huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolar to'g'risida to'xtalib o'tish lozim.

Murdani ko'zdan kechirish. Tergovchi murdaning tashqi ko'rinishini u topilgan joyda xolislari va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok etishiga imkoniyat bo'lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi.

Murdani ko'zdan kechirish bilan bir paytda uning yonidan topilgan shaxsiy buyumlar, narsalar, kiyim va poyabzal ko'zdan kechiriladi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirishda nafaqat shifokor, balki boshqa mutaxassislar – suratkash, kriminalist, kimyogar va shu kabilar ishtirok etishi mumkin.

Eksgumatsiya vaqtida murdani ko'zdan kechirish eksgumatsiya qoidalariga rioya qilgan holda o'tkaziladi. Murda topilgan joyda uni tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida tanib olish qoidalariga rioya qilinadi. Tanib olinmagan murdalarning barmoq izlari olinishi shart. Ekspertiza tekshiruvlari uchun namunalari olish qoidalariga rioya qilgan holda murdadan boshqa xil namunalari ham olinishi mumkin (JPK 188-191, 193, 197-m.).

Tanib olinmagan murda faqat prokuror ruxsati bilangina ko'miladi (JPK 138-m.).

Tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish. Tergovchi va sud tevarak-atrof va binolarni quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda ko'zdan kechiradilar.

Fuqaroning uyi yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish zarurati bo'lsa, surishtiruvchi yoki tergovchi bu haqda qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Turar joyi ko'zdan kechirilayotgan shaxs yoki tegishli korxonasi, muassasa, tashkilotning vakili chiqarilgan qaror yoki ajrim bilan tanishtirilib, bu haqda imzo chektiriladi.

Ko'zdan kechirish korxonada, muassasada, tashkilotda o'tkazilsa – ma'muriyat vakilining, harbiy qismda, shtabda va muassasada o'tkazilsa – qo'mondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shart. Binolarni ko'zdan kechirishda olib qo'yish va tintuv qoidalariga rioya qilinadi (JPK 139-m.).

Narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirish. Tergovchi narsa va hujjatlarni ular topilgan joyda, basharti ko'zdan kechirish ko'p vaqt yoki qo'shimcha texnik vositalar talab qilsa, keyinchalik surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi o'tkazilayotgan joyda ko'zdan kechiradilar.

Ko'zdan kechirish texnik vositalaridan foydalanilgan holda, basharti narsa yoki hujjatlarning yo'qolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasa, o'tkazilishi mumkin (JPK 140-m.).

Ba'zan tergov harakati o'tkazilayotgan joyda olib qo'yilayotgan hamma narsalarni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirishning imkoni bo'lmaydi. Bunday hollarda tergovchi tergov harakati bayonnomasida bu narsalar va hujjatlarning olib qo'yilganligini belgilaydi, xolislar ishtirokida olib qo'yilgan materiallarni o'raydi va muhrlaydi hamda ularni tergov yuritilayotgan joyga olib boradi. Bu yerda xolislar ishtirokida olib qo'yilgan narsalar va hujjatlarning muhri buziladi va ular ko'zdan kechiriladi, bu haqda alohida bayonnoma tuziladi.

11.3. Ko'zdan kechirish natijalarini rasmiylashtirish

Ko'zdan kechirish o'tkazilganligi haqida JPKning 141-moddasida ko'rsatilgan talablarga binoan bayonnoma tuziladi. Ko'zdan kechirish bayonnomasi bu tergov harakatining o'tkazilganligini va uning olib borilishida barcha aniqlanganlarni qayd qiluvchi asosiy, majburiy vosita hisoblanadi. Bayonnomaning yo'qligi ko'zdan kechirish natijasini isbotlovchi kuchdan mahrum qiladi, chunki bayonnoma dalillarni mustahkamlovchi protsessual vosita, dalillar manbai hisoblanadi. Bayonnomada tergovchining barcha harakatlari bayon qilinadi, shuningdek ko'zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda ko'zdan kechirilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda, ko'zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo'lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi.

Shunday qilib, ko'zdan kechirish bayonnomasida tergov harakatini o'tkazish paytida topilgan narsalarning barchasi juda to'liq qayd etilishi kerak. Bayonnoma to'liq bo'lishi uchun ishda ahamiyati bo'lgan barcha holatni qayd etish kerak, biroq bu borada obyektlarni o'ta maydalashtirib, chegaradan chiqib ketmaslik lozim.

Bayonnomada ko'zdan kechirish chog'ida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab o'tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma'lumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi. Bundan tashqari, bayonnomada: ko'zdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorug'likda o'tkazilganligi; qanday ilmiy-texnika vositalari qo'llanilganligi va qanday natijalar olinganligi; ko'zdan kechirishda ko'maklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va ko'maklashish nimada o'z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qanday tartibda va qanday muhr bilan muhrlanganligi; ko'zdan kechirilganidan keyin murda va ish

uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarning qayerga yuborilganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Agar ko'zdan kechirishda mutaxassis ishtirok etgan bo'lsa, bayonnomada uning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi va lavozimi ko'rsatiladi. Bayonnomada mutaxassis qaysi harakatlarni bajargani, qaysi ilmiy-texnika vositalaridan foydalangani va qanday natijalarga erishgani ko'rsatilishi kerak.

Bayonnomaga fotosurat rasmlari, rejalar, chizmalar, izlarning qoliplari va nusxalari ilova qilinib, bu haqda unda qayd etiladi.

Bayonnoma tuzilganidan keyin u ko'zdan kechirishni o'tkazishda ishtirok etgan shaxslarga o'qib eshittiriladi, ular esa o'tkazilgan harakatlar bo'yicha o'z mulohazalarini unga kiritishni talab qilishga haqlidirlar. Bu huquq ularga tushuntirilganligi to'g'risida bayonnomada qayd etiladi. Barcha mulohazalar albatta bayonnomaga kiritilishi lozim. Bayonnoma tergovchi (surishtiruvchi) hamda ko'zdan kechirishni o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi.

Nazorat uchun savollar:

Ko'zdan kechirish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Ko'zdan kechirishning qanday turlari mavjud?

Ko'zdan kechirishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish qanday xususiyatlarga ega?

Qaysi hollarda ko'zdan kechirish jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkaziladi?

Ko'zdan kechirish o'tkazishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Ko'zdan kechirish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish BAYONNOMASI¹

20__ yil «__»_____ tumani

Ko'zdan kechirish boshlandi: soat ____ da;

Ko'zdan kechirish tugallandi: soat ____ da.

(ko'zdan kechirishni o'tkazayotgan xodimning lavozimi, familiyasi, ismi va sharifi, unvoni)

_____ asosida

(hodisa tafsiloti va xabar kim tomonidan berilganligi)

(hodisa sodir bo'lgan joyning aniq manzili)

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda qatnashdilar: _____

(qatnashgan shaxslarning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

Ko'zdan kechirish xolislari:

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

ishtirokida O'zbekiston Respublikasi JPKning 135–141-moddalariga binoan o'tkazildi.

Xolislarga ularning O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ 2. _____
(imzo) (F.I.SH.) (imzo) (F.I.SH.)

¹ Eslatma: Bayonnomaning oxirida hodisa sodir bo'lgan joydan qanday izlar va ashyoviy dalillar olinganligi hamda ko'zdan kechirilgan joy fotosuratga olinganligi, uning chizmasi chizilganligi yoki yo'qligi ko'rsatiladi. Bu harakatlar amalga oshirilgan bo'lsa, bayonnomaga ilova qilinadi.

Ekspert-kriminalistga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko‘rsatilgan mutaxassisning huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda quyidagilar aniqlandi:

(ko‘zdan kechirish matni)

Ko‘zdan kechirishni o‘tkazdi:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ko‘zdan kechirishda qatnashdilar:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Xolislar:

(imzo)

(F.I.SH.)

(imzo)

(F.I.SH.)

12-BOB. GUVOHLANTIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISH VA PROTSESSUAL RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

12.1. «Guvohlantirish» tergov harakati tushunchasi va o‘tkazish asoslari

Guvohlantirish kechiktirib bo‘lmas tergov harakati bo‘lib, jinoyat izlarini aniqlashga, odam tanasini ko‘zdan kechirishga va unda bo‘lgan alohida belgilarni hamda jinoyat ishi bo‘yicha daliliy ahamiyatga ega boshqa belgilarni topishga va ularni qayd etishga qaratilgan. Guvohlantirish uchun maxsus bilimlar talab qilinmasligi shundan iboratki, bu tergov harakatini tergovchi, surishtiruvchi va sudning o‘zi o‘tkazadi va xolilar ishtirokida odam tanasini ko‘zdan kechirib, jinoyat ishi bo‘yicha daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan alomatlar va izlarni aniqlaydi va ularni bayonnomada qayd etadi. Lekin tergov harakatini yanada sifatli o‘tkazish maqsadida tegishli mutaxassis sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokorni jalb qilish kerak, chunki ular odam badanidagi jinoyat izlarini va alohida belgilarni tibbiyot nuqtai nazaridan aniq va to‘g‘ri ta’riflab berib, bayonnomada to‘g‘ri qayd etilishiga tegishli sharoitlar yaratib berishlari mumkin hamda bir izning badanga aniq joylashishi, ushbu joyni tibbiyot nuqtai nazaridan to‘g‘ri atalishi, izning o‘ziga xos belgilarini, jarohatning ta’rifini to‘g‘ri va aniq tavsif qilishga yordam beradi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga binoan, guvohlantirish uchun asoslar quyidagilar:

1) odamning badanidagi ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlarni, alohida belgilarni, uning jismoniy rivojlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, dog‘larni, tiralgan, shilingan, qontalash joylarni topish zarurati tug‘ilgan hollarda, agar buning uchun ekspertiza o‘tkazish lozim bo‘lmasa;

2) ekspertiza o‘tkazishni talab qilmaydigan usullarni qo‘llash yo‘li bilan shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash zarurati tug‘ilgan hollarda o‘tkaziladi (JPK 142-m.).

Guvohlantirish tergov harakatida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchi guvohlantirilishi, ya’ni badanlari ko‘zdan kechirilishi mumkin. Guvoh esa faqat uning ko‘rsatuvlari to‘g‘riligini tekshirish uchungina guvohlantirilishi mumkin.

Guvohlantirish tergov harakatining xususiyati mazkur harakat jarayonida odamning badani ko‘zdan kechirish obyekti bo‘lib, aynan shu odamning badanini har tomonlama ko‘zdan kechirish kerak.

Maqsadga yo‘naltirilganligi va amalga oshirish usuliga ko‘ra, guvohlantirish ko‘zdan kechirishga yaqin turadi, lekin ayni vaqtda ular orasida jiddiy farq mavjud bo‘lib, u guvohlantirishning tergov harakati sifatida mustaqil xususiyatga ega ekanligini ta‘minlaydi. Bu harakatlar o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, guvohlantirishning obyektlari faqat tirik shaxslar bo‘lsa, ko‘zdan kechirishning obyektlari esa faqat ashyolardir. JPK 135-moddasining 2-qismida belgilanganki, odam badanini ko‘zdan kechirish guvohlantirish yoki ekspertiza o‘tkazish qoidalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

12.2.Guvohlantirishni o‘tkazish tartibi

Guvohlantirish tergov harakatini o‘tkazish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksining 146-moddasida belgilangan.

Guvohlantirishni o‘tkazish haqidagi qaror guvohlantiriluvchiga e‘lon qilinadi. Guvohlantirishning barcha ishtirokchilariga ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilishi lozim.

Guvohlantirish tergov harakatini o‘tkazish uchun tayyorgarlik ko‘rishda tergovchi, surishtiruvchi tergov harakatini o‘tkazish uchun kerakli bo‘lgan tashkiliy choralar ko‘radi (guvohlantiriladigan shaxslarga chaqiruv qog‘ozlari yuboradi, ish materiallar bilan tanishadi, mutaxassis bilan maslahat suhbatini o‘tkazadi, tergov harakatining aniq kuni va soatini belgilab, qo‘llaniladigan barcha texnik va texnik-kriminalistik vositalarni tayyor qiladi, kerak bo‘lsa, yordamchi xodimlarni chaqiradi, tergov harakatining rejasini tuzadi). So‘ng tergov harakatiga kelgan ishtirokchilarning shaxsini tekshiradi va shundan so‘ng ularga protsessual huquq va majburiyatlarni tushuntiradi hamda ularni bu ma‘lumotlar bo‘yicha tegishli harakatlar qilish qobiliyatiga ishonch hosil qilgandan so‘ng bevosita uchinchi bosqichga o‘tadi. Ularning huquq va majburiyatlari bilan tanishganliklari to‘g‘risida tergov bayonnomasida qayd etadi, ishtirokchilar o‘z tasdiqlovchi imzolarini bayonnomada qayd etishlari kerak.

Guvohlantirish tergov harakatini o‘tkazishning ikki xil tartibi mavjud:

1) Shaxsni yechintirib yalang‘ochlash, shuningdek, uning badanidagi tirnalgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan guvohlantirish.

Shaxsni yechintirib yalang‘ochlash, shuningdek uning badanidagi tirnalgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan

guvohlantirish surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan xolislar ishtirokida, zarur hollarda esa, shifokor yoki boshqa mutaxassis ishtirokida o'tkaziladi.

2) Shaxsni yechintirib yalang'ochlash yoki uning badanidagi tiralgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, ekspertiza o'tkazishni talab qilmaydigan usullarni qo'llash yo'li bilan shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash zarurati tug'ilgan hollarda o'tkaziladigan guvohlantirish.

Shaxsni yechintirib yalang'ochlash yoki uning badanidagi tiralgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, ekspertiza o'tkazishni talab qilmaydigan usullarni qo'llash yo'li bilan shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash zarurati tug'ilgan hollarda o'tkaziladigan guvohlantirish tergovchining topshirig'iga binoan, shifokor yoxud boshqa mutaxassis tibbiy xodim tomonidan o'tkaziladi.

Biroq, bu holda ham guvohlantirishni tergov harakati sifatida aynan tergovchi amalga oshiradi. Garchi uning o'zi guvohlantiriluvchini ko'zdan kechirmasa-da, boshqa hamma harakatlarni amalga oshiradi (shifokorni taklif qiladi va unga zarur topshiriqlar beradi, barcha ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, bayonnomani tuzadi hamda imzolaydi va hokazo). Guvohlantirish paytida guvohlantiriluvchi shaxsning qadr-qimmatini kamsituvchi yoki uning sog'lig'i uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Guvohlantirish natijasida shaxsning tergov qilinayotgan jinoyatga aloqadorligini belgilashga yordam berishi mumkin bo'lgan izlar, qon dog'lari va kimyoviy ashyolar, tiralgan joylar, boshqa tan jarohatlari, yara dog'lari, tatuировka, tana tuzilishidagi nuqsonlar, tug'ma dog'lar va shunga o'xshash o'ziga xos belgilar (xususiyatlar) aniqlanishi mumkin.

12.3. Guvohlantirish tergov harakati natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Guvohlantirish tergov harakati qaror chiqarish va uning o'tkazilish tartibi to'g'risida bayonnoma tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining badanida jinoyat izlari, ish uchun ahamiyatga molik boshqa belgilar yoki uning g'ayritabiiy fiziologik holati to'g'risida yetarli ma'lumotlar bo'lsa, guvohlantirishni o'tkazish haqida tergovchi qaror chiqaradi.

Qarorda yoki ajrimda:

- guvohlantirishni kim va qanday maqsadda o'tkazishi;
- kimni guvohlantirish kerakligi;

– guvohlantirilishi uchun shaxs kimning huzuriga va qachon yetib kelishi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Tergovchining guvohlantirish o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori qaysi shaxs xususida chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga nisbatan majburiydir.

Guvohlantirishdan bosh tortayotgan shaxslar majburiy keltirilishi va guvohlantirilishi mumkin.

Guvohlantirish o‘tkazilganligi haqida Jinoyat-protsessual kodeksining 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnoma tuzadi, sud esa guvohlantirish jarayoni va natijalarini sud majlisi bayonnomasida qayd etadi. Bayonnomada guvohlantirish o‘tkazgan shaxsning hamma harakatlari va guvohlantirish davomida aniqlangan barcha izlar, xususiyatlar va belgilar qayd etilgan bo‘lishi lozim.

Guvohlantirish shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan o‘tkazilgan bo‘lsa, u bayonnoma tuzadi va imzolaydi, guvohlantirilgan shaxs va xolislar ham imzolaganidan so‘ng bayonnomani tergovchiga taqdim etadi.

Nazorat uchun savollar:

Guvohlantirish tergov harakati qanday holatlarda o‘tkaziladi?

Guvohlantirishning qanday turlari mavjud?

Guvohlantirish o‘tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Guvohlantirish qanday xususiyatlarga ega?

Guvohlantirish tergov harakati jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan oldin o‘tkazilishi mumkinmi?

Guvohlantirish o‘tkazishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Guvohlantirish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

**Guvohlantirish o‘tkazish to‘g‘risida
QAROR**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchi shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qanday hodisa, holat yoki xabar)

bo‘yicha to‘plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADIM:

(mavjud holatning qisqacha mazmuni, guvohlantirish uchun asoslar, qanday holat aniqlanishi zarurligi)

(ushbu belgilarni topish uchun ekspertiza o‘tkazish shart emasligi haqidagi ma’lumotlar)

Yuqorida qayd etilgan _____ jinoyat ishi uchun ahamiyatga molikligini va uni topishda mutaxassis ishtiroki zarurligini inobatga olib va O‘zbekiston Respublikasi JPKning 142–145-moddalarini qo‘llab,

QAROR QILDIM:

1. Ushbu _____-sonli jinoyat ishi bo‘yicha _____
(jinoyat ishini tartib raqami, protsess ishtirokchisining maqomi)
nisbatan guvohlantirish o‘tkazilsin.

2. Guvohlantirishda mutaxassis sifatida ishtirok etish uchun _____
_____ chaqirilsin.

(shifokorning ish joyi va lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

3. Qaror manfaatdor tomonlarga e’lon qilinsin.

4. Qarorning bir nusxasi ma’lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil __ _____ kuni e’lon qilindi, qarorning men uchun majburiyligi tushuntirildi. Shuningdek, menga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 80-moddasiga asosan, mutaxassisni rad qilishga haqli ekanligim

tushuntirildi. Ish bo'yicha chaqirtiriladigan mutaxassis _____ni
rad etishga asoslari_____.
(bor bo'lsa ko'rsatiladi yoki yo'qligi bildiriladi)

(ishtirokchisining maqomi)

(F.I.Sh.)

(imzo)

_____ **guvohlantirish**

B A Y O N N O M A S I

20__ yil _____ shahri

_____ (bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha
_____ ga nisbatan guvohlantirish o'tkazish
20__ yil _____ kunidagi guvohlantirish to'g'risidagi qarorga asosan,
_____ da, _____ yorug'likda, mutaxassis _____

_____ lavozimida ishlovchi _____

_____ yashovchi,

_____ (shifokorning ish joyi va lavozimi)

_____ . himoyachi

_____ va xolislar:

_____ (familiyasi, ismi, otasining ismi)

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

ishtirokida O'zbekiston Respublikasi JPKning 146-147-moddalariga binoan
_____ ni guvohlantirishdan o'tkazdim va bu haqda JPKning 90-92-
moddalariga asoslanib, mazkur bayonnomani tuzdim.

Xolislarga ularning O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida
ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ 2. _____
(imzo) (F.I.SH.) (imzo) (F.I.SH.)

Mutaxassisga O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan
mutaxassisning huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ ga guvohlantirish jarayoni va natijalarini aks
(ishtirokchisining maqomi, F.I.SH.)

ettirgan ushbu bayonnoma bilan tanishish hamda unga lozim bo'lgan qo'shimcha va
tuzatishlar kiritishga haqli ekanligi tushuntirildi.

Mutaxassis va xolislarning O'zbekiston Respublikasi JPKning 78-moddasidagi
guvohlantirishda ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar mavjud emasligi aniqlandi.

Guvohlantirish boshlandi: soat ___ da

Guvohlantirish tamomlandi: soat ___ da

13-BOB. TANIB OLISH UCHUN KO‘RSATISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

13.1. «Tanib olish uchun ko‘rsatish» tergov harakati tushunchasi

Tanib olish uchun ko‘rsatish guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining biror shaxs yoki narsa to‘g‘risidagi ko‘rsatuvini tekshirib ko‘rish uchun quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) bu ko‘rsatuv muayyan bir shaxs yoki muayyan bir narsaga oid ekanligini aniqlash zarur bo‘lganda;

2) tergovchiga ma‘lum bo‘lgan ko‘plab shaxs yoki narsalar orasidan ko‘rsatuvda tasvirlab berilgan shaxs yoki narsani topish zarur bo‘lganda (JPK 125-modda).

Tanib olish jarayoni – ilgari kuzatilgan obyektни u yoki bu belgilari bo‘yicha tanish hisoblanadi. Shu bois insonning eslash qobiliyati jinoyat sodir bo‘lgan paytdan boshlab vaqt o‘tishi bilan bu hodisa to‘g‘risidagi taassurotlar va ularni esda saqlash darajasi vaqt o‘tishi bilan pasayib borishi sababli mazkur tergov harakatini tezkor o‘tkazish taktik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar; shuningdek, jinoyat qurollari, murdalar va ularning qismlari, hayvonlar, binolar va boshqa ko‘chmas obyektlar tanib olish uchun taqdim etilishi (tanib olish obyektlari bo‘lishi) mumkin. Tanib olishning subyektі bo‘lib esa, tanib olishni amalga oshirayotgan shaxs, ayni paytda guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik lozimki, tanib olish jarayonidan oldin tanib oluvchi shaxs ushbu obyekt, uning belgilari bo‘yicha to‘la ravishda, batafsil so‘roq qilinishi darkor.

Tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatini o‘tkazishdan maqsad shaxsning yoki ashyoning aynanligini aniqlashdan iborat. Ushbu aynanlikni topish tanib oluvchi shaxsning zimmasiga yuklatiladi. Tanib olish inson bilish jarayonining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Muayyan narsa yoki shaxsni tanish jarayoni psixologik mazmuniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

a) suksessiv tanish – avvalgi taassurotga ega bo‘lgan obraz belgilarini xotirada sekinlik bilan tiklab, taqdim etilgan obyekt belgilari bilan bosqichma-bosqich solishtirish orqali tanib olish;

b) simultan tanish – muayyan shaxs yoki narsani darhol, bir ko‘rishning o‘zida tanib olish.

Suksessiv tanishda tanib oluvchi shaxs obyektini solishtirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar tanib oluvchi shaxsning tanib olinishi kerak bo'lgan narsa yoki shaxs bilan ilgari kam muomalada bo'lganligi yoki belgilarning o'zgarishi, eskirishi, ko'rinishining sun'iy o'zgartirilishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham bu holda birinchi bo'lib haqiqatan ham aynan shu obyekt tergov olib boriladigan xodisa bilan bog'liqmi yoki yo'qmi degan masala hal qilinishi kerak. Agar tanib oluvchi shaxsga taqdim etiladigan obyekt belgilari bo'yicha yaxshi tanish bo'lsa, bunday suksessiv tanib olish o'tkazilmaydi. Masalan, tanib oluvchi bilan ko'p vaqtdan buyon yaqin munosabatlarda bo'lgan kishini (oila a'zolari, do'stlari, uzoq qarindoshlari, qo'shnilar va h.k.) tashqi ko'rinishi bo'yicha tanib olishga yoki tanib oluvchi shaxsga o'zining noyob belgilari (raqam, dog', esdalik yozuv va b.) orqali tanish bo'lgan buyumlarni taqdim etish noo'rindir. Bu holda suksessiv emas, balki simultan tanib olish o'rindir.

Simultan tanish bilan bog'liq bo'lgan tanib olish bevosita boshqa maqsad — marhumning shaxsini aniqlash yoki tanib olinadigan obyekt bilan tanib oluvchining tanishligi tasdiqlovchi ma'lumotning rostligini tekshirishni ko'zlaydi. Shu uslub orqali tanib oluvchi bilan tanishligini rad etuvchi shaxs taqdim etilishi mumkin.

Ba'zilar tomonidan bu hollarda tanib olishni o'tkazishning qonuniyligi rad etiladi. Bunday fikr tarafdorlari tanib olishning o'rniga yuzlashtirish o'tkazish kifoya, deyishadi. Shunga qaramasdan, bizning nazarimizda, ba'zi hollarda yuzlashtirishning imkoniyatlari quyidagi masalalarni yechishga yetarli emasdir, ya'ni so'roq qilinadigan shaxslar haqiqatdan ham o'zaro tanishmi yoki o'zini tanishtirgan shaxs haqiqatan ham o'sha shaxsmi yoki yo'qmi. Shaxsan, o'zaro tanishligini tasdiqlovchi shaxsning gaplari qanchalik rostligini aniqlashning iloji yo'q.

Jinoyat protsessida bir shaxs o'rtasida bir obyekt yoki bir shaxsni tanib olish uchun qayta, qo'shimcha tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish man etilgan. Qo'shimcha tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazishning man etilishi tanib oluvchi tanib olish uchun ko'rsatilayotgan shaxsni yoki obyektini balki birinchi bor tanib olish uchun ko'rsatilganda eslab qolish ehtimoli bilan bog'liq. Shu bilan birga, shaxs tomonidan obyektning yoki shaxsning faqat bitta belgisi orqali eslab qolganligi bois, tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati o'tkazilgandan so'ng, qaytadan o'tkazishga ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Tanib olishni o'tkazishning maxsus shartlari sifatida tanib oluvchi shaxsni qay hollarda obyekt unga taassurot qoldirganligi va qaysi belgilari orqali tanib olishi mumkinligi yuzasidan o'tkaziladigan so'roq qilish xizmat qiladi. Aks holda tanib olish isbot kuchiga ega bo'lmaydi.

Shaxs bitta obyektни har xil belgilar orqali tanib olishi mumkin. Shaxs obyekt va shaxsning bir belgiga ko'ra tanib olmagan bo'lsa, uni boshqa belgisiga ko'ra qayta tanib olish uchun ko'rsatish mumkin. Biroq birinchi marotaba o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatida tanib oluvchi "tanib olish uchun ko'rsatilayotgan shaxs" haqida hech qanday ma'lumotni olmasligi choralari ko'rilishi kerak. Aks holda birinchi tanib olish uchun ko'rsatishda obyektning belgilari eslab qolinishi va ikkinchi marotaba o'tkazilayotgan tanib olish uchun ko'rsatilayotganda ishning xolisligiga putur yetkazishi mumkin. Masalan, dastlab shaxsning fotosurati orqali tanib olish uchun ko'rsatish keyinchalik uning yurish (qadam qo'yish) xususiyatlari bilan tanib olish uchun ko'rsatishni rad etmaydi.

Qo'shimcha tanib olish uchun ko'rsatish dastlab JPKning talablarini buzgan holda o'tkazilgan bo'lsa yoki protsessual shakldan tashqari amalga oshirilgan bo'lsa ham takroran yoki qo'shimcha o'tkazilmaydi.

Tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazish uchun asos – bu isbotlash uchun zaruriyatdir. Unda ilgari taassurot qoldirgan obyektни tanib olishga taqdim qilingan obyekt taqqoslanadi. Agar obyekt isbotlashning boshqa uslub yoki vositalar orqali aniqlanadigan bo'lsa, tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazishning zarurati yo'q.

Mazkur tergov harakatida tanib oluvchi sifatida guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar ishtirok etishlari mumkin. Guvoh va jabrlanuvchi tanib olishdan oldin ko'rsatuv berishdan bosh tortish va yolg'on ko'rsatuv berishlari uchun javobgarlikka tortilishlari to'g'risida ogohlantiriladilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslar tanib olinuvchilar sifatida ham ishtirok etishlari mumkin.

Tanib olish nafaqat ko'rish sezgi organi yordamida, balki boshqa hissiyot organlari orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, eshitish, ushlar orqali (ko'zi ojizlar obyektни ushlar orqali tanib olishi mumkin. Bu esa, keyinchalik eksperiment o'tkazish orqali ham isbotlanishi mumkin). Yuqoridagilardan tashqari, tanib olish fotosuratlar orqali ham o'tkazilishi mumkin.

13.2. Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish tartibi va turlari

Jinoyat-protsessual kodeksi tanib olishni o'tkazishning quyidagi tartibini belgilaydi:

Tanib oluvchi tanib olishi lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilinishi lozim (JPK 126-modda).

Voyaga yetmagan shaxsni so‘roq qilishda zaruriy ravishda o‘qituvchi (pedagog) ishtirok etishi shart. Bu harakatning o‘tkazilishi tanib olish uchun taqdim etishning maqsadga muvofiqligi haqida to‘g‘ri qaror qabul qilishga, bu harakatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, kerakli natijalar olinishiga va keyinchalik ularga to‘g‘ri baho berishga yordam beradi. Tanib oluvchining so‘rog‘i unga nisbatan sodir etilgan jinoyatdan so‘ng o‘tkazilsa va natijali bo‘lmagan taqdirda, uni qayta so‘roq qilish maqsadga muvofiqdir.

Tanib oluvchi shaxsga tanib olish uchun obyektini ko‘rsatishdan avval o‘tkaziladigan so‘roq davomida tanib oluvchi tanib olinishi kerak bo‘lgan obyektini qayerda, qachon, qanday holatlarda, qancha vaqt davomida, qanday ob-havoda, qanday yorug‘likda, qanday masofada kuzatgani, uning belgilari va bu belgilarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanishi kerak.

Tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakati tanib olish obyektiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. *Shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatish.* Shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatish tergov amaliyotida keng qo‘llaniladigan tergov harakati hisoblanadi. Mazkur tergov harakatida tanib olinuvchi sifatida faqat tirik odam bo‘ladi. Shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksining 127-moddasida belgilangan. Shaxslarni tanib olish boshqa turdagi tanib olishlarga nisbatan murakkabroqdir. Tanib olinuvchi shaxs tanib olish uchun tergov olib borilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan, tashqi belgilari bilan o‘ziga o‘xshaydigan shaxslar guruhi orasida xolislar huzurida ko‘rsatiladi. Jinoyat protsessi nazariyasida shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatishda tanib olinuvchilar statistlar deb ham ataladilar.

Tanib olish uchun ko‘rsatilayotgan shaxslarning umumiy soni uch nafardan kam bo‘lmasligi kerak.

Tanib olinuvchi kiyimi, soch qirqtirishi yoki tarashi yoxud boshqa belgilari bilan tanib olish uchun ko‘rsatiladigan o‘zga shaxslar orasida yaqqol ajralib turmasligi lozim.

Statistlar tanib oluvchiga tanish bo‘lmasliklari lozim. Tanib olishda xolislarining ishtirok etishi shart.

Tanib olinuvchiga tanib olish uchun ko‘rsatiladigan shaxslar guruhi orasida istagan joyni egallash taklif qilinadi. So‘ng tanib oluvchi chaqirtiriladi. Albatta, tanib oluvchini chaqirtirish tartibi har xil shubhalardan mustasno bo‘lishi kerak. Tanib oluvchini chaqirtirish usuli, albatta, bayonnomada aks ettirilishi kerak. So‘ng tanib oluvchi kim to‘g‘risida ko‘rsatuv bergan bo‘lsa o‘sha shaxsni ko‘rsatishi lozim. Shu bilan birga, qaysi belgilar orqali taniganligini tushuntirib o‘tishi lozim.

Tanib olishda yuzaga kelgan shubhalar va ehtimollar bartaraf etilmasa, ayblanuvchi xisobiga hal etiladi va ushbu tergov harakati bayonnomasining nomaqbul deb topilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligiga binoan, shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishning iloji bo'lmaganda yoxud xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uning fotosuratidan foydalanish mumkin.

Tanib olish uchun jadval qog'ozga yaxshilab yopishtirilib, muhrlangan va raqamlangan, lekin suratga olingan shaxslarning ismi va familiyalari ko'rsatilmagan kamida uchta fotosurat ko'rsatiladi.

Shunga o'xshash amaliyotda videoyozuv orqali tanib olish ham qo'llanilishi mumkin, chunki u obyektning belgilarini aniqroq taqdim etadi. Taqdim etilgan fotosuratlar va videoyozuvlar tanib olish bayonnomasiga ilova qilinadi.

2. *Ko'char narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish.* Ko'char narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 128-moddasida belgilangan.

Tergov olib borilayotgan joyga, sudga yoki boshqa joyga olib borilishi mumkin bo'lgan narsalar, narsalarning bo'lagi va hayvonlar ushbu ishga aloqasi bo'lmagan boshqa turdosh narsalar orasida tanib olish uchun ko'rsatiladi.

Tanib oluvchi so'roq qilinganda tasvirlaganidan tashqi belgilari, alomatlari, xususiyatlari bo'yicha jiddiy farq qilmaydigan narsalar turdosh deb hisoblanadi. Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan narsalarni joylashtirish tartibi tergovchi tomonidan xolislar huzurida belgilanadi.

Turdosh obyektlar orasidan tanib olish to'g'risidagi qoida murdani tanib olishda qo'llanilmaydi. Murdani tanib olishda statistlar ishtirok etmaydi. Bu holda faqat murdani o'ziga taqdim etiladi.

Predmetni tanib olish kamida uch nafar turdosh predmetlar bilan birgalikda o'tkaziladi. Bunda tanib olinadigan predmet boshqalaridan yaqqol ajralmasligi kerak (masalan, qon izlari bilan).

3. *Ko'chmas obyektning tanib olish uchun ko'rsatish.* Ko'chmas obyektning tanib olish uchun ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 129-moddasida belgilangan.

Jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi joy, bino, binodagi alohida xona yoki boshqa ko'chmas obyekt nomini aytib va tasvirlab bersa-da, biroq uning joylashgan o'rnini aniq aytib bera olmasa, biror aniq joydan obyektga borish yo'lini ko'rsatishga istak bildirsa, unga shu obyektning ko'rsatishiga imkon beriladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi va xolislar yoxud sud tarkibi va taraflar tanib

oluvchi bilan birgalikda u aytgan joyga keladilar. Tanib olish uchun ko'rsatish ishtirokchilari shu joydan boshlab tanib oluvchining ko'rsatuvi bo'yicha yura boshlaydilar. Bunda tanib oluvchiga tanib olish uchun ko'rsatishning boshqa ishtirokchilari yoki yot shaxslar tarafidan yo'nalish aytib qo'yilishining oldini olish choralari ko'rilishi lozim.

Jinoyat-protsessual amaliyotda shunday hollar mavjudki, bunda tanib olish tergov harakati rad etiladi, ya'ni tanib olish o'tkazilmasligi kerak. Bunga misol tariqasida agar tanib oluvchi va tanib olinuvchi so'roq paytida bir-birlarini yaxshi bilishi va tanish ekanliklarini inkor etmasa, ular o'rtasida tanib olish harakati o'tkazilmasligini keltirish mumkin.

Tanib olish uchun bir guruh shaxslar yoki bir nechta narsa ko'rsatilganidan keyin tanib oluvchiga u ilgari tasvirlagan shaxs yoki narsani ko'rsatish taklif etiladi.

Tanib oluvchi ko'rsatilgan shaxslardan yoki narsalardan birini ko'rsatsa, unga ko'rsatilgan boshqa shaxslar yoki narsalar orasidan bu shaxsni yoki narsani qaysi belgilari yoki xususiyatlariga ko'ra taniganligini tushuntirib berish taklif qilinadi.

Tanib oluvchi tanib olish uchun unga ko'rsatilgan shaxslar yoki narsalarni ilgari ko'rmaganligini aytsa, unga qidirilayotgan narsa ulardan nimasi bilan farq qilishini tushuntirib berish taklif qilinadi (JPK 130-modda).

13.3. Tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida tanib oluvchining ko'rsatuvi va holatlarini qayd qilish bo'yicha tuziladigan protsessual hujjatlar

Dastlabki tergov vaqtida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish to'g'risida JPKning tegishli moddalariga rioya etgan holda bayonnoma tuziladi (JPK 131-modda). Bayonnomada tanib oluvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar, tanib olish uchun ko'rsatilgan obyektlar haqidagi qisqacha ma'lumotlar va imkon darajasida tanib oluvchining ko'rsatuvlari so'zma-so'z bayon qilinadi.

Tanib olishning o'tkazilishi va natijalari, umumiy qoidalarga binoan, bayonnomada aks ettiriladi. Unda barcha yuridik ahamiyatga ega bo'lgan holatlar o'z aksini topishi lozim (statistlar tashqi ko'rinishi, tanib oluvchini chaqirtirish tartibi, uning ko'rsatuvlari).

Barcha hollarda bayonnomaga: tanib oluvchi, tanib olish uchun ko'rsatish sharoiti, jarayoni va natijalari, tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxslar, ularning yoshi, bo'yi, millati, turar joyi, ko'zga tashlanuvchi belgilari, kiyimlari; tanib olish uchun ko'rsatilgan narsalar tavsifi; tanib olish uchun ko'chmas obyektlar

ko'rsatilganda esa, shuningdek tanib oluvchi ko'rsatgan yo'nalishlar va izlanayotgan obyektga biror aniq joydan borish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim. Agar tanib olish uchun shaxslarni ko'rsatilganda statistlar ham imzo chekadilar.

Tanib olish uchun fotosuratlar ko'rsatilgan bo'lsa, bayonnomaga fotojadval ilova qilinishi lozim.

Tanib oluvchining ko'rsatuvlari, shuningdek, unga tergovchi, sud, taraflar yoki boshqa shaxslar tomonidan berilgan savollar va qaytarilgan javoblar so'roq qilishning umumiy qoidalariga rioya qilingan holda bayonnomaga yozib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Tanib olish uchun ko'rsatishning qanday turlari mavjud?

Tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Tanib olish uchun ko'rsatish qanday xususiyatlarga ega?

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkazilishi mumkinmi?

Tanib olish uchun ko'rsatish o'tkazishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Tanib olish uchun ko'rsatish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

**Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi JPKning 125-127, 130, 131-moddalariga asosan,

(qayerda)

(qaysi vaqtda, qanday yorug'likda)

Xolislar:

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

Mutaxassis _____
Guvoh (jabrlanuvchi)

ishtirokida tanib olish tergov harakatini o'tkazdim.

Xolislarga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.) 2. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Mutaxassisga O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan mutaxassisning huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Guvoh (jabrlanuvchi) _____ yolg'on guvohlik berganligi hamda ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 238, 240-moddalariga asosan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Guvoh (jabrlanuvchi)ga tanib olish uchun quyidagi shaxslarni ko'rsatdim:

1. _____
2. _____
3. _____

Tanib oluvchi shaxs quyidagilarni ko'rsatib o'tdi: _____

Xolislar

1. _____
(imzo) (F.I.SH.)

2. _____
(imzo) (F.I.SH.)

Tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxs:

_____ (imzo) (F.I.SH.)

Tanib olgan shaxs (guvoh, jabrlanuvchi)

_____ (imzo) (F.I.SH.)

Tanib olish o'tkazgan shaxs:

_____ (lavozimi)

_____ (unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

**Shaxsni fotosuratidan tanib olish uchun ko'rsatish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi JPKning 125-127, 130, 131-moddalariga asosan,

(qayerda)

(qaysi vaqtda, qanday yorug'likda)

Xolislar:

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

Mutaxassis _____
Guvoh (jabrlanuvchi)

ishtirokida tanib olish tergov harakatini o'tkazdim.

Xolislarga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.) 2. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Mutaxassisga O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan mutaxassisning huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Guvoh (jabrlanuvchi) _____
yolg'on guvohlik berganligi hamda ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 238, 240-moddalariga asosan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

_____ (imzo)


_____ (F.I.SH.)

Guvoh (jabrlanuvchi)ga tanib olish uchun quyidagi fotosuratlarni ko'rsatdim:

1-sonli fotosurat

2-sonli fotosurat

3-sonli fotosurat



Tanib oluvchi shaxs unga taqdim etilgan fotosuratlarni ko‘rib chiqib, quyidagilarni ma’lum qildi: _____

Xolislar

1. _____
(imzo) (F.I.S.H.)

2. _____
(imzo) (F.I.S.H.)

Tanib olgan shaxs (guvoh, jabrlanuvchi) _____
(imzo) (F.I.S.H.)

Tanib olish o‘tkazgan shaxs:

(lavozimi)

(unvoni) _____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

14-BOB. OLIB QO‘YISH VA TINTUV TERGOV HARAKATLARINI O‘TKAZISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

14.1. «Olib qo‘yish va tintuv» tergov harakatlari tushunchasi, o‘tkazish asoslari

Olib qo‘yish va tintuv tergov harakatlari JPKning 157-168-moddalarida tartibga solingan.

Olib qo‘yish bu jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan muayyan predmet va hujjatning aniq kimda va qayerdaligi ma‘lum bo‘lsa, uni protsessual majburiy olish tushuniladi. Olib qo‘yish – mustaqil tergov harakati bo‘lib, ish uchun ahamiyatli ashyo va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma‘lum holatidagina tergovchi, sudya va sud tomonidan o‘tkazilishi mumkin.

Olib qo‘yish ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ashyo va hujjatlarning aniq saqlanish joyi va ushbu ashyo va hujjatlar aynan qaysi shaxsnikida saqlayotganligi aniqlangandan keyin, jinoyat ish qo‘zg‘atilganidan so‘ng o‘tkaziladi.

Odatda, olib qo‘yish ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi, lekin agar zarur bo‘lib qolsa, bu tergov harakati majburiy ravishda ham o‘tkazilishi mumkin.

Bu tergov harakati ko‘shimcha, muassasalar va tashkilotlarda ashyo va hujjatlarni olib qo‘yishda o‘tkaziladi. Olib qo‘yiladigan hujjatni olishdan avval aynan shu hujjat bilan bo‘lgan boshqa hujjatlar ham ko‘zdan kechirilib, olib qo‘yilishi mumkin.

Olib qo‘yish jismoniy yoki yuridik shaxsdan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan muayyan narsa va hujjatlarni olib qo‘yishga zarurat paydo bo‘lgan hollarda, basharti ularning aynan kimda va qayerda ekanligi ma‘lum bo‘lib, ularni qidirishning hojati bo‘lmasa, o‘tkaziladi (JPK 157-modda).

Ko‘rsatilgan narsa va hujjatlar ixtiyoriy ravishda berilishi yoki majburan olib qo‘yilishi mumkin. Biroq olib qo‘yish uchun olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan obyektlar saqlanadigan turar joy xonalarini va turar joy bo‘lmagan xonalarni majburan tekshirish talab etilsa, olib qo‘yish o‘tkazilmasligi mumkin. Bunday hollarda tintuv o‘tkaziladi.

Olib qo‘yishni amalga oshirish uchun faktik asoslar quyidagilar:

– muayyan shaxsning egaligida (shu muassasa, boshqa joyda, uning o‘zida yoki yonida) bo‘lgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli muayyan narsa yoki hujjatni topish;

– muayyan predmet yoki hujjatning yo‘qotilishi yoki yashirish xavfi borligi;

– ularni dastlabki tergov organlari tomonidan qidirish zaruratining yo‘qligidir.

Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o‘zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o‘ylash uchun yetarli ma‘lumotga ega bo‘lgan taqdirda tintuv o‘tkazishga haqlidir.

Tintuv qidirilayotgan shaxsni, shuningdek murdani topish uchun ham o‘tkazilishi mumkin. (JPK 158-modda).

Jinoyat ishi bo‘yicha ahamiyatga ega bo‘lgan jinoyat quroli, jinoiy yo‘l bilan topilgan predmetlar va hujjatlar, qimmatbaho narsalar biron shaxsda yoki biron joyda saqlanishi ma‘lum bo‘lsa yoki bu to‘g‘rida biron gumon paydo bo‘lsa,

1) tintuv harakatini o‘tkazish uchun asos bo‘la oladi.

2) tintuv asosan ish bo‘yicha daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan predmetlarni, hujjatlarni aniqlash (topish) va olish; qidiruvda bo‘lgan shaxslarni topib, ularni ushlab olish yoki shu shaxslarning qayerda yashirinib yurishini ko‘rsatuvchi materiallarni aniqlab topish va olish; ahamiyatli bo‘lgan moddiy mablag‘larni (pullar, qimmatbaho narsalar, aksiyalar, qimmatbaho metallar va toshlarni) aniqlab, topish va olish; kelajakda musodarani ta‘minlovchi yoki jinoyatdan ko‘rilgan zararni qoplovchi mulkni topish va uni xatlab qo‘yish maqsadida o‘tkaziladi.

Tintuv o‘tkazish uchun qidiriladigan obyektning aniq saqlanayotgan joyini bilish talab qilinmaydi va bu holat uni olib ko‘yishdan ajratadi.

Tintuv o‘tkazishdan va u haqda qaror qabul qilishdan avval ish bo‘yicha yig‘ilgan faktik ma‘lumotlar baholanishi va tahlil etilishi lozim.

Tintuv murdani qidirishda ham o‘tkazilishi mumkin.

Tintuv o‘tkazish uchun tergovchi tintuv to‘g‘risida qaror chiqaradi va bu qarorga prokurorning ruxsatini oladi.

Tintuv kechiktirib bo‘lmas tergov harakati bo‘lib, jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng o‘tkazilishi mumkin.

14.2. Olib qo‘yish va tintuv tergov harakatlarini o‘tkazishning protsessual tartibi

Olib qo‘yish yoki tintuv surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga ko‘ra o‘tkaziladi, bunda ular olib qo‘yish yoki tintuv o‘tkazishni surishtiruv organiga yoki tergovchiga topshirishga haqlidirlar.

Olib qo‘yish yoki tintuv o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda bu harakatlar qayerda va kimnikida o‘tkazilishi zarurligi, qaysi narsa yoki hujjatlarning qidirib topilishi va olib qo‘yilishi lozimligi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak (JPK 159-modda).

Tintuv o'tkazish to'g'risidagi qarorda ushbu hujjat bilan tanishganligi haqida tintuv qilinadigan shaxs o'z imzosi, tanishgan sanasi va familiyasi, ismi, otasining ismini qayd etishi kerak.

Tintuv o'tkazish to'g'risidagi sud ajrimi ham yuqorida qayd etilgan rekvizitlardan iborat bo'ladi va ajrimda tintuv o'tkazilishi kimga topshirilganligi qayd etilishi lozim. Tergovchi chiqargan tintuv to'g'risidagi qarorga prokuror ruxsat berishi lozim, ammo kechiktirib bo'lmas vaziyatlarda tergovchining tintuv o'tkazish haqidagi qaror bo'yicha prokurorning ruxsatisiz ham tintuv o'tkazilishi mumkin, ammo bunday tartibda o'tkazilgan tintuv to'g'risida uning natijalaridan qat'i nazar prokuror 24 soat ichida xabardor qilinishi kerak.

Tintuv to'g'risidagi qaror yoki ajrimda qanday predmet yoki hujjatlar qidirilayotganligi va olib qo'yilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak (JPK 159-modda).

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda xolislar, zarurat bo'lgan taqdirda mutaxassis va tarjimon ham ishtirok etadilar.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish jarayonida bu harakatlar uyida o'tkazilayotgan shaxsning o'zi yoki hech bo'lmaganda uning voyaga yetgan oila a'zolaridan birining ishtirok etishi ta'minlanishi lozim. Basharti ularning ishtirok etishini ta'minlashga imkon bo'lmasa, tegishli hokimlik yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining vakili taklif qilinadi.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar joylashgan binolarda olib qo'yish yoki tintuv ularning vakillari ishtirokida o'tkaziladi.

Tintuv qilinayotganlarga, xolislariga, mutaxassislariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga tintuv yoki olib qo'yish o'tkazilishidan avval ularning surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida hozir bo'lish hamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntirilishi kerak. Bunday arz bayonnomaga kiritilishi shart (JPK 160-modda).

Tintuv va olib qo'yishning asosiy ishtirokchilari surishtiruvchi va tergovchi hisoblanadi. Bu harakatlarni zarur hollarda o'z vakolatlari doirasida tergov bo'limi boshlig'i (JPK 37-modda 2-qismi) hamda prokuror (JPK 382-modda 3-qismi) o'tkazishi mumkin.

Bu harakatlarni o'tkazishda tergovchiga jinoyat qidiruv bo'limi xodimi, profilaktika inspektori va surishtiruvchilar, zarur bo'lganda ekspert va mutaxassislar yordam beradilar, topilgan obyektlarning yo'qolmasligini ta'minlaydilar, ularning qaytadan yashirib qo'yilishi va yo'qolib qolishining oldini oladilar.

Tashkiliy va texnik yordam ko'rsatishlari uchun jamoat yoki davlat tashkiloti vakillari jalb qilinishlari mumkin.

Tashkilotlardan ishga taalluqli hujjatlar olinayotganda shu hujjatlar uchun javobgar shaxs, moddiy qimmatbaho narsalar olinayotganda esa moddiy javobgar shaxsning ishtirok etishi shart.

JPKning 352-moddasiga muvofiq, olib qo'yish va tintuv tergov harakatlarini o'tkazishda kamida ikki nafar, voyaga yetgan, aqli raso va ish natijalaridan manfaatdor bo'lmagan xolislarining ishtiroki majubriydir. Ba'zi hollarda xolis sifatida ishtirok etgan shaxslar shu harakatlar bo'yicha guvoh sifatida ko'rsatuv berishlariga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu harakatlar o'tkazilayotganda xolis sifatida ruhan va jismonan sog'lom shaxslar taklif qilinishi lozim.

Tintuv va olib qo'yish vaqtida, tintuv va olib qo'yish o'tkazilayotgan xonadonning egasi bo'lishi shart, aks holda bu harakatlarning natijalari dalil bo'lib hisoblanmaydi (JPK 160-modda).

Tintuv tergovchining asoslantirilgan qaroriga binoan, prokurorning sanksiyasi bilan o'tkaziladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tintuv prokurorning sanksiyasiz o'tkazilishi mumkin, lekin bunday holda keyinchalik shu o'tkazilgan tintuv haqida yigirma to'rt soat ichida prokurorga xabar qilinadi. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar tergovchining prokurorga yuborgan xabarnomasida asoslantirilishi lozim. Xabarnomaning nusxasi ishga qo'shib qo'yiladi.

Tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish haqidagi qarorga yoki ajrimga asosan ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni qidirib topish maqsadida turar joyga yoki boshqa binoga kirishga haqlidir.

Tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishga kirishishdan oldin olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilayotgan shaxsni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib, imzo qo'ydirishi shart.

Tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilayotgan binoda yoki o'zga joyda turgan shaxslarning olib qo'yish yoki tintuv tamom bo'lgunga qadar shu bino yoki joydan chiqib ketishini, shuningdek ularning bir-birlari bilan yoki boshqa shaxslar bilan gaplashishini taqiqlab qo'yishga haqlidir.

Tergovchi olib qo'yish chog'ida qaror yoki ajrim bilan tanishtirganidan so'ng olinishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni taklif qiladi, taklif rad etilgan taqdirda majburiy ravishda oladi. Basharti, bu narsa va hujjatlar olib qo'yishni amalga oshirish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan joydan topilmasa, u holda tintuv o'tkaziladi.

Tergovchi tintuv o'tkazishga kirishayotganida qarorni taqdim etganidan so'ng olib qo'yilishi kerak bo'lgan narsa va hujjatlarni berishni taklif qiladi. Basharti ular ixtiyoriy ravishda berilsa, olib qo'yish bayonnomasi tuziladi. Agar qidirilayotgan narsa yoki hujjatlar berilmasa yoxud to'liq holda

topshirilmagan bo'lsa, tintuv o'tkaziladi. Tintuv chog'ida bu xususdagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan narsa yoki hujjatlar qidiriladi va olinadi. Ish uchun ahamiyatga molik boshqa narsa yoki hujjatlar, shuningdek saqlanishi taqiqlangan ashyolar topilgan taqdirda, ular ham olib qo'yilishi lozim. Tergovchini bu narsa yoki hujjatlarni olib qo'yishga undagan asoslar tintuv o'tkazilganligi haqidagi bayonnomada aks ettiriladi.

Olinayotgan narsa va hujjatlarning hammasi xolislariga, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarga ko'rsatiladi, bayonnomada to'liq aks ettiriladi, zarurat bo'lgan taqdirda o'rab, muhrlanadi. O'ralgan va muhrlangan narsa va hujjatlarni keyingi tergov davomida ochishga faqat xolislar ishtirokida yo'l qo'yiladi.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish vaqtida yopiq binolarni yoki buyumlar saqlanadigan joyni uning egasi o'z ixtiyori bilan ochib berishdan bosh tortsa, surishtiruvchining, tergovchining o'zi ularni ochishga haqlidir. Bunda zarurat bo'lmaganda qulflar, eshiklar va boshqa narsalarning shikastlantirilishiga yo'l qo'yilmasligi hamda uydagi saranjomlik buzilmasligi lozim (JPK 161-modda).

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishdan avval dastlabki tayyorgarlik harakatlarini olib borish lozim. Bu harakatlar qatoriga ushbu tergov harakatlari xavfsiz va natijali bo'lishi uchun tegishli rejali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu tergov harakatida ishtirok etuvchi xodimning huquq va majburiyatlari aniqlashtirilishi lozim va asosiy maqsad barcha uchun to'g'ri o'zlashtirilgan bo'lishini talab qiladi. Tegishli texnik-kriminalistik vositalar ham tayyor holatga keltirib qo'yilishi zarur.

Agar tintuv to'g'risida ogohlantirilgan shaxs qaror bilan tanishib chiqqandan so'ng qarorda qayd etilgan predmet va ashyolarni taqdim etib, ixtiyoriy ravishda ularni tergovchiga berish xohishini izhor qilsa, tintuv olib qo'yishga aylanadi va tergovchi shu vaziyatda tintuv qilish bayonnomasi o'rniga olib ko'yish bayonnomasini tuzishi kerak.

Tintuv yoki olib qo'yishning ijobiy o'tishi asosan tintuv yoki olib qo'yish o'tkaziladigan shaxslar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarning to'liq to'planishiga bog'liqdir (bu shaxslarning yoshi, oilaviy holati, qanday kasb bilan shug'ullanishi, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi bilan bo'lgan munosabati, u bilan birga istiqomat qiluvchi shaxslar to'g'risida ma'lumot, ularning munosabatlari, ishda va oilada bo'lgan xatti-harakatlari va qanday ko'nikma va mahoratlarga egaligi to'g'risidagi ma'lumotlar, nimaga moyillik ko'rsatishi to'g'risidagi axborotlar, qurol va transportga ega bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlar va hokazo).

Tintuv o'tkazishdan avval tintuv o'tkaziladigan bino va xonadon to'g'risidagi mukammal axborotlarni to'plash zarur.

Agar tergovchi tintuv qilinayotgan shaxsdan uning ixtiyoriga asosan tegishli obyektlar olgan bo'lsa-da, ammo bu shaxsda ish bo'yicha yana boshqa muhim predmetlar mavjudligiga shubha qilsa, u holda olib qo'yish emas, balki tintuv o'tkaziladi.

Tintuv qilinayotgan shaxsning oila a'zosi ham ko'pincha uyda mavjud bo'lgan barcha ashyo, predmet va hujjatlar to'g'risida to'liq xabardor bo'lmasligi mumkin.

Agar tintuv qilinadigan shaxs biron xonani yoki obyektни ochishga to'sqinlik qilsa va kalitini bermasayu, sindirib kirish zaruriyati tug'ilsa, tergovchi quyidagi harakatlarni amalga oshirishi zarur:

a) JPKning 161-moddasining 8-bandi tintuv qilinayotgan shaxsga tushuntirilishi, uning g'ayriqonuniy harakatlarini ta'riflab, unga shu band to'la o'qib berilishi va kalitni berishni talab qilish kerak, bu esa bayonnomada qayd etilishi lozim;

b) ushbu xonalarni ochishda tegishli mutaxassislarни taklif qilib, eshiklarni sindirmay ochish harakatlari amalga oshiriladi, agar bu harakatlar natija bermasa, u holda, eshiklarga imkon qadar kam zarar yetkazib ochilishi lozim.

Agar tintuv qilinadigan shaxs qo'shnilari bilan birgalikda hovlining ma'lum joyidan foydalanib kelgan bo'lsa, u holda ushbu fuqaroning turar joyi, hovlisidagi umumiy foydalanadigan joylari ham tintuvdan o'tkazilishi lozim. Bunday harakatlar bu fuqaro bilan birga yashaydigan shaxslarga unga g'ayriqonuniy yordam berish hollarini bartaraf etishga imkon yaratadi.

Tintuv o'tkazishdan avval tintuvda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntiriladi va bu bayonnomada ularning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Tintuv harakatlari o'tkazilgandan so'ng yoki tintuv o'tkazish jarayonida tergovchi, surishtiruvchi tegishli bayonnomani tuzadi va u tintuv yoki olib qo'yishni o'tkazish bayonnomasiga qo'yilgan barcha talablarga rioya qilishi kerak (JPK 161-modda).

JPKning 157 va 158-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi yoki tergovchi shaxsning kiyimlari, uning yonidagi buyumlari ichidan yoki badanidan topilgan, ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarni olib qo'yishi mumkin.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish JPKning 157-161-moddalarida ko'rsatilgan qoidalar asosida o'tkaziladi. Ammo shaxsiy tintuv va olib qo'yish quyidagi hollarda alohida qaror yoki ajrim chiqarilmasdan o'tkazilishi mumkin:

1) jamoat tartibini saqlashga doir burchini bajarayotgan militsiya xodimi tomonidan gumon qilinuvchini ushlab chog'ida ushlanuvchining

yonida qurol borligiga yoxud jinoyat sodir etganligini fosh qiladigan dalillardan qutulmoqchi ekanligiga yetarli asoslar bo'lganda (JPK 224-modda);

2) gumon qilinuvchi militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinib, uni ushlab haqida JPKning 225-moddasiga asosan bayonnoma tuzilganda;

3) ayblanuvchiga nisbatan qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilayotganida, basharti uning yonida qurol, shuningdek saqlanishi man etilgan buyumlar yoxud ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlar bo'lishi mumkin deb o'ylashga yetarli asoslar bo'lganida;

4) olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilayotgan binoda yoki boshqa joyda turgan shaxs olib qo'yish va tintuv o'tkazish haqidagi qarorga yoki ajrimga ko'ra olinishi zarur bo'lgan narsa yoki hujjatlarni o'z yonida yashirincha saqlamoqda, deb o'ylash uchun yetarli asoslar bo'lganda.

Shaxsiy tintuv hamda narsa va hujjatlarni olib qo'yish tintilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan mutaxassis hamda xolislar ishtirokida o'tkazilishi mumkin (JPK 162-modda).

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish shaxsning o'zini, ya'ni ustki va ichki kiyimlarini, ba'zi hollarda zarur bo'lsa, badanini tintuv qilish hamda man etilgan narsa va hujjatlarni olib qo'yish harakatlaridan iborat.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish 157-161-moddalarda nazarda tutilgan qoidalarga asosan o'tkazilishi kerak, ammo 162-moddaning 2-qismida ko'rsatilgan vaziyatlarda maxsus qaror (maxsus ajrim) chiqarmasdan ham shaxsiy tintuv va olib qo'yish o'tkazish mumkin.

Shaxsiy tintuv dastlabki va qayta tintuv tarzida bo'lishi mumkin. Dastlabki shaxsiy tintuv xavfsizlik choralari amalga oshirish uchun o'tkaziladi va shaxsdan o'qotar, sovuq qurol yoki boshqa o'tkir va qirrali predmetlarni, giyohvand moddalarni, ishga taalluqli hujjatlar, shaxsiy guvohnomalar va boshqa predmetlarni olib qo'yish maqsadida o'tkaziladi. Qimmatbaho narsalarni aniqlash uchun ham shu maqsadda shaxsiy tintuv o'tkaziladi. Shaxsni tegishli joyga so'roq qilish uchun olib kelganda ham uni qaytadan shaxsiy tintuv qilish mumkin va bu harakat mukammal bo'lishi lozim.

Tintuv qilingan shaxsning o'zida bo'lgan hujjatlari va narsalari ham ko'zdan kechirilishi shart (masalan, sumkasi, chemodani va hokazo).

Shaxsiy tintuv o'tkazish vaqtida tintilayotgan shaxsning o'zini tutishiga va harakatlariga e'tibor bermoq zarur, aks holda u o'zida bo'lgan jinoyatga aloqador yoki g'ayriqonuniy narsa va hujjatlarni tashlab yuborishi mumkin.

Shaxsiy tintuv va olib ko'yish o'tkazayotgan vaqtda shu harakat o'tkazilayotgan shaxsning xavfsizligi va sog'lig'iga zarar yetmasligi uchun tegishli choralar ko'rish zarur (JPK 162-modda).

14.3. Diplomatiya vakolatxonalarida olib qo'yish va tintuv tergov harakatlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari

Olib qo'yish yoki tintuv diplomatiya vakolatxonasi hududida o'tkazilayotganda diplomatiya vakolatxonalari va ularning diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan xodimlari, shuningdek ularning oila a'zolari egallab turgan binolarda faqat diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ining iltimosiga ko'ra yoki uning roziligi bilan o'tkazilishi mumkin, diplomatiya vakolatxonasi xodimlarining yoki ularning voyaga yetgan oila a'zolarining istiqomat joylarida yoxud ular egallab turgan boshqa binolarda olib qo'yish va tintuv ularning iltimoslariga ko'ra yoki roziliklari bilan o'tkazilishi mumkin.

Diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan shaxsga va uning oila a'zolariga nisbatan shaxsiy tintuv yoki olib qo'yish JPK 165-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'tkazilishi mumkin.

Diplomatiya vakili yoki uning oila a'zolarining olib qo'yishga yoki tintuv o'tkazishga roziligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi.

Diplomatiya vakolatxonalari va diplomatiya daxlsizligidan foydalanadigan vakillar, shuningdek ularning oila a'zolari joylashgan binolarda tintuv yoki olib qo'yish o'tkazish chog'ida prokuror va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining vakili hozir bo'lishi shart (JPK 165-modda).

Diplomatiya vakolatxonalarining binolarida va diplomatiya vakillaridan olib qo'yish yoki ularda tintuv o'tkazish ushbu diplomatiya vakolatxonalarining rahbarlari va diplomatiya vakillarining roziligi bilan amalga oshiriladi, aks holda bu joylarda olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish mumkin emas. Agar xorijiy shaxs diplomatik daxlsizlikka ega bo'lmasa, u holda uning turar joyida tintuv yoki olib qo'yish o'tkazish kabi tergov harakatlari uning rozilgisiz o'tkazilishi mumkin, ammo bu to'g'rida 24 soat ichida diplomatiya vakolatxonasining rahbariga (tegishli xorijiy mamlakatning favqulodda va muxtor elchisiga) xabar berish kerak.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolarida va diplomatiya vakillarida tintuv yoki olib qo'yish harakatlarini o'tkazish vakolatxo-

nalarda istiqomat qiluvchi va diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan shaxslarning roziligiga asosan amalga oshiriladi va bu rozilik O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolarida va diplomatiya vakillarida tintuv yoki olib qo'yish o'tkazishda tergovchi va xolislardan tashqari ushbu vakolatxonaning rahbari (Favqulodda va muxtor elchi) va O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori hamda O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vaziri yoki uning o'rinbosari ishtirok etishi shart.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolari qatoriga xorijiy davlat elchixonasi, missiyasi, diplomatiya vakolatxona rahbarining rezidensiyasi (turar joyi), diplomatiya vakillarining turar joylari (savdo vakillarining, harbiy attashening, elchixonaning birinchi, ikkinchi va uchinchi kotiblarining, attashelarning turar joylari va hokazolar) kiradi.

Diplomatiya vakolatxonalarining arxivlari, hujjatlari rasmiy axborot almashuvi daxlsizlik huquqiga ega bo'lib, ularni olib qo'yish mumkin emas. Shuning uchun tergovchi ushbu hujjatlarni jinoyat ishiga ilova qilib, dalil sifatida foydalanishi uchun imkon yo'q va ularni olib qo'yish diplomatiya talablarga ko'ra man etilgan, ammo agar xorijiy davlat bilan harbiy to'qnashuv munosabatlari vujudga keladigan bo'lsa, u holda O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik manfaatlariga asosan ushbu hujjatlarni olib qo'yish mumkin (JPK 165-modda).

14.4. Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va olib qo'yish tartibi

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa shaxslarga yuborgan yoxud boshqa shaxslar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yuborgan pochta-telegraf jo'natmalarida sodir etilgan jinoyatga doir ma'lumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar bo'lganda, tergovchi, sud bu shaxslarning barcha pochta-telegraf jo'natmalarini yoki ularning ayrimlarini xatlab qo'yishga haqlidir.

Xatlab qo'yilishi mumkin bo'lgan pochta-telegraf jo'natmalariga barcha turdagi xatlar, telegrammalar, radiogrammalar, banderollar, posilkalar, pochta konteynerlari kiradi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida surishtiruvchi va tergovchi prokurorning sanksiyasi olingan qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimda: jo'natmalari ushlab turilishi lozim bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi,

otasining ismi; bu shaxsning aniq manzili; xatlanayotgan pochta-telegraf jo'natmalarining turi; xatlash chorasining muddati; jo'natmalarni ushlab turish va bu haqda surishtiruvchi yoki tergovchiga ma'lum qilish qaysi aloqa muassasasiga yuklatilganligi ko'rsatilishi lozim.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqidagi qaror yoki ajrim tegishli aloqa muassasasining boshlig'i nomiga yuboriladi va uni bajarish mazkur boshliq uchun majburiydir. Bu qarorni yoki ajrimni bajarmaslik yoki uning oshkor etilishi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Aloqa muassasasining boshlig'i tergovchining qarorida ko'rsatilgan xat-xabarlar va boshqa jo'natmalarni ushlab turadi hamda bu haqda tergovchiga darhol ma'lum qiladi (JPK 166-modda).

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish to'g'risidagi qaror yoki ajrim chiqarilgandan so'ng u bevosita ijro etilishi kerak, buning uchun pochta-telegraf jo'natmalari ko'zdan kechirib, olib qo'yiladi. Agar pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish to'g'risidagi qaror prokuror ruxsatisiz chiqarilgan bo'lsa, u holda bu qaror huquqiy kuchga ega bo'lmaydi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish bu jo'natmalarni ularni olish huquqiga ega bo'lgan shaxsga yuborilishini taqiqlaydi. Pochta-telegraf muassasasining tashabbusiga ko'ra bu hujjatlar ularni xatlab qo'ygan organning ruxsatisiz ularni oluvchi shaxsga yuborilishi hollarida javobgarlik bu hujjatlarni yuborgan xodimga yuklatiladi.

Jo'natmalarni xatlab qo'yish – bu ularni:

- a) ko'zdan kechirish; b) olib qo'yish;
- v) manfaatdor shaxslarning o'zaro xabarlashuvlariga chek qo'yish;
- g) jinoyat sodir etishda qatnashgan shaxslarni aniqlash;
- d) jinoyat sodir qilgan va qidiruvda bo'lgan shaxslarning yashiringan joylarini aniqlash;
- ye) jinoyat qurollari va o'g'irlangan narsalarni topish maqsadlarida o'tkaziladi.

Jo'natmalarni xatlash faqat gumon qilinuvchi va ayblanuvchi hamda ular bilan bog'liq shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi (JPK 166-modda).

Tergovchi aloqa muassasasiga borib, ushlangan pochta-telegraf jo'natmalarini xolislar ishtirokida, zarurat bo'lganda esa, tegishli mutaxassis ishtirokida ochib, ko'zdan kechiradi. Ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar topilgan taqdirda, tergovchi pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yadi yoxud ulardan nusxa ko'chirish bilan chegaralanadi. Agar ko'zdan kechirilgan jo'natmalarda ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar bo'lmasa, tergovchi ularni egalariga yetkazish yoki o'zi belgilagan muddatgacha ushlab turish haqida ko'rsatuv beradi.

Ushlangan jo‘natmalar ko‘zdan kechirilgan har bir holda bayonnoma tuzilib, unda qaysi pochta-telegraf jo‘natmalari ko‘zdan kechirilganligi, nimalar olinganligi va nimalar egalariga yuborilishi, nimalar esa vaqtincha ushlab qolinishi kerakligi, qaysi jo‘natmalardan nusxalar olinganligi ko‘rsatilishi lozim. Bayonnoma JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda tuziladi (JPK 167-modda).

Har qanday jo‘natma: oddiy, qimmatbaho, buyurtma xatlar, telegrammalar, banderollar, posilkalar, otkritkalar xatlab qo‘yilishi, ko‘zdan kechirilishi va olib qo‘yilishi mumkin. Jo‘natmalarning chiqib ketayotgani ham, kelib bo‘lgani ham xatlanishi mumkin. Xatlab qo‘yish muddati dastlabki tergov muddatidan oshmasligi lozim.

Ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ma‘lumotlar, hujjatlar, ashyolar topilgan taqdirda Tergovchi pochta-telegraf jo‘natmalarni olib qo‘yadi yoxud ulardan nusxa ko‘chirish bilan chegaralanadi. Nusxa ko‘chirish kseroks apparati orqali amalga oshirilishi zarur, chunki hujjatning asl nusxasidan kseroksda ko‘chirilganda uning nusxasi ushbu hujjatning qriminalistik aynanligiga mansub bo‘lgan belgilarini yo‘qotmaydi. Kseroksda olingan nusxa to‘la ravishda daliliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Kseroks ishlatilganligi va uning texnik ko‘rsatgichlari ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish bayonnomasida qayd etilishi kerak.

Jo‘natmalarni olib qo‘yish va ko‘zdan kechirishda tergovchi ularning mazmunini sir saqlash choralari ko‘rishi lozim. Aks holda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish tamoyili buzilgan hisoblanadi.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini olib qo‘yish va ko‘zdan kechirish ikki kishidan kam bo‘lmagan, shu muassasada ishlovchi xolislar ishtirokida o‘tkazilishi lozim. Bu esa jo‘natmalarning mazmuni sir saqlanishining kafolati hisoblanadi.

Ishga aloqador bo‘lmagan pochta-telegraf jo‘natmalarini tergovchi, surishtiruvchi ko‘zdan kechirgach va nusxasini olgach, egalariga yetkazishi yoki o‘zi belgilangan muddatgacha ushlab turishi haqida ko‘rsatuv berishi mumkin.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish bayonnomasi tuzilishi va u 90, 92-moddalarning talablariga to‘la rioya qilishi lozim. Ushbu bayonnomada ko‘zdan kechirilgan va olib qo‘yilgan obyektlar to‘liq tavsif etilishi, tasdiqlanishi lozim. (JPK 167-modda).

Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish chorasini qo‘l-lashga zarurat qolmasa, bu chora xatlab qo‘ygan tergovchi yoki sud tomonidan bekor qilinadi. Dastlabki tergov davomida ish tugatilganda, birinchi instansiya sudida esa, ishni tugatish haqida ajrim chiqarilganda yoxud hukm

qonuniy kuchga kirgach, xatlab qo'yish chorasi bekor qilinishi lozim (JPK 168-modda).

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yishni bekor qilish to'g'risida tergovchi maxsus qaror yoki sud maxsus ajrim chiqaradi va bu hujjat darhol aloqa muassasasining rahbariga yuborilishi lozim.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yishni bekor qilish to'g'risidagi qaror, ajrim aloqa muassasasiga kelib tushganidan so'ng o'z yuridik kuchiga ega bo'ladi va ushbu muassasaning rahbari tomonidan darhol bajarilishi va xatlab qo'yish harakatlari bekor qilinishi lozim.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yishni bekor qilish to'g'risidagi qaror dastlabki tergov jarayonida o'tkazilishi mumkin, agar jinoyat ishi bekor qilinadigan bo'lsa, sud muhokamasi paytida ajrim chiqariladi, jinoyat ishi bekor qilinishi to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa, sudning hukmi qonuniy kuchga kirganidan so'ng pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yishni bekor qilish to'g'risida ajrim chiqarilib, ushbu aloqa muassasasiga yuboriladi. Bu qaror yoki ajrimni chiqarish uchun prokurorning ruxsati kerak emas (JPK 168-modda).

14.5. Olib qo'yish va tintuv tergov harakatlarining natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazilgani to'g'risida JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya qilgan holda bayonnoma tuzadi.

Bayonnomada narsa va hujjatlarning aynan qayerda va qanday sharoitda topilganligi, ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki majburiy ravishda olinganligi ko'rsatilishi lozim. Barcha olingan narsa va hujjatlar bayonnomada birma-bir qayd qilinib, ularning miqdori, o'lchovi, og'irligi, har qaysisining o'ziga xos belgilari ko'rsatilishi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralishi va muhrlanishi lozim.

Olib qo'yish yoki tintuv vaqtida izlanayotgan narsa va hujjatlarni yo'q qilishga yoki yashirishga urinish hollari sodir bo'lgan taqdirda, bu hol surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ko'rilgan choralar ham ko'rsatilib bayonnomada aks ettirilishi lozim (JPK 163-modda).

Bayonnoma tintuv yoki olib qo'yish harakatlarini tugatgandan so'ng aynan shu tergov harakati o'tkazilgan joyida tuzilishi kerak.

Agar tintuv bayonnomasiga tintuv qilingan shaxs o'z imzosini qo'yishdan bosh tortsa, u holda xolislar va tergovchi ushbu faktni bayonnomada qayd etadilar va tasdiqlaydilar.

Bayonnomaning yakunlovchi qismida, shuningdek bayonnomaga qanday sxemalar, qoliplar ilova qilinganligi, tintuv qatnashchilarining qanday arznoma, shikoyat yoki e'tirozlari tushganligi, xolislarining takliflari, mutaxassislarining bergan tushuntirishlari qayd etilishi kerak.

Olib qo'yish bayonnomasida esa tergovchi qachon, qayerda, qaysi shaxslar ishtirokida olib qo'yishni o'tkazganligi, qanday obyektlar olinganligi, ularning to'liq ro'yxati va alohida belgilari, xususiyatlari qayd etiladi. Olib qo'yishda ishtirok etuvchi shaxslarga avvalambor ularning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirilishi lozim. Bayonnomadaga ushbu shaxslarning imzosi voqeliqda bo'lgan harakatlar shu hujjatda to'liq qayd etilganligi to'g'risida tasdiqlovchi belgi bo'lib xizmat qiladi. Agar shaxslar olib qo'yish paytida tergovchining harakatlari ustidan tegishli e'tirozlar, shikoyatlar bildirsalar ushbu e'tiroz va shikoyatlar majburiy ravishda bayonnomada qayd etishi kerak.

Olib qo'yishda qimmatbaho narsalar olinadigan bo'lsa, ular uchun moddiy javobgarlik shaxsning ishtirokini ta'minlab berish kerak (JPK 163-modda).

Olib qo'yish yoki tintuv to'g'risidagi qaror va bayonnomaning nusxasi yo sud majlisining olib qo'yishni o'tkazish to'g'risidagi bayonnomasidan ko'chirma tintilgan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a'zolariga, ular bo'lmagan taqdirda esa, tegishli hokimlik yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi. Zarur hollarda mazkur shaxslarga olib qo'yilayotgan hujjatlarning nusxalari beriladi (JPK 164-modda).

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishdan so'ng bayonnomaning nusxasi tintuv qilingan shaxsning yoki oila a'zosining qo'liga (ushbu a'zo voyaga yetgan shaxs bo'lishi lozim) berilishi kerak va bu to'g'rida ular ushbu hujjatning nusxasini olgani haqida imzo quyishlari kerak, agar ushbu shaxslar tintuvda ishtirok etmagan bo'lsalar, u holda bayonnomaning nusxasi mahalla fuqarolari yig'inining biron a'zosiga topshiriladi va u shu faktning to'g'riligini bayonnomaga imzo chekib tasdiqlaydi.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish to'g'risidagi qarorning nusxasi ham yuqorida qayd etilgan shaxslarga berilishi lozim va ular qarorning asl nusxasini imzolari bilan tasdiqlashlari kerak (JPK 164-modda).

Nazorat uchun savollar:

Olib qo'yish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Olib qo'yishning qanday turlari mavjud?

Olib qo'yish o'tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Olib qo'yish tergov harakatini jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkazilishi mumkinmi?

Olib qo'yishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Olib qo'yish ko'rsatish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

Tintuv tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi

Tintuv qanday turlari mavjud?

Tintuv o'tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Tintuv qanday xususiyatlarga ega?

Tintuv tergov harakatini jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkazilishi mumkinmi?

Tintuv o'tkazishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Tintuv natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

TINTUV BAYONNOMASI

20__ yil «__» _____ shahri

(tintuv o'tkazayotgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, sharifi)

20__ yil «__» _____ kuni chiqarilgan tintuv o'tkazish haqidagi qarorga asosan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 160-161, 163-164-moddalariga rioya qilib, fuqaro _____

yashash manzil va _____ yordamchi xo'jalik xonalarida

Xolislar:

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

Tintuv qilinayotgan fuqaro _____

Mutaxassis _____

Vakillar _____

_____ ishtirokida tintuv o'tkazdim.

Xolislarga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.S.H.) 2. _____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

Mutaxassisga O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan mutaxassisning huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

Tintuv natijasida quyidagilar aniqlandi: _____

Bayonnomada nomlari qayd etilgan narsa va hujjatlar

(olib qo'yilgan yoki kimga saqlash uchun topshirilganligi ko'rsatilishi lozim)

Tintuv o'tkazish vaqtida ishtirokchilardan quyidagi arzlar tushdi _____

Tintuv soat «_____» da boshlanib, soat «_____» da tugallandi.

Tintuvni o'tkazdi:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.S.H.)

Tintuvda qatnashdilar:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.S.H.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.S.H.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.S.H.)

Xolislar:

(imzo)

(F.I.S.H.)

(imzo)

(F.I.S.H.)

Bayonnoma nus'hasini oldim:

(imzo)

(F.I.S.H.)

**Shaxsiy tintuv
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha, _____

Xolislar:

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi va yashash manzili)

ishtirokida O'zbekiston Respublikasi JPKning 162-moddasiga asosan shaxsiy tintuvdan o'tkazdim.

Xolislarga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasi ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

(imzo)

(F.I.O)

(imzo)

(F.I.O)

Xolislar:

(imzo)

(F.I.O)

(imzo)

(F.I.O)

Tintuv qilingan shaxs

(imzo)

(F.I.O)

Tergovchi

(imzo)

(F.I.O)

Hujjatlarni olib qo'yish haqida
Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni)

Yuqoridagilarni inobatga olib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 157, 159-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____ olib qo'yilsin
(qayerdan, kimdan, qanday hujjatlar olinishi lozimligi)

va bu haqda manfaatdor tараflarga e'lon qilinsin.

2. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.
(tuman yoki shahar)

Tergovchi

(imzo)

(F.I.O)

**Hujjatlarni olib qo'yish haqida
B A Y O N N O M A**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JPKning 90-92, 163-moddasiga rioya qilib, hujjatlarni olib qo'yish tergov harakatini _____ va xolislar:
(olib qo'yilayotgan joy vakili)

1. _____

2. _____

_____ ishtirokida o'tkazdim va mazkur bayonnomani tuzdim.

Tergov harakatini boshlashdan oldin xolislariga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo)

_____ (F.I.O)

_____ (imzo)

_____ (F.I.O)

_____ olingan hujjatlar 22/11-953-sonli jinoyat ishiga qo'shish uchun olindi.

Bayonnoma ishtirokchilarga o'qib eshittirildi. Ular tomonidan hech qanday qo'shimcha va e'tirozlar bildirilmadi.

Xolislar:

_____ (imzo)

_____ (imzo)

_____ (katnashgan xodimlar)

_____ (imzo)

_____ (katnashgan xodimlar)

_____ (imzo)

Tergovchi

_____ (imzo)

_____ (F.I.O)

_____ning
pochta-telegraf _____ jo‘natmalarini
xatlash va olib qo‘yishga
«RUXSAT BERAMAN»

(tuman shaxar prokuraturasi, prokuror lavozimi,

unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

20 ____ yil « ____ » _____

**Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash va olib qo‘yish haqida
Q A R O R**

20 ____ yil « ____ » _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni
o‘tkazib, quyidagilarni

ANIQLADIM:

Dastlabki tergov hujjatlariga ko‘ra _____

Hozirgi vaqtda _____ tergovdan yashirinib yurganligi, yashirinib
yurgan joyini o‘zi ro‘yxatda turgan joy bo‘yicha oila a‘zolariga ma‘lum qilishi
mumkinligini nazarda tutib va O‘zbekiston Respublikasi JPKning 36, 166-moddasini
qo‘llab,

QAROR QILDIM:

1. _____
(pochta-telegraf jo'natmalari xatlanayotgan shaxsni to'lik ma'lumotlari)

2. Ushbu qaror nusxasi _____ aloqa bo'limi boshlig'iga yuborilib,
(tuman, shahar)

_____ oilasi nomiga keladigan pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan
(F.I.O)

kechirish yoki olish maqsadida Toshkent shahri IIBB Tergov boshqarmasi tergov-
chisiga _____ telefon raqamlari orqali zudlik bilan xabar berish va unga qadar
(telefon raqami)

pochta-telegraf jo'natmalarini ushlab turish topshirilsin.

3. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.
(tuman, shahar)

Tergovchi _____
(unvoni) (imzo) (F.I.S.H.)

(tuman shaxar prokuraturasi, prokuror lavozimi,

unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

Tintuv o‘tkazilganligi haqida X A B A R N O M A I

Ushbu orqali Sizga shuni ma’lum qilamanki,

Tergovchi

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

¹ Eslatma: Tintuv o‘tkazilgani haqidagi xabarnoma tergovchi tomonidan ikki nusxada tuziladi. Tergov bo‘limi kanselariyasidan sanasi va raqami ko‘rsatilgan holda ro‘yxatdan o‘tkazilib, asl nusxasi jinoyat ishiga tikiladi, nusxasi ma’lumot uchun prokurorga yuboriladi.

Mol-mulkni xatlash haqida
Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Dastlabki tergov hujjatlariga ko'ra _____

Yetkazilgan zararining qoplanishini ta'minlash maqsadida gumon qilinuvchi _____ ning mol-mulkini xatlash lozim bo'ladi.

(F.I.SH)

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 290-moddasini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____
(mol-mulk hatlanishi lozim bo'lgan shaxsning to'liq ma'lumoti)

mol-mulki qayerda bo'lishidan qat'i nazar, xatlansin va bu haqda unga e'lon qilinsin.

2. Qarorning nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.
Tergovchi

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 2011-yil «__» aprel kuni e'lon qilindi.

(F.I.SH) yoki uning vakili

(imzo)

(F.I.SH.)

Shu bilan mol-mulkni xatlash tergov harakati tugatildi, bu haqda bayonnoma tuzildi.

Bayonnoma ishtirokchilarga o‘qib eshittirildi. Ishtirokchilardan ariza, shikoyat va qo‘shimchalar bildirilmadi, hammasi to‘g‘ri yozildi.

Xolislar

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Tergovchi

_____ (unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Bayonnoma bilan tanishdim va nusxasini oldim.

Mol-mulki xatlangan shaxsning vakili

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

20__ yil « » _____

15-BOB. KO‘RSATUVLARNI HODISA SODIR BO‘LGAN JOYDA TEKSHIRISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

15.1. «Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish» tushunchasi va asoslari

Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ko‘pincha jinoyat hodisasi bilan bog‘liq hamda muayyan joyda (yerda yoki xonada) sodir bo‘lgan faktga oid guvohlarning, jabrlanuvchilarning, gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning ko‘rsatuvlarini tekshirish zarurati paydo bo‘ladi. Bunday holda ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 132-moddasiga binoan Tergovchi, sud gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, guvohlar hamda jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini tekshirilayotgan hodisa sodir bo‘lgan joyda holatlarni qayta tiklash yo‘li bilan tekshirib ko‘rishga haqlidir.

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati vaqtida harakatlarni amalga oshirish tashabbusi ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga tegishli bo‘ladi.

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish shaxs tomonidan ko‘rsatuv berish va oldin bergan ko‘rsatuvlarni o‘zining harakati bilan ko‘rsatib berishdan iborat. Mazkur tergov harakati hodisa joyida so‘roq qilish, hodisa sodir bo‘lgan joyda obyektlarni tanib olish uchun ko‘rsatish, shaxs ishtirokida ko‘zdan kechirish va eksperimentdan o‘zining maqsadi, o‘tkazilish asoslari va o‘tkazilish tartibi bilan farqlanadi.

Jinoyat – protsessual qonunchiligiga binoan ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirishdan quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

1) ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga ma‘lum, tergovchi va sudga esa noma‘lum bo‘lgan narsalar, hujjatlar, izlar va belgilarni topish;

2) shaxsning tergov yoki sud muhokamasi davomida topilgan narsalar, hujjatlar, izlar qayerda bo‘lganligini ko‘rsatib berishi;

3) bir necha shaxsning ayni bir hodisa to‘g‘risida bergan ko‘rsatuvlaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash uchun ishda ahamiyatli bo‘lgan joy yoki yo‘nalishni shaxs ko‘rsatib berishi;

4) holatlarni qayta tiklash va hodisa sodir bo‘lgan joydagi sharoit bilan qiyoslash orqali ko‘rsatuvlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish faol harakat bilan sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda keng qo'llaniladi. Ko'rib chiqilayotgan tergov harakatining o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan va aniqlanayotgan shaxslar oldin bergan ko'rsatuvlarini o'zlari ko'rsatgan muayyan joyda qaytaradilar. Bu esa ko'rsatuvlarni haqiqiy holat bilan darhol solishtirish imkonini beradi.

Hodisa sodir bo'lgan joyda ko'rsatuvlar ish uchun ahamiyati bo'lgan hodisa ro'y bergan joyga nisbatan, hodisa ishtirokchilari harakatlari yoki boshqa holatlarga nisbatan tekshirilishi mumkin. Ushbu tergov harakatining natijasi nafaqat muayyan shaxslarning ko'rsatuvlarini tekshirish va aniqlash, balki yangi dalillar olish hisoblanadi. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish borasida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs ish bo'yicha qandaydir ashyoviy dalillar topishga yordam bergan taqdirda yangi dalillar olish mumkin bo'ladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish natijalari -bu shaxslarning muayyan hodisalar haqida bilganlari faqat ularning jinoyat sodir etishga daxldorligidan darak bersagina dalil kuchiga ega bo'ladi.

Qonun ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishni surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan xolislari ishtirokida o'tkazilishini, basharti bu tergov harakatini sud o'tkazayotgan bo'lsa, taraflarning ishtirokida o'tkazilishini talab qiladi. Zarur hollarda hodisa sodir bo'lgan joyda ko'rsatuvlarni tekshirishga mutaxassislar va ekspertlar jalb qilinishi mumkin (JPK 133-modda).

Bulardan tashqari ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatining xususiyatlarga ega:

1) Bir vaqtning o'zida bir necha shaxsning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish yakka tartibda o'tkaziladi.

2) Faqat gumon qilinuvchi (sudlanuvchi), ayblanuvchi, guvohlarning ko'rsatuvlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirilishi mumkin.

3) Surishtiruv va dastlabki tergovda ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs va ikki nafar xolislarning, sudda esa ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs va taraflarning ishtirok etishi shart.

15.2. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazish tartibi

Ushbu tergov harakatini o'tkazishdan avval tergovchi ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishga taklif etilgan barcha qatnashchilarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushun-

tiradi va bu to'g'rida bayonnomada qayd etadi hamda qatnashchilarning imzolari bilan tasdiqlaydi; qatnashchilarga qanday hollar tekshirilishini tushuntirib, har bir qatnashchi oldiga tegishli vazifalar qo'yadi va tegishli xavfsizlik choralarini ko'radi. Ushbu tergov harakatida xolislar soni ikkitadan kam bo'lmasligiga kerak, agar zaruriyat bo'lsa, tergovchi tergov harakatiga mutaxassis yoki ekspertlarni jalb etishi mumkin.

Tergovchi, surishtiruvchi yoki sud ushbu tergov harakatini boshlashdan avval va yuqoridagi harakatlarni o'tkazganidan so'ng tekshiriladigan ko'rsatuvlarni tergov harakatining qatnashchilari oldida e'lon qiladi va to'liq ravishda o'qib chiqadi va shundan so'ng ko'rsatuvlari tekshiriladigan shaxsdan so'raydi. Agar guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuvlari tekshiriladigan bo'lsa, u holda ular bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berish yoki ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish to'g'risida ogohlantiriladi va bayonnomada bu to'g'rida o'z imzolarini qo'yadilar. Shundan so'ng ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning o'zi o'z ko'rsatuvlarini erkin ravishda bayon etib, hodisa sodir bo'lgan joyga qanday yo'l bilan borish kerakligani aytadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga borish paytida ko'rsatuvlari tekshiriladigan shaxsdan qanday belgilarga ko'ra u borayotgan yo'nalishni eslab qolganligi va hodisa bo'lgan joyni tanib olganligi to'g'risida so'raladi va uni bayonnomada qayd etish kerak bo'ladi. Shu paytda ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga biron bir yo'lni ko'rsatuvchi imoishora qilish, yordam ko'rsatish yoki uning yo'nalishlarni tanlashda ixtiyorini cheklash man etiladi. Qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsga nisbatan, agar uning ko'rsatuvlari tekshirilayotgan bo'lsa, tegishli xavfsizlik choralarini qabul qilinadi.

Erkin so'zlab, tegishli harakatlarni namoyish qilgandan so'ng, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga detallashtiruvchi, shuningdek, uning eslash qobiliyatini faollashtiruvchi savollar berish mumkin, ammo ishorali savollar berish man etiladi.

Tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslar hodisa joyida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga tergovchining ruxsati bilan savol berishlari mumkin, lekin avval savolning mazmunini tergovchining o'ziga bayon etishlari lozim.

Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs hodisa sodir bo'lgan joyda bir vaqtning o'zida ko'rsatish, ko'zdan kechirish yoki ba'zi narsalarni, hujjatlarni, izlarni olish yoxud muayyan harakatlarni namoyish qilish orqali tushuntirish beradi yoki o'zining avval bergan ko'rsatuvlariga aniqlik kiritadi.

15.3. Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatining jarayoni va natijalarini qayd qilishda tuziladigan protsessual hujjatlar

Ko‘rsatuvlar hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirilgani haqida tergovchi JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq bayonnoma tuzadi (JPK 134-modda).

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish bayonnomasi ushbu tergov harakatini qayd etish bo‘yicha asosiy hujjat hisoblanib, u kirish, tavsif va yakunlovchi qismlarga bo‘linadi.

Bayonnomaning yakunlovchi qismida quyidagilar qayd etilishi kerak: agar tergov harakati videoyozuv vositalariga olingan bo‘lsa, bayonnomada videoyozuvga olinganligi va u namoyish qilinganligi to‘g‘risida tasdiqlangan belgi bo‘lishi kerak, agar ovozli yozuv eshittirilgan bo‘lsa, buning belgisi ham tergov harakati qatnashchilari tomonidan bayonnomada tasdiqlanadi; bayonnomaga videoyozuv; fonogramma, shuningdek har xil chizmalar ilova qilinganligi belgilanib, tasdiqlanadi; tergov harakati jarayonida olingan izlar, ashyoviy dalillar, namunalarning ro‘yxati keltiriladi va tasdiqlanadi hamda bu obyektlar nimaga o‘ralgani qayd etiladi; tergov harakati qatnashchilari qanday ariza va e‘tirozlar, shikoyatlar berganliklari bayonnomada qayd etiladi va bayonnoma tergov harakatini to‘liq va aniq aks etganligi qatnashchilarning imzolari bilan tasdiqlanadi (bayonnomaning har bir sahifasi ham shu qatnashchilarning imzolari bilan tasdiqlanishi kerak).

Nazorat uchun savollar:

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakati qanday holatlarda o‘tkaziladi?

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish qanday turlari mavjud?

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish qanday qoidalarga rioya etiladi?

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish qanday xususiyatlarga ega?

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

**Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnomani tuzuvchi shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 132-133-moddalariga rioya qilgan holda,

(tergov harakatida ishtirok etuvchi ekspert, mutaxassis, tezkor xodimlarning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

va xolislar:

1. _____
(familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan yili va yashash manzili)

2. _____
(familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan yili va yashash manzili)

lar ishtirokida _____ning ko'rsatuvlarini
(ko'rsatuvlari tekshirilayotgan ishtirokchining familiyasi, ismi va sharifi)

jinoiy hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirdim va ushbu haqda O'zbekiston Respublikasi JPKning 134-moddasiga asosan mazkur bayonnomani tuzdim.

Xolislarga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.) 2. _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Mutaxassisga O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Guvoh _____yolg'on guvohlik berganligi hamda jinoyat protsessi katnashchilarining o'z zimmasidagi vazifasini bajarishdan bo'yin tovlaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 238, 240-moddalariga asosan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Ayblanuvchi _____ga O'zbekiston Respublikasi JPKning 46-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish soat _____da boshlandi,

soat _____ da tamomlandi.

(ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish qanday sharoitda o'tkazilgani,

qanday joylar va qanday narsalar ko'rsatilgani, hodisa sodir bo'lgan joyda ko'rsatuvlar

mazmuni qanday bo'lgani, sharoit va holatlarni tiklash nimada o'z aksini topgani, shaxs

o'zining avvalgi ko'rsatuvlariga qanday aniqliklar kiritgani ko'rsatilishi lozim)

Bayonnoma ishtirokchilarga o'qib eshittirildi. Ularga O'zbekiston Respublikasi JPKning 92-moddasiga asosan, shu bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan o'z mulohazalarini aytishga haqli ekanliklari tushuntirildi.

(qo'shimcha fikr va mulohazalar bildirilsa yoziladi)

Xolislar:

(imzo)

(F.I.SH.)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ayblanuvchi (gumon qilinuvchi yoki guvoh)

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi

(imzo)

(F.I.SH.)

Mutaxassis va boshqa ishtirokchilar:

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Tergovchi

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

16-BOB. EKSPERIMENT TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISHDA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

16.1. Eksperiment tergov harakati tushunchasi va o‘tkazish asoslari

Eksperiment boshqa tergov harakatlariga nisbatan kam o‘tkaziladi, chunki eksperimentni o‘tkazish ba’zi hollarda muayyan moddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, hodisani qayta tiklash uchun yo‘l harakati, ishlab chiqarish jadvali va boshqa harakatlarni cheklash zarur bo‘ladi.

Eksperiment – maxsus, tergov qilinayotgan hodisaga maksimal yaqinlashtirilib tashkil qilingan sharoitlarda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan haqiqiy ma’lumotlarni aniqlash maqsadida tajribalar va sinovlar o‘tkazishdan iborat bo‘lgan tergov harakatidir.

Eksperiment o‘tkazish asoslari va tartibi JPKning 153-156-moddalari bilan tartibga solingan.

Eksperiment guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini, boshqa dalillarni tekshirish, shuningdek ish yuzasidan vujudga kelgan taxminlarni o‘rganilayotgan hodisaning muayyan harakatlarini, vaziyatini va holatlarini qayta tiklash yordamida kerakli tajribalar o‘tkazish maqsadida o‘tkaziladi. Masalan, ko‘rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning xonaga kirish usuli, qandaydir hodisalarni yorug‘likning muayyan sharoitlarida, masofadan turib kuzatganlik imkoniyati, ko‘rish organlarining holati. Eksperiment yordamida so‘roq qilinayotgan shaxsning ko‘rsatuvlari tegishli bo‘lgan hodisalar, harakatlar, suhbatlarning muayyan sharoitlarda eshitalish darajasi tekshirilishi mumkin.

Eksperiment tergov harakatining maqsadi uning muhim xususiyatini belgilaydi. U maxsus tekshiruv tergov harakati hisoblanadi. Eksperimentni o‘tkazish uchun oldindan dalillar yig‘ilgan bo‘lishi lozim. Shuning uchun, ham mazkur tergov harakatini na kechiktirib bo‘lmaydigan va na dastlabki tergov harakatiga kirmaydi.

Mazkur tergov haraktining mazmuni eksperiment tariqasida tadqiqot olib boriladigan, lekin mustaqil maxsus bilim qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lmagan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida eksperimentni ekspertizadan farq qiluvchi tomoni hisoblanadi.

Eksperimentni ikki guruhga birlashtirish mumkin:

- harakatlarni olib borish;
- hodisalarni qayta tiklash.

Maqsadiga ko‘ra birinchi guruh imkoniyatlarni aniqlashga bo‘linadi:

a) biror-bir faktni muayyan sharoitda qabul qilish (masalan, guvoh shu masofadan eshitib, ko‘ra olar edimi);

b) muayyan harakatni sodir etish (masalan, ayblanuvchi xona tuynugiga kira oladimi va u yerdan muayyan muddat ichida qancha narsa olib chiqib bo‘ladi);

v) muayyan bilimga ega bo‘lib, harakatni sodir etish (masalan, ayblanuvchi sohta pullarni shu jihoz bilan tayyorlay oladimi va boshq.).

Hodisalarni qayta tiklashga qaratilgan ikkinchi guruh eksperiment:

a) biror-bir hodisa yoki faktning kelib chiqish imkoniyatlari (masalan, shu muddat ichida muayyan temir predmetida zanglash hodisasi yuz berish bermasligi);

b) izlarning shakllanish mexanizmi (ayblanuvchidan olingan qaysi asboblardan eshikni buzilgan joylaridagi izlarga to‘g‘ri kelishi) aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Tergovchi va sud guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilarning ko‘rsatuvlarini, boshqa dalillarni, shuningdek ish yuzasidan qilingan tasmol, tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlarni tiklash hamda zaruriy tajribalar o‘tkazish orqali tekshirishga haqlidir.

Eksperiment biror hodisani idrok qilish, muayyan harakat-larni bajarish, biror hodisaning sodir bo‘lish imkoniyatini tekshirish, shuningdek hodisaning yuz berish va izlarning qolish yo‘sinlarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. (JPK 153-modda).

Eksperiment tajriba harakatlarini o‘tkazishdan iborat bo‘lib, muqaddam bo‘lib o‘tgan vaqtda hodisalarni, voqealarni va jinoyat ishiga aloqador bo‘lgan hollarni voqelikda haqiqatdan bo‘lganini yoki bo‘lmaganligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Har qanday eksperimentning tarkibiy qismi sifatida muqaddam bo‘lib o‘tgan hodisalarni voqeliqda aynan ma‘lum sharoitlarda bo‘lib o‘tganligi tekshiriladi, shuning uchun tajriba harakatlarini o‘tkazishdan avval o‘sha hodisa, voqea bo‘lgan sharoitlarni tiklab, eksperimentni o‘tkazish lozim, ya’ni eksperiment biror hodisani idrok qilish, eshitish, muayyan harakatlarni bajarish, biror hodisaning sodir bo‘lish sababini tekshirish, shuningdek hodisaning kelib chiqishi va izlarning qolish sabablarini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Tergovchi guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilarning ko‘rsatuvlarini, boshqa dalillarni, shuningdek, ish yuzasidan qilingan ehtimol fikr tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlarni tiklash hamda zaruriy tajribalar o‘tkazish orqali tekshirishga haqlidir.

Eksperiment ularga ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, guvohlarning ko'rsatuvlarida bergan ma'lumotlarni tekshirishga, voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tanib olish uchun ko'rsatish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish natijasida olingan axborotni tekshirishga imkon beradi.

Eksperiment tergovchida mavjud bo'lgan turli tasmollarni va ehtimolga mos bo'lgan fikrlarni tekshirish uchun ham o'tkazilishi mumkin.

Eksperiment jinoyat ishi bo'yicha mavjud bo'lgan ma'lumotlar va ehtimolga qarshi bo'lmagan fikrlarni tekshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar va fikrlar ma'lum sharoitlarda voqelikda bo'lganligiga ishonch hosil qilishga qaratilgan. Jumladan, eksperiment jarayonida odam ma'lum masofani ma'lum vaqt ichida yugurib yoki transport vositalarida bosib o'tishi tekshirilishi mumkin. Bundan tashqari ushbu protsessual harakat o'tgan voqealarning mexanizmini yoki izlarning vujudga kelish mexanizmini tekshirishi maqsadida ham o'tkaziladi. Masalan, tintuv paytida aniqlangan kalitlar bilan ayblanuvchi tegishli qulfni ochish imkoniyatiga ega bo'lganmi yoki unda topilgan boshqa vositalar orqali qulfni ochganmi. Tajriba orqali biror bir hodisaning bor yoki yo'qligiga tasdiqlanishi mumkin.

Mazkur tergov harakati qayta yoki bir necha marotaba o'tkazilishi mumkin. Shunga asosan har gal eksperiment va uning natijalari qanday bo'lganligi haqida bayonnoma tuziladi. Eksperimentning ijobiy va salbiy natijalari ham daliliy ahamiyatga ega.

Eksperiment o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomalar ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, himoyachi va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan ham berilishi mumkin.

16.2. Eksperiment o'tkazishning protsessual tartibi

Tergovchi eksperiment o'tkazish to'g'risidaga qaror chiqaradi. (JPK 153-modda). Eksperiment natijasida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga mulkiy zarar yetkazilishi, ishlab chiqarish tartibotining, transport vositalari harakati jadvalining buzilishi va boshqa noxush oqibatlarining kelib chiqishi ehtimol bo'lsa, surishtiruvchining, tergovchining bunday eksperiment o'tkazish to'g'risidagi qaroriga prokuror sanksiya berishi lozim.

Eksperiment jamoat tartibi yoki axloq normalarining buzilishiga olib keladigan bo'lsa, uni o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Ekspert tomonidan o'tkaziladigan eksperiment sud ekspertizasining tarkibiy qismi hisoblanadi. (JPK 154-modda).

Agar ushbu tergov harakatini o'tkazish jarayonida fuqarolar mulkiga, korxonalarga, muassasalarga, tashkilotlarga zarar yetkazilishi yoki transport

vositalari harakat jadvalining buzilishi yoki boshqa oqibatlarining kelib chiqishi ehtimoli bo'lsa, tergovchining, surishtiruvchining bunday eksperiment o'tkazish to'g'risidagi qarori prokuror tomonidan sanksiya berilishi lozim, aks holda bunday tergov harakatini o'tkazish man etiladi.

Xuddi shunday jamoat tartibini yoki axloqiy qoidalarni buzish bilan bog'liq harakatda ham eksperiment o'tkazish tavsiya qilinmaydi, bunday hollarda ushbu eksperimentni o'tkazgan shaxslar tegishli javobgarlikka tortiladilar.

Ekspert tomonidan tashkillashtirilib o'tkaziladigan eksperimentlar eksperiment maqomiga ega bo'lmasdan, sud ekspertizaning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Eksperimentni o'tkazish qarorida eksperiment jarayonida kimlar ishtirok etishi aniq qayd etilishi kerak. Bu tergov harakatida xolislar zaruriy ravishda ishtirok etadilar, agar eksperiment jarayonida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs tegishli davlat tilini bilmasa, u holda u bilan birga tarjimon ishtirok etishi lozim. Agar eksperiment paytida guvoh yoki jabrlanuvchining yoshi 14 dan oshmagan bo'lsa, bu hollarda o'qituvchi taklif qilinadi. (JPK 154-modda).

Eksperiment xolislar ishtirokida o'tkazilishi kerak.

Eksperiment o'tkazishga mutaxassis va ekspert, shuningdek tajriba harakatlarini olib boruvchi shaxslar jalb qilinishi mumkin. Murakkab eksperimentlar kamida ikki nafar xolis va bir necha mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi mumkin. Eksperiment o'tkazishga, shuningdek ko'rsatuvlari tekshirilishi lozim bo'lgan shaxslar ham jalb qilinishi lozim. Bunda guvohlar va jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilishi lozim. Eksperiment ishtirokchilariga uning maqsadi va o'tkazilish tartibi tushuntiriladi.

Tajriba harakatlarini o'tkazishdan oldin o'rganilayotgan hodisa sharoitlari tekshirilayotgan ko'rsatuv yoki tasmollarga to'la muvofiq holda tiklangan bo'lishi lozim. Buning uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning har biriga alohida-alohida o'zi qatnashgan yoki shohid bo'lgan hodisaning sharoit va holatlarini tiklash taklif qilinishi mumkin. Shundan keyin tergovchi tegishli tajriba harakatlarini o'tkazadi, shu maqsadda o'lchash, fotosuratga tushirish, kino-tasvirga olish, ovoz yozish, videoyozuv, reja, sxema va chizmalar tuzish, eksperimental qoliplar va izlarning nusxalarini tayyorlash mumkin.

Eksperiment o'tkazish sharoiti tiklanayotgan harakat yoki hodisalar yuz bergan sharoitga iloji boricha o'xshash bo'lishi lozim. Tajribalar imkon boricha bir necha marta o'tkaziladi. Tajribalarning sharoitlari o'zgartirilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertga eksperiment yuzasidan savol berilishi mumkin. Sudning ijazati bilan eksperimentda ishtirok etayotgan shaxslarga taraflar ham savol berishi mumkin. Taraflar va eksperimentda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar surishtiruvchining, tergovchining va sudning e'tiborini, ularning fikricha ish holatini aniqlashga yordam berishi mumkin bo'lgan barcha holatlarga qaratishga, eksperiment sharoitiga aniqlik kiritishni va tajriba harakatlarini takrorlashni talab qilishga haqlidir. Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs eksperiment munosabati bilan o'zining qo'shimcha so'roq qilinishini talab qilishi mumkin. (JPK 155-modda).

Eksperiment o'tkazishdan avval quyidagi tayyorgarlik harakatlarini amalga oshirish kerak:

a) eksperiment joyi, vaqti, uni o'tkazish sharoitlari, shu jumladan tekshiriladigan joydagi ob-havo sharoitlari o'rganiladi;

b) eksperiment ishtirokchilarining tarkibi belgilanadi;

v) eksperiment o'tkazish uchun tegishli bo'lgan predmetlar olinadi (yo'q bo'lgan predmetlarning modellarini ishlab chiqish va bu predmetlar o'z xususiyatlari bo'yicha eksperiment o'tkazish joyida yo'qolgan predmetlarning xususiyatlari bilan bir bo'lish lozim, masalan, manekenlar, mulyajlar va hokazolar);

g) qanday faktlar tekshirishga yaroqligi belgilanadi;

d) eksperiment rejasi tuziladi va ushbu tergov harakatida qatnashuvchi shaxslarning vazifalarini, eksperiment o'tkazish uchun zarur bo'lgan predmetlar, materiallar va boshqa vositalarning tayyorligi tajriba harakatlarining ketma-ketligini, eksperiment o'tkazish joyida voqeada bo'lgan sharoitlarni to'la (imkoni boricha) tiklash yo'llari, kerak bo'ladigan fan-texnika vositalari, to'siqlar qo'yish bo'yicha choralarni ko'rish;

ye) eksperiment o'tkazish joyini qo'riqlash choralari (bu to'g'rida surishtiruv organiga murojaat qilinadi);

j) tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari yoki mulk egasi eksperiment o'tkazish to'g'risida ogohlantiriladi;

z) zarur bo'lsa, eksperiment o'tkaziladigan joy bilan dastavval tanishib chiqish kerak;

i) eksperimentda qatnashuvchi shaxsga axborot sifatida eksperiment to'g'risidagi ma'lumot hajmi belgilanadi;

k) eksperiment o'tkazish uchun tegishli transport vositalari tayyor holatga keltiriladi.

Odatda eksperiment o'tkazish sharoitlari hodisa sodir bo'lgan sharoitlarga mutlaqo mos bo'lgan taqdirda uni o'tkazish tavsiya etiladi.

Agar tajriba harakatlarini ijro etuvchi odam uni bajarmasa, uning o'rniga bu kuchga ega bo'lgan boshqa shaxs mazkur tajriba harakatlarini o'tkazishga taklif qilinadi (masalan, biror to'siqdan oshib o'tish harakatlarida – o'sha shaxsga o'xshash, ya'ni bo'yi to'liqligi mos bo'lgan boshqa shaxs uning o'rniga ishtirok etishi, biron narsani ko'rish yoki eshitish harakatlarini tekshirishda o'sha shaxsga ko'rish va eshitish qobiliyati jihatidan mos keluvchi shaxs tanlab olinib jalb qilinishi kerak).

Eksperiment paytida tegishli ko'rsatuvlar yoki tasmollar har tomonlama tekshirilishi lozim. Buning uchun gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, jabrlanuvchiga, guvohlarga har biriga alohida-alohida o'zi qatnashgan yoki shohid bo'lgan hodisani tiklash tavsiya qilinadi. Shundan keyin tergovchi tegishli tajriba harakatlarini o'tkazadi. Ushbu tajriba harakatlari murakkab bo'lsa, bir necha bosqichga bo'lib ijro etilishi mumkin. Shu maqsadda o'lchash, fotosuratga, kinoga, videoga olish, ovoz yozish, reja, tasvir va chizmalar tuzish, eksperimental qoliplar va izlarning nusxalarini tayyorlash mumkin.

Ekspert va mutaxassis, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarga eksperiment yuzasidan savol berishga haqli va bu savollar eksperiment sharoitlariga, uning natijalariga, eksperimentni amalga oshirishda kerak bo'lgan jihozlarga va boshqa muhim holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tergovchiing ijozati bilan eksperimentda ishtirok etuvchi shaxslar ham savol berish huquqiga ega. Ushbu shaxslar tergovchi, surishtiruvchi va sudning e'tiborini ish holatini aniqlashga ko'maklashadigan barcha holatlarga qaratishga, eksperiment sharoitiga aniqlik kiritishga haqlidirlar. Bu borada ularning barcha fikrlari bayonnomada qayd etilishi kerak va bu shaxslar eksperimentda o'tkaziladigan tajriba harakatlarini yana takrorlash to'g'risida iltimosnoma berish huquqiga egadirlar.

Eksperiment jarayonida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs o'zining qo'shimcha so'roq qilinishini talab qilishi mumkin, shuning uchun tergovchi eksperiment o'tkazishdan avval eksperimentga doir barcha savollar bo'yicha ushbu shaxsni mufassal so'roq qilish lozim.

16.3. Eksperiment natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Eksperiment o'tkazishda tajriba harakatlari bajarilganidan keyin har bir harakatning jarayoni va uning natijalari JPKning 90-92-moddalariga muvofiq ravishda tuziladigan bayonnomada qayd etiladi.

Eksperiment jarayonida amalga oshirilgan natijalar voqelikka nisbatan baholanishi kerak va agar ular bir-biriga zid bo'lsa, ya'ni ma'lum harakatning

natijasi boshqa harakatning natijasiga mos kelmasa, u holda eksperiment natijalari voqelikda bo'lish-bo'lmasligi to'g'risidagi savolga aniq javob bermasligi ayon bo'ladi, eksperiment jarayonida salbiy natija olingan bo'lsa, u holda bunday holat voqeliqda bo'lmaganligi o'z tasdig'ini topadi (bu holat eksperiment natijalari bilan tasdiqlanadi). Agar eksperiment jarayonida izlar aynan voqelikda bo'lib o'tgan hodisa sharoitlariga mos kelishi va aynan shunday iz yuzaga kelganligi to'g'risida dalolat bersa, u holda bu natijalar voqelikka to'g'ri deb tan olinishi kerak.

Eksperiment jarayonida olingan ijobiy natijalar bo'lib o'tgan voqeaning harakatalariga nisbatan mos bo'lganligi ushbu harakatlarni (tekshirilayotgan harakatlarni) voqelikda bo'lishini qayd etadi, lekin bu voqeliqda bo'lish holati ehtimollik darajasiga ega bo'ladi (ya'ni bu harakatlar voqelikda bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin haqiqatdan ham bo'lganmi yoki yo'qmi bu javob aniq ravshan bo'lmaydi).

Eksperiment jarayoni va uning natijalari bayonnomada batafsil aks ettirilishi kerak. (JPK 155-modda).

Bayonnomada quyidagilar aks ettirilishi kerak:

eksperiment qanday maqsadda, qachon, qayerda va qanday sharoitda o'tkazilganligi;

hodisaning sharoitini va holatini tiklash aynan nimalarda o'z aksini topganligi;

qanday tajriba harakatlari qay tartibda, kim tomonidan va necha marta o'tkazilganligi;

qanday natijalar olinganligi (JPK 156-modda).

Eksperiment bayonnomasi kirish, tavsif, yakunlovchi qismlardan iborat bo'ladi.

Bayonnomaning yakunlovchi qismi quyidagilardan iborat bo'lishi shart: a) eksperimentda ishtirok etgan shaxslarning keltirilgan arizalari, shikoyatlari va e'tirozlari; b) eksperiment jarayonida qanday rejalar, sxemalar, chizmalar, buyumlar, obyektlar ishlab chiqilganligi (ularning to'liq shakli, rangi, kattaligi, eni, qalinligi va boshqa moddiy parametrlari ko'rsatilishi) va ularni bayonnomaga ilova qilinganligi qayd etilishi lozim; v) bayonnoma barcha ishtirokchilar tomonidan tanishib chiqilgani to'g'risidagi ma'lumotlar va bu ma'lumotlar ular tomonidan tasdiqlanishi lozim; barcha qatnashchilar bayonnomaning har bir sahifasiga imzo chekishlari kerak. Eksperiment paytida qo'shimcha vositalar (foto, kino, videotasvirlar va hokazolar) ishlatilganligi ham qayd etilishi va tasdiqlanishi kerak.

Agar bayonnoma yuqoridagi talablarga rioya qilinmasdan qayd etilgan bo'lsa, u holda bu hujjat yuridik kuchga ega bo'lmaydi, eksperiment jarayoni va

natijalari protsessual talablarga zid holda qayd etilgan deb topiladi. (JPK 155-modda).

Nazorat uchun savollar:

Eksperiment tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Eksperimentning qanday turlari mavjud?

Eksperiment o'tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Eksperiment o'tkazishqanday xususiyatlarga ega?

Eksperiment o'tkazishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Eksperiment o'tkazish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

**Eksperiment o'tkazish haqida
Q A R O R**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Dastlabki tergov hujjatlariga ko'ra _____

(jinoyat ishining mazmuni, eksperiment o'tkazish uchun asoslar, qanday dalilni tekshirish, qanday imkoniyatlarni aiqlash ko'rsatiladi)

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 153, 154-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha _____
aniqlash bo'yicha eksperiment o'tkazilsin. (qanday imkoniyatlarni)

2. Qarorning nusxasi _____ prokuroriga ma'lumot uchun yuborilsin.

Tergovchi

_____ (unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

**Eksperiment
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JPKning 90–92-moddasiga rioya qilib, hujjatlarni olib qo'yish tergov harakatini _____ va xolislar:

(F.I.SH)

1. _____

2. _____ ishtirokida

eksperiment o'tkazib, JPKning 90–92-moddalariga asoslanib, ushbu bayonnomani tuzdim.

Ushbu tergov harakatini boshlashdan avval xolislariga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.SH) 2. _____ (imzo) _____ (F.I.SH)

Mutaxassis _____ ga O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

_____ (imzo) _____ (F.I.SH)

Eksperiment soat _____ da boshlanib, soat _____ da tamomlandi.

Eksperiment _____ o'tkazildi.

(qanday yorug'likda)

Ishtirokchilarga eksperimentni o'tkazish tartibi tushuntirildi. Shundan keyin

Mazkur tergov harakati _____ rusumli videokamera orqali videotasmaga yozib
(kamera markasi)

olindi. Shu bilan eksperiment tamomlandi. Bu haqda ushbu bayonnoma tuzildi va qatnashchilarga ovoz chiqarib o'qib eshittirildi. Qatnashchilardan _____.

Hammasi to'g'ri yozildi. (ariza, shikoyat)

Gumon qilinuvchi

_____ (imzo) _____ (F.I.SH)

Xolislar

_____ (imzo) _____ (F.I.SH)

_____ (imzo) _____ (F.I.SH)

Himoyachi

(imzo)

(F.I.SH)

Mutaxassis

(imzo)

(F.I.SH)

JQ va UJQKB vakili

(imzo)

(F.I.SH)

Katta tergovchi
mayor

(imzo)

(F.I.SH)

17-BOB. EKSPERTIZA TAYINLASH VA O‘TKAZISHDA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

17.1. «Ekspertiza» tushunchasi, turlari va ekspertiza jarayonida tekshiriladigan obyektlar

Ekspertiza maxsus bilimlarni talab etadigan va surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida o‘tkaziladigan tekshiruvdir.

Ushbu tergov harakati ish uchun ahamiyati holatlar to‘g‘risida ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimli bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda tayinlanadi. Bunda tergovchi mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo‘lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etilmaydi.

Ayni paytda ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertlarning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas.

Ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilim bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi. Tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo‘lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.

Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas.

Ekspertizani JPKda belgilangan tartibga xilof ravishda o‘tkaziladigan tekshiruv bilan almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Idoraviy tekshiruv xulosasi, taftish hujjatlari, mutaxassislar maslahati ekspertiza o‘tkazish zaruratini istisno etmaydi (JPK 172-modda).

Ekspertiza-dalillarni qo‘lga kiritish uchun o‘tkaziladigan protsessual harakatdir.

Jinoyat ishi bo‘yicha biron holat aniqlaniishi uchun ekspertning xulosasi zarur bo‘ladigan bo‘lsa va u ushbu faktni voqelikda bo‘lgani yoki bo‘lmagani to‘g‘risidagi savolga aniq javob bera olgan hollarda tayinlanadi.

Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning xulosasi ekspertning maxsus bilimlari hajmi bilan chegaralanadi va ularning hajmidan oshib ketmasligi kerak.

Kechiktirib bo'lmis holatlarda ekspertiza jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza tayinlash yoki o'tkazmaslik masalasini tergovchi hal qiladi va ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallarni qanday darajada yig'ilganligiga e'tibor berishi lozim.

Ekspertiza predmeti biror fan, texnika, san'at, kasb sohasiga mansub bo'lishi mumkin.

Ekspertiza jarayonida qo'llaniladigan uslublar, vositalar, ma'lumotlar muayyan ravishda aniqlanib, voqelikka mos bo'lishi kerak va hali o'rganish bosqichida bo'lmisligi lozim. Ekspertiza tayinlash masalasini hal qilishda mutaxassislar yordamidan, ularning maslahatlaridan foydalanib, uni tayinlash imkoniyatlari, ekspertlarning tarkibi, tegishli materiallarning doirasi bo'yicha maslahatlashuv harakatlari o'tkazilishi mumkin.

Ekspertiza agar ekspertiza o'tkazish muassasasida tayinlansa yoki undan tashqarida tayinlangan bo'lsa ham ular bo'yicha ekspert xulosasini chiqaradigan ekspertlarning huquq va majburiyatlari tengdir va ular maxsus vakolatlarga ko'ra mansabdor shaxslar sifatida tan olinishlari kerak (JPK 172-modda).

Basharti, ish bo'yicha:

1) o'limning sababini, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasini;

2) jinsiy aloqada bo'lganlikni, homiladorlik holatini va homilani sun'iy yo'l bilan tushirish belgilarini;

3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining yoshini, agar bu haqda hujjatlar bo'lmasa yoki hujjatlar shubha tug'dirsa;

4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining, ustidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga doir ish yuritilayotgan shaxsning ruhiy va jismoniy ahvolini hamda ularning g'ayriqonuniy qilmishni sodir etayotgan paytda o'z harakatlarini idrok etish va idora qilish layoqatini, shuningdek jinoiy javobgarlikning ahamiyatini tushunish, jinoyat protsessida ko'rsatuvlar berish hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

5) jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek jabrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

6) tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlikka va giyohvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligini va imkoniyatlarini;

7) giyohvandlik vositalari va ularning turlari mavjudligini;

8) pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini;

9) portlashlar, halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash zarur bo'lganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart.

Ish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashda ham, agar buning uchun maxsus bilimlarni qo'llash zarur bo'lsa va bu holatlar isbotlashning boshqa vositalari bilan puxta aniqlanmagan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish shart (JPK 173-modda).

Agar qotillik fakti bo'yicha murdani eksqumatsiya qilib, uni sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish zarur bo'lsa, u holda jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval ekspertiza o'tkazish mumkin. Ekspertiza o'tkazishda murdani eksqumatsiya qilish zaruriyati bo'lsa, u holda bu eksqumatsiya harakatlari ham jinoyat ishi qo'zg'atishdan avval o'tkazilishi mumkin. Shunga asosan; tergovchi ekspertiza tayinlash qarorida uni o'tkazish uchun murdani eksqumatsiya qilish zarurligi to'g'risida qayd etilishi lozim va bu qaror tegishli muassasalar uchun majburiy bo'ladi (JPK 173-modda).

Ekspertizani ekspertiza muassasalarining, boshqa davlat korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarining mutaxassislari yoki tergovchi tayinlagan boshqa bilimdon shaxslar o'tkazadi.

Sud-tibbiyot, sud-psixiatriya, sud-psixologiya, sud-avtotexnika, sud-buxgalteriya, kriminalistika ekspertizalarini faqat ekspertiza muassasalarining mutaxassislari, alohida hollarda esa, davlatga qarashli boshqa muassasalarning mutaxassislari o'tkazadilar. Alohida hollar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda asoslantirilishi lozim.

Tergovchi, sudning ekspert etib tayinlangan shaxsni chaqirish va uning ekspertiza o'tkazishi to'g'risidagi talabi shu shaxs ishlayotgan korxonaga, muassasa yoki tashkilot rahbari uchun majburiydir (JPK 174-modda).

Ekspertiza o'tkazishning asosiy talablaridan biri ekspertni yoki ekspertiza muassasasini tanlash masalasidir. Ekspertiza muassasasini tanlash ekspertning tekshiruvda hal etiladigan savollar va tegishli obyektlarga bog'liq.

Ekspert etib tayinlanadigan shaxslar ikki guruhga bo'linadi:

a) ekspertiza muassasasida faoliyat yurituvchi xodimlar (ekspertlar);

b) ekspertiza muassasalariga va ularning xodimlariga aloqasi bo'lmagan mutaxassislar.

Ekspertiza muassasalarining ekspertlarini ekspertiza o'tkazish uchun jalb qilishda, tergovchi mazkur muassasa rahbariga tegishli ekspertiza

o'tkazish to'g'risida qaror yuboradi, muassasa rahbari esa bu ekspertiza o'tkazishni kimga topshirish bo'yicha ko'rsatuv beradi va bu to'g'rida tergovchining qarorida o'z rezolyutsiyasini qayd etadi. Ekspert muassasasidan tashqari joyda ishlab, tadqiqotlar o'tkazish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis esa tergovchi tomonidan bevosita ekspertiza o'tkazish uchun jalb etiladi, tergovchi qarorni unga bevosita topshiradi va qarorda mutaxassisning familiyasi, ismi, otasining ismi qayd etiladi.

Sud-tibbiyot, sud-psixiatriya, sud-psixologiya, sud-avtotexnika, sud-buxgalteriya, kriminalistika ekspertizalari faqat ekspertiza muassasalarining mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Alohida hollarda esa davlatga qarashli boshqa muassasalarning mutaxassislari ham ushbu turdagi ekspertizalarni o'tkazishlari mumkin. Ushbu alohida hollar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda asoslantirilishi lozim.

Tergovchining ekspert etib tayinlangan shaxsni chaqirish va uning ekspertiza o'tkazish to'g'risidaga talabi mazkur shaxs ishlayotgan korxonaga, muassasa yoki tashkilot rahbari uchun majburiydir. Tergovchi huzuriga kelgan ekspertga tergovchi JPKning 67, 68, 75-moddalarida bo'lgan uning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirishi lozim (JPK 174-modda).

Ekspert tomonidan tekshiriladigan obyektlar jumlasiga:
ashyoviy dalillar va ekspert tekshiruvi uchun olingan namunalar;
ekspertiza orqali daliliy ahamiyati aniqlanadigan boshqa moddiy obyektlar;

tirik odamning badani;

ruhiy holati;

murda;

hujjatlar kirishi mumkin.

Ekspert tekshirishi lozim bo'lgan obyektlar, agar ularning hajmi va xususiyatlari imkon bersa, ekspertga o'ralgan va muhrlangan holda berilishi kerak.

Tekshirishni o'tkazish vaqtida ekspertiza moddiy obyektini tekshiruv uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada buzilishi yoki ishlatilishi mumkin. Ekspertiza o'tkazib bo'lingandan keyin o'sha tekshirish obyektlari to'la sarf qilinmay ortib qolgan bo'lsa, ekspertiza tayinlagan Tergovchiga qaytarilishi lozim.

Ekspertiza obyektlari ekspertiza muassasalarida, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlarida va sudlarda ashyoviy dalillarni saqlash qoidalariga rioya qilingan holda saqlanadi (JPK 175-modda).

Ekspertiza obyektlariga tadqiq etiladigan obyektlar kiradi, zaruriy hollarda tegishli namunalar va jinoyat ishi materiallarida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Voqea sodir bo'lgan joydan olingan izlar ham (agar ular bevosita jinoyat sodir bo'lgan joydan olib kelingan bo'lsa), u yoki bu usul bilan qayd etilgan izlarning qoliplari, (masalan, joydagi poyabzal izining qolipi, to'siqni sindirish quroli qoldirgan izning qolipi), jinoyat qurollari; (qurol, o'q-dorilar), tergovchi yoki mutaxassis tomonidan ishlangan fotosuratlar, chizmalar ham tadqiq qilinadigan obyektlar bo'lishi mumkin. Barcha qayd etilgan obyektlar, agar ular ashyoviy dalil sifatida tan olingan bo'lsa, yaxshi o'ralgan, tegishli yozuvlar kiritilgan, imzolar, muhrlar qo'yilgan holda ekspertga yuboriladi.

Ekspertga ekspertiza obyektlarini taqdim etganda tegishli ularga nisbatan aniqlanadigan savollar ro'yxati ekspertning mutaxassislik layoqati chegarasidan chiqib ketmasligi zarur.

Ekspertizani tayinlash tegishli obyektlarni tadqiq qilish uchun yuborish (hodisa sodir bo'lgan joyda topilgan obyektlarni yuborish) hamda namuna sifatida olingan obyektlar taqdim etishdan iborat bo'ladi. Ekspert mustaqil ravishda ekspertiza obyektlarini olib qo'yish bilan shug'ullanmasada, tergovchining ruxsatiga binoan u shunday obyektlarni ekspertiza uchun tanlab, tadqiqot o'tkazishga vakolatlidir.

Ekspert xulosasi aniq va to'liq hamda voqelikka to'g'ri kelishi uchun tergovchidan ekspertiza uchun yetishmaydigan va berilgan obyektlar sonini ko'proq qilib berishi to'g'risida so'rashi mumkin.

Ekspertiza obyektlari sifatida ashyoviy dalillar va ekspert tekshiruvi uchun olingan namunalar, ekspertiza orqali daliliy ahamiyati aniqlanadigan boshqa moddiy obyektlar, tirik odamning badani, ruhiy holati, murda, hujjatlar, biologik tabiatga ega bo'lgan obyektlar, noorganik tabiatga ega bo'lgan obyektlar, radioaktiv obyektlar va boshqalar kirishi mumkin.

Tekshirish o'tkazish vaqtida ekspertiza uchun berilgan moddiy obyekt bevosita tadqiq qilinadi va undan tegishli moddiy xossalar olib, ularni tadqiq qilish harakatlari o'tkazilishi mumkin. Bu esa moddiy obyekt sarflanishiga olib keladi, hatto to'la sarf bo'lib ketishi ham mumkin. Shuning uchun agar ekspertiza vaqtida biron obyektning moddiy vazni kamaygan bo'lsa, ortib qolgan obyektни ekspert tergovchi yoki sudga qaytarishi, bu to'g'rida xulosada qayd etilishi kerak. Agar ekspertizaga mikroobyekt berilgan bo'lsa, u holda berilgan obyekt zaruriy ravishda yoki oddiy foto yoki imkon bo'lsa rangli fotosuratga masshtab usulida olinadi. Shuning uchun ekspertizaga beriladigan yoki berilgan obyektlar

surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudlarda, ekspertga toshpirilgandan so'ng ekspertiza muassasalarida saqlanadi. Ularni saqlash bo'yicha JPKda qayd etilgan qoidalarga rioya etilishi lozim.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan moddalar va materiallar (masalan, jinoyat joyida bo'lgan tuproq, kiyim tolalari, suyuqliklar, oziq-ovqatlar) toza shishalarga yoki plastmassa idishlarga solinadi va germetik ravishda yopilib, tegishli yozuvlar bilan tasdiqlanadi (JPK 175-modda).

Qo'shimcha ekspertiza ekspert xulosasidagi kamchiliklarni to'ldirish uchun tayinlanadi va shu ekspertning o'zi yoki boshqa ekspert tomonidan o'tkaziladi.

Ekspertning xulosasi asoslantirilmagan yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilgan hollarda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonarsiz deb topilganda yoki ekspertiza o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta ekspertiza tayinlanadi.

Qayta ekspertiza o'tkazish tayinlanganda ekspert oldiga ilgari foydalanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'g'risida masala qo'yilishi mumkin.

Qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda birinchi ekspertiza xulosasiga qo'shilmaganlik sabablari ko'rsatilishi lozim.

Qayta ekspertiza o'tkazish boshqa ekspertga topshiriladi. Birinchi ekspertizani o'tkazgan ekspert (ekspertlar komissiyasi) qayta ekspertiza o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u ekspert tekshiruvini o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi (JPK 176-modda).

Agar ekspert tergovchining qarorida qayd etilgan barcha savollarga javob bermasdan ekspertiza xulosasini unga taqdim etsa, unda tergovchi ekspert xulosasidagi kamchiliklarni to'ldirish uchun qo'shimcha ekspertiza tayinlaydi. Agar ekspert o'z xulosasida berilgan savollarga aniq javob bermagan bo'lsa yoki biron javobi ravshan tavsif etilmagan bo'lsa, u holda ham tergovchi qo'shimcha ekspertiza tayinlash huquqiga ega.

Qo'shimcha ekspertiza tayinlashdan avval tergovchi bu to'g'rida ekspertni so'roq qilishga haqli. Uning ko'rsatuvlari xulosada bo'lgan noaniqliklarni va shu bilan qo'shimcha ekspertiza o'tkazish zaruriyatini ham bartaraf etish mumkin. Agar so'roq paytida tergovchi berilgan ushbu savollar bo'yicha ekspertdan yana tadqiqot o'tkazish zaruriyati borligi va kerakligini aniqlasa, u darhol qo'shimcha ekspertiza o'tkazish to'g'risida qaror chiqaradi va ushbu ekspertizani o'tkazish uchun aynan shu ekspertga yoki boshqa ekspertga topshirish huquqiga ega.

Qo‘shimcha ekspertiza o‘tkazish holati ekspertga berilgan obyekt-larning barchasi ekspert tomonidan tadqiq etilmasdan ularning biron qismi tadqiq etilganligi ham qo‘shimcha ekspertiza o‘tkazishini taqozo etadi. Ishning ahamiyatiga qarab qo‘shimcha ekspertiza sud muhokamasi paytida o‘tkazilishi mumkin. Sudya va sud muhokamasining ishtirokchilari bunday ekspertiza o‘tkazish paytida ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Agar ekspert xulosasi jinoyat ishining faktik holatiga zid bo‘lsa, dastlabki tergov yoki sud majlisi jarayonida ekspert xulosasiga ta’sir ko‘rsatuvchi biron yangi ma’lumot aniqlangan bo‘lsa, u holda tergovchi, prokuror yoki sud qayta ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risida qaror (ajrim) chiqarishga haqli. Bundan tashqari, ekspert xulosasi asoslantirilmagan bo‘lsa yoxud uning shubhaliligaga asos tug‘ilgan bo‘lsa yoki unga asos qilib olingan dalillar ishonarsiz deb topilganda yoki ekspertiza o‘tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda, qayta ekspertiza tayinlanadi.

Birinchi ekspertiza o‘tkazgan ekspert qayta ekspertiza o‘tkazish jarayonida ishtirok etib, tushintirishlar berishga haqli ammo ekspert xulosasini tuzishda ishtirok etishi mumkin emas. Agar qayta tadqiqot bir ekspert tomonidan boshlanib, ikkinchi ekspert tomonidan yakunlangan bo‘lsa, ushbu ekspertizani qayta o‘tkazish zaruriyati bo‘lmaydi (JPK 176-modda).

Murakkab ekspertizalar bir ixtisosdagi ekspertlar komis-siyasi tomonidan o‘tkazilishi mumkin. Ekspertlar o‘zaro maslahatlashib, umumiy fikrga kelganlaridan keyin xulosani imzolaydilar. Ekspertlar o‘rtasida kelishmovchilik ro‘y berganda har bir ekspert kelishmovchilik chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo‘yicha alohida xulosa beradi.

tergovchining komissiyaviy ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi talabi ekspertiza muassasasining rahbari uchun majburiydir.

Agar ekspertiza o‘tkazish ekspertiza muassasasiga topshirilgan bo‘lsa, uning boshlig‘i komissiyaviy ekspertizani o‘tkazishni o‘zi tashkil qilishga haqlidir.

Ekspert tekshiruvini to‘la yoki qisman o‘tkazishni ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar bajarishiga yo‘l qo‘yilmaydi (JPK 177-modda).

Aynan bir sohaga mansub bo‘lgan mutaxassislar ekspertiza o‘tkazishsa, bunday ekspertiza komissiyaviy ekspertiza nomi bilan ataladi. Bunday ekspertizalar juda murakkab vaziyatlarda tayinlanadi.

Komissiyaviy ekspertizani o‘tkazish talabi ekspert muassasasining rahbari tomonidan bajarilishi shart. Shuning uchun tergovchi, surishti-

ruvchi, prokuror yoki sud talabi bo'yicha (qarori, ajrimi bo'yicha) komissiyaviy ekspertizani o'tkazish kerak bo'lsa, ushbu muassasa rahbari shu ekspertizani o'tkazish uchun bir guruh ekspertlarga ko'rsatuv beradi, guruhdagi barcha ekspertlar bir ixtisosdagi mutaxassis bo'lishi shart.

Ekspertlar muassasasining rahbari tergovchiga ekspertiza o'tkazayotgan ekspertlar ro'yxatini (o'z buyrug'ining nusxasini) yuborishi shart. Komissiyaviy ekspertiza o'tkazish uchun tayinlangan ekspertlar ekspert xulosasini tuzganidan keyin xulosaga o'z imzolarini qo'yishlari lozim, aks holda ekspertiza xulosasi to'liq bo'lmaganligi va biron shubhali masala, ya'ni barcha savollar bo'yicha to'liq tadqiqot o'tkazilmaganligini tan olish kerak. Bu holda sud takror komissiyaviy ekspertiza tayinlab, tegishli ekspertlarga nisbatan xususiy ajrim chiqarish huquqiga ega (JPK 177-modda).

Agar jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik biror holatni turli fan sohalaridan foydalanib, bir necha tekshiruv o'tkazish orqaligina aniqlash mumkin bo'lsa, kompleks ekspertiza tayinlanishi lozim.

Kompleks ekspertiza doirasida har bir ekspert tomonidan aniqlangan holatlarga asoslanib, ular ushbu ekspertizada aniqlanishi lozim bo'lgan holat to'g'risida yakuniy xulosa chiqaradilar.

Kompleks ekspertiza o'tkazishda qatnashayotgan har bir ekspert ularning har biri o'zi aniqlaydigan holatlar hajmi va majmuidan qat'i nazar, tekshiruvni mustaqil amalga oshiradi, buning uchun shaxsan javobgar bo'ladi va faqat o'z vakolati doirasida xulosa beradi. Ekspert kompleks ekspertiza xulosasining faqat o'z vakolatiga taalluqli qismini imzolaydi.

Ekspertiza o'tkazish ekspertiza muassasasiga topshirilgan bo'lsa, kompleks tekshiruvni tashkil qilish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi (JPK 178-modda).

Kompleks ekspertizalar ayni chog'da yagona maqsadga qaratilgan, ular asosida aniqlanadigan ma'lumotlarning yig'indisi tergovchi yoki sud tomonidan qo'yilgan savollar bo'yicha keng ko'lamdagi xulosalarni shakllantirishga imkon beradi.

Kompleks ekspertiza o'tkazishda uning obyektini bir necha maxsus obyektlarga bo'linib ketadi va har biri ma'lum ixtisosga ega bo'lgan va boshqa mutaxassislik sohasining egasiga ekspert tomonidan chuqur va har tomonlama tadqiq qilinadi. Kompleks ekspertiza xulosasi esa bir necha ekspert xulosalaridan tarkib topib, bir necha tadqiqot o'tkazilganligidan dalolat beradi.

Kompleks ekspertiza o'tkazishda har bir ekspert o'zining mutaxassisligiga tegishli bo'lgan savollarga javob beradi va alohida tadqiqot o'tkazadi va aynan o'zi chiqargan xulosaga imzo chekish huquqiga ega, boshqa xulosalarga, agar bu xulosalar uning bilimi sohasiga mansub bo'lmasa, imzo chekmaydi. Kompleks ekspertiza tegishli ekspert muassasasiga topshirilgan bo'lsa, uni tashkil etish ushbu muassasa rahbariga yuklatiladi u tegishli buyruq chiqaradi (JPK 178-modda).

17.2. Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda protsess ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlash

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ekspertiza tayinlash va o'tkazishda:

1) ekspertiza o'tkazilgunga qadar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan tanishib chiqish va o'ziga berilgan huquqlar tushuntirilishini talab qilish (bu haqda bayonnoma tuziladi);

2) ekspertni rad etish;

3) o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan ekspert tayinlanishini iltimos qilish;

4) ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, qo'shimcha materiallar taqdim etish;

5) ekspertiza o'tkazilayotganda tergovchi, sudning ruxsati bilan hozir bo'lish, ekspertdan tekshiruv vaqtida qo'llayotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish;

6) ekspert xulosasi bilan tanishib chiqish va qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Sanab o'tilgan huquqlardan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan shaxs ham, agar bunga uning ruhiy holati imkon bersa, foydalanadi (JPK 179-modda).

Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining iltimosnomalari va arizalariga e'tibor bermaslik mumkin emas, chunki ular ekspertni rad etish, qo'shimcha savollarni qo'yish holatlariga tergovchi va sud diqqatini qaratishi mumkin. Shu bilan birga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga ekspertni rad etish uchun uning iltimosnomasi asoslantirilgan bo'lishi to'g'risida tushuntirishlar berilishi kerak. Agar ekspertizani ekspert muassasasiga mansub ekspert o'tkazadigan bo'lsa, u holda ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, sudlanuvchiga ushbu ekspertning xulosasi bilan tanishish vaqtida rad etish huquqidan foydalanishi tushuntirilishi lozim.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ekspertizada yana boshqa ekspertlarning ishtirok etishini so‘rasa bevosita shu ekspertlarni chaqirib, ularni ekspertizada ishtirok etishini istasa, u holda tergovchi aynan shu ekspertlarning tegishli sohada mutaxassis bo‘lishlari va voqelikka to‘g‘ri yondashishlariga e‘tibor berishi va ularni baholashi kerak. Ekspertlar doirasini kengaytirmaslik to‘g‘risida raddiya berishga, agar tadqiqotning ta‘rifi va hajmi bunday kengaytirishni talab qilmagan bo‘lsa, tergovchi haqlidir.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ekspertiza o‘tkazishdan avval ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror bilan tanishish huquqiga ega va 179-moddada qayd etilgan protsessual huquqlari hamda 181-moddada qayd etilgan majburlov choralari bilan tanishib chiqishga haqli, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga JPK-ning 179 va 181-moddalarida qayd etilgan talablar Tergovchi, prokuror, sud tomonidan tushuntirilishi kerak va bayonnomada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan imzolari bilan tasdiqlanishi lozim. Bundan tashqari 179-moddaning 2, 3, 4, 5, 6-bandlarida qayd etilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining huquqlari tergovchi tomonidan tushuntirilishi kerak.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ekspertiza bo‘yicha qo‘shimcha savollar qo‘yish to‘g‘risida iltimos qilsa, u holda ularga bu savollarni jumlama-jumla to‘g‘ri tuzishda yordam ko‘rsatilishi darkor.

Qonun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ekspertning muayyan harakatlarida ishtirok etishini taqozo qiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ekspertiza o‘tkazish joyida bo‘lish uning tushuntirishlarini tegishli bayonnomada yoki ekspert xulosasida qayd etilishini taqozo etadi. Bu tushuntirishlar ekspert uchun taqdim etiladigan materiallar sifatida tan olinadi.

Ayblanuvchi ekspertga tegishli materiallarni tergovchi huzurida berishga haqli, tergovchining ishtirokisiz ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, sudlanuvchi materiallarni taqdim etishi man etiladi.

Ekspertiza xulosasi bilan tanishish vaqtini tergovchining o‘zi belgilaydi va bu to‘g‘rida gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga sud esa sudlanuvchiga xabar qiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining iltimosnomasini tergovchi, sud rad etar ekan, bu haqdagi qaror (ajrim) asoslantirilgan bo‘lishi lozim, qarorda (ajrimda) ushbu qaror (ajrim) ustidan shikoyat qilish imkoniyati borligi yoki yo‘qligiga e‘tibor qaratilib, bu to‘g‘rida belgi bo‘lishi shart.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyachisi ishtirok etsa, u ham ekspertiza tayinlash qarori va ekspertiza xulosasi bilan tanishish huquqiga ega bo'lib, ular haqida iltimosnoma yoki ariza berishga haqli.

Jabrlanuvchi va uning vakili gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlaridan foydalanish huquqiga ega va unga ham tergovchi, ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror va ekspertiza xulosasini ko'rsatish shart, aks holda uning protsessual huquq va qonuniy manfaatlarini cheklash holati yuzaga keladi. Qaror va ekspertiza xulosasi bilan tanishganligi to'g'risida tergovchi tegishli bayonnoma tuzadi va jabrlanuvchining imzosi bilan tasdiqlaydi.

JPKning 179-moddasida qayd etilgan huquqlardan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan shaxs ham bunga uning ruhiy holati imkon bersa, foydalanishi mumkin. Bunday hollarda tergovchi, sud tegishli sud-psixiatriya eksperti ishtirokida uni ekspertizadan o'tkazish qarori va ekspertiza xulosasi bilan tanishtirish huquqiga ega. Agar tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan shaxs tomonidan ariza yoki iltimosnomalar tushsa, ular tergovchi, sud tomonidan majburiy ravishda ko'rib chiqilishi va ular to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilinishi lozim (JPK 179-modda).

17.3. Ekspertiza o'tkazish haqidagi protsessual hujjatlarning xususiyatlari

Ekspertiza tayinlash to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi.

Unda:

- ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan sabablar;
- ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy dalillar va boshqa obyektlar, ularning qachon, qayerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi;
- ish materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda esa ekspert xulosasi asoslanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar;
- ekspert oldiga qo'yilgan savollar;
- ekspertiza muassasasining nomi yoki ekspertiza o'tkazish topshirilgan shaxsning familiyasi ko'rsatilishi lozim.

Zarur hollarda ekspertiza jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ham tayinlanishi mumkin.

Ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi qaror unga taalluqli shaxslar uchun majburiydir (JPK 180-modda).

Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim kirish, tavsif va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga yuborilgan tergov tezkor guruhi jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval tegishli ekspert tadqiqotlarini o'tkazish huquqiga ega bo'ladi (agar shu guruh ichida ekspert-mutaxassis shaxs bo'lsa, aks holda ekspertiza ishni qo'zg'atishdan keyin tayinlanishi kerak).

JPKning 180-moddasida qayd etilgan talablar tegishli shaxslarga nisbatan qaror qabul qilinsa, ularga nisbatan aynan shu qaror (ajrim) majburiy ta'rifga ega bo'ladi.

Qaror bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda jabrlanuvchi, ularning vakillari, himoyachilari tanishib chiqishga haqli.

Ekspertiza tayinlash to'g'risidaga qaror bilan tanishtirish haqida tergovchi, sud bayonnoma tuzadi va bayonnomada ularning fikr va mulohazalari, iltimosnomalari qayd etilishi mumkin. Bundan tashqari bayonnomada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarning protsessual huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirish to'g'risidagi belgi qayd etilishi, ya'ni ularga 179 va 181-moddalarning talablari tushuntirilishi kerak (JPK 180-modda).

Murakkab tibbiy tekshiruv usullaridan, shuningdek kuchli og'riq berish bilan bog'liq usullardan majburiy foydalanishga faqat ekspertiza o'tkazilayotgan shaxsning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Basharti bunday shaxs o'n olti yoshga to'lmagan yoki ruhiy kasal bo'lsa, ekspertiza uning qonuniy vakili, vasiy yoki homiysining roziligi bilan amalga oshiriladi (JPK 181-modda).

Murakkab tibbiy tekshiruv usullarini ekspertiza jarayonida qo'llash bevosita odam tanasida bo'lgan joylarga ta'sir qilish bilan o'tishi mumkin, shunga asosan ekspertizaga yuborilgan shaxsda bu usullardan foydalanish jarayonida og'riq berish bilan boshqa harakatlar o'tkaziladi, shuning uchun bunday harakatlarga ekspertiza o'tkazilayotgan shaxsning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Agar bunday harakatlar voyaga yetmagan yoki ruhiy kasalga duchor bo'lgan odam ustidan o'tkaziladigan bo'lsa, u holda bunday harakatlarni o'tkazishdan avval ularning qonuniy vakili, vasiy yoki homiysining roziligi olinishi lozim.

Agar ekspertizaga yuborilgan shaxs uning ustidan og'riqli harakatlar o'tkazilishiga qarshi bo'lsa, u holda unga JPKning 271-moddasida qayd etilgan majburiyatlar tushuntiriladi va qat'iy ravishda unga nisbatan anesteziya usullari qo'llaniladi. Majburlov choralari o'tkazilishi to'g'risida tergovchi ekspertiza tayinlash qarorda qayd etib o'tishi kerak (JPK 181-modda).

Tergovchi, sud ekspertiza tayinlash to'g'risida o'zi chiqargan qarorni yoki ajrimni, tekshiriladigan obyektlarni, zarur hollarda jinoyat ishini ham ekspertiza muassasasining rahbariga yuboradi. Qaror yoki ajrimda muayyan ekspert ko'rsatilmagan bo'lsa, ekspertiza muassasasining rahbari shu muassasa xodimlaridan qaysi biri ekspertiza o'tkazishi to'g'risida farmoyish chiqaradi. Bu haqda u ekspertizani tayinlagan tergovchiga xabar beradi.

Ekspertiza muassasasining rahbari ekspertiza o'tkazishni tashkil qiladi, tekshiriladigan obyektning saqlanishini ta'minlaydi, ekspertizani o'tkazish muddatini belgilaydi. Ekspertiza muassasasining rahbari ekspertiza muassasasida ishlamaydigan mutaxassislarni ekspertizani tayinlagan tergovchining roziligi bilangina ekspertiza o'tkazish uchun jalb etishga haqlidir (JPK 182-modda).

Tergovchi, sud ekspertiza tayinlash to'g'risida o'zi chiqargan qaror yoki ajrimni, tekshiriladigan obyektlarni, zarur holatlarda jinoyat ishini ham ekspertiza muassasasining rahbariga yuboradi va agar qarorda (ajrimda) ekspertizani qaysi ekspertga toshpirish qayd etilmagan bo'lsa, ushbu muassasasining rahbari o'z xodimlari orasidan tegishli ekspertni tanlaydi va bu to'g'rida farmoyish chiqaradi.

JPKning 182-moddasida qayd etilgan ekspert muassasasining rahbari shu moddada qayd etilgan protsessual huquqlardan to'la foydalanish mumkin va tegishli majburiyatlarini bajarishi kerak. Agar tergovchi ekspertiza o'tkazish jarayoni bo'yicha tegishli axborot olmoqchi bo'lsa, u holda ekspertiza muassasasining rahbari unga ekspertiza jarayoni qanday o'tayotganligi to'g'risida og'zaki axborot berishi mumkin, tergovchi ekspertning yakunlovchi xulosasini olganidan so'ng amalda qanday natijalar bo'lganligiga ishonch hosil qiladi (JPK 182-modda).

Ekspertiza ekspertiza muassasasidan tashqarida o'tkaziladigan bo'lsa, tergovchi yoki sud ekspertiza o'tkazish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqargandan keyin ekspertiza o'tkazish topshirilayotgan shaxsni chaqirtiradi, uning shaxsi va malakasini, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, jabrlanuvchiga bo'lgan munosabatini va uni rad etishga asoslar bor-yo'qligini aniqlaydi.

Ekspertizani tayinlagan tergovchi ekspertga ekspertiza tayinlanganligi to'g'risidagi qarorni taqdim etadi, uni JPKning 68-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari bilan tanishtiradi va xulosa berishdan bo'yin tovlaganlik, shuningdek bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi. Ekspert bergan ariza va iltimosnomalar ham shu zaylda qayd etiladi. Ekspertning iltimosi rad

etilsa, ekspertiza tayinlagan tergovchi yoki sud bu haqda qaror yoki ajrim chiqaradi.

Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohning badanini yoxud ruhiy holatini tekshirish zarurati paydo bo'lsa, ekspertiza tayinlagan tergovchi ularning ekspertga olib kelinishini ta'minlashi shart (JPK 183-modda).

Agar ekspertiza ekspert muassasasidan tashqarida o'tkaziladigan bo'lsa, tergovchi ekspertiza o'tkazish uchun qaror yoki ajrim chiqarganidan keyin tekshirilayotgan shaxsni chaqirtiradi, uning shaxsi va malakasiga, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchiga bo'lgan munosabatini va uni rad etishga asoslar bor-yo'qligini aniqlaydi va shundan so'ng bunday asoslar yo'q bo'lsa, qarorni topshirib, ekspertiza bo'yicha uning tegishli protsessual huquq va majburiyatlarini tanishtirib chiqadi. Bundan tashqari bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida va xulosa berishdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi.

Agar ekspert avval ekspert muassasasida yig'ilganligi aniqlangan bo'lsa va bu ekspert muassasasining faoliyati tekshirilayotgan bo'lsa, u holda ekspert jinoyat ishida manfaatdor shaxs sifatida tan olinadi yoki ishga manfaatdorligi gumon qilinishi mumkin. Bu hollarda tergovchi boshqa ekspertni ushbu ekspertiza o'tkazish uchun tayinlashi kerak. Ekspertning ixtisosligini tegishli hujjatlar bo'yicha tekshirish maqsadida tergovchi ekspertiza tayinlashdan avval ekspertning shaxsiy hujjatlari bilan tanishish xuquqiga ega (JPK 183-modda).

17.4. Ekspertiza natijalarining protsessual rasmiylashtirilishi va uni baholashning xususiyatlari

Ekspert zaruriy tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin o'z nomidan yozma xulosa tuzadi va uni imzolab tasdiqlaydi.

Ekspertning xulosasida:

– uning familiyasi, ismi va otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosi, ushbu ixtisoslik bo'yicha staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi;

– xulosa berishdan bo'yin tovlaganlik va bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ekspertning ogohlantirilganligi;

– ekspertiza qaysi protsessual qarorga asosan va qachon o'tkazilganligi;

- uni o‘tkazish vaqtida kim hozir bo‘lganligi;
- ekspert ishning qaysi materiallaridan foydalanganligi, qaysi ashyoviy dalillar, namunalar va boshqa obyektlar tekshiruvdan o‘tkazilganligi;
- xususan qanday tekshirishlar o‘tkazilganligi, qanday usullardan foydalanilganligi va ularning ishonchlilik darajasi;
- qo‘yilgan savollarga berilgan asosli javoblar, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo‘lgan va ekspert o‘z tashabbusi bilan aniqlagan holatlar ko‘rsatilishi lozim.

Ekspert xulosasida jinoyat sabablari va uning sodir qilinishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek uni bartaraf qilishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin.

Tekshirish o‘tkazilganidan qolgan ashyoviy dalillar, namunalar, boshqa obyektlar, shuningdek fotosuratlar, sxemalar, chizmalar ekspert xulosasiga qo‘shib qo‘yilishi zarur.

Agar ekspertga berilgan materiallarning yetarli emasligi yoki ekspertning maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshiruv chog‘ida ma’lum bo‘lib qolsa, ekspertning xulosasi ayrim qo‘yilgan savollarga javob berishni rad etish asoslarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim (JPK 184-modda).

Ekspertning bergan xulosasi ma’lum fakt yuzasidan isbotlash vositasi sifatida va uning o‘ziga xos dalil sifatida baholanishi lozim.

Ekspert xulosasida ekspertiza o‘tkazish jarayonida ishtirok etgan tergovchi, ayblanuvchi, gumon qilinuvchi va jabrlanuvchi (guvoh)lar bo‘lgani va qanday ekspert tomonidan qilingan harakatlar jarayonida ushbu shaxslar ishtirok etganligi qayd etiladi. Bundan tashqari ekspert xulosasida ekspertni tegishli tergov harakatlarida yoki tushuntirishlar jarayonida ishtirok etganligi qayd etilishi lozim.

Ekspert xulosasi uchta qismdan: kirish, tadqiq qilish va xulosaviy qismdan iboratdir. Agar ekspert biron savol bo‘yicha maxsus layoqatidan kelib chiqib unga javob berishi mumkin bo‘lmasa, u holda buni o‘z xulosasida qayd etishi kerak. Savollar ekspert uchun ravshan qo‘yilmagan taqdirda yoki biron savolga tushunmasa, bu haqda ekspert xulosasida qayd etadi va tergovchiga ushbu savol bo‘yicha biron aniqlashtirishlar kiritishi borasida murojaat qilishi mumkin. Ekspertning bergan javoblari asosli bo‘lishi kerak.

Ekspert tashabbusi yoki tergovchining topshirig‘iga binoan (ushbu topshiriq ekspertiza o‘tkazish qarorida mavjud bo‘lishi mumkin) jinoyat sodir etish sharoitlari va shartlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishi kerak (agar bu masalani aynan maxsus bilim orqali hal qilish mumkin bo‘lsa) (JPK 184-modda)

Ekspertga taqdim qilingan obyektlar ekspertiza o'tkazish uchun yetarli bo'lmasa, ekspert qo'shimcha materiallar berilishini so'raydi, bunday materiallar bo'lmasa, shuningdek ekspert oldiga qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasa, xulosa berish imkoniyati yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi va uni ekspertiza muassasasining rahbariga va ekspertiza tayinlagan tergovchiga yuboradi (JPK 185-modda).

Xulosa berishning iloji yo'qligi ekspertiza o'tkazishga imkon beruvchi omillarning yo'qligi va ekspert unda bor bo'lgan material va obyektlar xulosa chiqarilishi uchun to'liq emasligidan dalolat beradi. Bundan tashqari ekspert ma'lum maxsus bilimga ega bo'lsada, ammo oldiga qo'yilgan savolga javob olish uchun imkoniyat bermasa yoki bu savolga javob olish uchun fanda mavjud bo'lgan uslublar va tadqiq etish usullari qat'iy natija berishga imkon yaratmasa, u holda ekspert asoslantirilgan akt tuzib, unda ushbu ekspert oldiga qo'yilgan savollarga qanday sabablarga ko'ra javob bera olmasligini tavsif etadi va o'zining bu hujjatini ekspertiza muassasasining rahbariga va ekspertiza tayinlagan tergovchiga yuboradi.

Ekspert xulosa berishning iloji yo'qligini ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror va unga ilova qilingan obyektlarni olganidan so'ng tergovchi, surishtiruvchiga ma'lum qilinishi lozim. Agar xulosa berishning iloji yo'qligiga tegishli asoslar mavjud bo'lmasa, ekspertga taqdim etgan obyektlar ekspertiza o'tkazish uchun yetarli bo'lmasa, ekspert oldiga qo'yilgan savollar uning maxsus bilimi chegarasidan chiqib ketgan bo'lsa, ularga javob berish imkoni yo'qligi sababli xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi dalolatnomani tergovchi, surishtiruvchiga taqdim etadi, ekspert oldiga qo'yilgan savollarni hal etish uchun ushbu fanda mavjud bo'lgan tadqiq etish uslub va usullari, texnik vosita va uskunalari hali yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli qat'iy natijaga ega bo'lish imkoni yo'qligi sabablariga ko'ra xulosa berishning iloji yo'qligini tergovchiga ma'lum qiladi.

Tergovchi xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi ekspertning dalolatnomasini olganidan so'ng, ekspert oldiga qo'yilgan savollarni ekspertizadan tashqari tergov harakatlari orqali hal etishga harakat qilishi mumkin (JPK 185-modda).

Ekspertning xulosasi yetarli darajada aniq bo'lmay, kamchiliklarini to'ldirish uchun qo'shimcha tekshirish o'tkazishga zarurat bo'lmasa yoki ekspert foydalangan usullarga aniqlik kiritish zarur bo'lib qolsa, tergovchi ekspertni JPKning 98-108-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda so'roq qilish huquqiga ega (JPK 186-modda).

Agar ekspertning xulosasi tergovchi uchun yetarli darajada aniq bo'lmasa, u holda Tergovchi bu savollarni aniqlash uchun ko'shimcha tekshirish o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmasa, bevosita ekspertiza o'tkazgan ekspertni chaqirib, aniq bo'lmagan javoblar bo'yicha uni so'roq qilish huquqiga ega (JPK 186-modda).

Ekspert xulosasi tergovchi tomonidan ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholanadi.

Ekspertning xulosasi tergovchi uchun muqarrar daliliy kuchga ega emas. Xulosaga qo'shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozim.

Jinoyat ishi bo'yicha bir necha ekspertiza o'tkazilgan va ekspertlar bir xil fikrga kelmagan bo'lsalar, tergovchi ba'zi ekspertlarning xulosalariga qo'shilish va boshqa ekspertlarning xulosalariga qo'shilmaslik to'g'risidagi o'z fikrini asoslab berishi lozim (JPK 187-modda).

Ekspert xulosasi uning voqelikka to'g'riligi va daliliy ahamiyatga egaligi bo'yicha baholanadi. Voqelikka to'g'riligi ekspert xulosasini ishda mavjud bo'lgan boshqa dalillar bilan solishtirish natijasida ayon bo'ladi. Xulosa mazmunini o'rganganda uni voqelikka to'g'ri bo'lishi, to'liq bo'lganligi va ilmiy jihatdan asoslanganligiga e'tibor berish kerak. Daliliy ahamiyatga ega bo'lish protsessual qonun asosida ekspertiza o'tkazish qoidalariga bo'ysunishi bilan ta'riflanadi, ya'ni ekspertni ishga nisbatan manfaatdor bo'lmaganligi, ekspertga berilgan materiallar protsessual manbalardan berilganligi, shuningdek ayblanuvchini ekspertiza o'tkazish vaqtida ishtirok etganligi bilan ta'riflanadi. Ekspert xulosasini olganidan so'ng, tergovchi uni chiqarish jarayonida protsessual qonun talablari buzilmaganini tekshirishi kerak.

Ekspert xulosasi ish bo'yicha mavjud bo'lgan va inkor etishga imkoniyatlar yaratmaydigan dalillar asosida chiqarilishi va bu dalillar qonuniy jihatdan to'g'ri aniqlangan va olib qo'yilgan, qayd etilgan bo'lishi lozim.

Ushbu ekspertiza o'tkazish jarayonini baholashda tergovchi ekspertning harakatlari uning xulosasida qay darajada o'z aksini topganligi va ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri o'tkazilganligi, to'g'ri uslublar va usullar qo'llanilganligi, taxminiy emas, balki qat'iy natijalar olinganligiga ular ishda mavjud va voqelikka to'g'ri bo'lgan dalillarga mos ekanligini aniqlashi kerak hamda hozirgi fan-texnika imkoniyatlaridan to'la foydalanilganligini e'tiborga olish kerak.

Ekspertiza xulosasini baholaganda ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish JPKning 23-bobida qayd etilgan talablarga to'la rioya qilingan holda olinganligiga e'tiborni qaratish lozim (JPK 187-modda).

Nazorat uchun savollar:

Ekspertiza qanday holatlarda tayinlanadi?

Ekspertiza kim tomonidan o'tkaziladi

Ekspertizaning qanday turlari mavjud?

Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Birlamchi ekspertiza o'tkazish qanday xususiyatlarga ega?

Takroriy ekspertiza qanday hollarda tayinlanadi?

Qo'shimcha ekspertiza qanday hollarda tayinlanadi?

Komissiyaviy ekspertiza qanday hollarda tayinlanadi?

Kompleks ekspertiza qanday holatlarda tayinlanadi?

Ekspertiza o'tkazish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

_____ ekspertiza tayinlash haqida¹
Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchi shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qanday hodisa, holat yoki xabar yoxud jinoyat ishi raqami ko'rsatilishi lozim)

bo'yicha to'plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(mavjud holatning qisqacha mazmuni, ekspertiza tayinlash uchun asoslar, qanday holat aniqlanishi uchun maxsus bilimlar zarurligi)

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda O'zbekiston Respublikasi JPKning 172–174 va 180-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Ushbu jinoyat ishi (tergovga qadar tekshiruv hujjatlari) bo'yicha _____

(eksperiza turi)

tayinlansin va uni o'tkazish _____ ga topshirilsin.

(ekspertiza o'tkazuvchi muassasa va shaxs)

2. Ekspertlar oldiga hal qilish uchun quyidagi savollar qo'yilsin: _____

1. _____

2. _____

3. _____

3. Ekspertlar ixtiyoriga _____ yuborilsin.

(tadqiq etiladigan narsalar, shaxslar va boshqa buyumlar)

4. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin hamda manfaatdor taraflarga ma'lum qilinsin.

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

¹ Eslatma: Tayinlanayotgan ekspertiza turidan kelib chiqib qaror nomi yoziladi.

**Ekspertiza tayinlash qarori bilan gumon qilinuvchini (ayblanuvchini)
tanishtirish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi hujjatlari yuzasidan
_____ ekspertizasi tayinlash haqidagi
20__ yil «__» _____ kuni qabul qilingan qarorni O‘zbekiston
Respublikasi JPKning 179-moddasiga asosan gumon kilinuvchi (ayblanuvchi)
_____ ga
tanishtirib, uning ekspertni rad etish, o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan ekspert
tayinlashini iltimos qilish, ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo‘shimcha
savollar qo‘yish, qo‘shimcha materiallar taqdim qilish, ekspertiza o‘tkazilayotganda
surishtiruvchining, tergovchining ruxsati bilan hozir bo‘lish, ekspertdan tekshiruv
vaqtida qo‘llyotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib
berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligini
tushuntirdim.

Gumon kilinuvchi (ayblanuvchi) _____
ekspertiza tayinlash haqidagi qaror bilan tanishib, quyidagilarni bildirdi:

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi

(imzo)

(F.I.SH.)

Tarjimon

(imzo)

(F.I.SH.)

Ekspertiza tayinlash qarori bilan
tanishtirgan shaxs:

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

**Gumon qilinuvchini (ayblanuvchini) ekspertning xulosasi bilan tanishtirish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi JPKning 179-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi JKning ____-moddasi ____-qismi «__» bandi bilan gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ni mazkur jinoyat ishi bo'yicha o'tkazilgan _____ ekspertizasining 20__yil «__» _____ kunidagi «__»-sonli ekspertiza xulosasi bilan tanishtirdim va unga qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega ekanligini tushuntirdim.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ekspertning xulosasi bilan tanishib quyidagilarni bildirdi:

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi

(imzo)

(F.I.SH.)

Tarjimon

(imzo)

(F.I.SH.)

Ekspertiza xulosasi bilan tanishtirgan shaxs:

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

18-BOB. EKSPERTIZA TEKSHIRUVI UCHUN NAMUNALAR OLIHNING PROTSESSUAL TARTIBI

18.1. «Ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish» tushunchasi va asoslari

Tergovchi tirik odamning, murdaning, hayvonning, moddaning xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi namunalar olishga, basharti ularni tekshirish ekspert oldiga qo'yilgan savollarni hal qilish uchun zarur bo'lsa, haqlidir.

Tirik odamdan o'zida uning xususiyatlarini aks ettiruvchi: biologik-qon, soch, so'lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; psixofizik-dastxat; anatomik-teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari; shuningdek ovozning xususiyatlari, kasb malakasini aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin. Murdani ko'zdan kechirishda ham tekshiruv o'tkazish uchun kerakli moddiy namunalar olinishi mumkin.

Namuna tariqasida xom ashyo, mahsulot va boshqa materiallardan moddaning turga oid yoki o'ziga xos fizik yoxud kimyoviy xossalarni aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin.

Tekshiruv o'tkazish jarayonida ekspert gilza, o'q, buzish asboblari va boshqa obyektlarning tajriba namunalarini tayyorlashga va ularning eksperimental izlariga qarab, o'xshashlik yoki farqlanish masalasini hal etishga haqlidir (JPK 188-modda).

JPK 188-moddasining birinchi bandida qayd etilgan obyektlar namuna turlari sifatida tan olinib, quyidagi talablarga rioya qilinishi lozim:

a) ekspertiza tayinlashdan avval ekspert xulosasini olish maqsadida tergovchi ish bo'yicha zarur bo'lgan material va namuna-larni, ya'ni tirik odam, murda, hayvon va moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi namunalarni olish kerak;

b) ushbu namunalar tadqiq etiladigan obyektga nisbatan shu obyektning olish sharoitlari, vaqti, usuli va olingan vositalariga nisbatan mos holda bo'lishi tadqiq qilinadigan obyekt bilan aynan o'xshash bo'lishi kerak;

v) namunalar tadqiqot o'tkazish uchun yetarli hajm va sonda, tadqiq qilinadigan obyektlarning barcha belgilarini aniqlash maqsadida shu talablarga rioya qilingan holda olinishi zarur;

g) agar namunalari olinayotgan shaxs namunalar shaklini o'zgartirib berishda gumon qilinsa, u holda unga shunday topshi-riqlar berish kerakki,

ushbu o'zgartirishlarni bartaraf qilish maqsadida undan olinadigan namunalarning soni ko'proq bo'lsin. Masalan, odamning dastxati bo'yicha uning qo'lyozma namunalari soni kamida 15-20 varaqdan iborat bo'lishi mumkin.

Tadqiqot uchun olinadigan namunalar, predmetlar, moddalar, ulardan qolgan izlarning shaxslar yoki predmetlar (obyektlar) voqelikka qoldirgan belgilari ularning jinoyat hodisasiga bevosita yoki bilvosita aloqadorligiga ko'rsatuvchi xususiyatlar yig'indilari sifatida tan olinadi.

Namunalar aynan o'xshash shaxslar yoki bir xil predmetlar, biologik xususiyatlar, shaxslarning psixofizikaviy xususiyatlarini ko'rsatuvchi xossalarni tashkil etishi mumkin. Namunalar ikki katta guruhga bo'linadi va shaxs yoki predmet belgilari va xususiyatlarini jinoyatga nisbatan aloqador yoki aloqador emasligini ko'rsatish maqsadida ekspert tadqiqoti uchun sharoit yaratadi. Ushbu guruhlar quyidagilardan iborat:

a) jinoyat ishi qo'zg'atilishidan avval mavjud bo'lgan namunalar, masalan, erkin ravishda tuzilgan dastxat namunalari, kriminalistik hisoblarga doir tuzilgan daktokarta va hokazolar. Ularni olishning protsessual vositalari sifatida tintuv va olib qo'yish harakatlari ba'zi vaziyatlarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish harakati ham bo'ladi;

b) jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin alohida shaxslardan ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olinadi.

Namunalarni olishdan avval tergovchi tegishli qaror chiqarishi lozim.

Ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olishda, ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: biologik namunalar-qon, soch, so'lak namunalari, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; psixofizik namunalar-dastxat namunalari; anatomik namunalar-teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari; shuningdek, ovoz xususiyatlari; kasb malakasini aks ettiruvchi namunalardir.

Murdani ko'zdan kechirishda ham tekshiruv uchun kerakli moddiy namunalar olinishi mumkin.

Ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish xolislar, mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi, agar mutaxassis ishtiroki kerak bo'lmasa ham xolislarining ishtiroki tergov harakatini o'tkazish davrida zarur, aks holda ushbu tergov harakati huquqiy kuchga ega bo'lmaydi.

Tergov harakatlarini o'tkazishda mikrozaralar ham dalil ham namuna sifatida olinishi kerak va shundan so'ng ular ekspertiza tekshiruviga yuboriladi.

Namuna tariqasi xom ashyo, mahsulot va boshqa materiallardan moddaning turiga oid yoki o'ziga xos fizik yoxud kimyo xossalari aks

ettiruvchi namunalari olinishi mumkin. Ushbu namunalarni olinganda zaruriy ravishda mutaxassisning ishtiroki kerak.

Taqqoslash tadqiqotini o'tkazish jarayonida ekspert gilza, o'q, buzish asboblari va boshqa obyektlarning tajriba namunalarini tayyorlashga va ularning eksperimental izlariga qarab, o'xshashlik yoki farqlanish masalasini hal etishga haqli (JPK 188-modda).

Ekspert tekshiruvchi namunalari olinadigan shaxsni yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lmasa va alohida kasb mahoratini talab qilmasa, tergovchining o'zi, zarurat bo'lganda esa shifokor, boshqa mutaxassis, ekspert ishtirokida ekspert tekshiruvchi uchun namunalari olishga haqlidir.

Ekspert tekshiruvchi uchun namunalari olish yalang'och bo'lishni taqozo etsa yoki alohida kasb mahoratini talab qilsa, tergovchining topshirig'iga binoan tekshiruvchi uchun namunalarni shifokor yoki boshqa tibbiy mutaxassis oladi (JPK 189-modda).

Agar shaxsni yechintirib yalang'ochlash hamda uning kasb mahoratiga oid belgilarni aniqlash kerak bo'lmasa, u holda tergovchining o'zi namuna olish huquqiga ega bo'ladi. Agar biron zarurat bo'lib qolsa, shifokor, boshqa mutaxassis ekspert ishtirokida ekspert tekshiruvchi uchun namunalari olishga haqli.

Namuna olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar va organlarning nomi tegishli qarorda qayd etilishi kerak, aks holda ularning namuna olish uchun huquqiy kuchga ega bo'lishi inkor etiladi (JPK 189-modda).

Ekspert tekshiruvchi uchun namunalari gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxsdan olinishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan ham iz qoldirilgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida yetarlicha asoslar bo'lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruvchi uchun namuna olinishi mumkin (JPK 190-modda).

18.2. Ekspertiza tekshiruvchi uchun namunalari olish va uni rasmiylashtirishning protsessual tartibi

Ekspertiza o'tkazish uchun namunalari gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov choralari bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsdan olinishi mumkin. Ulardan namunalari olishdan avval Tergovchi tegishli qaror bilan tanishtirib, ushbu namunalarni olish huquqiga ega.

Agar hodisa sodir bo'lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan iz qoldirilgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida yetarlicha asoslar bo'lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruv uchun namuna olinishi mumkin. Ular ham tegishli qaror bilan tanishtirilib, ishga taalluqli va tekshiruvga oid bo'lgan namunalarni berishga majburdirlar (JPK 190-modda).

Namuna olish to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi va unda:

namuna oladigan shaxs yoki organ;

namuna olinishi kerak bo'lgan shaxs;

aynan qanday namuna va qancha miqdorda olinishi lozimligi;

namuna olinadigan shaxs qachon va kimning huzuriga kelishi zarurligi;

olingan namunaning qachon va kimga taqdim qilinishi kerakligi ko'rsatilishi lozim (JPK 191-modda).

Namuna olish to'g'risidagi qaror yoki ajrim tegishli shaxsga chiqarilgani uchun mazkur shaxsga nisbatan majburiy kuchga ega bo'ladi. Shu bois ushbu talab tegishli shaxsga qaror bilan tanishtirish paytida tushuntiriladi. Agar namunalarni taqdim etish uchun qarshi harakatlar qilinsa, bunday harakatlar favqulodda harakatlar sifatida tan olinishi va tegishli namunalar olish zarurligi bilan asoslanishi kerak.

Namunalarni majburiy ravishda olishdan avval tergovchi tegishli shaxsni namuna berishga og'zaki ko'ndirishi lozim (JPK 191-modda).

O'zidan namuna olinishi uchun kelishdan bosh tortayotgan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar majburiy keltirilishi mumkin, bunda, basharti qo'llaniladigan usullar og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lsa, ulardan majburlov yo'li bilan namunalar olinadi.

O'zga shaxslardan namunalar faqat JPKning 190-moddasida nazarda tutilgan hollarda hamda tanosil kasalligi va boshqa yuqumli kasalliklarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan hollarda majburlov yo'li bilan olinishi mumkin (JPK 192-modda).

Namuna olishda majburlov chegarasi namuna olishga qarshilik ko'rsatayotgan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, jabrlanuvchilarning qarshilik harakatlarini bataraf etish bilan chegaralanadi. Bunday harakatlar ular tergovchi oldiga yoki biron tibbiyot muassasasiga majburiy keltirilib, zarur namunalarni olishdan iborat. Agar ular jismoniy yoki og'zaki qarshilik bildirsalar ham namunalar majburiy ravishda olinishi mumkin.

Tergovchi shunday harakatlarni amalga oshirar ekan, tegishli qarorda tegishli belgi sifatida majburlov chegaralarini qayd etib o'tishi lozim (JPK 192-modda).

Tergovchi namuna olinishi kerak bo'lgan shaxsni chaqirtiradi yoki u turgan joyga borib, uni namuna olish to'g'risidagi qaror yoki sudning o'ziga kelib tushgan ajrimi bilan tanishtirib tilxat oladi va bu shaxsga, mutaxassisga, xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, agar kimdir rad etilgan bo'lsa, bu masalani hal qiladi. Keyin surishtiruvchi yoki tergovchi kerakli harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruvi uchun namunalar oladi. Bunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalar qo'llanilishi mumkin.

Murdadan, shuningdek xom ashyolardan, mahsulotlardan, boshqa materiallardan namunalar olish eksperimentalni qilish, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Olingan namunalar o'raladi va muhrlanadi. Keyin tergovchi ularni namuna olish bayonnomasi bilan birga tegishli ekspertga yuboradi. Agar namuna olish sudning ajrimiga binoan amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu ajrimni bajargan surishtiruvchi yoki tergovchi namunalarni ularni olish to'g'risidagi bayonnoma bilan birga sudga yuboradi. Sud taraflar ishtirokida namunalarni ko'zdan kechirib, ularning haqiqiylikiga va to'la saqlanganligiga ishonch hosil qilgandan keyin olingan namunani ajrim va bayonnoma bilan birga tegishli ekspertga yuboradi (JPK 193-modda).

Tergovchi namuna olish uchun qaror chiqaradi va namuna olinishi kerak bo'lgan shaxsni chaqirtirib yoki turar joyiga borib namuna olish to'g'risidagi qaror yoki sudning o'ziga kelib tushgan ajrim bilan uni tanishtirib tilxat oladi va bu shaxsga, mutaxassisga, xolislarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Agar kimdir rad etilgan bo'lsa, bu masalani hal qiladi. Shundan so'ng surishtiruvchi yoki tergovchi kerakli harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruvi uchun namunalar oladi.

Namunalar olish paytida og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalar qo'llanilishi mumkin.

Murdadan, shuningdek, xom ashyolardan, mahsulotlardan, boshqa materiallardan namunalar olish eksperimentalni qilish, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Namunalar olish tartibi bilan rozi bo'lmagan tegishli manfaatdor shaxslar namunalar olish bayonnomasida o'zining shikoyat va arizalarini keltirish huquqiga ega bo'ladilar (JPK 193-modda).

tergovchi tegishli shaxsni, shuningdek undan namuna olish to'g'risidagi qarorni yoki ajrimni shifokorga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi. Shifokorni, boshqa mutaxassisni, xolislarini rad etish masalasini qaror chiqargan tergovchi hal qiladi.

Shifokor yoki boshqa mutaxassis zarur harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruvini uchun namunalarni oladi. Bunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalardan foydalanilishi mumkin. Namunalarni o'ralib va muhrlanib, tergovchiga yuboriladi.

Tekshirish uchun hayvonlardan namunalarni olish zarurati tug'alsa, tergovchi tegishli qarorni yoxud ajrimni veterinarga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi (JPK 194-modda).

JPKning moddasida shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan namunalarni olish tartibi qayd etilgan. Sud-tibbiyoti xodimi va maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar odamlardan, murdadan, hayvonlardan, ularning murdalaridan namuna olish harakatlarini ushbu moddaniig talablariga binoan amalga oshiradilar. Ushbu harakatlarni amalga oshirish tergovchining qaroriga binoan tegishli vakolatga ega bo'lgan shifokor yoki veterinarga yuklatiladi.

Tegishli qaror (ajrim) namuna olish to'g'risidagi hujjat bo'lib, unda kim, qachon qaysi obyektidan qanday namunalarni olishi va kimga yuborishi qayd etilgan bo'lishi hamda tergovchi imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

Ushbu qaror qayerda va qachon kim tomonidan chiqarilgani, uni chiqargan shaxsning lavozimi, ish joyi, familiyasi, unvoni qayd etilishi lozim.

Qarorga (ajrimga) binoan shifokor, veterinar tegishli namuna olish bilan bog'liq harakatlarni o'tkazadi va shunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalardan foydalanishi, veterinar esa ushbu ilmiy-texnika vositalarini hayvonlardan namuna olishda ishlatishi mumkin. Veterinar qo'llagan ilmiy-texnika vositalari albatta o'ziga xos bo'ladi. Olingan namunalarni yuqorida qayd etilgan mutaxassislar o'rab, muhrlab, tergovchiga yuborishlari lozim.

Agar hayvonlardan namuna olish zarurati bo'lsada ammo veterinar-mutaxassis topilmasa, u holda uning vazifasini zootexnik mutaxassis ijro etishi mumkin. Shuning uchun tergovchi ushbu qarorni chiqarishdan oldin veterinariya sohasida mutaxassis bo'lgan shaxs bilan uchrashib, undan maslahat olish yoki uni bu to'g'rida batafsil so'roq qilishi mumkin.

Shifokor yoki veterinar namunalarni olgani to'g'risida namunalarni olish dalolatnomasini tuzish huquqiga ega. Ushbu dalolatnomada bu hujjat qachon, kim tomonidan tuzilgani uning mansabi, lavozimi, ish joyi, namunalarni nimaga asosan olganligi, qaysi obyektidan va qanday namunalar olinganligi, obyektining qaysi joyidan va qancha miqdorda, hajmi namunalar olinganligi, bu harakatlar qancha vaqt davom etganligi, olingan namunalar o'ralib va muhrlanib, mutaxassis tomonidan imzolanib, tergovchiga yuborishga tayyor holatda bo'lganligi qayd etiladi va mugaxassis tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaning daliliy kuchini mustahkamlash maqsadida uni mutaxassis bilan ishlayotgan xodimlar (ikki kishidan kam bo'lmagan) imzolashi mumkin. Shundan so'ng namunalar qaror va dalolatnoma bilan tergovchiga yuboriladi (JPK 194-modda).

Tekshiruv o'tkazish jarayonida ekspert tomonidan JPK 188-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan tajriba namunalari tayyorlanishi mumkin.

Tergovchi bunday namunalarni tayyorlash chog'ida hozir bo'lishga haqli bo'lib, bu hol ular tomonidan tuziladigan bayonnomada aks ettiriladi.

Ekspert tekshiruv o'tkazib bo'lganidan keyin namunalarni muhrlangan holda o'z xulosasiga qo'shib qo'yadi.

Tergovchi taraflar ekspert taqdim qilgan tajriba namunalarini ko'zdan kechiradilar, shundan so'ng ular ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi (JPK 195-modda).

Tekshiruv o'tkazish jarayonida ekspert gilza, o'q, buzish asboblari va boshqa obyektlarning tajriba namunalarini tayinlashga va ularning eksperimental izlariga qarab, o'xshashlik yoki farqlanish masalasini hal etishga haqli. Ushbu namunalarni ekspert o'z tashabbusi bilan tayyorlash huquqiga ega.

Namunalar tayyorlash jarayoni bayonnomada aks etishi kerak. Uni ekspert tuzishga haqli, agar bu jarayonda surishtiruvchi yoki tergovchi ishtirok etsa, u holda mazkur harakatlarni ular bayonnomada qayd etishlari lozim.

Tayyorlangan namunalarni ekspert tadqiqotida ishlatishga huquqiga ega. Tadqiqot o'tkazib bo'lganidan so'ng ushbu namunalarni ekspert muhrlaydi va o'z xulosasiga qo'shib qo'yadi. Ekspert o'z xulosasida va ularni tadqiqotda ishlatganligini qayd etishi lozim. Shundan so'ng u xulosa bilan namunalarni tergovchiga yuboradi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi, sud muhokamasida ularga yuborilgan ekspert xulosasi va namunalar o'rganilib, ko'zdan kechiriladi va baholanadi, shundan so'ng ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi (JPK 195-modda).

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishda qo'llaniladigan usullar va ilmiy-texnikaviy vositalar inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lishi lozim. Kuchli og'riq beradigan murakkab tibbiy tadbirlar va usullarni qo'llash namuna olinishi lozim bo'lgan shaxsning roziligi bilan, basharti u o'n olti yoshga to'lmagan yoki ruhiy kasal bo'lsa, uning qonuniy vakili, vasiylari yoki homiylarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Namuna olish namuna olinuvchini yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lsa, shifokor, boshqa mutaxassis, xolislar namuna olinuvchi shaxs bilan bir jinsda bo'lishlari lozim (JPK 196-modda).

Namunalar olishda ekspert jinoyat protsessida, ya'ni namunalarni olish harakatida ishtirok etayotgan fuqaroning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishi shart. tergovchi ekspertga og'zaki ravishda tegishli shaxsdan namuna olish to'g'risidagi ko'rsatuvi mazkur turdagi harakatlarni amalga oshirishga asos bo'la olmaydi.

Agar ekspert namuna olish uchun kuchli og'riq beradigan murakkab tibbiy tadbirlar va usullar orqali namuna olishi lozim bo'lsa, bunday hollarda shaxsning roziligi kerak, aks holda bunday harakatlarni bajarmaslik kerak, chunki bu JPKning 18-moddasiga zid holda o'tkazilgan hisoblanadi.

Agar kuchli og'riq beradigan murakkab tibbiy tadbirlar va usullarni qo'llash o'n olti yoshga to'lmagan yoki ruhiy kasal bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan bo'lsa, u holda ulardan namuna olish harakatlarini boshlashdan avval ularning qonuniy vakili, vasiylari yoki homiylarining roziligi olinadi va shu vakil, vasiy va homiy shaxslar mazkur harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.

Ish bo'yicha namuna olishga qonuniy vakil, vasiy yoki homiy shaxs rozilik bermagan holda tergovchi namuna olinishi zarurligi va uni tergov qilinayotgan ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, JPKning 271-moddasida qayd etilgan talablarni ularga tushuntirib, namunalarni majburiy ravishda oldirish harakatlarini amalga oshirishga va bu to'g'rida chiqargan qarorlarida qayd etib, shu hujjatga asosan ekspert mazkur harakatlarni bajarishga majbur bo'ladi.

Namuna olish namuna olinuvchini yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lsa, shifokor, boshqa mutaxassis, xolislar namuna olinuvchi shaxs bilan bir jinsda bo'lishlari lozim, aks holda JPKning 18-moddasi qo'pol ravishda buzilgan bo'ladi (JPK 196-modda).

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olinganligi to'g'risida JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq surishtiruvchi

yoki tergovchi bayonnoma tuzadi, sud esa, o'ziga kelgan namunalarni sud majlisi bayonnomasida aks ettiradi (JPK 197-modda).

Nazorat uchun savollar:

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishqanday maqsadlarda o'tkaziladi?

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish qanday xususiyatlarga ega?

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishnatijalari qanday rasmiylashtiriladi?

19-BOB. MURDANI EKSGUMATSIYA QILISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

19.1. «Murdani eks gumatsiya qilish» tushunchasi va asoslari

Eks gumatsiya soʻzi lotincha exhumation ex – dan, humas – yer, tuproq soʻzlaridan olingan boʻlib, yaʼni yerga koʻmilgan joydan qazib olish degan maʼnoni anglatadi.

Ushbu tergov harakati aksariyat hollarda dastlabki tergov va surishtiruv jarayonida yoʻl qoʻyilgan xatolarni bartaraf etish uchun oʻtkaziladi.

Koʻzdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalar olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish zarur boʻlgan taqdirda tergovchi bu haqda qaror chiqaradi va prokurorning sanksiyasini oladi. Sud eks gumatsiyani surishtiruv organiga yoki tergovchiga topshirishi mumkin boʻlib, bu haqda ajrim chiqaradi (JPK 148-modda).

Murdani eks gumatsiya qilish tergov harakati Oʻzbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi aholining aksariyatiga psixologik jihatdan salbiy taʼsir qilishini unutmazlik kerak, shuning uchun bu harakatni agar eks gumatsiya qilish uchun asoslar mavjud boʻlsa, imkon qadar ovoza qilmasdan, lekin qonunda qayd etilgan barcha talablarni saqlagan holda amalga oshirish darkor.

Murdani eks gumatsiya qilish jarayonida tibbiyot nuqtai nazaridan ushbu tergov harakati ishtirokchilarining sogʻligʻi hayotiga xavf tugʻdiruvchi omillardan saqlanish kerak, tegishli aseptika-antiseitika qoidalariga rioya qilib, tibbiyot niqoblari va qoʻlqoplarida, maxsus kiyimda va poyabzalda oʻtkazish va shundan soʻng dezinfeksiya harakatlarini oʻtkazish kerak boʻladi. Bu harakatlar murdadan tarqaluvchi zaharli hiddan saqlanish, murdadan kelib chiqadigan kasalliklarni profilaktika qilish harakatlarini oʻz ichiga olishi zarur. Bu talablarni amalga oshirmagan surishtiruvchi yoki tergovchi u bilan ishtirok etayotgan tergov harakati qatnashchilarini salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, tergov harakatining qatnashchilari bu haqda tushuntirish oʻtkazishi va yuqorida qayd etilgan qoidalarga boʻysunishlari kerak (JPK 148-modda).

Tergovchi murdani eks gumatsiya qilishni sogʻliqni saqlash organlari bilan kelishgan holda va murda koʻmilgan joy vakilining ishtirokida amalga oshiradi. Eks gumatsiya surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida

amalga oshirilayotgan bo'lsa, xolislarining ishtirok etishi shart. (JPK 149-modda).

Murdani eksqumatsiya qilish tergov harakati tergovchi tomonidan sog'liqni saqlash organlari bilan kelishilgan holda va murda ko'milgan joy vakilining ishtirokida amalga oshiradi.

Bu harakatda xolislar ishtirok etishi shart. Murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi qarorni (ajrimni) tergovchi, surishtiruvchi qabriston ma'muriyati va sud-tibbiyot ekspertizalari muassasasiga yuboradi va eksqumatsiya qilish kunini va vaqtini (aniq vaqtini) belgilaydi, agar murdani qabristondan ekspertiza muassasasiga yuborish kerak bo'lsa, sanitar-epidemiologik stansiyaga transport vositasi bilan ta'minlash to'g'risida eksqumatsiya qilish qarorida bu muassasani qayd etib, u yerga ham shu qarorni yuboradi va transportning qabristonga yetib kelish vaqti qayd etiladi.

Madomiki, murdani eksqumatsiya qilish tergov harakatini o'tkazishda marhumning qarindoshlari norozilik bildirsalar, bu holat ichki ishlar organi yordamida bartaraf etilib, murdani eksqumatsiya qilish tergov harakati majburan o'tkaziladi.

19.2. Murdani eksqumatsiya qilishning protsessual tartibi

Eksqumatsiya tergov harakatini o'tkazish haqida tergovchi qaror chiqaradi va prokurorning sanksiyasini oladi. Prokurorning ruxsatini olib, eksqumatsiya to'g'risidagi qarorni tergovchi qabriston ma'muriyatiga, sog'liqni saqlash organiga hamda zarur bo'lsa sanepidstansiya ma'muriyatiga va sud-tibbiyot ekspertiza o'tkazish muassasasiga yuborish huquqiga ega. Ushbu qarorda eksqumatsiya qilish asoslari, zaruriyati, qayerda eksqumatsiya o'tkazilishi, qachon bu harakat o'tkazilishi, kim bu qarorni chiqarganligi, qaysi mansabdor shaxsga bu qaror ijro etilishi uchun yuborilganligi qayd etilishi kerak. Bundan tashqari eksqumatsiyaga: ikkita xolis, sud-tibbiyot eksperti, qabriston vakili, texnik yordamchilar (ikki kishidan kam bo'lmagan holda), eksqumatsiyani videoyozuvga olish bo'yicha mutaxassis, ekspert-kriminalist va zarur bo'lsa, yana boshqa sohadagi mutaxassislar qatnashishi kerak. Eksqumatsiyaga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda murdani tanib oluvchi shaxslar taklif etilishi mumkin.

Murdani eksqumatsiya qilish tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etayotgan barcha shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirilishi va mazkur tergov harakatining maqsad va vazifalari to'g'risida ayon qilinishi lozim.

Eksgumatsiya qilinadigan joyga yetib borilgach eksgumatsiya qilinadigan joyga yetib borilgach, harakatda ishtirok etuvchi barcha qatnashchilar nazoratida tergovchi eksgumatsiya qilish to'g'risidagi qarorni o'qib eshittiradi. Qabriston vakili qaror bilan tanishganligi to'g'risida imzo chekadi. Shundan so'ng, tergovchi bayonnomada eksgumatsiyada ishtirok etuvchi barcha shaxslarning kimligi, qayerda istiqomat qilishi, qaysi muassasada ishlashi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni kiritib, ularni tegishli huquq va majburiyatlari bilan tanishtirganligi to'g'risida belgi qo'yib, tasdiqlovchi imzolarni bayonnomada qayd etadi va texnik yordamchilarga qabrni kovlash to'g'risida buyruq beradi. Kabrni kovlashdan avval qabrda dafn etilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, qachon tug'ilganligi va vafot etgan yili, oyi va kuni bayonnomada aks ettirilishi lozim (bu ma'lumotlar tegishli eksgumatsiya qilish qarorda ham bo'lishi shart). Texnik yordamchilar qabrni kovlab bo'lganlaridan so'ng, tergovchi tobutga olish to'g'risida buyruq beradi (agarda bu harakat xristianlarning (qabristonida o'tkaziladigan bo'lsa), agar bu harakatlar musulmonlar qabristonida o'tkaziladigan bo'lsa, u holda xilxonadan kafanga o'ralgan murda foto yoki videoga olinadi (xristian qabristonida tobutning dastlabki holati fotoga yoki videoga muttasil olib turilishi lozim).

Tobut tepaga chiqarilgandan keyin tobutni texnik yordamchilar ochadilar va shu lahzada foto yoki videovositalar bilan murda holatini qayd etish kerak va uning holati tergovchi, xolislar va sud-tibbiyot mutaxassisi tomonidan ko'zdan kechiriladi. Musulmon qabristonida kafanga o'ralgan murda tepaga chiqarilgandan keyin fotosuratga (videoyozuvga) olinadi, so'ng matoni murda bilan maxsus tayyorlangan joyga o'tkazib, kafandan murda ochiladi. Bu joyda maxsus tayyorlangan oq choyshabga murda yotqiziladi va murdani tergovchi, xolislar va sud-tibbiyot eksperti ko'zdan kechiradi. Ushbu harakatda ekspert-kriminalist va boshqa sohadagi mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

Eksgumatsiya qilingan murdani tashqi ko'zdan kechirish va uning ichki organlarini tadqiq qilish o'lim sababini aniqlashdan tashqari, uni vujudga keltiruvchi hollarni tiklashga imkon beradi, bu esa jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Murda eksgumatsiya qilingandan so'ng ushbu tergov harakati bo'yicha asos bo'lgan maqsad amalga oshiriladi:

- 1) murda ko'zdan kechiriladi;
- 2) murdani tanib olish uchun ko'rsatiladi;
- 3) ekspertiza zaruriyati bo'lsa uni ekspertizaga yuboriladi;
- 4) taqqoslash uchun tadqiqot o'tkazish kerak bo'lsa, undan tegishli namunalari olinadi.

Bu harakatlar protsessual qonunda qayd etilgan qoidalarga asosan amalga oshirilishi lozim.

Eksgumatsiya qilingan murdaning ekspertizasi har doim to'liq bo'lishi kerak va sud-tibbiyot eksperti murdaning uchta qismidan – miya qobig'idan, ko'krak qafasidan va ichakdan (qorindan) tegishli ravishda foydalanib, ochishi va ko'zdan kechirish, ularning holatini qayd etishi, zarur bo'lsa namunalar (qon, ichaqda bo'lgan chiqindilar, soch tolalari, tirnoq tagidagi qoldiqlar, jinsiy organlarning ichida bo'lgan biologik mikrocharralar va hokazolarni) olish kerak. Murdani sud-tibbiy jihatdan yorib ochish yaqin bo'lgan sud-tibbiyot o'likxonasi yoki qabristonda amalga oshiriladi. Ekspertiza qilishdan avval tergovchi bu to'g'rida tegishli qaror chiqarishi kerak va u ekspert muassasasiga yuboriladi.

19.3. Murdani eksgumatsiya qilish natijalarini protsessual qayd etish

Eksgumatsiyani amalga oshirgandan keyin tergovchi, surishtiruvchi murdani dafn etish to'g'risida buyruq beradi va texnik yordamchilar murdani qayta qabrga dafn etadilar. Ushbu tergov jarayoni muttasil video-yozuvga yozib boriladi yoki ushbu vositalar bo'lmasa suratga olib boriladi.

Videoyozuv tergov harakati ishtirokchilariga ushbu tergov harakati yakunlanganidan so'ng namoyish qilinadi va bu bayonnomada qayd etilib, tergov harakati qatnashchilari tomonidan imzolar bilan tasdiqlanadi. Agar eksgumatsiya paytida ushbu tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslarda shu tergov harakatiga nisbatan biron bir qo'shimcha, aniqlashtirish, e'tiroz, ariza yoki shikoyat keltiradigan bo'lsalar, u holda tergovchi keltirilgan barcha qo'shimcha, aniqlashtirish, e'tiroz, ariza yoki shikoyatlarni bayonnomada qayd ettirilishi lozim.

Eksgumatsiya paytida murdadan olingan namunalar yoki biron bir obyektlar to'g'risida tergovchi bayonnomada qayd etishi va shu namunalar, obyektlar nimaga o'ralgani, muhrlangani, imzolangani, muhrning raqami to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Eksgumatsiyani boshlash va yakunlash vaqti bayonnomada ko'rsatiladi. Bayonnoma o'tkazilgan tergov harakatiga iltimos bo'lib, u to'g'ri qayd etilganligi to'g'risida ishonch hosil qilgan tergov harakatining qatnashchilari uni imzolari bilan tasdiqlaydilar, tergovchi oxirida imzo chekadi. Eksgumatsiya harakatini bayonnomada qayd etganda ushbu bayonnomaning har bir sahifasi tergovchi va xolislar hamda sud-tibbiyot mutaxassisi tomonidan imzolanishi shart.

Yuqorida qayd etilgan talablarga rioya qilmaslik eksqumatsiya qilish tartibini qo‘pol ravishda buzish demakdir. Bundan tashqari eksqumatsiya o‘tkazishda quyidagi xatolarga yo‘l qo‘ymaslik kerak: agar shaxs zaharlanish natijasida o‘lgani to‘g‘risida gumon bo‘lsada, ammo eksqumatsiya paytida undan sud-kimyoviy tadqiqot uchun murdaning tegishli qismlari olinmagan bo‘lsa; o‘lgan shaxsni qanday vaziyatlarda o‘lganini ko‘rgan guvoh so‘roq qilinmagan bo‘lsa (ya‘ni u o‘layotgan paytida qanday ahvolda bo‘lgan, qanday diagnoz qo‘yilgan, o‘layotgan shaxs qanday shikoyatlar qilgan, zaharlanishning qanday alomatlari kuzatilgan, kasallikning obyektiv belgilari nimadan iborat bo‘lgan); xristian (nasroniy) qabristonidan olingan murdaning kiyimlari ko‘zdan kechirilmaganligi va tuproq namunalari tobutning ustidan, pastidan, biqinlaridan olinmagan bo‘lsa, murdaning kiyimlari tegishli qoplarga saqlash uchun olib qo‘yilmaganligini ko‘rsatuvchi harakatlar; agar murdaning kiyimlari qon bilan namlangan bo‘lsa, kiyimlarni quritmasdan qopga solinganligi; musulmon qabristonida eksqumatsiya qilganda murda o‘ralgan matoni ko‘zdan kechirmasdan olib qo‘ymaslik harakatlari, tuproq namunalarini murdaning pastidan, yon biqinidan va tepa qismidan olinmaganligi; murdaning aniqlangan joyida kino, foto yoki videotasvirga qayd etilmaganligi; murdaning badanini yorganda uni uchta joyidan yorilmaganligi (miya qobig‘i, ko‘krak qafasi va qornini) va atigi ikkita yoki bitta joyidan yorilganligi; murdaning tanasidan gastologak, bakteriologik, rentgenologik, spektral, botanik va bir qator tadqiqotlarni ekspert o‘tkazmaganligi (agar eksqumatsiya ekspertiza o‘tkazilishi bilan bog‘liq bo‘lsa); bayonnomada o‘lgan shaxsning ma‘lumotlari qayd etilmagan bo‘lsa; ishga ayon bo‘lgan o‘lim hollari qayd etilmagan bo‘lsa; qaysi hujjatlarga asosan eksqumatsiya qilinganligi qayd etilmagan bo‘lsa; ko‘zdan kechirish harakatlari bayonnomada to‘liq qayd etilmagan bo‘lsa; ushbu tergov harakatining qatnashchilari o‘zlarining protsessual huquq va majburiyatlari to‘g‘risida ogohlantirilmagan bo‘lsa; bayonnomada barcha qatnashchilarning imzolari mavjud bo‘lmasa: foto, videotasvirga olinsa ham bayonnomada bu haqdagi ma‘lumot qayd etilmagan bo‘lsa; fotosuratlar yoki videotasma eksqumatsiya qilish bayonnomasiga ilova qilinmagan bo‘lsa; murdadan olingan namunalar bayonnomada qayd etilmagan bo‘lsa; murdani tanib olishda qaysi belgilarga qarab tanilganliga qayd etilmagan bo‘lsa; murdadan mikrozaralar olinmagan va tanasida bo‘lgan jarohatlar bayonnomada aks ettirilmagan bo‘lsa; murdadan qon yoki soch yoxud boshqa biologik yoki kimyoviy namunalar olinmagan bo‘lsa; eksqumatsiyadan avval va eksqumatsiyadan keyin murda dafn etilgan joy foto yoki videotasvirga qayd etilmagan bo‘lsa.

Murdani ekspertiza qilib bo'lgandan keyin uni qabristonga jo'natiladi va qayta dafn etiladi. Tergovchi murdani eksqumatsiya qilish maqsadi, ekspertiza qilish masalasi asosida bu tergov harakatini o'tkazganda murdani eksqumatsiya qilinganligi va sud-tibbiyot muassasasiga yuborilganligi to'g'risida tegishli bayonnoma tuzadi, xolislar va shu tergov harakatida ishtirok etgan boshqa shaxslar bilan ushbu bayonnomani o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Agar shu tergov harakatini o'tkazish davomida foto, kino yoki video vositalar qo'llanilgan bo'lsa, bu ham bayonnomada o'z ifodasini topish lozim. (JPK 149-modda).

Surishtiruvchi yoki tergovchi murdaning tashqi ko'rinishini u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok etishiga imkoniyat bo'lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirish uchun boshqa mutaxassislar, shuningdek ekspertlar jalb qilinadi. (JPK 138-modda).

Murda topilgan joyda uni tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida tanib oluvchi tanib olish lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilinishi lozim. (JPK 126-modda).

Surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish to'g'risida bayonnoma tuziladi. Sud muhokamasida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish sud majlisi bayonnomasida qayd qilinadi.

Barcha hollarda bayonnomaga: tanib oluvchi, tanib olish uchun ko'rsatish sharoiti, jarayoni va natijalari, tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxslar, ularning yoshi, bo'yi, millati, turar joyi, ko'zga tashlanuvchi belgilari, kiyimlari; tanib olish uchun ko'rsatilgan narsalar tavsifi; tanib olish uchun ko'chmas obyektlar ko'rsatilganda esa, shuningdek tanib oluvchi ko'rsatgan yo'nalishlar va izlanayotgan obyektga biror aniq joydan borish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Tanib olish uchun fotosuratlar ko'rsatilgan bo'lsa, bayonnomaga fotojadval ilova qilinishi lozim.

Tanib oluvchining ko'rsatuvlari, shuningdek unga Tergovchi, sud, taraflar yoki boshqa shaxslar tomonidan berilgan savollar va qaytarilgan javoblar bayonnomaga yozib boriladi. (JPK 131-modda).

Tanib olinmagan murdalarning barmoq izlari olinishi shart, murdadan tekshirish uchun boshqa xil namunalari ham olinishi mumkin.

Tanib olinmagan murdani faqat prokuror ruxsati bilangina ko'miladi. (JPK 138-modda).

Murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnoma tuzadi, sud esa eksqumatsiya jarayoni va natijalarini sud majlisining bayonnomasida qayd etadi. Bayonnomaga qabr, tobut va murdaniing fotosuratlarini, kinotasvir hamda videoyozuvlarini ilova qilinishi mumkin. (JPK 151-modda).

Agar eksqumatsiya paytida foto, kino, ovoz yozish, videotasvirni qo'llash harakatlari yoki murdadan qoliplar va namunalar olish harakatlari amalga oshirilgan bo'lsa, u holda texnik vositalarning to'liq nomlanishi, ularning texnik parametrlari, ishlatish qoidalari va sharoitlari, murdaga nisbatan ular qanday jihatdan qo'llanilganligi va olingan natijalarni, olingan qoliplar va namunalar qanday obyektlarga yoki narsalarga o'ralganligi, imzolar bilan tasdiqlanganligi bayonnomada qayd etilishi kerak. Bayonnomaga qabr, tobut va murdaniing fotosuratlarini, kino va videoyozuvlarini, shuningdek, olingan qoliplar, namunalar ilova qilinadi.

Bayonnomada ushbu tergov harakatida ishtirok etgan shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirilganligi ham qayd etiladi.

Bayonnoma ushbu tergov harakatida ishtirok etgan xolislar, texnik yordamchilar, sud-tibbiyot mutaxassisi, tergovchi va ushbu tergov harakatida ishtirok etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolaniadi. Bayonnomaning har bir sahifasi xolislar, tergovchi va sud-tibbiyot mutaxassisi tomonidan imzolaniishi kerak.

Bayonnomada murdadan olingan namunalarning tavsifi, ular nimaga o'ralgan, muhrlangan va tasdiqlanganini (imzolangan) to'liq tavsiflanishi lozim, lekin bu namunalar uchun alohida bayonnoma tuzilishi kerak.

Murda eksqumatsiya qilinganidan so'ng ko'zdan kechirish, tanib olish yoki ekspertiza tekshiruvini uchun namunalar olish amalga oshirilgan bo'lsa, mazkur tergov harakatlari to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Murdani eksqumatsiya qilishda sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassis shifokor, zarur bo'lsa, boshqa mutaxassislar ham qatnashadilar. Agar ekspertiza tayinlangan bo'lsa, eksqumatsiya o'tkazishda sud tibbiyoti ekspertining ishtirok etishi shart.

Zarur hollarda, eksqumatsiyani o'tkazishga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek murdani tanib olishi mumkin bo'lgan shaxslar jalb qilinishi mumkin. (JPK 151-modda).

Eksqumatsiyadan va boshqa protsessual harakatlardan so'ng murdani ko'mish murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqargan shaxsning ishtirokida amalga oshiriladi. Murda ko'milganligi to'g'risida bayonnoma tuziladi (JPK 152-modda).

Murdani eksqumatsiya va boshqa protsessual harakatlardan keyin, ya'ni ko'zdan kechirish, tanib olish yoki ekspert tekshiruvi uchun namunalar olinganidan so'ng, murda qazib olingan joyiga qayta dafn etilishi kerak. Agar eksqumatsiya harakatlari va murdani qayta dafn etish harakatlari aynan bir kunning o'zida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu holda yagona bir bayonnomada bu harakatlarni qayd etish maqsadga muvofiq bo'ladi, agar murdani eksqumatsiya qilish va uni qayta dafn qilish orasidagi vaqt.bir kundan ko'proq muddatni talab qilsa, bu holda murdani eksqumatsiya qilish uchun qayta dafn etish haqida alohida bayonnoma tuziladi.

Eksqumatsiyaning maqsadi amalga oshirilganidan keyin tergovchi, surishtiruvchi murdani dafn etish to'g'risida buyruq beradi va texnik yordamchilar murdani qabrga qayta dafn etadilar va ushbu tergov jarayoni muttasil videotasmaga yozib boriladi yoki ushbu vositalar bo'lmasa fotosuratga qayd etib boriladi. Qayta dafn etish jarayonida tergovchi, surishtiruvchi eksqumatsiya to'g'risida bayonnoma tuzadi va uni ushbu tergov harakatida ishtirok etgan shaxslarga ovoz chiqarib o'qib beradi va ishtirokchilardan shu tergov harakati hamda bayonnomani tergov harakatiga to'g'ri bo'lishi bo'yicha ular qanday qo'shimchalar, e'tirozlar, arizalar yoki tergovchining harakatiga nisbatan shikoyatlari bor yoki yo'qligini so'raydi. Agar tergov harakatida ishtirok etgan shaxslar biron bir e'tiroz, shikoyat, ariza yoki qo'shimchalarga ega bo'lsalar, u holda tergovchi bu e'tiroz, shikoyat, ariza yoki qo'shimchalarning hammasini bayonnomada qayd etishi lozim. Bayonnoma ushbu harakatda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolaniib tasdiqlanadi.

Nazorat uchun savollar:

Murdani eksqumatsiya qilish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Murdani eksqumatsiya qilish qanday maqsadlarda o'tkaziladi?

Murdani eksqumatsiya qilishni o'tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Murdani eksqumatsiya qilish o'tkazish qanday xususiyatlarga ega?

Murdani eksqumatsiya qilishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Murdani eksqumatsiya qilish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

_____ning
murdasini eks gumatsiya qilishga
«RUXSAT BERAMAN»

20__ yil «__» _____

**Murdani eks gumatsiya qilish haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib,

A N I Q L A D I M:

O'zbekiston Respublikasi JPKning 148-moddasini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____-sonli qabrdan _____ning murdasi eks gumatsiya qilinsin.
2. Eks gumatsiyada ishtirok etish uchun _____sud-tibbiyot ekspertiza byurosi eksperti _____ va _____ IIB EKB ekspert-kriminalisti _____lar chaqirilsin.
3. Qarorning nusxasi _____qabristoni ma'muriyatiga topshirilsin.

(lavozimi unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Qaror 20__ yil «__» _____da e'lon qilindi. Qarorning nusxasini oldim.

Yalang'och qabristoni direktori

(imzo)

(F.I.SH.)

Murdani eks gumatsiya qilish B A Y O N N O M A S I

20__ yil ____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha, 20__ yil __
_____ kunidagi murdani eks gumatsiya qilish qaroriga asosan, O'zbekiston
Respublikasi JPKning 149–151-moddalariga rioya qilib, mutaxassis
_____ sud tibbiyot ekspertiza byurosi eksperti
_____, _____ IIB EKB ekspert-kriminalisti
_____ va murda ko'milgan joy, ya'ni _____
qabristoni vakili _____ va xolislari:

1. _____

2. _____

_____ lar ishtirokida
_____ da joylashgan _____ qabristoni __-
uchastka _____-sonli қабрдан _____ ning murdasini kovlab
chiqarib olib, eks gumatsiyasini o'tkazdim va bu haqda JPKning 90–92 moddalariga
asoslanib ushbu bayonnomani tuzdim.

Eks gumatsiyadan oldin O'zbekiston Respublikasi JPKning 78-moddasida
ko'rsatilgan, xolislari va mutaxassislarni eks gumatsiyaga qatnashishiga monelik
qiladigan holatlar aniqlanmadi.

Xolislarga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq
va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (FISH) 2. _____ (imzo) _____ (FISH)

Mutaxassislar _____ va _____ larga
O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan huquq va
majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (FISH) 2. _____ (imzo) _____ (FISH)

Dafn etilgan joyni ko'rsatish va qabrdan chiqarib olingan murdani tanib olish
uchun marhumning _____ si, ish bo'yicha qonuniy vakil deb e'tirof etilgan

fuqaro _____ga O'zbekiston Respublikasi JPKning 63-
moddasida ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

(imzo)

(FISH)

Ishtirokchilarga eks gumatsiya ko'zdan kechirish va ekspertizaga namunalar olish maqsadida o'tkazilishi va uni o'tkazish tartibi tushuntirildi.

Eks gumatsiyada quyidagilar aniqlandi:

Fotosuratlar jadvali ushbu bayonnomaga ilova qilinadi.

Eks gumatsiya _____, _____ darajali haroratda o'tkazildi.
(ob havo sharoiti)

Eks gumatsiya qilish soat _____ da boshlanib, _____ da tamomlandi va bu haqda mazkur bayonnoma tuzildi. Bayonnomani tergovchi ovoz chiqarib o'qib eshittirdi. Qatnashchilardan ariza, shikoyat va o'zgartirishlar bo'lmadi. Hammasi to'g'ri yozildi.

Xolislar _____
(imzo) (FISH)

(imzo) (FISH)

Qabriston vakili _____
(imzo) (FISH)

Mutaxassislar _____
(imzo) (FISH)

(imzo) (FISH)

Marhumning _____
(imzo) (FISH)

(lavozimi, unvoni) (imzo) (FISH)

**Murdani qayta dafn etish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil _____

_____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha, 20__ yil __
_____ kunidagi murdani eksqumatsiya qilish qaroriga asosan, O'zbekiston
Respublikasi JPKning 90 va 152-moddalariga rioya qilib, mutaxassis
_____ sud tibbiyot ekspertiza byurosi eksperti
_____, _____ IIB EKB ekspert-kriminalisti
_____ va murda ko'milgan joy, ya'ni _____
qabristoni vakili _____ va xolislar:

1. _____
2. _____ lar ishtirokida murdani ko'mishni amalga oshirdim.

Xolislariga O'zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.SH)
2. _____ (imzo) _____ (F.I.SH)

Mutaxassislar _____ va _____ larga
O'zbekiston Respublikasi JPKning 70-moddasida ko'rsatilgan huquq va
majburiyatlari tushuntirildi.

1. _____ (imzo) _____ (F.I.SH)
2. _____ (imzo) _____ (F.I.SH)

Mazkur harakatlar «_____» rusumli fotoapparat yordamida suratga olindi va bu suratlar ushbu bayonnomaga ilova qilinadi.

Murdani ko'mish soat _____ da boshlanib _____ da tamomlandi. Bu haqda ushbu bayonnomaga tuzildi va ishtirokchilarga ovoz chiqarib o'qib berildi. Qatnashchilardan tuzatish, taklif, ariza va shikoyatlar tushmadi.

Xolislar

(imzo)

(F.I.SH)

(imzo)

(F.I.SH)

Qabriston vakili

(imzo)

(F.I.SH)

Mutaxassislar

(imzo)

(F.I.SH)

(imzo)

(F.I.SH)

Marhumning _____

(imzo)

(F.I.SH)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH)

20-BOB. TELEFON VA BOSHQA SO‘ZLASHUV QURILMALARI ORQALI OLIB BORILADIGAN SO‘ZLASHUVLARNI ESHITIB TURISH

20.1. «Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish» tushunchasi, asoslari va tartibi

Ish bo‘yicha to‘plangan dalillar ish uchun ahamiyatga molik xabarlarini olish mumkinligiga yetarli darajada asos bo‘la olsa, Tergovchi telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir (JPK 169-modda).

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish surishtiruvchi yoki tergovchiga jinoyat ishi bo‘yicha manfaatdor bo‘lgan shaxslar ularga nisbatan ta‘magirlik, o‘ldirish, tan jarohati yetkazish va mulkiga zarar yetkazish bilan yoki boshqa shaxsga qarshi jinoyatlarni sodir etish bilan qo‘rqitish orqali biron moddiy manfaatga ega bo‘lish maqsadini ko‘zlaydigan jinoyatlar to‘g‘risida murojaat qilganda hamda odil sudlovga qarshi boshqa jinoyatlarni ochish maqsadida o‘tkaziladi.

Telefon so‘zlashuvlari abonentlar o‘rtasida, shuningdek, shaharlararo va radiorele, yuqori to‘lqinli va kosmik aloqa orqali olib boriladigan so‘zlashuvlardir orqali olib boriladigan so‘zlashuvlar ham shularga kiradi. Boshqa so‘zlashuv qurilmalari deganda esa selektor-o‘tkazuvchi, radio va og‘zaki nutqni boshqa yo‘llar orqali ma‘lum masofaga yuborish imkoniyatiga ega qurilmalar tushuniladi. Bu qurilmalardagi so‘zlashuvlarni eshitishda JPKning 21-bobida qayd etilgan qoidalarga bo‘ysunish lozim.

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari qatoriga kiradi va bu tergov harakatlarini Tergovchi o‘tkazish huquqiga ega va uni milliy xavfsizlik xizmati organlari amalga oshiradi.

Ushbu tergov harakatini o‘tkazish uchun tergovchi qaror chiqaradi va bu qaror prokuror ruxsatiga asosan kuchga kiradi (JPK 169-modda).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarini eshitib tu-

rish Tergovchi prokurorning sanksiyasini olib chiqargan qarorga binoan amalga oshiriladi.

Jabrlanuvchiga, guvohga, shuningdek ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan kuch ishlatish, tovlamachilik yoki boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etish xavfi mavjud bo'lsa, bu shaxslarning arizalari bo'yicha yoki ularning yozma roziligi va prokurorning sanksiyasi bilan yoxud sudning ajrimiga ko'ra ularning telefon yoki boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali bo'ladigan so'zlashuvlarini eshitib turish amalga oshirilishi mumkin.

Tergovchi kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, prokurorni zudlik bilan yozma ravishda xabardor etish sharti bilan, uning sanksiyasiz so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qarorni milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuborishga haqlidir. Prokurorning sanksiyasiz so'zlashuvlarini eshitib turish to'g'risidagi qaror bir sutka davomida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qaror yoki ajrim unda eshitaladigan axborotlar xususiyati va hajmi, shuningdek, so'zlashuvlarni eshitib turishning borishini va natijalarini qayd etish shakli belgilanib, milliy xavfsizlik xizmati organlariga ijro etish uchun yuboriladi. So'zlashuvlarni eshitib turish olti oydan ortiq davom etishi mumkin emas.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish chog'ida ovoz yozish moslamalari qo'llanilishi lozim. So'zlashuv fonogrammasi aks ettirilgan magnit tasmasi tergov harakati bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim (JPK 170-modda).

Bevosita telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish harakatlari milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuklatilgan.

Agar kechiktirib bo'lmas holat yuzaga kelib, surishtiruvchi yoki tergovchi telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish harakatini zudlik bilan o'tkazishi kerak bo'lsa, u holda ular qaror chiqarib, uni milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuborish huquqiga egadirlar, ammo bu to'g'rida surishtiruvchi yoki tergovchi prokurorni 24 soat ichida xabardor qilishi lozim, prokuror ushbu qarorga ruxsat berganligi to'g'risida milliy xavfsizlik xizmati organiga tegishli ma'lumotnoma yuborib, ushbu harakatlarning, davom ettirilishiga asos beradi. Surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan chiqarilgan qaror bir sutka davomida qonuniy kuchga ega va milliy xavfsizlik organi shu muddat tugaganidan so'ng ushbu qarorni bajarmaslik huquqiga ega.

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish jarayoni olti oydan ortiq davom etishi mumkin emas. Agar dastlabki tergovda shunday tergov holati vujudga kelib, telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish oylik jarayondan ortiq boʻlsa, u holda tergovchi, surishtiruvchi bu toʻgʻrida asoslantirilgan qaror chiqaradi va prokurorning ruxsatini olib, ushbu harakatlarni yana uch oygacha davom ettirishlari mumkin. Bu toʻgʻrida milliy xavfsizlik xizmati organlariga ushbu qarorni yuborib, tegishli natijalarni jarayon ichida qoʻlga kiritishlari mumkin.

20.2. Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish jarayonida ovoz yozish moslamalari qoʻllaniladi. Ularning texnik parametrlari soʻzlashuvlarni eshitib turish bayonnomasida toʻliq qayd etilib, bayonnomaga soʻzlashuv fonogrammasi qoʻshib qoʻyilishi lozim.

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish tergov harakati tegishli jinoyat ishi qoʻzgatilgandan soʻng amalga oshiriladi (JPK 170-modda).

Eshitib turish va ovoz yozishni amalga oshirgan shaxs ishga aloqador soʻzlashuvlar fonogrammasi mazmunining qisqacha bayonnomasini tuzadi. Fonogramma muhrlanadi va bayonnomaga qoʻshib qoʻyiladi, uning ish uchun ahamiyatli boʻlmagan qismi hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin yoʻq qilinadi.

Eshitib turish va ovoz yozish bayonnomasida abonent raqami, eshitib turish va ovoz yozish vaqti va joyi, foydalanilgan texnikaviy vositalar turi va modeli, bu ishlarni amalga oshirgan shaxslarga oid maʼlumotlar hamda ish uchun ahamiyati boʻlishi mumkin deb hisoblangan boshqa maʼlumotlar aks ettiriladi (JPK 171-modda).

Milliy xavfsizlik xizmati organining xodimi telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish bayonnomasini qisqa tarzda tuzadi.

Agar soʻzlashuv jarayoni boʻyicha ishga taalluqli muhim jumladan tashqari boshqa ishga aloqador boʻlmagan jumlar uchramagan boʻlsa, u holda bayonnomada bu soʻzlashuvning butun matnini keltirishi kerak.

Bayonnomada abonentning raqami, qachon va qayerda so‘zlashuv eshitilganligi, eshitish va ovozga qayd etish vositalarining texnik ko‘rsatgichlari, ishga bayonnomani va harakatni olib borganda kimlar ishtirok etganliklari, ishga taalluqli boshqa axborotlar qayd etilishi lozim bo‘ladi. Magnit tasmasiga ega fotokasseta ushbu so‘zlashuvning fonogrammasi bilan bayonnomaga ilova qilinib, o‘raladi va muhrlab, eshitilgan so‘zlashuv qachon boshlanib qachon tugagan vaqti belgilanadi va bu ma’lumotlar imzolar bilan tasdiqlanib surishtiruvchi yoki tergovchiga beriladi.

Bayonnoma va unga ilova qilingan fonogramma (telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish fonogrammasi) surishtiruvchi yoki tergovchiga 24-bobda qayd etilgan tartibda ashyolar hamda hujjatlarni taqdim etish qoidalariga ko‘ra topshiriladi va 25-bobga asosan ashyo va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo‘shish qoidalariga asosan ashyoviy dalil sifatida tan olinadi. Ushbu tergov harakatida ishtirok etgan xolislar milliy xavfsizlik xizmati organi tomonidan jalb etilgan bo‘lib, ishga aloqador bo‘lmashliklari kerak, ammo bevosita ushbu organ xodimlari sifatida ishlayotgan bo‘lib, xolis sifatida jalb etilishlari mumkin (davlat va xizmat sirlarini oshkora etmaslik talablariga binoan).

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish bayonnomasi JPKning 90 va 91-moddalarida qayd etilgan qoidalariga rioya qilingan holda tuzilishi shart.

Nazorat uchun savollar:

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish tergov harakati qanday holatlarda o‘tkaziladi?

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish qanday maqsadlarda o‘tkaziladi?

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turishni o‘tkazishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish qanday xususiyatlarga ega?

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

_____ va _____
raqamli telefonlardagi
so‘zlashuvlarni eshitib
turishga
«RUXSAT BERAMAN»

20__ yil « » _____

**Telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish haqida
Q A R O R**

20__ yil _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni
o‘tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlarga asosan va O‘zbekiston Respublikasi JPKning
36, 169, 170-moddalarini qo‘llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur _____-sonli jinoyat ishi bo‘yicha _____

_____ orqali olib boriladigan barcha so‘zlashuvlar 20__ yil _____
_____ dan 20__ yil _____ gacha eshitib turilsin va magnet
tasma yozib olinsin.

2. Qarorning nusxasi ijro etish uchun O‘zbekiston Respublikasi MXX
_____ si boshlig‘iga yuborilsin.

3. Qarorning nusxasi ma‘lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

21-BOB. NARSALAR VA HUJJATLARNI TAQDIM QILISH JARAYONIDA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

21.1. «Narsalar va hujjatlarni taqdim qilish» tushunchasi va turlari

Fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari o‘z fikrlariga ko‘ra ish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan narsalarni tergovchiga taqdim qilishga haqlidir.

Tergovchi taqdim qilingan narsani JPKning 136, 137, 139 va 140-moddalarida bayon qilingan qoidalarga asosan ko‘zdan kechirishi, agar taqdim qilingan narsani ish uchun ahamiyatli deb topsa yoki kelgusida ahamiyati bo‘lishi mumkin deb hisoblasa, uni qabul qilishi shart. Shuningdek ushbu ish uchun ahamiyatli bo‘lmagan, lekin muomaladan chiqarilgan narsalar (qurollar, giyohvandlik vositalari, pornografiya nashrlari va boshqalar) ham qabul qilib olinishi lozim.

Ish uchun ahamiyatli bo‘lmagan va muomaladan chiqarilmagan narsalar taqdim qilingan hollarda, tergovchi ularni ko‘zdan kechirib bo‘lganidan keyin egalari darhol qaytarib beradi (JPK 198-modda).

Fuqarolar dastlabki tergov jarayonida yoki sud muhokama-o‘z ixtiyorlaridagi jinoyat ishiga taalluqli narsalarni sushitiruvchi, tergovchi yoki sudga taqdim qilish huquqiga ega bo‘ladilar va tergovchi ularning bu huquqidan mahrum qilish vakolatiga ega emas va ularning talabi bo‘yicha ushbu narsani ko‘zdan kechirib uni qabul qilishlari shart.

Fuqaro o‘ziga mansub bo‘lgan narsani tergovchiga taqdim qilish uchun ikkita asos, ya’ni: a) taqdim etilayotgan narsa va tergov qilinayotgan jinoyat ishiga aloqadorligi bevosita yoki bilvosita shu ishning dalillari va hollari bilan bog‘liq bo‘lishi; b) bu narsani unga ega bo‘lgan shaxs o‘z tashabbusi bilan tergovchiga taqdim etishi lozim.

Tergovchi fuqarolarda ishga taalluqli narsalar borligini har qanday tergov harakatini o‘tkazish vaqtida aniqlab turishlari lozim va agar fuqaroda biron narsa uning yoki o‘zga shaxsning egaligida bo‘lsa, uni taqdim etish huquqini tushuntirishi kerak.

Narsalarni egalari tomonidan tergovchiga topshirish ushbu shaxslarni jinoyat protsessida jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashda muhim o‘rin tutadi, ushbu yoki boshqa jinoyat protsessi qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda katta rol o‘ynaydi va dastlabki tergov

hamda sud muhokamasida jinoyat hodisasi bo'yicha to'liq ma'lumotlar va ashyolarga ega bo'lishi holatini ta'minlaydi.

Muomaladan chiqarilgan narsalar ochiq savdoda olib-sotish obyektlari sifatida ishlatilmaydi, ularni mazkur muomalaga kiritish man etilgan. Qurollar, giyohvandlik vositalari, pornografiya nashrlari kabilar ana shunday obyektlardir.

Agar fuqaro ish bo'yicha muomaladan chiqarilgan va shu ishga taalluqli bo'lgan narsalarga ega bo'lsa va o'z tashabbusi bilan tergovchiga topshirmoqchi bo'lsa, ular qabul qilinishi lozim, aks holda fuqaroda muomaladan chiqarilgan obyektlar borligi tergovchiga ma'lum bo'lib, ana shu obyektни o'sha shaxsdan talab qilib olish zarur bo'lsa, unda tintuv o'tkazish huquqiga ega bo'ladilar.

Fuqarolar o'zlariga tegishli narsalarni topshirishlari haqida tergovchiga og'zaki yoki yozma tarzda bildirishlari mumkin, uni tergovchi iltimosnoma sifatida qabul qilib olishi lozim. Shundan so'ng tergovchi o'sha narsani fuqaroga olib kelish to'g'risida tavsiya qilishi yoki u bilan narsa saqlanayotgan joyga borib u yerda ko'zdan kechirib qabul qilishi mumkin. Bu harakat o'tkazilganligi to'g'risida narsani ko'zdan kechirish va uni qabul qilish to'g'risida tuzilgan bayonnoma dalolat bo'la oladi.

Fuqaro tomonidan tergovchiga taqdim etilgan narsa 136-140-moddalarining talabiga binoan ko'zdan kechiriladi va qabul qilinib, bu to'g'rida bayonnoma tuziladi.

Agar taqdim etilgan narsa ishga taalluqli bo'lmasa, tergovchi, surishtiruvchi va sud uni ko'zdan kechirib, tegishli bayonnoma (narsani ko'zdan kechirish bayonnomasi) tuzgandan so'ng ushbu bayonnomada, mazkur narsa egasiga qaytarib berilganligi qayd etiladi va narsa egasi esa bayonnomaga tasdiqlovchi imzosini qo'yadi (JPK 198-modda).

tergovchi tintuv yoki olib qo'yish o'tkazmasdan turib, korxonalar, muassasa, tashkilot rahbaridan, shuningdek fuqarodan tergov va sud harakatlarini yuritish chog'ida vaqtincha foydalanish uchun zarur bo'lgan narsalarni taqdim etishlarini talab qilishga haqlidir. Bunday narsalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) eksperiment o'tkazishda tekshirilayotgan hodisaning holatini va sharoitini qayta tiklash uchun foydalaniladigan o'xshash narsalar yoki maketlar;

2) tanib olish uchun ko'rsatilayotgan narsa bilan turdosh bo'lgan narsalar;

3) tergov yoki sud harakatlarini yuritish yoxud ekspert tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan moslamalar, asbob-uskunalar, anjomlar, materiallar, agar bunday narsalar tergovchida yoxud ularning topshirig'i

bo'yicha harakat qilayotgan mutaxassis, ekspert yoki ekspertiza muassasasida bo'lmasa, zarurat qolmagach, bu narsalar egasiga qaytarilishi lozim (JPK 199-modda).

Tergovchining talabiga binoan tintuv yoki olib qo'yish o'tkazmasdan turib bu mansabdor shaxs korxonada, muassasa, tashkilot rahbarlari, shuningdek, fuqarolardan tergov va sud harakatlarini yuritish chog'ida vaqtincha foydalanish uchun zarur bo'lgan narsalarni taqdim etishlarini talab qilishlari mumkin va bu narsalardan ular foydalanish huquqiga ega bo'ladilar.

Vaqtinchalik ishlatish uchun talab qilinadigan narsalar ro'yxati 199-moddaning 1, 2 va 3-bandlarida qayd etilgan va ularni ishlatib bo'lganidan, yani tegishli tergov va sud harakatlari ushbu narsalar bilan o'tkazib bo'lganidan so'ng ularni egalari qaytarish tergovchi zimmasiga yuklatiladi.

Agar olingan narsalar o'z vaqtida qaytarilmagan bo'lsa, ularning egalari tergovchi harakatlariga nisbatan shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladilar va o'z shikoyatlarini yuqori organlarga yuborib, o'zlariga tegishli bo'lgan narsalarni qaytarib berish to'g'risida talab qo'yishlari mumkin.

Tergovchi va sud vaqtincha olingan ashyolar to'g'risida narsa egasiga tegishli tilxat berishi shart. U tegishli narsa vaqtincha olinganligi to'g'risida dalil bo'la oladi va tergovchining imzosi va muhri bilan tasdiqlanib, sanasi qayd etilgan bo'lishi kerak.

Narsalarni takdim etish paytida xolislar ishtirok etishi shart (JPK 199-modda).

Fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari o'z ixtiyorlaridagi hujjatlarni yoki o'zlaridagi mavjud ma'lumotlar asosida maxsus tuzilgan hujjatlarni tergovchiga taqdim qilishga haqlidirlar (JPK 200-modda).

Fuqarolar, shuningdek korxonada, muassasa, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar o'zlarining ixtiyorida bo'lgan hujjatlarni yoki biron ma'lumotga ega bo'lgan materiallarni hamda maxsus ta'rifga ega hujjatlarini tergovchiga taqdim qilishga haqlidirlar.

Milliy xavfsizlik organlarining xodimlari o'tkazilgan telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so'zlashuvlarni eshitish natijalarini (bayonnoma va fonogramma) o'z tashabbusi bilan tergovchiga taqdim etish huquqiga ega. Shu bilan birga JPKning 170-moddasida qayd etilgan talablarga to'la rioya qilishlari kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachilari ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega hujjatlarni o'z tashabbuslari bilan tergovchiga taqdim etish huquqiga egadirlar.

Jabrlanuvchi va uning vakili, guvohlar o'z tashabbuslari bilan ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega hujjatlarni tergovchiga taqdim etish huquqiga egadirlar.

tergovchiga taqdim etiladigan va tegishli fuqarolar tomonidan ularga taqdim qilinadigan hujjatlar deb quyidagi ta'rifga ega bo'lgan hujjatlarni tan olishi kerak:

1) fuqaro tomonidan tergovchiga taqdim etiladigan hujjat sodir etilgan va jinoyat va isbotlanishi lozim bo'lgan hollar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi;

2) fuqaro tomonidan o'z ixtiyori va tashabbusi bilan berilgan bo'lishi lozim, aks holda birinchi asos bo'lmasa, bu hujjatni olish harakati tintuv yoki olib quyish harakatiga aylanadi. (JPK 200-modda).

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tergovchining talabiga ko'ra o'z ixtiyorlaridagi hujjatlarni yoki o'zlaridagi mavjud ma'lumotlar asosida maxsus tuzilgan hujjatlarni taqdim qilishlari shart.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tergovchining talabiga ko'ra o'z vakolatlari doirasida hujjatli taftish yoki boshqa xizmat tekshiruvini o'tkazishlari va taftish yoki tekshiruv dalolatnomasini barcha ilovalari bilan birga belgilangan muddatda taqdim qilishlari shart.

Tergovchi taftish yoki tekshiruv dalolatnomasida yoxud boshqa hujjatda belgilangan qoidalardan chekinishga, nuqson, ziddiyat yoki boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligini aniqlaganda ushbu kamchiliklar bartaraf etilishini talab qilishga haqlidir (JPK 201-modda).

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslarda jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan hujjatlar yoki mavjud ma'lumotlar asosida maxsus tuzilgan hujjatlar bor bo'lsa, ular tergovchi, prokuror sudning talabiga ko'ra bu hujjatlarni taqdim etishlari kerak. Agar korxonalar, muassasalar yoki tashkilot rahbariga tergovchi tegishli hujjatni taqdim qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilsa va bu murojaat yozma ravishda so'rov qog'ozida aks ettirilgan bo'lsa, bunday hollarda ushbu korxonalar, muassasalar rahbari tergovchiga tegishli hujjatni darhol chopar yoki pochta orqali yuborishi shart.

Hujjatlarni taqdim etish paytida xolislar ishtirok etishi shart.

Tergovchi, prokuror va sud tomonidan hujjatlarni taqdim qilish talabi korxonalar, muassasalar, tashkilot rahbarlari va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga ega bo'lgan talab sifatida tan olinadi va unga qarshilik ko'rsatish tegishli protsessual majburlov choralarini yuzaga keltirishi mumkin (JPK 201-modda).

21.2. Narsa va hujjatlarni taqdim qilish natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Ashyoviy dalillar sifatida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlar taqdim qilinganligi to'g'risida JPKning 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq tergovchi bayonnoma tuzadi.

Bayonnomada:

- 1) narsa yoki hujjatni taqdim etgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 2) bu shaxsning narsa yoki hujjatni ishga qo'shib qo'yish to'g'risidagi iltimosnomasi;
- 3) narsa yoki hujjatni ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari, agar u pochta orqali yuborilgan bo'lsa, uning o'ramasini ko'zdan kechirish natijalari;
- 4) narsa yoki hujjatning tergovchiga haqiqatan ham topshirilgani yoxud narsa yoki hujjat uni keltirgan shaxsga qaytarib berilgani ko'rsatiladi.

Ashyoviy dalil sifatida ahamiyatli bo'lgan yoki ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa yoki hujjatni taqdim etgan shaxsga surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnomadan nusxa, sud majlisida raislik qiluvchi esa sud majlisi bayonnomasidan ko'chirma beradi.

Qabul qilib olingan narsa yoki hujjat pochta orqali kelgan bo'lsa, bayonnomaning nusxasi yoki undan olingan ko'chirma narsani yoki hujjatni yuborgan shaxsga jo'natiladi, pochta pattasi bayonnomaga ilova qilinadi. tergovchi pochta orqali olingan narsa yoki hujjatni ishga aloqador emas deb topib, uni yuboruvchiga pochta orqali qaytargan taqdirda ham pochta pattasi bayonnomaga qo'shib qo'yiladi.

Taqdim etilgan narsa yoki hujjatni ashoviy dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish haqidagi iltimosni rad qilish to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi. Taftishlar va boshqa xizmat tekshiruvlarining dalolatnomalari yozma dalil sifatida taqdim qilingan boshqa hujjatlar qatori ishga maxsus rasmiylashtirilmasdan qo'shib qo'yiladi.

Tergov yoki sud harakatlarini yuritishda vaqtincha foydalanish uchun so'ralgan narsalarning qabul qilingani va qaytarib berilgani tergovchi, shuningdek narsalarning egasi tomonidan beriladigan tilxatlar bilan rasmiylashtiriladi. Taqdim qilingan narsalar ish uchun ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lsa, ularning belgilari, xossalari, texnikaviy tavsifi, basharti ular yuritilayotgan tergov davomida ishlatilgan bo'lsa, shu tergov harakati bayonnomasida aks ettiriladi (JPK 202-modda).

Bayonnomaning ko'chirma nusxasini tergovchi narsani va hujjatni taqdim etgan shaxsga berishi shart va shu to'g'rida tegishli shaxs o'z imzosi bilan bayonnomani tasdiqlaydi.

Pochtadan kelgan narsa va hujjatni taqdim qilish holatida u bo'yicha tuzilgan bayonnomaning nusxasi pochta orqali narsa yoki hujjatni taqdim etgan shaxsga yuborilishi yoki bevosita uning qo'liga taqdim etishi shart. Pochta orqali yuborilganlik haqida tegishli belgi yoki kvitansiya bu haqda dalil hisoblanadi. Agar narsa yoki hujjat ishga taalluqli bo'lmasa, u holda uni ko'zdan kechirish bayonnomasi tuzilib, narsa yoki hujjat egasiga qaytariladi. Narsa yoki hujjatni olgan tegishli shaxs tilxatni tergovchiga berishi lozim.

Taftishlar va boshqa xizmat tekshiruvlarining dalolatnomalari yozma dalil sifatida taqdim etilgan boshqa hujjatlar qatori maxsus rasmiylashtirilmay ishga qo'shib qo'yiladi.

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish bayonnomasi asosida jinoyat ishi bo'yicha tuzilgan boshqa bayonnomalarda qayd etilgan narsa va hujjatlar ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish uchun asos bo'ladi.

Vaqtinchalik olingan ashyolar parametrlari tegishli tergov harakati bayonnomasida qayd etilishi shart (JPK 202-modda).

Nazorat uchun savollar:

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish tergov harakati qanday holatlarda o'tkaziladi?

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish qanday maqsadlarda o'tkaziladi?

Narsa va hujjatlarni taqdim qilishda qanday qoidalarga rioya etiladi?

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish qanday xususiyatlarga ega?

Narsa va hujjatlarni taqdim qilishning protsessual asoslari va tartibi qanday?

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

Narsani ashyoviy dalil deb e'tirof etish va jinoyat ishiga qo'shish haqida
Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini olib borib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(mavjud holatning qisqacha mazmuni, jinoyat ishi bo'yicha qanday narsa yoki hujjat ashyoviy dalil sifatida

e'tirof etilayotgani ko'rsatilib o'tilishi lozim)

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda O'zbekiston Respublikasi JPKning 203, 207-212-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Ushbu qarorda ko'rsatilgan _____ (jinoyat ishi bo'yicha ashyoviy dalil sifatida e'tirof etilayotgan

narsa yoki hujjatning nomi ko'rsatilib o'tiladi)

ashyoviy dalil deb e'tirof etilsin va jinoyat ishiga qo'shilsin.

2. Ashyoviy dalillar sudning hal qiluv qaroriga qadar saqlab turishlik uchun _____

(tilxat orqali jabrlanuvchiga yoki IIBda mavjud ashyoviy dalillarni saqlash xonasiga)

_____ga topshirilsin.

3. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin hamda manfaatdor taraflarga ma'lum qilinsin.

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

22-BOB. JINOYAT ISHIDA GUMON QILINUVCHI TARIQASIDA ISHTIROK ETISHGA JALB QILISH

22.1. Gumon qilinuvchining protsessual maqomi

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida jinoyatlarni ochish maqsadida protsessual va tergov harakatlari amalga oshiriladi, ularda ishtirok etishga turli protsess ishtirokchilari jalb qilinadi. Ana shunday shaxslardan biri gumon qilinuvchidir.

Dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida biror shaxsning jinoyat sodir etganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, lekin bu ma'lumotlar uni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmasa, bunday shaxs gumon qilinuvchi deb e'tirof etiladi. Shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida e'tirof etish to'g'risida tergovchi yoki prokuror qaror chiqarishi lozim. Bundan tashqari, jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan shaxs ham gumon qilinuvchi deb e'tirof etiladi.

Shaxsni gumon qilinuvchi sifatida tan olish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

1) jinoyatni sodir etganligi to'g'risidagi gumon daliliy asoslarga ega bo'lishi lozim;

2) shaxsni ushlab turish yoki unga nisbatan ayb e'lon qilishdan oldin ehtiyot chorasini qo'llash uchun qonunda qayd etilgan asoslar va shartlar bo'lishi kerak;

3) shaxsni gumon qilinuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorning chiqarilganligi yoki ushlab turish to'g'risidagi bayonnomaning tuzilganligi, shuningdek agarda unga nisbatan ehtiyot chorasini qo'llash lozim bo'lsa, u holda ushbu shaxsga nisbatan ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorning chiqarilishi ham talab qilinadi.

Ushlangan shaxs gumon qilinuvchi tariqasida militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan vaqtdan boshlab 72 soatdan ortiq ushlab turilmasligi kerak. Alohida hollarda gumon qilinuvchiga nisbatan prokurorning roziligi asosida sud tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin. Bu holda gumon qilinuvchiga u ushlangan kundan boshlab o'n kun ichida ayb e'lon qilinishi lozim. Aks holda ehtiyot chorasi bekor qilinib, shaxs qamoqdan ozod qilinadi (JPK 226 mod.).

Gumon qilinuvchi protsessning ishtirokchisi sifatida barcha ishlarda bo'lishi majburiy emas, chunki muayyan jinoyat ishlarini tergov qilishda

shaxsni ayblash uchun yetarli dalillar to'plangan bo'lsa, uni to'g'ridan-to'g'ri ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqida qaror chiqarilishi mumkin. Shu bilan birga gumon qilinuvchi jinoyat ishida paydo bo'lishi bilan u jinoyat-protsessual faoliyatining mustaqil subyektiga aylanadi. Gumon qilinuvchi protsessning subyekt sifatida muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, ularni jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan doirada va tartibda amalga oshiradi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 48-moddasiga asosan gumon qilinuvchi bir qator huquq va majburiyatlarga ega. Shu jumladan, o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, JPKning 230-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish; o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish; o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalani huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Bundan tashqari gumon qilinuvchining zimmasiga bir qator majburiyatlar ham yuklatilgan, xususan, gumon qilinuvchi: surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi qarorlari va JPKda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shartligi JPK bilan tartibga solingan.

Qonunshunos jinoyat-protsessual kodeksning prinsiplaridan kelib chiqqan holda gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emasligini ham qayd etib o'tgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda JPKning 48-moddasida gumon qilinuvchi huquqlarining mukammal ro'yxatini o'z ichiga olmaganligini aytib o'tish lozim, chunki gumon qilinuvchi o'z ona tilida iltimosnomalar berish; ko'rsatuvlarini o'z qo'li bilan yozish; tergovchi, tarjimon, mutaxassis va ekspertni rad etish huquqlariga ham ega. Ekspertiza tayinlash va o'tkazilishi munosabati bilan gumon qilinuvchi quyidagi huquqlardan foydalanadi:

1) ekspertiza o'tkazilgunga qadar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan tanishib chiqish va o'ziga berilgan huquqlar tushuntirilishini talab qilish va bu haqda bayonnoma tuzilishi lozim;

2) ekspertni rad etish;

3) o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan ekspert tayinlanishini iltimos qilish;

4) ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, qo'shimcha materiallar taqdim etish;

5) ekspertiza o'tkazilayotganda tergovchi, sudning ruxsati bilan hozir bo'lish, ekspertdan tekshiruv vaqtida qo'llayotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish;

6) ekspert xulosasi bilan tanishib chiqish va qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish huquqlariga ega.

Surishtiruvchi va tergovchi gumon qilinuvchiga, nafaqat 48-moddada ko'rsatilgan protsessual huquqlarini, balki u yoki bu tergov harakatlarini bajarish chog'idagi qonunda ko'rsatilgan boshqa huquqlarini ham tushuntirishlari shart.

Gumon qilinuvchini ushlab turilishiga yoki unga ehtiyot chorasi qo'llanilishiga asos bo'lib xizmat qilgan holatlar, xususida, shuningdek, ish bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday holat xususida tushuntirishlar berishi mumkin. Gumon qilinuvchi tomonidan ko'rsatuvlar berilishi uning protsessual majburiyati deb hisoblanishi mumkin emas. Bu jihatdan gumon qilinuvchi ayblanuvchiga to'liq tenglashtiriladi. Uni so'roq qilish ayblanuvchini so'roq qilish qoidalari asosida olib borilishi lozim. Gumon qilinuvchi ushlanishi uchun asos bo'lgan holatlar to'g'risida ko'rsatuv berishni rad etganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Agarda gumon qilinuvchi voyaga yetmagan yoki homiylik ostidagi shaxs bo'lsa, uning qonuniy vakilini ishda ishtirok etishga jalb etish lozim. Aybini bo'yniga olib kelgan shaxsga protsessual ma'noda gumon qilinuvchi deb qaralishi mumkin emas. Unga ayblov e'lon qilish basharti buning uchun yetarli asoslar bo'lsa yoxud tushuntirish xati olib, so'ngra gumon qilinuvchi sifatida tan olish va so'roq qilish kerak.

22.2. Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish asoslari va tartibi

Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilishni protsessual rasmiylashtirilishi tergovchi yoki prokuror tomonidan chiqarilgan qaror bilan amalga oshiriladi, qaror JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra chiqariladi.

Shaxs JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan bo'lsa yoxud ishda uni jinoyat sodir etishda gumon qilishga asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lsa, u jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinadi.

Gumon qilinuvchi quyidagi asoslarga ko'ra jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinadi:

1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;

2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;

3) uning o'zida yoki kiyimida, yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q, yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa;

Shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushishi deganda shaxsning bevosita jinoiy harakatlarini amalga oshirish jarayonida ushlab olinganligi yoki jinoyat sodir etganidan so'ng qo'lga tushganligini bildiradi.

Jinoyatning yaqqol izlari asosida jinoyat qurollari, o'g'irlangan mulk, qon izlari va hokazolar tushuniladi. Shuning uchun agar jinoyatning yaqqol izlari jinoyat sodir etgan shaxsning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida aniqlanadigan bo'lsa, bu holat ushbu shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi uchun asos bo'ladi.

Shaxsni gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar bu bevosita yoki bilvosita ta'rifga ega bo'lgan dalillar yig'indisi yoki tizimi sifatida namoyon bo'lib, ular asosida muayyan shaxsni jinoyat sodir etganligi haqidagi gumonning mavjudligi bu shaxs ustidan dastlabki tergov jarayonida tegishli tergov harakatlari o'tkazish uchun asos bo'ladi va uni ish bo'yicha gumon qilinuvchi sifatida jalb qilinishini taqozo etadi.

Shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lsada, ammo shaxsni aniqlanmaganligiga, uning shaxsini tasdiqlovchi biron hujjati yonida yo'qligi yoki shaxsini tasdiqlovchi hujjat shubhali bo'lishi ushbu shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishini taqozo etadi. Bundan tashqari, shaxsning ma'lum turar joyi bo'lmasa ham uni gumon qilinuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishi uchun asos bo'lishi mumkin.

Ushlab turish maqsadi quyidagilardan iborat: 1) ushlab turilgan shaxsning sodir etilgan jinoyatga bo'lgan aloqasini aniqlash; 2) shaxsning jinoyiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish; 3) surishtiruv tergov va suddan kochib ketishiga yo'l qo'ymaslik; 4) jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal bermaslik; 5) jinoyat ishi bo'yicha guvoh va jabrlanuvchilarga nisbatan g'ayrihuquqiy ta'sir ko'rsatish, ularni qo'rqitish, ularning shaxsiy xafsizligiga ushbu shaxs tomonidan rahna solish harakatlarini bartaraf etish.

Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi.

Biror jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs ish qo'zg'atilgunga qadar ushlangan bo'lsa va JPKning 225- moddasida nazarda tutilgan tekshirish ushlab turishning asosli ekanligini tasdiqlagan bo'lsa, tergovchi shaxsni ushlab turish, ish qo'zg'atish va ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida to'xtamlarga kelib, ularni bitta qarorda bayon qiladi.

Qarorda ushlab turilgan shaxs qaysi jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotganligi, bu jinoyat jinoyat kodeksining qaysi moddasida nazarda tutilgani, ushlab turishning sabab va asoslari, shuningdek shaxsni ushlab turish, agar jinoyat ishi ilgari qo'zg'atilmagan bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish va uni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qaror ko'rsatilishi kerak.

Qaror gumon qilinuvchiga u birinchi marta so'roq qilinguniga qadar e'lon qilinishi kerak.

Agar shaxs jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin ushlangan bo'lsa, ushbu shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida jalb qilish ushlab turish to'g'risidagi

bayonnoma bilan amalga oshiriladi. Shaxsni asosli ravishda ushlab turilganligi tasdiqlangandan so‘ng, tergovchi bir qaror bilan jinoyat ishini qo‘zg‘atish, shaxsni ushlab turish va ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi masalalarni hal qiladi va ular bir qarorda ko‘rsatilishi mumkin.

Shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qaror uchta qismdan iborat bo‘ladi: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlari. Kirish qismida qarorni chiqarish vaqti va joyi, qarorni chiqargan organ, shaxsning familiyasi, ismi sharifi, lavozimi, unvoni qayd etiladi, jinoyat ishi JKning qaysi moddasi bilan qo‘zg‘atilganligi qayd etiladi.

Tavsif etish qismida jinoyat ishi bo‘yicha qanday holat aniqlanganligi va ularga asosan shaxsni ushlab turish sabablari va asoslari tavsif etiladi va JPKning tegishli moddalariga ilova qilinadi hamda ular asosida ushbu qaror chiqarilishi ko‘rsatiladi. Xulosa qismida ushlab turilgan shaxsning to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, turar joyi JPKning 221-moddasida qayd etilgan ushlab turish asoslari, ushlangan shaxsni qayerda ushlab turish, prokurorga ushbu qaror nusxasining yuborilishi, ushlangan shaxsga JPKning 48-moddasida qayd etilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilishi kerakligi, qarorni tuzgan shaxsning lavozimi, mansabi, unvoni, familiyasi, ismi-sharifi va ushbu qaror bilan ushlab turilgan shaxs tanishib chiqishi lozim bo‘ladi. Qaror bilan tanishganligini ushlab turilgan shaxs o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi va sanasini qayd etadi.

22.3. Gumon qilinuvchini so‘roq qilish

Gumon qilinuvchini ishning holatlari haqida so‘roq qilish JPKning 96-108-moddalarida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga, shuningdek, 109-113-moddalarida ko‘rsatilgan holatlarga rioya qilgan holda olib boriladi.

Surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazish jarayonida gumon qilinuvchi gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror e‘lon qilingan, ushlangan, so‘roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltirilganidan keyin darhol yoki yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay, so‘roq qilinishi kerak. Ushbu muddatlar gumon qilinuvchining protsessual huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muddatlar bo‘lib, ularning buzilishi gumon qilinuvchi-ning protsessual huquq va qonuniy manfaatlarini bevosita buzilishi deb tan olinishi kerak.

Gumon qilinuvchini birinchi marta so‘roq qilishdan bevosita oldin tergovchi so‘roq qilinuvchidan uning familiyasi, ismi va otasining ismini, tug‘ilgan vaqti (yili, oyi, kuni) va tug‘ilgan joyini, yashash joyi va ish joyini, mansabi, mashg‘ulot turi, ma‘lumoti, oilaviy ahvolini, sudlanganligi yoki sudlanmaganligini aniqlashi hamda bu ma‘lumotlarni jinoyat ishidagi yoki so‘roq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi ma‘lumotlar bilan solishtirib ko‘rishi yoxud so‘roq qilinuvchi o‘zini kim deb tanishtirgan bo‘lsa, aynan o‘sha shaxs ekanligiga boshqa yo‘llar bilan ishonch hosil qilishi lozim. Shaxsiy hujjatlar sifatida shaxsning pasporti, uni shaxsini tasdiqlovchi va shu shaxsning fotosuratiga ega bo‘lgan muayyan davlat idorasi tomonidan berilgan guvohnoma tan olinadi.

Shuningdek, gumon qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni bilishi va unda ko‘rsatuvlar berish imkoniyatiga egaligini aniqlash kerak. Bu masalaning yechilganligi bevosita so‘roq qilish bayonnomasida aks etishi lozim va so‘roq qilinuvchi o‘z qo‘li bilan ish yuritilayotgan tilni bilishi va unda ko‘rsatuvlar berish qobiliyatiga egaligi to‘g‘risidagi yozuvga o‘z imzosini qo‘yishi kerak. Agar bu talab bajarilmay qolsa so‘roq qilinuvchining ish yuritilayotgan tilda bergan ko‘rsatuvlari shubha ostiga olinishi va bunday ko‘rsatuvlar o‘z huquqiy kuchini yo‘qotishi mumkin.

Agar so‘roq qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni bilmasa unga yordam ko‘rsatish uchun JPKning 71-moddasiga asosan tarjimon chaqirilishi shart va tarjimon ishtirokida to‘xtatilgan so‘roqni davom ettirish mumkin bo‘ladi.

Tergovchi yuqorida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirganidan so‘ng quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) gumon qilinuvchiga uning JPKning 46 va 48-moddalarida nazarda tutilgan protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;

2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzgan himoyachining yoxud, agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzishga ulgurmagani yoki tuza olmagan bo‘lsa, boshqa himoyachining so‘roqda ishtirok etishini ta‘minlaydi;

3) gumon qilinuvchiga uning qanday jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganligini e‘lon qiladi;

4) gumon qilinuvchiga ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganligi to‘g‘risidagi qarorni taqdim qiladi va ayblovning mohiyatini tushuntiradi.

Tergovchi ayblanuvchini birinchi marta so‘roq qilishdan oldin u o‘zini aybli hisoblashi-hisoblamasligini yoki o‘z aybini to‘la yoxud qisman rad etishi yoki etmasligini aniqlashi shart.

Tergovchi ushbu moddada sanab o‘tilgan harakatlarning bajarilishini gumon qilinuvchini so‘roq qilish bayonnomasida qayd qiladi.

Gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko‘rsatuvlari va o‘z aybiga iqrор bo‘lishi, bu ikrор bo‘lish mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining bergan ko‘rsatuvlari bilan aniqlangan holatlar, u o‘z aybiga ikrор bo‘lgan taqdirda ham, o‘zining aybdor ekanligini inkor qilgan taqdirda ham ishning hamma holatlari bilan bog‘langan holda boshqa dalillar kabi tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim.

Gumon qilinuvchining ko‘rsatuvlari ularning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Gumon qilinuvchining ko‘rsatuvlari ishga aloqadorligi jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e‘tirof etiladi. Gumon qilinuvchi ko‘rsatuvlarining maqbulligi ularni tegishli bayonnomada protsessual qonun tartibiga binoan qayd etilganiga asosan e‘tirof etiladi. Gumon qilinuvchining tekshirilgan ko‘rsatuvlari voqelikka va haqiqatga mos ekanligi aniqlanganda ular ishonchli deb hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishning asoslari va protsessual tartibi qanday?

Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishning mohiyati va ahamiyati nimada?

Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishda isbotlash doirasi (chegarasi) nimada?

Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorni e‘lon qilishning tartibi qanday?

Gumonni e‘lon qilishda himoyachining ishtirok etishi shart bo‘lgan hollar nimadan iborat?

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilishning protsessual tartibi qanday?

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida Q A R O R

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini olib borib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni)

Fuqaro _____ ning harakatlarida O'zbekiston Respublikasi JKning ____- moddasi ____- qismi ____- bandida nazarda tutilgan _____ jinoyatining alomatlari mavjudligini inobatga olib, uni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 47, 48, 359, 360-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha fuqaro _____ O'zbekiston Respublikasi JKning ____- moddasi ____- qismi ____- bandida nazarda tutilgan _____ jinoyatini sodir etganlikda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinsin va unga O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilsin.

2. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.
(hudud, tuman yoki viloyat)

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil «__» _____ kuni e'lon qilindi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi _____

(imzo)

(F.I.SH.)

Gumon qilinuvchini so‘roq qilish BAYONNOMASI

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qayerda, kim ishtirokida)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96–111-moddalariga rioya qilib, gumon qilinuvchi tariqasida so‘roq qildim.

So‘roq soat ____ da So‘roq tugallandi: soat ____ da
boshlandi:

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Tug‘ilgan sanasi	
3. Tug‘ilgan joyi	
4. Millati	
5. Fuqaroligi	
6. Oilaviy ahvoli	
7. Ma‘lumoti va mutaxassisligi	
8. Ish joyi, kasbi, lavozimi	
9. Qanday mukofotlar olgan	
10. Deputatmi	
11. Harbiy xizmatga aloqasi	
12. Sudlanganligi	
13. Turar joyi	
14. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat	

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 47-moddasiga rioya qilib, _____
_____ ga O‘zbekiston Respublikasi JKning _____-modda _____-
qismi, «__» bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilishda gumon qilinayotganligi

¹ Eslatma: So‘roq qilish jarayonida gumon qilinuvchilar o‘z ko‘rsatuvlarini erkin so‘zlab berish usulida bayon qilishlari lozim. Shundan so‘ng so‘roq qiluvchi ish uchun ahamiyatli bo‘lgan, lekin so‘roq qilinuvchi aytib o‘tmagan holatlar bo‘yicha unga savollar beradi. Savol va javoblar bayonnomada aks ettiriladi. Bunda savollarning ketma-ketligi katta ahamiyat kasb etadi. So‘roq tamomlanganidan so‘ng so‘roq qilinuvchi so‘roq bayonnomasi bilan tanishib chiqadi. So‘roq bayonnomasini so‘roq qilinuvchining o‘zi to‘ldirgan bo‘lsa, u so‘roq bayonnomasining har sahifasi pastiga va bayonnoma oxiriga imzo qo‘yadi. Agarda so‘roq bayonnomasini tergovchi to‘ldirsa, so‘roq qilinuvchi bayonnomaning har sahifasi pastiga, so‘roq qiluvchi bergan savollarga o‘zi bergan javoblarning pastiga va bayonnoma oxiriga imzo qo‘yadi.

ma'lum qilindi va unga O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi:

Gumon qilinuvchi: o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeksning 230-moddasi ikkinchi qism nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish; o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish; o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalani huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi: surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi qarorlari va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.

Gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Himoyachi bilan holi uchrashish huquqingiz ta'minlandimi? _____

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Qaysi tilda ko'rsatuv berishni xohlaysiz? _____ tilida _____ (imzo)

Berilgan savollarga quyidagicha javob qaytardi: _____

23-BOB. SHAXSNI JINOYAT ISHIDA AYBLANUVCHI TARIQASIDA ISHTIROK ETISHGA JALB ETISH VA UNI SO‘ROQ QILISH BOSQICHIDA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

23.1. Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etishning qonuniyligi va asoslanganligini ta’minlash

Ayblanuvchi – dastlabki tergovning markaziy ishtirokchisidir. Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb etish asoslari va tartibi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida aniq tartibga solingan.

Tergovchi qaror qabul qilishda ish bo‘yicha jinoiy qilmishning mavjudligi va uni muayyan shaxs tomonidan sodir etilganligi haqidagi xulosani asoslash uchun yetarli dalillarga asoslangan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari barcha dalillar dastlabki tergov davomida qonun talablari-ga muvofiq ravishda va ayblanuvchini so‘roq qilguncha mavjud bo‘lgan imkoniyat doirasida to‘planishi, tekshirilishi va baholanishi lozim. Shuningdek, tergov davomida mazkur shaxsning aybsizligi to‘g‘risida ilgari surilgan barcha taxminlar bartaraf etilgan bo‘lishi kerak. Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun jinoyat tarkibini tashkil etuvchi va uning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligini tasdiqlovchi dalillar bo‘lishi zarur. Shu paytga kelib quyidagi holatlar aniqlanishi kerak: 1) jinoyat hodisasi (vaqti, joyi, sodir etilish usuli va h.k.); 2) muayyan shaxsning aybdorligi; 3) qilmishni to‘g‘ri baholash uchun jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa ma’lumotlar (avvalgi sudlanganlikning mavjudligi, shaxsning o‘ta xavfli retsidivist sifatida tan olinishi, zararning xususiyati va miqdori); 4) jinoiy javobgarlikni inkor etuvchi yoki undan ozod qiluvchi omillarning yo‘qligi.

Mazkur holatlarning ayb e’lon qilingan paytdagi isbotlanganligi darajasi muhim ahamiyatga ega. Mazkur holatlarni aniqlangan deb hisoblash uchun asoslarning yetarliligi yoki yetarli emasligini har bir muayyan vaziyatda tergovchi ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tahlil qilib, ichki ishonchi asosida baholaydi. Shuni inobatga olish zarurki, ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish va ayblov hajmini aniqlash kabi masalalar bo‘yicha tergovchiga to‘liq hajmdagi protsessual mustaqillik berilgan.

Jinoyat ishiga ayblanuvchi tariqasida jalb qilish muayyan shaxsning jinoyat sodir etganlikda aybdorligini ko'rsatuvchi dalillar to'planganidan so'ng darhol amalga oshiriladi. Amaliyotda ayblovning dastlabki tergov tamomlanishidan avval yoki tamomlanib, ayblanuvchi ish materiallari bilan tanishgan kuni e'lon qilinishi hollari uchrab turadi. Bunday amaliyot ayblanuvchining himoyalaniş huquqini poymol etadi, chunki ayblanuvchining tushuntirishlarini to'liq tekshirish imkonini bermaydi, ayni paytda ayblanuvchi o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Jinoyat holatlarini o'rganish davomida tergovchi ayblanuvchining boshqa jinoyatlarni (epizodlarni) sodir etganlik imkoniyati haqidagi ma'lumotlarni olgan hollarda avval ish bo'yicha ma'lum faktlar va epizodlarni sodir etganlik bo'yicha ayb e'lon qilinadi, so'ngra ayblanuvchining boshqa jinoyatlar (epizodlar) sodir etganligi holatlari aniqlanadi. Kvalifikatsiyalovchi belgilarning mavjudligi taxmin qilingan vaziyatlarda ham masala shu tariqa hal etiladi.

Ayb e'lon qilingandan so'ng shaxsning unga e'lon qilingan ayb bo'yicha tushuntirishlarini inobatga olgan holda dalillarni to'plash davom ettiriladi, shu bois bundan keyingi tergov jarayonida ayblov o'zgartirilishi va to'ldirilishi mumkin.

Shubhasiz, shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etishning qonuniyligi va asosliligi mezoni sifatida uning aybdorligini ko'rsatuvchi dalillarning yetarliligini e'tirof etish lozim. Bu JPKning «jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilmasligi»ni talab qiluvchi 2-moddaning qoidasi bilan tasdiqlanadi. Ushbu qoidaning oxirgi qismini tergov aybdorligini ko'rsatuvchi yetarli dalillarga ega bo'lmagan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etishga yo'l qo'ymaslik sifatida tushunish kerak.

Shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish haqida qaror chiqarish paytiga kelib JKda nazarda tutilgan jinoyatning aniq tarkibini ifodalovchi holatlar aniqlanishi lozim. Boshqa holatlarning hammasi keyinchalik aniqlanishi mumkin.

Ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish haqidagi qarorda bunga asos bo'lgan dalillarni tergovga zarar yetkazmaydigan doirada keltiradigan tergovchilarning ishi ma'qullanishi kerak. Bunday qaror bilan tanishgan ayblanuvchi nafaqat e'lon qilingan ayb yuzasidan, balki unga asos bo'lgan holatlar yuzasidan ham tushuntirish berish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'ladi.

23.2. Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etishning protsessual tartibi.

Ayblovni o'zgartirish va tugatish

JPK 361-moddasiga muvofiq shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi, unda:

1) ayblanuvchi tariqasida jalb etilayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan kuni, oyi va yili;

2) ayblovning mazmuni, ya'ni shaxsning zimmasiga qo'yilayotgan jinoyat hodisasi, u sodir etilgan joy, vaqt va boshqa muhim holatlar bayoni;

3) Jinoyat kodeksining ushbu jinoyatni nazarda tutgan moddasi, qismi, bandi aks ettirilishi lozim.

Jinoyat kodeksining turli moddalari, qismlari yoki bandlarida nazarda tutilgan bir necha jinoyatni sodir etishda ayblanganda, bu jinoyatlardan har birining mohiyati va yuridik tavsifi alohida ko'rsatilishi lozim.

Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorning tavsiflovchi qismi mazkur shaxs qanday jinoyatlarni sodir etganligi haqidagi xulosa bilan yakunlanadi.

Qarorning xulosa qismida mazkur shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida to'xtamga kelinganligi ifodalanishi lozim.

Agar tergov o'tkazish chog'ida dastlabki ayblovni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadigan yangi dalillar to'plangan bo'lsa yoki dastlabki ayblovning noaniqligi yoxud yuridik tavsifi noto'g'riligi ma'lum bo'lib qolsa, dastlabki ayblov o'zgartirilishi, qisman tugatilishi yoki to'ldirilishi lozim. Bu haqda tergovchi qaror chiqaradi va unda ayblovning yangi mazmunini bayon qiladi.

JPK 83-moddasida hamda 84-moddasining 1 va 5-qismlarida nazarda tutilgan ayblanuvchini rehabilitatsiya etish uchun asos bo'ladigan yoki ishni yuritish uchun monelik qiladigan holatlar aniqlansa ayblov tugatiladi. Ayblovni tugatish to'g'risida tergovchi qaror chiqaradi va shu qaror bilan tergovchi ayblanuvchiga nisbatan qo'llaniladigan ehtiyot chorasi, mulkni xatlash, lavozimdan chetlashtirish choralari bekor qiladi va shaxsga ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga qonunsiz jalb qilinganligi sababli ko'rgan ziyonlarini undirib olish huquqiga ega ekanligini tushuntiradi. Qarorning nusxasi shu shaxsga darhol taqdim qilinishi yoki yuborilishi lozim (JPK 362-m.).

Biroq, yuqorida bayon etilganlardan ayblov qayta boshlanishi mumkin emas degan xulosa chiqmasligi lozim. JPK 363-moddasiga ko'ra, agar JK yoki JPK normalarini qo'llanishdagi xatolar natijasida ish tugatilgan bo'lsa, shuningdek ayblanuvchining aybliligini ko'rsatuvchi yangi dalillar aniqlansa, tugatilgan ayblov jinoyat ishini tugatish haqidagi qarorni bekor qilish orqali qayta tiklanishi mumkin. Bunday hollarda, shuningdek ayblovni noto'g'ri tugatish odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatning yoki ayblanuvchi tomonidan yoxud ayblanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan harakat qilgan o'zga shaxs tomonidan dalillarni qalbakilashtirish, yashirish yoxud yo'q qilib yuborishning oqibati bo'lsa, ayblov Jinoyat kodeksining 64-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish muddati ichida qayta tiklanishi mumkin.

23.3. Ayblanuvchini so'roq qilishning xususiyatlari

Dastlabki tergovni yuritishda jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida qaror chiqarilganidan so'ng darhol yoki 24 soat ichida so'roq qilinishi kerak. Bevosita so'roq qilishdan avval tergovchi ayblanuvchiga uning huquqlarini tushuntiradi, so'roqda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi, uning o'zini aybdor deb tan olayotganligini yoki aybini butunlay yoxud qisman inkor etayotganligini aniqlaydi. Bularning hammasi ayblanuvchini so'roq qilish bayonnomasida qayd etiladi.

Ayblanuvchining ko'rsatuvlari nafaqat dalillarning manbai, balki uning o'zini himoya qilish vositasi hamdir. Shu bois u guvoh va jabrlanuvchidan farqli ravishda ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun javobgar bo'lmaydi, shuningdek, buning uchun javobgarlik haqida ogohlantirilmaydi. Ayblanuvchi tergov o'tkazilayotgan joyda so'roq qilinadi. Agar tergovchi zarur deb topsa, so'roq so'roq qilinuvchi bo'lgan joyda amalga oshiriladi.

Ayblanuvchi o'zini unga e'lon qilingan ayb bo'yicha to'liq aybdor deb tan olgan hollarda, so'roq u o'z aybini inkor etgan taqdirdagi kabi batafsil o'tkazilishi kerak. Aybini tan olish emas, balki ko'rsatuvlardan aniqlash mumkin bo'lgan faktlar haqidagi ma'lumotlar muhim. Aybni tan olish tergovchini chalg'itmasligi, uning xolisona dalillarni izlashdagi faolligini susaytirmasligi lozim, chunki aybni tan olish hali jinoyatni ushbu shaxs sodir etganligini isbotlamaydi. Buning ustiga xolisona dalillar bo'lmaganda hech narsa ushbu shaxsning o'z ko'rsatuvlarini istagancha o'zgartirishiga xalaqit bermaydi.

Ayblanuvchi o'z aybini qisman tan olganda, qaysi holatlarni va epizodlarni inkor etadi-yu, qaysilarini tan oladi – ana shularni aniqlash zarur. Bunda ayblanuvchining o'z aybini tan olishi yoki inkor etishi qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga yordam beruvchi holatlar aniqlanadi.

Isbotlash majburiyati ayblanuvchiga yuklatilishi mumkin emas, bu majburiyat qonun bilan tergovchining zimmasiga yuklatilgan. Biroq bu holat ayblovni inkor etuvchi, ayblanuvchining tushuntirishlarini tasdiqlovchi yoki ishning u yoxud bu holatlarini tushuntirib beruvchi dalillarni to'plamaslik kerak degani emas.

Agar ayblanuvchi ko'rsatuv berishdan bosh tortayotgan bo'lsa, unga bunday bosh tortish tergovni davom ettirish uchun to'sqinlik qilmasligini, u esa bu bilan o'zini qo'yilgan ayblovdan himoya qilish imkoniyatidan mahrum etayotganligini tushuntirish kerak. Tushuntirishdan kutilgan maqsadga erishilmagan hollarda esa ayblanuvchining bosh tortganligi haqida buning sabablarini ko'rsatgan holda bayonnoma tuziladi. Bayonnomani tergovchi va ayblanuvchi imzolaydilar, ayblanuvchi bosh tortsa, tergovchining o'zi imzolaydi. Aybini bo'yniga olmayotgan ayblanuvchining ko'rsatuvlari, xuddi aybini bo'niga olgan hollardagi kabi, batafsil qayd etiladi. Uning har bir arzi puxta tekshirilishi kerak.

Ayblanuvchini so'roq qilish taktikasiga xos xususiyatlar ayblov bayoni mavjud bo'lgan asoslantirilgan qaror taqdim etilishiga bog'liq. Ayblanuvchidan haqiqiy ko'rsatuvlar olishga qo'yilgan ayblovning mohiyatini va himoyalanihga bo'lgan protsessual huquqlarini sabr-toqat bilan batafsil tushuntirish yordam beradi. Bunda nafaqat jinoyat sifatida qaralayotgan faktlarning mohiyatini, balki qilmish tavsiflanadigan JK normasining sanksiyasini ham tushuntirish foydali bo'ladi.

Ayblanuvchini so'roq qilish davomida u yoki bu taktik usullarni qo'llash, avvalo, so'roq qanday – nizoli yoki nizosiz – vaziyatda amalga oshirilishiga bog'liq. *Nizosiz (ziddiyatsiz) vaziyat* asosan gumon qilinuvchi o'zini aybdor deb tan olgan hollarda yuzaga keladi. *Nizoli (ziddiyatli) vaziyat* ko'rsatuv berishdan bosh tortish va bila turib yolg'on (yoki voqelikka mos keluvchi, ammo ayni paytda tergovchi yolg'on deb hisoblayotgan) ko'rsatuvlar berishda yuzaga keladi.

Albatta, nizoli va nizosiz vaziyatlar bir so'roq jarayonidayoq so'roq qilinayotgan shaxs u yoki bu masala yuzasidan egallagan vaziyatga qarab almashib turishi mumkin. Masalan, ayblanuvchi jinoyat sifatida zimmasiga qo'yilayotgan faktlarni tan olishi, ammo ularning tavsiflanishi (kvalifikatsiyasi)ga rozi bo'lmasligi mumkin va h.k. Bunda so'roq qilish-

ning asosiy protsessual qoidasi – erkin so‘zlashni tinglash va keyinchalik savol berish, zarur hollarda dalillar ko‘rsatish har qanday vaziyatda ham so‘roq uchun o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Nizosiz vaziyatlar sharoitida so‘roq qilishda erkin hikoyani tinglash va savollar berish asosiy o‘rin tutadi. Yolg‘on ko‘rsatuvlar berilganligi tufayli kelib chiqqan nizoli vaziyatlarda so‘roq qilinuvchi shaxsga ta‘sir ko‘rstish usullari asosan emotsional ta‘sir ko‘rsatish usullariga va dalillardan foydalanishga asoslangan usullarga bo‘linadi. Bunda keyingi usul to‘plangan dalillar hajmiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Faktlar mantig‘iga asoslanib haqqoniy ko‘rsatuvlar berishga undovchi va hissiy ta‘sir ko‘rsatishga asoslangan boshqa usullar odatda chambarchas bog‘liq bo‘ladi va kamdan-kam hollarda bir-biridan alohida qo‘llaniladi.

Nizosiz vaziyatda so‘roq qilish taktikasida markaziy o‘rin tutuvchi erkin so‘zlashni tinglash chog‘ida quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

a) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining hech bir xabari tekshiruvsiz qoldirilmasligi kerak, buning uchun esa undan olingan ko‘rsatuvlarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi dalillarni aniqlash uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni aniqlab olish zarur;

b) ko‘rsatuvlar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi to‘liq xabardor bo‘lgani holda berilishi uchun tergovchi uning hikoyasini mohirlik bilan yo‘naltirib turishi, buning uchun xronologik, mantiqiy yoki taktik izchillikni tanlashi kerak. *Xronologik izchillikda* voqealar vaqtdagi ketma-ketlikda aniqlanadi. *Mantiqiy izchillik* xotiralarning tiklanishiga yordam beradi, chunki ish uchun muhim bo‘lgan holatlar sabablardan muqarrar kelib chiquvchi oqibatlar tomon aniqlanadi. *Taktik izchillikda* dastlab so‘roq qilinayotgan shaxs o‘zi istagan holda hikoya qilayotgan holatlar aniqlab olinadi;

v) murakkab voqea aniqlanayotgan bo‘lsa, erkin hikoya mavzuini ayrim epizod (qism)larga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tergovchi bir epizod bilan bog‘liq barcha faktlarni aniqlab olgach, keyingi epizodlarga o‘tadi. Bunday usul erkin hikoyaning to‘liqligini ta‘minlaydi, so‘roq qilinayotgan shaxs avvalgi epizodlar yoki faktlarni to‘liq va batafsil yoritib berganidan so‘ng uning yangi holatlarga o‘tishiga yordam beradi;

g) agar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tergovni qiziqtirayotgan faktlarni unutmagan bo‘lsa, odatda guvohni so‘roq qilish uchun tavsiya etiladigan va assotsiativ aloqalarni jonlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish mumkin. Xususan, mazkur hodisalar yuz bergan joyda so‘roq qilish orqali yaxshi natijalarga erishiladi.

Savol berayotganda tergovchi ularning ifodalanishida muayyan javoblarni ko'rsatuvchi axborot bo'lmasligiga qarab turishi kerak. Savollar o'zaro mantiqiy aloqadorlikda bo'lishi va biri ikkinchisidan kelib chiqishi lozim (agar tasodifiylik elementidan foydalanilmayotgan bo'lsa).

Ayblanuvchi ko'rsatuv berishdan bosh tortganda tergovchi unga buning ko'ngilsiz oqibatlarini sabr-toqat bilan va batafsil tushuntirib berishi zarur. Buni u ayblanuvchining o'zigina aniqlik kirita oladigan aniq savollarga – zararning haqiqiy miqdori, jinoyat ishtirokchilarining har biri olgan pul miqdori, voqea joyida aniqlangan izlarning ma'nosi va h.k. – havola qilgan holda tasdiqlab borishi lozim. Atayin so'roq qilinuvchi shaxsning e'tirozini keltirib chiqarish ham foydali, chunki bu uni faol himoyalanihga, buning uchun esa ko'rsatuvlar berishga majbur qiladi.

Har biri, bir tomondan, birinchi bo'lib ko'rsatuv berishdan qo'rqadigan, boshqa tomondan, undan avval ulgurishlaridan cho'chiydigan jinoyat ishtirokchilari o'rtasidagi ziddiyatlardan mohirlik bilan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tergovchi jinoyat ishtirokchilarini bir-biridan ajratib, ularda birinchi bo'lib ko'rsatuv berishdan xavfsirashini bartaraf etishi va chin ko'ngildan iqror bo'lishga kechikib qolishdan iborat xavotirni kuchaytirishi kerak. Ayblanuvchilardan biri ko'rsatuv bergan bo'lsa, bu haqda uning sheriklariga darhol xabar berish kerak.

Yolg'on ko'rsatuvlar berilgan taqdirda «yolg'onga zo'r berish» so'roq jarayonida foydalaniladigan dalillar yordamida muvaffaqiyatliroq bartaraf etiladi. Biroq dalillar yetarli bo'lganda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchidan haqqoniy ko'rsatuvlarni osongina olish mumkin, deb o'ylamaslik kerak. Tergovchi dalillardan mohirlik bilan foydalana olmasa, so'roq qilinayotgan shaxs o'zining yolg'on ko'rsatuvlarini mavjud dalillarga «moslashtirishga» yoki ushbu dalillarni rad etishga harakat qiladi. Shu bois taqdim etilayotgan dalillarning to'g'riligiga ishonch hosil qilingach, ulardan eng samarali tarzda foydalanish uchun barcha choralarni ko'rish zarur.

Agar dalillar jinoyatni fosh etish uchun yetarli bo'lsa, avvalo, ayblanuvchini taqdim etilayotgan har bir dalil bilan bog'liq holatlar yuzasidan so'roq qilish, bu bilan uni ushbu dalilni keyinchalik rad etish imkonidan mahrum qilish kerak. Masalan, jinoyat sodir etilgan joydan topilgan va so'roq qilinayotgan shaxsga tegishli bo'lgan biror narsani taqdim etayotib, dastlab u ushbu narsani boshqa shaxsga bergan-bermaganligini aniqlab olish tavsiya etiladi.

Imkoni bo'lsa, ayblanuvchi muayyan izchillikni tushunib yetishi uchun dalillarni mantiqiy ketma-ketlikda (masalan, dastlab – pora beruvchining

ko'rsatuvlari, so'ngra – vositachiniki va nihoyat – so'roq qilinayotgan shaxsning bankdagi hisob-varag'idan olingan ko'chirmani) taqdim etish ma'qul. Odatda dastlab ikkinchi darajali holatlarga aloqador dalillar, so'ngra esa ancha muhimroq dalillar taqdim etiladi. Ammo so'roq qilinayotgan shaxsning tabiatini inobatga olgan holda teskari ketma-ketlik tanlanishi ham mumkin. Eng muhim dalillardan birini taqdim etishdan taassurotni kuchaytirish maqsadida kutilmaganlik elementidan foydalanish uchun ushbu izchillik atayin buzilishi ham mumkin. So'roq qilinayotgan shaxsni bunga tayyorlamay turib, tergovchi qo'qisdan dalilni (masalan, shohidlarning ko'rsatuvlarini) taqdim etadi va buni tushuntirib berishini so'raydi. Ushbu usulni qo'llagan tergovchi keyinchalik ushbu dalildan foydalanish imkonini yo'qotadi, chunki ayblanuvchidan ilgari bu haqda hech kim so'ramagan bo'ladi va u ushbu dalilni rad etishga harakat qilishi (masalan, o'ldirilgan shaxsning yonidan topilgan kepkaning ayblanuvchi ilgariroq noma'lum shaxsga sotganligini aytishi va h.k.) mumkin. Shu bois bu usuldan dalillar yetarli bo'lgan va tergovchi kutilmaganlik elementidan muvaffaqiyatsiz foydalanishning o'rnini to'ldirish uchun boshqa dalillarga ega bo'lgan sharoitda foydalanilsa, tavakkalchilik kamroq bo'ladi.

Agar dalillar majmuida kamchiliklar bo'lsa, tergovchining oldida ikkita asosiy vazifa yuzaga keladi: so'roq qilinayotgan shaxsning buni sezib qolishiga yo'l qo'ymaslik va kamchiliklarni to'ldirish. To'plangan materiallardagi kamchiliklardan vaqtidan ilgari xabar topish so'roq qilinuvchining bundan yolg'on taxminlarni ilgari surish uchun foylanishiga olib kelishi va dalillarni rad etishga harakatlar qilishi mumkinligini inobatga olib, kriminalistik taktika ularga to'plangan dalillarning hajmini bildirmaslikni tavsiya etadi. Ushbu taktik usul odatda «to'plangan ma'lumotlarning hajmi haqida bo'rttirilgan tasavvur hosil qilish» deb ataladi. U haqiqiy xabardorlik hajmini yashirish bilan bog'liq, chunki so'roq qilinayotgan shaxs tergovchiga aynan nima ma'lum ekanligini bilib olgach, unga nima noma'lum ekanligini osongina aniqlab olishi mumkin. Tergovchining xabardorligi haqida bo'rttirilgan tasavvur hosil qilinayotganda aldash yoki dalillarni soxtalashtirishga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. So'roq qilish mahorati yolg'ondan foydalanmagan holda zarur natijalarga erishish, ya'ni to'liq va haqqoniy ko'rsatuvlar olishdan iborat.

Ba'zan so'roq qilinayotgan shaxsga eng yorqin, esda qolarli dalil taqdim etilganda, unda tergovchining hamma gapdan to'liq xabardorligi haqida tasavvur hosil bo'ladi, holbuki, bu fakt dalillar zanjirida ikkinchi darajali o'rin tutishi mumkin. Boshqa bir taktik usul ham shunga yaqin turadi. Uning mohiyati quyidagidan iborat. Tergovchi o'zining qandaydir

ikkinchi darajali holatdan xabardor ekanligidan foydalanib, masalani xuddi bu uni qiziqtirayotgan yakkayu yagona narsa sifatida qo'yadi. Natijada so'roq qilinayotgan shaxsda qolgan barcha masalalarni tergovchi bilar ekan, degan tasavvur hosil bo'ladi.

So'roq qilinayotgan shaxs oldida voqealarning ehtimolli borishini rivojlantirish natijasida ham xuddi shunday tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Buning uchun tergovchining ixtiyoridagi to'liq bo'lmagan ma'lumotlardan foydalaniladi. Bunda dalillar asta-sekin, ketma-ket, ammo ancha muddat oralatib taqdim etiladi. Bu esa so'roq qilinayotgan shaxsda dalillarning yetarlicha ko'pligi haqida tasavvur hosil qiladi. Bunda mazkur shaxsning o'tmishi haqidagi operativ ma'lumotlardan ham foydalaniladi (tergovchining bunday faktlardan xabardorligi ko'pincha gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchida uning sodir etilgan jinoyat holatlaridan ham xabardorligi haqida tasavvur hosil qildiradi). So'roq qilinayotgan shaxsda assotsiativ aloqalar uyg'otish orqali «jinoyatdan xabardorlikni» aniqlashga qaratilgan usullar ham samaralidir. Masalan, tergovchi so'roq qilinayotgan paytda ko'rib chiqayotgan, ammo so'roq qilinayotgan shaxsga aloqasi bo'lmagan hujjatlar, fotosuratlar, telegrammalarni ko'pincha u o'zini fosh etadigan dalillar sifatida qabul qiladi.

Agar dalillar so'roq qilinayotgan shaxsni fosh etish uchun yetarli bo'lmasa, tergovchi ma'lumotlarni uning o'zidan olishga harakat qilishi kerak. Buning uchun uning ko'rsatuvlarida paydo bo'layotgan ziddiyatlar va bilmasdan aytib yuborgan ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Hatto so'roq qilinayotgan shaxsning yolg'on taxmini (versiyasi) ilgari tayyorlangan va batafsil o'ylab chiqilgan bo'lsa ham, u ko'pincha o'ylab topilgan hodisalarni haqiqiylik bilan chalkashtirib yuboradi va aytish mo'ljali bo'lmagan faktlar haqida gapirib yuboradi. Bunday ma'lumotlarni sezish va to'plab borish juda muhim, chunki bu so'roq qilinayotgan shaxs bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berayotgan vaziyatda haqiqiy ma'lumotlarni olishning amaliy imkonidir. Bunday sharoitda muqarrar yuzaga keladigan ziddiyatlar ham ana shunday ahamiyatga ega.

Tergovchining vazifasi so'roq qilinayotgan shaxs ana shu tariqa aytib yuborgan gaplardagi ma'lumotlar va ziddiyatlardan so'roq qilishning ikkinchi, faolroq bosqichida foydalanishdan iborat. Ushbu bosqichda so'roq qilinuvchi shaxsga savollar beriladi va u zarur tushuntirishlar berishga undaladi. So'roq qilinuvchi shaxs esa ko'pincha asta-sekin chalkashib, bundan buyon bo'lgan voqeani yashirishning foydasizligiga ishonch hosil qiladi.

So‘roq qilinayotgan shaxsdan u aytmaslikni istayotgan ma’lumotlarni olishning muhim vositasi bilvosita so‘roq qilishdir. Tergovchi o‘zini qiziqtirayotgan asosiy masalaga to‘g‘ri javob olmasligini bila turib va uni dalillar bilan mustahkamlash imkoniga ega bo‘lmay turib, so‘roq qilinuvchi shaxs nuqtai nazaridan xavfi kam bo‘lgan bir qator boshqa savollarni beradi. Ularga berilgan javob niqoblangan asosiy masalaga javob topishga yordam beradi. Masalan, alibini tekshirishda bu usul juda qo‘l keladi. So‘roq qilinayotgan shaxs, agar alibisi to‘g‘ri bo‘lsa, bilishi shart bo‘lgan holatlardan xabardor emasligi u tergovchini qiziqtirayotgan vaqtda u yoki bu joyda bo‘lgan-bo‘lmaganligi haqidagi savolga javob topishiga imkon beradi (masalan, so‘roq qilinayotgan shaxs bo‘lganman, deb aytayotgan kinoteatrda qo‘yilgan filmning nomi yoki mazmuni haqidagi savolga berilgan noto‘g‘ri javob).

Emotsional ta’sir ko‘rsatish usullari alohida yoki aniqlangan faktlar mantig‘i orqali to‘g‘ri ko‘rsatuvlar berishga undovchi boshqa usullar bilan birga qo‘llaniladi. Ulardan eng maqbuli quyidagilardir:

a) qilmishning g‘ayriqonuniyligini va og‘ir oqibatlarini tushuntirish, bu so‘roq qilinayotgan shaxsning o‘z harakatlarini salbiy baholashiga olib kelishi mumkin. O‘zini bunday baholash pushaymonlik va iqrorlik manbaidir. Bunda to‘liq va to‘g‘ri ko‘rsatuvlar olish tergovchining mahoratiga bog‘liq bo‘ladi;

b) pushaymonlikning va jinoyatni fosh etishga faol ko‘maklashishning huquqiy oqibatlari bilan tanishtirish. Bunda dastlab so‘roq qilinayotgan shaxsga Jinoyat kodeksining tegishli normasi bilan tanishib chiqish imkonini berish, so‘ngra esa uning mazmunini tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biroq tergovchi unga nisbatan belgilanadigan jazo chorasi bilan bog‘liq aniq va’dalar bera olmaydi, chunki jazoni sud tayinlaydi;

v) so‘roq qilinayotgan shaxsning ijobiy xislatlarini faollashtirish va ulardan to‘g‘ri ko‘rsatuvlar olishda foydalanish. Tergovchi so‘roq qilinayotgan shaxsning o‘tmishdagi xizmatlarini, u haqida aytilgan ijobiy fikrlar va o‘zining shaxsiy kuzatishlariga asoslanib, u hali axloqan tuzalish yo‘liga kirishi mumkinligiga umid bildirishi, unga hali ham kech bo‘lmaganligini tushuntirishi mumkin. Tergovchining xayrixohligi odatda yolg‘ondan haqiqatga, qarshilik ko‘rsatishdan hamkorlikka o‘tishini yengillashtiradi.

To‘g‘ri ko‘rsatuvlar olishga qaratilgan usullarning qaysi biri tanlanmasin, agar tergovchi bilan so‘roq qilinayotgan shaxs o‘rtasida zarur ruhiy aloqa bo‘lmasa, kutilgan natijani bermaydi. Bunday aloqa odatda

katta kuch sarflash natijasida yuzaga keladi. Tergovchining har qanday xatosi yoki noshudligi o'rnatilgan aloqani ham buzib tashlashi mumkin. Shu bois so'roq qilinayotgan shaxsning ahvolini doimo kuzatib borish, undagi ko'ngilsiz o'zgarishlarni o'z vaqtida sezish va ularning oldini olish zarur. So'roq qilish taktik usullarini qo'llash doirasini to'g'ri belgilash aloqani saqlab qolishga yordam beradi.

Qonunning ayblanuvchidan unga nisbatan kuch ishlatish, tahdid qilish va boshqa g'ayriqonuniy choralarni qo'llash orqali ko'rsatuv olishga urinishning ta'qiqlanishi haqidagi qoidasi ushbu doirani belgilovchi asosiy mezondir. Bunday g'ayriqonuniy choralar sirasiga ma'lumotlarni soxtalashtirish va aldov, so'roq qilinayotgan shaxsning o'z huquqlarini bilmasligidan foydalanish, ig'vo, muayyan ko'rsatuvlarni berishga majburlash kabilar kiritilishi mumkin. Taktik usul axloq talablariga mos kelishi lozim. Inson qanday protsessual holatda bo'lmasin, uning qadr-qimmatini hurmat qilish zarurligini doimo yodda tutish kerak. Taktik usullar so'roq qilinayotgan shaxsni kamsitmasligi, irodasini bukmasligi kerak.

Taktik usul nafaqat qonunga va axloqqa mos bo'lishi, balki maqsadga muvofiqlik, samaradorlik va tanlab munosabatda bo'lish talablariga javob berishi kerak. Har qanday holda ham, ish yuzasidan qaror topgan muayyan vaziyatdan kelib chiqib, taktik usullarning qaysi biridan foydalanish ma'qulligini, u ushbu shaxsni so'roq qilishda qo'llanilsa zarur samara berish-bermasligi va, nihoyat, u o'zini o'zi ayblashga olib kelmasligi tahlil qilinadi.

Aytish joizki, aniq vaziyatga mos kelmaydigan psixologik «ayyorlik»dan foydalanish nafaqat so'roq qilish samaradorligini pasaytiradi, balki so'roq qilinayotgan shaxsni tergovchiga yoki surishtiruv o'tkazayotgan shaxsga qarshi qo'yishi ham mumkin. Shu bois murakkab usullarni qo'llamagan holda haqqoniy va to'liq ko'rsatuvlar olishga harakat qilish kerak. So'roq qilinayotgan shaxsga ochiq munosabat – ko'pincha haqiqatga olib boradigan, ruhiy aloqa o'rnatishga imkon beradigan eng qisqa yo'l bo'ladi. Shu bilan birga, ayblanuvchilarni so'roq qilishning asosiy qismi nizoli vaziyatda, to'liq va haqqoniy ko'rsatuvlar olishga intilayotgan tergovchiga qarshilik ko'rsatish sharoitida yuz berishini unutmash kerak.

23.4. Himoyachini taklif etish, tayinlash va almashtirishning protsessual xususiyatlari

JPK 111-moddasiga muvofiq, tergovchi gumon qilinuvchini, ayblanuvchini birinchi marta so'roq qilishdan bevosita oldin ular shartnoma tuzgan himoyachining yoxud, agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma

tuzishga ulgurmagan yoki tuza olmagan bo'lsa, boshqa himoyachining so'roqda ishtirok etishini ta'minlaydi. Umuman, himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining iltimosiga ko'ra tergovchi, prokuror ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tanlangan himoyachining 24 soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo'lmagan hollarda, tergovchi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif etishni yoki himoyachi tayinlashni so'rab advokatlar byurosiga, hay'atiga yoki firmasiga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tanlangan himoyachi istalgan vaqtda ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir.

Ishni yuritayotgan tergovchi gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchini yuridik yordam uchun to'lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to'lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo'ladi (JPK 50-m.).

O'zbekiston Respublikasi «Advokatura to'g'risida»gi 1996-yil 27-dekabr qonuniga muvofiq, u o'zining himoyachi yoki vakil vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas. Uning advokatlik hujjatlari, kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq hujjatlari olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi, shuningdek, u yuridik yordam ko'rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi mumkin emas.

Nazorat uchun savollar:

Ayb e'lon qilishning protsessual tartibi qanday?

Ayb qo'yish chog'idagi protsessual talablar qanday?

Aybllov qanday ifodalanadi?

Shaxsni ayblanuvchi sifatida ishga jalb etish to'g'risida qaror tuzishning xususiy usuli mavjudmi?

Jinoyat tarkibi ba'zi elementlarining aniqlanmaganligini g'ayriqonuniy va asossiz ravishda ayblash sababi deb hisoblash mumkinmi?

Ayb e'lon qilish chog'ida himoyachining ishtirok etishi shartmi?

Aybllov chog'ida tarjimonning ishtirokini protsessual rasmiylashtirish xususiyatlari qanday?

Himoyachini taklif qilish, tayinlash va almashtirishning protsessual xususiyatlari qanday?

**Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida
Q A R O R**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini olib borib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni)

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 45, 361, 362-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha fuqaro _____ O'zbekiston Respublikasi JKning ____ - moddasi ____ - qismi ____ - bandida nazarda tutilgan _____ jinoyatini sodir etganlikda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinsin va unga O'zbekiston Respublikasi JPKning 46-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilsin.

2. Qaror nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.
(hudud, tuman yoki viloyat)

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil «__» _____ kuni e'lon qilindi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 46-moddasida ko'rsatilgan gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi _____

(imzo)

(F.I.SH.)

Ayblanuvchini so‘roq qilish BAYONNOMASI

20___ yil «___»_____ shahri

(bayonnoma tuzuvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

(qayerda, kim ishtirokida)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96–111-moddalariga rioya qilib, ayblanuvchi tariqasida so‘roq qildim.

So‘roq soat _____ da So‘roq tugallandi: soat _____ da.
boshlandi:

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi	
2. Tug‘ilgan sanasi	
3. Tug‘ilgan joyi	
4. Millati	
5. Fuqaroligi	
6. Oilaviy ahvoli	
7. Ma‘lumoti va mutaxassisligi	
8. Ish joyi, kasbi, lavozimi	
9. Qanday mukofotlar olgan	
10. Deputatmi	
11. Harbiy xizmatga aloqasi	
12. Sudlanganligi	
13. Turar joyi	
14. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat	

Ayblanuvchining O‘zbekiston Respublikasi JPKning 46-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi:

Ayblanuvchi: o‘zining nimada ayblanayotganligini bilish; qamoqqa olinganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va

¹ *Eslatma:* So‘roq qilish jarayonida ayblanuvchilar o‘z ko‘rsatuvlarini erkin so‘zlab berish usulida bayon qilishlari lozim. Shundan so‘ng so‘roq qiluvchi ish uchun ahamiyatli bo‘lgan, lekin so‘roq qilinuvchi aytib o‘tmagan holatlar bo‘yicha unga savollar beradi. Savol va javoblar bayonnomada aks ettiriladi. Bunda savollarning ketma-ketligi katta ahamiyat kasb etadi. So‘roq tamomlanganidan so‘ng so‘roq qilinuvchi so‘roq bayonnomasi bilan tanishib chiqadi. So‘roq bayonnomasini so‘roq qilinuvchining o‘zi to‘ldirgan bo‘lsa, u so‘roq bayonnomasining har sahifasi pastiga va bayonnoma oxiriga imzo qo‘yadi. Agarda so‘roq bayonnomasini tergovchi to‘ldirsa, so‘roq qilinuvchi bayonnomaning har sahifasi pastiga, so‘roq qiluvchi bergan savollarga o‘zi bergan javoblarning pastiga va bayonnoma oxiriga imzo qo‘yadi.

davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeks 230-moddasining ikkinchi qismda tutilgan hollar bundan mustasno; o'ziga qo'yilgan ayblov yuzasidan hamda ishning boshqa har qanday holatlari bo'yicha ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish; o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalani huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishib chiqish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish; jinoyat ishining tergovchi yoki prokuror tomonidan tugatilganligiga qarshi e'tiroz bildirish hamda sud muhokamasi o'tkazilishini talab qilish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha, birinchi instansiya va apellatsiya instansiyasi sudining majlislarida, sudning ruxsati bilan esa, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudining majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u haqda o'z mulohazalarini bildirish; ish bo'yicha keltirilgan protestlar, apellatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga ega.

Sudlanuvchi oxirgi so'z bilan chiqish huquqiga ega.

Ayblanuvchi: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; dastlabki tergov va sud muhokamasida ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; o'ziga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi; guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarorlari va sudning ajrimlari hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

(imzo)

(F.I.SH.)

Tergovchining 20__ yil «__» _____ kunidagi qarorida bayon etilgan O'zbekiston Respublikasi JKning _____-modda _____-qismi «__» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligim to'g'risidagi aybga _____ iqror_____.

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi bilan holi uchrashish huquqingiz ta'minlandimi? _____

(imzo)

(F.I.SH.)

**24-BOB. DASTLABKI TERGOV ORGANLARI TOMONIDAN
PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLANILISHINI
PROTSESSUAL RASMIYLASHTIRISH**

**24.1. «Protsessual majburlov choralari»ning
tushunchasi va turlari**

Jinoyat ishini yuritish surishtiruv organi, tergovchi, prokuror va sud qabul qiladigan turli xil protsessual qarorlar va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan protsessual harakatlardan tashkil topadi. Ushbu qaror va harakatlar u yoki bu tarzda jinoyat protsessining u yoki bu ishtirokchisining huquq va manfaatlariga daxldor bo‘ladi. Ushbu qarorlarga xos jihat shundaki, ular ba‘zan jiddiy xususiyatga ega bo‘lgan muayyan cheklovlar bilan bog‘liq bo‘ladi, ba‘zan protsessning u yoki bu ishtirokchisiga o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanishiga cheklovlar bilan bog‘liq jiddiy ta‘sir choralari ham qo‘llaniladi.

Bunday cheklovlarning imperativ xususiyati jinoyatlarni ochish, muayyan shaxsning sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini ko‘rsatuvchi dalillarini aniqlash va tegishli ravishda uni jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog‘liq jinoyat-protsessual vazifalardan kelib chiqadi. Jinoyat-protsessual faoliyat, avvalo, davlatning majburlov kuchi bilan ta‘minlanadigan faoliyat sifatida amalga oshiriladi va ushbu majburlov tegishli protsessual majburlov choralarida o‘z ifodasini topadiki, ular jinoyat protsessi u yoki bu ishtirokchisining noqonuniy va g‘ayrihuquqiy manfaatlariga kontradiktor (qarshi) munosabatda bo‘ladi. Aynan shu bois jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga jinoyat protsessi vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilinishini ta‘minlash maqsadida turli majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq keng protsessual vakolatlar berilgan.

Majburlov choralari o‘zining mazmuni va oqibatlari bo‘yicha farqlanadigan tegishli hokimiyat harakatlarida amalga oshirilishi mumkin.

Protsessual majburlov choralari jinoyat protsessi ishtirokchisi tergov harakatlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan, o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmayotgan bo‘lsa, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hukm ijrosini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan taqdirda qo‘llanilishini ta‘kidlash zarur (JPK 213-m.).

Amaldagi JPKga muvofiq protsessual majburlov choralari faqat asoslar mavjud bo'lganda va qonunda belgilangan tartibda qo'llanilishi mumkin.

Protsessual majburlov choralari qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha, shuningdek surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sud ajrimida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi, albatta JPKda alohida ko'rsatilgan boshqacha asoslar bundan mustasno.

Mamlakatimiz qonunlariga muvofiq ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxsga himoyalani sh huquqini to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida u saqlanayotgan joyda o'zining himoyachisi bilan holi uchrashish, qonun hujjatlaridan foydalanish imkoniyati berilishi, shikoyat, iltimosnoma va boshqa protsessual hujjatlarni yozishi uchun ixtiyorida qog'oz va yozuv jihozlari bo'lishi ta'minlanadi.

Aynan yuqorida keltirilgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash va dastlabki tergov hamda sud muhokamasining adolatli hal etilishi uchun ushlab turilgan va qamoqqa olinganlar saqlanadigan joy ma'muriyati: ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarga advokat bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda undan maslahat olish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) bilan moneliksiz va holi uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi; qamoqqa olinganlarga ayblov xulosasining nusxasini, shuningdek sudning hukmi va ajrimining nusxasini ular kelib tushgan kunda topshirishni ta'minlashi; ushlanganlar va qamoqqa olinganlarning shikoyat, ariza va xatlarini ular ma'muriyatga berilganidan keyingi kundan kechiktirmasdan tegishli joylarga jo'natishi; qamoqda saqlanayotgan shaxsni surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida boshqa hududdagi tergov hibsxonasiga ko'chirishni ta'minlashi; ushlab turilganlarni ushlab turish muddati tugagach, darhol ozod qilishi; ushlab turish muddati tugashiga o'n ikki soat qolganda va qamoqda saqlash muddati tugashiga yetti kun qolganda, bu haqda tegishincha tergov organining boshlig'ini yoki prokurorni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Protsessual majburlov choralari qo'llanilganligi haqida albatta shaxsning yaqinlariga xabar berilishi lozim. Buni amalga oshirish tartibi JPKda aniq belgilangan bo'lib, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ushlab turish yoxud ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish tarzida protsessual majburlov chorasi qo'llaganida (qamoqqa olingan taqdirda esa sud) bu

haqda yigirma to'rt soatdan kechiktirmasdan uning oila a'zolaridan biriga, ular bo'lmagan taqdirda esa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek bu haqda ish yoki o'qish joyiga ma'lum qilishi shart.

Xabar berish telefon qo'ng'irog'i, chopar orqali, yozma shaklda yoki boshqa umum e'tirof etilgan usulda amalga oshirilishi mumkin. Xabar berish ushlab turish, qamoqqa olish yoxud ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari qo'llanilgan paytdan boshlab 24 soat ichida amalga oshirilishi kerak.

Jinoyat protsessida protsessual majburlov choralari quyidagilar kiradi:

- ushlab turish;
- ehtiyot choralari;
- lavozimdan chetlashtirish;
- majburiy keltirish;
- shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish.

24.2. Ushlab turish protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslari va protsessual tartibi

Gumon qilinuvchini *ushlab turish* protsessual majburlov chorasini bo'lib, jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin ushlab turish faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Ushlab turishning maqsadi faqat dalillarni olishdan iborat emas, bunda odil sudlovning muhimroq manfaati – gumon qilinuvchini surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinish, jinoiy faoliyatini davom ettirish va boshqa imkoniyatlaridan mahrum qilish birinchi o'ringa chiqadi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish tartibi JPKning 27-bobida belgilangan.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan gumon qilinuvchini ushlab turish chorasini ma'muriy ushlab turish va qamoqqa olish ehtiyot choralari bilan farqlash zarur. Jinoyat-protsessual ma'nodagi ushlab turishda shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinadi. Shaxsni ma'muriy ushlab turish esa shaxsning kimligini aniqlash, huquqbuzarlikni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq bo'ladi.

Ushlab turish muddati ushlangan militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab ko'pi bilan yetmish ikki soatni tashkil etadi. Tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va

yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin.

Shunday qilib, *ushlab turish* deganda, gumon qilinuvchini qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etib, vaqtincha saqlash hibsonasiga joylashtirishdan iborat protsessual majburlov chorasi tushuniladi.

Ushlab turish asoslari. Ushlab turish uchun asos bo'lib muayyan shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini tasdiqlovchi faktik ma'lumotlar xizmat qiladi. Qonun chiqaruvchi organ bunday asoslarning to'rt guruhini farqlaydi. Ulardan aqalli bittasining mavjudligi surishtiruv organiga shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ushlab turish huquqini beradi (JPK 221-m.). Ushbu asoslarni ko'rib chiqamiz.

Birinchi – shaxsning jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushishi. Bu shaxsning aybdorligidan dalolat beruvchi jiddiy dalil hisoblanadi.

Ikkinchi – jinoyat shohidlarining, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishlari. Ushbu holda gumon qilinuvchini ushlab turish asosi shohidlar xabar bergan ma'lumotlar yordamida aniqlanadi. Bunday ma'lumotlar qat'iy hamda asosli bo'lishi kerak. Agar shohid jinoyat sodir etgan shaxsni aniq bilmasa, uning aybdorligiga shubhalansa, u holda uning ko'rsatuvlari ushlab turishga asos bo'lib xizmat qilmaydi. Qonunga muvofiq, jinoyat shohidi bo'lmagan shaxslarning ko'rsatuvlari shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ushlab turish uchun asos bo'la olmaydi.

Uchinchi – gumon qilinuvchining o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilishi. Ushbu holda uyi deganda, gumon qilinuvchi jinoyat sodir etishdan avval yoki keyin amalda yashab turgan joy tushuniladi. Kelib chiqishi bo'yicha ularning jinoyatga aloqadorligi shubha uyg'otmaydigan izlarni yaqqol izlar deb hisoblash kerak.

To'rtinchi – boshqa ma'lumotlar. Qonunda ularni oldindan nazarda tutish mumkin emas, chunki ular turli xil holatlar bo'lishi mumkin. Qonunda ushbu ma'lumotlar bo'yicha asossiz ravishda ushlab turishga yo'l qo'ymaslik uchun, ushlab turish shartlari ham nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan ushlab turish uchun: a) shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilish huquqini beruvchi holatlardan aqalli bittasining mavjud bo'lishi; b) gumon qilinuvchi qochmoqchi bo'layotganligi yoxud doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan ekanligi haqida ma'lumotlarning mavjudligi zarur.

Shu bilan birga deputatlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), sudyalar va prokurorlar ushlab turilishi hamda militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinishi mumkin emas. Mazkur taqiq JPK 221-moddasining 1-bandida nazarda tutilgan ushlab turish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushlab turish uchun mazkur asoslardan birining mavjudligi yetarli emas. Qonunda ushlab turish asosligining qo‘shimcha kafolati sifatida gumon qilinuvchi ozodlikda qolsa, tergovdan yashirinishi, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal berishi yoki jinoiy faoliyatini davom ettirishi mumkinligi borasida real xavf mavjudligi ushlab turish motivi bo‘lib xizmat qilishi belgilangan.

Ushlab turishning protsessual tartibi. JPKning talablariga muvofiq, gumon qilinuvchini ushlab turish huquqiga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ega.

Ichki ishlar organi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning JPKning 221-moddasida ko‘rsatilgan asoslardan bittasi mavjudligini bevosita ko‘rib yoki boshqa shohidlarning so‘zlaridan aniqlasa, gumon qilinuvchiga u jinoyat sodir etishda gumon qilib ushlanganligini bildirishlari va undan yaqin oradagi militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qilishi shart. Shu bilan birga, ichki ishlar organi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo‘lish, ko‘rsatuvlar berishni rad etishga bo‘lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi, shuningdek u bergan ko‘rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi shart. Bunda ushlayotgan shaxs o‘zini tanishtirishi va ushlanayotgan shaxsning talabiga ko‘ra shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishi shart.

Qonunda ushlab turish, ushlab turilgan shaxsni shaxsiy tintuv qilish ushbu harakatlarning bayonnomasini tuzish chog‘ida xolislarning ishtirok etishi nazarda tutilgan. Bu shaxsni vaqtincha saqlash hibsxonasiga joylashtirishning zaruriy shartidir.

Ushlab turish vaqti ushlangan shaxs militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab hisoblanadi (JPK 226-m.).

Ushlangan paytdan boshlab shaxs gumon qilinuvchi protsessual maqomiga ega bo‘ladi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlangan shaxs shaxsiy tintuv qilinadi. Shaxsiy tintuv JPK moddalarining talablariga

muvofiq amalga oshiriladi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab bilan bog‘liq har qanday hol haqida bayonnoma tuziladi (JPK 225-m.).

Gumon qilinuvchini ushlab turish bayonnomasida ushlab turishni amalga oshirayotgan shaxs (uning lavozimi, unvoni, familiyasi) haqidagi ma’lumotlar, ushlab turilgan shaxs (uning familiyasi, ismi-sharifi, tug‘ilgan yili va joyi, ish joyi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat) haqidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.

Ushlab turish bilan bir vaqtning o‘zida shaxsiy tintuv o‘tkazilganligi sababli, bu haqda ham bayonnoma tuziladi. Ushlab turish va shaxsiy tintuv haqida bayonnomalarni alohida-alohida tuzish kerak. Bu protsessual hujjatning to‘liq va xolisona bo‘lishini ta’minlaydi.

Ushlab turish nafaqat protsessual majburlov chorasi, balki ozodlikdan mahrum qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan holatlarni aniqlash vositasi hamdir. Shu bois bayonnomada ushlab turish asoslarini (masalan, shohidlar va jabrlanuvchilarning ushbu shaxsni jinoyat sodir etgan shaxs deb ko‘rsatishlari, jinoyatchini jinoyat sodir etilgan joyda yoki uni sodir etgandan so‘ng darhol, qo‘lida jinoyat quroli bilan o‘g‘irlangan narsani tashish vaqtida ushlanganligi haqidagi ma’lumotlar va h.k.) ko‘rsatish zarur. Ushbu asoslar shaxsni jinoyat sodir etganlikda fosh etuvchi muhim dalillardir.

Bayonnomada ushlab turish motivi, ya’ni ushlab haqida qarorga olib kelgan undovchi jihat, masalan, gumon qilinuvchi tergov va suddan yashirinishi mumkinligi haqidagi xavf, ushlab turish soati, kuni, oyi, yili, joyi, ushlangan shaxsning tushuntirishlari va ushlab turish muddati boshlangan vaqt ko‘rsatilishi shart.

Ushlab turish bayonnomasini uni tuzgan shaxs, ushlangan shaxs va xolislar imzolaydilar. Surishtiruvchi tuzgan ushlab turish bayonnomasini surishtiruv organining boshlig‘i tasdiqlaydi.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar ushlab turish tartibi ba’zi xususiyatlarga ega. Jumladan, ichki ishlar idorasi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning JPKning 221-moddasida ko‘rsatilgan asoslardan bittasi mavjudligini bevosita ko‘rib yoki boshqa shohidlarning so‘zlaridan aniqlasa, gumon qilinuvchiga u jinoyat sodir etishda gumon qilib ushlanganligini bildirishlari va undan yaqin oradagi militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qilishi shart. Shu bilan birga, ichki ishlar idorasi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orkali qo‘ng‘iroq qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo‘lish, ko‘rsatuvlar

berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi, shuningdek u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi shart. Bunda ushlayotgan shaxs o'zini tanishtirishi va ushlanayotgan shaxsning talabiga ko'ra shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi shart.

Ushlayotgan vakolatli shaxs, ushlanayotgan shaxsning yonida quroli mavjudligiga yoki o'zining jinoyat sodir etganligini fosh etuvchi dalillardan qutulishga harakat qilayotganligiga yetarli asoslar mavjud bo'lganda, shaxsiy tintuv yoki olib qo'yish chorasini ko'rishga haqli bo'ladi. Shaxsiy tintuv yoki olib qo'yish bayonnomasi ushlangan shaxs militsiya muassasasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinganidan so'ng xolislar ishtirokida tuzilishi mumkin.

Militsiya xodimi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organning xodimi amalga oshirilgan ushlab turish haqida ushlangan shaxs militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab o'n ikki soat ichida prokurorga yozma shaklda xabar berishi shart (JPK 225-m.).

Vakolatli shaxslar noqonuniy yoki asossiz ravishda ushlaganlari uchun yoxud ushlab chog'ida o'z vakolatlaridan tashqari chiqqanlari uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar (JPK 224-m.).

Agar ushlab jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin amalga oshiriladigan bo'lsa, buning uchun qaror chiqarish zarur. Ushlab turish, gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida militsiya yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ xodimi ushlangan shaxsni JPKning 224-moddasi qoidalariga rioya etgan holda eng yaqin militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga darhol olib borishi shart. Shaxs ushlangani to'g'risida qaror yoki ajrim chiqargan vakolatli shaxs yoki sud darhol xabardor qilinishi lozim.

Gumon qilinuvchi haqiqiy ushlangan paytdan boshlab o'tgan vaqt ayblanuvchini qamoqda saqlash hamda Jinoyat kodeksining 62-moddasida belgilanganiga mutanosib ravishda sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga kiritiladi (JPK 227-m.).

Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchiga yo'llagan shikoyat va arizalari ularga topshiriladi.

Ushlab turilgan shaxsga himoyachi bilan uchrashuvga JPK 46-moddasining birinchi qismida va 48-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra ruxsat beriladi.

Ushlab turilgan shaxsga himoyachi bilan birinchi xoli uchrashuvga birinchi so‘roqqacha ruxsat beriladi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanayotgan ushlab turilgan shaxsning himoyachi bilan uchrashuviga JPK 226-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan ehtiyot chorasi qo‘llanilishi lozim bo‘lgan, muddatlar inobatga olingan holda ruxsat beriladi hamda uchrashuv surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan ikki soatga qadar cheklanishi mumkin.

Ushlab turilgan shaxsga qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvga ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning ma‘muriyati ushlab turish to‘g‘risidagi materiallar qaysi tergovchi yoki surishtiruvchining ish yurituvda bo‘lsa, faqat o‘sha tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsati asosida ijozat beradi, himoyachi bilan uchrashuv bundan mustasno

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi «Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida»gi Qonunining 19-moddasiga asosan «Ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlar qamoqda saqlash joyi ma‘muriyatiga, davlat organlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalariga o‘z ona tilida yoki boshqa tilda arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat etish hamda murojaat etilgan tilda belgilangan tartibda yozma javoblar olish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qamoqda saqlash joyi ma‘muriyati orqali yuboriladi, bundan ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarni shaxsan qabul qilish vaqtida qamoqda saqlash joylarining faoliyatini nazorat qiluvchi yoki tekshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan olingan murojaatlar mustasno.

Sud, prokuror, himoyachi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) yoki qamoqda saqlash joylarini tekshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa davlat organlari nomiga, shuningdek jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxsga yoki organga yo‘llangan arizalar, takliflar va shikoyatlar senzurdan o‘tkazilmaydi hamda berilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay muhrlangan tarzda adresatga yuboriladi yoki topshiriladi. Boshqa davlat organlari va tashkilotlari nomiga yo‘llangan arizalar, takliflar va shikoyatlar berilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxsga yoki organga topshiriladi, ular tomonidan qarab chiqiladi hamda o‘sha muddatda adresatga yuboriladi. Murojaat adresatga yuborilganligi to‘g‘risidagi ilova xatning ko‘chirma nusxasi ushlab turilganga yoki qamoqqa olinganga e‘lon qilish uchun qamoqda saqlash joyiga yuboriladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar berilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay qamoqda saqlash joyi ma'muriyati tomonidan tergov organining boshlig'iga yoxud prokurorga, prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar esa yuqori turuvchi prokurorga yuboriladi yoki topshiriladi.

Jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishi yoxud jinoyat sodir etilishiga ko'maklashishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilgan, maxfiy yozuv, belgilar bilan yozilgan, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan arizalar, takliflar va shikoyatlar adresatga yuborilmaydi hamda jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxsga yoki organga topshirilib, bu haqda ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan, shuningdek prokuror yozma ravishda xabardor qilinadi.

Arizalar, takliflar va shikoyatlarga berilgan yozma javoblar, shuningdek ular jo'natilganligi to'g'risidagi ilova xatlarning ko'chirma nusxalari ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarga tilxat olib e'lon qilinadi hamda ularning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga qo'shib qo'yiladi.

Ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarni o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari buzilganligi haqidagi arizalar va shikoyatlar bilan murojaat etganligi uchun har qanday shaklda ta'qib qilish taqiqlanadi»¹.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxs, agar:

- 1) jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon tasdiqlanmasa;
- 2) ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarurati bo'lmasa yoki uni qo'llash sud tomonidan rad etilsa;
- 3) ushlab turishning belgilangan muddati tugagan bo'lsa va ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmagan yoxud JPK 243-moddasi o'ninchi qismining 3-bandiga muvofiq ushlab turish muddati uzaytirilmagan bo'lsa, ozod qilinadi.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga yoxud sudning ajrimiga binoan ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ozod qilish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushishi bilan darhol ijro etiladi.

Ushlab turilgan shaxsni bundan buyon ushlab turish uchun asoslar yo'qligi aniqlanishi bilanoq surishtiruvchi va tergovchi uni darhol ozod qilishlari shart.

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Жиноят ишини юритиш чоғида қамокда сақлаш тўғрисида»ги 2011 йил 29 сентябрь Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011. – 40-сон. – 409-м.

Prokurorning, tergovchining yoki surishtiruvchining ushlab turilgan shaxsni ozod qilish haqidagi qarori yoxud sudning uni ushlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoki unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi qonunda belgilangan ushlab turish muddati ichida ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushmasa, ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i bu shaxsni ozod qiladi va uning ozod qilinganligi to'g'risida prokurorga, tergovchiga yoki surishtiruvchiga bildirish xati yuboradi.

Zarur hollarda ushlab turilganlar saqlanadigan joyning ma'muriyati ozod qilingan shaxslarning yashash joyiga tekin jo'nab ketishini ta'minlaydi; ularning iltimosiga ko'ra, ushlab turilganlar saqlanadigan joyda bo'lgan vaqti haqida ma'lumotnoma beradi (JPK 234-m.).

Ushlab turilganlarni qamoqda saqlash joylarida saqlash tartibi va shart-sharoitlari «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida»gi 2011-yil 29-sentabr Qonuni bilan belgilanadi.

24.3. Lavozimdan chetlashtirish protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslari va tartibi

Agarda ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z ish joyida qolsa, u jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga to'sqinlik qiladi yoki jinoiy faoliyatini davom ettiradi deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud uni lavozimidan chetlashtirishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" haqidagi ma'ruzasida sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish vazifalarini samarali hal qilishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy choralar qatorida "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29 va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etdi. Bu o'rinda sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi nazarda tutilmoqda. Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va

erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi"¹ deb ta'kidladi.

Ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida to'xtamga kelgach, tergovchi bu haqda qaror chiqaradi. Tergovchining bu to'g'ridagi qaroriga prokuror rozilik berishi lozim.

Qarorda yoki ajrimda: lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs; uning ish joyi; lavozimidan chetlashtirish asoslari; ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida korxonalar, muassasa, tashkilotning vakolatli rahbariga qaratilgan talab ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi qaror yoki ajrim korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari uchun majburiy bo'lib, u qaror yoki ajrimni olgach, uni zudlik bilan ijro etishi va ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish haqida qaror yoki ajrim chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoxud sudga bu haqda xabar berishi shart.

Lavozimidan chetlashtirish chorasiga keyinchalik zarurat qolmagan taqdirda ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi qaror yoki ajrim surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoxud sud tomonidan bekor qilinadi. Sud oqlov hukmida yoki ishni tugatish haqidagi ajrimda sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirishni bekor qiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning qarori asosida lavozimidan chetlashtirilgan ayblanuvchi, uning himoyachisi va qonuniy vakili, shuningdek lavozimidan chetlashtirilgan shaxs ishlagan korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari yuqori turuvchi prokurorga ushbu qaror ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, basharti ular ishda ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilingan bo'lsalar, lavozimidan chetlashtirilgan hisoblanadi. Shaxsning lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgani oqibatida yetkazilgan ziyon, agar keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan yoki jinoyat ishi JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tugatilgan bo'lsa, to'la hajmda qoplanadi.

24.4. Majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslari va protsessual tartibi

Jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko'rsatilgan vaqtda hozir bo'lishlari shart. Uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganlari taqdirda ular majburiy keltiriladilar.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Т., 2010.

Majburiy keltirish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining, guvohning protsessual harakatlarda yoki sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun, ular uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda qo'llaniladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini oldindan chaqiruvsiz majburiy keltirish ular surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinib yurgan yoki aniq yashash joyi bo'lmagan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

Guvohga yoki jabrlanuvchiga nisbatan majburiy keltirishning qo'llanilgani ularni ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Tergovchi majburiy keltirish to'g'risida qaror chiqaradi. Ushbu qaror yoki ajrimda: majburiy keltirilishi kerak bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; uning protsessual mavqei; yashash yoki ish joyi; majburiy keltirish uchun asoslar; shaxsni qayerga va qachon olib kelish kerakligi; majburiy keltirish kimga topshirilganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim (JPK 263-m.).

Majburiy keltirish to'g'risidagi qaror ijro etish uchun ish yuritilayotgan joydagi ichki ishlar idorasiga topshiriladi. Majburiy keltirilishi lozim bo'lgan shaxsni topgan ichki ishlar idorasining xodimi uni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib tilxat oladi va mazkur qarorni yoki ajrimni chiqargan tergovchiga olib keladi. Bunda qarorga shaxs topilgan vaqt va joy, u keltirib topshirilgan vaqt, shuningdek uning majburiy keltirilishi bilan bog'liq ariza, shikoyat va iltimoslar haqidagi ma'lumotnoma ilova qilinishi lozim.

Ichki ishlar idorasi shaxsning qochib ketganligi, ta'tilda, xizmat safarida ekanligi, og'ir kasalligi yoki boshqa sabablarga ko'ra yo'qligi oqibatida majburiy keltirishga imkon bo'lmaganligini aniqlasa, bu haqda ma'lumotnoma tuzadi hamda qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga yoxud sudga xabar beradi.

24.5. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish protsessual majburlov chorasini qo'llash

Sud-tibbiyot yoxud sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazishda statsionar kuzatuv zarurati bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ayblanuvchini yoki sudlanuvchini, basharti ular ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan bo'lsalar, tegishli tibbiy muassasaga joylashtirishga haqlidir.

Ruhiy holati ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish va ayblov e'lon qilish imkoniyatini istisno etadigan shaxs ham, agar aynan uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligiga yetarlicha dalillar mavjud bo'lsa, ekspertiza o'tkazish uchun psixiatriya muassasasiga joylashtirilishi mumkin.

Shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ushlab turish muddati statsionar sud-psixiatriya ekspertizasi tamomlanguniga qadar tugasa, gumon qilinuvchining ruhiy holati imkon bersa, unga ayblov e'lon qilish yoki uni tibbiy muassasadan ozod qilish yoxud uni tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs tariqasida e'tirof etish to'g'risida qaror chiqarish kerak.

Jabrlanuvchilar va guvohlarni ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga majburiy joylashtirish mumkin emas. Ular gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi Jinoyat kodeksi 15-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etishda aybli ekanligini ochib berayotgan va ular bergan ko'rsatuvlarning ishonchligini tekshirishning boshqa imkoniyati bo'lmagan hollar bundan mustasno.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tergovchining prokuror rozilik bergan qaroriga, prokurorning qaroriga yoxud sudning ajrimiga asosan amalga oshiriladi. Qarorda yoki ajrimda: tibbiy muassasaga joylashtiriladigan shaxs va uning protsessual mavqei; shaxs joylashtirilayotgan tibbiy muassasaning nomi; zarur bo'lganda shaxsni shu muassasaga olib borish to'g'risidagi farmoyish; ehtiyot chorasi to'g'risidagi qaror aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" haqidagi ma'ruzasida sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish vazifalarini samarali hal qilishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy choralar qatorida "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etdi. Bu o'rinda sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi nazarda tutilmoqda. Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi"¹ deb ta'kidladi.

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Т., 2010. – Б.55.

Tibbiy muassasaga joylashtirilayotganda ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash yuzasidan ish yuritilayotgan shaxsga nisbatan, basharti bu muassasa qamoqqa olinganlarni saqlashga moslashtirilgan bo'lsa, qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanishi mumkin. Boshqa hollarda ko'rsatilgan ehtiyot chorasi bekor qilinishi yoki yengilrog'i bilan almashtirilishi lozim.

Ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash yuzasidan ish yuritilayotgan shaxsning tibbiy muassasada bo'lgan vaqti qamoqda saqlash muddatiga qo'shib hisoblanadi. Ushbu shaxs tibbiy muassasaga bir oydan ortiq bo'lmagan muddatga joylashtirilishi mumkin.

Alohida hollarda shifokorlarning statsionar ekspertiza o'tkazish jarayonida olingan xulosasiga asosan bu muddat ish yurituvda bo'lgan prokurorning qarori yoxud sudning ajrimi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin. Muddatni yanada uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tibbiy muassasaga ekspert tekshiruv uchun joylashtirilgan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili surishtiruvchining, tergovchining va prokurorning tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga, sudning bu xususdagi ajrimi ustidan yuqori sudga shikoyat qilishga haqlidir.

**Ushlab turish haqida
QAROR**

20__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____ -sonli jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini olib borib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(jinoiy hodisaning qisqacha mazmuni, kimning nima uchun gumon qilinayotgani va ushlab

turish asoslari, gumon qilinuvchining demografik ma'lumotlari)

_____ning harakatlarida O'zbekiston Respublikasi JKning ____-modda ____-qism «____» bandida ko'rsatilgan _____ jinoyat alomatlari borligini hisobga olib, shuningdek uning tergovdan yashirinishi, dalillarni yo'q qilishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasi tartibida ushlab turish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 220–224, 227-moddalariga rioya qilgan holda,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____
(ushlanayotgan shaxsning demografik ma'lumotlari)

O'zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasi tartibida ushlansin va _____ vaqtinchalik saqlash hibsxonasiga joylashtirilsin.

2. Ushbu qaror _____ ga e'lon qilinsin, unga gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirilsin.

3. Ushbu qarorning nusxasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.

4. Qaror nusxasi ijro etish uchun _____ vaqtinchalik saqlash hibsxonasiga yuborilsin.

(lavozimi)

(unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ «__» _____ kuni e'lon qilindi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 48 va 229-moddalaridagi gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

(imzo)

(F.I.SH.)

**Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi
JPKning 227-moddasi tartibida ushlab haqida
BAYONNOMA**

20__ yil «__»_____ shahri

(bayonnoma tuzgan xodimning lavozimi, unovni va F.I.SH.)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 220, 221, 225, 227-moddalari talablari asosida:

(ushlangan shaxs haqida ma’lumot ko‘rsatiladi)

Gumon qiluvchi tariqasida 20__ yil «__»_____soat «__» dan «__» daqiqa o‘tganda ushladim.

Gumon qilinuvchi _____ga ushlangan vaqtda o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida imoyachi yoki yaqin qarindoshlariga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish, yoxud xabar berish, ushlangan vaqtdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish, o‘ziga nisbatan fo‘yilgan gumon xususida va ishning boshqa har qanday holatlari bo‘yicha ko‘rsatuvlar berish yoxud ko‘rsatuv berishdan bosh tortish va bergan ko‘rsatuvlari jinoyat ishi bo‘yicha uning aybini tasdiqlashda dalil sifatida foydalanishi mumkinligi haqida xabardor qilindi.

Ushlab turish asoslari (asosning tagiga chizing):

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar;
- 3) uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Ushlab

turish

maqsadi

Ushlangan shaxs _____ O‘zbekiston Respublikasi JKning _____ ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinib, ushlangan.

20__ yil «__»_____ kuni _____ ushlanganligi haqida _____ xabar qilindi.

Gumon qilinuvchi _____ ga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi, ya’ni:

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasi:

Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e’tirof etilganligi to‘g‘risidagi qaror unga ma’lum qilingan paytdan boshlab

himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeksning 230-moddasi ikkinchi qismda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish; o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish; o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalani huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi: surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruv uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi qarorlari va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.

Gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarim bilan to'liq tanishdim.

Bayonnoma bilan to'liq tanishdim _____
(imzo) (F.I.S.H.)

Bayonnoma tuzgan shaxs _____
(imzo) (xodimning F.I.S.H.)

«TASDIQLAYMAN»

_____ tumani IIB boshlig'i

_____ 20__ yil «__» _____

**Shaxsni O'zbekiston Respublikasi JPKning
224-moddasi tartibida ushlash haqida
BAYONNOMA**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzgan xodimning lavozimi, unovni va F.I.SH.)

O'zbekiston Respublikasi JPKning 220, 221, 225, 227-moddalari talablari asosida:

(ushlangan shaxs haqida ma'lumot ko'rsatiladi)

20__ yil «__» _____ soat «__» dan «__» daqiqa o'tganda ushladim. _____ ga ushlangan vaqtda o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida himoyachi yoki yaqin qarindoshlariga telefon orqali qo'ng'iroq qilish, yoxud xabar berish, ushlangan vaqtdan boshlab himoyachiga ega bo'lish, o'ziga nisbatan fo'yilgan gumon xususida va ishning boshqa har qanday holatlari bo'yicha ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuv berishdan bosh tortish va bergan ko'rsatuvlari jinoyat ishi bo'yicha uning aybini tasdiqlashda dalil sifatida foydalanishi mumkinligi haqida xabardor qilindi.

Ushlab turish asoslari (asosning tagiga chizing):

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;
- 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

Ushlangan shaxs _____ O'zbekiston Respublikasi JKning _____ ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinib, ushlangan.

20__ yil «__» _____ kuni _____ ushlanganligi haqida _____ orqali _____ xabardor qilindi.

Ushlangan _____ ga O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi, ya'ni:

O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasi:

Gumon qilinuvchi: o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish; u ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e'tirof

etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeksning 230-moddasi ikkinchi qismda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish; o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish; o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o'zining himoyalani huquqini shaxsan o'amalga amalga oshirish; iltimosnoma berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi: surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi qarorlari va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.

Gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarim bilan to'liq tanishdim.

Bayonnoma bilan to'liq tanishdim _____
(imzo) (F.I.S.H.)

Bayonnoma tuzgan shaxs _____
(imzo) (xodimning F.I.S.H.)

**Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ga telefon orqali xabar qilish imkoniyati berilganligi to‘g‘risida
BAYONNOMA**

20__ yil «__»_____

(bayonnoma tuzgan xodimning lavozimi, unovni va F.I.SH.)

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 46-48-moddalari talablaridan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 90-92-moddalari asosida tuzdim ushbu bayonnomanani shu haqdakim, ya’ni gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 224 (227)-moddasi talablari asosida telefon orqali ushlanganligi haqida himoyachisiga yoki yaqin qarindoshiga xabar qilish imkoniyati berildi.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ga _____ orqali himoyachisi (yaqin qarindoshi) _____ ga _____ raqamli telefonga qo‘ng‘iroq qilib, 20__ yil «__» _____ kuni soat _____ da _____

_____ da ushlanganligi va hozirda

_____ saqlanayotganligi haqida xabar berdi.

Telefon aloqasi «__» daqiqa, ya’ni soat «__» dan «__» gacha davom etdi.

So‘zlashuv tuganidan so‘ng ushlangan shaxs _____ ga tushuntirildi.

Ushlangan shaxs _____ / _____ /

Bayonnoma tuzdim: _____
lavozimi, unvoni

_____ / _____ /
F.I.SH.

**Ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv qilish haqida
BAYONNOMA**

20__ yil «__» _____ shahri

(bayonnoma tuzgan xodimning lavozimi, unovni va F.I.SH.)

Xolislar:

1. _____

2. _____

ishtirokida, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 160-164-moddalari tartibida O‘zbekiston Respublikasi JPKning 227-moddasi asosida gumon qilinib ushlangan _____ ni shaxsiy tintuv qildim.

Xolislarga O‘zbekiston Respublikasi JPKning 74-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirildi

1. _____ / _____ /

2. _____ / _____ /

Ushlangan shaxsning egnida _____

Shaxsiy tintuv qilingan vaqtida quyidagi narsalar olindi:

Shaxsiy tintuv vaqtida ariza va shikoyatlar: _____

Bayonnoma ishtirokchilarga o‘qib eshittirildi:

Xolislar : 1. _____ 2. _____

Ushlangan shaxs: _____ / _____ /

Tintuv o‘tkazdim: _____ / _____ /

Tintuv bayonnomasi nusxasini oldim: _____ / _____ /

Tintuv vaqtida olingan narsalar va buyumlar _____ -sonli jinoyat ishiga qo‘shildi.

(xodimning lavozimi, unvoni va F.I.SH.)

Jinoyat sodir qilganlikda gumon
qilingan shaxsni ushlash
haqidagi bayonnomaga ilova

X A B A R N O M A

_____prokurori

_____ga

«___»_____20__ yil soat___daqiqa_____

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 221, 224 (227)-moddalari tartibida JKning _____
moddasi _____ qismi «___» bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda gumon
qilinib,

_____ushlangan shaxsning F.I.SH.

_____tug‘ilgan yili, vaqti, joyi

_____ushlandi
fuqaroligi, ishlash va yashash joyi

Ushlash asoslari_____

Ushlangan _____
F.I.SH.

_____IIBning vaqtinchalik saqlash hibsxonasida saqlanmoqda.

_____lavozimi, unvoni, F.I.SH.

_____imzo

20__ yil «___»_____

**Majburiy keltirish haqida
Q A R O R**

20__ yil ____

_____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 261–264-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur jinoyat ishi bo'yicha _____ tumani IIB tergov _____ning ____-xonasiga majburiy keltirilsin.
2. Qaror ijro etish uchun _____ tumani HOOB boshlig'iga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

Ayblanuvchi_____

_____ni

lavozimidan chetlashtirishga

«R O Z I M A N»

20__ yil __ _____

**Lavozimidan chetlashtirish haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____

_____shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

ANIQLADIM:

Yuqoridagilarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 255, 257-moddalarini qo'llab,

QAROR QILDIM:

1. _____ o‘z lavozimidan
chetlashtirilsin va bu haqda unga e’lon qilinsin.

2. Mazkur qaror ijro etish uchun _____ boshlig‘iga
yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

Ushbu qaror menga 20__ yil «__» _____ kuni e’lon qilindi.

(imzo)

(FISH)

Ayblanuvchi _____

_____ ni tibbiy
muassasaga joylashtirishga

«R O Z I M A N»

20__ yil «__» _____

**Ayblanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni
o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 265–269-moddalarini
qo'llab,

QAROR QILDIM:

1. Ayblanuvchi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha statsionar tartibda sud-ruhiy o'tkazish ўтказиш uchun _____ yopiq turdagi ___-sonli ruhiy kasalliklar shifoxonasiga bir oy muddatga joylashtirilsin.

2. Qaror ijro etish uchun _____ yopiq turdagi ___-sonli ruhiy kasalliklar shifoxonasining bosh shifokoriga yuborilsin.

3. Qarorning nus'hasi ma'lumot uchun _____ prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

25-BOB. DASTLABKI TERGOVDA EHTIYOT CHORALARINI TANLASH VA PROTSESSUAL RASMIYLASHTIRISH

25.1. Ehtiyot choralari qo'llashning protsessual tartibi

JPK 236-moddasiga binoan, ehtiyot chorasi ayblanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan bo'yin tovlashining oldini olish, uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida qo'llaniladi. Ehtiyot chorasi Tergovchi, prokurorning qarori bilan qo'llanilishi bekor qilinishi va o'zgartirilishi mumkin.

Ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish, o'zgartirish to'g'risidagi qarorda shaxsning qanday jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi; ehtiyot chorasi qanday qonuniy asoslarga tayanib qo'llanganligi yoxud tegishli dalillar keltirish yo'li bilan bu asoslar yo'qligi yoki o'zgarganligi ehtiyot chorasini tanlashga ta'sir qiluvchi, qonun bilan belgilangan holatlarni hisobga olib, ehtiyot choralari qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish zaruratini izohlovchi sabablar ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qaror kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxsga darhol e'lon qilinadi, shaxsning og'ir kasalligi yoki uning qochib ketganligi tufayli e'lon qilinishi mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno (JPK 240-m.).

Dastlabki tergovda tanlangan ehtiyot chorasi ustidan tergovni nazorat qiluvchi, ehtiyot chorasini bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli bo'lgan prokurorga shikoyat berilishi mumkin. Prokuror shikoyatni olganidan so'ng 3 sutka ichida uni qarab chiqishi hamda shikoyat bergan shaxsni o'z qaroridan voqif etishi shart.

25.2. Qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llashning protsessual tartibi

Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalash, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi samarali muhofaza etilishini ta'minlashdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, 1966-yilda qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi

Xalqaro Pakt»¹ning 9-moddasi 3-qismiga asosan «Jinoiy ayblov bilan qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo'yicha sud hukmronligini amalga oshirish huquqi bo'lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko'rilishi yoki ozod qilib yuborilish huquqiga ega»ligi qayd etilgan.

Aynan shu xalqaro standartlarning mamlakatimiz qonunchiligiga inkorporatsiya qilinishi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi 2005-yil 8-avgust farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga asosan «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2007-yil 11-iyul qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 2008-yilning 1-yanvaridan qo'llanila boshlandi. Uning amaliyotga joriy etilishi huquq-tartibot idoralaridan ko'plab izlanishlar, sa'i-harakatlar talab etmoqda. Sababi, sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish borasida yaratilgan yangicha mexanizm eski mexanizmdan tubdan farq qiladi.

Yendi jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs faqat sudning qaroriga ko'ra ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olinishi mumkin. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatini uzaytirish vakolati ham faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

JPKga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan dastlabki tergov davomida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash huquqi faqat sudlarga tegishlidir. Sud huquqlarini kengaytirish orqali qonunda amalga oshirilgan ushbu o'zgartirish jinoyat protsessida sudgacha bo'lgan ish yuritishni sud tomonidan nazorat qilish institutining joriy etilayotganini bildiradi.

Yendi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun prokuror, prokurorning roziligi bilan tergovchi tomonidan iltimosnoma beriladi va uni sud JPKning 243-moddasida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi.

Qamoqqa olish – eng og'ir ehtiyot chorasi bo'lib, fuqaroning huquq va erkinliklarini hamda eng asosiy huquqlaridan biri – shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqlarini jiddiy ravishda cheklaydi. Shu bois qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi boshqa ehtiyot choralari ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning munosib xulq-atvorini ta'minlash va jazodan bo'yin

¹ Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар (тўплам). – Т., 2004. – 40-б.

tovlashining oldini olish imkoni bo'lmagan hollardagina qo'llanadi. Ayni paytda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llamaslik yoki o'z vaqtida qo'llamaslik yangi jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim.

JPKning 242-moddasiga asosan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish ayblanuvchini (ayrim hollarda – ushlangan gumon qilinuvchini) jamiyatdan majburiy ajratish hamda dastlabki tergov va jinoyat ishini sudda ko'rib chiqish jarayoni va jazoning ijro etilishini ta'minlash maqsadida, uni maxsus muassasada saqlashdan iborat.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasiga quyidagi belgilar xos:

a) u ayblanuvchiga, ayrim hollarda esa – ushlangan gumon qilinuvchiga nisbatan qo'llaniladi, protsessning boshqa ishtirokchilariga nisbatan esa hech qachon qo'llanilmaydi;

b) uni faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yichagina qo'llash mumkin;

v) uni qo'llash uchun shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini tasdiqlovchi dalillar bo'lishi zarur;

g) u jinoyat ishi bo'yicha isbotlash vositasi hisoblanmaydi va ushbu choraning qo'llanilishi o'z-o'zicha shaxsning jinoyat sodir etganligiga dalil bo'lmaydi;

d) shaxsga bir vaqtning o'zida faqat bitta ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sodir etilgan jinoyat uchun jazo deb baholab bo'lmaydi. Ehtiyot choralarida protsessual javobgarlik elementlari bo'lsa-da, ammo ularning asosiy vazifasi – huquqbuzarliklarning oldini olish, chunki ular jinoyat sodir etganlik yoki protsessual qoidani buzganlik uchun emas, balki ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning protsessual majburiyatlarni bajarishini ta'minlash va uning yangi jinoyatlar sodir etishi, tergov va suddan yashirinishi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishga urinishlarining oldini olish uchun qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rsatilganlar bilan bir qatorda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi, alohida hollarda, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir

etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin. Lekin JPKga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga asosan alohida hollarning turlariga aniq tavsif berilgan. Ular quyidagi holatlardan iborat:

- 1) ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanida;
- 2) ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida;
- 3) ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida;
- 4) ushlab turilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganida;
- 5) jinoyat qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganida.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi esa faqat sud tomonidan qo'llanilishi mumkin. Bunday huquq jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi, okrug, hududiy harbiy sudining sudyalariga berilgan.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

a) ushlangan gumon qilinuvchi – bu ushlash tarzidagi protsessual majburlov chorasi qo'llanilgan, ushlab turish bayonnomasi tuzilgan va shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to'g'risida qaror chiqarilgan shaxs;

b) ayblanuvchi – JPKning 46-moddasiga muvofiq, qonunda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etish uchun jalb qilish haqida qaror chiqarilgan shaxs.

JPKning 242-moddasida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lganda va dastlabki tergov davomida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlash zaruriyati tug'ilganda prokuror, prokurorning roziligi bilan tergovchi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqarishi mumkin. Bunday huquq faqat prokuror va tergovchiga tegishli va tergovchining iltimosnomasiga binoan prokurorning roziligi olinishi kerak.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosiga nisbatan – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatasi yoki uning Kengashi roziligi bilan;

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (ombudsmanga) nisbatan – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligi bilan;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputatiga, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashining deputatiga nisbatan – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki ularning rahbarlari roziligi bilan;

4) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasiga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roziligi bilan, O‘zbekiston Respublikasining boshqa sudlari sudyalariga nisbatan — tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining roziligi bilan;

5) prokuror va prokuratura tergovchisiga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan qo‘llanilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarorda ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qamoqqa olish zaruratini keltirib chiqargan asoslar va boshqa ehtiyot chorasini qo‘llab bo‘lmaslik asoslari bayon qilinadi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash uchun iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qaror uch qismdan: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosadan iborat bo‘ladi.

Kirish qismida protsessual hujjatning nomi, tuzilgan vaqti va joyi, hujjatni tuzgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi, jinoyat ishining raqami va boshqa ma‘lumotlar keltiriladi.

Tavsif-asoslantirish qismida quyidagilar bayon etiladi: jinoyatning sodir etilish sharoitlari; shaxs sodir etgan jinoyatning kvalifikatsiyasi; tergovchi (prokuror) ushbu ehtiyot chorasini qo‘llash haqida iltimos bilan chiqarayotgan shaxs aybining isbotlanganlik darajasi; JPKning 237, 242-moddalarida nazarda tutilgan va aynan shu favqulodda ehtiyot chorasi qo‘llanilishini hamda JPKning 237-moddasida nazarda tutilgan boshqa ehtiyot choralarini qo‘llash mumkin emasligini asoslantiruvchi ma‘lumotlar; JPKning iltimosnoma qo‘zg‘atish haqida qaror chiqarilishi uchun huquqiy asos bo‘lgan moddalari.

Xulosa qismida tergovchining (aynan qaysi) sud oldida shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash zarurligi haqida iltimosnoma qo‘zg‘atishga doir xulosalari, shuningdek ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi haqidagi ma‘lumotlar — uning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan vaqti va joyi, millati, ish va yashash

joyi, ma'lumoti, sudlanganligi kabi ma'lumotlar keltiriladi. So'ngra prokurorning roziligini olish zarurligi, qabul qilingan qaror haqida manfaatdor taraflar xabardor qilinishiga oid ma'lumotlar keltirilishi mumkin. Qarorni tergovchi yoxud prokuror (shaxsan o'zi iltimos qo'zg'atgan hollarda) imzolashi kerak.

Iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorga uni asoslantiruvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qaror nusxasi;
- gumon qilinuvchini ushlab turish bayonnomasining nusxasi;
- shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish haqidagi qaror nusxasi;
- shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish haqidagi qaror nusxasi;
- ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi qaror nusxasi (agar u ilgari qo'llanilgan va ayblanuvchi uni buzgan bo'lsa);
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ushbu shaxs shu jinoyatni sodir etganligini tasdiqlovchi ko'rsatuvlar bergan boshqa shaxslarni so'roq qilish bayonnomalarining nusxalari;

– gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining shaxsiga oid materiallar;

– jinoyat ishining shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni asoslantiruvchi boshqa materiallarining nusxalari. Iltimosnoma gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'zg'atila-yotganligiga qarab ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati o'zgarishi mumkin.

Iltimosnomaga ilova qilib sudga yuborilayotgan barcha hujjatlar qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Prokuror qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomaning asosligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, iltimosnoma qo'zg'atish to'g'risidagi qaror va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Bunda prokuror tergovchining iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarori, unga ilova qilingan va iltimosnomani asoslantiruvchi hujjatlar bilan tanishib, ushbu shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning asosligi va buning uchun asoslar yetarliligini tekshiradi. Prokuror tergovchining iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorida aks ettirilgan vajlariga qo'shilgan taqdirda qaror blankiga imzo chekadi. Qaror blankasida prokuratura organining nomi, prokurorning unvoni, familiyasi va ismi, otasining ismi, sana ko'rsatilgan, imzo tegishli prokuratura organining gerbli muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. So'ngra qaror hamda tegishli materiallar yo'llanma xat bilan jinoyat ishi tergov qilina-

yotgan joydagi tuman (shahar yoki boshqa joy)ning jinoyat ishlari bo'yicha sudiga yuboriladi.

Prokuror qarorga qo'shilgan materiallar yetarli emasligi, isbotlanmaganligi yoki to'liq emasligi yoxud boshqa sabablar tufayli tergovchining qarorida keltirilgan vajlarga rozi bo'lmaganida tergovchiga qaror va uning ilovalarini yozma ko'rsatmalar bilan qaytaradi. Ularda iltimos qo'zg'atish haqidagi qaror hamda unga qo'shilgan materiallar qaytarilishining sabablari aks ettirilishi kerak. Shuningdek, materiallarni to'ldirish zarurligi, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni qo'llashning to'liqroq asoslantirilishi yoxud boshqa ehtiyot chorasi qo'llanishi haqida aniq ko'rsatma berilishi mumkin.

Agar iltimosnoma JPKning 221-moddasi tartibida ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'zg'atilayotgan bo'lsa, qaror va ko'rsatilgan materiallar ushlab turish muddati tugashidan kamida o'n ikki soat oldin sudga taqdim qilinishi kerak.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma jinoyat sodir qilingan yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, okrug, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi materialni ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Bunda jinoyat ishlarining tergovga (JPK 345-m.) va sudlovga (JPK 389-m.) tegishliligi qoidalariga rioya etilishi zarur.

Sudya bo'lmagan hollar deganda, uning kasalligi, ta'tilda ekanligi yoki uning kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi boshqa sharoitlar yoxud ushbu sud sudyasining lavozimi bo'sh ekanligi tushunilishi lozim.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi materialni ko'rib chiqishda sudyaning ishtirok etishini istisno etuvchi holatlarning mavjudligi deganda, JPKning 76-moddasida nazarda tutilgan holatlar tushuniladi. Mazkur holatlar yuzaga kelgan taqdirda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani tegishli darajadagi boshqa sud ko'rib chiqishi mumkin.

Iltimosnomani yakka tartibda ko'rib chiqish sudya JPKning 13-moddasi qoidalariga muvofiq sud majlisi o'tkazishini va unda JPKning 408-moddasi talablariga muvofiq raislik qilishini bildiradi. Sud muhoka-

masi chog'ida JPKning 406, 408-412, 414, 418, 420, 423–427-moddalarida ko'rsatilgan sud muhokamasining umumiy shartlariga rioya etilishi kerak.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma yopiq sud majlisida, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n ikki soat ichida, lekin ushlab turishning eng ko'p muddatidan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.

Iltimosnoma yopiq sud majlisida ko'rib chiqilganligi sababli sud zalida JPKning 243-moddasida ro'yxati keltirilgan shaxslargina ishtirok etishini taqozo etadi. Bu ro'yxatga prokuror, himoyachi, ushlangan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kiritilishi lozim.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma prokuror, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa himoyachi, ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Ushlab turilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sud majlisiga olib kelinadi. Sud majlisida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining qonuniy vakili, shuningdek tergovchi ishtirok etishga haqli. Zarur hollarda tergovchi sudga chaqirilishi mumkin.

Sud majlisida ishtirok etish huquqiga ega shaxslarga gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining qonuniy vakili (uning ishtirok etishi JPKning 60-moddasi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak) hamda tergovchi kiritiladi. Tergovchi sudga chaqirilishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Tergovchini sudga chaqirish shaxsni qamoqqa olish zaruratini tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlar olinishi kerakligi bilan asoslantirilishi mumkin. Bu tergovchining protsessual mustaqilligi yo'qotilishini anglatmaydi. Sud faqat qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi masalani hal qiladi va tergovchining shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi to'xtamiga aslo ta'sir etmaydi.

Iltimosnomani ko'rib chiqish bo'yicha sud majlisida ishtirok etishi kerak bo'lgan shaxslarga JPKning 97-moddasida belgilangan tartibda sud majlisi bo'ladigan vaqt va joy haqida xabar beriladi.

Sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish uchun monelik qilmaydi, ayblanuvchining kelmaganligi hollari bundan mustasno.

Sud majlisining kotibi majlis boshlanguniga qadar prokuror, himoyachi, ushlangan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sud majlisiga chaqirilgan boshqa shaxslarning kelganligini tekshiradi. Xabar berilgan

shaxslarning kelmaganligi sud majlisi qoldirilishiga asos bo'lmaydi. Ushbu qoida ayblanuvchi kelmagan hollarga taalluqli emas, chunki manfaatdor tarafning ishtirokisiz iltimosnomani ko'rib chiqish sudda ish yuritishning tortishuvi prinsipini (JPK 25-m.) va ayblanuvchining himoyalani huquqini (JPK 46-m.) buzadi.

Ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilingan shaxs tergov organlaridan yashiringan hollarda tergovchi, JPKning 365-moddasiga muvofiq, unga nisbatan qidiruv e'lon qiladi. Faqat shu holdagina yashiringan ayblanuvchini qamoqqa olish haqidagi iltimosnoma uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish tartibi sud muhokamasining qisqartirilgan shaklida amalga oshiriladi. Sud majlisi ochilib, sudga chaqirtirilgan shaxslar tekshirilganidan so'ng, raislik qiluvchi, taraflar hamda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnoma ko'rib chiqiladigan shaxsga oid ma'lumotlar e'lon qilinadi. Sudya taraflar va boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini tushuntirib beradi. Protsess ishtirokchilarining iltimoslarini qabul qiladi va hal etadi.

Sud tergov prokuror ma'ruzasi bilan boshlanadi. Prokuror o'z ma'ruzasida aynan shu ehtiyot chorasini qo'llash zarurligi va boshqa ehtiyot chorasini qo'llash mumkin emasligini asoslab beradi. Prokuror o'z chiqishida shaxsning tergov va suddan yashirinishi mumkinligini ko'rsatuvchi uning doimiy yashash joyiga ega emasligini, yangi g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga moyilligini, shuningdek ayblanuvchi yoki uning qarindoshlari, guvohlar va jabrlanuvchilarga ularning ko'rsatmalarini o'z foydasiga o'zgartirishga erishish maqsadida tazyiq o'tkazishga urinishlarini ko'rsatuvchi dalillar va taxminlarni keltirishi mumkin. Shunga alohida e'tibor berish zarurki, prokurorning ma'ruzada bildirgan taxminlari ish holatlariga va ayblanuvchining shaxsiga oid haqiqiy ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Prokurorning ma'ruzasidan keyin so'z himoya tarafiga, ya'ni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi yoxud ularning himoyachisiga beriladi. Ular o'z chiqishlarida tergovchi, prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi vajlari asossiz ekanligini yoki haqiqatga mos emasligini asoslab beradilar. Ular, shuningdek, shaxsni qamoqqa olish mumkin emasligidan dalolat beruvchi holatlarni keltirishlari ham mumkin.

Sud majlisida sudga chaqirtirilgan va ko'rsatuvlari qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qo'llamaslik haqida ajrim chiqarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar tinglanishi

mumkin. Bundan tashqari, sud majlisida sudga ayblov tomonidan ham, himoya tomonidan ham taqdim etilgan materiallar tekshirilishi kerak.

Sud majlisida ishtirok etgan barcha ishtirokchilar tinglanganidan va barcha materiallar tekshirilganidan so'ng sud tanaffus e'lon qiladi hamda JPKning 453-moddasida nazarda tutilgan tartibda ajrim chiqarish uchun alohida xonaga chiqadi. JPKning 14-moddasi talablariga muvofiq qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi masala bo'yicha ajrim chiqarish chog'ida sudyaning faoliyatiga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bu qonun bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Sudya gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

- 1) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida;
- 2) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad qilish to'g'risida;
- 3) taraflar qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning asoslanganligi yoki asoslanmaganligiga doir qo'shimcha dalillarni taqdim etishlari uchun ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatdan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirish to'g'risida.

Ushbu turdagi ajrim faqat ushlangan gumon qilinuvchiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ushlab turish muddatini uzaytirishga sud ushlashni qonuniy va asosli deb topgan taqdirdagina taraflardan birining iltimosi bo'yicha sud qarori chiqarilgan paytdan e'tiboran 48 soatdan ortiq bo'lmagan muddatga qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash asosli ekanligi yoki asosli emasligini ko'rsatuvchi dalillarni taqdim etish uchun yo'l qo'yiladi (JPK 243-m. 10-q. 3-b.). Bunday uzaytirishga ayblov tarafining ham, himoya tarafining ham iltimosi bo'yicha ruxsat berilishi mumkin. Ushbu iltimosning ma'nosi shundaki, uni bildirgan taraf qamoqqa olish asosli ekanligini isbotlovchi yoki rad etuvchi qo'shimcha dalillar taqdim etishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Sharoitdan kelib chiqib, muddatni uzaytirish ayblov tarafiga ham, himoya tarafiga ham foydali bo'lishi mumkin.

Sudyaning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi yoki uni qo'llashni rad qilish to'g'risidagi ajrimi o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro qilinishi kerak. Sudyaning ajrimi ijro uchun prokurorga, ma'lumot uchun esa gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga yuboriladi.

Ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar tergov hibsxonasining kameralarida saqlanadi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud bir jinoyat ishi bo'yicha yoki bir necha o'zaro bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha gumon qilinuvchilarni va ayblanuvchilarni alohida-alohida saqlash to'g'risida tergov hibsxonasining ma'muriyatiga yozma ko'rsatma berishga haqli.

Agar qamoqqa olinganlar Jinoyat kodeksi 15-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda ayblanayotgan bo'lsa, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga ko'ra tergov hibsxonasining bir kishilik kamerasida qamoqda saqlab turilishi mumkin. Bu chora voyaga yetmaganlarga, oltmish yoshdan oshganlarga, shifokorning yozma xulosasi bilan tasdiqlangan og'ir kasallarga va ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Qamoqqa olinganlar vaqtincha saqlash hibsxonalarida o'n sutkagacha saqlanishi mumkin. Qamoqqa olinganlarni tergov hibsxonasiga olisligi yoki lozim darajadagi qatnov yo'llari mavjud emasligi tufayli olib borishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, bunday shaxslar vaqtincha saqlash hibsxonalarida tergovchining prokuror bilan kelishilgan qaroriga, shuningdek prokurorning qaroriga yoxud sudning ajrimiga ko'ra o'ttiz sutkagacha saqlanishi mumkin.

Qamoqqa olingan harbiy xizmatchilar gaupvaxtalarda ko'pi bilan yigirma sutkagacha, olis joylarda esa, bu ehtiyot chorasining butun amal qilish muddati mobaynida saqlanishi mumkin. Harbiy xizmatchini gaupvaxtada saqlash muddati harbiy sudlar tomonidan ishni sudda ko'rib chiqish vaqtiga, lekin ko'pi bilan o'n besh sutkaga uzaytirilishi mumkin. Intizomiy qismga yuborishga hukm qilingan harbiy xizmatchilar hukm qonuniy kuchga kirguniga qadar gaupvaxtalarda saqlanishi mumkin.

Tergov harakatlarini bajarish yoki jinoyat ishlarini tergov hibsxonalari joylashgan aholi punktlari hududidan tashqarida sudda ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan hollarda, qamoqqa olinganlarni mazkur harakatlarni amalga oshirish va sud majlislarini o'tkazish uchun har kuni olib borish imkoniyati bo'lmaganda ular tergov hibsxonalaridan vaqtincha saqlash hibsxonalariga o'tkazilishi, lekin bir oy mobaynida ko'pi bilan o'n sutkaga o'tkazilishi mumkin. Bunday o'tkazish uchun qamoqqa olinganni boshqa yerga ko'chirish to'g'risidagi tergovchining, prokurorning qarori yoxud sudning ajrimi asos bo'ladi.

Basharti mahkum boshqa jinoyat ishi bo'yicha guvoh yoki jabrlanuvchi bo'lsa, u sud hukmi qonuniy kuchga kirganidan keyin jazoni

ijro etish muassasasidan tergov hibsxonasiga o'tkazilishi yoki tergov hibsxonasida qoldirilishi mumkin. Bu holda mahkum: Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining, shuningdek ularga tenglashtirilgan prokurorlarning roziligi bilan uch oygacha muddatga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari roziligi bilan olti oygacha muddatga, sudning ajrimiga ko'ra esa ish sudda ko'rib chiqilishi vaqtiga tergov hibsxonasida saqlanishi mumkin.

Boshqa tumanda (shaharda) turgan mahkum boshqa yerga ko'chirish to'g'risidagi tergovchining prokuror bilan kelishilgan qaroriga, shuningdek prokurorning qaroriga yoxud sudning ajrimiga muvofiq boshqa yerga o'tkaziladi. Mahkumni boshqa yerga ko'chirishni ijro etish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus bo'linmalari zimmasiga yuklanadi.

Qamoqqa olinganlarni qamoqda saqlash joylarida saqlash tartibi va shart-sharoitlari 2011-yil 29-sentabrdagi «Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

Qamoqda saqlab turish muddatiga JPKning 599-moddasiga muvofiq shaxsni O'zbekiston Respublikasiga ushlab berish to'g'risidagi so'rovga ko'ra uning xorijiy davlat hududida qamoqda saqlangan vaqti qo'shib hisoblanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasiga xorijiy davlat tomonidan ushlab berilgan shaxsni ushbu modda ikkinchi qismining to'rtinchi yoki beshinchi xatboshisida belgilangan qamoqda saqlab turishning oxirgi muddati tugagan bo'lsa va ishning holatlariga ko'ra qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini o'zgartirish mumkin bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining iltimosnomasiga binoan, sud JPKning 247-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda, qamoqda saqlab turishning qo'shimcha, lekin shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha saqlash hibsxonasiga yoxud tergov hibsxonasiga joylashtirilgan paytdan boshlab uch oydan ortiq bo'lmagan muddatini belgilashga haqli.

Tergovi tamomlangan jinoyat ishining materiallari ayblanuvchiga va uning himoyachisiga tanishib chiqish uchun 247-modda ikkinchi qismining to'rtinchi yoki beshinchi xatboshisida yoxud to'rtinchi qismida nazarda tutilgan qamoqda saqlab turishning oxirgi muddati tugashidan kamida bir oy oldin taqdim etilgan bo'lishi lozim.

Sudyaning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kirishini hisobga olib,

gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sud zalining o'zida qamoqqa olinadi va protsessual majburlov choralari ijro etish joyiga, ya'ni tergov hibsonasiga, albatta soqchi qo'riqlovi ostida yuboriladi. Sudning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi bajarilishini tashkil qilish prokurorning zimmasiga yuklatiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad etish haqida ajrim chiqarilganida ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi darhol sud zalida ozod qilinadi.

Sudyaning ajrimi ustidan JPK 241-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan qoidalarga binoan apellatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin.

Apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini, protestini ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

1) sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldirishga;

2) sudyaning ajrimini bekor qilish va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qamoqdan ozod qilish yoxud unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga haqli.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingan taqdirda, aynan o'sha gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan mazkur masala bo'yicha takroran sudga murojaat qilishga qamoqqa olishni taqozo etadigan yangi holatlar yuzaga kelganda yo'l qo'yiladi.

Qamoqda saqlash muddatini uzaytirishning asoslari va tartibi

O'zbekiston Respublikasi JPK 245-moddasining 1-qismiga muvofiq, jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida qamoqda saqlab turish muddati ko'pi bilan uch oyni tashkil etadi.

Qamoqda saqlab turishning qonun normalarida belgilangan uch oylik muddatini:

5 oygacha – Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning;

7 oygacha – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosarining;

9 oygacha – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining;

bir yilgacha – alohida murakkab ishlar tergov qilinayotgan hollarda og'ir hamda o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining iltimosnomasiga binoan uzaytirish imkoni sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Muddatni yana uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatilgan barcha iltimosnomalarni ko'rib chiqishda sud taqdim etilgan materiallarning asoslilikini,

shuningdek protsessual normalar va talablarga rioya etilganligini inobatga oladi.

Bunda iltimosnomalarni ko'rib chiqishda sud taqdim etilayotgan materiallarning asoslanganligini, shuningdek protsessual norma va talablarga rioya etilganligini inobatga olishi belgilangan.

Ushbu ehtiyot chorasining asoslanganligi deganda, taqdim etilgan materiallarda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarurligini tasdiqlovchi, jumladan qamoqda saqlanayotgan shaxs haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi nazarda tutiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashning qonuniyligi deganda, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash va uzaytirish tartibini belgilovchi jinoyat-protsessual qonunchilikning barcha normalariga rioya etilganligi tushuniladi.

Qamoqqa olish muddatini uzaytirish haqida iltimosnoma kiritish huquqi faqat yuqori turuvchi va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga berilgan. Nazorat qilishning bunday mexanizmi dastlabki tergov organlari tomonidan jinoyat ishlarini tergov qilish qonunda ko'rsatilgan uch oylik muddatda tamomlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, dastlabki tergov organlarida qonuniylik darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ayblanuvchini qamoqda saqlab turish muddati tugagan jinoyat ishini sud qo'shimcha tergovga qaytargan va ishning holatlariga ko'ra qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini o'zgartirish mumkin bo'lmasa, qamoqda saqlab turish muddatini bir oygacha uzaytirish jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytargan sud tomonidan amalga oshiriladi, bu muddat ish prokurorga kelib tushgan paytdan boshlab hisoblanib, prokuror jinoyat ishini uch sutkadan kechiktirmay tergovchiga yuborishi shart. Ko'rsatilgan muddatni uzaytirish ayblanuvchi ish sudga yuborilguniga qadar qamoqda bo'lgan vaqt hisobga olingan holda JPK 245-moddasining birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qismlarida belgilangan tartibda va doirada amalga oshiriladi.

Qamoqda saqlash muddatini bundan keyingi uzaytirish masalasi JPKning 247-moddasida nazarda tutilgan tartibda, ayblanuvchi qamoqda saqlanayotgan vaqtni inobatga olgan holda hal etiladi, ya'ni ushbu muddatning 1 yildan ortiq vaqtga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ayblanuvchini qamoqda saqlab turishning belgilangan muddati tugashidan kamida olti sutka oldin tegishli prokuror qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi, bu qaror sudga yuboriladi.

Qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorda tergovning cho'zilib ketganligi sabablari, tekshirilishi lozim bo'lgan tasmollar va holatlar, qo'shimcha ravishda so'ralayotgan muddat ko'rsatilishi kerak.

Qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma jinoyat sodir etilgan yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, okrug, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi materialni ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soat ichida yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma prokuror, ayblanuvchi, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa, himoyachi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda tergovchi sudga chaqirilishi mumkin.

Ayblanuvchi statsionar sud-psixiatriya ekspertizasidan o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilgan taqdirda, qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma sud tomonidan ayblanuvchining ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda ayblanuvchining himoyachisi sud majlisida ishtirok etishi shart.

Sudya qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

- 1) qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida;
- 2) qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirishni rad qilish to'g'risida.

Sudyaning qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish haqidagi yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirishni rad qilish to'g'risidagi ajrimi o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va darhol ijro qilinishi kerak. Sudyaning ajrimi ijro uchun prokurorga, ma'lumot uchun esa ayblanuvchiga, himoyachiga yuboriladi. Sudyaning ajrimi ustidan JPK 241-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan qoidalarga binoan yetmish ikki soat ichida apellatsiya tartibida shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin.

Apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini, protestini ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan:

1) sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldirishga;

2) sudyaning ajrimini bekor qilish va qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirishni rad etishga yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirishga haqli. Qamoqda saqlash muddati tugab, ozod etilgan ayblanuvchiga nisbatan qamoqda saqlab turish muddati uzaytirilgan taqdirda, sud unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashi kerak.

Iltimosni ko'rib chiqish bo'yicha sud majlisida ishtirok etishi kerak bo'lgan shaxslar JPKning 97-moddasida belgilangan tartibda sud majlisi bo'ladigan vaqt va joy haqida xabardor etiladilar.

Sud majlisining kotibi majlis boshlangunicha prokuror, himoyachi, ayblanuvchi va sud majlisiga chaqirilgan boshqa shaxslarning hozir bo'lganligini tekshiradi. Xabar berilgan shaxslarning kelmaganligi sud majlisi qoldirilishiga asos bo'lmaydi. Ushbu qoida ayblanuvchi kelmagan hollarga taalluqli emas, chunki manfaatdor tarafning ishtirokisiz iltimosni ko'rib chiqish sudda ish yuritishning tortishuvi prinsipini (JPK 25-m.) va ayblanuvchining himoyalani huquqini (JPK 46-m.) buzadi.

Ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilingan shaxs tergov organlaridan yashiringan hollarda tergovchi JPKning 365-moddasiga muvofiq unga nisbatan qidiruv e'lon qiladi. Faqat shu holdagina yashiringan ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani uning ishtirokisiz ko'rib chiqish mumkin.

Qamoqqa saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish tartibi JPKning 247-moddasida aniq belgilab qo'yilgan. Sud majlisi ochilib, sudga chaqirtirilgan shaxslar hozir bo'lgani tekshirilganidan so'ng, raislik qiluvchi, taraflar hamda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqiladigan shaxs haqidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi. Sudya taraflar va boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini tushuntirib beradi. Protsess ishtirokchilarining iltimoslarini qabul qiladi va hal etadi.

Qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish prokuror ma'ruzasi bilan boshlanadi. Prokuror o'z ma'ruzasida ushbu ehtiyot chorasining muddatini uzaytirish zarurligi va boshqa ehtiyot chorasini qo'llash mumkin emasligini asoslab beradi. Prokuror o'z chiqishida shaxs tergov va suddan yashirinishi mumkinligini ko'rsatuvchi, doimiy yashash joyiga ega emasligini, yangi g'ayriqonuniy

harakatlar sodir etishga moyilligini, shuningdek u yoki uning qarindoshlari guvohlar va jabrlanuvchilarga ularning ko'rsatmalarini o'z foydasiga o'zgartirishga erishish maqsadida tazyiq o'tkazishga urinishlarini ko'rsatuvchi dalillar va taxminlarni keltirishi mumkin. Shunga e'tibor berish zarurki, prokurorning ma'ruzada bildirgan taxminlari ish holatlari va ayblanuvchining shaxsiga oid haqiqiy ma'lumotlar asoslanishi kerak.

Prokurorning ma'ruzasidan keyin so'z himoya tarafiga, ya'ni ayblanuvchi va himoyachiga beriladi. Ular o'z chiqishlarida tergovchi, prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining muddatini uzaytirish haqidagi vajlari asossiz ekanligini yoki bunga yo'l qo'yib bo'lmasligini asoslab beradilar. Ular, shuningdek, shaxsni qamoqda saqlash muddatini uzaytirish mumkin emasligidan dalolat beruvchi holatlarni keltirishlari mumkin.

Sud majlisida sudga chaqirilgan va ko'rsatuvlari qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish haqidagi to'xtamga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslarning guvohliklari tinglanishi mumkin. Bundan tashqari, sud majlisida sudga ayblov tomonidan ham, himoya tomonidan ham taqdim etilgan materiallar tekshirilishi kerak.

Sud majlisida ishtirok etgan barcha ishtirokchilar tinglanganidan va barcha materiallar tekshirilganidan so'ng sud tanaffus e'lon qiladi hamda JPKning 453-moddasida nazarda tutilgan tartibda ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kirib ketadi.

Prokurorning iltimosnomasi ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muddat materiallar sudga kelib tushganidan e'tiboran 72 soat bilan cheklangan. Bu bilan sudning qamoqda saqlash muddatini uzaytirish yoki buni rad etish haqidagi ajrimi yuzasidan shikoyat berish yoki protest bildirish uchun taraflarda yana dastlabki qamoqqa olish muddati o'tgunicha uch sutka vaqt qoladi.

Prokurorning iltimosnomasi ayblanuvchining ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan hollar (JPKning 265–268-moddalariga muvofiq statsionar sharoitida JPKning 172–175, 179–184-moddalarida belgilangan tartibda sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilganligi) aniq belgilab qo'yilgan. Bunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga himoyalani huquqini ta'minlash prinsipiga (JPK 24-m.) muvofiq, sud majlisida himoya tomonidan himoyachi ishtirok etadi hamda uning ishtiroki majburiydir. Ushbu qoida jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtiroki shart bo'lgan hollarni

tartibga soluvchi JPK 51-moddasining 2-qismi talablarini bajarish zarurligi bilan bog'liq.

Sudya iltimosnomani ko'rib chiqish natijalariga ko'ra o'z ajrimi bilan yo muddatni uzaytirishi, yo qamoqda saqlash muddatini davom ettirishni rad qilishi kerak. Boshqacha qaror qabul qilinishi mumkin emas.

Ajrim sud majlisi zalida e'lon qilinadi va darhol kuchga kiradi, shuningdek zudlik bilan ijro etilishi lozim. Ushbu holat qamoqda saqlash muddatini uzaytirish rad etilgan taqdirda ayblanuvchini darhol qamoqdan ozod qilinishi kerakligini nazarda tutadi.

Sudning qamoqda saqlash muddatini uzaytirish haqidagi ajrimi taraflarga – prokurorga ijroni tashkil qilish uchun, ayblanuvchi va himoyachiga ma'lumot uchun – yuboriladi. Uning ustidan JPKning 241-moddasi 2, 3-qismlarida belgilangan tartibda shikoyat berilishi yoki protest bildirilishi mumkin.

Agar sudning qamoqda saqlash muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish haqidagi ajrimi ustidan shikoyat yoki protest kelib tushgan bo'lsa, uni apellatsiya instansiyasi sudi – jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasining Harbiy sudi – mazmunan ko'rib chiqadi. Shikoyat yoki protest yopiq sud majlisida materiallar kelib tushganidan keyin 72 soat ichida, shuningdek qamoqda saqlashning dastlabki muddati tugagunicha ko'rib chiqilishi kerak.

Shikoyat yoki protestni ko'rib chiqqan apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ajrimini o'z kuchida qoldirishi, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmasligi, shuningdek sudning ajrimini bekor qilishi va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatining uzaytirilishini rad etishi mumkin. Qamoqda saqlashning dastlabki muddati tugaganligi sababli ayblanuvchi ozod qilingan bo'lsa-da, apellatsiya sudi ish materiallarini (shikoyat yoki protestni) ko'rib chiqib, o'z ajrimi bilan qamoqda saqlash muddatini uzaytirgan taqdirda, shaxsga nisbatan qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun choralar ko'rilishi zarur.

JPKning 253 va 256-moddalariga muvofiq, voyaga yetmagan ayblanuvchilarga nisbatan, umumiy ehtiyot choralaridan tashqari, otionalari, vasiylari, homiylari *kuzatuviga berish*, bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarga nisbatan esa – ushbu muassasalarning ma'muriyati kuzatuv ostiga olishi uchun topshirish qo'llanilishi mumkin.

Ushbu ehtiyot chorasining mohiyati shuki, mazkur shaxslar voyaga yetmagan shaxsning tergovchi va sudning huzuriga borishini, shuningdek

munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlash bo'yicha yozma majburiyat oladilar.

Bunday tavsiya voyaga yetmaganlarga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash nafaqat ehtiyot choralarga xos bo'lgan tor, maxsus maqsadlarga erishish vositasi sifatida, balki tarbiya choralari sifatida ham qaralishiga asoslanadi. Ota-onalar va boshqa qonuniy vakillar, shuningdek tegishli bolalar muassasalari ma'muriyatining kuzatuv voyaga yetmagan shaxsni tergov bosqichidayoq tarbiyalash bilan shug'ullanish uchun real imkoniyat beradi.

Tergovchi kuzatuv ostiga berish ehtiyot chorasini tanlayotganida ushbu shaxslar o'z vazifalarini qay darajada bajara olishlarini va voyaga yetmagan shaxsga to'g'ri tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishini aniqlashi shart. Buning uchun mazkur shaxslarning shaxsiy xislatlari, ularning jamiyatdagi mavqei, farzandlariga ta'siri kabi jihatlari puxta o'rganiladi.

Kuzatuv ostiga berish chorasi faqat ota-onalar, vasiylar, homiylar roziligi bilan qo'llanilishi mumkin, aks holda voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash haqida gapirish qiyin bo'lar edi. Bunday majburiyatlarni zimmalariga olayotgan shaxslar voyaga yetmagan shaxs sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan jinoyat haqida va zimmalariga olayotgan majburiyatlarni bajarilmagan taqdirda javobgar bo'lishlari haqida ogohlantirilishlari kerak.

Ayblanayotgan muddatli harbiy xizmatchi yoki o'quv yig'iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bo'yicha harbiy qism, qo'shilma, harbiy muassasa, harbiy o'quv yurti *qo'mondonligining kuzatuviga* berilishi mumkin.

Ayblanayotgan muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisi yoki o'quv yig'iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bo'yicha harbiy qism, qo'shilma, harbiy muassasa, harbiy o'quv yurti *qo'mondonligining kuzatuviga* berilishi mumkin.

Qo'mondonlik kuzatuv qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlaydigan choralarni ko'rishdan iborat.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi qo'mondonlik uchun majburiydir, unga harbiy xizmatchi ustidan kuzatuv o'rnatish zaruratini keltirib chiqargan ayblovning mohiyati tushuntirilishi lozim. Ayblanuvchi oldini olish maqsadida mazkur ehtiyot

chorasi qo'llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, qo'mondonlik surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudni bu haqda darhol xabardor qilishi shart.

25.3. Boshqa ehtiyot choralarini qo'llashning protsessual tartibi

Amaliyotda og'ir bo'lmagan jinoyatlarga nisbatan qo'llaniladigan ehtiyot choralarining keng tarqalgan turlaridan biri munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxatdir. U ayblanuvchi tomonidan surishtiruvchiga, tergovchiga yoki prokurorga tergov va suddan yashirinmaslik, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik, Tergovchi, prokurorning chaqiruvi bilan yetib kelish haqida bergan yozma majburiyatdan iboratdir. Tilxat beruvchi shaxs bundan tashqari o'z zimmasiga surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ijazatisiz ushbu aholi bandidan chiqib ketmaslik va shu aholi bandi doirasida istiqomat joyini o'zgartirsa, bu haqda ularni xabardor qilish majburiyatini oladi.

Ayblanuvchi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni buzgan taqdirda unga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin, bu haqda u tilxat olish chog'ida ogohlantiriladi (JPK 250-m.).

Munosib xulq-atvor bo'lish haqidagi tilxat ehtiyot chorasi tanlangani to'g'risida Tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi.

Mamlakatimizning amaldagi JPKsida ilk bor xorijiy mamlakatlarning tajribasini inobatga olgan holda garov ehtiyot chorasi joriy etildi (JPK 249-m.).

Garov ayblanuvchi, uning qarindoshlari, boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan dastlabki tergov organi depozit hisob varag'iga topshiriladigan pul mablag'i yoki qimmatbaho buyumlardan iboratdir. Garov tariqasida ko'chmas mulk ham qabul qilinishi mumkin.

Garovni qabul qilish haqida tergovchi, prokuror bayonnoma tuzadi. Unda ayblanuvchiga uning JPK 46-moddasida ko'rsatilgan majburiyatlari tushuntirilganligi va bu majburiyatlarni buzmaslikka u so'z berganligi, garovga qo'yuvchiga esa ayblanuvchi majburiyatlarini bajarmagan taqdirda garovga qo'yilganlaridan mahrum bo'lishi ma'lum qilingani ko'rsatilishi lozim. Bayonnoma garovni qabul qilgan mansabdor shaxs, garovga qo'yuvchi va ayblanuvchi tomonidan imzolanadi. Garov summasi eng kam oylik ish haqining 20 baravaridan oz bo'lishi mumkin emas va uni Tergovchi yoki prokuror ayblovning og'irligini, ayblanuvchining va

garovga qo'yuvchining shaxsni, garovga qo'yuvchining mulkiy ahvolini va uning ayblanuvchi bilan munosabatlarini e'tiborga olib belgilaydi.

Garovni topshirish vaqtida garovga qo'yuvchi shu ehtiyot chorasi tanlangan ishning mohiyati, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo va o'zining javobgarligi to'g'risida xabardor qilinishi lozim. U o'zining olgan majburiyatidan garovning davlat foydasiga o'tib ketishi uchun sabab bo'ladigan asoslar kelib chiqqunga qadar voz kechishi mumkin.

Garovga qo'yuvchi ayblanuvchining xulq-atvorini kuzatishga imkoni bo'lmaganligini bahona qilishga haqli emas, u bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyatning ta'sirini isbotlab beradigan hollar bundan mustasno.

Ehtiyot chorasini o'zgartirish uni tanlash shart-sharoitlari buzilganligi tufayli ro'y bermayotgan bo'lsa, shuningdek ish bo'yicha ish yuritish tugatilgan hollarda yoxud sud hukmi kuchga kirishi munosabati bilan garov garov qo'yuvchiga qaytariladi. Ayblanuvchi zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda garov sud ajrimi bilan davlat foydasiga o'tkaziladi va ayblanuvchiga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llaniladi.

Amaliyotda kamdan-kam qo'llaniladigan boshqa ehtiyot chorasi shaxsiy kafillikdir. Ushbu ehtiyot chorasi ishonchga sazovor bo'lgan shaxslarning ayblanuvchi munosib xulq-atvorda bo'lishiga kafil ekanliklari haqida yozma majburiyat olishidan iboratdir. Kafillar soni Tergovchi yoki prokuror belgilaydi. Alohida hollarda yuksak ishonchga sazovor bo'lgan bitta shaxs ham kafil bo'lishi mumkin.

Kafillar ushbu ehtiyot chorasi qo'llanishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo, oldini olish maqsadida kafillik tariqasida ehtiyot chorasi ko'rilgan harakat ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan taqdirda kafillarning javobgarligi haqida ogohlantirilishi lozim. Bu ma'lumotlar kafillikka berish bayonnomasida qayd etilib, uni ehtiyot chorasini qo'llayotgan mansabdor shaxs, ayblanuvchi va kafillar imzolashi lozim. Bundan tashqari, har bir kafillikka oluvchi kafillik to'g'risida tilxat beradi.

Kafillar ularni javobgarlikka tortish uchun sabab bo'ladigan asoslar kelib chiqqunga qadar o'z zimmalariga olingan majburiyatlardan voz kechishlari mumkin. Ammo ular ayblanuvchining xulq-atvorini kuzatishga imkoni bo'lmaganligini bahona qilishga haqli emaslar, ular bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyatning ta'sirini isbotlab beradigan hollar bundan mustasno.

Ayblanuvchi oldi olinishi uchun shaxsiy kafillik qo'llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, kafil qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishi mumkin (JPK 251-m.).

Jamoat birlashmasi yoki jamoa ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsni kafillikka olish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Jamoat birlashmasi yoki jamoa o'z qarorini ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishiga kafil ekanligi to'g'risidagi yozma majburiyat tarzida bayon qiladi. Bu majburiyat Tergovchi yoki prokurorga taqdim qilinadi, ular jamoat birlashmasi yoki jamoaning qaroriga rozi bo'lsalar, shunday ehtiyot chorasini tanlab bu haqda qaror chiqaradilar. Ayni vaqtda jamoat birlashmasi yoki jamoa vakiliga ushbu ehtiyot chorasi qo'llanishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga esa, basharti xulq-atvori nomunosib bo'lsa, ehtiyot chorasi jiddiyrog'i bilan almashtirilishi mumkinligi tushuntirilgani to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Ayblanuvchi boshqa ishga o'tgan yoxud istiqomat joyini o'zgartirgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa bu haqda ehtiyot chorasini tanlagan Tergovchi yoki prokurorga darhol xabar berishi shart. Bunday hollarda jamoa kafilligi bekor qilinadi va boshqa ehtiyot chorasi bilan almashtirilishi mumkin.

Ayblanuvchining xulq-atvori nomunosib bo'lgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa kafillikdan voz kechishga haqlidir (JPK 252-m.).

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ularni ota-onalari, vasiylari, homiylari, bolalar muassasasining ma'muriyati kuzatuviga topshirish ehtiyot chorasi qo'llaniladi (253-m.). Ushbu chora mazkur shaxslardan birontasi voyaga yetmaganning tergovchi, prokuror huzuriga o'z vaqtida kelishini, shuningdek ayblanuvchining JPK 46-moddasida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishini ta'minlash mas'uliyatini yozma ravishda o'z zimmasiga olishidan iboratdir.

Voyaga yetmaganni ota-onasining, vasiylarning, homiylarning yoki boshqa shaxslarning qaroviga topshirish ularning, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsning o'zining roziligi bilangina amalga oshiriladi. Tergovchi, prokuror voyaga yetmagan shaxsni qarovga topshirishdan oldin ota-onalar, vasiylar yoki homiylarning shaxsi, ularning voyaga yetmagan shaxs bilan o'zaro munosabati haqida ma'lumot to'plashi va ular o'smirni qarov ostiga olishni lozim darajada amalga oshirishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Ota-onalar, vasiylar, homiylar o'zlarining kasalliklari, ish bilan band ekanliklari, voyaga yetmagan shaxs bilan o'zaro munosabatlari yomonlashganligi va shuning oqibatida uning munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlay olmasliklari sababli voyaga yetmagan shaxs o'z qarovlarida bo'lishidan istagan vaqtda voz kechishga haqlidir.

Ota-onalardan, vasiylardan, homiylardan, bolalar muassasasi rahbar-

laridan voyaga yetmagan shaxsni qarovga qabul qilish haqida tilxat olinayotganda ular ushbu ehtiyot chorasi qo'llanishiga asos bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo va voyaga yetmagan shaxs sodir etishi ehtimol tutilgan qilmishlarning oldini olish maqsadida qarovga berilganidan keyin u xuddi ana shu xatti-harakatni sodir etsa, qarovga oluvchilarning javobgarligi haqida xabardor qilinishi lozim. Bu ma'lumotlar qarovga berish bayonnomasida aks ettiriladi.

Ayblanuvchi o'z vazifasini bajarmagan taqdirda uni o'z qaramog'iga olgan shaxs qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin (JPK 556-m.).

Ayblanayotgan muddatli harbiy xizmatchi yoki o'quv yig'iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs Tergovchi, prokurorning qarori bo'yicha harbiy qism, qo'shilma, harbiy muassasa, harbiy o'quv yurti qo'mondonligining kuzatuviga berilishi mumkin. Qo'mondonlik kuzatuvi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlaydigan choralarni ko'rishdan iborat.

Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi Tergovchi, prokurorning qarori qo'mondonlik uchun majburiydir, unga harbiy xizmatchi ustidan kuzatuv o'rnatish zaruratini keltirib chiqargan ayblovning mohiyati tushuntirilishi lozim. Ayblanuvchi oldini olish maqsadida mazkur ehtiyot chorasi qo'llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, qo'mondonlik Tergovchi yoki prokurorni bu haqda darhol xabardor qilishi shart (JPK 254-m.).

Nazorat uchun savollar:

Ehtiyot chorasi nima?

Ehtiyot choralari qo'llashning qonuniyligi va asoslanganligi protsessual kafolatlari qanday?

Ehtiyot choralari qo'llashning protsessual tartibi nimada namoyon bo'ladi?

Ehtiyot choralari o'zgartirish yoki bekor qilish qanday amalga oshiriladi?

Ehtiyot chorasini o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarorning xususiyatlari qanday?

Qamoqda saqlash muddatlari qanday tartibda uzaytiriladi?

Tergovchi jinoyatni tergov qilishning oxirgi bosqichida dalillarni to'plash jarayonida qaysi hujjatlarni tuzadi?

**Munosib hulq-atvorda bo'lish haqida
T I L X A T**

20___ yil ___ _____ shahri

Men, _____

O'zbekiston Respublikasi JPKning 250-moddasida ko'rsatilgan talablar bilan tanishib chiqib, tergov va suddan yashirinmaslik, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik, tergovchining, prokurorning yoki sudning ijozatisiz turar joyim bo'lgan aholi punktidan chiqib ketmaslik va shu aholi punkti doirasida istiqomat joyimni o'zgartirsam, bu haqda ularni xabardor qilish hamda ularning birinchi chaqiruvi bilan hozir bo'lish majburiyatini olaman.

Ushbu tilxatni buzgan taqdirda, menga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin ekanligi haqida ogohlantirildim.

Ayblanuvchi

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Tilxatni oldim:

_____ (lavozimi, unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

**Munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat ehtiyot chorasini qo'llash haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____

_____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 236–238, 240, 250-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

Ayblanuvchi _____

_____ ga nisbatan munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat ehtiyot chorasini qo'llanilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH)

Ushbu qaror menga 20__ yil «__» _____ kuni elon qilindi.

Ayblanuvchi _____

(imzo)

(F.I.SH)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

Qaror menga 20__ yil «__» _____ kuni e'lon qilindi.

Ayblanuvchi

(imzo)

(F.I.SH)

Garovni qabul qilish
B A Y O N N O M A S I

20__ yil ____ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi JKning ____-moddasi ____-qismi «____» bandi bilan ayblanuvchi _____ga nisbatan garov ehtiyot chorasi qo‘llanilganligi sababli, uning _____dan garovni qabul qildim.

Garov qabul qilinishidan oldin ayblanuvchi _____ va garov qo‘yuvchi _____ga JPKning 46-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari, unga O‘zbekiston Respublikasi JKning ____-moddasi ____-qismi «____» bandi bilan e‘lon qilingan ayblov mohiyati, _____ga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo chorasi tushuntirilib, agar u o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda garov davlat hisobiga o‘tkazilishi tushuntirildi.

Ayblanuvchi _____ o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni to‘liq bajarishi, garov shartlariga roziligini bildirgach, _____ tergov organining depozit hisobiga topshirish uchun _____ni garov sifatida topshirdi.

Ushbu bayonnoma shu haqda tuzilib, ishtirokchilarga ovoz chiqarib o‘qib eshittirildi, mazmuni bo‘yicha shikoyat va e‘tirozlar kiritilmadi.

Ayblanuvchi

(imzo)

(F.I.SH)

Garov qo‘yuvchi

(imzo)

(F.I.SH)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH)

**Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasini qo'llash haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 240, 251-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____

_____ga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida shaxsiy kafillikka berish qo'llanilsin va bu haqda unga va uning shaxsiy kafiliga e'lon qilinsin.

2. Ayblanuvchi _____ning shaxsiy kafili, _____ga ushbu ehtiyot chorasi qo'llanishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo, shaxsiy kafillik tariqasida ehtiyot chorasi qo'llanilgan ayblanuvchi taqiqlangan harakatlarni sodir qilganda kafilning javobgarligi haqida ogohlantirilib, bu haqda bayonnoma tuzilsin.

3. Qabul qilingan qarorning nusxasi ma'lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

Ushbu qaror menga 20__ yil « » _____ kuni e'lon qilindi.

Ayblanuvchi _____
(imzo)

(F.I.SH.)

Shaxsiy kafil _____
(imzo)

(F.I.SH.)

QAROR QILDIM:

1. Mazkur jinoyat ishi buyicha: _____

_____ga nisbatan qamoqqa olish tarzdagi extiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atilsin.

2. Mazkur qaror ko'rib chiqish uchun jinoyat ishlari bo'yicha _____ tuman sudiga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

Ushbu qaror va unga ilova qilingan hujjatlar bilan 20__ yil «__» _____ kuni tanishib chiqdim.

Ayblanuvchi

(imzo)

(F.I.SH)

Himoyachi:

(imzo)

(F.I.SH.)

« QO'SHILAMAN »

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil __ __ kuni ota-onam ishtirokida e'lon qilindi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 46-moddasida ko'rsatilgan majburiyatlarim tushuntirilib, agar ularni buzsam, menga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanishi mumkinligi va qaror ustidan shikoyat qilish huquqim tushuntirildi.

Ayblanuvchi

(imzo)

(imzo)

Ushbu qarorning ayblanuvchi _____ga e'lon qilinishida ishtirok etdik, barcha majburiyatlarni tushundik va ularni bajarishga rozimiz.

Ayblanuvchining ota-onasi

(imzo)

(imzo)

26-BOB. DASTLABKI TERGOVNI TO‘XTATISH VA UNI QAYTA TIKLASH TARTIBI. TERGOVCHI TOMONIDAN TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

26.1. Dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qarorning qonuniyligi va asoslanganligi

Dastlabki tergovni to‘xtatish tergov harakatlarini bunday harakatlarni o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar tufayli kelib chiqqan vaqtinchalik tanaffusdir. JPKning 364-moddasiga muvofiq, tergov uni to‘xtatish uchun asoslar paydo bo‘lgan paytdan boshlab to‘xtatiladi. Biroq dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror faqat ayblanuvchi yo‘qligida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan barcha tergov harakatlarini bajarib bo‘lganidan keyingina qonuniy va asosli bo‘ladi. Demak, bunday qarorni chiqarish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. Tergov o‘tkazish uchun sabab bo‘lgan jinoyat voqeasi haqiqatan ham bo‘lganligidan dalolat beruvchi yetarli dalillarning mavjudligi.

2. Ish bo‘yicha dastlabki tergovni to‘xtatishdan avval ayblanuvchining ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan barcha tergov harakatlarining bajarib bo‘linganligi.

Agar ushbu harakatlarning hammasini qonunda belgilangan muddat davomida bajarishning iloji bo‘lmagan bo‘lsa va ularni bajarish uchun qo‘shimcha tergov harakatlari talab etiladigan bo‘lsa, u holda dastlabki tergov muddati uzaytirilishi lozim.

Tergovchi dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror nusxasini prokurorga jo‘natadi.

Dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qarorda ishning mohiyati va tergovni to‘xtatish asoslari, JPK 364-moddasi 1-qismining 2, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan hollarda esa ishga ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan shaxs ham ko‘rsatiladi.

Tergovchi dastlabki tergovni to‘xtatgach, bu to‘g‘rida jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar yoki ularning vakillariga xabar berishi kerak.

26.2. Qidiruv e‘lon qilish va uni protsessual rasmiylashtirish

JPK 370-moddasiga muvofiq, tergovchi dastlabki tergovni to‘xtatish asoslariga qarab ichki ishlar organlari va boshqa vakolatli organlardan

ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxslarni aniqlash, yashirinib yurgan ayblanuvchilarni qidirib topish uchun ko'rilayotgan choralardan muntazam xabardor bo'lib turadi va shu maqsadda o'z so'rov xatlari yuboradi, ma'lumotlar va tushuntiruvlar oladi, jamoatchilikning yordamidan foydalanadi yoxud ayblanuvchining dastlabki tergovning to'xtatilishiga sabab bo'lgan kasalligidan vaqti-vaqti bilan xabardor bo'lib turadi. Ayblanuvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan hollarda tergovchi jinoyat sodir etishda ayblanayotgan va boshqa davlatlar hududida yashirinib yurgan shaxslarni ushlab berishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq choralar ko'radi.

Dastlabki tergov to'xtatilgandan keyin va u qayta tiklangunga qadar tergov harakatlari o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qidiruvni dastlabki tergovni to'xtatish haqidagi qaror bilan birga e'lon qilish mumkin. Agar faqat shaxsni qidirish e'lon qilsa, dastlabki tergov davom etadi.

Qidiruv o'tkazish uchun tergovchi jinoyat qidiruv xizmatiga quyidagi hujjatlarning nusxalarini berishi kerak: jinoyat ishini qo'zg'atish va uni o'z yurituviga olish haqidagi qaror, jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qaror, ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror, qidiruv e'lon qilish haqidagi qaror yoki dastlabki tergovni to'xtatish va qidiruv e'lon qilish haqidagi qaror.

Agar ish bo'yicha raqamli belgilari yoki o'ziga xos alomatlari bo'lgan narsalar o'tayotgan bo'lsa, tergovchi ABD shaklidagi hujjatni to'ldiradi va uni ham jinoyat qidiruv xizmatiga jo'natadi.

Odatda, ayblanuvchiga qidiruv e'lon qilinganidan so'ng tergovchining ish bo'yicha faol harakatlari to'xtatiladi, holbuki, faqat qidiruv e'lon qilingan bo'lsa, har qanday tergov va protsessual harakatlarni o'tkazishi mumkin.

Tergovchi faqatgina ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish haqidagi qaror chiqqan shaxsga nisbatangina qidiruv e'lon qilishga haqlidir (JPK 365-m.1-q.).

26.3. Dastlabki tergovni qayta tiklash va uni protsessual rasmiylashtirish

Jinoyat-protsessual kodeksining 371-moddasiga ko'ra to'xtatilgan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov tergovni to'xtatish uchun asos tariqasida JPKning 364-moddasida nazarda tutilgan holatlar bartaraf

etilganda yoki ish bo'yicha ayblanuvchining ishtirokisiz bajarilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha tergov harakatlarini o'tkazish zarurati tug'ilganda qayta tiklanadi.

Bundan tashqari dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risidagi qaror qonunga nomuvofiq bo'lsa, prokuror uni bekor qilishi va dastlabki tergovni qayta tiklash to'g'risida qaror chiqarishi mumkin.

Har qanday holda ham tergovchi dastlabki tergovning qayta tiklanish haqida prokurorga darhol xabar qiladi.

Ish yuzasidan dastlabki tergov qayta tiklanishi bilan bir paytda dastlabki tergovning o'tish muddati ham tiklanadi. Tergov muddatining keyinchalik uzaytirilishi dastlabki tergovni to'xtatishdan oldin o'tgan tergov muddatini e'tiborga olgan holda JPKning 351-moddasiga binoan amalga oshiriladi.

Dastlabki tergovni qayta tiklash haqidagi qarorda kirish qismidan so'ng qisqa tarzda jinoyat fabulasi, dastlabki tergov nima sababli to'xtatilganligi, qaysi holatlar tushirib qoldirilganligi, nima sababli tergov qayta boshlayotganligi, ayblanuvchining yo'g'ida qo'shimcha tergov harakatlarini o'tkazishga nima majbur qilganligi (agar tergov ushbu asos bo'yicha qayta boshlangan bo'lsa) ko'rsatiladi.

Qarorning tavsiflovchi qismi JPK 371-moddasiga havola qilish bilan yakunlanadi.

Xulosa qismida dastlabki tergovni qayta tiklash va ushbu qarorning nusxasini prokurorga jo'natish haqidagi ko'rsatuv.

Nazorat uchun savollar:

Dastlabki tergovni to'xtatish haqidagi qarorning qonuniyligi va asoslanganligini qanday qilib ta'minlash mumkin?

Dastlabki tergovni to'xtatish haqidagi qaror mazmunining xususiyatlari nimada ko'rinadi?

Dastlabki tergovni to'xtatish haqidagi qarorni tuzish metodikasi qanday?

Tergovchi ayblanuvchini qidirishni qanday rasmiylashtiradi?

Tergovchi ayblanuvchini qidirishdagi o'rni nimada?

Qidirilayotgan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash kerakmi?

Qidirib topilgan ayblanuvchini dastlabki tergov joyiga olib borishning protsessual tartibi qanday?

Dastlabki tergovni qayta tiklash qanday rasmiylashtiriladi?

**Qidiruv e'lon qilish haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

_____ning tergovdan bo'yin tovlab, yashirinib yurganligini hisobga olib, unga nisbatan qidiruv e'lon qilish zarur bo'ladi.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 365-moddalariga rioya qilgan holda,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Mazkur jinoyat ishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi JK _____-moddasining __-qismi «__» bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganligi uchun

_____ga nisbatan qidiruv e'lon qilinsin.

2. Qidiruvni amalga oshirish _____ IIBB JQ va UJQKBga yuklatilsin.

3. Qaror nusxasi _____ prokuroriga ma'lumot uchun yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

**Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni qayta tiklash haqida
Q A R O R**

20__ yil ____ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 371-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi _____ qidiruvdan ushlab keltirilganligi bois, dastlabki tergov qayta tiklansin.
2. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov harakatlariga kirishilsin.
3. Qabul qilingan qaror yuzasidan manfaatdortaraflarga e'lon qilinsin.
4. Qarorning bir nus'hasi qayta hisobga qo'yish uchun _____ IIB Axborot Markaziga yuborilsin.
5. Qarorning nusxasi ma'lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

27-BOB. TERGOVCHINING JINOYATLARNI OLDINI OLISH BO‘YICHA FAOLIYATI

27.1. Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida tergovchining taqdimnomasi, uning turlari va ahamiyati

Tergovchining taqdimnomasi – bu tergovchining jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda to‘plangan va tekshirilgan dalillarga asoslangan xolisona xulosasi bayon etilgan protsessual hujjat.

Taqdimnomaning huquqiy tabiati shundaki, u tergovchi yoki surishtiruvchining tekshirilgan va isbotlangan faktlarga asoslangan muayyan kriminologik holatlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi hokimiyat kuchiga ega bo‘lgan talabidir. U majburiy yuridik kuchga ega. Boshqacha aytganda, taqdimnoma bu tergovchining qonunga muvofiq chiqarilgan, ishonchli dalillarga asoslangan, huquqbuzarliklarning oldini olishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan hamda barcha davlat, jamoat muassasalari, korxonalari, tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajariishi shart bo‘lgan qaroridir.

JPK 297-moddasiga ko‘ra, tergovchi jinoyat ishini tergov qilish chog‘ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlab chiqib, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi. Taqdimnomaning nusxasi ishga qo‘shib qo‘yiladi.

Qonunda taqdimnomaning protsessual shaklini belgilab qo‘ymagan. U taqdimnoma yuboriladigan aniq adresatni hamda jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni ko‘rsatgan holda ixtiyoriy shaklda tuziladi. Amaliyotda, odatda, taqdimnomalarda jinoyat fabulasi tasvirlanadi hamda uni keltirib chiqargan aniq sabab va sharoitlar ko‘rsatiladi. Shundan so‘ng ushbu sabab va sharoitlarni yo‘qotish yo‘llari, usullari ko‘rsatiladi va yo‘qotish muddati belgilanadi.

Tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo‘zg‘atar ekan, darhol jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash choralarini ko‘rishlari kerak. Ayni paytda, shuni ham e‘tiborga olish kerakki, gap jinoyatchilik sabablarini emas, balki bir yoki bir necha

jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash haqida bormoqda. Shunday qilib, quyidagilarni aniqlash lozim:

1. Shaxsda jamiyatga qarshi qarashlar va odatlar, jinoyatga va uni sodir etishga qasdni keltirib chiqargan muayyan sabablar (yomon o‘rnak, oilada jamiyatga yot tarzda tarbiyalash).

2. Salbiy ta’sirlarning amal qilishini osonlashtirgan (nazoratsizlik, qaroviga berilgan shaxs bilan tarbiyaviy ish olib borilmagani va h.k.), shuningdek, qasdning amalga oshirilishini osonlashtirgan (talon-torojlikda moddiy boyliklarni hisobga olishdagi kamchiliklar, badanga shikast yetkazishda guvohlarning harakatsizligi va h.k.) sharoitlar.

Har bir ish bo‘yicha ushbu jinoyatning muayyan sabablariga ham, uning sodir etilishiga ham tegishli bo‘lgan barcha holatlar aniqlanishi zarur.

Mazkur sabab va sharoitlarni aniqlagach, tergovchi yoki prokuror ushbu jinoyatlarni keltirib chiqargan holatlarni darhol bartaraf etish qilish choralarini ko‘rishi kerak. Hatto tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida kelib tushgan ariza yoki xabar tergovga yoki sudlovga tegishlilik bo‘yicha jo‘natilgan hollarda ham ular jinoyatning oldini olish yoki uni to‘xtatish choralarini darhol ko‘rishlari kerak. Ushbu choralar tergovchining shaxsiy aralashuvidan ham, tegishli muassasalar, korxonalar va jamoat tashkilotlarining xabar berishlaridan ham tashkil topishi mumkin.

Bunday zarurat jinoyat ishini qo‘zg‘atish chog‘ida jinoyatning oldini olish yoki uni to‘xtatishga qaratilgan shoshilinch choralarni ko‘rishdan tashqari, jinoyatni tergov qilish vaqtida ham yuzaga keladi. Tergovchi prokuror jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlagach, JPK 297-moddasida belgilangan tartibda ushbu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish haqida muassasa, korxonalar, jamoat tashkilotiga taqdimnoma kiritadilar.

Har bir jinoyat ishini tergov qilish jarayonida taqdimnoma jo‘natish zarurati puxta o‘rganilishi kerak.

Taqdimnomada tergov qilingan ish mohiyatini qisqacha bayon etish kerak, so‘ngra jinoyatning aniq sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar batafsil bayon etiladi. Ishning holatlariga qarab taqdimnomada surishtiruv olib borayotgan shaxs, tergovchi yoki prokurorning kelgusida bunday jinoyatlarning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun nima qilish zarurligi to‘g‘risidagi tavsiyalari ham bo‘lishi mumkin. Taqdimnoma JPKning 299-moddasi 1-qismiga havola qilish va ko‘chirish bilan yakunlanadi.

Taqdimnomaning boshqa turiga fuqaroning jamoat oldidagi burchini namunali bajarganligi to'g'risidagi Tergovchi yoki prokuror tomonidan tegishli muassasa, korxonalar yoki tashkilotning rahbari va jamoasiga fuqaroning yuksak ongliligi, uning jinoyatning oldini olishda yoki uni fosh etishda ko'rsatgan jasorati, jamoat oldidagi burchini namunali bajarganligi to'g'risida kiritiladigan taqdimnoma tashkil etadi (JPK 397-m.). Bunday rag'batlantiruvchi norma amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikka birinchi marta kiritildi. U fuqarolarning jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etishdagi faolligini rag'batlantirishga qaratilgan. Afsuski, amalda bunday taqdimnoma kam kiritilmoqda.

27.2. Tergovchining taqdimnomaga javob olish bo'yicha faoliyati

JPKda jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma qachon kiritilishi belgilanmagan. Bunday taqdimnomalar miqdori ham JPK da ko'rsatilmagan.

Amaliyotda dastlabki tergov tugaganidan so'ng, tergovchi sodir etilgan jinoyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lganidan keyingina bunday taqdimnoma kiritiladi. Biroq bunday hollarda tergovchining o'z taqdimnomasiga javob talab qilishiga vaqti qolmaydi, chunki uni kiritgach, tergovchi ayblov xulosasini tuzadi va jinoyat ishini prokurorga jo'natadi.

Taqdimnomaga javob olinishi kerak bo'lgan bir oylik muddat ushbu jinoyat ishi tergovchining yurituvidan ketgandan keyin tugaydi. Shu bois, ish sudga oshirib bo'lingach, mazkur taqdimnoma tergovchini uncha qiziqtirmaydi.

Natijada ko'plab taqdimnomalarga javob kelmaydi, agar kelsa ham nomigagina yozilgan bo'ladi.

Tergovchi taqdimnomani qanchalik erta kiritsa, uni amalga oshirish natijalari bilan shunchalik ko'proq ishlay oladi. Taqdimnomani jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval yoki qo'zg'atilganidan keyin darhol ham kiritish mumkin. Bunday hollarda tergovchi taqdimnomaga javob olish bo'yicha chora ko'rish uchun ko'p vaqtga ega bo'ladi.

Taqdimnoma faqat jinoyatlarning oldini olish uchun kiritiladi. Shu sababli, agar tergovchi taqdimnomaga yuborilgan javobdan qoniqmasa, u bu to'g'rida muassasa, korxonalar, tashkilot ma'muriyati yoki jamoadan nomiga javob yozib yuborish bilan shug'ullanmay, qonunga asosan chora ko'rishni talab qilishi mumkin bo'ladi.

Zarur hollarda o'z taqdimnomasining to'g'ri bajarilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun tergovchining o'zi jamoa majlisiga kelishi mumkin.

Agar taqdimnomaga umuman javob olinmasa, tergovchi bunday javobni olish uchun eslatish xati yuboradi.

Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirish va dastlabki tergov harakatlarini bajarish natijalari bo'yicha taqdimnoma kiritadigan hollar ham uchrab turadi. Tergovchi bunday taqdimnomaga javob olib, jinoyatni tergov qilishda davom etadi, jinoyat sodir etilishining yanada aniqroq sabablarini bilgach, yana taqdimnoma kiritadi. Tergovchining bunday harakati qonuniy bo'lib, muassasa, korxonalar, tashkilot ma'muriyati yoki jamoani taqdimnomaga yana javob berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Asosiysi – taqdimnomaning samaradorligi bo'lib, u jinoyatlarning ilgari sodir etilgan joyda boshqa sodir etilmasligi, ular sonining kamayishi yoki takroriy jinoyatchilikning oldi olinishi bilan belgilanadi.

Ayrim hollarda tergovchi o'z yurituvida bo'lgan jinoyat ishlarining natijalari bo'yicha umumlashtiruvchi taqdimnomalar kiritadi. Umumlashtiruvchi taqdimnomalarning kiritilishi – jinoyatlarni tergov qilishda profilaktika ishlarini tashkil etishning yuqoriroq shaklidir. U keng tarqalishi lozim.

Nazorat uchun savollar:

Tergovchining jinoyat ishi bo'yicha taqdimnomasi protsessual hujjatlarining qaysi turiga kiradi?

Tergovchining jinoyat ishi bo'yicha taqdimnomasining qanday turlari mavjud?

Tergovchining jinoyat ishi bo'yicha taqdimnomasining qanday shakllari mavjud?

Tergovchining jinoyat ishi bo'yicha taqdimnomasini profilaktika yo'nalishidagi boshqa protsessual hujjat bilan almashtirib bo'ladimi?

Taqdimnomalarda uchraydigan hamda profilaktika ishining sifati va samaradorligini pasaytiradigan tipik xatolar qanday?

_____ga

T A Q D I M N O M A
(O‘zbekiston Respublikasi JPKning 297-moddasi asosida)

Dastlabki tergov jarayonida janjalga qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi sovuq munosabatning mavjudligi, yaxshi qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalarining yo‘qligi, azaliy milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni mensimaslik kabi illatlar sabab bo‘lganligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, _____ mahallasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yilni “Mustahkam oila Yili deb e‘lon qilinganligining mazmun-mohiyati, qolaversa, yaxshi qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlarning ahamiyati haqida tushuntirish ishlari, mahalla ahli bilan suhbatlar olib borilmagani natijasida ikki qo‘shni o‘rtasida adovat yuzaga kelib, _____ jinoyati sodir etilgan.

Mazkur taqdimnoma mahalla fuqarolari bilan o‘tkaziladigan yig‘inlarda keng muhokama qilinsin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mustahkam oilani shakllantirishdagi dolzarb ahamiyati, mahallada yashovchi qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat va o‘zbekona qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalarining mahalla tinchligi va farovonligini ta‘minlashdagi ahamiyati haqida ma‘ruzalar, tushuntiruv suhbatlari o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yilsin.

Bundan tashqari, taqdimnomada ko‘rsatib o‘tilgan jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralari ko‘rib, bir oy muddatda bu borada amalga oshirilgan ishlarning natijasi haqida bir oy muddat ichida bizga yozma ma‘lumot taqdim qilinsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

28-BOB. DASTLABKI TERGOVNI TAMOMLASH MUNOSABATI BILAN TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR. AYBLOV XULOSASINI TUZISH VA JINOYAT ISHINI SUDGA YUBORISH

28.1. Manfaatdor shaxslarni ish materiallari bilan tanishtirishning protsessual tartibi

Dastlabki tergovning yakunlovchi bosqichida tergovchi jinoyat ishidagi dalillarni yana bir bor tekshiradi va tahlil qiladi. Tergovchi to'plangan dalillarni ayblov xulosasini tuzish uchun yetarli deb topilganidan keyin ayblanuvchi va himoyachiga dastlabki tergov tamomlanganligini e'lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi.

Basharti jinoyat ishini yuritish tugatilgan bo'lsa, tergovchi bu haqda va ish materiallari bilan tanishish huquqi haqida gumon qilinuvchini, ayblanuvchini va himoyachini xabardor qiladi hamda ularning iltimosiga binoan ularga tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi. Tergovchi dastlabki tergov tamomlanganligi va ish ayblov xulosasi bilan sudga yuborilishi yoki ish tugatilganligi to'g'risida jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga xabar qiladi, basharti ular xohlasalar, barcha ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga ega ekanliklarini tushuntiradi. So'ng tergovchi ko'rsatib o'tilgan protsess ishtirokchilarining iltimosiga muvofiq, tanishib chiqish uchun ularga ishni taqdim etadi.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, hodisalar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadida tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismlari tanishib chiqish uchun taqdim qilinmasligi mumkin. Bunday hollarda bayonnomalarning ko'rsatib o'tilgan protsess ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kirish qismlari muhrlangan holda saqlanadi. Biroq bunday hollar tergov amaliyotida kam uchraydi.

Agarda ayblanuvchining himoyachisi yoki jabrlanuvchi fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgarining vakili uzrli sabablarga binoan belgilangan vaqtda ish materiallari bilan tanishib chiqish uchun kela olmasa, tergovchi tanishib chiqish muddatini ko'pi bilan besh sutkaga kechiktirishi mumkin. Himoyachi yoki vakil bu muddat ichida kelmagan taqdirda ayblanuvchiga boshqa himoyachini taklif qilish, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgarga boshqa vakil chaqirish uchun imkoniyat yaratiladi (JPK 375-m.).

Tergovchi jinoyat ishidagi materiallarni tanishib chiqish uchun tikilgan va raqamlangan ko‘rinishda, har bir jilddagi hujjatlarni ro‘yxat qilgan tarzda taqdim etadi. Ish bilan tanishib chiqish uchun zarur bo‘lgan muddat cheklanmaydi. Lekin protsess ishtirokchilari ishdagi materiallar bilan tanishishni ataylab cho‘zishga urinayotgan bo‘lsalar, tergovchi o‘z qarorida ishdagi materiallar bilan tanishish uchun muayyan muddat belgilashga haqlidir.

Jinoyat ishi bilan tanishib chiqayotgan shaxs ishdagi hujjatlardan ko‘chirmalar yozib olishga haqlidir, davlat sirlarini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar bundan mustasno.

Tergovchi ishdagi materiallar bilan tanishib chiqqanlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi.

Jinoyat ishi bilan tanishib chiqqandan keyingi og‘zaki iltimoslarni tergovchi bayonnomaga kiritadi. Protsess ishtirokchisi yozma tarzda alohida iltimosnoma berishi mumkin, bu haqda bayonnomada yozib qo‘yiladi (JPK 376-m.).

28.2. Tergovchining ariza va iltimosnomalarini ko‘rib chiqishi

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish bilan tanishib chiqishgach yoki biror sababga ko‘ra tanishib chiqishdan bosh tortganlaridan keyin tergovchi ulardan qo‘shimcha tergov harakatlarini o‘tkazish yoki yangi qarorlar qabul qilish xususida iltimoslari bor yoki yo‘qligini aniqlaydi.

Taraflarning arizasiga binoan iltimosnomalar tayyorlash va taqdim qilish uchun uch sutka doirasida vaqt berilishi mumkin. Tergovchi iltimosnomani to‘la yoki qisman rad qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi va bu haqda iltimosnoma berilgan vaqtdan boshlab uch sutka ichida arizachiga xabar beradi.

Arizachi iltimosni qondirish rad qilinganligi to‘g‘risidagi qaror bilan tanishib chiqqanidan keyin ikki sutka ichida prokurorga rad etilganlik ustidan shikoyat qilishi mumkin (JPK 377-m.)

Agar tergovchi iltimosni qondirsa, u kim tomonidan va kimlarning manfaatlari yo‘lida bildirilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, ayblanuvchi, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillariga ishdagi barcha materiallar bilan yana tanishib chiqish imkoniyatini beradi (378-m.)

28.3. Ayblov xulosasi, uning ahamiyati va tuzilishi

Ayblov xulosasi – faqat vakolatli shaxslar (tergovchi yoki prokuror) tomonidan JPKda belgilangan shaklda tuziladigan protsessual hujjat bo‘lib, protsessual qarorlarning alohida turidir. Unda jinoyat ishi bo‘yicha tergov natijalari, sudda muhokama qilish uchun asoslar borligi haqida xulosalar bayon etiladi. Ushbu xulosalar dastlabki xulosa bo‘lib, sud uchun majburiy emas.

Dastlabki tergovning yakuniy protsessual hujjati sifatida ayblov xulosasi ijtimoiy-siyosiy, yuridik, tarbiyaviy-profilaktik va tashkiliy ahamiyatga ega.

Ayblov xulosasining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- unda huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlat va butun xalq nomidan jinoyatga va uni sodir etgan shaxslarga huquqiy va axloqiy baho berdi;

- tergovchi yoki prokuror jamiyat ijtimoiy hayotidagi faktlarni tadqiq etib, salbiy hodisalar, nizo va ziddiyatlarni aniqlab, ushbu faktlarni tushuntirib beradi va bu bilan insonparvar, demokratik huquqiy davlat shakllanishining faol kurashchisi bo‘lib maydonga chiqadi;

- ushbu hujjat huquqni qo‘llash faoliyatining ko‘rinishi sifatida qonuniylik va huquqiy tartibni himoya qilish va mustahkamlash ishiga xizmat qiladi.

Ayblov xulosasining yuridik ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

- tergovchi tergov qilish tugallangan jinoyat ishi bo‘yicha yakuniy xulosalarni ifodalar ekan, jinoyat protsessining protsessual jihatdan mustaqil ishtirokchisi sifatida ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni baholaydi, muayyan shaxslarni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, ayblov hajmi va jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun jo‘natish masalalarini hal qiladi;

- tergovchi tuzgan ayblov xulosasi sud muhokamasining hajmi va doirasini belgilaydi. Sudda muhokama qilish uchun asos vazifasini ayblov xulosasi chiqarilgan va prokuror tasdiqlagan jinoyat ishi bajaradi. Bu qoida sudning ayblov xulosasida ko‘rsatilgan ayb qo‘yilgan va jinoyat ishi sud muhokamasiga tayinlangan shaxsga nisbatangina hukm chiqarishi mumkinligida amalga oshadi. Agar jinoiy faoliyatning qandaydir voqeasi ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda va ayblov xulosasida aks etmagan bo‘lsa, sud sudlanuvchini ushbu qilmishni sodir etganlikda aybdor deb e‘tirof eta olmaydi;

– tergovchining to‘plangan dalillarga muvofiq ravishda tuzgan qonuniy va asosli ayblov xulosasi ayblanuvchining himoyalani sh huquqini ta‘minlaydi va kafolatlaydi. Ayblov xulosasining nusxasi ayblanuvchiga topshiriladi. Ayblov xulosasi bilan o‘z vaqtida tanishgan ayblanuvchi himoyaga avvaldan tayyorlanishi, suddagi o‘z pozitsiyasini o‘ylab ko‘rishi, himoyachisi bilan maslahatlashishi mumkin. Bundan tashqari, ayblov xulosasida bayon etilgan jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vo va da‘voni ta‘minlash uchun ko‘rilgan choralar haqidagi ma‘lumotlar sudda jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vog‘ar va fuqaroviy javobgarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolatlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi;

– sudga jinoyat ishi materiallari bilan birga taqdim etilgan ayblov xulosasi sud majlisida jinoyat ishi holatlarini to‘la, har tomonlama va xolisona tekshirish uchun zarur sharoitlar yaratadi. Shu bois ushbu hujjatda jinoyat sodir etishning ham aybni yumshatuvchi, ham og‘irlashtiruvchi holatlari xolisona bayon etilishi, barcha faktik ma‘lumotlar esa ish bo‘yicha to‘plangan dalillar bilan ishonchli tasdiqlanishi muhim;

– ayblov xulosasi tergovning o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishin, uning to‘liq, har tomonlama va xolisona bo‘lishini nazorat qilishning protsessual vositalaridan biridir.

– tergovchining ayblov xulosasini tuzishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ayrim bo‘linmalari, shuningdek jinoyat protsessining ishtirokchilari uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Masalan, surishtiruv organlari va tergovchi ayblov xulosasini tuzganidan keyin ayblanuvchiga nisbatan protsessual faoliyatni to‘xtatishi, darhol (uni yozib bo‘lganidan so‘ng) jinoyat ishini tasdiqlash uchun prokurorga jo‘natishi, prokuror esa unga kelib tushgan jinoyat ishini xulosasi bilan birga ko‘rib chiqishi va u bo‘yicha qaror chiqarishi kerak.

Ayblov xulosasining tarbiyaviy-profilaktik ahamiyati quyidagilardan iborat:

– sud tergovining boshida sud majlisida e‘lon qilingach, u sud muhokamasining oshkoraligini haqiqatda ta‘minlaydi, barcha sudga yig‘ilgan fuqarolarni jinoyatning haqiqiy hodisalari va uni sodir etgan shaxslardan xabardor qiladi, bunda jinoyat hodisasi atrofidagi turli mish-mishlar va uydirmalarni inkor etadi;

– sudda hozir bo‘lganlarda qonunga hurmat, jinoyat va uni sodir qilgan shaxslarga murossasizlikni tarbiyalaydi;

– fuqarolarga jinoyatni ochish va tergov qilish borasidagi muvaffaqiyatli faoliyatni namoyish qilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning obro‘sini mustahkamlaydi va ko‘taradi;

– aholiga sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligi prinsipi amal qilayotganligini namoyish qiladi va bu bilan beqaror shaxslarni g‘ayriqonuniy harakatlarni qilishdan tiyilishga chaqiradi va ogohlantiradi;

– sudda fuqarolarga ijtimoiy axloqdan saboq beradi, jinoyatning mohiyati to‘g‘risida, uni sodir etgan shaxslarni axloqiy jihatdan qoralash haqida to‘g‘ri tasavvur tarqalishiga yordam beradi. Ayblov xulosasining tashkiliy-texnik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– jinoyat ishining barcha materiallari tahlil qilingan muayyan tizimga keltirilgan bu esa sudga va jinoyat protsessi ishtirokchilariga undan foydalanishda yordam beradi;

– ishning varaqlariga havolalarning mavjudligi sudga va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga ushbu hujjatning to‘g‘ri va xolisona tuzilganligini tekshirish, sud muhokamasi davomida u yoki bu dalillarga suyanish imkonini beradi;

– ayblov xulosasiga ilova qilingan hujjatlar sudning hukm chiqarish uchun zarur bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqishi jarayonida uning ishini yengillashtiradi.

Har qanday ayblov xulosasi tuzila boshlagan paytdanoq umumiy talablarga javob berishi kerak. Ayblanuvchi va uning himoyachisini jinoyat ishidagi barcha materiallar bilan tanishtirib bo‘lgach, tergovchi, basharti ishni sudga yuborish uchun yetarli asoslar borligi to‘g‘risidagi fikri o‘zgarmagan bo‘lsa, ayblov xulosasini tuzishga kirishadi.

Ayblov xulosasi tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Tavsif qismida dastlabki tergovda aniqlangan holatlar: jabrlanuvchi, shuningdek ayblanuvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar; ayblanuvchining aybdorligini tasdiqlovchi dalillar, ayblanuvchining o‘zini himoya qilish uchun keltirgan vajlari va ularni tekshirish natijalari bayon qilinadi.

Amaliyotda shakllangan an‘anaga ko‘ra ayblov xulosasida tergovchining jinoyatni tergov qilish davomida ayblanuvchi haqida shakllangan fikrining natijasi bo‘lgan qisqacha tavsifnoma keltiriladi. Ammo JPKda bunday tavsifnoma berish talab qilinmagan, shunday bo‘lsa-da, bunday amaliyot qo‘llab-quvvatlanishga loyiq.

Xulosa qismida ayblanuvchining shaxsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltiriladi hamda e‘lon qilingan ayblovning mazmuni Jinoyat kodeksining shu jinoyatni nazarda tutgan moddasi yoki moddalarini ham ko‘rsatgan holda bayon qilinadi.

Ayblov xulosasida bayon qilingan holatlarni tasdiqlovchi ish sahifalari ko‘rsatilishi kerak. Ayblov xulosasi qayerda va qachon tuzilganligi ko‘rsatilib, tergovchi tomonidan imzolanadi (JPK 379-m.).

Ayblov xulosasiga tergovchining fikricha sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxati, shuningdek qo'llanilgan ehtiyot choralari, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi qancha vaqt qamoqda saqlanganligi to'g'risidagi, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari, sud chiqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinadi.

Sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxatida tergovchi ularning turgan joyi hamda ko'rsatuvlari yoki xulosalari ishning qaysi sahifasida bayon qilinganligini ko'rsatadi.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadida, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxatida ularning taxalluslari ko'rsatilishi mumkin.

Xavfsizligi ta'minlanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar ular ishtirokida o'tkazilgan tergov harakatlari bayonnoma-larining kirish qismlari bilan birga muhrlangan holda sudga taqdim etiladi. Ular bilan faqat ayblov xulosasini tasdiqlovchi prokuror va ishni ko'rib chiquvchi sudya tanishishlari mumkin (JPK 380-m.).

Tergovchi ayblov xulosasini imzolaganidan keyin jinoyat ishini darhol prokurorga yuboriladi (JPK 381-m.).

28.4. Ayblov xulosasini tuzishning texnik usullari

Jinoiy javobgarlikka jinoiy faoliyati ko'p voqeali bo'lgan bir necha shaxs tortilganda, ayblov xulosasini tuzish muayyan qiyinchilik bilan kechadi. Bunday hollarda har ayblanuvchining jinoiy faoliyatini, uning guruh bo'lib jinoyat sodir etish «mexanizmi»dagi rolini ko'rsatish, ayblovning har bir voqeani ochib berish hamda ayni paytda jinoyatning ijtimoiy xavfliligini va ayblanuvchilarning shaxsini birgalikda ochib berish vazifasi paydo bo'ladi. Amaliyotda ayblov xulosasining tavsif-asoslash qismini tuzishning ikki texnik usuli – xronologik va sistematik usullari ishlab chiqilgan.

Xronologik usul jinoyat holatlarini dastlabki tergov davomida qanday tartibda aniqlangan bo'lsa, o'sha tartibda bayon etishdan iborat. Ushbu usul ko'pincha ayblov ayblanuvchi aybini inkor etganda bilvosita dalillarga asoslanganda qo'llaniladi. Bunday hollarda ayblanuvchining o'zini himoya qilib bergan ko'rsatuvlarini boshqa dalillarni bayon etishdan avval keltirgan ma'qul. Chunki bunda ushbu ko'rsatuvlar nima bilan va qay tariqa rad etilishini ishonchli tarzda namoyish qilish mumkin bo'ladi. Basharti aybini inkor etuvchi ayblanuvchining ko'rsatuvlari dalillarni bayon etishdan keyin keltirilsa, u holda takrorlashlar yoki «ayblanuv-

chining ko'rsatuvlari ish materiallari bilan inkor etiladi» degan umumiy havolalar bo'lishi muqarrar. Bu ham ayblov xulosasi uchun yaxshi emas.

Ayblov xulosasining tavsif-asoslash qismini tuzishning *sistematik usuli* – bu sodir etilgan jinoyatning dastlabki tergov davomida aniqlangan holatlari va ushbu holatlarni tasdiqlovchi dalillarning izchil bayon etilishi. Bunday usulda dastlabki tergovning (jinoyatni ochishning) borishi emas, jinoyatni tayyorlashning va sodir etishning borishi qayd etiladi, ya'ni holatlar va faktlar voqelikda qanday ketma-ketlikda yuz bergan bo'lsa, o'sha ketma-ketlikda beriladi. Bunda har bir fikr dalillarga havola qilinib tasdiqlanadi. Sistematik usulning afzalligi shundaki, sodir etilgan jinoyatning manzarasi, ya'ni joyi, vaqti va uning barcha holatlari darhol tasvirlanadi, ammo ushbu usulni taktik mulohazadan kelib chiqib, ayblov bevosita dalillarga asoslangan uncha murakkab bo'lmagan ishlarda qo'llagan ma'qul.

Ko'p voqeali ishlarda aniq vaziyatlardan kelib chiqib xronologik va sistematik usullar elementlarini birga qo'llash mumkin.

28.5. Ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi bo'yicha prokuror hal etadigan masalalar

JPK 384-moddasiga ko'ra, prokuror yoki uning o'rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishi va:

1) ayblanuvchi zimmasiga qo'yilayotgan qilmish sodir etilgan yoki etilmaganligini va bu qilmishda jinoyat tarkibi bor-yo'qligini;

2) qo'yilgan ayb ishdagi mavjud dalillar bilan asoslantirilgan-asoslantirilmaganligini;

3) ayblanuvchining isbotlangan barcha jinoiy qilmishlari ayblov mazmuniga kiritilgan-kiritilmaganligini;

4) jinoyati fosh qilingan barcha shaxslar ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan-qilinmaganligini;

5) ayblovni yoki ishni tugatishga sabab bo'ladigan holatlar bor-yo'qligini;

6) ayblanuvchining qilmishlariga to'g'ri yoki noto'g'ri tavsif berilganligini;

7) ehtiyot chorasi to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligini;

8) fuqaroviy da'voni va mol-mulkning, musodara qilinishi ehtimolini ta'minlash choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

9) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangan-aniqlanmaganligini hamda ularga barham berish choralari ko'rilgan-ko'rilmaganligini;

10) tergov sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini;

11) ayblov xulosasi JPKning 379 va 380-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuzilgan-tuzilmaganligini;

surishtiruvchi va tergovchi JPKning boshqa talablariga rioya qilgan-qilmaganligini tekshirishi shart (JPK 384-m.).

Prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini ko'pi bilan besh sutkada ko'rib chiqishi va quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart:

a) ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasini tasdiqlash;

b) o'z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo'llash va o'zgartirishlar bilan ayblov xulosasini tasdiqlash;

v) qo'shimcha tergov o'tkazish uchun ishni o'z ko'rsatuvlari bilan tergovchiga qaytarish;

g) ishni yuritishni to'xtatish;

d) ishni tugatish.

Basharti ayblovni to'ldirish yoki uni og'irlashtirish tomoniga yoxud haqiqiy holatlarga ko'ra avvalgi ayblovdan jiddiy farq qiladigan tomonga o'zgartirish talab qilinsa, prokuror yoki uning o'rinbosari qo'shimcha yoki o'zgartirilgan ayb e'lon qilish uchun ishni qo'shimcha tergovga qaytaradi (JPK 385-m.).

Ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi bo'yicha prokuror yoki uning o'rinbosari ehtiyot chorasini o'z qarori bilan bekor qilishga, o'zgartirishga yoki ilgari ehtiyot chorasi tanlanmagan bo'lsa, shunday chorani tatbiq etishga haqlidir (JPK 386-m.).

Bundan tashqari, jinoyat ishi sudga yuborilgunga qadar prokuror yoki uning o'rinbosari sud majlisiga chaqiriladigan shaxslarning ro'yxatini o'z qarori bilan qisqartirish yoki to'ldirishga haqlidir. Bunda ayblanuvchilar, muomala layoqatiga ega bo'lgan jabrlanuvchilar, voyaga yetmagan ayblanuvchilarning qonuniy vakillari, shuningdek, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxslar yoki fuqaroviy javobgar tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinganlar va ularning vakillari ro'yxatdan tushirib qoldirilishi mumkin emas. Dastlabki tergovda guvoh sifatida so'roq qilinmagan va ekspert sifatida xulosa bermagan shaxslar ro'yxatga qo'shimcha qilib kiritilishi mumkin emas (JPK 387-m.).

Prokuror yoki uning o'rinbosari ayblov xulosasini tasdiqlab, jinoyat ishini tegishli sudga yuboradi. Bu to'g'rida ayblanuvchi va himoyachi,

shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari darhol xabardor qilinadi va, agar iltimoslari bo'lsa, ularni sudga yuborishga yoki sud majlisida bayon qilishga haqli ekanliklari to'g'risida ma'lum qilinadi. Ayni vaqtda prokuror yoki uning o'rinbosari ayblanuvchiga va himoyachiga ayblov xulosasi va unga qilingan ilovalarning tasdiqlangan nusxalarini yuboradi, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxati bundan mustasno, basharti ayblov xulosasiga yoki ilovaga o'zgartishlar kiritilgan bo'lsa, ularni o'zgartirish to'g'risidagi qarorning nusxasi ham yuboriladi (JPK 388-m.).

Nazorat uchun savollar:

Manfaatdor shaxslarni jinoyat ishi materiallari bilan tanishtirishning protsessual tartibi qanday?

Manfaatdor shaxslar jinoyat ishi materiallari bilan tanishishdan voz kechsalar, tergovchi nima qilishi kerak?

Tergovchining iltimosnomasini ko'rib chiqish qanday amalga oshiriladi?

Manfaatdor shaxslardan birining iltimosnomasi qisman qondirilganidan so'ng tergovchi ularni jinoyat ishi materiallari bilan tanishtirishi kerakmi?

Ayblov xulosasining tuzilishi va mazmuniga xos xususiyatlar qanday?

Ayblov xulosasini tuzishning texnik qoidalari qanday?

Ishni prokurorga jo'natish zarurati yuzaga kelganda tergovchi nima qilishi kerak?

**Jabrlanuvchiga jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovning tamomlanganligini
e'lon qilish va uni jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishtirish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «____» _____ shahri

(bayonnomani tuzuvchi shaxsning ish joyi, lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi yuzasidan olib borilgan dastlabki tergovni tamom bo'lgan, to'plangan dalillarni ayblov xulosasi tuzish uchun yetarli deb hisoblab, O'zbekiston Respublikasi JPKning 375, 376-moddalariga rioya qilib, _____ bu _____ haqda _____ jabrlanuvchi _____ ga e'lon qildim.

Jabrlanuvchiga jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib chiqish, ishdagi davlat sirlarini o'z ichiga olmagan hujjatlardan ko'chirmalar yozib olish, og'zaki yoki yozma ravishda iltimosnoma kiritishi mumkinligi tushuntirildi.

Jabrlanuvchiga tanishib chiqishi uchun _____-sonli jinoyat ishi _____ jildda, hujjatlari tikilgan va raqamlangan holda taqdim etildi.

Tanishish

_____ gacha davom etdi.

Jabrlanuvchi jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib bo'lgach, quyidagilarni bildirdi:

(kim tomonidan, qanday iltimosnoma kiritilganligi ko'rsatiladi)

Jabrlanuvchi

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

Tergovchi

_____ (imzo)

_____ (F.I.SH.)

**Ayblanuvchi va uning himoyachisiga jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovning
tamomlanganligini e'lon qilish va ularni jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishtirish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil «___» _____ shahri

(bayonnomani tuzuvchi shaxsning ish joyi, lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi yuzasidan olib borilgan dastlabki tergovni tamom bo'lgan, to'plangan dalillarni ayblov xulosasi tuzish uchun yetarli deb hisoblab, O'zbekiston Respublikasi JPKning 375, 376-moddalariga rioya qilib, bu haqda O'zbekiston Respublikasi JKning ____-modda ____-qism «___» bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblanuvchi _____ va uning himoyachisi _____ ga e'lon qildim.

Ayblanuvchi va uning himoyachisiga jinoyat ishidagi materiallar bilan tanishib chiqish, ishdagi davlat sirlarini o'z ichiga olmagan hujjatlardan ko'chirmalar yozib olish, og'zaki yoki yozma ravishda iltimosnoma kiritishlari mumkinligi tushuntirildi.

Ayblanuvchi va uning himoyachisiga tanishib chiqishi uchun _____-sonli jinoyat ishi _____ jildda, hujjatlari tikilgan va raqamlangan holda taqdim etildi.

Tanishish _____

_____ gacha davom etdi.

Ayblanuvchi va uning himoyachisi jinoyat ishidagi materiallar bilan tanishib bo'lgach, quyidagilarni bildirdilar:

(kim tomonidan, qanday iltimosnoma kiritilganligi ko'rsatiladi)

Ayblanuvchi

(imzo)

(F.I.SH.)

Himoyachi

(imzo)

(F.I.SH.)

Tergovchi

(imzo)

(F.I.SH.)

29-BOB. JINOYAT ISHINI TUGATISHNING PROTSESSUAL RASMIYLASHTIRILISHI

29.1. Jinoyat ishini rehabilitatsiya qilish uchun asoslar va ayblilik haqidagi masalani hal qilmay turib tugatish to'g'risidagi qarorning tuzilishi va mazmuni

JPKning 373-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi.

JPK 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lganda, jinoyat ishini tugatish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va rehabilitatsiya etilishi lozim:

- 1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoyiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;
- 2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;
- 3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Quyidagi hollarda shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishi tugatilishi lozim, basharti:

- 1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;
- 2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa¹;
- 3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;
- 4) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;
- 5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;

¹ O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrda Qonuniga asosan amnistiya munosabati bilan ishni tugatish o'ziga xos protseduraga ega bo'ldi. Buning uchun prokuror jinoyat ishini tugatish to'g'risida tegishli iltimosnoma bilan sudga murojaat qiladi. Sud esa prokuror, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini va uning himoyachisini chaqirib, jinoyat ishini amnistiya munosabati bilan tugatish masalasi bo'yicha sud muhokamasini o'tkazadi va jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ajrim chiqaradi.

6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;

8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Shaxs ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganidan keyin, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa; ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan hollarda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi.

Jinoyat sodir etilganidan keyin o'z harakatlarining mohiyatini idrok etish yoki ularni idora qilish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalib qolgan shaxs to'g'risidagi jinoyat ishi JPKning 61-bobida belgilangan tartibda ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatiladi.

Jabrlanuvchi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan taqdirda jinoyat ishi JPKning 62-bobida belgilangan tartibda sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilishi mumkin.

Jinoyat ishi quyidagi hollarda shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin, basharti:

1) ishni tergov qilish yoki sudda ko'rib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan yoxud vaziyat o'zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lmay qolgan deb e'tirof etilsa;

2) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa;

3) sodir etilgan qilmishning xususiyatini, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganning shaxsini hisobga olib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga ko'rib chiqish uchun berish maqsadga muvofiq bo'lsa.

Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror belgilangan qoidalarga rioya qilingan holda tuziladi.

Qarorning tavsif qismida:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari va uning sodir etilishiga doir tergov vaqtida tekshirilgan tasmollar;

2) gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga qo'yilgan ayb va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, basharti bu shaxslarga qo'yilgan gumon yoki ayb ilgari chiqarilgan alohida qaror bilan tugatilmagan bo'lsa;

3) jinoyat ishini tugatish asoslari;

4) bu asoslarni tasdiqlovchi dalillar, ular ishning qaysi jildlari va sahifalarida aks ettirilganligi;

5) ashyoviy dalillarning ro'yxati, bu ashyolar saqlanayotgan joy va ularning egalari, shuningdek manfaatdor shaxslar yoki muassasalar tomonidan bu ashyolarni ularga qaytarib berish to'g'risidagi iltimoslari, basharti shunday iltimos qilingan bo'lsa;

6) fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bayon qilinadi.

Qarorning xulosa qismida:

1) jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi;

2) gumonni yoki ayblovni bekor qilish to'g'risidagi;

3) ehtiyot choralarini, shuningdek ta'minlash uchun ko'rilgan choralarni bekor qilish to'g'risidagi;

4) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qarorlar bayon qilinadi.

Tergovchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek ish korxonasi, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxonasi, muassasa, tashkilot vakiliga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror yuzasidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega ekanliklari tushuntiriladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda tergovchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi.

JPKning 372-moddasiga muvofiq, dastlabki tergovni tugatish turlaridan biri reabilitatsiya qiluvchi asoslar va reabilitatsiya qilmaydigan asoslardan qat'i nazar tugatish to'g'risidagi qaror bilan tamomlashdir.

Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror jinoyat ishining hammasiga yoki bir qismiga daxldor bo'lishi mumkin. Oxirgi holatda dastlabki tergov davom etadi. U faqat muayyan shaxs yoki alohida voqeaga nisbatan to'xtatiladi. Har

qanday holda ham jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror belgilangan qoidalarga rioya qilingan holda tuziladi.

Qarorning tavsif qismida:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari va uning sodir etilishiga doir tergov vaqtida tekshirilgan tasmollar;

2) gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga qo'yilgan ayb va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, basharti bu shaxslarga qo'yilgan gumon yoki ayb ilgari chiqarilgan alohida qaror bilan tugatilmagan bo'lsa;

3) jinoyat ishini tugatish asoslari;

4) bu asoslarni tasdiqlovchi dalillar, ular ishning qaysi jildlari va sahifalarida aks ettirilganligi;

5) ashyoviy dalillarning ro'yxati, bu ashyolar saqlanayotgan joy va ularning egalari, shuningdek manfaatdor shaxslar yoki muassasalar tomonidan bu ashyolarni ularga qaytarib berish to'g'risidagi iltimoslari, basharti shunday iltimos qilingan bo'lsa;

6) fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari bayon qilinadi.

Qarorning xulosa qismida:

a) jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi;

b) gumonni yoki ayblovni olib tashlash to'g'risidagi;

v) ehtiyot choralari, shuningdek, fuqaroviy da'vo va mol-mulkning musodara qilinishi ehtimolini ta'minlash uchun ko'rilgan choralarni bekor qilish to'g'risidagi;

g) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qarorlar bayon qilinadi.

29.2. Tergovchining jinoyat ishini tugatish to'g'risida manfaatdor shaxslarga xabar qilishi

Tergovchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek, ish korxonasi, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxonasi, muassasa, tashkilot vakiliga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega ekanliklari tushuntiriladi.

Sud tomonidan qo'zg'atilgan ish tugatilgan hollarda bu haqda mazkur sudga xabar qilinadi, harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda esa tergovchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi (JPK 374-m.).

29.3. Tugatilgan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni qayta boshlashning protsessual tartibi

JPK 382-moddasiga muvofiq, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi ariza va xabarlarini ko'rish hamda hal qilish, tekshirishni amalga oshirishning JPKda belgilangan tartibi, chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi surishtiruv va dastlabki tergov organlarining qonunlarning ijro etilishi ustidan olib boriladigan prokuror nazoratining sohasidir.

Ma'lumki, tergovchi jinoyat ishini to'liq yoki bir qismi bo'yicha rehabilitatsiya qiluvchi va rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha tugatadi. Biroq tergovchi o'zining yoki boshqa tergovchining dastlabki tergovni to'xtatish to'g'risidagi qarorini bekor qilib ish yuritishni yangidan boshlashi mumkin emas. Bu ishni jinoyat ishini qo'shimcha tergov qilish haqidagi topshiriqlari bilan surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qaytaradigan prokuror bajaradi.

Boshqacha aytganda, yangi ochilgan holatlar tufayli ishni qayta qo'zg'atish huquqi prokurorga tegishli bo'lib, u buni o'z qarori bilan amalga oshiradi. Fuqarolarning murojaatlari, muassasa, korxonalar va tashkilotlar, jamoat birlashmalari mansabdor shaxslarining xabarlari, ommaviy axborot vositalarining xabarlari, shuningdek, ushbu jinoyatni va boshqa jinoyatlarni tergov qilish davomida bevosita olingan ma'lumotlar yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishni qayta qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi.

Prokuror to'xtatilgan ish bo'yicha ishni yangidan boshlash to'g'risidagi qarorida, odatda, jinoyatni tergov qilish jarayonida yana nima qilish kerakligi haqida ko'rsatuvlar beradi. Prokurorning JPKda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatuvlari ana shu organlar uchun majburiydir (JPK 382-m.). Ularni bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik jinoyat ishi bo'yicha chiqarilgan qarorning bekor qilinishi uchun shubhasiz asos bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

Jinoyat ishini tugatishda rehabilitatsiya qiluvchi va rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar ahamiyatga egami?

Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror tuzish metodikasi qanday?

Tergovchining jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi xabarining tuzilishi, mazmuni va uni jo'natish tartibi qanday?

Tugatilgan ish bo'yicha ish yuritish qayta tiklanishi mumkinmi?

Tugatilgan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni kim va qanday tartibda qayta boshlaydi?

Jinoyat ishini tugatish haqida
Q A R O R

20__ yil _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi JPKning 36, 84-moddasi 1-qismi 3-bandi, 373, 374-moddalarini qo'llab,

Q A R O R Q I L D I M:

1. Ayblanuvchi

_____ munosabati bilan, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JK ___-moddasining ___-qismi ___-bandi bilan qo'zg'atilib, ish yurituvimda bo'lgan, _____-sonli jinoyat ishi tugatilsin.

2. Ayblanuvchi _____ga nisbatan qo'llanilgan munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat ehtiyot chorasi bekor qilinsin.

3. Mazkur qaror haqida manfaatdor shaxslarga xabar berilsin.

4. Qabul qilingan qarorning bir nusxasi ma'lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

**30-BOB. TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI
QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI MASALANI HAL QILISH UCHUN
JINOYAT ISHINI SUDGA YUBORISHNING PROTSESSUAL TARTIBI**

**30.1. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari va ularni
qo‘llash asoslari**

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, jinoyat, ya’ni jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslargina jinoiy javobgarlikka tortilishi va jazolanishi mumkin. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etayotgan vaqtda aqli noraso holatda bo‘lgan, ya’ni surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi oqibatida o‘z harakatlarini idora qila olmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Bunday shaxslarga sud ajrimiga muvofiq tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.

Aqli noraso holatda jinoyat sodir etgan, ammo sud hukm chiqarguniga qadar o‘z harakatlarini idora qilish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan shaxslar jazoga tortilmaydilar. Bunday shaxslarga yoxud jazoni o‘tash vaqtida ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ham tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari – sud aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan yoxud bunday qilmishlarni aqli raso holatda sodir etib, hukm chiqarilguniga qadar yoki jazo o‘tayotgan vaqtda ularni o‘z harakatlari uchun javob berish yoki ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ularning buzilgan ruhiy sog‘lig‘ini tiklash, jamiyatni ularning xavfli xatti-harakatlaridan muhofaza qilish va yangi jinoiy qilmishlarning oldini olish maqsadida ko‘radigan vaqtinchalik tibbiy yo‘sindagi choralari.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari jinoiy jazo choralari hisoblanmaydi. Biroq ular davlat majburlov vositalaridir, chunki ushbu choralari bemorning yoki uning yaqin qarindoshlarining istagidan qat’i nazar qo‘llaniladi, fuqarolarning erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq bo‘ladi hamda faqat sudning ajrimi bilan tayinlanadi, o‘zgartiriladi va to‘xtatiladi.

Aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan yoxud bunday qilmishlarni aqli raso holatda sodir etib, hukm chiqarilguniga qadar yoki jazo o‘tayotgan vaqtda ularni o‘z harakatlari uchun javob berish yoki ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan

shaxslarga nisbatan sud sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalari amalga oshiradigan quyidagi tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlashi mumkin:

- 1) oddiy kuzatuvli psixiatriya kasalxonasiga joylashtirish;
- 2) kuchaytirilgan kuzatuvli psixiatriya kasalxonasiga joylashtirish;
- 3) qat'iy kuzatuvli psixiatriya kasalxonasiga joylashtirish.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun quyidagilar asos bo'ladi: birinchidan, shaxsning jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganligi fakti; ikkinchidan, qonunda nazarda tutilgan tartibda aniqlangan ushbu shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish paytida aqli noraso bo'lganligi yoki jinoyat sodir etganidan so'ng uning o'z harakatlari uchun javob berish va ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum qiluvchi ruhiy kasallikka chalinganligi.

Shaxsni aqli noraso deb topish yoxud uning jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka chalinganligi hali uning tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga muhtojligini bildirmaydi. JPKning 565-moddasiga muvofiq, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalalarni ko'rish tartibi JPKning umumiy qoidalari, shuningdek 566–581-moddalari asosida belgilanadi hamda ushbu normalar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan ruhiy kasallarga nisbatan ular sodir etgan qilmishining xususiyati va o'zining kasallik holati bo'yicha jamiyat uchun xavf tug'diradigan hollarda qo'llaniladi.

Ruhiy bemorlarning ijtimoiy xavfli qilmishlari haqidagi ishlar umumiy asoslarda qo'zg'atiladi (JPK 221–338-m.). Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ruhiy kasallikka chalinganligi haqida ma'lumotlarning mavjudligi jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno etmaydi, chunki aqli norasolik holati sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi asosida aniqlanadi. Ushbu ekspertizani dastlabki tergov vaqtida o'tkazish mumkin.

JPKning 566-moddasiga muvofiq, jinoyat qilganidan keyin ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolgan shaxsning jinoyati to'g'risidagi ish bo'yicha shaxsda jinoyat sodir etgandan keyin yuzaga kelgan va jazo qo'llashni istisno etuvchi ruhiy kasallik borligi isbotlanishi lozim.

Aqli norasoning ijtimoiy xavfli qilmishi to'g'risidagi ish yuzasidan quyidagilar isbotlanishi lozim:

- 1) JPK 82-moddasining 1, 2 va 5-bandlarida nazarda tutilgan holatlar;
- 2) shaxs qilmish sodir etgan vaqtida surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi, shuning oqibatida uning aqli noraso holatda bo'lganligi, ya'ni o'z harakatlarini idrok yoki idora qila olmaganligi;

3) mazkur shaxsning dastlabki tergov yuritish va sud muhokamasi vaqtidagi ruhiy holati.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolgan shaxsning ishi bo'yicha, shuningdek ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxsning ishi bo'yicha shaxsning bundan keyingi xatti-harakati o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi mumkinmi-yo'qmi ekanligi, uning davolanishga muhtojligi yoki muhtoj emasligi, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishiga zarurat bor yoki yo'qligini va qanday choralar qo'llash lozimligini hal qilish uchun asos bo'ladigan holatlar ham isbotlanishi lozim.

Agar ushbu shaxslarning ruhiy holati imkon bersa, tergovchi ular ishtirokida ayrim tergov harakatlarini o'tkazishga haqlidir. Shaxsning tergov harakati o'tkazishda ishtirok eta olmasligi ekspert xulosasi yoki shifoxona ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Aqli noraso deb topilgan shaxslarning ko'rsatuvlari va tushuntirishlari dastlabki tergov jarayonida ham, sud muhokamasida ham daliliy ahamiyatga ega bo'lmaydi. JPKning 571-moddasiga muvofiq, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishni yuritishda sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash haqida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab himoyachining ishtirok etishi shart.

Ishga kirishgan vaqtdan boshlab himoyachi, basharti himoyasi ostidagi shaxsning sog'lig'i xalal bermasa, u bilan xoli uchrashishga haqli, shuningdek JPKning 53-moddasida nazarda tutilgan boshqa barcha huquqlardan ham foydalanadi.

Sud-psixiatriya ekspertisasi o'tkazish to'g'risidagi qaror yoki ajrimni ijroga yuborishdan oldin tergovchi yoki sud u bilan himoyachini tanishtirishi va uning quyidagi huquqlarini ta'minlashi zarur: tayinlangan ekspertni yoki umuman ekspertiza muassasasini rad qilish; muayyan shaxsni ekspert qilib tayinlashni iltimos qilish; ekspertning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish; ekspertiza o'tkazilayotganida qatnashish uchun ruxsat so'rash. Tergovchi yoki sud himoyachining iltimosnomasini, basharti asoslar bo'lsa, qondiradi va ekspertizani tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimga tegishli qo'shimchalar va o'zgartishlar kiritadi.

Sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga ko'ra, himoya ostidagi shaxs jinoyat sodir etilgandan so'ng ruhiy kasal bo'lib qolgan yoki aqli noraso bo'lsa yoxud uning aqli rasoligini istisno etmaydigan, ammo o'zini himoya qilish huquqini mustaqil amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradigan ruhiy kamchiliklari bo'lsa, JPK 571-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan himoyachining ishda ishtirok etishi shart ekanligi haqidagi qoidasi amal

qilishda davom etadi. Keyinchalik sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasi asosida shaxs aqli raso va ruhiy sogʻlom deb topilsa, ishda himoyachining ishtiroki masalasi umumiy tartibda hal qilinadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ruhiy holatini va unda ruhiy kasallik paydo boʻlgan paytni aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertisasi oʻtkazilishi shart (JPK 173-m.). Ushbu maqsadlarda ish boʻyicha quyidagi faktik maʼlumotlar aniqlanishi kerak: bunday shaxs ilgari ruhiy kasalliklar bilan ogʻriganmi; u psixonevrologik dispanserda hisobda turadimi, qanday tashxis bilan; shaxs bunday hisobda qancha vaqtdan beri turadi; u ilgari ruhiy kasallar shifoxonasiga davolash uchun joylashtirilganmi; unga nisbatan ilgari sud-psixiatriya ekspertisasi oʻtkazilganmi; oʻtkazilgan boʻlsa, nima sababli oʻtkazilgan; ushbu shaxsning salomatligini, uyda va jamoat joylaridagi xulq-atvorini aks ettiruvchi boshqa holatlar.

Agar aqli noraso shaxsning harakatlari tufayli muayyan bir shaxsga ziyon yetkazilgan boʻlsa, JPKning 54-moddasiga muvofiq uni jabrlanuvchi deb topish va unga yetkazilgan moddiy zararni qoplash choralari koʻrish zarur. Ushbu ishlar boʻyicha tergovchi aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishining sabablari va bunga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash choralari koʻrishi shart.

Shaxs tibbiy muassasaga joylashtirilganda jinoyat ishini yuritishning toʻxtatib turilishiga doir masalalar, JPKning 569-moddasiga muvofiq, quyidagicha hal qilinadi: basharti gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ruhiy yoki boshqa ogʻir kasalligi ambulatoriya ekspertizasining xulosasi yoki boshqa tibbiy hujjatlar bilan tasdiqlangan boʻlsa va qanday kasallikka duchor boʻlganligini aniqlash, aqli rasoligi, muomalaga layoqatliligi masalasini hal etish, shuningdek tibbiy yoʻsindagi majburlov chorasini tanlash uchun statsionar ekspertiza oʻtkazilayotgan boʻlsa, shaxs tibbiy muassasaga joylashtirilgan davrda, basharti boshqa protsessual harakatlarni oʻtkazishga hojat boʻlmasa, ishni yuritish toʻxtatib turilishi mumkin.

Ishni yuritishning toʻxtatib turilishi ayblanuvchini qamoqda saqlash va shaxsning tibbiy muassasada boʻlishiga oid qonunda belgilangan muddatlar oʻtishini toʻxtatmaydi.

Tergovchi ish boʻyicha toʻplangan dalillar sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasi asosida aqli noraso deb topilgan shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi faktini tasdiqlaydi, degan xulosaga kelganidan hamda JPKning 61-bobida nazarda tutilgan barcha talablarni bajaranganidan soʻng u dastlabki tergovni tamomlangan deb topadi. Tergovchi JPKning 572-moddasida belgilangan talablarni bajaradi, yaʼni protsess ishtirokchilarini ish materiallari bilan tanishtirgach va iltimosnomalarni hal qilgach, ishni sudga yuborish toʻgʻrisida qaror tuzadi.

Tergovchi qarorning tavsif-asoslash qismida JPKning 566-moddasida nazarda tutilgan holatlarni, shuningdek ishni sudga yuborish asoslariga norozi bo'lgan himoyachining va boshqa shaxslarning vajlarini, agar shunday vajlar bildirilgan bo'lsa, bayon qiladi va ish sahifalariga havola qilib, uning fikricha, ishni sudga yuborish uchun asoslar borligini tasdiqlovchi dalillar keltiradi.

Ishni sudga yuborish to'g'risidagi qarorga sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxati, shuningdek dastlabki tergov yuritilgan muddat, ustidan tergov o'tkazilgan shaxsning qamoqda va tibbiy muassasada bo'lgan muddati, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'vo va uni ta'minlash choralari, protsessual chiqimlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar ilova qilinadi.

JPKning 573-moddasiga muvofiq, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishni tergovchi uni sudga oshirish to'g'risidagi qaror bilan birga prokurorga o'tkazadi. Prokuror ish bilan tanishib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi: 1) JPKning 83 va 84-moddalarida (84-moddaning birinchi qismi 2-bandi bundan mustasno) nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ishni tugatish; 2) qo'shimcha tergov o'tkazish uchun ishni tergovchiga qaytarish; 3) qarorni tasdiqlab ishni sudga oshirish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish.

30.2. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun jinoyat ishini sudga yuborish haqidagi qarorning tuzilishi va mazmuni

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash haqidagi masala hal qilinishi kerak bo'lgan jinoyat ishlari umumiy asoslarda tergov qilinadi.

Tergovchi protsess ishtirokchilarini ish materiallari bilan tanishtirgach va iltimosnomalarini hal qilgach, ishni sudga yuborish to'g'risida qaror tuzadi. Tergovchi qarorning tavsif-asoslash qismida isbotlash predmeti bo'lgan holatlarni, ya'ni shaxsda jinoyat sodir etgandan keyin yuzaga kelgan va jazo qo'llashni istisno etuvchi ruhiy kasallikning borligini bayon etadi.

Aqli norasoning ijtimoiy xavfli qilmishi to'g'risidagi ish yuzasidan quyidagilar isbotlanishi lozim:

1) jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar; sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar

o'rtasidagi sababiy bog'lanish; ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;

2) shaxs qilmish sodir etgan vaqtida surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi; shuning oqibatida uning aqli noraso holatda bo'lganligi, ya'ni o'z harakatlarini idrok eta olmaganligi yoki o'z harakatlarini idora qila olmaganligi;

3) mazkur shaxsning dastlabki tergov yuritish va sud muhokamasi vaqtida ruhiy holati.

Shu bilan birgalikda jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolgan shaxsning ishi bo'yicha, shuningdek ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxsning ishi bo'yicha shaxsning bundan keyingi xatti-harakati o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi mumkinmi-yo'qmi ekanligi, uning davolanishga muhtojligi yoki muhtoj emasligi, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishiga zarurat bor yoki yo'qligini va qanday choralar qo'llash lozimligini hal qilish uchun asos bo'ladigan holatlar ham isbotlanishi lozim (JPK 566-m.).

Shu qismning o'zida ishni sudga yuborish asoslariga norozi bo'lgan himoyachining va boshqa shaxslarning vajlari, agar shunday vajlar bildirilgan bo'lsa, bayon qilinadi va ish sahifalariga havola qilinib, uning fikricha, ishni sudga yuborish uchun asoslar borligini tasdiqlovchi dalillar keltiriladi (JPK 572-m.) .

Qarorning xulosa qismida tergovchi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun sudga iltimosnoma bilan murojaat etish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu qarorni tegishli ravishda o'rganib chiqqach prokuror imzolaydi.

30.3 Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qarorga ilova

Ishni sudga yuborish to'g'risidagi qarorga sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxati, shuningdek dastlabki tergov yuritilgan muddat, ustidan tergov o'tkazilgan shaxsning qamoqda va tibbiy muassasada bo'lgan muddati, ashyoviy dalillar, fuqaroviy da'vo va uni ta'minlash choralari, protsessual chiqimlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar ilova qilinadi (JPK 572-m.).

Ushbu hujjatlar ayblov xulosasiga qo'shiladigan ilovalardan farq qilmaydi. Farqi faqat shundaki, agar shaxs jinoyat ishi bo'yicha sud-psixiatriya ekspertizasida aqli noraso deb topilgan bo'lsa, u sudga chaqirilmaydi.

Nazorat uchun savollar:

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga oshirish to'g'risidagi qaror qanday tuzilishga ega?

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga oshirish to'g'risidagi qarorda nima ko'rsatilishi kerak?

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga oshirish to'g'risidagi qarorni tuzish amaliyoti qanday?

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga oshirish to'g'risidagi qaror va ayblov xulosasiga tuziladigan ilovalarning farqi bormi?

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga oshirish to'g'risidagi qarorning ilovalarida nima ko'rsatiladi?

«R O Z I M A N»

20__ yil « __ » _____

**Jinoyat ishini ayblanuvchining ruhiy kasalligi munosabati bilan majburiy tibbiy davolash chorasini qo‘llash uchun sudga yuborish haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni o‘tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(jinoyat ishi kim tomonidan qachon qaysi sababga asosan qo‘zg‘atilganligi va JKning moddasi ko‘rsatilishi lozim)

I.v. _____

I.v. _____

Bayon qilinganlarga asosan va O‘zbekiston Respublikasi JPKning 36, 372, 572-moddalarini qo‘llab,

Q A R O R Q I L D I M:

Mazkur jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi JK _____-moddasining _____-qismi «__» bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etgan, _____da Toshkent shahrida tug‘ilgan, _____, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, _____, ma‘lumoti _____, harbiy xizmatga _____, _____xonadon

da yashovchi _____ ga nisbatan tibbiy yo'sindagi
majburlov choralari qo'llash masalasini hal etish uchun sudga yuborilsin.

Tergovchi
leytenant

(imzo)

A. S. Saidxo'jayev

«Q O' S H I L A M A N»

Toshkent shahar Yunusobod tumani
IIB boshlig'i o'rinbosari
podpolkovnik

(imzo)

V. M. Usmonov

31-BOB. DASTLABKI TERGOVDA YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

31.1. «Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish» tushunchasi

Jinoyat ishlarini yarashuv asosida ko‘rib chiqish — demokratik huquqiy davlat shakllanishi davrida jinoyat huquqini liberallashtirishning ko‘rinishlaridan biri va ayni vaqtda jinoyat protsessida huquqni tiklash funksiyasini amalga oshirishning samarali shakllaridan biridir.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jinoyatdan jabrlangan shaxs hamda jinoiy qilmishni birinchi marta sodir etgan aybdor shaxs (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi) o‘rtasida jabrlanuvchining jinoyatgacha bo‘lgan maqomini to‘liq tiklash va jinoyat tufayli yetkazilgan zararni bartaraf etish to‘g‘risida kelishuvi orqali jinoyat ishini tugatishning turlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan 46 ta jinoyat tarkibidan birining mavjudligi yarashuv uchun ish yuritishning huquqiy asosi hisoblanadi.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning shartlari quyidagilardan iborat: 1) shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni ilk bor sodir etganligi; 2) shaxs o‘z aybini tan olganligi va qilmishidan pushaymon ekanligi; 3) shaxs yetkazilgan zararni bartaraf etishga faol harakat qilayotganligi, ya’ni yetkazilgan zararni bartaraf etayotganligi; 4) jabrlanuvchining tergovchiga gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) bilan, sudda esa sudlanuvchi bilan yarashganligi to‘g‘risidagi ariza bilan ixtiyoriy ravishda murojaat etishi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning, ularning qonuniy vakillarining jabrlanuvchi bilan yarashishga roziligining mavjudligi.

31.2. Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning protsessual tartibi

JPKning 582-moddasiga muvofiq, yarashilganligi munosabati bilan Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar (ya’ni ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar ro‘yxatida bo‘lgan jinoyatlar) to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilishi mumkin.

Yarashuv to'g'risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkin.

Arizada yetkazilgan ziyon bartaraf etilgani, shuningdek yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritilishini tugatish to'g'risidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Agar yarashuv to'g'risidagi ariza ish birinchi instansiya sudida sud muhokamasidan o'tkazilayotganda berilgan bo'lsa, sud uni darhol ko'rib chiqishga kirishadi.

Agar ish bo'yicha bir necha jabrlanuvchi bo'lsa, faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgan taqdirda, yarashuv to'g'risidagi ishni yuritish mumkin.

Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ishni yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntirishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) yoki uning qonuniy vakilining yarashuv to'g'risidagi arizasini olgach, yetti sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining roziligi bilan ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi.

Qarorning tavsif qismida quyidagilar ko'rsatiladi: jinoyat ishi qo'zg'atilishining asoslari, ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ular ayblanayotgan qilmishlar va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, shuningdek yarashuv to'g'risidagi arizaning mazmuni hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining arizaga munosabati.

Hujjatning qaror qismida: 1) ishni sudga yuborish to'g'risidagi; 2) ehtiyot chorasi to'g'risidagi, shuningdek fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari to'g'risidagi; 3) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qaror ko'rsatiladi.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etish uchun bir necha shaxs jalb qilingan bo'lib, barchasi bilan ham yarashuvga erishilgan bo'lmasa, yarashuvga erishilmagan gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo'yicha ish yuritish umumiy qoidalarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi, bu haqda qarorda ko'rsatiladi.

Ish qaror chiqarilganidan keyin uch sutka ichida prokurorning roziligi bilan sudga yuboriladi.

Nazorat uchun savollar:

Yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha sud majlisi nimadan boshlanadi?

Nima yarashuv munosabati bilan ish yuritishni amalga oshirish sharti emas?

Yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha sud majlisda kimlar ishtirok etmaydi?

Yarashuv haqida ariza qachon berilishi mumkin emas?

**Jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ularning qonuniy vakilariga O‘zbekiston
Respublikasi JKning 661-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi JPKning
582-moddalari talablarini tushuntirish
B A Y O N N O M A S I**

20__ yil __ _____ shahri

(bayonnoma tuzuvchi chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni o‘tkazib, quyidagilarni ish yurituvimdagi _____ga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi JK _____-moddasining _____-qismi bilan qo‘zg‘atilgan _____-sonli jinoyat ishi yuzasidan jabrlanuvchi _____ va _____chi _____ga O‘zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi JPKning 582-moddalari talablarini tushuntirgan holda, ularga o‘zaro yarashtiruv taklif qildim va O‘zbekiston Respublikasi JPKning 90–92-moddalari talablari asosida mazkur bayonnomani tuzdim.

Jabrlanuvchi _____ yolg‘on guvohlik berish hamda jinoyat protsessini yuritish, qatnashchilarning o‘z zimmasidagi vazifasini bajarishdan bo‘yin tovlagan holatda O‘zbekiston Respublikasi JKning 238, 240-moddalari bilan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

(imzo)

(FISH)

Jabrlanuvchi _____ quyidagilarni ko‘rsatdi:

Jabrlanuvchi:

(imzo)

(F.I.S.H.)

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ quyidagilarni ko‘rsatdi:

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi): _____
(imzo) (F.I.SH.)

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, jabrlanuvchi: _____
_____ni, gumon qilinuvchi _____
_____ni bildirganligi sababli, shu haqida
mazkur bayonnoma tuzilib, tomonlarga o‘qib eshittirildi. Ular bayonnomaga
qo‘shimcha va e’tirozlar bildirmadilar.

Jabrlanuvchi: _____
(imzo) (F.I.SH.)

Gumon qilinuvchi _____
(imzo) (F.I.SH.)

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(FISH)

Tomonlarning yarashganligi haqida
B A Y O N N O M A

20__ yil ____ shahri

(bayonnoma tuzuvchi chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi
_____ jabrlanuvchi _____ bilan
o'zaro yarashganliklari munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi JPKning 583,
584-moddalari va O'zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasi asosida ushbu
bayonnomani tuzdim.

Jabrlanuvchi arizasining mazmuni: _____

Ushbu arizani qabul qilish vaqtida jabrlanuvchi _____ ga sud
yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida
iltimosnoma berish huquqini yo'qotishi tushuntirildi.

Ayblanuvchi arizasining mazmuni: _____

Yuqorida bayon qilinganlarni, ya'ni tomonlarning yarashganligini e'tiborga olib
ushbu bayonnoma tuzildi. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi JPKning 582-584-
moddalari va O'zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasi bilan shaxsan tanishib

chiqishdi va ularga bu moddalarning mazmuni tushuntirildi. Bayonnoma tomonlarga o‘qib eshittirildi, ular tamonidan qo‘shimcha va e’tirozlar bo‘lmadi.

Jabrlanuvchi:

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

Gumon qilinuvchi

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

_____ (lavozimi, unvoni)

_____ (imzo)

_____ (F.I.S.H.)

«R O Z I M A N»

20__ yil « » _____

**Tomonlarning yarashganligi tufayli jinoyat ishini
hal qilish uchun sudga yuborish haqida
Q A R O R**

20__ yil __ _____ shahri

(qaror chiqaruvchining lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)

ish yurituvimdagi _____-sonli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazib, quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

(jinoyat ishi kim tomonidan qachon qaysi sababga asosan qo'zg'atilganligi va JKning moddasi ko'rsatilishi lozim)

I.v. _____

Dastlabki tergov jarayonida tuplangan hujjatlar va yetarli dalil-isbotlarga asosan fukaro:

_____(gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar)

Jinoyat ishi yuzasidan gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) tariqasida so‘roq qilingan _____ o‘z ko‘rsatuvlarida _____

i.v. _____

Jinoyat ishi yuzasidan jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilingan _____ o‘z ko‘rsatuvlarida _____

i.v. _____

Jinoyat ishi bo‘yicha so‘roq qilingan guvohlar ham yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatmalarga o‘xshagan ko‘rsatmalar berdi.

i.v. _____

Dastlabki tergov jarayonida jabrlanuvchi _____ yozma ravishda ariza bilan murojat qilib, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ undan kechirim so‘raganligini, shifoxonada davolangan vaqtida ketgan sarfxarajatlarni to‘liq qoplaganini va u bilan yarashganini bildirib, jinoyat ishini O‘zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasi tartibida tugatishni so‘ragan.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ham yozma ravishda ariza bilan murojat qilib, jabrlanuvchi _____ bilan yarashganini, undan kechirim so‘raganini va sarflangan xarajatlarni to‘liq qoplaganini va jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni so‘ragan.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ning sodir etgan jinoyati O‘zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasiga mos kelishini nazarda tutib, jinoyat ishini tomonlar yarashganligi munosabati bilan _____ tuman sudiga yuborish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asosan va O‘zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 36, 582–584-moddalarini qo‘llab,

QAROR QILDIM:

1. _____

_____ ga nisbatan bo'lgan _____-sonli jinoyat ishi tomonlar yarashganligi munosabati bilan tegishli qaror qabul qilish uchun jinoyat ishlari bo'yicha _____ tuman sudiga yuborilsin.

2. Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) _____ ga nisbatan ehtiyot chorasi _____.

3. Ushbu qaror nusxasi ma'lumot uchun tuman prokuroriga yuborilsin.

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil « » _____ kuni e'lon qilindi, qaror mazmuniga qo'shimcha va e'tirozlarim yo'q.

Jabrlanuvchi: _____

(imzo) (F.I.SH.)

Ushbu qaror menga 20__ yil « » _____ kuni e'lon qilindi, qaror mazmuniga qo'shimcha va e'tirozlarim yo'q.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi):

(imzo)

(F.I.SH.)

«Q O' SH I L A M A N»

(lavozimi, unvoni)

(imzo)

(F.I.SH.)

32-BOB. DASTLABKI TERGOVDA AMNISTIYA AKTINI QO‘LLASH MUNOSABATI BILAN TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

32.1. Amnistiya aktini qo‘llashning xususiyatlari

Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalardagi islohotlar jarayonini erkinlashtirish va chuqurlashtirish Dasturi asosida sud-huquq tizimini liberallashtirishning amalga oshirilayotganligi jamiyatda demokratik tamoyillarni yanada chuqurlashtirishning muhim omili bo‘ldi. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlarga binoan, amnistiya akti asosida javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni qo‘llash imkoniyatlari yanada kengaytirildi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o‘z mazmuniga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsni mazkur qilmishning huquqiy oqibatlaridan ozod etishdir. Shaxsni jinoiy javobgarlikdan har qanday asoslarga ko‘ra ozod etishda ijtimoiy xavfli qilmishning huquqiy tabiati o‘zgarmaydi. Chunki, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish doimo jinoyat bo‘lib qolaveradi va yuridik mohiyati o‘zgarmaydi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish quyidagi jinoiy-huquqiy munosabatlarning to‘xtatilganligini bildiradi: davlat vakolatli huquqni qo‘llash organlari orqali aybdorni hukm qilish, ijtimoiy xavfli qilmish uchun jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi o‘z huquq va majburiyatlaridan voz kechadi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs esa hukm qilinish majburiyatidan ozod etiladi va sodir etgan jinoyatining jazosi sifatida qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklaridan mahrum etiladi yoki undan cheklab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 68-moddasida jinoyat sodir qilgan shaxsning amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Amnistiya akti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga muvofiq, insonparvarlik tamoyiliga amal qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga va 93-moddasining 23-bandiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan e‘lon qilinadi.

Amnistiya aktiga asosan, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolati faqat sudga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga berilgan.

Amnistiya akti O‘zbekistondagi muhim sanalar (O‘zbekiston mustaqilligi kuni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun va hokazolar) munosabati bilan jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan, jazoni o‘tayotgan muayyan doiradagi shaxslarni kechirish orqali jinoiy javobgarlikdan yoki jinoiy jazodan ozod qilishdan iboratdir.

Amnistiya akti muayyan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi jinoyat qonuni normalarini bekor qilmagan holda muayyan turkumdagi jinoyat sodir qilgan shaxslarni kechirib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilish orqali amalga oshiriladi.

Amnistiya akti jinoiy javobgarlikdan, jinoiy jazodan ozod qilish, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atishni bekor qilish orqali ro‘yobga chiqarilishi mumkin.

Amnistiya akti jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan yoki jazoni o‘tayotgan muayyan turkumdagi keng doiradagi shaxslarga nisbatan chiqarilsa-da, amalda har bir shaxsga nisbatan alohida-alohida qo‘llaniladi. Demak, amnistiya akti normativ xususiyatga ega bo‘lib, unda amnistiya qilinadigan shaxslarning ismi, otasining ismi ko‘rsatilmay, muayyan turkumda jinoyat sodir qilgan guruhdagi shaxslarga yoki ijtimoiy xavfliligi hisobga olingan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan chiqarilganligi ko‘rsatiladi.

Amnistiya akti mamlakat miqyosidagi muhim voqea, qo‘lga kiritilgan yutuq yoki jiddiy o‘zgarishlar munosabati bilan chiqarilar ekan, har bir amnistiya aktining mazmuni qanday voqea yoki nima munosabati bilan chiqarilganligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Umumiy qoidaga ko‘ra, amnistiya akti u e‘lon qilingan kungacha sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llaniladi hamda amnistiya aktida ko‘rsatilgan muddatda ijro etilishi lozim.

Amnistiya akti umumiy tarzda chiqarilib, amalda alohida-alohida qo‘llanilganligi tufayli shaxs amnistiya akti e‘lon qilingunga qadar jinoyat sodir qilib, tergovdan, suddan yashiringan yoki jazoni o‘tashdan qochgan bo‘lsa, ammo amnistiya aktigacha qilmishiga pushaymon bo‘lib kelsa, amnistiya aktini qo‘llab javobgarlikdan ozod qilish mumkin.

Shunday qilib, amnistiya akti orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxsning jinoyatini bekor qilish yoki oqlash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish emas, balki aybdorning davlat tomonidan kechirilishi, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishidan iborat.

Agar shaxs o‘zining amnistiya akti orqali javobgarlikdan ozod qilinishiga norozilik bildirsa, unga nisbatan amnistiya akti qo‘llanilmaydi. Bunday holda jinoyat ishini yuritish protsessual qonunchilikda belgilangan

tartibda davom ettiriladi, ya'ni tergovchi tomonidan tergov harakatlari davom ettiriladi va ayblov xulosasigacha yetkazilib, prokuror orqali sudga oshiriladi. Ana shunday yo'l bilan jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi shaxsga o'zining rasmiy ravishda oqlanishiga erishish imkoni beriladi. Agar sud ishni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topsa, ayblov hukmini jazo tayinlamasdan chiqarishi yoki amnistiya aktini qo'llab javobgarlikdan ozod qilishi lozim.

32.2. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktining qo'llanilishi tartibi

O'zbekiston Respublikasining JPKda amnistiya aktini qo'llashning protsessual tartibi belgilanmaganligi surishtiruv, tergov va sud organlariga ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgan edi. Shu bois O'zbekiston Respublikasining «Amnistiya aktini qo'llash tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2008-yil 22-dekabr qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi JPKga «Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llash» deb nomlanuvchi yangi 63-bob kiritildi. JPKning mazkur bobida:

– tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi (587-m.);

– amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza (588-m.);

– jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani sudga kiritish to'g'risidagi masalani prokuror tomonidan ko'rib chiqish tartibi (589-m.);

– sud majlisi (590-m.);

– sudning ajrimiga (591-m.) doir jinoyat-protsessual munosabatlar tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasida keltirilgan asoslarga muvofiq, e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa, shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim. Basharti, shaxs ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganidan keyin amnistiya akti qabul qilingan taqdirda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblov hukmi jazo belgilanmasdan chiqariladi.

JPKning 587-moddasida shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala ko'rilayotganda, tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasi hamda amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma bilan prokurorga yuboradi.

Agar bir nechta shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha ulardan loaqal bittasi amnistiya aktining ta'sir doirasiga tushsa, unga nisbatan jinoyat ishining qismi amnistiya aktini qo'llash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish uchun JPKning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan alohida ish yuritishga ajratilishi mumkin.

JPKning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan, bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi. Tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishining mazkur holatga doir qismi jinoyat ishi qo'zg'atilgan holda alohida ish yurituvga ajratiladi.

Ishlarni birlashtirish va ajratish surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan amalga oshiriladi.

Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza tergovga qadar tekshiruv qaysi shaxsga nisbatan o'tkazilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan, tegishincha tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruvning, surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berilishi mumkin.

32.3. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani sudga kiritish to'g'risidagi masalani prokuror tomonidan ko'rib chiqish tartibi

Prokuror surishtiruvchining, tergovchining taqdimnomasi asosliligini tekshirib unga rozi bo'lgan taqdirda, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi

iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoxud jinoyat ishi bilan birga sudga yuboradi. Prokuror iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi unga kelib tushgan kundan e'tiboran besh sutkadan kechiktirmay sudga yuborishi lozim.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda, prokuror tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchiga yoxud tergovchiga qaytarish haqida asoslantirilgan qaror chiqaradi. Prokurorning qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berilishi mumkin.

JPKning 36-moddasida belgilanganidek, tergovchi prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma kiritish haqidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa, o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o'z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo'yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi.

Nazorat uchun savollar:

Amnistiya akti asosida javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning mohiyati va ahamiyati nimada?

Surishtiruvchining, tergovchining amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnomani prokurorga yuborishining protsessual tartibi qanday?

Agar bir nechta shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha ulardan loaqal bittasi amnistiya aktining ta'sir doirasiga tushsa, unga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish tartibi qanday?

Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza qachon va kim tomonidan beriladi?

Prokuror tomonidan tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoxud jinoyat ishini sudga yuborish tartibi qanday?

33-BOB. DASTLABKI TERGOV ORGANLARINING XORIJIY DAVLATLARNING VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI

33.1. Tergovchilarning xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligining tartibi to‘g‘risidagi asosiy qoidalar

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida e‘tirof etilishi, mamlakatimizning jinoyatchilikka qarshi kurash borasida hamkorlik qiluvchi xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi tergovchilarning xorijiy davlatlardagi tegishli muassasalar bilan aloqa qilishini taqozo etadi. Bugungi kunda jinoyatchilikning xavfli va o‘ta xavfli turlari ko‘payib bormoqda va ular transchegaraviy va transmilliy xususiyatga ega bo‘lmoqda.

Hozirgi vaqtda xalqaro hamkorlikning jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha ikki tomonlama, mintaqaviy va universal darajalardagi bir qator yo‘nalishlari mavjud. Ushbu hamkorlik MDH davlatlari o‘rtasida ham, muayyan davlatlar o‘rtasida tuziladigan o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, MDH davlatlarining rahbarlari tomonidan 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan «Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi konvensiya ana shu maqsadga qaratilgan.

Bundan tashqari 2002-yil 7-oktabrda Kishinyovda «Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi MDH mamlakatlarining Konvensiyasi qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi unga qo‘shilmagan, shu sababli MDH davlatlari bilan halqaro hamkorlik Minsk konvensiyasiga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish zarur bo‘lganda tergovchi mazkur harakatlar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o‘zarolik prinsipi asosida xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan bajarilishi to‘g‘risida so‘rovni ichki ishlar vazirligi orqali kiritadi. O‘zarolik prinsipi so‘rov kiritilayotganda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ayrim protsessual harakatlarni bajarishda xorijiy

davlatning vakolatli organiga huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi yozma majburiyati bilan tasdiqlanadi.

Dastlabki tergov organlarining protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovi quyidagi organlar orqali yuboriladi:

– umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan amalga oshiriladigan jinoyat ishlarini yuritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi orqali;

– sudning qarori yoki prokurorning roziligi (sanksiyasi) talab qilinmaydigan protsessual harakatlar bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati orqali;

– qolgan hollarda — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali yuboriladi.

Zarur hollarda, JPK 592-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan organlar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan aloqa bog'laydi (JPK 592-m.).

Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovda quyidagilar bo'lishi kerak:

1) so'rov yuborayotgan organning nomi;

2) so'rov yuborilayotgan organning nomi va joylashgan yeri;

3) jinoyat ishining nomlanishi va so'rovning xususiyati;

4) o'ziga nisbatan so'rov yuborilayotgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan uning tug'ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, mashg'uloti turi, yashash joyi yoki turgan joyi haqidagi ma'lumotlar, uning protsessual maqomi, yuridik shaxs uchun esa uning nomi, yuridik manzili va joylashgan yeri;

5) aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar bayoni, shuningdek so'ralayotgan hujjatlar, ashyoviy va boshqa dalillar ro'yxati;

6) sodir etilgan jinoyatning haqiqiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, uning tavsifi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qilmish jinoyat deb e'tirof etilishiga asos bo'ladigan tegishli moddasi matni;

7) agar jinoyat natijasida zarar yetkazilgan bo'lsa, uning miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar.

Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovda uni ijro etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rov uni yuborayotgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi. Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rov va unga ilova qilinayotgan hujjatlar so'rovni yuborayotgan organning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi hamda ular yuborilayotgan xorijiy davlatning rasmiy tiliga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan boshqa tilga tarjima qilinadi (JPK 593-m.).

Xorijiy davlat hududida jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etish davomida uning vakolatli organlari tomonidan olingan yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovga ilova qilinib, O'zbekiston Respublikasiga yuborilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan va topshirilgan dalillar O'zbekiston Respublikasi JPK talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida olingan dalillar singari yuridik kuchga ega bo'ladi (JPK 594-m.).

Tergovchi xorijiy davlatning tegishli vakolatli organidan kelib tushgan, o'zlariga belgilangan tartibda topshirilgan protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida ijro etadi. Agar protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rov kelib tushgan organ uni ijro etishga vakolatli bo'lmasa, u so'rovni vakolatli organga yuboradi va bu haqda so'rov tashabbuskorini yozma ravishda xabardor qiladi. Bevosita tergov organiga protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida kelib tushgan so'rov JPK 592-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan tegishli organlar bilan kelishilgan holda ijro etilishi mumkin. Protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etishda O'zbekiston Respublikasi JPK normalari qo'llaniladi. Xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi bo'yicha, agar bu O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, xorijiy davlat protsessual qonun hujjatlarining normalari qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda yoki o'zarolik prinsipi asosida, protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etishda xorijiy davlat vakolatli organining vakillari JPK 592-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan tegishli organlar ruxsati bilan hozir bo'lishi mumkin.

Agar protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etish mumkin bo'lmasa, u holda olingan hujjatlar so'rovni ijro etishga to'sqinlik qilgan sabablar ko'rsatilib, so'rovni olgan organ orqali, zarur bo'lganda esa diplomatik yo'llar orqali xorijiy davlatning so'rovni yuborgan vakolatli organiga qaytarib yuboriladi. Agar so'rov O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki uning ijrosi O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga yoxud xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, u ijro etilmasdan qaytarib yuboriladi (JPK 595-m.).

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da'vog'ar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari O'zbekiston Respublikasi hududida protsessual harakatlarni bajarish uchun jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs tomonidan chaqirilishi

mumkin. JPK 596-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarni chaqirish to'g'risidagi so'rov JPK 592-moddasida belgilangan tartibda yuboriladi. Shaxslarni chaqirishda protsessual majburlov choralarini qo'llash tahdidi bo'lmasligi kerak. Chaqiruv bo'yicha kelgan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tguniga qadar sodir etilgan qilmishlar uchun yoki chiqarilgan hukmlar asosida O'zbekiston Respublikasi hududida jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi yoxud shaxsiy erkinlikning boshqacha cheklanishlariga duchor etilishi mumkin emas. Agar chaqiruv bo'yicha kelgan shaxs uning hozir bo'lishi chaqirtirgan mansabdor shaxsga boshqa kerak bo'lmay qolgan paytdan e'tiboran o'n besh sutkalik uzluksiz muddat o'tguniga qadar O'zbekiston Respublikasi hududini tark etish imkoniyatiga ega bo'la turib, shu hududda qolishda davom etsa yoki jo'nab ketganidan keyin O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelsa, mazkur immunitetning amal qilishi tugaydi.

Xorijiy davlat hududida qamoqda saqlanayotgan shaxs, basharti bu shaxs JPK 596-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarni chaqirish to'g'risidagi so'rovda nazarda tutilgan protsessual harakatlar bajarilishi uchun xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha o'tkazilgan bo'lsa, belgilangan tartibda chaqiriladi. Bunday shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida bo'ladigan butun davrida qamoqda saqlanaveradi. Uni qamoqda saqlashga xorijiy davlat vakolatli organining tegishli qarori asos bo'ladi. Mazkur shaxs so'rovga berilgan javobda ko'rsatilgan muddatlarda tegishli xorijiy davlat hududiga qaytarilishi kerak.

Shaxsni o'tkazish yoki o'tkazishni rad etish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida yoki o'zarolik prinsipi asosida belgilanadi (JPK 596-m.).

Chet el fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan, keyinchalik uning hududidan chiqib ketgan hamda protsessual harakatlarni O'zbekiston Respublikasi hududida uning ishtirokida bajarishning imkoni bo'lmagan taqdirda, tergov qilinayotgan jinoyat ishining barcha materiallari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga topshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi mazkur materiallarni xorijiy davlatning vakolatli organiga tergov qilish uchun yuborish to'g'risidagi masalani hal qiladi.

Jinoyat ishi materiallariga yetkazilgan zararning o'rmini qoplash to'g'risidagi ariza, shuningdek dalillar ilova qilinadi. Ishdagi har bir hujjat mazkur jinoyat ishini yuritayotgan organning gerbli muhri bilan tasdiqlangan

va yuborilayotgan xorijiy davlatning rasmiy tiliga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan boshqa tilga tarjima qilingan bo'lishi kerak (JPK 597-m.).

Xorijiy davlat vakolatli organining xorijiy davlat hududida jinoyat sodir etgan va O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosini jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday hollarda jinoyat ishini yuritish JPKda belgilangan tartibda olib boriladi. Jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilgan organ qarorning ko'chirma nusxasini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qabul qilingan qaror haqida xorijiy davlatning so'rovni yuborgan vakolatli organini yozma ravishda xabardor qiladi. Mazkur organning iltimosiga ko'ra jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qarorning ko'chirma nusxasi ham yuborilishi mumkin (JPK 598-m.).

33.2. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda yoki o'zarolik prinsipi asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlatning vakolatli organiga xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish to'g'risida so'rov yuborishi mumkin. Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida o'zarolik prinsipi asosida so'rov yuborish, agar so'rov yuborilishiga sabab bo'lgan qilmish har ikkala davlat qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish bo'lsa va shaxs jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berilgan taqdirda – uni sodir etganlik uchun bir yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo yoki og'irroq jazo nazarda tutilganda yoxud shaxs hukmni ijro etish uchun ushlab berilgan taqdirda – u olti oydan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga yoki og'irroq jazoga hukm qilinganida amalga oshiriladi.

Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovni yuborish zaruriyati yuzaga kelganda hamda buning uchun JPK 599-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan asoslar va shartlar mavjud bo'lganda, barcha zarur materiallar mazkur so'rovni yuborish haqidagi masalani hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etiladi.

Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

1) so'rov yuborayotgan organning nomi;

2) o'ziga nisbatan so'rov yuborilayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning tug'ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, yashash joyi yoki turgan joyi haqidagi ma'lumotlar va uning shaxsi haqidagi boshqa ma'lumotlar, shuningdek imkoni boricha tashqi qiyofasi tavsifi, fotosurati va shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa materiallar;

3) o'ziga nisbatan so'rov yuborilayotgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatning haqiqiy holatlari bayoni va tavsifi, shu jumladan u tomonidan yetkazilgan zararning miqdori haqidagi ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qilmish jinoyat deb e'tirof etilishiga asos bo'ladigan tegishli moddasi matni;

4) shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror yoxud hukm chiqarilgan joy va sana to'g'risidagi, shuningdek hukm qonuniy kuchga kirganligi haqidagi ma'lumotlar.

Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berish to'g'risidagi so'rovga shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorning va qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi sud ajrimining tasdiqlangan ko'chirma nusxalari ilova qilinishi kerak. Xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsni hukmni ijro etish uchun ushlab berish to'g'risidagi so'rovga qonuniy kuchga kirgan hukmning tasdiqlangan ko'chirma nusxasi va jazoning o'talmagan muddati to'g'risidagi ma'lumotnoma ham ilova qilinishi lozim (JPK 599-m.).

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy davlat tomonidan ushlab berilgan shaxs o'zi ushlab berilguniga qadar sodir etgan va ushlab berilishiga sabab bo'lmagan jinoyati uchun uni ushlab bergan davlatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, jazolanishi, shuningdek uchinchi bir davlatga topshirilishi mumkin emas. Quyidagi hollarda xorijiy davlatning roziligi talab qilinmaydi, agar:

– u ushlab bergan shaxs jinoyat ishi tugatilgan kundan e'tiboran, hukm qilingan taqdirda esa jazo o'talغان yoki har qanday qonuniy asosga ko'ra jazodan ozod qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi hududini tark etmagan bo'lsa. Ushlab berilgan shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududini tark etish imkoniyatiga ega bo'lmagan vaqt bu muddatga qo'shib hisoblanmaydi;

– u ushlab bergan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududini tark etgan, ammo keyin ixtiyoriy ravishda O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelgan bo'lsa.

Xorijiy davlat tomonidan ushlab berilgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilgan organ uning ko'chirma nusxasini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlatning vakolatli organini u tomonidan ushlab berilgan shaxsga nisbatan jinoyat ishini yuritish natijalari haqida yozma ravishda xabardor qiladi. Mazkur organning iltimosiga ko'ra jinoyat ishi bo'yicha uzil-kesil qarorning ko'chirma nusxasi ham yuborilishi mumkin (JPK 600-m.).

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish to'g'risidagi so'rov O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zarolik prinsipi O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovni yuborgan xorijiy davlat vakolatli organining shunga o'xshash vaziyatda O'zbekiston Respublikasi vakolatli organining so'roviga binoan shaxsni ushlab berish amalga oshirilishi haqidagi yozma va'dasi bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

– agar shaxs jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushlab berilayotganida sodir etilgan qilmish uchun O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bir yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni yoki og'irroq jazoni nazarda tutsa;

– agar o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risida so'rov yuborilgan shaxs olti oydan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga yoki og'irroq jazoga hukm qilingan bo'lsa;

– so'rovni yuborgan xorijiy davlat o'ziga nisbatan so'rov yuborilgan shaxsning faqat so'rovda ko'rsatilgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini hamda sud muhokamasi tugaganidan va jazoni o'taganidan keyin mazkur davlat hududini erkin tark eta olishini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining roziligisiz uchinchi davlatga chiqarib yuborilmasligini, topshirilmasligini yoxud ushlab berilmasligini, xuddi shuningdek qiynoqlarga, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzidagi muomalaga duchor etilmasligini va unga nisbatan o'lim jazosi qo'llanilmasligini kafolatlasa.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi. Ayni bir shaxsni ushlab berish

to'g'risida bir necha davlatning so'rovi mavjud bo'lganda, shaxsni qaysi davlatga ushlab berish kerakligi to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qabul qilingan qaror to'g'risida o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxsni yigirma to'rt soat ichida yozma ravishda xabardor qiladi va unga mazkur qaror ustidan JPK 602-moddasiga muvofiq shikoyat qilish huquqini tushuntiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxs yozma ravishda xabardor etilgan paytdan e'tiboran o'n sutka o'tishi bilan kuchga kiradi. Qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilingan taqdirda, shaxsni ushlab berish sudning ajrimi qonuniy kuchga kirguniga qadar amalga oshirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish muddati o'tgach yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qabul qilingan qarorni, sudning ajrimini ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuboradi (JPK 601-m.).

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o'rinbosarining O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarori ustidan so'ralayotgan shaxs qamoqda saqlanayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudlariga mazkur shaxs yoxud uning himoyachisi tomonidan xabarnoma olingan paytdan e'tiboran o'n sutka ichida shikoyat qilinishi mumkin.

So'ralayotgan shaxs qamoqda saqlanayotgan joyning ma'muriyati shikoyatni olishi bilan uni darhol sudga yuboradi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xabarnoma olingan kundan e'tiboran uch sutkadan kechiktirmay sudga O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarorning qonuniyligi va asosliligini tasdiqlovchi materiallarni yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o'rinbosarining O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarori ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish shikoyat sud tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, ochiq sud majlisida prokuror, o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan shaxs va, agar ishda ishtirok etayotgan bo'lsa, uning himoyachisi ishtirokida amalga oshiriladi.

Sud majlisi boshlanishida raislik qiluvchi qaysi shikoyat ko'rib chiqilishini e'lon qiladi, hozir bo'lgan protsess ishtirokchilariga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Arizachi va (yoki) uning himoyachisi shikoyatni asoslab beradi, shundan so'ng so'z prokurorga beriladi.

Sud muhokamasi davomida sud shikoyat bergan shaxsning aybliligi masalasini muhokama qilmay, ustidan shikoyat berilgan qarorning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiqligini tekshirish bilan cheklanadi.

Shikoyatni ko'rib chiqish natijasida sud quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

- shikoyatni qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarorni bekor qilish haqida.

Sudning ajrimi apellatsiya shikoyati berish yoki protesti bildirish muddati tugashi bilan qonuniy kuchga kiradi. Sudning ajrimi o'qib eshittirilganidan keyin darhol prokurorga, shuningdek o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risida qaror qabul qilingan shaxsga va, agar ishda ishtirok etgan bo'lsa, uning himoyachisiga yuboriladi. Sudning ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran o'n sutka ichida apellatsiya tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat berilishi yoki protest bildirilishi mumkin.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti ajrimni chiqargan sud orqali berilib, sud uni materiallar bilan birgalikda uch sutka ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yuborishi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apellatsiya shikoyatini yoki protestini ko'rib chiqib, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

- sud ajrimini o'zgarishsiz, apellatsiya shikoyatini yoki protestini esa qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida;
- sudning ajrimini bekor qilish to'g'risida.

Apellatsiya instansiyasi sudning ajrimi u o'qib eshittirilgan paytdan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va darhol ijro etilishi kerak. Apellatsiya instansiyasi sudning ajrimi prokurorga ijroni tashkil etish uchun, o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan shaxsga va, agar ishda ishtirok etgan bo'lsa, uning himoyachisiga ma'lumot uchun yuboriladi (JPK 602-m.).

O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni xorijiy davlatga ushlab berishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yilmaydi, agar:

– o‘ziga nisbatan so‘rov kelib tushgan shaxs O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lsa;

– so‘rov yuborilishiga sabab bo‘lgan jinoyat O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga qarshi uning hududidan tashqarida sodir etilgan bo‘lsa;

– so‘ralayotgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi hududida ayni o‘sha qilmish uchun qonuniy kuchga kirgan hukm yoki sudning ajrimi (qarori) yoxud vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish haqidagi yoki uni tugatish to‘g‘risidagi bekor qilinmagan qarori mavjud bo‘lsa;

– so‘rov yuborilishiga asos bo‘lgan qilmish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko‘ra jinoyat bo‘lmasa;

– O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq jinoyat ishi qo‘zg‘atish mumkin bo‘lmasa yoki tugatilishi lozim bo‘lsa yoxud muddati o‘tib ketganligi tufayli yoki boshqa qonuniy asosga ko‘ra hukmni ijro etish mumkin bo‘lmasa;

– so‘ralayotgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasida ayni o‘sha qilmish uchun jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa;

o‘ziga nisbatan so‘rov kelib tushgan shaxsga uni so‘rayotgan davlatda irqi, diniy e‘tiqodi, fuqaroligi, millati, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy e‘tiqodiga ko‘ra ta‘qib etilishi mumkinligi sababli O‘zbekiston Respublikasida boshpana berilgan bo‘lsa.

So‘ralayotgan shaxsga nisbatan uning yo‘qligida chiqarilgan hukmni ijro etish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish, agar hukm qilingan shaxs o‘zining himoyaga bo‘lgan huquqini ta‘minlash uchun yetarlicha imkoniyatga ega bo‘lmagan deb hisoblashga asoslar bo‘lsa, rad etilishi mumkin. Agar so‘rovni yuborgan xorijiy davlat hukm qilingan shaxsga uning ishtirokida takroriy sud muhokamasi o‘tkazilishiga bo‘lgan huquqni kafolatlasa, ushlab berish amalga oshiriladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish amalga oshirilmasa, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xorijiy davlatning vakolatli organini rad etish asoslarini ko‘rsatgan holda yozma ravishda xabardor qiladi (JPK 603-m.).

O‘ziga nisbatan ushlab berish to‘g‘risida so‘rov kelib tushgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududida boshqa jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilayotgan yoki jazoni o‘tayotgan bo‘lsa, uni ushlab berish jinoyat ishi tugatilguniga, hukm ijro etilguniga yoki har qanday qonuniy asosga ko‘ra jazodan ozod qilinguniga qadar kechiktirilishi mumkin.

Agar jazoni o'tayotgan shaxsni ushlab berishni kechiktirish jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketishiga sabab bo'lishi yoki jinoyatni tergov qilishga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, so'ralayotgan shaxs, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan belgilangan shartlarga rioya etish majburiyati mavjud bo'lgan taqdirda, vaqtincha ushlab berilishi mumkin.

Vaqtincha ushlab berilgan shaxs jinoyat ishi bo'yicha qaysi protsessual harakatlar bajarilishi uchun ushlab berilgan bo'lsa, o'sha protsessual harakatlar bajarilganidan keyin, biroq shaxs topshirilgan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay qaytarib berilishi kerak. Har ikkala davlat vakolatli organlarining o'zaro ahdlashuviga ko'ra bu muddat shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan jinoyat uchun hukm qilingan yoki qonunga muvofiq hukm qilinishi mumkin bo'lgan jazo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin (JPK 604-m.).

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risida xorijiy davlatning vakolatli organidan tegishli tarzda rasmiylashtirilgan so'rov olinganda va mazkur shaxsni ushlab berish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, ushbu shaxs ushlab turilishi va unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

Xorijiy davlat vakolatli organining iltimosnomasiga binoan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov olinguniga qadar ham ushlab turilishi mumkin. Iltimosnomada qamoqqa olish to'g'risidagi qarorga yoki qonuniy kuchga kirgan hukmga havola va mazkur so'rov qo'shimcha ravishda taqdim etilishi ko'rsatilishi kerak. Shaxsni qamoqqa olish to'g'risidagi iltimosnoma ushbu so'rov yuborilguniga qadar pochta, telegraf, teleks, faks yoki boshqa aloqa vositalari orqali yetkazilishi mumkin.

Shaxs, agar u boshqa davlat hududida uni ushlab berishga sabab bo'ladigan jinoyat sodir etgan deb gumon qilish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, JPK 605-moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan iltimosnomasiz ham yetmish ikki soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Shaxs ushlanganidan keyin ichki ishlar organlarining yoki boshqa surishtiruv organlarining xodimlari olingan materiallarni prokurorga taqdim etadi, u materiallarni o'rganib chiqadi va ushlab turilgan shaxsning qidiruv e'lon qilingan shaxs ekanligi to'g'risida yetarli asoslar mavjud bo'lgan, shuningdek JPK 603-moddasida bayon qilingan asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi va uni sudga yuboradi.

Prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma kiritishi, uning sudya tomonidan ko'rib chiqilishi, ajrim chiqarilishi, shuningdek sudyaning ajrimi ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish JPKning 241 va 243-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Shaxs qamoqqa olinganligi to'g'risida prokuror O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni qamoqqa olish haqida iltimosnoma yoki ushlab berish to'g'risida so'rov yuborgan yoxud yuborishi mumkin bo'lgan xorijiy davlatning vakolatli organini darhol yozma ravishda xabardor qiladi.

O'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risidagi masala ko'rilayotgan shaxsni qamoqda saqlab turish muddati ko'pi bilan uch oyni tashkil etadi. Mazkur muddat ushlab beriladigan shaxsning topshirilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek xorijiy davlatning vakolatli organidan O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilingan hollarda JPKning 245-moddasi ikkinchi qismida 247-moddasida nazarda tutilgan tartibda uzaytirilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda sud taqdim etilgan materiallarning asoslilikini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalari talablariga rioya etilganligini hisobga oladi (JPK 605-m.).

Ushlab berishni ta'minlash uchun ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxs prokurorning qarori asosida darhol ozod qilinishi kerak, agar:

- JPK 605-moddasining uchinchi qismiga muvofiq ushlab turilgan shaxsni qamoqqa olish to'g'risidagi iltimosnoma u ushlangan paytdan e'tiboran uch sutka ichida kelib tushmagan bo'lsa;

- xorijiy davlat vakolatli organining uni ozod qilish zarurligi to'g'risidagi xabarnomasi kelib tushgan bo'lsa;

- qamoqqa olingan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov va unga ilova qilinadigan hujjatlar xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan qirq sutka ichida taqdim etilmagan bo'lsa;

- xorijiy davlatning vakolatli organidan qamoqqa olingan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rovga qo'shimcha ravishda so'ralgan ma'lumotlar bir oy ichida, xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi kelib tushgan taqdirda esa ikki oy ichida kelib tushmagan bo'lsa;

- unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish sud tomonidan rad etilgan bo'lsa;

- uni ushlab berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa;

– uni ushlab berish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan bekor qilingan bo‘lsa;

– o‘ziga nisbatan ushlab berish to‘g‘risida qaror qabul qilingan shaxs uni topshirish uchun belgilangan kundan e‘tiboran o‘n besh sutka ichida xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan qabul qilib olinmagan bo‘lsa, agar bunday topshirish sanasi ko‘chirilmagan bo‘lsa.

Prokuror qabul qilingan qaror haqida qamoqqa olish to‘g‘risida ajrim chiqargan sudni yozma ravishda xabardor qiladi.

Shaxsni ushlab berish maqsadida takroran ushlab turish va qamoqqa olishga O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risida yangi so‘rov olinganidan keyin yo‘l qo‘yiladi, ushbu modda birinchi qismining yettinchi va sakkizinchi bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (JPK 606-m.).

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ushlab beriladigan shaxsni topshirish joyi, sanasi va vaqti haqida xorijiy davlatning vakolatli organini yozma ravishda xabardor qiladi. Agar mazkur shaxs topshirish uchun belgilangan kundan e‘tiboran o‘n besh sutka ichida qabul qilib olinmasa, u qamoqdan ozod qilinadi.

Xorijiy davlatning vakolatli organi ushlab berilishi lozim bo‘lgan shaxsni o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tufayli qabul qilib olishi mumkin bo‘lmay qolgan va bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qilgan taqdirda, topshirish sanasi ko‘chirilishi mumkin. Agar O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi ushlab berilishi lozim bo‘lgan shaxsni o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tufayli topshirishi mumkin bo‘lmay qolsa, topshirish sanasi o‘sha tartibda ko‘chirilishi mumkin (JPK 607-m.).

Xorijiy davlat vakolatli organining uchinchi davlat tomonidan mazkur organga ushlab berilgan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomasi JPKning 601 va 603-moddalari talablariga rioya etilgan holda ko‘rib chiqiladi (608-m.).

Shaxsni xorijiy davlatning vakolatli organiga ushlab berishda jinoyat quroli bo‘lgan ashyolar, shuningdek jinoyat izlarini o‘zida aks ettirgan yoki jinoiy yo‘l bilan topilgan ashyolar topshiriladi. Bu ashyolar shaxsni ushlab berish uning vafot etganligi yoki boshqa sabablar tufayli amalga oshirilishi mumkin bo‘lmay qolgan taqdirda ham mazkur organning iltimosiga binoan topshiriladi.

JPK 609-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan ashyolarni topshirish, agar mazkur ashyolar boshqa jinoyat ishini yuritish uchun zarur bo‘lsa, vaqtincha kechiktirib turilishi mumkin. Uchinchi shaxslarning

huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun JPK 609-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan ashyolarni topshirish xorijiy davlat vakolatli organining jinoyat ishini yuritish tamomlanishi bilan ashyolarni qaytarish to'g'risidagi kafolatlari mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi (JPK 609-m.).

Nazorat uchun savollar:

Jinoiy sud ishlarini yuritish sohasida xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibining o'ziga xos xususiyatlari qanday?

Protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risidagi so'rovning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablar?

O'zarolik prinsipining mohiyatini tushuntirib bering?

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi so'rov qanday ijro etiladi?

O'zbekiston Respublikasiga ushlab berilgan shaxsga qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash xususiyatlari va muddatlari?

34-BOB. JINOYAT ISHI MATERIALLARI RASMIYLASHTIRISH

34.1. Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish

Jinoyat ishini yuritishda odatda o'zining yuridik ahamiyati va protsessual tabiati bo'yicha turli xil bo'lgan va katta hajmdagi axborotga ega bo'lgan ko'p miqdordagi hujjatlar to'planadi. Tergovchi ko'pincha to'plangan materiallarni qayta-qayta o'rganishi, ularni o'zaro va yangi olinganlari bilan qiyoslashiga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan kelib tushadigan materiallarni muayyan tartibda joylashtirish, ya'ni tartibga keltirish maqsadga muvofiq.

Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish jinoyat ishi materiallarini muayyan qoidalarga bo'ysunib va JPKda belgilangan jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda aybdorlarni fosh etish talabining bajarilishiga yordamlashib, muayyan tartibga keltirish va ularni tikishdan iborat. Buning boisi shundaki, birinchidan, tartibga keltirish u yoki bu hujjatni topish vaqtini tejashga imkon beradi va ular bilan ishlashni osonlashtiradi. Ikkinchidan, bu tergov qilinayotgan jinoyatning tegishli voqealarga taalluqli bo'lgan va muayyan tartibda guruhlashtirilgan materiallarga, tekshirilayotgan taxminlarga yoki ayrim murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan tergov tadbirlariga bo'lib, e'tiborni jamlashga yordam beradi. Uchinchidan, ushbu materiallarda qayd etilgan va daliliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni baholashni osonlashtiradi.

Tergovchi materiallarni muayyan tartibda joylashtirib, ularning mazmunini o'ylab ko'radi va ulardagi daliliy axborotni muayyan darajada baholaydi. Bu shuningdek, tergovchining to'g'ri ichki e'tiqodi shakllanishiga ko'maklashadi. U tergovni tugatgach, ish hujjatlarining mazmunini esga olishi, daliliy axborotning butun majmuiga nisbatan o'zining avvalgi baholarini xotirasida tiklashi qiyin bo'lmaydi.

Jinoyat ishi materiallarini tartibga solish – nafaqat tashkiliy-taktik, balki protsessual masala ham. Ish materiallarini tartibga solish va rasmiylashtirish tergovchining to'plangan dalillarni nazorat qilishning samarali vositasidir. U ashyoviy dalillarning jinoyat ishiga qo'shib qo'yilishini, tergov harakatlari protokollarining rasmiylashtirishini, protsess ishtirokchilarining huquqlarini dastlabki tergov bosqichida kafolatlovchi JPK normalariga rioya etilishini nazorat qilishga imkon beradi. Jinoyat ishi materiallarini o'z vaqtida tartibga keltirish va rasmiylashtirish talabi tergovchida protsessual shaklga hurmat va uning

ahamiyatini tushunishni, ishga naridan beri yondashishga nisbatan kelishmaslikni tarbiyalashga yordam beradi. Protsess ishtirokchilarini muayyan oqilona tartib bo'yicha joylashtirilgan materiallar bilan tanishish ularni o'rganish uchun ketadigan vaqtni tejaydi, ishning mohiyatini, uning ayrim holatlarini va aybni asoslash uchun keltirilgan dalillarni to'g'ri tushunish uchun zarur sharoit yaratadi. Bu protsessda rioya etish lozim bo'lgan yo'nalishni aniqlashga yordam beradi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va protsessning boshqa ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashadi.

Materiallarni ma'lum ketma-ketlikda joylashtirish tergov bo'linmasi boshlig'ining va prokurorning jinoyat ishi bilan tanishish bo'yicha ishini yengillashtiradi, uning mazmuniga chuqurroq kirib borishga va shu asosda dastlabki tergov sifatini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish deganda jinoyat ishining o'zini rasmiylashtirishnigina emas, balki ishga qo'shilgan har bir hujjatni JPK talabiga javob beradigan tarzda to'g'ri va puxta rasmiylashtirish ham tushuniladi. Ayrim hollarda bu to'plangan materiallarning daliliy qimmatini belgilab beradi. Tergovchi jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirganda yana bir bor har bir protsessual hujjatni uning qonuniyligi, asoslanganligi nuqtai nazaridan tekshirib chiqishi, uning to'lalilik, har tomonlamalik va xolislik talablariga mos kelish-kelmasligini, qanchalik to'g'ri tuzilganligini o'ylab ko'rishi lozim. Har bir hujjatni shu nuqtai nazardan tahlil qilib chiqish tergovchiga mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida topish va iloji boricha tugatish imkonini beradi.

Protsessual hujjatning qonuniyligi uni tuzish vaqtida amaldagi qonunchilik, xususan jinoyat-protsessual qonunchilikning barcha talablariga rioya etilishi kerakligini bildiradi. Masalan, agar biron bir sababga ko'ra bayonnomalarda barcha zarur ma'lumotlar bo'lmasa, mazkur kamchilikni zarur qo'shimcha tergov harakatlarini o'tkazish orqali tugatish kerak. To'liq bo'lmagan bayonnoma o'zining isbotlovchi kuchini yo'qotadi.

Protsessual hujjatning asoslanganligi unda ifodalangan qaror jinoyat ishi materiallardagi obyektiv ma'lumotlarga asoslanishini bildiradi. Ish materiallari tartibga keltirilayotganda ushbu hujjat odatda uni tuzish uchun asos bo'lgan ma'lumotlar yoniga joylashtiriladi. Tergovchi qarorining asoslanganligi aniq isbotlovchi ma'lumotlarni keltirishdan iborat. Agar tergovchi jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish vaqtida u yoki bu muayyan hujjat yetarlicha asoslanmaganligini aniqlasa, bu bundan buyon

bunday kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun signal bo‘ladi. Tergovchi jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish chog‘ida to‘lalik, har tomonlamalik va xolislik talablarining buzilganligini aniqlasa, JPK talablariga rioya etgan holda bunday qoida buzilishlarini bartaraf etish chorasini ko‘rish lozim.

Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirishda u yoki bu protsess ishtirokchisining ko‘rsatuvlarida ziddiyatlar aniqlanishi mumkin. Bu tergovchini ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida qo‘shimcha so‘roq o‘tkazishga yoki yuzlashtirishga undashi kerak. Hodisa joyidagi ahvolni ko‘zdan kechirish natijasida yuzaki aks ettirish aniqlanganda, tergovchi iloji bo‘lsa takroriy ko‘zdan kechirish o‘tkazishi zarur.

Jinoyat ishi materiallarini muayyan tartib bo‘yicha joylashtirish isbotlash jarayonining qayd etish yo‘nalishi bilan bog‘liq.

34.2. Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish usullari

Tergovchi jinoyat ishining murakkabligi, uning hajmi, voqealar soni, ayblanuvchilar soni va boshqa holatlardan kelib chiqib, ish materiallarini tartibga keltirishning xronologik va aralash usullaridan foydalanadi. Agar ish hajmi bo‘yicha kichkina yoki o‘rtacha bo‘lsa, jinoyat fabulasi murakkab bo‘lmasa, ayblanuvchilar soni ko‘p bo‘lmasa, u holda odatda xronologik usul qo‘llaniladi. Barcha materiallar tergov harakatlari o‘tkazilgan sanalar yoki hujjatning tergovchiga kelib tushgan kunlari bo‘yicha tartibga solinadi. Bu tergovning borishini, dalillarni, mustahkamlash va tekshirish bo‘yicha tergov harakatlarini bajarishning ketma-ketligi va o‘z vaqtida o‘tkazilganligini yaqqol tasavvur qilishga, ushbu ishni amalga oshirishdagi tanaffuslar sababini va tergovchining faolligini aniqlashga imkon beradi. Ammo tartibga keltirishning xronologik usulida ish materiallarini tez va to‘liq o‘rganish imkoniyati, ulardan tergov jarayonida va sud muhokamasida foydalanishning qulayligi, shuningdek, ayrim taxminlarning to‘liq tekshirilishini ta‘minlash qiyin bo‘ladi. Shu bois, ayrim hollarda mazmunan o‘zaro bog‘liq protsessual hujjatlar ular qachon tuzilganligidan qat’i nazar birga joylashtiriladi.

Bir qancha nisbatan mustaqil yo‘nalishlar bo‘yicha tergov qilinayotgan murakkab ko‘p voqeali ishlar voqealar bo‘yicha, alohida ayblanuvchilar bo‘yicha va jinoiy faoliyat obyektlari bo‘yicha tartibga solinganligi ma’qul. Bunday usul mavzu bo‘yicha tartibga keltirish usuli deb ataladi.

Undan foydalanib, tergov jarayonida eng kam kuch va vaqt sarflab, barcha dalillarning to‘plangan yoki to‘planmaganligini tekshirish, aybni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning bor-yo‘qligini, jinoyatning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash mumkin. Bu usul tergovchining o‘ziga va tekshiruvchi shaxslarga tergov borasida ifodalangan taxminlarning to‘liq tekshirilishini samaraliroq nazorat qilishga imkon beradi.

Hujjatlarning voqealar bo‘yicha joylashtirilishi ushbu faktning isbotlanganligi yoki isbotlamaganligi to‘g‘risida qaror chiqarishga yordam beradi. Ba‘zan tegishli materiallar bir-biridan maxsus varaq bilan ajratiladi. Ushbu varaqda voqeaning nomi va nomeri yozib qo‘yiladi. Agar ayblanuvchilardan birining jinoiy faoliyati haqidagi ayrim ma‘lumotlar boshqalarining qilmishlari bilan bog‘liq bo‘lmasa, ushbu ma‘lumotlarga daxldor materialni alohida tartibga solish mumkin.

Jinoyat ishi materiallari bir ish bo‘yicha ayblanayotgan bir yoki bir necha shaxsning jinoiy faoliyati voqealar bo‘yicha guruhlashtirilgan taqdirda, ushbu guruhlarning o‘zi va ularning ichidagi materiallar qanday tartibda joylashtirilishi kerakligini puxta o‘ylab ko‘rish zarur. Materiallarning xronologik tartibi har bir ayblanuvchining jinoiy faoliyatidagi voqealarning haqiqiy ketma-ketligini ifodalaydi. Hujjatlarni jinoiy qilmishlarning jamiyat uchun xavflilik darajasi bo‘yicha, ochilish ketma-ketligi bo‘yicha, bir-biri bilan o‘zaro aloqasi bo‘yicha guruhlashtirish mumkin.

Mazmuni bo‘yicha quyidagi materiallar guruhlashtirilishi mumkin:

a) ayblanuvchining shaxsni tavsiflovchi ayrim materiallar: ishlab chiqarishdan berilgan tavsifnoma, sudlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, avvalgi hukmlarning nusxalari, tekshirish hujjatlari, rasmiy hujjatlardan ko‘chirmalar, ayblanuvchilarning xulq-atvori muhokama qilingan jamoat majlislarining bayonnomalari;

b) shaxsni jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da‘vogar sifatida tan olish bilan bog‘liq materiallar;

v) biron-bir shaxsni fuqaroviy javobgar sifatida ishga jalb qilishga oid materiallar

g) mulkni xatlash to‘g‘risidagi materiallar (pul mablag‘lari): mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror, hodisa joyida ro‘yxatga olish chog‘ida tuzilgan hujjatlar (agar xatlash, olib qo‘yish yoki tintuv bilan birga amalga oshirilgan bo‘lsa, tintuv va olib qo‘yish tayinlanishi va o‘tkazilishi rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar ham ushbu guruhga kiritiladi);

d) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish haqidagi kiritilgan taqdimnomalar (ularning tuzilishiga asos bo'lgan materiallar bilan birga) va ular bo'yicha olingan xabarlar. Ular odatda dastlabki tergovni tugatish to'g'risida e'lon qilish bayonnomalaridan avval ayblanuvchini tavsiflovchi hujjatlar bilan bir qatorda joylashtiriladi;

ye) tergovchiga arz qilingan rad etishlar va uning harakatlari yuzasidan berilgan shikoyatlarni hal qilish bilan bog'liq materiallar.

Materiallarni voqealar yoki ayblanuvchilar bo'yicha tartibga keltirish ba'zan, agar u yoki bu hujjatda turli voqealar yoki bir necha ayblanuvchilarning harakatlariga taalluqli ma'lumotlar bo'lsa (masalan, guvohni so'roq qilish bayonnomasi, taftish dalolatnomasi yoki sud-buxgalteriya ekspertizasining xulosasi va h.k.), muayyan qiyinchiliklar bilan kechishi mumkin.

Agar ish bo'yicha bir necha jinoyat sodir etgan shaxslar o'tayotgan bo'lsa, tabiiyki, ayblanuvchilardan biriga taalluqli barcha materiallarning jamlash har doim ham mumkin bo'lmaydi: uyushgan jinoiy guruhlarda funksional aloqalarning mustahkam tizimi mavjud. Bunday hollarda xronologik va epizodlar bo'yicha usullarning afzal jihatlarini birlashtiruvchi va shu bois eng qulay bo'lgan aralash usul qo'llaniladi. Ushbu usul jinoyat ishi materiallarini quyidagi tartibda joylashtirishni nazarda tutadi: avval jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror, so'ngra uni qo'zg'atish uchun asos bo'lgan materiallar tikiladi. Agar sof xronologik tartibga rioya qilinadigan bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorni ushbu materiallardan so'ng joylashtirishga to'g'ri keladi, bu ham amaliyotda ba'zan uchrab turadi, ammo bu ushbu materiallarni o'rganishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror hujjatlarning boshida tursa, darhol ishning mazmunidan xabardor qiladi. So'ngra jinoyat hodisasi faktini aniqlovchi materiallar joylashtiriladi. Masalan, tan jarohatlari yetkazish, nomusga tegish, qiynashga doir ishlar bo'yicha, voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomalari, ashyoviy dalillar, tintuv qilish haqidagi qaror va bayonnomalar, sud-tibbiyot ekspertizasini tayinlash haqidagi qaror va ekspertning xulosasi ana shunday materiallar bo'lib xizmat qiladi. Tuzilish vaqti bo'yicha bir-biridan muayyan vaqt farq qiladigan so'nggi ikki hujjat qulaylik uchun birga joylashtirilishi kerak. Ulardan so'ng jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror, uni so'roq qilish bayonnomasi va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qaror, jabrlanuvchilar va guvohlarni

so'roq qilish bayonnomalari hamda boshqa protsessual hujjatlar xronologik tartibda, ya'ni tergovchiga kelib tushgan yoki tergovchi tuzgan ketma-ketlikda joylashtiriladi. Materiallarni joylashtirishning bunday tartibi sodir etilgan jinoyatning hajmi va tergovchining taxminlarini tekshirish va dalillarni to'plash borasida qilgan ishlari haqida tasavvur hosil qiladi.

Shundan so'ng ayblanuvchi va jabrlanuvchining shaxsini tavsiflashga taalluqli materiallar, ya'ni ularning turmushdagi, ishlab chiqarishdagi xulq-atvori haqidagi turli fikrnomalar (jamoat birlashmalar va korxonalarining tavsifnomalari, sudlanganlikka oid ma'lumotnomalar, guvohlarning tegishli ko'rsatuvlari). Ushbu materiallar jinoyatning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi ma'lumotlardan avval joylashtiriladi.

Barcha voqealarga yoki ularning ko'pchiligiga daxldor hujjatlar (masalan, taftish dalolatnomalari, ekspertizalar xulosalari, ularga asos bo'lgan hujjatlar) birlashtirilishi lozim. Agar bunday hujjatlar ko'p bo'lsa, ularni alohida jild qilib ajratish mumkin.

Bir necha voqealarga daxldor katta hajmdagi hujjatlar jinoyat ishida birinchi turgan voqeaga doir materiallar ichiga ulardan avval yoki tuzilish (tergovchiga kelib tushishi, olib qo'yilishi yoxud tekshirilishi) sanasiga qarab joylashtiriladi. Shaxslar (ayblanuvchilar) bo'yicha tartibga keltirilganda ham shunday tartib qo'llaniladi.

Taftish yoki sud-buxgalteriya hujjatlariga taalluqli bo'lgan katta miqdordagi buxgalterlik va boshqa hujjatlarni alohida jildda to'plagan ma'qul. Agar bunday hujjat ko'p bo'lmasa, ularni tegishli voqealar materiallari orasida joylashtirish kerak.

Boshqa ekspertizalarning materiallari ularni tayinlashga doir qarorlardan keyin joylashtiriladi. Masalan, xatshunoslik ekspertizasi materiallari quyidagicha guruhlashtiriladi: avval ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror va ayblanuvchini u bilan tanishtirish haqidagi bayonnoma, so'ngra xat (imzo) namunalari olishga doir materiallar, shundan so'ng ekspert xulosasi joylashtiriladi.

Ishlarni bitta jinoyat ishiga birlashtirganda avval tergov muddati hisoblanadigan ish materiallari joylashtiriladi, qolganlari esa birlashtirish haqidagi qarordan keyin keltiriladi.

Sudga jo'natiladigan jinoyat ishlari bo'yicha oxirgi hujjat vazifasini sudga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxati va tegishli ma'lumotnomalar ilova qilingan ayblov xulosasi bajaradi. Ayblov xulosasidan avval

dastlabki tergovning tugatilganligini e'lon qilish haqidagi va ish materiallarini tanishib chiqish uchun ayblanuvchi, himoyachi va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilariga taqdim etish haqidagi bayonnomalar joylashtiriladi. Shu yerning o'zida ayblanuvchiga huquqiy maslahatlar berishga, dastlabki tergovda himoya qilishga vakolatli bo'lgan advokat bergan yuridik maslahat orderi joylashtirilishi mumkin. Ushbu hujjatlardan keyin ba'zan ish materiallari bilan tanishish grafiklari joylashtiriladi. Ayblanuvchining (uni jinoyat ishi tanishtirgandan so'ng bergan) iltimosnomasini qondirishni rad etish to'g'risidagi qaror ayblov xulosasidan avval joylashtiriladi.

Hajmi juda katta bo'lgan ayblov xulosalarida mundarija tuziladi. Unda tegishli hujjatlarning nomlari va ularning ayblov xulosasining qaysi betida joylashganligi haqidagi ma'lumot keltiriladi.

Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish har bir turdagi ishlar bo'yicha o'z xususiyatlariga ega. Masalan, xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish to'g'risidagi jinoyat ishlarini qo'zg'atish uchun korxonada va xavfsizlik texnikasi bo'yicha inspeksiyadan yoki voqea joyini ko'zdan kechirish natijasida kelib tushgan materiallar sabab bo'ladi. Ushbu materiallarning hammasi jinoyat ishining boshida, jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi qarordan keyin joylashtirilishi kerak. Ushbu toifadagi ishlar bo'yicha ayblanuvchi buzgan turli idoraviy yo'riqnomalardan ko'chirmalarni qo'shib qo'yish zarurati tug'iladi. Ushbu material bevosita idoraviy tekshirish materiallaridan keyin joylashtirilishi kerak, chunki ushbu korxonada xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etish qaysi idoraviy yo'riqnomalarda belgilanganligi darhol ko'rinib turishi lozim.

Masalan, voyaga yetmaganlar jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, voyaga yetmagan huquqbuzarning hayoti va tarbiyalanishidagi holatlarga doir ma'lumotlar alohida bo'linga ajratilishi lozim.

Tergovchi materiallarni tartibga keltirishda jinoyat ishidan u yoki bu hujjatni ularda ishonchli bo'lmagan yoki qonunni buzilishidan dalolat beruvchi ma'lumotlar borligini vaj qilib, jinoyat ishidan olib qo'yishga haqli emas.

Jinoyat ishi materiallarini tergov tamom bo'lganidan keyingina emas, balki butun ish yuritish davomida ham tartibga keltirish kerak. Bu tergovchining o'ziga kuch va vaqtni muayyan darajada tejashga va jinoyat ishi bo'yicha jinoyatni muvaffaqiyatli tergov qilishga yordam beradi. Afsuski, tergovchi ba'zan uning qo'liga «oqib kelayotgan» barcha hujjatlarni puxta o'rganmay turib, ko'pincha ularni mexanik tarzda ishga

tikib qo‘yadi. Natijada ish haddan tashqari «semirib» ketadi, uning ichidagi butunlay keraksiz qog‘ozlar ichidan zarur hujjatni topish juda qiyin bo‘ladi.

34.3. Jinoyat ishi materiallarini texnik jihatdan tartibga solish

Jinoyat ishini rasmiylashtirish chog‘ida barcha materiallar qalin qog‘oz yoki kartondan qilingan papkaga tikiladi. Tikilgan jinoyat ishi tashqi ko‘rinishidan yaxshi tikilgan kitobni eslatishi kerak.

Muqovada quyidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi: vazirlik, ichki ishlar boshqarmasi, tergov bo‘linmasining nomi; jinoyat ishining qayd daftariga muvofiq nomeri; ayblanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi; jinoyatni nazarda tutuvchi JK moddasi; ish jildlarining miqdori; muayyan jildning nomeri va undagi varaqlar soni; jinoyat ishi bo‘yicha tergovning boshlanish va tamomlanish sanasi; «arxiv nomeri» va «saqlanish muddati» bandlari.

Agar ish bo‘yicha ko‘p sonli ayblanuvchilar jalb qilingan bo‘lsa, muqovada ulardan bir-ikkitasi haqidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi, so‘ngra «va boshqalar» deb yozib qo‘yiladi. Ayblanuvchilarning to‘liq ro‘yxati, ularni jinoiy javobgarlikka jalb etilayotgan JK moddalariga havola etgan holda, hamda ish varaqlari ularga taalluqli materiallari bilan birga alohida varaqda beriladi. Bunday ro‘yxat birinchi tomga hujjatlar ro‘yxatidan avval tikib qo‘yiladi.

Sudga ish bilan birga jo‘natiladigan ashyoviy dalillar o‘raladi. Yirik buyumlar karton qutilarga joylanadi. Ularga jinoyat ishining ushbu ashyoviy dalillarga taalluqli bo‘lgan varaqlari ko‘rsatilgan etiketka yopishtiriladi. Qutilar kanop bilan bog‘lanadi va muhrlanadi. Mayda narsalarni (kalit, tugmachalar, qalamtaroshlar va h.k.) o‘rash uchun polietilen paketlardan foydalanish mumkin. Ushbu holda ularning ichiga tushuntirish xatlari solib qo‘yiladi. Shunday paketlarga so‘roq qilish vaqtida yozilgan fonogrammalar, shuningdek tergov harakatlarini o‘tkazishda suratga olingan kinofilmlar ham joylanadi. Ish bo‘yicha ovoz yozishdan bir necha marta foydalanilganda magnet yozuvlariga ushbu yozuv amalga oshirilgan sana, uning nomi va ishning so‘roq bayonnomasi tikilgan varaqlari ko‘rsatilgan ro‘yxat ilova qilinadi. Ro‘yxatning bir nusxasi paketga solinadi, ikkinchisi esa ishga tikib qo‘yiladi. Magnet lentalarining oxiriga uning yo‘li belgilab qo‘yilgan qog‘oz tasmalar yopishtiriladi. Ro‘yxatlarda ushbu yo‘llardagi yozuvlarning mazmuni (nomi) ko‘rsatiladi. Bu ularni tezda topish va qo‘yib etish imkonini beradi.

Naridan-beri qilingan va tushunarsiz xat bilan yozilgan jinoyat ishi, albatta, tergovchining obro'sini oshirishga, dastlabki tergov muddatining qisqarishiga yordam bermaydi.

Jinoyat ishi materiallarining aniq tartibga keltirilishi tergov ishi madaniyatini ko'tarishga, chunonchi, protsessual hujjatlarda qayd etilgan dalillarning sinchiklab tahlil qilinishiga, shuningdek tergovchi ish vaqtining tejalishiga ko'maklashadi.

Nazorat uchun savollar:

Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish nimadan iborat?

Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish usullari qanday?

Jinoyat ishi materiallarini texnik jihatdan tartibga keltirishning qanday yo'llarini bilasiz?

Jinoyat ishi materiallariga qanday hisobga olish hujjatlari qo'shib qo'yiladi?

Tugallangan jinoyat ishi qanday rasmiylashtiriladi?

МУНДАРИЖА

SO‘Z BOSHI	3
-------------------------	---

1-BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TERGOV APPARATI VA UNING HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI TIZIMIDAGI O‘RNI

1.1. Ichki ishlar organlari tergov apparatining asosiy vazifalari, funksiyalari va ahamiyati.....	5
1.2. Tergov apparati faoliyatini normativ-huquqiy ta’minlash.....	8
1.3. Tergov apparatini shakllanishi va uning rivojlanishi davrlarining qisqacha ta’rifi.....	10
1.4. Dastlabki tergov organlari faoliyatining muammolari.....	14

2-BOB. IIV TERGOV BO‘LINMALARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH

2.1. Ichki ishlar organlari tergov bo‘linmalarining tuzilishi.....	16
2.2. Tergovchining huquqiy maqomi va vakolatlari.....	22
2.3. Tergovchining ishiga rahbarlik qilish.....	24
2.4. Dastlabki tergovda qonuniylikni mustahkamlash choralari.....	29

3-BOB. TERGOV APPARATLARIDA HISOB VA HISOBOTNI OLIB BORISH

3.1. Hisobot va ro‘yxat to‘g‘risida tushuncha va uning ichki ishlar organlarining tergov bo‘limlarining faoliyatidagi o‘rni.....	34
3.2. Hisobga olish faoliyatiga oid idoraviy hujjatlar.....	38

4-BOB. TERGOVCHINING ISHINI TASHKIL QILISH

4.1. Dastlabki tergovda ishni rejalashtirish.....	62
4.2. Dastlabki tergov muddatlarini uzaytirish.....	67
4.3. Jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratish.....	69
4.4. Tergovchining ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari bilan hamkorligi.....	73
4.5. Dastlabki tergovda fan-texnika vositalaridan foydalanishni tashkil qilish.....	75

5-BOB. DASTLABKI TERGOVDA HIMOYALANISH HUQUQINI TA'MINLASH

5.1. Dastlabki tergovda himoyachi ishtirokining huquqiy asoslari.....	77
5.2. Dastlabki tergovda himoyachining protsessual maqomi.....	81
5.3. Himoyachini dastlabki tergovda ishtirok etishga jalb etilishi xususiyatlari.....	84

6-BOB. DASTLABKI TERGOV ORGANLARINING QONUNLARNI IJRO ETISHI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

6.1. Dastlabki tergov tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratning mohiyati va vazifalari.....	90
6.2. Dastlabki tergov organlari faoliyati ustidan prokuror nazoratining xususiyatlari.....	94
6.3. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida qonuniylik ustidan nazoratning xususiyatlari.....	101
6.4. Dastlabki tergov bosqichida qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat.....	106

7-BOB. DASTLABKI TERGOVNING PROTSESSUAL HUJJATLARI

7.1. Tergovchi protsessual hujjatlari, ularning ahamiyati va turlari.....	111
7.2. Dastlabki tergovda tuzilishi majburiy bo'lgan jinoyat-protsessual hujjatlar.....	114
7.3. Dastlabki tergovning yordamchi (ko'maklashuvchi) hujjatlari.....	119
7.4. Dastlabki tergov protsessual hujjatlariga qo'yiladigan talablar.....	122

8-BOB. JINOYAT ISHINI QO'ZFATISH BOSQICHINING PROTSESSUAL HUJJATLARI

8.1. Tergovning jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi protsessual shakllari.....	124
8.2. Tergovga qadar tekshiruv o'tkazish tartibi va xususiyatlari.....	125
8.3. Jinoyat ishini qo'zg'atish tartibi.....	131
8.4. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish.....	133
8.5. Jinoyatga oid materiallarni tegishliligiga qarab yuborishning protsessual tartibi.....	135

9-BOB. SO'ROQ QILISHNING PROTSESSUAL TARTIBI VA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLARI

9.1. «So'roq qilish» tushunchasi va ahamiyati. So'roq qilishning umumiy qoidalari.....	147
9.2. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish.....	150

9.3. Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish.....	155
9.4. So‘roq qilish natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....	157

**10-BOB. YUZLASHTIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISHNING
PROTSESSUAL TARTIBI**

10.1. «Yuzlashtirish» tushunchasi, vazifalari va uni o‘tkazish tartibi.....	171
10.2. Yuzlashtirish tergov harakatining turlari.....	175
10.3. Yuzlashtirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....	177

**11-BOB. KO‘ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI
O‘TKAZISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

11.1. «Ko‘zdan kechirish» tergov harakati tushunchasi, turlari va uni o‘tkazish tartibi.....	180
11.2. Ko‘zdan kechirish tergov harakatining turlari.....	183
11.3. Ko‘zdan kechirish natijalarini rasmiylashtirish.....	187

**12-BOB. GUVOHLANTIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISH VA
PROTSESSUAL RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

12.1. «Guvohlantirish» tergov harakati tushunchasi va o‘tkazish asoslari.....	191
12.2. Guvohlantirishni o‘tkazish tartibi.....	192
12.3. Guvohlantirish tergov harakati natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....	193

**13-BOB. TANIB OLIISH UCHUN KO‘RSATISHNING
PROTSESSUAL TARTIBI**

13.1. «Tanib olish uchun ko‘rsatish» tergov harakati tushunchasi.....	199
13.2. Tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatini o‘tkazish tartibi va turlari.....	201

**14-BOB. OLIB QO‘YISH VA TINTUV TERGOV HARAKATLARINI
O‘TKAZISHNING PROTSESSUAL TARTIBI**

14.1. «Olib qo‘yish va tintuv» tergov harakatlari tushunchasi, o‘tkazish asoslari.....	210
14.2. Olib qo‘yish va tintuv tergov harakatlarini o‘tkazishning protsessual tartibi.....	211
14.3. Diplomatiya vakolatxonalarida olib qo‘yish va tintuv tergov harakatlarini o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	217
14.4. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash va olib qo‘yish tartibi.....	218
14.5. Olib qo‘yish va tintuv tergov harakatlarining natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....	221

**15-BOB. KO‘RSATUVLARNI HODISA SODIR BO‘LGAN JOYDA
TEKSHIRISHNING PROTSESSUAL TARTIBI**

- 15.1. «Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish» tushunchasi va asoslari.....236
- 15.2. Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatini o‘tkazish tartibi.....237
- 15.3. Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatining jarayoni va natijalarini qayd qilishda tuziladigan protsessual hujjatlar..... 239

**16-BOB. EKSPERIMENT TERGOV HARAkatINI O‘TKAZISHDA
TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

- 16.1. Eksperiment tergov harakati tushunchasi va o‘tkazish asoslari.....242
- 16.2. Eksperiment o‘tkazishning protsessual tartibi.....244
- 16.3. Eksperiment natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....247

**17-BOB. EKSPERTIZA TAYINLASH VA O‘TKAZISHDA
TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

- 17.1. «Ekspertiza» tushunchasi, turlari va ekspertiza jarayonida tekshiriladigan obyektlar.....253
- 17.2. Ekspertiza tayinlash va o‘tkazishda protsess ishtirokchilarining huquqlarini ta’minlash.....261
- 17.3. Ekspertiza o‘tkazish haqidagi protsessual hujjatlarning xususiyatlari.....263
- 17.4. Ekspertiza natijalarining protsessual rasmiylashtirilishi va uni baholashning xususiyatlari.....266

**18-BOB. EKSPERTIZA TEKSHIRUVI UCHUN NAMUNALAR
OLISHNING PROTSESSUAL TARTIBI**

- 18.1. «Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish» tushunchasi va asoslari..... 274
- 18.2. Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish va uni rasmiylashtirishning protsessual tartibi.....276

**19-BOB. MURDANI EKSGUMATSIYA QILISHNING
PROTSESSUAL TARTIBI**

- 19.1. «Murdani eks gumatsiya qilish» tushunchasi va asoslari.....283
- 19.2. Murdani eks gumatsiya qilishning protsessual tartibi.....284
- 19.3. Murdani eks gumatsiya qilish natijalarini protsessual qayd etish.....286

**20-BOB. TELEFON VA BOSHQA SO‘ZLASHUV QURILMALARI
ORQALI OLIB BORILADIGAN SO‘ZLASHUVLARNI ESHITIB
TURISH**

- 20.1. «Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish» tushunchasi, asoslari va tartibi..... 296

20.2. Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....	298
--	-----

**21-BOB. NARSALAR VA HUJJATLARNI TAQDIM QILISH
JARAYONIDA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

21.1. «Narsalar va hujjatlarni taqdim qilish» tushunchasi va turlari.....	301
21.2. Narsa va hujjatlarni taqdim qilish natijalarini protsessual rasmiylashtirish.....	305

**22-BOB. JINOYAT ISHIDA GUMON QILINUVCHI TARIQASIDA ISHTIROK
ETISHGA JALB QILISH**

22.1. Gumon qilinuvchining protsessual maqomi.....	309
22.2. Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish asoslari va tartibi.....	312
22.3. Gumon qilinuvchini so‘roq qilish.....	314

**23-BOB. SHAXSNI JINOYAT ISHIDA AYBLANUVCHI TARIQASIDA
ISHTIROK ETISHGA JALB ETISH VA UNI SO‘ROQ QILISH
BOSQICHIDA TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

23.1. Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etishning qonuniyligi va asoslanganligini ta’minlash.....	321
23.2. Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etishning protsessual tartibi. Ayblovni o‘zgartirish va tugatish.....	323
23.3. Ayblanuvchini so‘roq qilishning xususiyatlari.....	324
23.4. Himoyachini taklif etish, tayinlash va almashtirishning protsessual xususiyatlari.....	331

**24-BOB. DASTLABKI TERGOV ORGANLARI TOMONIDAN PROTSESSUAL
MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLANILISHINI PROTSESSUAL
RASMIYLASHTIRISH**

24.1. «Protsessual majburlov choralari»ning tushunchasi va turlari.....	337
24.2. Ushlab turish protsessual majburlov chorasini qo‘llash asoslari va protsessual tartibi.....	339
24.3. Lavozimdan chetlashtirish protsessual majburlov chorasini qo‘llash asoslari va tartibi.....	346
24.4. Majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo‘llash asoslari va protsessual tartibi.....	347
24.5. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish protsessual majburlov chorasini qo‘llash.....	348

**25-BOB. DASTLABKI TERGOVDA EHTIYOT CHORALARINI TANLASH VA
PROTSESSUAL RASMIYLASHTIRISH**

- 25.1. Ehtiyot choralari qo‘llashning protsessual tartibi.....364
25.2. Qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llashning protsessual tartibi.....364
25.3. Boshqa ehtiyot choralari qo‘llashning protsessual tartibi.....283

**26-BOB. DASTLABKI TERGOVNI TO‘XTATISH VA UNI QAYTA TIKLASH
TARTIBI. TERGOVCHI TOMONIDAN TUZILADIGAN PROTSESSUAL
HUJJATLAR**

- 26.1. Dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risidagi qarorning
qonuniyligi va asoslanganligi.....297
26.2. Qidiruv e‘lon qilish va uni protsessual rasmiylashtirish.....297
26.3. Dastlabki tergovni qayta tiklash va uni protsessual rasmiylashtirish.....398

**27-BOB. TERGOVCHINING JINOYATLARNI OLDINI OLISH BO‘YICHA
FAOLIYATI**

- 27.1. Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan
shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida tergovchining taqdimnomasi,
uning turlari va ahamiyati.....403
27.2. Tergovchining taqdimnomaga javob olish bo‘yicha faoliyati.....405

**28-BOB. DASTLABKI TERGOVNI TAMOMLASH MUNOSABATI BILAN
TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR. AYBLOV XULOSASINI TUZISH
VA JINOYAT ISHINI SUDGA YUBORISH**

- 28.1. Manfaatdor shaxslarni ish materiallari bilan tanishtirishning protsessual
tartibi.....408
28.2. Tergovchining ariza va iltimosnomalarini ko‘rib chiqishi.....409
28.3. Ayblov xulosasi, uning ahamiyati va tuzilishi.....410
28.4. Ayblov xulosasini tuzishning texnik usullari.....413
28.5. Ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi bo‘yicha prokuror hal
etadigan masalalar.....414

**29-BOB. JINOYAT ISHINI TUGATISHNING PROTSESSUAL
RASMIYLASHTIRILISHI**

- 29.1. Jinoyat ishini rehabilitatsiya qilish uchun asoslar va ayblilik haqidagi
masalani hal qilmay turib tugatish to‘g‘risidagi qarorning tuzilishi va
mazmuni.....419
29.2. Tergovchining jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida manfaatdor haxslarga
xabar qilishi.....422
29.3. Tugatilgan jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni qayta boshlashning
protsessual tartibi.....423

30-BOB. TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI MASALANI HAL QILISH UCHUN JINOYAT ISHINI SUDGA YUBORISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

- 30.1. Tibbiy yo‘ Sindagi majburlov choralari va ularni qo‘llash asoslari.....425
- 30.2. Tibbiy yo‘ Sindagi majburlov choralari qo‘llash to‘g‘risidagi to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun jinoyat ishini sudga yuborish haqidagi qarorning tuzilishi va mazmuni.....429
- 30.3 Tibbiy yo‘ Sindagi majburlov choralari qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun ishni sudga yuborish to‘g‘risidagi qarorga ilova.....430

31-BOB. DASTLABKI TERGOVDA YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING PROTSESSUAL TARTIBI

- 31.1. «Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish» tushunchasi.....434
- 31.2. Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning protsessual tartibi.....434

32-BOB. DASTLABKI TERGOVDA AMNISTIYA AKTINI QO‘LLASH MUNOSABATI BILAN TUZILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR

- 32.1. Amnistiya aktini qo‘llashning xususiyatlari.....444
- 32.2. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktining qo‘llanilishi tartibi.....446
- 32.3. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani sudga kiritish to‘g‘risidagi masalani prokuror tomonidan ko‘rib chiqish tartibi.....447

33-BOB. DASTLABKI TERGOV ORGANLARINING XORIJIY DAVLATLARNING VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI

- 33.1. Tergovchilarning xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligining tartibi to‘g‘risidagi asosiy qoidalar.....449
- 33.2. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish.....453

34-BOB. JINOYAT ISHI MATERIALLARI RASMIYLASHTIRISH

- 34.1. Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish.....463
- 34.2. Jinoyat ishi materiallarini tartibga keltirish usullari.....465
- 34.3. Jinoyat ishi materiallarini texnik jihatdan tartibga solish.....470

DASTLABKI TERGOV

Darslik

Muharrir **Sarvarbek Qosimov**
Texnik muharrir **Davron Hamidullayev**

Bosishga ruxsat etildi 22.05.2012. Nashriyot hisob tabog‘i 27,2.
Adadi 200 nusxa. Buyurtma Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.